https://journals.uzfi.uz

ISSN 2992-9210(Online)

Fan va ta’lim integratsiyasi

Интеграция науки и образования

Integration of Science and Education

2025_3(4)

ISSN: 2992-9210

Samarqand davlat pedagogika institutining “Fan va ta’lim integratsiyasi” ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan №078803 raqam bilan o‘tkazilgan hamda OAK ning 2024-yil 27-sentabrdagi Rayosatining №361/5 sonli qarori asosida tarix, pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy nashrlar ro‘yxatiga kiritildi.

“Fan va ta’lim integratsiyasi” jurnalining tahrir hay’ati tarkibi

Bosh muharrir: Institut rektori, DSc, professor Negmatova Shaxzoda Shuhratovna
Bosh muharrir o‘rinbosari: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, DSc, dotsent Safarov Akbar Raxmanovich

Muharrir: Raximova Gulbaxor Karshibayevna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mas’ul kotib: PhD, Ismoilov Alisher Sidikovich
Texnik muharrir: Umirov Boboyor Baxtiyor o‘g‘li
Musahhih: Yangiboyev Ilyos Shavkat o‘g‘li

Tahririyat kengashi a’zolari:

07.00.00 - Tarix fanlari
G‘afforov Shokir Safarovich – tarix fanlari doktori, professor;
Saidov Ilxomjon Muxiddinovich – tarix fanlari doktori, professor;
G‘oyibov Bobir Sobirovich – tarix fanlari doktori, professor;
Ergashov Baxtiyor Ergashovich – tarix fanlari doktori, professor;
Rashidova Feruza Shomuxammedova – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

13.00.00 – Pedagogika fanlari
Shadiyev Narzikul – pedagogika fanlari doktori, professor;
Maxmudova Dilfuza Meliyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;
Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich – pedagogika fanlari doktori, professor;
Fayziyev Mirzali Asfandiyorovich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Raximov Nasriddin Namozovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori;
Hamroyeva Feruza Asrorovna - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

19.00.00 – Psixologiya fanlari
Jabborov Azim Meylikulovich – psixologiya fanlari doktori, professor;
Shamsiyev O‘ktam Baxriddinovich – psixologiya fanlari doktori, professor;
Isakova Muazzam Tulkinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsenti;
Butayeva Umida Aliboyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

ISSN: 2992-9210

MUNDARIJA

07.00.00 – Tarix fanlari

Asadova R.B., Ashurova Q.A. Qashqadaryo viloyatidagi bosma ommaviy axborot vositalarining tashkil etilishi va ularning faoliyati tarixi…….. **6-11**
Axmatov A. XX asrning 50 – 70 yillarida Qashqadaryo adabiyoti vakillari ijodida yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi……. **12-15**
Elboyeva Sh. O‘zbekiston olimalarining madaniyat va ilm-fan integratsiyasidagi roli: tarixiy tahlil va bugungi tendensiyalar…….. **16-21**
Ergashev U.K. Buxoro amirligi davridagi G‘uzor bekligi tarixining manbashunosligi….. **22-27**
Esanova N. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarining tarixiy rivojlanishi va global integratsiya…….. **28-33**
Hikmatullayeva D.X. O‘zbekiston mustaqillikdan so‘ng haj amaliyotining tiklanishi: huquqiy va tashkiliy mexanizmlar……. **34-38**
Qurbonov A.Sh. Markaziy Osiyoda qadimgi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy integratsiyasi: o‘rta asrlar misolida……... **39-43**
Qurbonova M. O‘zbekiston mustaqillik yillarida til siyosatining milliy o‘zlik va madaniyatni saqlashdagi roli: tarixiy tahlil…… **44-47**
Tagayev G.X. Tarix darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish…….. **48-54**
Tohirov M.B. Jung‘or xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi……. **55-61**
Ziyodov O. Sovet davrida o‘zbek musiqiy san’atida yuz bergan jiddiy o‘zgarishlar va ularning milliy madaniyat rivojiga ta’siri …… **62-66**

13.00.00 – Pedagogika fanlari

Ashurova S.Y. Professional ta’limda modulli ta’lim texnologiyasi: joriy etish muammolari va yechimlari…… **67-72**
Axadova G.S. Pedagogika texnikumlari o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi……... **73-83**
Azamov O.R. Intellektual texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari……. **84-89**
Eshquvvatov I.S. Oliy ta’lim muassasalari talabalarini mustaqil o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish……. **90-94**
Eshquvvatov U.A. Talabalarda muhandislik kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi……. **95-100**
Faxriddinov M.F. Professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotidagi faoliyatini takomillashtirish strategiyasi……. **101-104**
Hakimova M.I., G.Raximova Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari……... **105-110**
Juginisova J.I. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishning didaktik imkoniyatlari……... **111-115**
Jumanov Sh. Ta’lim muassasalari ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimining konvergent xususiyatlari…….. **116-124**
Jurayeva D.J. Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda kommunikativ ko‘nikmalarning ahamiyati……... **125-127**
Karimova A. Scamper texnikasi asosida talabalarda ijodiy va intellektual kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari……. **128-131**
Kurbonova G.U. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalashning didaktik xususiyatlari……. **132-138**
Matniyazov X.K. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning ilmiy faoliyat olib borish parametrlari……... **139-142**

Matyazov D.Sh. Akademik litsey o‘quvchilariga fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish afzalliklari……. **143-149**
Nurmanova D.J. Jamoa bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion-pedagogik asoslari (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari misolida)..... **150-160**
Radjapov A.A. “Yangi O‘zbekiston” yoshlari hayotida ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonining ijtimoiy pedagogik xususiyatlari…….. **161-165**
Radjapov A.A. Umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf musiqa madaniyati darslarining o‘ziga xos xususiyatlari …… **166-171**
Rasulova M.N. O‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirish tuzilmasi, mohiyati va didaktik shart-sharoitlari…… **172-178**
Raximov M., Farhodova G. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlikni rivojlantirishda madaniy meros obyektlarining o‘rni **179-183**
Shavqiyev E.R. Fanlararo uzviylik prinsipi asosida tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish jarayonida talabalarning rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirish…….. **184-190**
Shermanov I.Ch., Jo‘raqulova Sh.T., Olimjonova R. Audiokitoblar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilar bilimini boyitish hamda o‘qish jarayonining samaradorligini oshirishning zamonaviy imkoniyatlari…….. **191-196**
Shodiyev F.T. O‘zbek tilidagi tub so‘zlarning derivasion xususiyatlari……... **197-202**
Sultonova M. Bo‘lajak pedagoglarda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari..... **203-210**
Suvanova G.B. Uyushmagan yoshlarda qadriyatli yondashuv asosida agressiv xulq atvor profilaktikasini amalga oshirishning pedagogik mexanizmlari…… **211-215**
Xamidova D.J. O‘qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari…… **216-220**
Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rgatish metodikasi……. **221-229**
Xasanov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning zamonaviy didaktik-metodik sharoitlari…… **230-235**
Xasanov A.A., Baxtiyorova B. Talabalar o‘rtasida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish….. **236-240**
Xasanova G.K. Zamonaviy boshqaruvda rahbarlik kompetensiyalarining o‘rni va ahamiyati……... **241-247**
Xaydarov Z.X., Farxodova G.M.,. Matlabov Z., Mardonov J. Laplas almashtirishi yordamida qatorlar yig‘indisini hisoblash..... **248-254**
Xodjamberdiyev M.S. Oliy ta’lim tabiiy aniq fanlar tizimida steam ta’lim texnologiyasi asosida kasbga yo‘naltirishning pedagogik asoslari…….. **255-259**
Xoliqov Q.T., Qayumova K.A., Mamatova Sh.A. Fanlararo aloqalarning steam yondashuvidagi o‘rni: nazariy tahlil va amaliy yo‘l xaritasi…….. **260-270**
Xudoykulov J.N. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini o‘qitishda tarbiya uzviyligini ta’minlashning didaktik imkoniyatlari…….. **271-275**
Yuldasheva S.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida)……. **276-281**
Yusupov E.X. Raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishga oid tarixiy tajribalar va ustuvor an’analar……... **282-284**
Yusupov E.X. Raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari……. **285-288**
Zayniyeva N.B. Information and communication technologies and the concept of information competence…… **289-292**
Zayniyeva N.B. The role of information competence in preparing future foreign language teachers……. **293-296**

ISSN: 2992-9210

Баротова Ш.Б., Гусейнова Н.Д. Метод обучения Anji play как развивающий толчок развития образования……. **297-304**
Мирзаев О., Бахрамова М.Г., Равшанова Н., Тошмуродова С.Т. Решение систем уравнений с помощью результанта……... **305-309**
Hasanova S.N. Pedagogical opportunities for developing tolerance qualities in future teachers in the process of pilgrimage tourism…… **310-313**

19.00.00 – Psixologiya fanlari

Radjabov A.A. Stress oqibatlarini bartaraf etishning psixokorreksion dasturi… **314-318**
Jumaniyazova Z.K. Talabalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik usullari…… **319-322**
Qo‘ziyeva M.F. Rasmli hikoyalarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati……... **323-329**

ISSN: 2992-9210

07.00.00 – TARIX FANLARI

QASHQADARYO VILOYATIDAGI BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING FAOLIYATI TARIXI

ИСТОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕЧАТНЫХ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

THE HISTORY OF THE ESTABLISHMENT AND ACTIVITIES OF PRINT MEDIA IN THE KASHKADARYA REGION

Asadova Ra’no Baymanovna, Ashurova Qunduz Abduxoliq qizi

Asadova R.B.,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi
ranoasadova66@gmail.com

Ashurova Q.A.,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti.
ashurovaq77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi bosma ommaviy axborot vositalarining shakllanish jarayoni, ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda bugungi kundagi faoliyati tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so‘ng mintaqadagi matbuotning erkinlashuvi, yangi tahririyatlarning paydo bo‘lishi va axborot texnologiyalarining joriy etilishi natijasida ro‘y bergan o‘zgarishlar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, maqolada Qashqadaryo matbuoti jamiyat hayotida tutgan o‘rni va uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *Qashqadaryo viloyati, bosma OAV, matbuot tarixi, tahririyat, axborot, jurnalistika, rivojlanish.*

Аннотация. В статье рассматриваются процесс формирования печатных средств массовой информации Кашкадарьинской области, этапы их исторического развития и современная деятельность. Особое внимание уделено изменениям, произошедшим после обретения независимости, таким как либерализация прессы, появление новых редакций и внедрение информационных технологий. Также анализируется роль кашкадарьинской прессы в общественной жизни и её влияние на социально-политические процессы региона.

Ключевые слова: *Кашкадарьинская область, печатные СМИ, история прессы, редакция, информация, журналистика, развитие.*

Annatation. This article examines the formation process of print media in the Kashkadarya region, their historical development stages, and current activities. It highlights the transformations that occurred after Uzbekistan’s independence, including press liberalization, the emergence of new editorial offices, and the adoption of information technologies. The study also explores the role of the Kashkadarya press in social life and its impact on the region’s socio-political processes.

Keywords: *Kashkadarya region, print media, press history, editorial office, information, journalism, development.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi mamlakatda demokratiya, ochiqlik va so‘z erkinligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududiy matbuotning shakllanishi va rivoji jamiyatning madaniy, ma’naviy hamda ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatidagi bosma ommaviy axborot vositalarining tashkil etilishi va ularning faoliyat tarixi o‘ziga xos jarayonlarni aks ettiradi.

ISSN: 2992-9210

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning janubiy hududlaridan biri bo‘lib, o‘z tarixiy, madaniy va iqtisodiy salohiyati bilan ajralib turadi. Bu hududda bosma OAVning paydo bo‘lishi XX asr boshlariga borib taqaladi. O‘sha davrdan boshlab, viloyatda mahalliy gazetalar va jurnallar shakllanib, ularning faoliyati mintaqaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

1. Dastlabki bosqich: Sovet davrida bosma OAVning shakllanishi. Qashqadaryo viloyatida bosma OAVning ilk namunalari XX asrning 30–40-yillarida paydo bo‘lgan. Bu davrda viloyat gazetalari asosan targ‘ibot-tashviqot vositasi sifatida faoliyat yuritgan. “Qashqadaryo haqiqati”, “Koson ovozi”, “Dehqon hayoti” kabi nashrlar aholiga siyosiy, iqtisodiy va madaniy yangiliklarni yetkazishda muhim o‘rin tutgan. Gazetalarning asosiy vazifasi sovet mafkurasini targ‘ib qilish, xalqni mehnatga da’vat etish va siyosiy xabardorlikni oshirishdan iborat bo‘lgan.

2. Mustaqillikdan keyingi davr: Matbuot erkinligi va yangilanish. 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, axborot sohasida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Cenzura bekor qilinishi, nodavlat OAVlarning tashkil topishi hamda yangi axborot siyosatining shakllanishi Qashqadaryo viloyatidagi bosma nashrlar uchun ham yangi imkoniyatlar ochdi. “Qashqadaryo”, “Nasaf”, “Kitob tongi”, “Shahrisabz hayoti” kabi gazeta va jurnallar yangicha ruhda faoliyat yurita boshladi. Ularning sahifalarida ijtimoiy muammolar, madaniyat, ta’lim, iqtisodiyot va siyosat masalalari keng yoritila boshlandi.

3. Zamonaviy bosqich: Axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya. So‘nggi yillarda global axborot maydonining kengayishi natijasida Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlar ham raqamli formatga o‘tish jarayonini boshladi. Ko‘plab tahririyatlar o‘z veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yo‘lga qo‘yib, o‘quvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytirmoqda. Bu jarayon nafaqat axborot tezligini oshirdi, balki jurnalistik uslublarning yangilanishiga, multimedia materiallarining paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, bosma OAV o‘zining an’anaviy ahamiyatini saqlab qolgan holda, zamonaviy raqamli jurnalistika bilan uyg‘unlashmoqda.

4. Muammolar va istiqbollar. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAV oldida bir qator muammolar mavjud: moliyaviy barqarorlik, kadrlar salohiyati, auditoriya e’tiborini saqlab qolish va raqamli axborot vositalari bilan raqobat qilish kabi. Shu bilan birga, davlatning axborot siyosatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlari natijasida, mahalliy matbuot uchun yangi imkoniyatlar ham yaratilmoqda. Kelajakda bosma OAVlarning barqaror rivojlanishi ularning innovatsion yondashuvlari, professional kadrlar tayyorlash va o‘quvchi ishonchini mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Qashqadaryo viloyatidagi bosma ommaviy axborot vositalarining tarixi – bu mintaqaning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab va boy jarayondir. Ular turli davrlarda turli funksiyalarni bajargan bo‘lsa-da, doimo xalqni axborot bilan ta’minlash, ma’naviy birlikni mustahkamlash va milliy g‘oya targ‘ibotida muhim o‘rin egallab kelgan.Bugungi kunda bosma OAVlar raqamli axborot makonida o‘z o‘rnini topish, yangicha formatlarda faoliyat yuritish va jamoatchilik ishonchini saqlab qolish yo‘lida izlanishlar olib bormoqda. Shunday ekan, ularning tarixi nafaqat o‘tmishni, balki kelajak istiqbollarini ham o‘zida mujassam etadi.

Bosma ommaviy axborot vositalari (OAV)ning tashkil etilishi va faoliyat tarixi masalalari O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarida keng yoritilgan. Shu jumladan, respublika miqyosida jurnalistika taraqqiyoti, matbuot erkinligi va hududiy axborot tizimlarining rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud. Biroq, Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlarning alohida tarixiy tahlili nisbatan kam o‘rganilgan. Quyida ushbu yo‘nalishdagi asosiy manbalar tahlil qilinadi.

1. O‘zbekiston matbuoti tarixi bo‘yicha umumiy tadqiqotlar. O‘zbekiston matbuoti va jurnalistikasi rivojlanishiga oid ilk ilmiy ishlar asosan mustaqillikdan keyingi yillarda shakllangan.

ISSN: 2992-9210

Masalan, M. Qo‘chqorov va N. Jo‘rayevlarning “O‘zbekiston matbuoti tarixi” (2002) nomli asarlarida respublika matbuotining bosqichma-bosqich rivojlanishi, tahririyatlar faoliyati, siyosiy omillar ta’siri ilmiy asosda yoritilgan.S. Karimovning “Ommaviy axborot vositalari va jamiyat” (2010) asarida esa OAVning jamiyat hayotidagi roli, so‘z erkinligi va axborot siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Bu manbalar Qashqadaryo viloyati misolida olib boriladigan tadqiqot uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Hududiy matbuot va mahalliy jurnalistika masalalari. Hududiy OAVning o‘rni haqida Z. Abdug‘afforovaning “O‘zbekiston viloyatlarida hududiy matbuotning shakllanishi” (2015) nomli tadqiqoti muhim manba hisoblanadi. Unda har bir viloyatda, jumladan, Qashqadaryoda bosma nashrlarning paydo bo‘lish jarayonlari, ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O. Usmonova va B. Sattorovlarning “Mahalliy jurnalistika va ijtimoiy faollik” (2018) asarida hududiy tahririyatlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji va raqamli ommaviy axborot vositalariga moslashuv jarayonlari o‘rganilgan.

Bu manbalar Qashqadaryo viloyati matbuotining shakllanishi, uning ijtimoiy funksiyalari va zamonaviy o‘zgarishlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos yaratadi.

3. Qashqadaryo viloyati bo‘yicha maxsus tadqiqotlar. Alohida ilmiy ishlar orasida H. Abdullayevning “Qashqadaryo matbuoti tarixidan lavhalar” (2008) nomli maqolasi alohida ahamiyatga ega. Unda “Qashqadaryo haqiqati”, “Nasaf”, “Kitob tongi” kabi gazetalarning tarixiy taraqqiyot bosqichlari, tahririyat faoliyatining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, Sh. Murodovning “Qashqadaryo viloyatida axborot sohasining rivoji” (2020) tadqiqotida viloyatda mustaqillikdan so‘nggi yillarda OAV tizimining modernizatsiyasi, yangi axborot vositalarining paydo bo‘lishi va ularning jamiyatga ta’siri tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar lokal (hududiy) darajada ma’lumot berish bilan birga, umumiy tarixiy jarayonlar bilan uyg‘unlikda o‘rganish imkonini yaratadi.

4. Chet el olimlarining yondashuvlari. Jahon jurnalistikasi bo‘yicha tadqiqotlarda hududiy matbuotning ahamiyati alohida o‘rganilgan. D. McQuailning “Mass Communication Theory” (2011) asarida OAVning ijtimoiy tizimdagi roli, axborot oqimlari va mintaqaviy kommunikatsiya jarayonlari tahlil qilingan.M. Castellsning “The Network Society” (2009) asarida esa axborot jamiyati va raqamli tarmoqlar ta’sirida bosma matbuotning o‘zgarish mexanizmlari yoritiladi. Bu nazariy yondashuvlar Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVning raqamli transformatsiyasini o‘rganishda foydalidir.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

1. O‘zbekiston matbuotining umumiy tarixiga oid ishlar ko‘p, ammo Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVning mahalliy xususiyatlari yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

2. Mustaqillikdan so‘nggi davrda hududiy matbuotning erkinlashuvi va modernizatsiyasi haqida ilmiy maqolalar mavjud, biroq raqamli media bilan integratsiya jarayoni kam tahlil qilingan.

3. Chet el olimlarining nazariy ishlari O‘zbekiston sharoitida amaliy tadqiqotlar bilan uyg‘unlashtirilganda, yangi ilmiy natijalarga erishish mumkin.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlar tarixi O‘zbekiston matbuot tizimining ajralmas qismi sifatida o‘rganilishi zarur. Bu yo‘nalishda kompleks tadqiqot olib borish, mahalliy matbuotning ijtimoiy-siyosiy roli, raqamli transformatsiya jarayonlari va axborot siyosati bilan bog‘liqligini chuqur tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari taraqqiyoti mustaqillik yillarida sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Milliy matbuot jamiyat hayotining barcha jabhalarini yoritishda, ijtimoiy faollikni oshirishda va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. M. Qo‘chqorov va N. Jo‘rayev fikricha, “matbuotning shakllanishi har bir davr siyosiy va ijtimoiy muhitining bevosita

ISSN: 2992-9210

mahsulidir” [1, 45-b.]. Shu jihatdan, Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlar tarixi mintaqaning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston matbuoti tarixida hududiy nashrlar har doim axborot tarqatishning asosiy manbasi bo‘lib kelgan. Z. Abdug‘afforova qayd etganidek, “viloyat gazetalari nafaqat siyosiy axborot vositasi, balki xalq bilan davlat o‘rtasidagi kommunikatsion ko‘prik vazifasini bajargan” [3, 67-b.].

Qashqadaryo viloyatida bosma OAVlarning ilk namunalari XX asrning 30–40-yillarida shakllangan bo‘lib, ular asosan siyosiy targ‘ibot va iqtisodiy ko‘rsatmalarni xalq orasida yoyish bilan shug‘ullangan. H. Abdullayev o‘z tadqiqotida “Qashqadaryo haqiqati”, “Koson ovozi” kabi gazetalarning faoliyati haqida ma’lumot berib, ularni “hududdagi ijtimoiy fikr shakllanishining dastlabki manbai” deb baholaydi [5, 57-b.].

Mustaqillik yillarida bosma OAVlar faoliyatida sifat jihatdan yangi bosqich boshlandi. S. Karimovning ta’kidlashicha, “O‘zbekiston matbuoti 1990-yillarda mafkuraviy cheklovlardan ozod bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy masalalarni ochiq yoritish imkoniyatiga ega bo‘ldi” [2, 101-b.].

Bu davrda Qashqadaryo viloyatida “Nasaf”, “Kitob tongi”, “Shahrisabz hayoti” kabi gazetalarning nashri yo‘lga qo‘yildi. Sh. Murodov o‘z maqolasida ushbu nashrlar “mahalliy iqtisodiy rivojlanish, madaniy hayot va ijtimoiy muammolarni yoritishdagi yetakchi platformalardan biri bo‘lganini” ta’kidlaydi [6, 80-b.].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-dekabrdagi PQ-4063-son qarorida OAVni rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi [10]. Bu hujjat mahalliy tahririyatlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning mustaqil rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘ldi.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab O‘zbekiston matbuoti raqamli kommunikatsiya tizimlariga faol kirib bordi. G. Rahmatullayeva bu jarayonni “hududiy OAVlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchi bilan onlayn muloqotni kuchaytirish davri” deb ataydi [11, 93-b.].

Qashqadaryo viloyatidagi gazeta va jurnallar ham o‘z internet sahifalarini yaratib, onlayn formatda faoliyat yuritishni yo‘lga qo‘ygan. D. Kadyrova fikricha, “bosma va raqamli matbuotning integratsiyasi — bu nafaqat texnologik o‘zgarish, balki axborot yetkazish madaniyatining yangilanishidir” [14, 48-b.].

Bunday o‘zgarishlar nafaqat texnik modernizatsiya, balki kontent yaratish tamoyillarining ham yangilanishiga olib keldi. U. Islomov bu jarayonni “axborot siyosati va jurnalistika madaniyati uyg‘unlashuvining yangi bosqichi” sifatida baholaydi [15, 127-b.].

Jahon ilmida ham mahalliy matbuotning kommunikatsion roli chuqur o‘rganilgan. D. McQuailning fikricha, “ommaviy kommunikatsiya tizimi har bir hududning ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qadriyatlari bilan uyg‘unlikda shakllanadi” [8, 52-p.].

M. Castells esa global axborot tarmoqlari ta’sirida “an’anaviy matbuot yangi ijtimoiy tarmoq jamiyatiga moslashayotgan murakkab jarayonni boshdan kechirmoqda” deb ta’kidlaydi [9, 114-p.]. Bu yondashuv Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVning raqamli transformatsiyasini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘la oladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Qashqadaryo viloyatidagi bosma ommaviy axborot vositalari O‘zbekiston matbuot tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ularning rivojlanish tarixi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

XX asr o‘rtalaridagi targ‘ibot nashrlaridan boshlab, mustaqillik davrida erkin jurnalistikaga, hozirda esa raqamli media platformalarga o‘tish jarayoni viloyat matbuotining dinamik rivojlanishini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, mahalliy matbuotning kuchli jihati — uning hududiy xususiyatlarni chuqur yoritish va xalq bilan bevosita aloqa o‘rnatish qobiliyatidadir [3; 6; 11].

ISSN: 2992-9210

1. Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlarning shakllanishi XX asrning 30–40-yillarida boshlangan bo‘lib, dastlab ular asosan siyosiy-targ‘ibot vazifasini bajargan. Shu davrda vujudga kelgan “Qashqadaryo haqiqati” va “Koson ovozi” kabi nashrlar viloyat axborot makonining poydevorini yaratgan.

2. Sovet davrida matbuot davlat nazoratida bo‘lgan, biroq shu sharoitda ham hududiy OAVlar xalqni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilishda muhim rol o‘ynagan. Ular orqali mehnat, madaniyat va ta’lim sohalaridagi yangiliklar tarqatilgan.

3. Mustaqillik yillarida bosma OAVlar erkinlik va yangilanish bosqichiga kirdi. Tahririyatlar tarkibida mustaqil jurnalistlar shakllandi, ijtimoiy muammolarni erkin yoritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Mahalliy gazeta va jurnallar aholining siyosiy faolligini oshirishga xizmat qildi.

4. So‘nggi yillarda Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlar raqamli axborot texnologiyalarini faol joriy etmoqda. Gazetalar o‘z veb-saytlari, Telegram va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali onlayn o‘quvchilar auditoriyasini shakllantirgan. Bu jarayon bosma va raqamli matbuotning o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlamoqda.

5. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy matbuot O‘zbekiston axborot tizimining tarkibiy qismi sifatida nafaqat tarixiy, balki madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Qashqadaryo OAVlari mintaqaviy identitetni shakllantirish, ma’naviy birlikni mustahkamlash va axborot xabardorligini oshirishda muhim omil bo‘lib kelgan.

6. Nazariy jihatdan, bu tadqiqot D. McQuail va M. Castells kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan kommunikatsion va tarmoq jamiyati nazariyalari bilan uyg‘unlashadi. Qashqadaryo matbuoti misolida mahalliy OAVlarning global media tizimiga moslashish jarayoni kuzatilmoqda.

Tadqiqot mavzusi yuzasida quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi

1. Hududiy matbuot tarixi bo‘yicha kompleks tadqiqotlar yaratish.

Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlarning shakllanishi, rivoji va raqamli transformatsiyasini o‘z ichiga olgan monografiya yoki ilmiy to‘plam tayyorlash zarur. Bu ilmiy merosni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

2. Viloyat tahririyatlari faoliyatini modernizatsiya qilish.

Raqamli media infratuzilmasini kuchaytirish, onlayn axborot platformalarini rivojlantirish va jurnalistlarni zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tayyorlash muhim.

3. Bosma OAVlarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Mahalliy nashrlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun davlat grantlari, reklama bozoriga kirish imkoniyatlari va xususiy homiylik mexanizmlarini kengaytirish lozim.

4. Jurnalistlar malakasini oshirish dasturlarini joriy etish.

Hududiy tahririyatlarda ishlovchi jurnalistlar uchun soha bo‘yicha malaka oshirish kurslari, treninglar va amaliy seminarlarga ehtiyoj yuqori.

5. Ilmiy hamkorlik va arxivlashtirish ishlari.

Qashqadaryo viloyatidagi matbuot tarixiga oid arxiv materiallari, fotosuratlar va hujjatlarni raqamlashtirib, OAV tarixiy markazi yoki elektron kutubxona shaklida saqlash maqsadga muvofiq.

6. Mahalliy matbuotning yosh auditoriyaga yo‘naltirilgan kontentini kengaytirish.

Zamonaviy o‘quvchi e’tiborini jalb etish uchun bosma nashrlarda yoshlar mavzusi, ekologiya, innovatsiyalar va ta’lim masalalariga bag‘ishlangan maxsus ruknlar joriy etilishi kerak.

7. Ommaviy axborot vositalari monitoringini yo‘lga qo‘yish.

Viloyatdagi bosma va onlayn OAVlar faoliyati muntazam tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi ta’siri va o‘quvchi ishonch darajasi o‘rganilishi kerak.

ISSN: 2992-9210

Qashqadaryo viloyatidagi bosma OAVlarning tarixi — bu nafaqat jurnalistika rivoji tarixi, balki butun mintaqaning ma’naviy o‘sish yo‘lidir. Bugungi kunda bu nashrlar raqamli media maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlab borayotgani bilan birga, an’anaviy axborot madaniyatini ham saqlab qolmoqda. Shunday ekan, ilmiy yondashuvlar, davlat qo‘llovi va jurnalistik innovatsiyalar uyg‘unligi viloyat matbuotining kelgusi istiqbolini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘chqorov M., Jo‘rayev N. O‘zbekiston matbuoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2002. – 256 b.

2. Karimov S. Ommaviy axborot vositalari va jamiyat. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2010. – 188 b.

3. Abdug‘afforova Z. O‘zbekiston viloyatlarida hududiy matbuotning shakllanishi. – Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2015. – 212 b.

4. Usmonova O., Sattorov B. Mahalliy jurnalistika va ijtimoiy faollik. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018. – 176 b.

5. Abdullayev H. Qashqadaryo matbuoti tarixidan lavhalar. // “Jurnalistika va zamon” ilmiy to‘plami. – Toshkent: O‘zDJTU, 2008. – №2. – 56–63-betlar.

6. Murodov Sh. Qashqadaryo viloyatida axborot sohasining rivoji. // “Axborot va jamiyat” jurnali. – 2020. – №4. – 78–85-betlar.

7. To‘xtayev D. O‘zbekiston OAV tizimi: tarix va zamonaviylik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi nashriyoti, 2016. – 230 b.

8. McQuail D. Mass Communication Theory. – 6th edition. – London: Sage Publications, 2011. – 428 p.

9. Castells M. The Network Society: A Cross-cultural Perspective. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2009. – 436 p.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – PQ-4063-son. – 2019-yil 26-dekabr. – www.lex.uz

11. Rahmatullayeva G. Hududiy OAVlarda raqamli transformatsiya jarayonlari. // “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya” ilmiy jurnali. – 2022. – №1. – 92–98-betlar.

12. Shodmonov A. O‘zbekiston matbuoti rivojida viloyat gazetalarning o‘rni. – Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2017. – 154 b.

13. Nasriddinov A. Axborot siyosati va jurnalistika madaniyati. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2019. – 196 b.

14. Kadyrova D. Bosma va raqamli matbuotning integratsiyalashuvi. // “Media va kommunikatsiyalar” jurnali. – 2021. – №3. – 47–54-betlar.

15. Islomov U. Ommaviy axborot vositalari: tarix, tahlil va istiqbol. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2020. – 208 b.

ISSN: 2992-9210

XX ASRNING 50 – 70 YILLARIDA QASHQADARYO ADABIYOTI VAKILLARI IJODIDA YOZUVCHILAR UYUSHMASI VILOYAT BO‘LIMI

РЕГИОНАЛЬНОЕ ОТДЕЛЕНИЕ СОЮЗА ПИСАТЕЛЕЙ О ТВОРЧЕСТВЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ КАСКАДАРЬИНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В 50-Е - 70-Е ГОДЫ XX ВЕКА

REGIONAL DEPARTMENT OF THE UNION OF WRITERS ON THE CREATION OF REPRESENTATIVES OF KASKADARYA LITERATURE IN THE 50S - 70S OF THE 20TH CENTURY

Axmatov Abdulla

Axmatov A.,
Qarshi davlat universiteti doktoranti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Qarshi
abdulla19932808@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo adabiyoti vakillari ijodida yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limida faoliyat olib borgan adabiyot va san`at vakillari yashab ijodi. Ularning asosiy qismi O‘zbekistonning janubiy viloyatlari bo‘lmish Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida istiqomat qilishadi. Ana shu nuqtai-nazardan ham Qashqadaryoda adabiyot vakillari ijodi tarixini o‘rganish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Qashqadaryo hayotida sovet davrida ijod qilgan taraqqiyot yo‘lining qonuniyatlarini aniqlab olish uchun eng avvalo unga xos bo‘lgan umumiy jarayonlarni tarixiylik nuqtai-nazardan ko‘zdan kechirmoq lozim.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Qashqadaryo, Surxandaryo, N. Narzullayev, X.Lutfullayeva, G.Berdiyev, Qodir baxshi Rahimov, Saodat Toji, Ikrom Otamurodov, Normurod Narzullayev,adabiyot,sheriyat, tarjima,ocherk, qissa.*

Аннотация. В данной статье представители литературы и искусства, работавшие в региональном отделении Союза писателей, живут и работают в творчестве кашкадарьинских литературоведов. Большинство из них проживает в оазисах Кашкадарьи и Сурхандарьи, которые являются южными регионами Узбекистана. С этой точки зрения чрезвычайно важно изучение истории литературного творчества Кашкадарьи. Поэтому, чтобы определить закономерности пути развития, сложившиеся в жизни Кашкадарьи в советский период, необходимо рассмотреть общие процессы, характерные для нее, с исторической точки зрения.

Ключевые слова: *Узбекистан, Кашкадарья, Сурхандарьинская область,Н. Нарзуллаев, Х. Лутфуллаева, Г. Бердыев, Кадир Бахши Рагимов, Саодат Таджи, Икрам Отамуродов, Нормурод Нарзуллаев, литература, шариат, перевод, очерк, рассказ.*

Annatation. In this article, representatives of literature and art who worked in the regional branch of the Writers' Union

ISSN: 2992-9210

live and work in the work of Kashkadarya literature representatives. Most of them live in the oases of Kashkadarya and Surkhandarya, which are the southern regions of Uzbekistan. From this point of view, it is extremely important to study the history of literary works of Kashkadarya. Therefore, in order to determine the laws of the path of development created in the life of Kashkadarya during the Soviet period, it is necessary to examine the general processes characteristic of it from the historical point of view.

Keywords: *Uzbekistan, Kashkadarya, Surkhandarya, N. Narzullayev, H.Lutfullayeva, G.Berdiyev, Kadir Bakhshi Rahimov, Saodat Taji, Ikram Otamurodov, Normurod Narzullayev, literature, sharia, translation, essay, short story.*

Kirish. XX asrning 70-yillariga kelib o‘zbek adabiyotida sharoit o‘zgarib, boshqa sohalar qatori turg‘unlik davri boshlandi. Ijodiy erkinlik yana ta’qib etila boshlandi. 70-yillarda Qashqadaryodan N. Narzullaev, Xosiyat Lutfullaeva, Geldi Berdiev, Qodir baxshi Rahimov, Saodat Toji, Ikrom Otamuradov va boshqa yozuvchi va shoirlar ijod qildi. Ularning ijodida ham yuqoridagi holat kuzatiladi.

Geldi Berdiev o‘zining ilk ijod namunasi “Birincha qor” kitobini 70-yillarda kitobxonlarga taqdim etdi. Uning bu asari Qashqadaryo adabiy muhitida yangilik sifatida qabul qilinib, keyinchalik butun Uzbekistonga tarqaldi. Geldi Berdev istiqloldan ancha avval, hozirgi davr ruhini she’rlarida ifoda eta olgan. Uning “Muloqot” she’rida uzbek xalqining asrlar osha orzusi bulib kelgan mustaqillikka intilish, uz qadriyatlarini tiklash yulidagi orzu-intlishlari tasvirlanadi. “Bobotog‘” she’rida yuqoridagi fikrlar davom ettiriladi. U Qashqadaryo adabiy muhitiga birinchi marta g‘arb va rus klassik she’riyati badiiy uslublarini olib kiradi. Shoirning “Do‘st uyida isitma tutsa”, “Qaytmas yoshligimning qo‘ynida qolgan”, “Qo‘lingni ber”, “O‘tdek yonib kelding, muz bo‘lib ketding”, “O‘zi tutgan mayni ichirma” she’rlari shular jumlasidandir [1; arxiv ma`lumotlari].

Qashqadaryo adabiy muhitda adiba Xosiyat Lutfullaevaning ham o‘z o‘rni bor. U O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi edi. Adibaning “Tutash taqdirlar”, “Jumgul”, “Qaysar qiz”, “Ayollar”, “Vijdon va non” kabi asarlari bo‘lib, ular keng kitobxonlar tomonidan yuqori baholangan [2; –29 – 32-betlar].

Qashqadaryolik Sharofjon Orifiy o‘z hayoti davomida kuplab asarlarni yozib nashr ettiradi. U uz ijodini Ikkinchi jahon urushi yillarida boshladi. XX asrning 70-yillarida uning “Shalola” (1970), “Nay sadosi” (1976), “Qatra qon” (1987) kabi she’riy tuplamlari nashr etildi. Shuningdek, u filologiya sohasida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib boradi. Uning ilmiy qarashlari “Badiiy adabiyotining liro epik janri va uni maktabda urganish”, “9 – 10 sinflarda liro epik asarlarni urganish”, (1967), “Badiiy adabiyotda guzallikning ifodalanishi” (1971) kabi asarlarida tula uz aksini topadi [3; – 14 b.].

Uning “Qatra qon” ocherk – qissasida urushda ishtirok etgan 50 dan ortiq Qashqadaryolik jangchilar haqida hikoya qiladi. Ocherkda Shodi Shoimov, Xolmat Malikov, Muxlisa Xatmullina, Raisa Mustaqimova, Istat Boqiev, Olim Haydarov kabi qaxramonlar haqida ma’lumot beradi.

Qashqadaryo vohasida bu davrda Amir Hudoyberdiev, Nazar eshonqulov, Chori Avaz, Ne’mat Arslonov, Ismoil Tuxtamishov, Xolmamat Hasanov, Temirpulat Tillaev, Zebo Mirzaeva, Zebo Rahimova, Sharofat Ashurova, Yusuf Berdiev kabi yozuvchiyu-shoirlar yangi-yangi asarlar yaratdi. Chori Avaz, Zebo Rahimova, Amir Xudoyberdiev, Ismoil Tuxtamishov nazmda sermahsul ijod etgan bulsa,N.Eshonqulov,N.Tilovlar nasr sohasida asarlar yaratib, voqelikni xaqqoniy yoritishga harakat qiladi [4; www.ziyouz.uz].

ISSN: 2992-9210

Chori Avaz 1957 yil 11 dekabrda Qashkadaryo viloyatining G‘uzor tumanida tug‘ilgan. ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan (1985). «Hayotiylik chog‘ida», «Tortilgan kamon», «Uyg‘onishdan o‘zga tole izlama», «Kuz ertasi» (1992), «Saylanma» (2003) kabi asarlari nashr etilgan. Fin eposi «Kalevala»ni hamda I.Takuboku, R. Akutagava va boshqa shoirlarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 1992 yil 29 noyabrda Toshkent shahrida vafot etgan [5; www.ziyouz.uz].

XX asrning 60-yillarida Qashqadaryo adabiy muhiti yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan bu davrda Hosiyat Lutfullaeva, Geldi Berdiev, Tesha Saydaliev, Chorsha baxshi, Qodir baxshi, Mardonaqul baxshi, Saodat Toji, Mengziyo Safarov, Nor Hayit, Shafoat Rahmatullo Termiziy hamda Bolta Yorievlar adabiyot maydoniga kirib keldi [6; – 66 b].

Normurod Narzullaev (Narziy) 1934 yilning 7 iyulida Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi Xo‘jahayron qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keldi. U yetti yillik ma’lumotni o‘z qishlog‘idagi maktabda oldi. 1948 yilda Oxunboboev nomli Qarshi pedagogika bilim yurtiga kirib o‘qidi. 1956 yilda Samarqand Davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini intiyozli diplom bilan bitirdi [7; – 66 b].

Mehnat faoliyatini 1956 yildan boshladi. “Lenin yo‘li” – hozirgi “Zarafshon” (Samarqand), “Qashqadaryo haqiqati” (Qarshi) viloyat gazetalarida musaxxix, adabiy xodim, bo‘lim mudiri va ma’sul kotib vazifalarida ishladi. 1968 – 1969 yillarda Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat universitetining o‘zbek adabiyoti kafedrasi aspiranturasida o‘qidi.

Normurod Narzullaev 1969 – 1974 yillarda Samarqand va Toshkentda mas’ul lavozimlarda xizmat qildi. 1974 yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari etib saylandi. 1976 – 1981 yillarda mazkur uyushmada kotib vazifasini ado etdi.

Shoir 1981 yil «Yosh gvardiya» nashriyotiga bosh muxarrir etib tasdiqlandi. 1991 – 1996 yillarda O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi “Kamalak” nashriyot-matbaa birlashmasining bosh muharriri, 1996 – 1997 yillarda esa shu nashriyot direktori vazifalarini bajardi. Normurod Narzullaev 1997 yildan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasi yoshlar “Kamolat” jamg‘armasining “Qatortol – Kamolot” ishlab chiqarish-nashriyot korxonasida bosh maslahatchi lavozimida ishladi.

Normurod Narzullaevning ijodiy faoliyati 1954 yildan boshlangan. Shu yillarda vaqtli matbuot sahifalarida uning ilk she’rlari bosilgan. Oradan o‘n yil o‘tgach, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida shoirning ilk she’riy to‘plami – “Suyunchi“ 1965 yil bosilib chiqqan. Bugunga qadar shoirning o‘ttizga yaqin kitoblari chop etilgan. Shoir “Sizni Vatan erkalar” 1966 yil , “Mehr chashmasi” 1970 yil, “Zarafshon zarlari” 1970 yil, “Ufqlarda ko‘zlarim” 1973 yil, “Yog‘du” 1974 yil, “Nigohlar” 1976 yil, “Lahza va larza” 1973 yil, “Sevgi sehri” 1981 yil, “Oq samanim” 1982 yil, “Tong elchisi” 1984 yil, ikki jildli “Saylanma” 1984-1985 yillar, “Shamolni ushlagan bola” 1985 yil, “Yaxshilik deb yashayman” 1987 yil, “Aniq vaqt” 1989 yil, “Bosh maydon” 1991 yil to‘plamlarning muallifidir.

So‘nggi yillarda shoirning qator she’riy kitoblari respublika nashriyotlari tomonidan chop etildi va ijodiy-adabiy jamoatchilikka manzur bo‘ldi. Normurod Narzullaevning “Oq farishtam, oppoq farishtam” (1994), “Yurt ishqida yonaman” (1996), “Bola ko‘zi bilan ko‘ring dunyoni” (1998) nomli she’rlar, qo‘shiqlar to‘plamlari shoir ijodida sezilarli iz qoldirdi.

Normurod Narzullaevning she’rlari ingliz, v’etnam, turk, hind, ispan, fransuz, nemis, chex, polyak va boshqa tillarga tarjima qilingan. Normurod Narzullaevning Xenrix Xeyne, Mixail Dudin, Maksim Tank, Yevgeniy Yevtushenko, Mo‘min Qanoat, Georgo Vieru, Jobir Navro‘z, Qaysin Quliev, Ibrohim Yusupov, Andrey Dementev, Anatoliy Peredreev, Mavjuda Hakimova kabi atoqli shoirlar ijodidan qilgan tarjimalari ham o‘zbek kitobxonlariga manzur bo‘ldi.

Normurod Narzullaev “Xalq bulbuli”, ”Do‘stlik mushoirasi” hujjatli filmlari ssenariysi, “Vijdon isyoni” dramasi, “Sevgi sururi”,”Doiraning dovrug‘i” kabi videofilmlarning muallifidir.

ISSN: 2992-9210

Normurod Narzullaev (Narziy) qo‘shiqnavis shoir sifatida ham mashhur. Uning she’rlari asosida yaratilgan ko‘plab qo‘shiqlar xalqaro va respublika tanlovlarida sovrinli o‘rinlarni egalladi. Ayni paytda shoirning 500 dan ortiq qo‘shig‘i muvaffaqiyat bilan ijro etilmoqda. Jumladan, “Meros”, ”Uzilgan torlar”, ”Toshkentda tuman”, ”Sevgi nidosi”, ”Fotima va Zuhro” kabi sahna asarlari va kinofilmlardagi qo‘shiqlar ham shoir Normurod Narzullaev qalamiga mansub.

Normurod Narzullaev 1971 yilda O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi mukofoti laureati unvoniga sazovar bo‘lgan. Unga 1984 yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi” 1994 yilda “O‘zbekiston Xalq maorifi a’lochisi” faxriy unvonlari berilgan. 1998 yilda “Shuhrat”medaliga sazovar bo‘ldi.

Normurod Narzullaev o‘z ovozi va ijod dastxatiga ega ijodkor bo‘lib, uning asarlarida yuksak fuqarolik, samimiyat, burchga sadoqat, Vatanga muhabbat, jonajon o‘lka tabiatiga maftunkorlik tuyg‘ulari yetakchi o‘rinni egallaydi.

Saodat Toji – 1937 yilda Qamashi tumanidagi Qoratepa qishlog‘ida tavallud topgan. Toshkent Davlat chet tillar oliygohini tamomlab, uzoq yillar Qamashi shahridagi maktabda o‘qituvchilik qildi. Shoirning "Eng yaxshi sovg‘a", "Inson sevar yashashni", "Qushlar bayrami" va "Oltin bolta" kabi bolalarga bag‘ishlangan she’riy to‘plamlari chop etilgan. U 1982 yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. Shoir Saodat Toji 2001yilda vafot etga.

Bahrom Mahmudov 1937 yil 5 martda Qarshi shahrida tug‘ilgan. Uning o‘n beshga yaqin she’riy to‘plamlari mamlakatimizdagi nufuzli nashriyotlarda chop etilgan. Shoirning aksariyat ijod namunalari umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf darsliklariga kiritilgan. Uning “Vatan madhi” qo‘shiqlar to‘plamidan o‘rin olgan “Qarshi gullari” qo‘shig‘i bastakor Sulton Anvarov musiqasi bilan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Hadya Yusupova tomonidan ijro etilgan. Bahrom Mahmudovning “Tandir ona saxovati” asari Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi qo‘g‘irchoq teatrlarida sahnalashtirilgan.

Voha adabiy muhiti rivojida Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limining ham o‘z o‘rni bo‘lgan. Qanchadan-qancha ijodkorlarning adabiyot maydoniga kirib kelishida bu dargoh katta murabbiy vazifasini o‘tagan. O‘tgan asrning 50-yillarida yirik folklorshunos olim, shoir va adib Chori Hamro ko‘p yillar jamoatchilik asosida Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limiga rahbarlik qilgan. Shu davrlarda u ko‘plab qalamkashlarga rahnamolik qilish bilan birga o‘zi ham qizg‘in ijod qilib, xalq dostonlari termalar va boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plab, adabiyotimiz xazinasini boyitishga ulkan hissa qo‘shdi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyati bo‘limi joriy arxivi ma’lumoti.
2. Alimova D.A.”Uzbekiston tarixi ”. -T., "Sharq", 2000. –29-32-betlar.
3. Ravshanov P., Adabiy sahifalar, T., 1985. – 14 b.
4. Chori Avaz (1957-1992) - www.ziyouz.uz
5. Chori Avaz (1957-1992) - www.ziyouz.uz
6. Yo‘ldoshev B. Qashqadaryo adaiblari. – Toshkent: Oltin-nashr, 2020. – 66 b.
7. Narzullaev, N. Oq farishtam oppoq farishtam : [she’rlar, qo‘shiqlar] / N. Narzullaev. – Toshkent : “G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyoti va san’ati nashriyoti”, 1994. – 110 b.

ISSN: 2992-9210

O‘ZBEKISTON OLIMALARINING MADANIYAT VA ILM-FAN INTEGRATSIYASIDAGI ROLI: TARIXIY TAHLIL VA BUGUNGI TENDENSIYALAR

THE ROLE OF WOMEN SCIENTISTS OF UZBEKISTAN IN THE INTEGRATION OF CULTURE AND SCIENCE: HISTORICAL ANALYSIS AND CURRENT TRENDS

РОЛЬ ЖЕНЩИН-УЧЁНЫХ УЗБЕКИСТАНА В ИНТЕГРАЦИИ КУЛЬТУРЫ И НАУКИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Elboyeva Shaxnoza

Elboyeva Sh.,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
elboyevaqarshi@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston olimalarining madaniyat va ilm-fan integratsiyasidagi o‘rni hamda ularning tarixiy va zamonaviy davrlardagi faoliyati tahlil qilinadi. Ayol olimalarning ilmiy izlanishlari, ilmiy maktablar shakllanishiga qo‘shgan hissasi, madaniyat va fan o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston olimalarining xalqaro miqyosdagi ilmiy hamkorlikdagi ishtiroki, innovatsion loyihalardagi faolligi va yosh avlod uchun ilmiy-nazariy merosi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston olimalari, madaniyat, ilm-fan integratsiyasi, ayol olimalar, tarixiy tahlil, zamonaviy tendensiyalar, innovatsiyalar, ilmiy meros.*

Annatation. This article explores the role of women scientists in Uzbekistan in the integration of culture and science, analyzing their contributions from both historical and contemporary perspectives. It highlights the achievements of Uzbek female scholars in developing scientific schools, strengthening the interconnection between culture and science, and participating in international research collaborations. The paper also examines current trends, innovative approaches, and the scientific legacy of women researchers in Uzbekistan. ***Keywords:*** *women scientists, Uzbekistan, culture, science, integration, historical analysis, modern trends, innovation, scientific heritage.*

Аннотация: В статье рассматривается роль женщин-учёных Узбекистана в интеграции культуры и науки, а также анализируется их деятельность в историческом и современном контексте. Раскрывается вклад узбекских исследовательниц в развитие научных школ, укрепление связи между культурой и наукой, а также их участие в международных научных проектах. Особое внимание уделено современным тенденциям и инновационным подходам в научной деятельности женщин-учёных.

Ключевые слова: *женщины-учёные, Узбекистан, культура, наука, интеграция, исторический анализ, современные тенденции, инновации, научное наследие.*

ISSN: 2992-9210

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va madaniyat sohalarining o‘zaro integratsiyasi, innovatsion g‘oyalar asosida yangicha taraqqiyot yo‘liga kirgani kuzatilmoqda. Bu jarayonda ayollar, xususan, o‘zbek olimalarining o‘rni beqiyosdir. Ular nafaqat ilmiy izlanishlarda, balki madaniyat va ma’naviyatni boyitishda ham muhim hissa qo‘shmoqdalar. Tarixdan ma’lumki, o‘zbek ayollari orasida adabiyot, san’at, falsafa, tibbiyot, texnika va ijtimoiy fanlarda yirik namoyandalar yetishib chiqqan. Bugungi kunda esa bu an’ana zamonaviy fan, texnologiya va madaniy integratsiya jarayonlarida yangi mazmun kasb etmoqda. O‘zbekiston tarixida ayol olimalarning ilm-fan, madaniyat va texnika taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari salmoqli o‘rinni egallaydi. Ularning ilmiy izlanishlari nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida ham tan olingan. O‘zbekiston olimalari tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va san’atshunoslik yo‘nalishlarida xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda. O‘zbekiston tarixida ayol olimlarning ilmiy merosi chuqur ildizlarga ega. Zaynabiddiniylar davridan boshlab, jadidchilik harakati va mustaqillik davrigacha bo‘lgan davrlarda ayol ziyolilarning ilmiy-ijodiy faolligi jamiyat taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, XX asr boshlarida Munavvar qizi, Tursunoy Saidazimova, Hamida Olimjonova kabi ma’rifatparvar ayollar ilm va madaniyatni uyg‘unlashtirish yo‘lida faol ish olib borganlar.Sovet davrida O‘zbekiston Fanlar akademiyasida ishlagan ayol olimalar — biolog, kimyogar, tilshunos va tarixchilarning faoliyati respublikaning ilmiy salohiyatini oshirdi. Ular orasida akademik X. Yo‘ldosheva, professor S. Karimova, filolog R. Qodirova singari olimalar alohida o‘rin tutadilar.

O‘zbekistonlik olimalar UNESCO, FAO, WHO kabi xalqaro tashkilotlar loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Ularning ishlanmalari xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilmoqda, ilmiy ishlari xalqaro patentlar bilan himoyalangan. Ko‘plab olimalarimiz xorijiy davlatlarda ta’lim olib, xalqaro ilmiy grantlar g‘olibiga aylangan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun kerakli bo‘lgan shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PF-5325- sonli Farmoni e’lon qilindi. Mazkur Farmon asosida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ta’lim muassasalarida rahbar ayollarning o‘quv jarayonida samaradorligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar tahsinga sazovordir. Umuman olganda, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida mamlakatmiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Bugungi kunda mamlakat akademik doiralarida ayollarning o‘rni va mavqeyini oshirish, yangi avlod olima xotin-qizlarni tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag‘batlantirish bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta’minlash, jumladan, ta’lim va ilm-fan sohasida O‘zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiradi.Bu borada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi **69-maqsadida:** *xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-*

ISSN: 2992-9210

qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, to‘g‘ri yo‘naltirish vazifasi belgilab qo‘yilgan [1, B.34].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining **“Yangi O‘zbekiston strategiyasi”** nomli asarida *“Bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta’minlashdir. Bu o‘z navbatida,* **Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salohiyatli qilish** *degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish”* **[2, B.23]** kerakligini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Ma’lumki, 2016-yil yildan boshlab, har yili 11-fevral kuni BMT qaroriga binoan **“Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni”** sifatida nishonlanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad xotin-qizlarning ta’lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fandagi salohiyatiga e’tibor qaratish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. Shu bois xalqaro va xorijiy tajribani o‘rganish maqsadida 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlarning ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlili amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar, xotin-qizlarning ta’lim olishi, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy jihatlarini Gaskell Dj., Maklaren A., Aker S., Stromkvist N.P., Foks M.F. va Xamdan A. kabi xorijlik olimlar tadqiqotlar olib borishgan. MDH mamlakatlari olimlaridan Nogayeva A.M., Shupanova J.M., Agamova N.S., Allaxverdyan A.G. va Shafranova O.I. singari olimlarning ilmiy ishlarida ta’lim, ilm-fan sohasida ayollarning roli o‘z aksini topgan.

O.Bo‘riyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoymardonov, M.Xolmatova, M.O‘zbekov kabi mamlakatimiz olimlari oila, uning madaniyati, ijtimoiy muammolari masalasiga to‘xtalib, ularni ancha mufassal tadqiq etgan holda xotin-qizlarning oiladagi ijtimoiy faolligini o‘z ilmiy izlanishlarida asoslab berganlar. Ayol qadrini qanchalik yuqoriga ko‘tarishga muyassar bo‘lsak, milliy g‘ururimiz, ma’naviyat va madaniyatimiz yanada yuksalishi, oilalarimiz barqarorligi ta’minlanishi, halol va pok, fidoyi, vatanparvar, jamiyatga foyda keltiruvchi, millatimizni butun jahon miqyosida ko‘z-ko‘z qildiruvchi farzandlarimiz soni kundan kunga ko‘paya borishi tabiiy holdir. Zero, har tomonlama faol va oqila, dono, izlanuvchan, zamonaviy ayol mehnatidan, salohiyatidan nafaqat uning oilasi, balki butun jamiyat manfaatdor bo‘lishi chin haqiqatdir. Biz qurayotgan jamiyatning og‘ir yukini dadil ko‘tarib, uning poydevorini mustahkamlab turadigan asosiy kuch jamiyatimizdagi har bir oila, har bir inson, har bir fuqaro, shu jumladan, xotin-qizlar ekanligini unutmasligimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Mazkur hujjatlardan oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag‘batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik va siyosiy jarayonlarda

ISSN: 2992-9210

daxldorlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko‘lamini kengaytirish masalalari o‘rin olgan [3, B.74].

Farmonda O‘zbekiston Xotin-qizlar davlat qo‘mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo‘mita faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi. Shu o‘rinda, O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi me’yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘tgan yillar mobaynida ayollar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan qariyb 100 ta milliy va xalqaro huquqiy hujjat qabul qilindi va ratifikatsiya qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-mart – “Xalqaro xotin-qizlar kuni” bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqida shunday degan: “O‘zbekiston deb atalgan jonajon Vatanimizda har qaysi mard yigit, avvalo, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo‘lishini istaydi, albatta. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu yo‘lda o‘zining butun borlig‘ini bag‘ishlashga tayyor turadi”.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo‘lgan [4.B.133] Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o‘z bilimi, iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga beriladigan “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etildiv[5.B.101]

Xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati ularning iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Hech bir davrda ayollar faqat boshliq bo‘lishi yoki faqat ergashishi lozim deb hisoblanmagan. Aksincha, hozirgi kunda xotin-qizlarga munosabat ijobiy tomonga o‘zgarib, ularning ona bo‘lishi bilan birga potensial qobiliyatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. [6.B.22]

Ma’lumki, mamlakatimiz XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma’rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat va A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida shunday fikrlar bor:[7.B.87]

“Ayollarning huquqlari, albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog‘liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug‘iliboq tiriklayin o‘ldirilgani ko‘pchilikka ma’lum. Muqaddas Islom dini hamisha ayollarni e’zozlashga buyuradi. “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” degan naql asrlar osha o‘z mavqeyini yo‘qotganmagan [8.B.32] Islom ta’limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda “ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir”, deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida ayolga ko‘proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa ayolning huquqi ta’minlanadi. Nikoh shartlaridan bo‘lmish mahr ham aynan ayollarning foydasi uchun joriy etilgan”.

XX asr xotin-qizlarning o‘z huquq va erkinliklari, ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlari va mas’uliyatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan davr bo‘ldi. Xotin-qizlar minglab yillar davomida umuman ko‘rmagan va guvohi bo‘lmagan, orzu-intilishlarining mazmun-mohiyatiga aylangan siyosiy

ISSN: 2992-9210

huquqlarga aynan shu asrda erishdilar. Ushbu asrda xotin-qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o‘zgargani va endi nafaqat oilaviy hayot, balki davlat va jamiyat hayotida ayollar hamda erkaklarning maqomi ham tenglashgani diqqatga sazovordir. Aytib o‘tilgan yutuqlarga ayollar osonlik bilan erishayotganlari yo‘q. Bir vaqtning o‘zida oila ishlarini saranjomlash bilan birga ijtimoiy-siyosiy masalalarga ham vaqt topish, nafaqat vaqt topish, balki o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni ado etish, tom ma’noda, ijtimoiy-siyosiy masalalarda o‘z maqomiga ega bo‘lish, ulardan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko‘proq kuch-quvvat sarflashni talab qilmoqda [9.B.32]

Ayollarning jamiyatdagi o‘rni va rolini oshirish, davlat boshqaruviga ularni yanada kengroq jalb qilish, mamlakatning siyosiy boshqaruvi sohasida ularning faolligini yanada oshirish vazifalari keng ahamiyat kasb etib bormoqda. XXI asrda dunyoning barcha mamlakatlarida ayollar siyosat bobida ham teng huquqlilikka erishmoqda, parlamentda salmoqli o‘rinlarni egallamoqda. Masalan, Ukraina parlamentining 8 foizini ayollar tashkil qilsa, arab davlatlarida ham ushbu ko‘rsatkich 8 foizni tashkil qiladi. Shvetsiya, Estoniya va boshqa Yevropa davlatlari parlamentlarida ayollar ko‘pchilikni tashkil qilishi bilan ajralib turadi. Biroq Afrikadagi Ruanda mamlakatining parlamenti deputatlari ichida xotin-qizlarning soni bu borada butun Yevropani ortda qoldiradi. Ushbu davlat parlamentining 48,8 foizini xotin-qizlar egallagan. Undan keyin Shvetsiya 45 foizi, Daniya 40 foizi.[10.B.32] Bu holatning o‘ziyoq xotin-qizlarning kun sayin zamonaviy imijga ega bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faollashib borayotganligini ko‘rsatib turibdi.

UNESCO tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo tadqiqotchilarining atigi **30 foizini** ayollar tashkil etadi. Universitetlarga kiradigan ayollar soni tobora ko‘payib borayotgan bo‘lsa-da, ularning kam qismi tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishadi. Masalan, **Shvetsiyada** ayollar universitet talabalarining ko‘p qismini – **60 foizini** tashkil qiladi, ammo ularning soni universitetdan keyingi ta’lim bosqichlarida kamayadi: aspirantlar orasida ayollar ulushi (49 foizi), olimlar orasida atigi (36 foizi).

Jamiyat hayotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar beriladi:

birinchidan, xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash masalalarini o‘z ichiga olgan dasturlar ishlab chiqish;

ikkinchidan, xotin-qizlarning o‘z-o‘zini band etish va tadbirkorlik tashabbusiga ko‘maklashish;

uchinchidan, ish o‘rinlarini yaratish, kasanachilik mehnatini tashkil etish.

to‘rtinchidan, kichik biznes sohasidagi qishloq xotin-qizlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish;

beshinchidan, xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar berishni davom ettirish;

oltinchidan,xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish uchun jamoat va davlat tashkilotlarini jipslashtirish;

yettinchidan, xotin – qizlarning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun mahalla miqyosida ishlash, milliy qadriyatlarimizga asoslangan milliy hunar turlarining yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun xotin-qizlarimizni jalb etish va hokazo.

O‘zbekiston olimalari madaniyat va ilm-fan integratsiyasida nafaqat ilmiy izlanishlar olib borayotgan, balki madaniy merosni asrab-avaylayotgan, uni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirayotgan kuchli intellektual qatlam sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tarixiy tajriba va zamonaviy yondashuvlarning uyg‘unlashuvi natijasida o‘zbek ayol olimalari ilm-fanning yangi ufqlarini ochib bermoqda.Kelgusida bu yo‘nalishda davlat va jamoatchilik ko‘magida ilmiy hamkorlikni yanada kengaytirish, yosh olimalar uchun imkoniyatlar yaratish hamda xalqaro miqyosda o‘zbek ayol olimlarining nufuzini yanada oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Zero, ayol – oila ustuni va jamiyat

ISSN: 2992-9210

ko‘rki. Oilalarimiz tinch va farovon bo‘lsa, jamiyatimiz, davlatimiz ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasi muqad-das.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.:O‘zbekiston, 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.

3. Karimova, U. U. O‘zbekiston ayol olimalarining ilm-fanga qo‘shgan hissasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 245 b.

4. Fayziyeva, D. Innovatsion tadqiqotlarda ayol olimalarning o‘rni. // Ilm va hayot jurnali. – Toshkent, 2020. – №3. – 45–52-betlar.

5. Qodirova, X. Kimyo va farmatsevtika sohasida o‘zbek olimalari tajribasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 310 b.

6. Uralova, T. O‘zbek olimalari va xalqaro ilmiy maktablar. // O‘zbekiston fanlari akademiyasi axborotnomasi. – Toshkent, 2021. – №2. – 77–85-betlar.

7. Zunnunova, S. Ayol ijodkorlar merosi va ma’naviy qadriyatlar. – Toshkent: Yozuvchi, 2016. – 198 b.

8. Xudoyberdieva, H. Adabiyot va jamiyatda ayol obrazining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2017. – 220 b.

9. UNESCO. Women in Science Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2022. – 154 p.

10. United Nations. The Role of Women in Science, Technology and Innovation. – New York: UN Publications, 2021. – 88 p.

11. G‘ulomova, S. O‘zbekiston olimalari va xalqaro hamkorlik: tarixiy tahlil. // Tarix va kelajak. – Samarqand, 2020. – №4. – 101–109-betlar.

10. World Health Organization (WHO). **Women in Science and Global Health Research.** – Geneva: WHO Press, 2020. – **65 p.**

ISSN: 2992-9210

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDAGI G‘UZOR BEKLIGI TARIXINING MANBASHUNOSLIGI

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ИСТОРИИ ГУЗАРСКОГО БЕКСТВА В ПЕРИОД БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

SOURCE OF THE HISTORY OF GUZOR STATION DURING THE EMIRATE OF BUKHARA

Ergashev Umar Kuziyevich

Ergashev U.K.,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchsi
umarergashev712@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida G‘uzor bekligiga tegishli yozma ma’lumotlar dastlab arab, fors va turkiy tilli asarlarda, keyinchalik esa rus va ingliz kabi turli tillardagi tarixiy manbalarda uchrashliklari tahlil qilinib va ular to‘g‘risida mulohazalar keltirilgan,shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha ayrim istiqbolli ma’lumotlar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: *Mahmud Qoshg‘ariy, Xuzor, “Buxoro amiri Qushbegi devonxonasi”, “Hukzor”, Xudoyor-to‘qsabo, Kashko‘li Salimiy, Fath-nomayi salotin, Tarixi Nofeiy, “Zafarnoma”, “Dahkara-kent vodiysi”.*

Аннотация. В статье анализируются и приводятся рассуждения о том, что письменные сведения, относящиеся к гузарскому бекству во второй половине XVIII – начале XX века,встречаются сначала в арабских, персидских и тюркоязычных трудах, а затем в исторических источниках на разных языках, таких как русский и английский, а также обсуждаются некоторые перспективные данные по этим вопросам

Ключевые слова: *Махмуд Кашгари, Хузар, “Канцелярия эмира Бухары Кушбеги“, “Хукзор”, Худояр-токсабо, Кашколи Салими, Фатх-номаи салотин, Тарихи Нофей, “Зафарнома”, “Дахкара-кентская долина”*

Annotation: The article analyzes and reflects on the occurrence of written information belonging to the guzor station in the second half of the 18th – early 20th centuries, first in Arabic, Persian and Turkic-speaking works,and later in historical sources in various languages, such as Russian and English, and also discusses some promising information on these issues.

Keywords: *Mahmud Kashgariy, Khuzar, Kushbegi devankhana, Emir of Bukhara“, “Hukzor”, Khudoyor-tuqsabo, Kashkoli Salimiy, Fath-nomayi salotin, history Nofeiy, “Zafarnoma”, “Dahkara-kent Valley”*

Kirish. G‘uzor bekligi, umuman olganda, G‘uzor tumani tarixiga tegishli yozma ma’lumotlar dastlab arab, fors va turkiy tilli asarlarda, keyinchalik esa rus va ingliz kabi turli tillardagi tarixiy manbalarda uchraydi. Qadimgi davr va ilk o‘rta asrlarda Sug‘diyona yoki Sug‘d deb atalgan tarixiy-

ISSN: 2992-9210

geografik viloyatning bir qismi Janubiy Sug‘dning eng chekka hududlaridan biri bo‘lgan G‘uzor yozma manbalarda Xuzor nomi ostida tilga olinib, bu yer Naxshab hukmdorligi mulkligining janubiy va janubi-g‘arbiy qismlarini qamrab olgan alohida siyosiy-ma’muriy birlik sifatida mavjud bo‘lgan.

Mahmud Qoshg‘ariy (XI asr) Turkistonda ham G‘uzor joy nomi mavjudligini ta’kidlagan. Shuningdek buyuk tilshunos olim “Xuzor turk shaharlaridan birining joy nomi” deb ham qayd etadi[1;389-b]. Tojikistonning Vaxsh daryosi yaqinida ham G‘uzor geografik atamasidan kelib chiqqan joy mavjud. Ibn Hovqal Xuzorni Kesh yaqiniga qarashli 16 tumanlardan biri ekanligini ta’kidlagan.

G‘uzor nomi turkiy xazar etnonimi bilan bog‘liq bo‘lishi haqiqatga yaqindir. Xazor qadimgi turkiy qabila, xalq nomi. U qabila ittifoqi Afg‘onistonda yashagan. Kaspiy dengizi ham Xazor dengizi deyilgan. Qadimgi turkiy qabila, xalq nomidan G‘uzor nomi yaragan[2;409-b]. Demak, G‘uzor (Xuzor) so‘zining talqini hamon to‘liq ishlab chiqilmagan[3;98-b].

Asosiy qism. G‘uzor bekligi tarixiga oid yozma manbalar asosan Buxoro amirligi davri tarixchilari asarlarida va rus mualliflarining asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Buxoro tarixnavisligiga oid asarlarning deyarli barchasida ushbu beklik bilan bog‘liq u yoki bu darajadagi ma’lumotlarni Buxoro amirligi Qushbegi arxivi hujjatlari va yana bir qator Buxoro tarixnavisligiga oid manbalarni keltirib o‘tish mumkin.Qushbegi arxivi hujjatlarining Buxoro amirligi va uning tarkibidagi bekliklar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olishiga qaramay, amirlikdagi aholi maskanlari bilan bog‘liq materiallarning bir qismi nashr qilingan, aholidan olingan soliq va zakotlarga doir boy ma’lumotlar esa haligacha chop etilmasdan qolmoqda. O‘zbekiston Milliy arxivida “Buxoro amiri Qushbegi devonxonasi” nomi bilan I–126-fondida saqlanayotgan hujjatlar to‘plamida amirlikdagi ma’muriy birliklar va ularning aholisidan olingan soliqlar bo‘yicha ko‘plab hujjatlar bilan tanishib chiqish shuni ko‘rsatdiki, G‘uzor bekligi bo‘yicha ham o‘nlab birlamchi ma’lumotlar o‘rin olgan [4;O‘zMA. I-126 fond].

Ayrim manbalarda berilishicha, G‘uzor qadimda karvonlar to‘xtab o‘tadigan joy bo‘lgani uchun, mahalliy xalq tilida u “guzar” deb yuritilgan, binobarin, shu so‘zdan olingan, deyiladi[5;5-b]. Ilmiy nuqtai nazardan esa, hozirgi buryat, mo‘g‘ul tillarida guzar – yer, tuproq, yer yuzi; yozma mo‘g‘ul tilida — gadzar, xalxa tilida gadzar – yurt, o‘lka, mamlakat ma’nosini anglatgan[6;259-b]. Boshqa bir manbaga ko‘ra, G‘uzorning janubiy tomoni qadimda qalin to‘qayzor bo‘lib, unda yovvoyi hayvonlar, ayniqsa, huk (yovvoyi cho‘chqa) ko‘p bo‘lgani uchun bu joylarning nomi “hukzor” deb yuritilgan. “Hukzor” so‘zi asrlar osha “Huzor” shaklida talaffuz qilinadigan bo‘lgan. Qadimgi G‘uzor shahri atrofi to‘qay va qalin daraxtzor bilan o‘ralib, hayvonot dunyosi rang-barang bo‘lgan[7;3-b].

Muarrix Abdulkarim as-Sam’oniy (XII asr) Xuzor rustog‘i-dagi Surxakat (“Qizil shahar”) ni tilga olgan. Arablar bosqinidan so‘ng Xuzor aholisi yangi manzil barpo etib, Surhakat deb nomlashgan. As-Sam’oniy bu manzilni qishloq sifatida ta’riflagan[8;84-b].

Xuzor shahar sifatida ilk bor XIV asr manbalarida va XV-XVI asrlar vaqf hujjatlarida uchraydi[9;9-b]. Xususan, muarrix Sharo-fiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Xuzor ko‘p marta tilga olingan bo‘lib, Yazdiydan ancha oldingi davrda, ya’ni, X asrda Kesh viloyatining rustoq deb atalgan 16 ta ma’muriy — hududiy tumanlariga Xuzor va Xuzorrud ham kirgan [10;27-b].

Xitoy manbalarida Katta O‘radaryo Tamo, Tun nomlari bilan atalgan. P. Pele uni Dumo deb ta’riflangan. V.V. Bartold G‘uzor-daryo, ya’ni Katta O‘radaryo Kesh shahridan 8 farsax uzoqda joylashganligini qayd etgan[11;188-b]. Katta va Kichik O‘radaryolari Changar tog‘laridan boshlanib, G‘uzor shahridan yuqoridagi Qo‘-shilish qishlog‘ida birlashib, G‘uzordaryo nomini oladi. G‘uzor-daryodagi suv miqdori tog‘larga yog‘adigan qorning hajmiga bog‘liq bo‘lib, u Yangikent qishlog‘igacha yetib borgan. Katta va Kichik O‘radaryolari o‘zining o‘rta oqimida tuz konlaridan oqib o‘tganligi bois, G‘uzor daryosining suvi sho‘rroq bo‘lgan[12;17-b].

ISSN: 2992-9210

Mang‘it hukmdorlarining tarixini yorituvchi Muhammad Mir Olim Buxoriyning “Fath-nomayi salotin (Tarix-i Sultan Sayyid Amir Nasrulloh)” asari bo‘lib, Muhammad Olimbekning buyurtmasi bilan yozilgan asar hisoblanadi. Bu vaqtda u kotib vazifasida ishlagan, Amir Nasrullo o‘z davrida G‘uzor bekligiga hokim lavozimida ishlagan[13;34-b].

G‘uzor bekligi tarixiga doir ma’lumotlar amirlikning mahalliy aholisi vakillari tomonidan yozib qoldirilgan tarixiy asarlarda ham u yoki bu darajada o‘z aksini topgan. Jumladan, Mirzo Salimbek (1850-1930) “Kashko‘li Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaxarin” nomli asarida G‘uzor bekligi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tgan.

Qizig‘i shundaki, Mirzo Salimbek Buxoro amirligining bir necha bekliklarida turli mansablarda ishlagan ziyoli kishi bo‘lib, Yakkabog‘ bekligida besh-yil, Boysun bekligida ikki-yil turli lavozimlarda ishlab, Shahrisabzda esa bir necha-yil hokim mansabida bo‘lib, G‘uzor va atrofdagi bekliklar hayotidan yaxshi xabardor edi[14;8-b]. Muallif G‘uzor tarixiga doir nisbatan kam ma’lumotlar keltirgan bo‘lsa-da, biroq uning Qarshi, Shahrisabz, Boysun va atroflariga doir bergan qisqacha ma’lumotlari o‘sha davrdagi siyosiy va etnik jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, Buxoro amiri Muhammad Rahimxonning vafotidan keyin 1758-yilda taxtga chiqqan amir Doniyolning olib borgan siyosati natijasida Nurota hokimligida Tog‘aymurodbiy burqut va G‘uzorda Jahongir saroylarning hokimlikdan olinib, qatl qilinishlari haqida so‘z boradi[15;288-b].

Shuningdek, Buxoro tarixnavisligi maktabining so‘nggi vakillaridan biri Muhammad Sodihxo‘ja Gulshaniy 1909-yilda fors-tojik tilida yozgan “Ta’rixi Humoyun” asarida Buxoro amirligidagi ko‘plab viloyatlar haqida anchagina keng to‘xtalgan bo‘lib, muallif Xuzor (G‘uzor) haqida ham birlamchi ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. “Ta’rixi Humoyun”da Xuzor bekligi (viloyati)ning geografik joylashuvi, chegaralari, aholisi, shahar va qishloqlari haqida birlamchi ma’lumotlar o‘rin olgan. Unga ko‘ra Buxoro amirligining sharqiy tomonlariga to‘g‘ri keluvchi Xuzor viloyati Hisor tog‘lariga kiraverishi boshlanishida joylashgan bo‘lib, bu yerdan Buxoroi sharifgacha bo‘lgan masofa 23 farsaxdir. Xuzorning sharqiy chegaralari Machchi tog‘igacha cho‘zilgan bo‘lib, Boysun viloyatiga uning shimolidagi Ketmonchoptitepa tog‘i orqali chegaradosh bo‘lib, janubi Kirishik amlokligi va Kuhitang tog‘igacha, shimoli Yakkabog‘ bekligigacha, g‘arbi esa Qarshi viloyatiga qarashli Yangikent amlokligiga tutash edi[16;95-b].

Ushbu muallif beklik markazi Xuzor (G‘uzor) shahrining ichki tuzilishi haqida ham birmuncha keng to‘xtalib, shahar qo‘rg‘oni – qal’asining qadimiy binolardan biri bo‘lib, Afrosiyob qurdirgan binolardan biri ekani, bu yer “nahri azim” (Katta daryo) bo‘yida joylashgan edi. G‘uzor qal’asini bu daryo uni uch tomondan sharq, janub va g‘arbdan o‘rab turgan bo‘lib, uchta darvozali edi. G‘uzor shahridagi bozor rastalari anchagina ma’mur va bir qator karvonsaroylarga ega bo‘lgani va bu yerda savdo-sotiq juda rivojlanganiga e’tibor qaratgan Gulshaniy qo‘rg‘on ichida ikkita jome’ va hayit masjidi hamda oltita besh vaqt namoz qilinadigan kunlik masjid joylashgani, shahar atrofida 35 ta masjid va 3 ta madrasa borligiga urg‘u beradi[17;99-b].

Yuqorida aytib o‘tilganidek, mang‘it hukmdorlarining tarixini o‘z ichiga qamrab olgan Muhammad Mir Olim Buxoriyning “Fath-nomayi salotin (Tarixi Sulton Sayyid Amir Nasrulloh)” asari bo‘lib, Muhammad Olimbekning buyurtmasi bilan yoziladi. Bu vaqtda u kotib vazifasida bo‘lgan, uni Amir Nasrullo o‘z davrida G‘uzor bekligiga hokim lavozimiga tayinlagan[18;34-b].

D.N.Logofet G‘uzor bekligiga qarashli yerlar, yo‘llar, uning tabiati va ayrim qishloqlari haqida quyidagicha hikoya qiladi: “Bu-yil G‘uzor xalqi uchun qiyin keldi. Xudo bu yerda yashovchilarga o‘z qahrini ko‘rsatdi. Yerdan bug‘doy unib chiqishi bilanoq qovjirab qoldi. Haqiqatan, G‘uzor bekligiga qarashli yerlarning ko‘p qismi unumdor va yaxshi yerlardir. Suvning juda katta qismi bug‘doy va sholini sug‘orishga sarf etiladi. G‘uzor daryosidan oqib kelayotgan suv daryo atrofidagi barcha qishloqlarni

ISSN: 2992-9210

ta’minlab turadi. G‘uzordan janub tomon chiqilgach, bir necha chaqirimdan keyin adirlik tugab, tog‘ yo‘li boshlanadi. Bu yerdagi yam-yashil o‘tloqlarda qo‘y-qo‘zi doimo o‘tlab yuradi[19;16-b].

XX asrning ilk choragida Buxoro amirligi, umuman olganda, O‘rta Osiyo mintaqasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlarga guvoh bo‘lgan va o‘sha kezlardagi muhim voqeliklarni qog‘ozga tushirgan, kelib chiqishi amirlikka qarashli Baljuvon bekligiga mansub bo‘lgan Muhammad Ali ibni Muhammad Said Baljuvoniy o‘z asari “Tarixi Nofeiy” (Foydali tarix)ni 1927-yilda yozib tugallagan bo‘lib, asarda G‘uzor bekligiga doir qiziqarli ma’lumotlar uchraydi[20;27-b]. Muallif buxorolik bir qator tarixnavislardan farqli holda ushbu joy nomini “Xuzor” emas, “G‘uzor” shaklida keltirib o‘tadi[21;32-b]. Bundan tashqari Muhammad Ali ibni Muhammad Said Baljuvoniy G‘uzor bekligida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, tarixiy toponimlar, siyosiy voqealar, aholining turmush tarzi, ayrim savdo-sotiq munosabatlari, nufuzli urug‘lar haqida batafsil ma’lumotlar keltirganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asardagi qaydlardan ma’lum bo‘lishicha, XX asrning ilk o‘n yilliklarida Buxoroda jadidchilik harakatlari kuchaygan kezlarda Buxoro muftilaridan biri Domullo Muhammad Ikromning o‘g‘illari ushbu harakatlarda faol qatnashadilar. Buxoro amiri uning farzandlarini jazolab dastlab Karmanaga, keyin esa G‘uzorga surgun qiladi. Bu yerda uni G‘uzor to‘rasi bo‘lmish Olimxonning amakisi Mulla Muhammad qatl ettiradi[22;78-79-b]. G‘uzor bekligining Sho‘ro hukumatiga qarshi kurashidagi o‘rniga oid ma’lumotlar ham yuqorida keltirib o‘tilgan “Tarixi Nofeiy”da qayd etilgan bo‘lib, asarda g‘uzorlik Mulla Abdujabbor Yakdasta, Qarshi bekligidan Turdibek, Shahrisabzda Dodhohbek “bosmachi”lar orasida mashhur bo‘lganliklari qayd etiladi[23;81-b].

Shuningdek, rus va boshqa tillarida yozilgan elchi, diplomat, sharqshunos, savdogar, sayyoh va hokazo kabi yevropalik mualliflar qalamiga mansub asarlarda G‘uzor bekligining geografik joylashuvi, chegarasi, boshqaruv markazi – shahar va uning qo‘rg‘oni, tabiati, aholisining soni va etnik tarkibi, xo‘jalik turmush tarzi va hokazolarga doir ma’lumotlar o‘z aksini topgan, ular orasida rus mualliflari yozib qoldirgan ma’lumotlar Buxoro amirligi, shu jumladan, G‘uzor tarixini yoritishda alohida ajralib turadi. Rus mualliflari XIX asrning 60-yillarida Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qaram bo‘lib qolgach, hudud haqida batafsil ma’lumotlar to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Rossiya imperiyasi davrida Turkiston o‘lkasida ko‘plab tarixiy, geografik va etnografik ma’lumot to‘plagan rus mualliflaridan biri N.A.Mayev qaydlarida ham G‘uzor bekligi va uning atrof hududlariga doir birlamchi ma’lumotlarni beradi[24;19-b].

XIX asrning 40-yillarida Buxoro amirligida bo‘lib, amirlik aholisiga doir qimmatli ma’lumotlar to‘plagan rossiyalik elchi N.V.Xanikov Buxoro amirligi aholisi haqida yozar ekan, Qashqadaryo vohasiga tegishli ma’lumotlarni ham keltirib o‘tgan bo‘lib, ushbu asar amirlik tarixi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun birlamchi materiallar bera oladi. Ushbu muallif Buxoro amirligida asosiy shaharlar soni 19 ta ekanini yozib, G‘uzor shahrini ushbu shaharlar keltirilgan ro‘yxatning oxirida ko‘rsatib o‘tadi[25;78-79-b]. Muhimi shundaki, ushbu rus elchisi amirlikning markaziy hududlari – Buxoro, Zarafshon va Qashqadaryo vohasida yashaydigan o‘zbek urug‘laridan deyarli barchasining nomlarini keltirar ekan, Buxoro tumanlari va Qarshi bekligi, hamda uning atroflarida yashaydigan batosh urug‘i vakillarini butunlay o‘troq hayot kechiradigan aholi sifatida qayd etib o‘tadi[26;64-b]. O‘sha kezlarda batoshlar G‘uzor bekligi hududida ham yashab, nufuzli o‘zbek urug‘laridan biri sifatida bilingan.

XIX asrning 60-yillarida Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qaram bo‘lib qolgach, rus sharqshunos olimlari Qashqadaryo vohasining tarixi, etnografiyasi va geografik o‘ziga xosliklariga qiziqar ekan G‘uzor bekligiga doir materiallarni to‘plab ilm olamiga tanita boshlaganlar.

Rossiya imperiyasi davrida Turkiston o‘lkasida ko‘plab tarixiy, geografik va etnografik ma’lumot to‘plagan rus mualliflaridan biri N.A.Mayev bo‘lib, u keltirgan ma’lumotlar G‘uzor bekligi tarixining

ISSN: 2992-9210

ma’lum bo‘lmagan tomonlarining yoritishda asqotadi. Uning qaydlarida “Dahkara-kent vodiysi” degan joy tilga olingan bo‘lib, u Darband amlokligiga bo‘ysungan va “ko‘chuv o‘lkasi” degan ma’noni bildirishi qayd etilgan[27;38-b].

Biroq muallif ushbu vodiyning aynan joylashgan o‘rni, hududiy chegaralari haqida hech qanday ma’lumotlar bermaydi. Aslida mahalliy shahli Dahparakent bo‘lib, ba’zan Dahparakent va shunga yaqin shakllarda ham talaffuz qilingan bu vodiyga doir to‘liqroq ma’lumotlar rus harbiysi, polkovnik Belyavskiy tomonidan quyidagi shaklda keltirib o‘tiladi: “Gurgandaryo yerlari Ko‘ytan va Boshxurd (Poshxurd) amlokdorligi, ya’ni aholi orasida Darapakin nomli yig‘ma nomga ega bo‘lgan yerlar amiring tuhfasi sifatida goh Boysun bekligiga goh G‘uzor bekligiga o‘tib turgan” [28;93-94-b]. Bundan ko‘rinadiki, Sheroboddaryo havzasidagi bir qator aholi maskanlari umumiy nom bilan “Dahparakent”, ya’ni fors-tojikcha nom bilan “dah-pora-kent” (o‘nta qishloq) deb atalgan va bu yer vaqti-vaqti bilan G‘uzor bekligi tarkibiga o‘tib turgan. Ya’ni, Dahparakentning hududiy yaqinligi G‘uzor beklarining bu yerga hududiy da’vo qilib turishiga sabab bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin.Ushbu ma’lumotlarning ishonchliligini XX asr o‘rtalarida Hisor tog‘ tizmalaridagi aholi orasida etnografik tadqiqotlar olib borgan B.X. Karmisheva to‘plagan ma’lumotlar ham to‘g‘rilaydi[29;122-b]. Sharqiy Buxoro aholisi orasida qo‘ng‘irot, mang‘it, batosh, do‘rmon, saroy va hokazo shaklida qayd etilgan urug‘lar Buxoro, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon vohalarida ham yashab, ularning o‘troqlashuv jarayoni ayniqsa so‘nggi o‘rta asrlarda ancha jadallashgan.

Xulosa. G‘uzor bekligi tarixiga doir yozma ma’lumotlar bilan qisqacha tanishib chiqish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda G‘uzor Qashqadaryo vohasining o‘rta va quyi oqimida, daryoning chap havzasida joylashgan hududlarni o‘z ichiga olgan, bu hududda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mintaqa tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan G‘uzor bekligining ijtimoiy-siyosiy hayoti Buxoro amirligining umumiy siyosiy holati, markaziy hokimiyat va mahalliy beklar o‘rtasidagi munosabatlar, hamda iqtisodiy va ijtimoiy tarkibi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмуд Қошғарий. Девони луғатит турк. (Туркий сўзлар луғати). 1-том. Т., 1960. Б. 389
2. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Тошкент. Муҳаррир. 2009. Б.409
3. Каримов Б. Қашқадарё воҳасининг тарихий географияси (XVI-XIX асрлар). Б.98.
4. Населенные пункты Бухарского эмирата (кон. XIX – начало XX вв.). Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова – Ташкент: Университет, 2001.
5. Ўз МА. И-126 фонд, 2-рўйхат . 504-иш, 3719 варақ.
6. Ernazarov A.X. G‘uzor bekligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (1865-1920 yy). Б.5.
7. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси ... Б. 259.
8. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. –СПб., 1882. -С.3
8. Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансаб). -Б.84.
9. Ernazarov A.X. G‘uzor bekligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (1865-1920 yy). B.9.
10. Шаҳрисабз: Минг йиллар мероси. -Т.: “Шарқ”, 2002. -Б. 27.
11.Бартолд В.В. Туркестан в епоху монголского номестия.Соч.,Т., 1963.С.188
12. Ernazarov A.X. G‘uzor bekligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (1865-1920 yy). B.17.

ISSN: 2992-9210

13. Xolnazarova L. S. “XIX asr mahalliy mualliflarning asarlarida mang‘it humdorlari tarixi” (XIX – XX asr boshlarida). Markaziy Osiyoda intellektual meros: an’analar va innovatsiyalar ilmiy to‘plami. – Toshkent, 2018. – B. 34.

14. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи муттақадимин ва муттахарин. Форс-тожик тилидан ўзбекчага ўгирган Н. Йўлдошев. – Бухоро: “Бухоро”, 2003. – Б. 8.

15. O‘sha muallif o‘sha asar. B. 288.

16.Муҳаммад Содиқхўжа Гулшаний. Тарихи Ҳумоюн. Душанбе, 2006 –Б. 95.

17. Муҳаммад Содиқхўжа Гулшаний. Тарихи Ҳумоюн. Б. 99.

18. Xolnazarova L. S. “XIX asr mahalliy mualliflarning asarlarida mang‘it humdorlari tarixi”. B.34.

19. Ernazarov A.X. G‘uzor bekligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (1865-1920 yy).B.16.

20. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов ва З. Чориевлар. – Тошкент. “Академия” нашриёти, 2001.

21. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). – Б. 32.

22. O‘sha muallif o‘sha asar B. 78-79.

23. O‘sha muallif o‘sha asar. B. 81.

24. Маев Н.А. Очерки Гиссарского края. МСТК. Вып. 5. 1889.

25. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – С. 78-79.

26. O‘sha muallif o‘sha asar. B. 64.

27. Маев Н.А. Очерки Гиссарского края МСТК. Вып. 5. 1889.

28. Qayumov A. XIX asr etnografik tadqiqotlarida Buxoro amirligining janubiy-sharqiy bekliklari aholisi etnik tarkibi masalalari XIX – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda intellektual meros: an’analar va innovatsiyalar ilmiy to‘plami. – Toshkent, 2018. – B. 93-94.

29. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 66-122.

ISSN: 2992-9210

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA GLOBAL INTEGRATSIYA

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ВЫСОКОТЕХНОЛОГИЧНЫХ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ИХ ГЛОБАЛЬНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ

HISTORICAL DEVELOPMENT OF HIGH-TECH INDUSTRIAL SECTORS IN UZBEKISTAN DURING THE INDEPENDENCE ERA AND THEIR GLOBAL INTEGRATION

Esanova Nilufar

Esanova N.,
katta o‘qituvchi, Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
nilufar5karshi@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarining tarixiy rivojlanishi va ularning global iqtisodiyotga integratsiyasi tahlil qilinadi. Yuqori texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish jarayonlari, xalqaro hamkorlikning ahamiyati hamda mamlakat sanoatining jahon bozoridagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarining mamlakat iqtisodiyotiga kiritgan hissasi va istiqbolli yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *yuqori texnologiyalar, sanoat tarmoqlari, tarixiy rivojlanish, global integratsiya, O‘zbekiston, xalqaro hamkorlik, iqtisodiy rivojlanish.*

Аннотация. В статье анализируется историческое развитие высокотехнологичных отраслей промышленности в Узбекистане в период независимости и их интеграция в глобальную экономику. Рассматриваются процессы внедрения и развития современных технологий, значимость международного сотрудничества, а также место промышленности страны на мировом рынке. Особое внимание уделяется вкладу высокотехнологичных отраслей в экономику и перспективным направлениям развития.

Ключевые слова: *высокие технологии, отрасли промышленности, историческое развитие, глобальная интеграция, Узбекистан, международное сотрудничество, экономическое развитие*

Annatation. This article analyzes the historical development of high-tech industrial sectors in Uzbekistan during the independence period and their integration into the global economy. It discusses the processes of implementing and developing modern technologies, the importance of international cooperation, and the position of the country's industry in the global market. The article also highlights the contribution of high-tech

ISSN: 2992-9210

industries to the national economy and prospective directions for future development.

Key words: *high technology, industrial sectors, historical development, global integration, Uzbekistan, international cooperation, economic development*

KIRISH

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning hayotiy muhim tarmoqlari rivojlantirildi, yangi sanoat tarmoqlari bunyod etildi. Bunga mamlakatning yoqilgi mustaqilligiga erishishi yoqqol misoldir. 90-yillarning boshlarida chetdan 6 million tonnaga yaqin neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi, buning zamini-2 trillion kubmetrga yaqin gaz zahiralari, 160 dan ortiq neft koni bor edi. Yiliga 2,5 mlrd. kub metr gaz haydash quvvatiga ega bo‘lgan Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. 1996 yilga kelib chetdan neft mahsulotlarini sotib olish to‘xtadi, neft mustaqillligiga erishildi. 1991 yilda 2,9 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan birgalikda) mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2000 yilda bu ko‘rsatkich 7,5 mln. tonnadan oshdi. Shu davrda tabiiy gaz ishlab chiqarish 41,8 mlrd. kub metrdan 56,4 mlrd. kub metrga o‘sdi. O‘zbekiston yoqilgi mustaqilligiga erishdi.

Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. 1994 yilda barpo etilgan O‘zbekiston-Isroil «O‘zIz mash» qo‘shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug‘idir, deb e’tirof etildi[1, B.12].

1992 yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O‘zbekistonda avtomabil ishlab chiqaruvchi korxona barpo etishga kelishib olindi. 1993-1996 yillarda Asaka shahrida «O‘zDEU avto» zavodi barpo etildi va Damas, Tiko, Neksiya rusumli avtomabillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. 1996 yilda 25,3 ming, 1997 yilda 64,9 ming, 1998 yilda 54,4 ming, 1999 yilda 58,4 ming, 2000 yilda 31,3 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. «O‘zDEU» zavodida 1999 yil oktabr oyidan boshlab «Neksiya-2», «Matiz» rusumli avtomobillar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga kirishildi. 2001 yil avgustda «Matiz» rusumli foydalanishga eng qulay avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. O‘zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-mamlakatga aylandi. Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Sam Koch avto» zavodi qurildi. 2000 yilda «Sam Koch avto» zavodi 483 dona avtobuslar ishlab chiqardi. Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o‘nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Ayni vaqtda «O‘zDEU» zavodi uchun zarur bo‘lgan butlovchi qismlarning 20 foizi O‘zbekistonda ishlab chiqarildi. Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari-Toshkent traktor zavodi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o‘tdi[2, B.97].

Birgina Toshkent traktor zavodi 2000 yilda 954 ta, 2001 yilda 1002 ta traktor ishlab chiqardi. Shuningdek, Asaka shahrida AQShning “Jeneral Motors” kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan, Toshkent shahrida Germaniyaning dunyoga mashhur “daymler Bens” va Samarqand shahrida Yaponiyaning “Isuzu” kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar ishlab chiqaradigan hamda Samarqand shahrida Germaniyaning “MAN” kompaniyasi bilan tashkil etilgan yuk avtomobillari ishlab chiqaradigan yangi zavodlarni o‘z ichiga oladi. Ana shunday o‘zgarishlar natijasida mashinasozlik va metalni vayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1990-2010 yillarda 11,6 barobar o‘sdi. Faqat oxirgi 10 yilning o‘zida yengil avtomobillar ishlab chiqarish 7,1 baarobaar, avtobuslar-2,6 barobar va yuk avtomobillari tayyorlash 12,9 barobarga oshdi[3, B.64].

ISSN: 2992-9210

Jahondagi yetakchi firmalarning havo kemalari bilan ta’minlangan O‘zbekiston havo yo‘llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqlarini o‘rnatgan, u mustaqillik yillarida 20 milliondan ko‘p yo‘lovchiga xizmat qildi. Masalan, 1995-yil noyabr oyida ABB Leitungsbaum va “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi vakillari , O‘zbekiston Respublikasi Harbiy-havo kuchlari va Uchquduq aeroportini qurish direksiyasi o‘rtasida imzolangan niyatlar bayonnomasiga muvofiq, 1996-yil aprel oyida ABB O‘zbekiston tomoniga Uchquduq aeroportini yoritish uskunalarini o‘rnatish bo‘yicha texnik-iqtisodiy asoslarni topshirdi . 1995 yil oktabr oyida O‘zbekiston bilan AO‘SH ning «ABB Lummus Global» kompaniyasi o‘rtasida Sho‘rton gaz-kimyo majmuasini qurish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. O‘urilish ishlari 1997-2001 yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishida 1mlrd. AO‘SH dollari hajmida sarmoya o‘zlashtirildi. 2001 yil dekabrda Sho‘rton gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega[4, B.24].

Yengil va to‘qimachilik sanoati tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Paxtani qayta ishlovchi «Qabul-O‘zbekKO», «Kosonsoy-Tekmen», «Papfen», «Asnam tekstil», «Karakulteks», «Chinoz to‘qimachi», «Kabul-Farg‘ona», «Oq saroy to‘qimachi» qo‘shma korxonlari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq istyemoli mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Agar 1991 yili respublikamizda paxta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2001 yilda bu ko‘rsatkich 24 foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi[5, B.184].

Mustaqillik yillarida «Zarafshon-Nyumont» korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, Qo‘ng‘irot soda zavodi, Quvasoy kvarts zavodi, Yangiyo‘l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko‘plab korxonalar bunyod etildi. Masalan, “Zarafshon-Nyumont” qo‘shma korxonasining tashkil etilishida Amerika tomonida mashhur “Newmont Mining Corporation” kompaniyasi asosiy rol uynadi. Bu korxona O‘zbekistonda oltin qazib olishning birinchi korxonasi hisoblanadi. 1994 yilda ushbu qo‘shma korxona loyihasi yilning eng yaxshi kon loyihasi deb topildi. Yiliga 13,8 million tonna ruda ishlab chiqarish quvvatiga ega korxona bor-yo‘g‘i 18 oyda qurilib, 1995 yil may oyida foydalanishga topshirildi

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e’tibor berildi. Xo‘jaliklar qanday ekin ekish sohasida mustaqil bo‘ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo‘li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar tegishli suratda qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog‘i 1991 yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2000 yilda 42 foizga o‘sdi. Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo‘li izchillik amalga oshirilmoqda. Agar 1990 yilda mamlakatimizda 2 mln. tonna g‘alla olingan bo‘lsa, 2000 yilda 4 mln. tonna g‘alla yetishtirildi. 1990 yilda 554 ming tonna bug‘doy yetishtirilgan bo‘lsa, 2000 yilda 3,6 mln. tonnaga yaqin bug‘doy olindi. O‘zbekiston don mustaqilligiga erishdi[6, B.84].

Andijon paxtakorlari tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Bu usul paxtadan sifatli va yuqori hosil yetishtirish imkonini yaratdi. O‘zbekiston olimlari tomonidan mustaqillik yillarida yuzdan ortiq ingichka va o‘rta tolali “Buxoro-6”, “S-6524”, “Namangan-77”, “An-Boyovut-2”, “Buxoro-8”, “Buxoro-102” kabi serhosil paxta navlarining yaratilishi hosildorlikni sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Qishloq xo‘jaligini isloh etish borasida aniq maqsadga qaratilgan ishlar natijasida 1990 yilda dehqon xo‘jaliklarida jami ekin maydonlar 216,5 ming gektarni, 2000 yilda 401,5 ming gektarni, 2010 yilda 471,5 ming gektarni, xususiy fermer xo‘jaliklari (2000 yilda 632,2 ming gektar, 2010 yilda 3143,0 ming gektar) va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarida (2000 yilda 2744,6

ISSN: 2992-9210

ming gektar, 2010 yilda 93,9 ming gektar) ekin maydonlarining soni yildan-yilga ko‘payib bordi[7, B.84].

Iqtisodiyotning hayotiy muhim tarmoqlari rivojlantirildi, yangi sanoat tarmoqlari bunyod etildi. Bunga mamlakatning yoqilgi mustaqilligiga erishishi yoqqol misoldir. 90-yillarning boshlarida chetdan 6 million tonnaga yaqin neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi, buning zamini-2 trillion kubmetrga yaqin gaz zahiralari, 160 dan ortiq neft koni bor edi. Yiliga 2,5 mlrd. kub metr gaz haydash quvvatiga ega bo‘lgan Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. 1996 yilga kelib chetdan neft mahsulotlarini sotib olish to‘xtadi, neft mustaqillligiga erishildi. 1991 yilda 2,9 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan birgalikda) mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2000 yilda bu ko‘rsatkich 7,5 mln. tonnadan oshdi. Shu davrda tabiiy gaz ishlab chiqarish 41,8 mlrd. kub metrdan 56,4 mlrd. kub metrga o‘sdi. O‘zbekiston yoqilgi mustaqilligiga erishdi [9, B.91].

Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. 1994 yilda barpo etilgan O‘zbekiston-Isroil «O‘zIz mash» qo‘shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug‘idir, deb e’tirof etildi.

O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi til siyosati nafaqat rasmiylikni, balki milliy o‘zlikni asrash, tarixiy xotirani jonlantirish va madaniyatni mustahkamlashga qaratilgan kompleks strategiyaga aylandi. Til – siyosiy mustaqillikning ideologik poydevori, jamiyatning ma’naviy birligi va madaniy barqarorligining asosi sifatida qaraldi. Shu bois, til siyosati faqat filologik emas, balki sotsial-madaniy, siyosiy va strategik yo‘nalishdagi muhim vosita bo‘lib qolmoqda. Kelajakda til siyosatini yanada takomillashtirish, uni raqamli dunyo sharoitida rivojlantirish, ta’lim va fan sohalarida chuqur tatbiq etish orqali o‘zbek tilining milliy va xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash zarur.

ISSN: 2992-9210

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch**. –** Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi. **O‘**zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni. **–** Toshkent: O‘zbekiston, 1989. – 12 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 84 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbek tilini rivojlantirish va davlat tilida ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Prezident farmoni, 2019-yil 21-oktabr, PF–5850-son // *lex.uz*. URL: https://lex.uz/docs/4562785

5. Mahmudov N. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o‘rni // *O‘zbek tili va adabiyoti*. – 2018. – №3. – B. 15–21.

6. Quronboyev G‘. Til siyosati va milliylik masalasi. – Toshkent: Fan, 2016. – 204 b.

7. Sodiqov B. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash muammolari // *Ijtimoiy fanlar*. – 2020. – №1. – B. 30–35.

8. Jo‘raev N. Milliy o‘zlik va til: nazariy va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 128 b.

9. Fishman J.A. Language and National Identity: Comparative Perspectives. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 112–130.

10. Turaev B. Milliy madaniyat va til siyosati integratsiyasi // *Til va jamiyat*. – 2021. – №2. – B. 40–46.

ISSN: 2992-9210

TARIX DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ИСТОРИИ

DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS IN HISTORY LESSONS

Tagayev Ganisher Xasanovich

Tagayev G.X.,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
tagayevganisher86@gmail.com

Annotatsiya. Tarix darslarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda tarixiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish, manbalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, egallangan ko‘nikmalarni amaliyotga qo‘llash, dars mashg‘ulotlarini munozaralar, bahslar, guruhli loyihalar va rolli o‘yinlar, o‘quvchilarni faol ishtiroki asosida tashkil etilishi muhimdir. Ushbu maqolada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhokama va debatlarning afzalliklari, o‘qitishning samarali usullari, turli grafik organayzerlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Tanqidiy fikrlash, kognitiv jarayon, analitik va tanqidiy fikrlash, tarixiy empatiya, kreativ yondashuv, interaktiv o‘qitish usullari, grafik organayzerlar*

Аннотация На уроках истории важно развивать у учащихся навыки критического мышления, делать выводы на основе фактических данных, развивать способность критически анализировать источники, применять полученные навыки на практике, организовывать уроки на основе дискуссий, дебатов, групповых проектов и ролевых игр с активным участием учащихся. В статье даны рекомендации о преимуществах дискуссий и дебатов в развитии навыков критического мышления учащихся, эффективных методах обучения и использовании различных графических органайзеров.

Ключевые слова: *критическое мышление, познавательный процесс, аналитическое и критическое мышление, историческая эмпатия, творческий подход, интерактивные методы обучения, графические органайзеры.*

Abstract In history lessons, it is important to develop students' critical thinking skills in historical thinking, drawing conclusions based on evidence, developing the ability to critically analyze sources, applying the acquired skills in practice, organizing lessons based on discussions, debates, group projects and role-playing games with the active participation of

ISSN: 2992-9210

students. This article provides recommendations on the advantages of discussions and debates in developing students' critical thinking skills, effective teaching methods, and the use of various graphic organizers.

Keywords: *Critical thinking, cognitive process, analytical and critical thinking, historical empathy, creative approach, interactive teaching methods, graphic organizers.*

Kirish. Hozirgi zamon darsiga qo‘yiladigan talablardan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quv predmeti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yanada faollashtirish va jadallashtirish dars samaradorligini oshirishning eng muhim omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ulug‘ allomalarimiz merosini chuqur o‘rganish, tarixiy-badiiy asarlar, filmlar yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Bundan maqsad – tariximiz, merosimizni yosh avlodlar qalbi va ongiga singdirish, farzandlarimizni milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdir” [1:150-151].

Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o‘zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o‘ylash jarayon bo‘lib, ma’lumotni tahlil qilish, baholash va shu bo‘yicha xulosa qilish qobiliyati hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash muhim hayotiy ko‘nikmalardan biri hisoblanib, u o‘quvchilarga murakkab va axborotga boy dunyoda samarali harakat qilish, nostandart vaziyatlarda muhim qarorlarni qabul qilish imkoniyatini beradi. Umumta’lim maktablari darsliklarida berilgan nazariy ma’lumotlarni hoyotiy misollar bilan tushunish, masala yuzasidan ongli qarorlar qabul qilish, maqsadlarni to‘g‘ri qo‘yish hamda muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, tarix fani bu borada o‘ziga xos imkoniyatlarga ega, chunki tarixiy bilimlar nafaqat faktlarni yodlashga, balki ularni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va turli nuqtai nazarlarni solishtirishga asoslanadi[6]. Shu boisdan, tarix darslarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirib borish bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda.

O‘quvchilarda tarixiy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish, manbalarni tanqidiy tahlil qilish va tarixiy jarayonlarni to‘g‘ri tushunishni shakllantiradi. Tarix darslarida o‘quvchilarning tarixiy voqealarni tahlil qilish, tanqidiy tahlil qobiliyatini rivojlantirish, voqealarni o‘rganish orqali tarixiy haqiqatni aniqlash va xolisona baho berish, o‘tmishdagi qarorlar va ularning oqibatlarini tushunib, kelajakda adolatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirib borish fan o‘qituvchilarining e’tibor markazida bo‘lishi nazarda tutiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi XX asrning 90-yillari o‘rtalarida amerikalik o‘qituvchilar K. Meredit, Ch. Temple tomonidan ta’lim jarayoniga faol kiritilgan. Tanqidiy fikrlash - bu ma’lumotni o‘z yondashuvi bilan tahlil qilish qobiliyati bo‘lib, bunda o‘quvchi o‘z-o‘zini boshqaradi, baholaydi, fikrlashini tuzatadi. Texnologiya o‘quvchining axborotni idrok etish samaradorligini oshirish bilan birga o‘rganilayotgan matn yoki jarayonga qiziqishini oshiradi. Har bir o‘qituvchining vazifasi ta’lim oluvchining o‘z-o‘zini anglashi, shu jumladan, intellektual qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishdir. Bu jabhada tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish ushbu muammolarni hal qilishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi[7:175].

Oklend universiteti professori Karl Savich[4:] o‘zining “Tarix fanidan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirish” nomli maqolasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari tarix darslarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini va ishtirokni yaxshilash strategiyalari va texnikalarini o‘rganib chiqdi. Amerikalik olim Robert B. Bain[2] o‘zining tadqiqotlarida tarix fanining o‘ziga xos muammolari, amaliyotlari va ong odatlari bo‘lgani kabi, tarixni o‘rganish ham o‘ziga xos muammolar va kognitiv xususiyatlarni o‘z ichiga olishiga e’tibor qaratadi. Bunda o‘quvchilarning tarixiy bilimlarning

ISSN: 2992-9210

mohiyatini, tarix haqidagi fikrlashlarini va tarix fanini o‘rganishda yuzaga keladigan kontekstni tushunishlarini muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini va o‘quvchilarning ishtirokini oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar boshqa sharoitlarda ham muvaffaqiyatli turli strategiyalar va texnikalarni taklif etgan o‘qituvchi-tadqiqotchilar tarixiy voqealarni dramalashtirish, tarixiy voqealarni namoyish etish, sahnalashtirish o‘quvchilarning tarix fanini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshib borganligini aniqladilar (Otten, Stigler, Woodward, Staley 2004) [4].

Inson tafakkuri murakkab kognitiv jarayonlar to‘plamidir. Bularga ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini kiritish mumkin. Inson miyasi bo‘lmalari ma’lumotni turlicha qabul qiladi va qayta ishlaydi, ammo ular orasidagi qat’iy ajratish g‘oyasi ham mavjud (Wolman D. 2012). Tanqidiy va ijodiy fikrlash bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda muhim, chunki u g‘oyalarning qo‘llanilishi va dolzarbligini ta’minlaydi, shu bilan birga o‘z ijodiy qobiliyatlariga ishonish, o‘z navbatida, maqsadlarga erishishda qat’iyatlilikni oshiradi va sog‘lom o‘zini o‘zi rivojlantirishni rag‘batlantiradi[10].

Tahlil va natijalar. Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchilarda nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni anglash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Bu esa, o‘qitishning an’anaviy usullaridan voz kechib, interaktiv, izlanishga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan metodlarga o‘tishni taqozo etadi. Bu jarayonda fan o‘qituvchilariga So‘rovga asoslangan ta’lim (SAT) innovatsion yondashuvlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu ta’lim vositasida o‘quv muhitida o‘quvchilar o‘quv jarayonida faol ishtirok etadilar va ularga tabiiy qiziqishlarini o‘rganish imkoniyati beriladi. Ya’ni o‘quvchilar ko‘proq amaliy bajarib, o‘rgangan narsalarini haqiqiy hayot bilan bog‘laydilar[5].

O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim tizimi oldida turgan bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Shu ko‘nikmalardan biri tanqidiy fikrlash jarayoni bo‘lib, bu ko‘nikmalarni boshlang‘ich sinf darslarida rivojlantirib borish tavsiya etiladi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirib borishda quyidagi tavsiyalar beriladi;

- tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish;
- dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish;
- o‘quvchilarning topshiriq yuzasidan bildirgan qaror, g‘oya va fikrlarni qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash;
- mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish;
- o‘quvchilarning teng huquqliligini ta’minlash, kamsitishlarni oldini olish;
- mashg‘ulotlar davomida har bir o‘quvchini tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishontirish;
- tanqidiy fikrlash ko‘nikmasining paydo bo‘lishini qadrlash.

Tarixiy voqealarni tahlil qilish asosida mantiqiy va adolatli qarorlar qabul qilish metod va usullari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarixiy voqealarni bosqichma-bosqich tahlil qilish
- qiyoslash usuli
- rolli o‘yinlar va tarixiy simulyatsiyalar
- muammoli savollar va muhokamalar
- debatlar va bahslar

Tanqidiy fikrlash insonni intellektual faoliyatining turlaridan biri, ushbu texnologiyaning konseptual yondashuvlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

ISSN: 2992-9210

- “tayyor” bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki o‘quv jarayonida tug‘iladigan shaxsiy bilimlarni qo‘llash;

- o‘qitishning jamoaviy tamoyili, ya’ni, mashg‘ulotlarning dialog rejimini, muammolarni hal qilish yo‘llarini birgalikda izlashni, shuningdek o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasidagi “sheriklik” munosabatlarini ta’minlaydi;

- o‘quvchi tomonidan idrok etilayotgan obyektning ijobiy va salbiy tomonlarini obyektiv baholash imkoniyatlarini beradi[8].

Tarix darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ko‘plab usullar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Quyida asosiy va samarali usullar kengroq bayon etiladi. Birinchidan, savol-javob usuli o‘quvchilarni faollikka chaqirish va ularning fikr yuritish jarayonini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi nafaqat faktlarga oid savollar beradi, balki ularni chuqur tahlil qilishga undaydigan savollar bilan o‘quvchilarni fikrlashga majbur qiladi. Masalan, “Bu voqea qanday ijtimoiy va siyosiy omillar ta’sirida yuz berdi?”, “Agar bu hodisa boshqacha rivojlansa, natijalar qanday bo‘lishi mumkin edi?” kabi savollar o‘quvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, savol-javob usuli o‘quvchilarni faqat passiv eshituvchi emas, balki faol qatnashuvchi qilishda yordam beradi, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Ikkinchidan, tarixiy manbalar bilan ishlash o‘quvchilarga turli qarashlarni taqqoslash imkonini beradi. Masalan, bir voqea haqida bir necha manbalarni o‘rganib, ularning o‘zaro farq va o‘xshashliklarini aniqlash o‘quvchilarni analiz qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Bundan tashqari, manbalarning ishonchliligini baholash, ularning yaratilish sharoitlarini tushunish ham tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, debatlarga va rolli o‘yinlariga asoslangan metodlar tarixiy mavzularni yanada jonlantiradi. O‘quvchilar o‘zaro turli fikrlarni ilgari surib, bahslashadilar, o‘z pozitsiyalarini himoya qilishni o‘rganadilar. Bu jarayon nafaqat ularning tanqidiy fikrlashini, balki muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Misol uchun, “Xo‘jand shahrining XII asrdagi savdo-sotiqdagi roli” mavzusida turli nuqtai nazarlarni himoya qilish yoki “Turk va Fors davlatlari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar” haqida bahs tashkil etish o‘quvchilarning tarixiy faktlarni chuqur o‘rganishiga yordam beradi.

To‘rtinchidan, konseptual xaritalar yordamida o‘quvchilar tarixiy voqealarni tizimli ravishda ko‘rib chiqadilar. Sabab-oqibat munosabatlarini grafik tarzda ifodalash o‘quvchilarga voqealarning qanday bog‘langanini ko‘rsatadi va ularning mantiqiy tafakkurini kuchaytiradi. Misol uchun, “Ikkinchi jahon urushining boshlanishi” mavzusida asosiy sabablar va oqibatlar konseptual xarita ko‘rinishida tuzilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning bilimlarni tizimlash va mustahkamlashga yordam beradi[6].

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhokama va debatlarning afzalliklari quyidagi yo‘nalishlarda namayon bo‘ladi.

1. **Analitik va tanqidiy fikrlash** - o‘quvchilar voqealar sabablarini tahlil qiladi va oqibatlarni prognoz qiladi.
2. **Tarixiy empatiya** - tarixiy shaxslar qarorlarini tushunib, o‘zlarini ularning o‘rniga qo‘yadi.
3. **Kreativ yondashuv** - muqobil tarixiy yechimlarni izlash orqali ijodiy fikrlaydi.
4. **Muloqot ko‘nikmasi** - bahslar orqali o‘z fikrini dalillar bilan himoya qilishni o‘rganadi.
5. **Qaror qabul qilish ko‘nikmasi** - tarixiy voqealar orqali to‘g‘ri va noto‘g‘ri qarorlarni ajratib o‘rganadi.

Tarix darslarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonida fan o‘qituvchisi boshqarish, rag‘batlantirish, motivatsiya berish, baholash jarayonlarni tashkil qilish bilar bir qatorda, “Aqliy hujum” savollaridan unumli foydalanadi. Savol berish tanqidiy yondashuvga yordam beradi. Yangi fikr yoki ma’lumotni eshitganda qanday dalillarga asoslanganligi, manbasi haqida savollar

ISSN: 2992-9210

berish tavsiya etiladi. Tarix darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

✓ **Interaktiv o‘qitish usullari:** Ma’ruza o‘qish o‘rniga, interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Munozaralar, bahslar, guruhli loyihalar va rolli o‘yinlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga va o‘z fikrlarini bildirishga undaydi.

✓ **Manbalarni tahlil qilish:** O‘quvchilarga turli manbalarni, jumladan, birlamchi va ikkilamchi manbalarni tahlil qilishni o‘rgatish, ularga manbalarning ishonchliligi, nuqtai nazari va maqsadini baholashga yordam berish.

✓ **Munozaralar va bahslar:** Munozaralar va bahslar o‘quvchilarga turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqishga va o‘z pozitsiyalarini himoya qilishga yordam beradi. Ularni dalillarga asoslangan holda fikr bildirishga va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishga o‘rgatish.

✓ **Loyiha va tadqiqot ishlari:** Loyiha va tadqiqot ishlari o‘quvchilarga mustaqil ravishda ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va sintez qilish imkoniyatini beradi. Ularga mavzuni chuqur o‘rganishga va o‘z xulosalarini shakllantirishga yordam berish.

✓ **Savol berish:** O‘quvchilarni savol berishga odatlantish. Ularga “Nima uchun”, “Qanday qilib: va “Agarda: kabi savollarni berishga yordam berish. Bu ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

✓ **Muammolarni hal qilish:** Tarixiy muammolarni hal qilishga qaratilgan vaziyatlarni yaratish. O‘quvchilarga muammoni tahlil qilish, yechimlar taklif qilish va ularning oqibatlarini baholashga yordam berish[11].

Tarix darslarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirib borishda bir nechta pedagogik texnologiyalarni tavsiya etish mumkin. Fan o‘qituvchisi tomonidan tarixiy mavzular bo‘yicha quyidagicha: “Nima sababdan ayrim imperiyalar qulab tushgan?” yoki “Tarixiy shaxslarning xatolaridan nimani o‘rganish mumkin?” kabi “Aqliy hujum” savollarini berish va ularga javob topish orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish tavsiya etiladi.

O‘quvchilarda tarix darslarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirib borishda grafik organayzerlardan foydalanish samarali bo‘lib, bu texnologiyalar fan o‘qituvchilariga tavsiya etiladi. Bu texnologiyalardan darslarda foydalanish juda qulay bo‘lib, darslarning samarali va qiziqiqarli o‘tilishi, o‘quvchilarning faol izlanishlarini yuzaga keltiradi. Shu texnologiyalardan biri “T-jadval” metodi bo‘lib, bitta konsepsiya (ma’lumot)ning jihatini o‘zaro solishtirish yoki ularni (ha/yo‘q, ha/qarshi) ko‘rinishda ochib berish orqali, o‘quvchilarda tanqidiy mushohadani rivojlanishiga ko‘maklashadi.

T- jadval texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir nechta asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samarali yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi. Agar o‘quvchilar yozilgan fikrga qo‘shilsalar, birinchi ustunda “+” aks holda uchinchi ustunda “ – ” belgisini qo‘yadilar[9:114].

O‘qituvchi: Yangi mavzuni bayon qiladi va o‘quvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma‘lumotlarni beradi:

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi; Ajratilgan vaqt oralig‘ida tartibda (juftlikda) to‘ldiradi, uning chap tomoniga sabablari yoziladi, o‘ng tomoniga esa chap tomonda ifoda qarama – qarshi g‘oyalar, omillar va shu kabilarni kiritib boradi. Masalan, darslikda berilgan matn asosida Amir Temurning davlat boshqaruvi, kelajakda munosib valiahdni tanlash jarayonlarining afzalliklari va kamchiliklari, davlat boshqaruvi doirasida berilgan qarorlarga nisbatan o‘quvchilar o‘zlarining tanqidiy fikrlarini T-sxema jadvali asosida to‘ldirish vazifasi beriladi.

ISSN: 2992-9210

№	Davlat boshqaruvining afzalliklari	Davlat boshqaruvining kamchiliklari	Davlat boshqaruvi doirasida o‘quvchilar qarorlari
1			
2			
3…			



- vaqt tugagach fan o‘qituvchisi o‘quvchilardan izohlarsiz o‘z fikr-mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha fikr-mulohazalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi;

-reglamentga rioya etiladi.

Kutiladigan natija: O‘quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, darsning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi[3:37].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalardan yana biri bu “Nima uchun” sxemasi hisoblanib, bunda muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri, tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Tarix darslarida bo‘lib o‘tgan voqeaga nisbatan tanqidiy qarash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» jadvalini to‘ldiring?

Nima sababdan O’zbek xonliklarni Rossiya imperiyasi birin ketin bosib oldi. Xonliklarning zaif tomoni qaerda deb o’ylaysiz?

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarix darslarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantish orqali, ularda muammoni hal qilish, qaror qabul qilish, samarali muloqot qilish, nizolarni hal qilish, uzluksiz o‘rganish kabi hayotiy yechimlarni mustaqil hal qilishlariga ko‘maklashadi. Bu omillar o‘uvchilarga oqilona qarorlar qabul qilish va shaxsiy va jamiyat

ISSN: 2992-9210

farovonligiga ijobiy hissa qo‘shish imkonini beradi. Dars mashg‘ulotlari davomida faol o‘rganish texnologiyalarini joriy etib borish orqali yuqorida ta’kidlab o‘tilgan hayotiy ko‘nikmalar o‘quvchilarda namoyon bo‘la boshlaydi. Agar o‘quvchi tanqidiy fikr yuritsa, u darsning istalgan bosqichiga osongina kiradi. Tanqidiy fikrlashning har bir usuli va strategiyasi o‘quvchining ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga ko‘maklashib, dars mashg‘ulotlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T:. “O‘zbekiston”, 4-jild, 2020.
2. Bain, Robert B. “Into the Breach: Using Research and Theory to Shape History Instruction” In Knowing. Teaching & Learning History: National and International Persoectives, edited by P. Stearns, P. Seixas, and S. Wineburg, 331-53. New York: New York University Press, 2000.
3. Boymirzayev X. Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish (Uslubiy qo‘llanma). - Namangan., 2022.
4. Carl Kosta Savich. “Improving Critical Thinking Skills in History” Networks: An Online Journal for Teacher Research: Vol. 11: Iss. 2. 12-20-2009.
5. Fayzullayeva G. So‘rovga asoslangan ta’lim mexanizmi asosida o‘qitish. “Pedagoglarni kasbiy rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. - Samarqand., 2025-yil, 20-iyun.
6. Reymov K. Tarix darslarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish usullari. // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center. IF = 8.165. Online: 30th May 2025.
7. Nosirov O.N. Tanqidiy fikrlash texnalogiyasining shakllanishida klaster metodining roli / Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar. Xalqaro konferensiya. - Chirchiq. 2021.
8. Toshtemirova S. Tarix fanlarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi asosida o‘qitish samaradorligi. *// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №5)*
9. Xamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar (o‘quv qo‘llanma). T.:2004.
10. Кабышева М.О. Оценка эффективности выделенного курса химии для развития критического мышления // Вестник КазНацЖенПУ. – 2022.
11. // app.napkin.ai/page

ISSN: 2992-9210

JUNG‘OR XONLIGINING IJTIMOIY-SIYOSIY TUZUMI

SOCIO-POLITICAL SYSTEM OF THE DZUNGAR KHANATE

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ДЗУНГАРСКОГО ХАНСТВА

Tohirov Muhammadali Botir o‘g‘li

Tohirov M.B.,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universititi tarix fakulteti jahon tarixi kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola Jung‘or xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda xonlikning davlat boshqaruvi tizimi, feodal tabaqalanish, harbiy-ma’muriy tuzilma va lamaizmning siyosiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Jung‘or xonligi markazlashgan feodal davlat bo‘lib, hokimiyat xon va uning noyonlari qo‘lida jamlangan. Jamiyatda zodagonlar, ruhoniylar va oddiy chorvadorlar o‘rtasida aniq ijtimoiy farq mavjud bo‘lgan. Lamaizm esa davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilib, siyosiy tuzumni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan.

Kalit so‘zlar: *Jung‘or xonligi, oyratlar, siyosiy tuzum, davlat boshqaruvi, feodal tizim, xonlik hokimiyati, noyonlar, zaisanlar, taishilar, harbiy-ma’muriy tizim, ijtimoiy tabaqalanish, lamaizm, buddizm, ruhoniylar, markazlashuv siyosati.*

Annatation. This article is devoted to the study of the socio-political system of the Dzungarian Khanate. It analyzes the state administration system of the khanate, feudal stratification, military-administrative structure, and the role of Lamaism in political life. The Dzungarian Khanate was a centralized feudal state, with power concentrated in the hands of the khan and his nobles. There was a clear social distinction in society between the nobility, clergy, and ordinary herders. Lamaism, however, rose to the level of state ideology and played an important role in strengthening the political system.

Keywords: *Dzungar Khanate, Oirats, political system, state administration, feudal system, khanate power, noyons, zaisans, taishis, military-administrative system, social stratification, Lamaism, Buddhism, priests, centralization policy*.

Аннотация. Эта статья изучению социально-политического строя Джунгарского ханства. Анализируются система государственного управления ханства, феодальная стратификация, военно-административная структура и роль ламаизма в политической жизни. Джунгарское ханство представляло собой централизованное феодальное государство, власть в котором была сосредоточена в руках хана и его нойонов. В обществе существовало чёткое социальное различие между знатью, духовенством и простыми скотоводами. Ламаизм же, напротив, возвысился до уровня государственной идеологии и сыграл важную роль в укреплении политической системы.

ISSN: 2992-9210

Ключевые слова: *Джунгарское ханство, айраты, политическая система, государственное управление, феодальная система, ханская власть, нойоны, зайсаны, тайши, военно-административная система, социальная стратификация, ламаизм, буддизм, духовенство, политика централизации.*

Kirish

XVII–XVIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy kurashlar, davlatlarning shakllanishi va inqiroz davrlari bilan ajralib turadi. Shu davrda G‘arbiy Mo‘g‘uliston hududida tashkil topgan Jung‘or xonligi o‘zining harbiy-siyosiy qudrati, ichki boshqaruv tizimi va diniy-ma’naviy siyosati bilan alohida o‘rin egallagan. Bu davlat nafaqat mo‘g‘ul xalqlari, balki butun Markaziy Osiyo tarixida muhim siyosiy subyekt sifatida faoliyat yuritgan. Jung‘or xonligi 1635-yilda oyrat qabilalari birlashuvi natijasida shakllanib, qisqa vaqt ichida kuchli harbiy-feodal davlat darajasiga ko‘tarildi. Xonlikning siyosiy tuzumi, ijtimoiy tabaqalanishi va diniy siyosati o‘z davrining murakkab siyosiy jarayonlarini aks ettiradi. Ayniqsa, Batur-xuntaiji va Galdan Boshoktu-xon davrida davlat boshqaruvi markazlashgan, feodal tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashgan, lamaizm esa davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:

Mazkur maqolada Jung‘or xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi, ya’ni davlat boshqaruvining asosiy tamoyillari, ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlar, diniy tuzumning siyosiy jarayonlardagi roli hamda markazlashuv siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot davomida tarixchi olimlar I. Ya. Zlatkin, V. A. Moiseev, G. E. Grumm-Grjimaylo, M. Biran va boshqa mutaxassislarning asarlari ham tahlil obyekti sifatida foydalaniladi. Jung‘or xonligining ijtimoiy-siyosiy tizimini o‘rganish Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, ayniqsa, mo‘g‘ul va turkiy davlatlarning siyosiy an’analarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur mavzu tarixiy jarayonlarning izchil tahlilini ta’minlashda va mintaqaviy siyosiy tizimlarning o‘zaro ta’sirini tushunishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Umuman ko‘chmanchi xalqlar, xususan mo‘g‘ullarning ijtimoiy va siyosiy tuzumi evolyutsiyasi ularning tarixiy rivojlanishidagi eng kam o‘rganilgan jihatlardan biridir. Buning sababi, avvalo, ko‘chmanchi xalqlarning o‘zlariga mansub va ilm-fan uchun ochiq bo‘lgan moddiy hamda yozma yodgorliklarning nihoyatda kamligidir; ular ko‘chmanchi jamiyatlarda moddiy ishlab chiqarish jarayonida shakllangan munosabatlarni, mulk turlari va shakllarini, bu jamiyatlarning tabaqaviy tuzilishini ishonarli va xolis tarzda yoritib berish masalalari bugungi tarix fani oldida turgan daolzabr vazifalardan biri hissoblanadi.

Manbalar kamligi tadqiqotchilarni ko‘chmanchi xalqlarning ijtimoiy-siyosiy tarixi masalalarini turli xil bilvosita dalillar asosida hal etishga majbur qildi, bu esa turfa sxematik qurilmalarga keng yo‘l ochdi, ularda real tarixiy faktlardan ko‘ra tadqiqotchilarning shaxsiy qarashlari yetakchi rol o‘ynadi. Bu yerda yagona istisno B. Vladimirtsovning mo‘g‘ullarning ijtimoiy tuzumi haqidagi mashhur asari bo‘lib, unda har bir xulosa va umumlashma mo‘g‘ul solnomalaridan olingan boy aniq-tarixiy va lingvistik materialga tayangan. Bunga mutlaqo zid yondashuvni biz S. Tolyabekovning qozoqlarning ijtimoiy tuzumi haqidagi asarida ko‘ramiz[1, b.291]. Unda turli mamlakatlar va turli tarixiy davrlardagi ko‘chmanchi xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti umumiy qonuniyatlari haqida mulohazalar katta o‘rin egallagan. Muallif o‘z konsepsiyasini, asosan, aniq-tarixiy materialga emas, balki turli maktab va yo‘nalishlarga mansub ko‘plab mualliflar asarlaridan keltirilgan iqtiboslar bilan mustahkamlangan nazariy mulohazalarga tayanadi.

ISSN: 2992-9210

S. Tolyabekov konsepsiyasining asosiy qoidalari yangi va o‘ziga xos emas, ularni A. Pozdneev, G. Grum-Grjimaylo, N. Veselovskiy, V. Radlov, B. Grigoryev va boshqalarning asarlarida uchratamiz. S. Tolyabekov fikricha, dunyodagi barcha o‘troq xalqlarga xos bo‘lgan feodalizmning umumiy qonuniyatlari ko‘chmanchi xalqlarga tatbiq etilmaydi, ular o‘z rivojida «patriarxal-feodal» munosabatlar deb ataladigan bosqichdan yuqoriga ko‘tarila olmaydi. Bu munosabatlar, deb hisoblaydi S. Tolyabekov, alohida bazis va alohida ustqurmaga ega bo‘lgan maxsus ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya sifatida namoyon bo‘ladi [1, b.376]. V. Radlov hali XIX asr oxiridayoq shunday yozgan edi: «Knyaz, amaldor, xalq, davlat, viloyat, mulk tushunchalari ko‘chmanchilar hayotida o‘troqlardagi ma’noda emas. Xuddi shuningdek, urush va tinchlik ham ko‘chmanchilarning ijtimoiy munosabatlariga madaniy o‘troqlar dagidek ta’sir ko‘rsatmaydi» [2, b.65].

Bu munosabat bilan V. Bartoldning quyidagi mulohazasini eslamaslik mumkin emas: «Mana bu satrlarning muallifini Sharq tarixini o‘rganish shunchalik oddiy haqiqatlarni anglashga tobora ko‘proq olib kelmoqdaki, Sharqda ham, G‘arbda ham tarixiy evolyutsiyaning bir xil qonunlari amal qiladi»[3, b.355]. Biz bu bayonotga to‘liq qo‘shilamiz. Asl tarixiy faktlar, manbalar guvohliklari uning to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Jung‘or xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi haqidagi materiallarni bayon qilar ekan, muallif oyratlarda moddiy ishlab chiqarish jarayoni va ijtimoiy munosabatlar sharqiy mo‘g‘ullar va qalmoqlardagi shunga o‘xshash jarayon va hodisalar bilan mohiyatan va asosiy jihatlarda uyg‘un bo‘lgan, degan nuqtai nazardan chiqadi. Shu asosda muallif Jung‘oriyadagi holatni tavsiflashda, tabiiyki, zamon va aniq vaziyatning ta’sirini inobatga olgan holda, Qalmoqiya va Halxa bo‘yicha ma’lumotlarni ham jalb etishni o‘rinli deb hisoblagan va hisoblaydi.

Mo‘g‘ul, xitoy va rus manbalari guvohliklari shubha qoldirmaydiki, XVII–XVIII asrlarda Mongoliyada har bir feodal mulk aniq belgilangan hududga ega bo‘lgan, bu hudud doirasida ayni mulkning hukmdori va egasiga bo‘ysunuvchi aholi ko‘chib-qo‘nib yurgan. Bu chegaralar xonlar va knyazlar o‘rtasida yaylovlar uchun kurash jarayonida o‘rnatilib, o‘zgartirilib, qayta belgilab turilgan. Ammo har bir paytda feodal mulklarning chegaralari qat’iy belgilangan edi. Ularni buzish va o‘zboshimchalik bilan boshqa mulk hududiga o‘tish zo‘rlik bilan bostirib kirish va urush boshlanishi sifatida ko‘rilgan. Yuqorida aytilganidek, 1640-yilgi qonunlar chegaralarning daxlsizligi haqidagi qadimiy huquqiy me’yorlarni tasdiqlagan va ularni buzuvchilarga nisbatan qat’iy sanksiyalarni nazarda tutgan.

Biroq hayot o‘z tuzatishlarini kiritardi. Podalar sonining o‘sishi, yangi merosxo‘rlarning paydo bo‘lishi va boyishga intilish ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligining asosiy qarama-qarshiliklaridan birini uning rivojlanishi bilan yaylov maydonlarining cheklanganligi o‘rtasidagi ziddiyatni qayta-qayta tug‘dirar edi. Ibtidoiy ishlab chiqarish texnikasi sharoitida ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligi faqat yaylov hududlarining uzluksiz kengayishi bazasida rivojlanishi mumkin edi. Ular yetarli bo‘lganda yangi yerlarga egalik qilishga ehtiyoj tug‘ilmasdi, ammo mavjud yaylovlar xonlar va knyazlarning ehtiyojini qondirmay qo‘ygach va barcha zaxira maydonlar tugagach, feodal mulklarni qayta taqsimlash, yaylov hududlarini qayta bo‘lish uchun kurash muqarrar bo‘lib qolardi[4, b.258].

Ko‘chmanchi xalqlarda «yer torligi»ning o‘ziga xos xususiyatini qayd etish lozim. U ko‘proq bir birlik maydonga to‘g‘ri keladigan odamlar soni bilan emas, balki chorva miqdori, shuningdek yerning sifati, uning unumdorligi va suv bilan ta’minlanganligi bilan belgilanar edi. XVII–XVIII asrlar manbalarida mo‘g‘ullarda «yer torligi» va u keltirib chiqargan yaylov hududlarini qayta bo‘lish uchun kurash haqida ancha ko‘p ma’lumotlar bor. «Yer torligi» ichki o‘zaro nizolarning bosh sabablaridan biri bo‘lgan, oyrat feodallarining tashqi urushlarini ham shartlab qo‘yardi. XVIII asrning birinchi yarmida Jung‘or xonligi yaylov hududlariga keskin ehtiyoj sezgan. 1721-yil yozida Tsevan-Rabdan elchisi Borokurgan Peterburgda, o‘z xoni topshirig‘iga binoan, Ilgari uning odamlari Irtish daryosi yuqori

ISSN: 2992-9210

oqimlarida ko‘chib yurishgan va hech kim ularni siqmagan. Endi esa u yerlarda ruslar shaharlar qurdilar. Nizolardan qochish uchun kontaysha o‘z odamini bu joylardan olib ketdi, natijada ko‘chish joylari tanqisligi sezilmoqda. Kontaysha davlatdan uning odamlari Irtishning ikki tomonida hech to‘siqsiz ko‘chib yurishiga ijozat berishni so‘raydi [4, b.265].

Ma’lumki, har bir mo‘g‘ul feodal mulkining boshida xon yoki knyaz turar, u mulk otadan meros tarzida o‘tar va o‘zi ham uni o‘z merosxo‘riga qoldirar edi. Feodal mulk avloddan avlodga «umchi», ya’ni mazkur omokning merosiy mulki sifatida o‘tardi. Har bir hukmdor knyaz tashqi dunyo, boshqa hukmdor knyazlar oldida o‘z mulkining shubhasiz egasi sifatida namoyon bo‘lardi. Bu mulk huquqini inkor etish urush degani edi; zero faqat qurol kuchi bilangina feodalning mulkini, uning umchisini undan tortib olish mumkin edi. Manbalarni o‘rganar ekanmiz, avvalo shuni ko‘ramizki, umchi aniq ravishda ulus va nutugga bo‘lingan. Ma’lumki, XII–XIII asrlarda ham Mo‘g‘ulistondagi feodal mulklar ayni shu ikki qismdan tarkib topgan. «Udel ikki qismdan iborat edi, muayyan miqdordagi ko‘chmanchi oila (ulus) hamda ularni boqishga yetarli yaylov va ovchilik yerlari (nutug)» [5, b.111]. Mo‘g‘ulistonda feodal mulklarining asosiy tuzilishi feodalizmning butun davri mobaynida o‘zgarmay qolgandi. Manbalar shundan dalolat beradiki, «ulus» atamasi bilan doimo aynan odamlar, xalq, ya’ni feodal mulk egasiga — muayyan hukmdor knyazga — tobe bo‘lgan bevosita ishlab chiqaruvchilar nazarda tutilgan.

Feodal mulkning ikkinchi qismi «nutug» edi. «Ma’lum iqtisodiy-ijtimoiy birlik ko‘chib yurishi mumkin bo‘lgan makon, mo‘g‘ulchada nutux—nuntug, turkchada yurt deyiladi» [5, b.43]. Hozirgi mo‘g‘ul tilida ham «nutug» so‘zi yashash joyini, ko‘chish hududini, o‘lka-mahallani anglatadi; «nutug» va «ulus» so‘zlarining birikmasi esa «mahalliy odamlar», «mahalliy aholi» tushunchasini hosil qiladi. Demak, tasvirlanayotgan davrda Mo‘g‘ulistondagi har bir hukmdor knyaz o‘z mulkida yashayotgan odamlardan iborat ulusning feodal hokimi, hamda uning feodal mulkini tashkil etgan yerlar, yaylovlardan iborat nutugning egasi hisoblangan, degan xulosa asosli.

O‘z mulklarida tobe’lar ko‘chib yurgan yerlarning egasi sifatidagi hukmdor knyazlar to‘g‘risida ko‘plab dalillar I. Rossoxin «Tarix»ida ham keltiriladi. 1688-yilda oyrat qo‘shinlarining Halxaga bostirib kirishi munosabati bilan, yuqorida aytilganidek, Halxadagi deyarli barcha knyazlar va oddiy ko‘chmanchilar o‘z joylarini tark etib, xonliklar va knyazliklar chegaralarini buzgan holda tartibsiz ravishda Sin imperiyasi hududlariga oqib o‘tishdi. Natijada feodal huquqiy tartibning asoslari ham bir muddat buzildi. Xonlar va knyazlar o‘z nutug va uluslarini yo‘qotdilar, vassallar va qaramlar bilan aloqalari uzildi; xo‘jayini qaerda ekanini bilmagan qaram aratlar amalda ularning hokimiyatidan chiqib ketdilar. Sin hokimiyati ancha mehnat qilib, feodalizm uchun xos bo‘lgan ijtimoiy rishtalar va munosabatlarni deyarli yangidan tiklashga kirishdi. Shu sharoitda yerga, yaylov hududlariga ko‘chmanchi chorvachilik ishlab chiqarishining eng muhim vositasiga bo‘lgan feodal mulk masalasi ayniqsa ravshan va ishonarli ifodasini topdi [6, b.130,186,191]. Mazkur tadqiqotda tarixiy-komparativ yondashuv asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida birlamchi (mo‘g‘ul, qalmoq, xitoy va rus kronikalari, qonuniy hujjatlar, elchi yozishmalari) va ikkilamchi (zamonaviy tarixshunoslik va monografiyalar) manbalar birgalikda tahlil qilindi. Manbalarni tanqidiy tahlil qilish (source criticism) orqali ularning kronologik aniqligi, muallifiy tarafkashligi va lokal kontekstga ta’siri baholandi. Komparativ metod yordamida Jung‘or xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi Markaziy Osiyodagi boshqa mo‘g‘ul va turkiy siyosiy birliklar bilan solishtirildi, bu esa umumiy va xos xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi. Tipologik va strukturaviy tahlil feodal tabaqalanish, domen-nutug tizimi hamda harbiy-ma’muriy institutlarning ierarxiyasini tasniflashga xizmat qildi. Nazariy jihatdan tadqiqot feodalizm va markazlashuv nazariyalari asosida olib borildi; kerakli hollarda etnohistorik va lingvistik materiallar ham interdisipliner tarzda foydalanildi. Qo‘lga kiritilgan kvantitativ ma’lumotlar (yaylovlar, podalar, harbiy chiqishlarga oid raqamlar) manbalarda mavjud bo‘lgan holatda statistik tarzda umumlashtirildi.

ISSN: 2992-9210

NATIJALAR VA MUHOKAMA:

Manbalar majmuasi shunday xulosaga olib keladiki, ko‘rib chiqilayotgan davrda mo‘g‘ul jamiyati, shu jumladan oyrat jamiyati ham, har qanday feodal jamiyat singari, ikki asosiy sinfga — feodallar va dehqon-aratlarga, ya’ni oddiy ko‘chmanchi chorvadorlarga bo‘lingan. Birinchilar yerning, yaylov hududlarining monopol egalaridir; ikkinchilar esa yer egaligidan mahrum bo‘lgani uchun feodalga qaram sinfni tashkil etgan. Har ikkala sinf tabaqaviy guruhlarga ajralgan. Tabaqaviy tuzum eng aniq shaklini Halxa va Janubiy Mo‘g‘ulistonda olgan bo‘lib, bu yerda Sin qonunchiligi tufayli tabaqalarning huquq va burchlari eng to‘liq va qat’iy tartibga solingan edi. Biroq ma’lumki, Sin qonunchiligi Mo‘g‘ulistonning ijtimoiy tuzilishiga tamoman yangi prinsipial o‘zgarishlar kiritmagan; u, asosan, mavjud institutlarni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish va ularni Sin manfaatlariga moslashtirish yo‘li bilan borardi. Bu esa Jung‘or xonligi ijtimoiy tuzilishi, umuman olganda, Halxa va Janubiy Mo‘g‘ulistonning Sin imperiyasiga qo‘shilishidan avvalgi tuzilishiga muvofiq bo‘lganini tasdiqlash imkonini beradi. Qalmoqiyada esa Jung‘oriya bilan bir xil ijtimoiy munosabatlar hukm surgan, garchi vaqt o‘tishi bilan Rossiya ijtimoiy tuzumining ta’siri ostida ayrim o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lsa-da.

Oyrat feodal jamiyati boshida Choros sulolasidan bo‘lgan xon turgan. Uning mavqei va hokimiyati barqarorligi shaxsiy mulki domeni resurslariga tayanar va ular bilan belgilanardi. Jung‘or xonining domeni xonning shaxsiy tasarrufidagi yerlar, odamlar va chorva, shuningdek uning yaqin qarindoshlari — choroslik hukmdor knyazlar ixtiyoridagi mulklardan iborat edi. Xon domenining rolini 1724-yil bahorida nufuzli Qalmoq feodallaridan biri Dorji Nazarov obrazli ifodalagan: «Kim xon bo‘lishidan qat’i nazar, u faqat unvon va birinchi o‘rin ko‘rinishidagi foyda oladi; uning real daromadi esa faqat o‘z uluslaridan bo‘ladi; qolgan hukmdorlar o‘z uluslarini o‘zlari boshqaradi, xon ularning ichki ishlariga aralashmasligi kerak, bu borada hech kim uni tinglamaydi»[4, b.260]. Bu so‘zlardan xon hokimiyatining mustahkamligi va nufuzi uning domeni miqyosi va boyligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosib bo‘lgani ayon. Shundan xonlar va taxt da’vogarlari o‘z domenlarini kengaytirish uchun olib borgan qattiq kurashlar tushuntiriladi. Masalan, Qalmoq Ayoqa-xonning otasi Puntsuk «amaki-ukalarini va ularning bolalarini uluslardan mahrum etishga intilar, buning uchun ularni o‘zaro nizoga boradi, o‘ziga qarshi bo‘lgan jiyanini Jalbuni yengib uning ulusini egallab olgan». Yuqorida Qalmoq knyazlarining o‘zaro urush sabablariga doir mulohazalari va Ayoqaning qarindoshlarini “siqib chiqarib” ularning uluslarini egallashi ichki nizolarni “hal etish”ning bir namunasi sifatida keltirilgani esga olingan. Xuddi shunday yo‘lni Xara-Xula va Batur-xuntayji ham tutgan. Domenining kuchiga, ko‘plab uluslari va keng nutuglariga, salmoqli harbiy qudratiga suyanib, xon boshqa hukmdor knyazlarga o‘z irodasini nisbatan oson o‘tkazish va ularni itoatda ushlab turish imkoniga ega edi.

Jung‘or xoni oyrat feodallar davlatidagi birinchi shaxs edi. Feodal-ierarxiyaning keyingi pog‘onasida boshqa buyuk knyazlar — xusho‘ut, durbet, xoyit va boshqa yirik uluslar hukmdorlari, ya’ni tayjilar turardi. Bunday tayjining mulki o‘z navbatida bir qator uluslardan iborat bo‘lib, ularning boshida uning qarindoshlari omog‘ a’zolari turar, ular mustaqil hukmdorlar bo‘lsalar-da, mazkur tayjiga qaram edilar. Oyrat manbalari terminologiyasida bunday ulus hukmdorlari “kichik knyazlar” bo‘lib, tayjilar va xon — “buyuk knyazlar”, xuntayjilardan farqlanardi. Har bir tayji o‘z mulkiga ega bo‘lib, bu mulk uning kichik knyazlar ustidan hokimiyatining asosiy sharti edi; shu bois o‘z mulkini kengaytirish va mustahkamlash oyrat tayjilar doimo diqqat markazida turgan masala edi.

Knyazlar, noyonlar o‘z uluslarini qismlarga bo‘lib, ularni yaqin qarindosh va sodiq hamkorlariga mulk qilib berar edilar. Har bir bunday qism ham ulus yoki aimag deb atalgan, ularning egasi va boshqaruvchilari zaysang‘lar deb yuritilgan. Aimaklarda bir necha kibitkadan o‘tovdan tortib, bir necha o‘nlab, hatto yuzlab va mingtagacha bo‘lishi mumkin. Noyon vafotidan so‘ng uning ulusi o‘g‘illariga ulushlab bo‘linadi, bu o‘g‘illardan kattasiga boshqalarga nisbatan ko‘proq ulush tegadi. bunday ulush

ISSN: 2992-9210

keyinchalik alohida ulus deb yuritiladi. Xuddi shunday bo‘linish zaysanglar vafotidan keyin ularning aimaklariga nisbatan ham amalga oshiriladi» [4, b.262].

Oyrat jamiyatining tuzilishi ancha murakkab edi. Tadqiqotchilarning barchasi unda tabaqalar mavjudligini qayd etadi, ammo ularning soni va xususiyatini turlicha belgilaydi. N. Bichurin fikricha, oyratlar ikki tabaqaga bo‘lingan: harbiylar va ruhoniylar; birinchisi esa o‘z navbatida zodagonlar va soliq to‘lovchilarga ajralgan[7, b.127]. S. Bogoyavlenskiy oyratlarda uch tabaqa — jangchilar, “qora odamlar” va qullarni sanab o‘tadi. X. Xaslund esa to‘rttasini ko‘rsatadi: “oq suyak”, ya’ni aristokratiya; “qora suyak”, ya’ni soliqdor aholi; darxonlar, ya’ni majburiyatlardan ozod qilinganlar; va ruhoniylar [8, b.300].

P. Pallas ham shularni tasdiqlaydi: «Odatda knyaz (tayji) o‘z xalqining boshqaruvini katta o‘g‘liga qoldiradi. Qolgan farzandlariga esa ozroq sonli oilalar beriladi, ular bu oilalar ustidan, xuddi knyaz o‘z xalqi ustidan bo‘lgani kabi, hukmdor noyondir, biroq asosiy ulus egasi bo‘lgan knyazdan ajralmagan holda, ma’lum darajada unga qaramlikda qoladilar va uning barcha harbiy hamda tinchlikdagi farmonlariga bo‘ysunadilar»[9, b.300].

Jung‘or feodallarining alohida toifasini cherkov knyazlari oliy lamalar tashkil etgan. Ularning huquq va imtiyozlari, yuqorida aytilganidek, knyazlar chulg‘anlari qarorlari, ayniqsa 1640-yilgi qonunlar bilan asta-sekin belgilangan. Jung‘orda, butun Mo‘g‘ulistonda bo‘lgani kabi, oliy lamalar asosan feodallar eng ko‘pi bilan hukmdor knyazlarning kenja o‘g‘illari orasidan chiqardi, ular dunyoviy hukmronlikni egallash imkoniyatiga kam ega bo‘lgan. Cherkov iyerarxiyasiga kirish orqali bu zodagon avlodning kenja avlodlari ko‘p narsaga ega bo‘lgan. Ular dunyoviy birodarlaridek uluslar egasi bo‘lgan, ulkan podalarga egalik qilgan, ularga maxsus nutuglar ajratilgan, dunyoviy knyazlar yaylovlarida to‘lovsiz va to‘sqinliksiz chorva boqish huquqiga ega bo‘lgan, yuzlab, hatto minglab krepostnoylarni ekspluatatsiya qilgan. Lamalar davlatda va xalq ommasi orasida katta ta’sirga ega edilar; «xalq ularga ulug‘ ehsonlar qiladi, — deb yozadi V. Bakunin, tiz cho‘kib ehtirom ko‘rsatadi ayniqsa xonlikdagi oliy lamani kichik xudolaridan biri deb biladilar. Shu bois umuman barcha Qalmoq va mo‘g‘ul xalqlari orasida noyonlar va zaysang‘lar ruhoniylikka ishtiyoq bilan kiradi»[4, b.264]

XULOSA

Jung‘or xonligidagi feodallar sinfi to‘rt guruhga bo‘lingan: buyuk knyazlar, kichik knyazlar, zaysang‘lar va oliy lamalar. Ushbu guruhlarning tabaqaviy farqlari xonlik qonunchiligida to‘liq normativ ifodasini topmagan bo‘lsa-da, amaliy hayotda feodallarning ijtimoiy mavqei, huquq va imtiyozlari ularning qaysi guruhga mansubligiga qarab belgilanardi. Manbalar ko‘rsatishicha, feodal ierarxiyaning asosi yer egaligi tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Buyuk knyazlar o‘z mulklaridagi barcha yaylovlarning bevosita egasi sifatida ko‘chish hududlarini o‘zlariga tobe kichik knyazlarga, ya’ni alohida uluslar egalariga taqsimlagan. Kichik knyazlar esa o‘z navbatida, o‘z mulklaridagi barcha nutuglar ustidan egalik qilib, ularni zaysang‘lar o‘rtasida taqsimlagan.

Barcha pog‘onadagi feodallar o‘z shaxsiy xo‘jalik ehtiyojlari uchun eng unumdor va qulay yaylovlarni ajratib olganlar. Zaysang‘lar, ulus egalari bo‘lgan noyonlardan farqli ravishda, istalgan paytda ularning ixtiyoriga ko‘ra mulk huquqidan mahrum etilib, go‘yo “yer-siz dvoryan” holatiga tushib qolishlari mumkin edi. Noyonlarga nisbatan esa bunday amaliyotni tinch yo‘l bilan amalga oshirishning imkoni bo‘lmagan. Cherkov knyazlari esa dunyoviy hamkasblari kabi ulus va nutug‘lar egasi bo‘lsalarda, ular dunyoviy mulkdor knyazlar zimmasiga yuklatilgan ayrim majburiyatlardan ozod etilgan edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Толыбеков С. Е. Общественно-экономический строй казахов в XVII—XIX веках. А.-А., 1959. С-291

ISSN: 2992-9210

2. Радлов В. В. К вопросу об уйгурах.— «Записки Императорской Академии наук». Т. 72. Кн. 1. СПб., 1883. с-65.
3. Бартольд В.В. Киргизы. Фрунзе, 1927. с-355.
4. И. Я. Златкин ИСТОРИЯ ДЖУНГАРСКОГО ХАНСТВА 1635–1758 Издание второе издательство «наука» редакция восточной литературы Москва -1983 258-с
5. Владимирцов Б. Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. М.— Л., 1934. С-111.
6. История о завоевании китайским ханом Канхием калкаюкого и эле такого народа, кочующего в Великой Татарии, состоящая в пяти частях. Пер. И. Россохин. — СПб., 1750. С-130, 186,191.
7. Издание второе издательство «наука» редакция восточной литературы Москва -1983 с-260
8. Иакииф. Историческое обозрение ойратов или калмыков с XV столетия до настоящего времени. СПб. 1834. С-127.
9. Haslund, H. *Men and Gods in Mongolia.* — London, 1935. P-300.
10. Паллас П. С. Собрание исторических известий о монгольских народах, сочинённое господином П. С. Палласом. — СПб., 1766. С-300

ISSN: 2992-9210

SOVET DAVRIDA O‘ZBEK MUSIQIY SAN’ATIDA YUZ BERGAN JIDDIY O‘ZGARISHLAR VA ULARNING MILLIY MADANIYAT RIVOJIGA TA’SIRI

СЕРЁЗНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

SERIOUS CHANGES IN UZBEK MUSICAL ART DURING THE SOVIET PERIOD AND THEIR IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURE

Ziyodov Otabek

Ziyodov O.,
asisstent o‘qituvchi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi
otabek.ziyodov.94@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola Sovet davrida O‘zbekiston musiqa san’atida yuz bergan jiddiy o‘zgarishlar va transformatsion jarayonlarni tahli qiladi. 1917 yil Oktabr inqilobidan keyin boshlangan musiqiy sohadagi o‘zgarishlar, yangi janrlar va yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi, milliy an’analar bilan sotsialistik realizm talablari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muhokama qilinadi. Maqolada musiqaning targ‘ibot vositasi sifatida qo‘llanilishi, davlat nazorati ostidagi rivojlanishi va natijada milliy musiqiy merosga ta’siri chuqur o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar*: Sovet davri, O‘zbek musiqasi, musiqali drama, opera, milliy an’analar, madaniy transformatsiya, musiqiy janrlar, davlat nazorati.*

Аннотация. В данной статье анализируются серьёзные изменения и трансформационные процессы в музыкальном искусстве Узбекистана в советский период. Рассматриваются музыкальные изменения, начавшиеся после Октябрьской революции 1917 года, появление новых жанров и направлений, взаимодействие между национальными традициями и требованиями социалистического реализма. В статье глубоко изучено использование музыки как средства пропаганды, её развитие под государственным контролем и влияние на национальное музыкальное наследие.

Ключевые слова: *Советский период, узбекская музыка, музыкальная драма, опера, национальные традиции, культурная трансформация, музыкальные жанры, государственный контроль.*

Annatation. This article analyzes the significant changes and transformational processes in Uzbek musical art during the Soviet period. It discusses musical changes that began after the October Revolution of 1917, the emergence of new genres and directions, and the interaction between national traditions and the demands of socialist realism. The article thoroughly examines the use of music as a propaganda tool, its development under state control, and its impact on national musical heritage.

Keywords*: Soviet period, Uzbek music, musical drama, opera, national traditions, cultural transformation, musical genres, state control.*

ISSN: 2992-9210

Sovet davri (1920–1991) O‘zbekiston madaniyati xususan, musiqiy san’atida chuqur va qarama-qarshi o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davrda an’anaviy musiqiy meros markazlashtirilgan siyosat, ideologik nazorat va modernizatsiya bosimi ostida qoldi. O‘zbek musiqasi Sovet madaniy siyosati doirasida rivojlantirildi, natijada uning shakli, mazmuni, ijro uslubi va tashkil etilishida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi.

O‘zbek musiqachilari Moskva va boshqa shaharlarga ta’lim olishga yuborildi. 1936 yilda tashkentda konservatoriya ochildi. O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tashkil etildi. Milliy cholg‘u asboblarini standartlashtirish ishlari olib borildi. Radio va gramplastinka orqali o‘zbek musiqasi keng tarqaldi. Xalq qo‘shiqlarini yozib olish va o‘rganish kampaniyalari o‘tkazildi. “O‘zbekiston xalq artisti” kabi unvonlar joriy qilindi. Diniy marosim musiqasi deyarli yo‘q bo‘lib ketdi. Yangi yozilgan o‘zbek operalarida g‘arbiy garmoniya va o‘zbek melodiyalari aralashtirildi. Toshkentda musiqa maktablari tarmog‘i yaratildi. An’anaviy musiqa merosini saqlash va o‘rganish instituti ish boshladi. O‘zbek kompozitorlari uyushmasi tuzildi. Musiqa festivallari o‘tkazila boshladi. Xor ijrosi keng ommalashdi.[1, B 480]

Sovet davrida o‘zbek musiqasi davlat tomonidan to‘liq nazorat ostiga olindi va barcha musiqiy faoliyat markazlashtirildi. 1920-1930 yillarda an’anaviy maqom va diniy musiqa qattiq ta’qibga uchradi, ko‘plab sozandalar repressiyalandi. 1936 yilda Toshkent davlat konservatoriyasi ochildi va o‘zbek musiqasi “klassik musiqasi” sifatida qayta tiklandi, ammo faqat davlat qat’iy nazorati ostida musiqa maktablari tarmog‘i yaratildi va an’anaviy “ustoz-shogird” tizimi susayib bordi. O‘zbek musiqasiga opera, balet va simfonik musiqa kabi g‘arbiy janrlar kiritildi, ular o‘zbek melodiyalari bilan aralashtirildi. Nota yozuvi majburiylashtirildi, natijada og‘zaki uzatiladigan an’analar yozma shaklga o‘tdi va improvizatsiya qismi yo‘qoldi. “Shashmaqom” kabi meroslar yozib olinib saqlandi, ammo ularning tirik rivojlanish jarayoni to‘xtadi.[2, B 380]

Sovet davrida “sotsialistik realizm” tamoyili joriy qilindi, barcha musiqiy asarlar partiya va xalq xizmatida bo‘lishi kerak edi. Diniy va lirik mavzular o‘rnini sotsialistik qurilish, kolxoz hayoti va qahramonlik mavzulari egalladi. Xalq cholg‘u asboblari g‘arbiy orkestr tizimiga moslashtirildi. Radio, grammofon va

Fitrat, Uspenskiy, Rajabiy kabi olimlar tomonidan maqom merosini yozib olish va nashr etish ishlari olib borildi, bu merosni saqlab qolishda muhim rol o‘ynadi. Yulduz Xo‘jaeva, Tamaraxonim, Munojat Yulchieva singari ijrochilar an’anani yangi sharotilarda davom ettirdilar. “Bahor”, “Lazgi” kabi etnografik ansambllar milliy raqs va musiqani kontsert shakliga olib keldi. O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, “O‘zbeknavo” va “Shodlik” kabi rasmiy ansambllar tashkil etildi. Musiqa festivallari va xor ijrosi keng ommalashdi.[3, B 140]

Bu o‘zgarishlarning ijobiy tomonlari: professional ta'lim tizimi yaratildi, musiqa merosi yozma ravishda qisman saqlandi, o‘zbek musiqasi butun Ittifoq miqyosida tanildi, yangi ifoda vositalari paydo bo‘ldi.

Salbiy tomonlari: an’anaviy ruhoniylik va improvizatsiya asosan yo‘qoldi, maqomning diniy-falsafiy mohiyati yo‘qoldi, mustaqil ijodiy tafakkur qattiq cheklangan edi. Natijada milliy madaniyat rivoji bir tomondan professional asosda yangi bosqichga ko‘tarildi, boshqa tomondan uning o‘ziga xosligi va an’analari sezilarli darajada o‘zgartirildi.

Davlatning tashkiliy va mafkuraviy ta’siri ostida o‘zbek musiqasi o‘ziga xos tilni yo‘qotib, universal sovet musiqiy tilining bir qismiga aylandi. Musiqada rus va mahalliy an’analarni aralashtirish (“o‘zaro boyitish”) majburiy siyosatga aylantirildi. Bu esa asl maqom tizimi, ritmik naqshlar va mikrotonal ohanglarning soddalashtirilishiga olib keldi.

ISSN: 2992-9210

Yosh avlod konservatoriyalarda asosan g‘arbiy musiqiy nazariya va amaliyot asosida shakllantirildi, bu ularning an’anaviy musiqaga chuqur kirib borish imkoniyatini chekladi. O‘zbek kompozitorlari uyushmasi faqat partiya siyosatiga sodiq bo‘lgan san’atkorlarni qamrab oldi.

Musiqa sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ham siyosiy talablarga bo‘ysundirildi. Fitrat kabi olimlar 1930-yillarda repressiyaga uchradi, uning ishlari taqiqlandi. Keyinchalik musiqashunoslik faqat partiya ruxsati bilan olib boriladigan “xalq musiqasini o‘rganish” darajasida cheklab qo‘yildi.[5, B 156]

“O‘zbek milliy opera va balet teatri” ochildi, uning repertuarida asosan sovet mavzuidagi asarlar, shuningdek, mahalliy mavzularda yozilgan, lekin g‘arbiy janrda bo‘lgan asarlar (masalan, “Layli va Majnun”, “Alisher Navoiy”) namoyish etildi. Bu o‘zbek tomosha san’atini tubdan o‘zgartirdi.

Xalq orasida mashhur bo‘lgan katta to‘y va oilaviy marosim musiqasi (masalan, yor-yor, kelin salom) rasmiy ravishda cheklanmagan bo‘lsa-da, ularning ijrosi va mazmuni o‘zgarishga uchradi, ko‘proq kontsertlashtirildi.

1940-1950-yillardagi urush va keyingi “sovet vatanparvarlik” davrida o‘zbek musiqasida ham front va mehnatkashlar mavzusi ustunlik qila boshladi. Bu davrda yaratilgan ko‘plab qo‘shiqlar rus tilida bo‘lib, butun ittifoq miqyosida mashhur bo‘ldi.

1950-yillardan keyin Sovet sharqshunoslik maktabi ta’sirida an’anaviy musiqani qayta tiklashga qaratilgan cheklangan harakatlar bo‘ldi. “Maqom” kengashlari tashkil etilib, maqom an’analarini tiklashga urinildi, ammo bu jarayon rasmiy doiralarda cheklangan edi.

Radio va televideniya orqali estrada musiqasi keng targ‘alib, o‘zbekcha qo‘shiqlar ham estrada uslubida ijro etila boshladi. Bu an’anaviy va zamonaviy o‘rtasida yangi o‘zaro ta’sir va ziddiyatlar yaratdi.

Natijada, Sovet davri oxirida o‘zbek musiqasi ikkita parallel yo‘nalishda rivojlandi: bir tomondan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan, an’anaviy elementlarni o‘z ichiga olgan, ammo asosan yangi g‘arbiy shakllarda bo‘lgan rasmiy musiqa; ikkinchi tomondan, xalq orasida saqlanib qolgan, ammo cheklangan doirada rivojlanadigan an’anaviy og‘zaki musiqa an’analari. Bu ikkilik o‘zbek madaniyatining keyingi rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi.

Rasmiy maqom ansambllari tashkil etilib, ular Ittifoq bo‘ylab gastrolda bo‘ldi, bu esa o‘zbek musiqasini tashqi dunyoga tanitdi. 1970-yillarda “Shashmaqom”ning olti maqomdan iborat yangi, standartlashtirilgan tahriri nashr etildi. Bu tahrir klassik merosni birlashtirishga xizmat qildi, lekin bir vaqtning o‘zida an’anaviy mahalliy variantlar xilma-xilligini bir me’yorga keltirdi.

O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligi qoshida “Musiqa merosi” bo‘limi ish boshladi, uning vazifasi qo‘lyozma va yozuvlarni to‘plash va saqlash edi. Shu bilan birga, partiya yo‘naltiruvchi organlari qanday meros saqlanishi va ommalashtirilishini belgilab berardi.[6]

O‘zbek kompozitorlari simfonik asarlarida o‘zbek xalq cholg‘u asboblaridan foydalanishni boshladilar. Misol uchun, Mutal Burhonovning “Temur Malik” simfoniyasida tanbur va nay kabi cholg‘ular ishlatilgan. Bu an’anaviy tovushlar yangi janrlar doirasida qayta shakllantirildi.

O‘zbek qo‘shiqchilari Butunittifoq estrada tanlovlarida qatnasha boshladi, masalan, Batir Zokirov “Sopot” xalqaro festivalida sovrinli o‘rinni qo‘lga kiritdi. Bu o‘zbek estrada musiqasining rivojlanishini tezlashtirdi.

Xalqaro aloqalar doirasida o‘zbek musiqachilari chet ellarga, ayniqsa boshqa sotsialistik mamlakatlarga (Sharqiy Yevropa, Kuba, Hindiston) gastrol safarlariga borishdi. Bu o‘zaro madaniy aloqalarni rivojlantirdi.

1970-1980-yillarda yosh avlod orasida rok-musiqa tarqala boshladi, garchi u davlat nazorati va qarshiligi ostida bo‘lsa ham. “Yalla” guruhining paydo bo‘lishi (1970) o‘zbek estrada musiqasida yangi davrni boshlab berdi, ular an’anaviy ohanglarni zamonaviy aranjirovkalar bilan uyg‘unlashtirdi.[8]

ISSN: 2992-9210

Toshkent konservatoriyasida o‘zbek musiqasi tarixi va nazariyasi kafedrasi ochildi, bu yerda ilmiy ishlar olib borildi, ammo ular “sotsialistik millatchilik” da’vosiz bo‘lishi kerak edi.

1980-yillarda “perestroyka” davrida o‘zbek musiqiy matbuotida an’anaviy merosni qayta tiklash haqida munozaralar boshlanadi. Bu jarayon rasmiy ravishda 1989-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNESCO yordami bilan Samarqandda o‘tkazilgan Xalqaro Maqom Simpoziumi bilan mustahkamlandi.[7]

Sovet davrining oxiriga kelib, o‘zbek musiqasi uchta asosiy yo‘nalishda shakllandi: an’anaviy maqom san’ati (rasmiy qayta tiklangan va kontsert shaklida), zamonaviy akademik musiqa (opera, simfoniya) va ommabop musiqa (estrada va rok). Bu uchlamchi tizim mustaqillikdan keyin o‘zbek madaniy siyosati va o‘ziga xoslik izlash jarayonlariga chuqur ta’sir ko‘rsatdi.

Sovet davri o‘zbek musiqiy san’atiga tubdan qarama-qarshi va chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Barcha musiqiy faoliyatning qat’iy markazlashtirilishi va davlat nazorati ostiga olinishi, an’anaviy og‘zaki ijod va ustoz-shogird tizimining susayishi, musiqa mazmunining to‘liq ideologizatsiyasi (diniy va lirik mavzularning sotsialistik talqin bilan almashtirilishi) asosiy o‘zgarishlar edi.

Professional ta’lim tizimining (konservatoriya, maktablar) shakllanishi, musiqa merosining (masalan, “Shashmaqom”) yozma ravishda to‘planishi va saqlanishi, yang ifoda vositalari va janrlarning (opera, simfoniya) kirib kelishi, musiqaning keng auditoriyaga (radio, festivallar orqali) yetib borishi, o‘zbek musiqasining butun Ittifoq va chet elda tan olinishi alohida ajralib turadi.[9]

Musiqaning o‘ziga xos ma’naviy va falsafiy mazmunining yo‘qolishi, improvizatsiya va individual ijod erkinligining qat’iy cheklanishi, an’anaviy amaliyotning g‘arbiy me’yorlar bo‘yicha o‘zgartirilishi (notaga olish, standartlashtirish), xalqaro madaniyat bilan tabiiy aloqalar o‘rniga siyosiy yo‘naltirilgan “o‘zaro boyitish” siyosatining o‘rnatilishiga olib keldi.

Natijada, o‘zbek musiqasi o‘zining organik rivojlanish yo‘lidan chetga surildi va ikkilamchi tizimga aylantirildi: bir tomondan, rasmiy, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan “milliy forma va sotsialistik mazmunga ega” akademik va kontsert musiqasi; ikkinchi tomondan, xalq ommasida saqlanib, cheklangan sharoitda rivojlanadigan an’ana. Bu ikkiliklarning ta’siri mustaqillikdan keyingi davrda ham o‘z madaniy o‘ziga xosligini qayta qurish va zamonaviylashtirish jarayonlarida sezilmoqda. Shunday qilib, Sovet davri o‘zbek milliy madaniyati uchun murakkab, qarama-qarshi natijalar va uzun muddatli ta’sir qoldirgan transformatsiya davri bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karomatov, F., Rajabiy, I. O‘zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti, 2007. – 480 b.

2. Sodiqov, T. O‘zbek opera san’ati tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. – 320 b.

3. Uspenskiy, V., Rajabiy, I. O‘zbek xalq musiqasi. – Toshkent: O‘zbekiston Davlat Nashriyoti, 1924. – 142 b.

4. Rajabov, I. Maqom va madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2005. – 248 b.

5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 10-jild. “San’at”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti, 2005. – 156 b.

6. “Musiqa merosi” jurnali (1975-1991). – Toshkent: O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligi.

7. UNESCO. International Symposium on Maqam (Samarkand, 1989). Final Report. – Paris: UNESCO, 1990.

ISSN: 2992-9210

8. Matyakubov, O. The Sovietization of Uzbek Musical Thought // Journal of Musicological Research. – 2008. – Vol. 27, No. 2-3. – pp. 229-251.

9. International Monetary Fund. Uzbekistan: Structural Reforms and Global Economic Integration. Washington, 2021.

ISSN: 2992-9210

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

PROFESSIONAL TA’LIMDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI: JORIY ETISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

МОДУЛЬНАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN VOCATIONAL EDUCATION: IMPLEMENTATION PROBLEMS AND SOLUTIONS

Ashurova Sanobar Yuldashevna

Ashurova S.Y.,
Professional ta’limni rivojlantirish instituti, Pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada professional ta’lim tizimiga modulli texnologiyani joriy etishning nazariy-metodologik muammolari va ularning yechimlari tadqiq etildi. Mavjud ilmiy yondashuvlar tanqidiy tahlil qilinib, modulli ta’lim samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan tizimli muammolar (mazmuniy, texnologik, tashkiliy-boshqaruv, resurs) o‘rganildi. Ushbu tahlil asosida muammolarning yangilangan tasnifi ishlab chiqildi va ularni bartaraf etishga qaratilgan konseptual yechimlar asoslandi. Ta’lim jarayonini individuallashtirish, mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikni oshirish va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlar tizimi aniqlandi. Tahlil natijalarining professional ta’lim siyosati va amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligiga erishildi.

Kalit so‘zlar: *professional ta’lim, modulli texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim muammolari, pedagogik sharoitlar, individuallashtirish, mehnat bozori, ta’lim sifati.*

Аннотация. В статье рассмотрены теоретико-методологические проблемы внедрения модульной технологии в систему профессионального образования и их решения. Критически проанализированы существующие научные подходы, изучены системные проблемы (содержательные, технологические,организационно-управленческие, ресурсные), препятствующие эффективности модульного обучения. На основе этого анализа была разработана обновленная классификация проблем и обоснованы концептуальные решения, направленные на их устранение. Выявлена система педагогических предпосылок индивидуализации образовательного процесса, повышения гибкости к требованиям рынка труда, реализации компетентностного подхода. Достигнута значимость результатов анализа для политики и практики профессионального образования.

Ключевые слова: *профессиональное образование, модульная технология, компетентностный подход, проблемы образования, педагогические условия, индивидуализация,* рынок *труда, качество образования.*

ISSN: 2992-9210

Annatation. The article investigated the theoretical and methodological problems of implementing modular technology in the vocational education system and their solutions. Existing scientific approaches were critically analyzed, and systemic problems (content-related, technological, organizational-managerial, resource-related) hindering the effectiveness of modular education were studied. Based on this analysis, an updated classification of problems was developed, and conceptual solutions aimed at their elimination were substantiated. A system of pedagogical conditions for individualizing the educational process, increasing flexibility to labor market demands, and implementing a competency-based approach was identified. The significance of the research results for vocational education policy and practice was achieved.

Keywords: *vocational education, modular technology, competency-based approach, educational problems, pedagogical conditions, individualization, labor market, quality of education.*

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyotning globallashuvi va texnologik rivojlanishi professional ta’lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham global mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan . Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish ta’lim jarayoniga an’anaviy, bilimga yo‘naltirilgan paradigmadan voz kechib, moslashuvchan, natijaga yo‘naltirilgan va amaliyotga integratsiyalashgan texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, modulli ta’lim texnologiyasi ta’lim mazmunini mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablariga tezkor moslashtirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvni samarali ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi . Mazkur texnologiyaning dolzarbligi uchta asosiy omil bilan izohlanadi: ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan – iqtisodiyotning yuqori texnologik sohalari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish ; ta’limiy jihatdan – bilimlar majmuini o‘zlashtirishdan amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini, ya’ni kompetensiyalarni shakllantirishga o‘tish zarurati ; metodologik jihatdan – modulli texnologiyani joriy etishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish hamda uning samarali ishlashi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asoslash ehtiyoji. Modulli ta’lim nazariyasi va amaliyoti masalalari P.A. Yusyavichene, T.I. Shamova kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ular modulni mantiqan tugallangan o‘quv birligi sifatida ta’riflab, uning asosiy tamoyillarini, jumladan, modullik, moslashuvchanlik, faoliyatlilik kabilarni ishlab chiqqanlar [6; 1]. O‘zbekistonda ham bu sohada, xususan, Sh.S. Sharipov kabi olimlar tomonidan salmoqli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, unda modulli o‘qitishning kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishdagi o‘rniga e’tibor qaratilgan. Xalqaro miqyosda Cedefop kabi nufuzli tashkilotlarning hisobotlarida modulli tizimlarning mehnat bozori ehtiyojlariga javob berishdagi roli va uning afzalliklari tahlil qilingan . Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar asosan modulli ta’limning nazariy afzalliklari va uning ijobiy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Uni professional ta’lim amaliyotiga, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar ta’lim tizimiga joriy etishda yuzaga kelayotgan tizimli, kompleks muammolar, ularning o‘zaro bog‘liqligi va sabab-oqibat aloqalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada professional ta’limda modulli texnologiyani joriy etishning e’lon qilingan maqsadlari (moslashuvchanlik, individuallashtirish, kompetensiyalarni shakllantirish) va uning amaldagi natijalari (o‘qituvchilarning

ISSN: 2992-9210

ortiqcha yuklamasi, mazmunni yuzaki o‘zlashtirish, baholashdagi qiyinchiliklar) o‘rtasida jiddiy ziddiyat mavjudligi muammo sifatida belgilandi . Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda bu muammolar ko‘pincha tarqoq holda, masalan, faqat texnologik yoki faqat pedagogik jihatdan o‘rganiladi. Ularni o‘zaro bog‘liqlikda, tizimli tahlil qiluvchi va kompleks yechimlar taklif etuvchi nazariy ishlar yetishmaydi. Bu esa ilmiy bo‘shliqni yuzaga keltiradi. Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi – professional ta’limda modulli texnologiyani joriy etishning tizimli muammolarini nazariy tahlil qilish asosida ularning kompleks tasnifini ishlab chiqish va samarali yechimlarning konseptual asoslarini taklif etishdan iborat.

Nazariy asos. Modulli ta’lim texnologiyasining konseptual asoslarini tushunish uchun uning tayanch tushunchalarini aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega. P.A. Yusyavichene ta’rifiga ko‘ra, modul "o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi, maqsadli harakatlar dasturi va qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishishni ta’minlovchi metodik qo‘llanmani o‘z ichiga olgan axborot bloki" sifatida ta’riflandi. Modul an’anaviy o‘quv dasturi yoki fandan farqli o‘laroq, dasturning moslashuvchan, nisbatan avtonom va natijaga yo‘naltirilgan elementi hisoblanadi. Modulli ta’lim texnologiyasi esa shunchaki o‘quv mazmunini bloklarga ajratish emas, balki ta’lim oluvchining mustaqil o‘quv-bilish faoliyatini individual dastur asosida tashkil etishga qaratilgan murakkab didaktik tizimdir . Ushbu texnologiya kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi, chunki u ta’lim natijasini bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi sifatida emas, balki ularni amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati (kompetensiya) sifatida belgilaydi .

Modulli ta’limga doir turli nazariy yondashuvlar tanqidiy tahlil qilindi. Xususan, P.A. Yusyavichene tomonidan ilgari surilgan xorijiy yondashuvda asosiy e’tibor ta’lim jarayonining moslashuvchanligi, o‘quvchining individual ehtiyojlariga moslashish va uning faolligini oshirishga qaratiladi. Sh.S. Sharipovning mahalliy yondashuvida esa modulli o‘qitish ko‘proq kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish va ta’lim mazmunining izchilligi hamda uzviyligini ta’minlash kontekstida ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuvlarni integratsiya qilishga asoslangan yangicha qarash taklif etildi. Chunki amaliyotda aynan shu ikki yondashuv o‘rtasidagi tafovut asosiy muammolardan birini keltirib chiqaradi: ta’lim mazmuni modullarga ajratiladi, lekin o‘qitish uslubiyati an’anaviy (ma’ruza, frontal so‘rov)ligicha qoladi . Bu esa texnologiyaning faqat tashqi, tarkibiy jihati o‘zlashtirilib, uning ichki, falsafiy-pedagogik mohiyati (o‘quvchiga yo‘naltirilganlik, moslashuvchanlik) e’tiborsiz qoldirilayotganidan dalolat beradi. Quyidagi jadvalda mazkur yondashuvlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Jadval 1. Modulli ta’limga nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Mezonlar	P.A. Yusyavichene yondashuvi	SH.S. Sharipov yondashuvi
Asosiy maqsad	Ta’limni individual ehtiyojlarga moslashtirish, moslashuvchanlikni ta’minlash.	Kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish, ta’limning izchilligi va uzviyligi.
Modul mohiyati	Didaktik maqsad, mazmun va metodik qo‘llanmani birlashtirgan avtonom blok.	Izchil tizimning tarkibiy qismi, o‘quv materialining birligi.
Asosiy tamoyillar	Moslashuvchanlik, faoliyatlilik, dinamiklik.	Izchillik, tizimlilik, uzviylik.
O‘qituvchining roli	Fasilitator, maslahatchi-koordinator.	Tashkilotchi, nazoratchi.

ISSN: 2992-9210

Mezonlar	P.A. Yusyavichene yondashuvi	SH.S. Sharipov yondashuvi
Urg‘u beriladi	O‘quv jarayonining didaktik va tashkiliy moslashuvchanligiga.	O‘quv mazmunining tarkibiy tuzilishi va mantiqiy ketma-ketligiga.

Natijalar. Amalga oshirilgan nazariy tahlil asosida professional ta’limda modulli texnologiyani joriy etish muammolarining tizimli tasnifi taklif etildi. Ushbu tasnif muammolarni tarqoq holda emas, balki ularning o‘zaro sabab-oqibat aloqadorligini hisobga olgan holda to‘rtta yirik guruhga ajratadi.

Konseptual-mazmuniy muammolar: Bu guruh o‘quv modullari mazmunining ish beruvchilarning real talablariga nomuvofiqligi; nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzilish; modullarning aniq kompetensiyalarni shakllantirishga emas, balki an’anaviy bilim berishga yo‘naltirilganligi kabi muammolarni o‘z ichiga oladi.

Texnologik-metodik muammolar: O‘qituvchilarning yangi texnologiyani qo‘llash bo‘yicha yetarli malaka va ko‘nikmalarga ega emasligi [4; 5]; baholash tizimining murakkabligi, vaqt talab qilishi va obyektivlik darajasining pastligi ; o‘quv jarayonini individuallashtirish uchun zarur metodik ta’minotning mavjud emasligi; o‘quv vaqti taqsimotidagi nomutanosibliklar shular jumlasidandir.

Tashkiliy-boshqaruv muammolari: Ta’lim jarayonini qat’iy reglamentlash, ta’lim muassasalari va pedagoglarning akademik erkinligini cheklash; o‘qituvchilarning haddan tashqari yuqori o‘quv yuklamasi va modullarni sifatli tayyorlash uchun vaqtning yetishmasligi [4; 7]; ma’muriyat tomonidan modulli ta’limni joriy etish uchun yetarli darajada tashkiliy va metodik qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi.

Resurs-infratuzilmaviy muammolar: Moliyalashtirishning yetarli emasligi ; zamonaviy laboratoriyalar, amaliyot ustaxonalari, uskunalar va yuqori tezlikdagi internetga ulanishdagi muammolar ; sifatli o‘quv-metodik materiallar, darsliklar va raqamli ta’lim resurslarining taqchilligi Tahlil natijasida mazkur muammolar guruhlarining o‘zaro chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Masalan, resurs muammolari (moliyalashtirishning kamligi) texnologik muammolarga (o‘qituvchilar malakasini oshirish imkoniyatining yo‘qligi), bu esa o‘z navbatida konseptual muammolarga (sifatsiz va mehnat bozori talablariga javob bermaydigan modullar yaratilishi) olib kelishi mumkin. Shu sababli, ularga faqat kompleks, tizimli yondashuv orqali yechim izlash zarurligi asoslandi. Ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan konseptual yechimlarning asosiy tamoyillari shakllantirildi:

- Integratsiya tamoyili: Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning yaqin integratsiyasini ta’minlash orqali modullar mazmunini mehnat bozorining dolzarb va istiqbolli talablariga moslashtirish .
- Moslashuvchanlik va variativlik tamoyili: O‘quv jarayonini qat’iy reglamentlashdan voz kechib, ta’lim oluvchilarga o‘z ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqib individual ta’lim trayektoriyalarini tanlash imkoniyatini berish.
- Pedagogik qo‘llab-quvvatlash tamoyili: O‘qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish, ularga metodik yordam ko‘rsatish, innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish va ortiqcha byurokratik yuklamalardan ozod qilish tizimini yaratish .
- Resurs ustuvorligi tamoyili: Modulli ta’limni samarali joriy etish uchun zarur moddiy-texnik va axborot-resurs bazasini (raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, zamonaviy uskunalar) shakllantirishni birinchi darajali vazifa sifatida belgilash .

Muhokama. Maqolada taklif etilgan muammolarning tizimli tasnifi xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan muvofiq keladi. Xususan, Cedefop hisobotida ham ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash zarurati asosiy chaqiriq sifatida keltirilgan . Biroq, mazkur maqoladagi tasnif muammolarning o‘zaro sabab-oqibat bog‘liqligini ochib berishi va ularni konseptual, texnologik, tashkiliy va resurs darajalariga ajratishi bilan farq qiladi. Ertmer va boshqalarning tadqiqotida

ISSN: 2992-9210

o‘qituvchilarning texnologiyani qo‘llashga tayyorligi muhim omil sifatida ko‘rsatilgan , lekin ushbu maqolada bu muammo kengroq kontekstda – pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Eyadat tomonidan aniqlangan texnologik to‘siqlar va infratuzilmaviy kamchiliklar bizning resurs-infratuzilmaviy muammolar guruhimizni tasdiqlaydi, ammo biz uni moliyalashtirish va boshqaruv siyosati bilan bevosita bog‘laymiz.

Olingan natijalarning ilmiy ahamiyati shundaki, muammolarning tizimli tasnifi va yechimlarning konseptual tamoyillari modulli ta’lim nazariyasini rivojlantiradi, uning amaliyotga tatbiq etilishidagi ziddiyatlarni tushunish uchun yangi metodologik asos yaratadi. Amaliy ahamiyati esa taklif etilgan tasnif va tamoyillardan professional ta’lim sohasidagi islohotlar strategiyasini ishlab chiqishda, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilishda, ta’lim muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minotini rejalashtirishda hamda pedagog kadrlar malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirishda foydalanish tavsiya etiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab muammolar ("o‘qituvchilar tayyor emas", "uskuna yo‘q") alohida "simptomlar" sifatida qayd etiladi [4; 5]. Aslida esa bular alohida muammolar emas, balki yagona tizimli "kasallikning" belgilaridir. Bu holatni "yuzaki islohotchilik" deb atash mumkin. YA’ni, ta’lim tizimiga yangi, progressiv texnologiya (modulli ta’lim) olib kiriladi, lekin bu texnologiyaning samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan fundamental sharoitlar – o‘qituvchilarning yangicha fikrlashi, akademik erkinlik, yetarli resurslar, qo‘llab-quvvatlovchi boshqaruv madaniyati yaratilmaydi. Natijada, texnologiyaning o‘zi obro‘sizlanadi ("modulli tizim bizda ishlamas ekan"), o‘qituvchilarda esa islohotlarga nisbatan ishonchsizlik va qarshilik paydo bo‘ladi . Shunday qilib, modulli texnologiyani muvaffaqiyatli joriy etish – bu shunchaki texnik yoki metodik vazifa emas, balki ta’lim madaniyatini o‘zgartirish bilan bog‘liq chuqur transformatsiya jarayonidir. Bu jarayon "yuqoridan pastga" (buyruqbozlik) tamoyiliga emas, balki "pastdan yuqoriga" (pedagoglar tashabbusi) va "gorizontal" (hamkasblar hamkorligi) harakatlarni qo‘llab-quvvatlashga asoslanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, professional ta’limda modulli texnologiyani joriy etish muammolari ko‘p qirrali va tizimli xarakterga ega bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun faqatgina metodik o‘zgarishlar yetarli emas. Buning uchun konseptual, tashkiliy-boshqaruv va resurs ta’minoti sohalarida o‘zaro muvofiqlashtirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

1. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy takliflar ilgari suriladi:
2. Professional ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, ularda ish beruvchilarning vakolatlarini kengaytirish va modullarni ishlab chiqishda ularning bevosita ishtirokini ta’minlovchi majburiy mexanizmni yaratish.
3. Pedagoglar uchun "moslashuvchan kompetensiyalar"ga (masalan, o‘quv dasturini loyihalash, innovatsion baholash usullarini qo‘llash, o‘quv jarayonini individuallashtirish) asoslangan yangi avlod malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.
4. Professional ta’lim muassasalariga modulli dasturlarni amalga oshirishda akademik va moliyaviy mustaqillik berish, o‘qituvchilarning ortiqcha yuklamasini kamaytirish va ularning metodik faoliyatini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish.
5. Modulli ta’limni resurs bilan ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlarini (masalan, raqamli ta’lim platformalari, virtual trenajyorlar, zamonaviy laboratoriyalar) belgilovchi va ularni moliyalashtirish manbalarini aniq ko‘rsatuvchi maqsadli davlat dasturini ishlab chiqish.

ISSN: 2992-9210

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юцявичене П.А. Теоретические основы модульного обучения: дис.... д-ра пед. наук. – Вильнюс, 1990. – 428 с.

2. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти: пед. фан. докт.... дисс. – Тошкент, 2012. – 264 б.

3. Cedefop. The role of modularisation and unitisation in vocational education and training // Cedefop working paper. – 2015. – № 26.

4. Ertmer P. A., Ottenbreit-Leftwich A. T., Sadik O., Sendurur E., Sendurur P. Teacher beliefs and technology integration practices: A critical relationship // Computers & Education. – 2012. – Vol. 59, № 2. – P. 423–435.

5. Eyadat H.M.M. The Challenges of Using Technology in Vocational Education and Their Impact on Students' Achievement from the Teachers' Point of View in Ramtha District Schools in Jordan // Journal of Curriculum and Teaching. – 2023. – Vol. 12, № 3. – P. 25–34. – DOI: 10.5430/jct.v12n3p25.

6. Бариленко И.А. Перспективы применения педагогической технологии модульного обучения // Язык и культура. – 2022. – № 57. – С. 157–180.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан тасдиқланган "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси".

ISSN: 2992-9210

PEDAGOGIKA TEXNIKUMLARI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНИКУМОВ

METHODS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF TEACHERS OF PEDAGOGICAL TECHNICUMS

Axadova Gulnoza Said qizi

Axadova G. S.,
Jizzax Politexnika instituti
tayanch doktoranti
axadovagulnoza7257@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika texnikumlari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini pedagogik faoliyat jarayonida rivojlantirishning pedagogik asoslari masalalariga qaratilgan. Ta’lim jarayonida k**o‘**zlagan natijalarda erishish uchun o‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlari qay darajada rivojlangan bo‘lishi asosida o‘qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish zarurligi yoritilgan. Bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchilarning o‘zini o‘zi rivojlantirish, kasb ta’limi standartlarini bilish va unga amal qilish, kasbiy funksiyalarni bajarish layoqatiga ega bo‘lish borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, o‘qituvchi kasbi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetentlik, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, hamkorlik, xulq-atvor.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы педагогических основ развития профессиональной компетентности преподавателей педагогических техникумов в процессе педагогической деятельности. Освещается необходимость повышения качества подготовки педагогических кадров на основе того, насколько развиты профессиональные компетентностные качества педагога для достижения намеченных результатов в образовательном процессе. Сегодня в процессе модернизации образования речь идет о саморазвитии педагогов, знании и соблюдении норм профессионального образования, умении выполнять профессиональные функции.

Ключевые слова: модернизация, профессия учителя, знания, умения, квалификация, компетентность, педагогическая деятельность, профессиональная компетентность, социальная компетентность, сотрудничество, поведение.

Annotation: this article focuses on the issues of the pedagogical foundations of the development of professional competence of teachers of pedagogical technical schools in the process of pedagogical activity. The need to improve the quality of teacher training based on the extent to which the qualities of professional

ISSN: 2992-9210

competence of the teacher are developed in order to achieve in the results of the educational process is highlighted. Today, in the process of modernization of education, it is spoken about the self-development of teachers, knowledge and adherence to the standards of professional education, the ability to perform professional functions.

Keywords: *modernization, teaching profession, knowledge, skills, competence, competence, pedagogical activity, professional competence, social competence, cooperation, behavior.*

Kirish.

Ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ta’lim tizimida yuzaga keladigan o‘zgarishlar ta’lim muassasasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugunning dolzarb muammolaridandir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida ta’lim muassasalarini zamon talabiga mos ravishda modernizatsiya qilish, ta’limning mazmun-mohiyatini o‘zgartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma’lumki jamiyat har doim ilmli, raqobatbardosh, ijodiy izlanuvchan kompetentlik sifatiga ega shaxsga ehtiyoj sezadi.

Yangi ming yillikda xalqimizning taraqqiyot yo‘lida turli muammolar mavjud ekan, avvalo, ularning to‘g‘ri yechimini topish zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi sifat bosqichining mohiyatidan qaralganda, mazkur masalaning qay darajada dolzarbligi o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Bizning vazifamiz fan-texnikani yuksak saviyada egallagan, jahon standartlari darajasidagi mustaqil fikrlovchi, intellektual ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Respublikamizda shakllangan pedagogik ta’lim tizimi boy an’analarga, ko‘p yillik intensiv amaliyotda to‘plangan katta tajribaga ega. Shu bilan birga, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun boshqaruv kadrlari va malakali o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. O‘qituvchi kasbining shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyati, texnika, texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqalarning taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog‘liq. O‘qituvchiga xos bo‘lgan mas’uliyatli vazifalar undan o‘z kasbining ustasi bo‘lishni, kasb-korini muntazam rivojlantirishni, ta’lim oluvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning yangi metodlarini o‘zlashtirishni, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy tayyorgarligini har tomonlama takomillashtirib borishni talab qiladi. Oliy ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida qator (2019-yil 8-oktabrdagi RQ-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”[1], 2020 yil-27-fevraldagi RQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2]) qaror va farmonlar qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlarda kasbiy va pedagogik faoliyatga (vazifalar, kompetensiyalar) hamda o‘qituvchining shaxsiga, o‘qituvchi kasbiga qo‘yiladigan talablar ifodalangan. Ana shunga bog‘liq holda, o‘qituvchining kengaytirilgan ta’lim muhiti subyektlari bilan ijtimoiy o‘zaro aloqalarni o‘rnatishga qaratilgan funksiyalari ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning yangi funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bo‘lg‘usi o‘qituvchilar ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarini rivojlantirishlari hamda ijtimoiy o‘zaro munosabatga kirisha olish bo‘yicha muayyan kompetensiyalarni egallashlari zarur. Ta’lim sohasidagi global tendensiyalarni, so‘nggi yillardagi kasbiy-pedagogik faoliyatdagi o‘zgarishlarni, o‘qituvchi kasbi rivojlanishini, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash,

ISSN: 2992-9210

zamonaviylashtirish jarayonlarini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon sharotida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga ham, shaxsiy sifatlariga ham juda yuqori talablar qo‘yilmoqda. Pedagogik kuzatishlar va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon o‘qituvchisidan pedagogik faoliyatda duch keladigan asosiy muammolar sifatida ta’lim sifatini ta’minlash, tinmay izlanish, bilim olish, o‘zining kasbiy kompetentligi va amaliy tayyorgarligini uzluksiz takomillashtirib borish; ijodiy masalalarni va tadqiqot vazifalarini qo‘yish va hal qilish; ma’rifatlilik va madaniyat, o‘qitish va tarbiyalashning ilg‘or texnologiyalarini, vatanimiz va xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya sohasida to‘plangan tajribalarni, pedagogika fanining eng so‘nggi yutuqlarini doimiy ravishda o‘zlashtirish, ularni o‘zining predmet faoliyatiga, individual xususiyatlari va qobiliyatlariga moslashtira olish; pedagogika faniga yondosh falsafa,psixologiya, tibbiyot, dinshunoslik, iqtisod, huquq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlardan integrativ foydalanish kabilarni hal etish talab etiladi. O‘qituvchi kasbining rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq, shubhasiz, zamonaviy o‘qituvchi bu sohada ham kompotentli bo‘lmog‘i va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq eta olishi dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va innovatsiyalarni hisobga olgan holda, zamonaviy o‘qituvchi kasbining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda o‘rganishni taqoza etadi. Bu quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Ilmiylik va tizimlilik – o‘qituvchilik kasbi shakllanishining nazariy asoslari, ta’lim paradigmalari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar (konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv) asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘qituvchilik kasbining shakllanishi ilmiy asoslangan nazariyalarga tayanadi. Ta’lim paradigmalari doimiy ravishda rivojlanib, yangilanib boradi va bu jarayon o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik ta’lim va o‘qituvchilar tayyorlash tizimi uzluksiz ravishda ilmiy asosda takomillashtiriladi. Ta’lim paradigmalari asosida zamonaviy o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqiladi. O‘qituvchilik kasbining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar (psixologik, sotsial, texnologik)ilmiy jihatdan tadqiq qilinadi va amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Integrativ yondashuv – pedagogik, psixologik, sotsial va texnologik omillar uyg‘unligi asosida o‘qituvchi kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta’minlash. O‘qituvchi kasbining rivojlanishi turli fanlar va yo‘nalishlarning integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Pedagogik jarayon pedagogik, psixologik, sotsial va texnologik jihatlar uyg‘unligi asosida tashkil etilganda samarador bo‘ladi. Psixologik omillar o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlasa, sotsial omillar jamiyatda ta’lim sohasining ahamiyatini oshiradi. Texnologik yondashuv esa innovatsion vositalardan foydalanish orqali ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogika, psixologiya, texnologiya va sotsiologiya fanlari asosida kompleks dasturlar ishlab chiqish zarur, bu o‘qituvchilar uchun kasbiy rivojlanishga asos bo‘ladi. Zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlash uchun pedagogik dasturlarni mehnat bozori talablariga mos holda yangilab borishni taqoza etadi. Bu choralar ta’limni modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchi kasbining uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi vata’limsifatini oshirishga xizmat qiladi. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida o‘qituvchi kasbining shakllanishi va rivojlanishini amalga oshirish raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) imkoniyatlari o‘qituvchilarning pedagogic faoliyatini takomillashtirish, darslarni interaktiv tarzda tashkil etish va individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Masofaviy ta’lim platformalari, o‘quv tizimlari va virtual laboratoriyalar o‘qituvchilarning zamonaviy kompetensiyalarni egallashida muhim omil hisoblanadi.. O‘qituvchi kasbiy faoliyatining asosiy mezonlaridan biri uning metodik va didaktik kompetensiyalariga ega bo‘lishidir. Ushbu

ISSN: 2992-9210

kompetensiyalar zamonaviy ta’lim jarayonining sifatini oshirish, ta’limning samaradorligini ta’minlash hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Metodik kompetensiya – bu o‘qituvchining ta’lim jarayonini rejalashtirish, uni samarali tashkil etish va o‘quvchilarga tushunarli yetkazish bo‘yicha kasbiy mahoratidir. Metodik kompetensiya quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi. Didaktik kompetensiya – bu o‘qituvchining ta’lim mazmunini shakllantirish, o‘quvchilarga oson va tushunarli yetkazish, dars jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatidir. Bu quyidagi jihatlarni qamrab oladi: O‘qituvchi o‘quv dasturiga muvofiq dars mazmunini shakllantirishi va uni ilmiytizimli asosda yetkazishi kerak. Muhim jihatlari o‘qituvchining o‘quv dasturlariga asoslangan holda dars materiallarini tayyorlashdan iboratdir.

Adabiyotlarning tahlili. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak kompetentlik, shaxs kompetentlik tushunchalari XX asrning 90-yillarida ijtimoiy kompetentlik shaxsning shaxsiy sifati kabi barcha ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo‘lib, fanlararo bir mavzu sifatida qabul qilinib murakkab, ko‘p komponentli va ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida tahlil qilina boshlandi.

Tadqiqotchi V. N. Kunisьınaning ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlari natijalariga asoslanib, ijtimoiy kompetentlikning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kasbiy kompetentlik; o‘z-o‘zini aniqlash (ego-kompetentlik) haqida xulosa chiqaradi.

Shu bilan birga I.A.Zimnyaya kompetentlikni insonga ijtimoiy ta’siriga ko‘ra, ijtimoiy hamkorlik (jamiyat, jamoa, oila, do‘stlar, hamkorlar bilan ziddiyatlar va ulardan qaytarish, hamkorlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy safarbarlik) va muomala kompetentligi (og‘zaki, yozma, suhbat, monolog, bilim va an’analarga rioya qilish, etiket, madaniy va xorijiy aloqalar, biznes, kommunikativ vazifalar) kabi turlarga ajratadi.[1]

Ye.V.Koblyanskayaning tadqiqot ishida ijtimoiy kompetentlikni ”Men” munosabatini tushunish – jamiyat, to‘g‘ri ijtimoiy yo‘nalishni tanlay olish, ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘z faoliyatini tashkil etish” sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha ijtimoiy kompetentlik – “bu shaxsiy sifat bo‘lib – kishining ijtimoiy normalar bilan bog‘liq ushbu jamiyat a’zosi sifatidagi mehnat faoliyatidir, bunda jamiyat hayoti uning a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tartibga soladi.

Avvalo etimologik jihatdan kompetentlik tushunchasi – bu biror sohada samarali faoliyat yuritish uchun zaruriy tajriba va kerakli bilimlar, kompetensiyalar tizimidir.

M.I.Lukyanova o‘qituvchining psixologik-pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o‘quv jarayonida talabalar bilan samarali o‘zaro munosabatlarga ega bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadi va psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo‘nalishlarning bloklarini ko‘rib chiqadi degan fikrlarni bildiradi.

O‘qituvchi kasbi - bu katta avlodlarning insoniyat tomonidan to‘plangan madaniyat va tajribalarni yosh avlodlarga uzatishga, ular shaxsining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga va ularni jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajara olish tayyorlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turidir. O‘qituvchining kasbiy faoliyati tuzilishi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, uning asosiy o‘ziga xos xususiyati mehnat obyekti va vositalarining o‘ziga xosligi bilan belganishini ta’kidlab o‘tish joiz. N.V.Kuzmina, A.K.Markova, Ye.F.Zeer, V.A.Slastenin, T.F.Loshakova o‘qituvchining “kasbiy kompetentlik” haqida ko‘plab ishlarni amalga oshirganlar. B.A.Nazarova o‘zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, R.Sorokin, F.Znanetskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta’rif berganliklarini ta’kidlaydi: “Bu muhitga o‘rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to‘g‘rilaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi”. [7,62] D.L.Tompson, D.Pristinlar: “Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo‘lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig‘indisidir”, - deb ta’kidlaydilar. I.V.Grishina kasbiy

ISSN: 2992-9210

kompetensiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi.[9] Psixologiyada I.N.Shrilrien, S.G.Gellershteyn, Ye.A.Klimov, V.D.Shadrikov, K.K.Platonov,N.V.Kuzmina fikrlariga ko‘ra hayotda yuz beradigan turli vaziyatlarni, muammolarni yechishga yordam beradigan fazilatlar, qobiliyatlar kompetentlik deb tushuntiriladi.[10,26] Kasbiy kompetentlik – bu qaysidir kasbda bor bo‘lgan standartga rioya qilish. O.B.Akulovakasbiy kompetentlikni shunday ta’riflaydi: “O‘z faoliyatida kerak bo‘lgan yangiliklarning, bilimlarning, qobiliyatlarning yig‘indisi va atrof muhit bilan o‘zaro to‘g‘ri kelishi”.[4,123] Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog‘liqligini N.V.Kuxarev shunday ta’riflaydi: “Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o‘qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to‘plami”.[10,31]

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda pedagogik ta’limni tashkil etish (xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda), o‘qituvchi kasbining rivojlanishi sohasidagi asosiy dolzarb masalalar quyidagilardan iborat:

1. Bo‘lajak o‘qituvchining yagona axborot muhitida ishlashga tayyorligini shakllantirish. Ushbu muammoni, bir tomondan, ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini bilish va tushunish qobiliyatini shakllantirish, ikkinshi tomondan, ta’lim jarayonida o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy yangi texnologiyalarining oqilona nisbatini ta’minlash orqali hal etish.

2. Yagona axborot makonini yaratish va o‘qituvchiga diqqat-e’tibori va vaqtini nafaqat o‘qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish uslublariga, balki o‘quv jarayonining konseptual jihatlariga ham jamlashga imkon beradigan yagona tezaurusni shakllantirish.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishga tayyorgarlik ko‘rish. Ushbu jarayon o‘quv kurslarining axborot-kompyuter ta’minotini ishlab shiqishni, shu jumladan, ta’lim muassasalarining o‘quv rejalarida belgilangan gumanitar blokni rivojlantirishni nazarda tutadi.

4. Yagona axborot muhitida o‘quv jarayonining dasturiy-metodik ta’minotini tayyorlash. Bunda o‘qituvchilar, metodistlar, psixologlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislarning o‘quv jarayonini pedagogik-dasturiy vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha hamkorlikda ishlashlari talab etiladi. O‘qitish va tarbiyalash jarayonida ko‘p narsalar o‘qituvchining shaxsiga bog‘liq. O‘qituvchining shaxsiyati talabaning shaxsiyati shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon va mamlakatimiz pedagogikasida ideal o‘qituvchi va uning tayyorgarligi modellari ishlab chiqilmoqda, o‘qituvchilarning “modeli” manzarasiga, deyarli har bir mutaxassis egallashi lozim bo‘lgan minimal bilimlarga jahon standartlari asosidagi talablar qo‘yilmoqda. Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o‘qituvchi shaxsining quyidagi komponentlarini rivojlantirish taqozo etiladi:

- gnoseologik: inson va biosferaning yaxlitligini anglash;
- pedagogik faoliyatning shaxs ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatini anglash.
- aksiologik: inson tomonidan hayotning eng oliy qadriyatlarining anglab yetilganligi;
- shaxsning atrof-olam, tabiat bilan birligini anglashi;
- inson hayoti davrlarining o‘ziga xos qadr-qimmatini e’tirof etish; shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirishni ta’limning eng oliy maqsadi sifatida e’tirof etish va boshqalar.
- ijodiy: o‘zining hayotini uzluksiz umummadaniy va kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirish muhiti sifatida tashkil etish; o‘quv jarayonini hamkorlikdagi ijodiy faoliyat sifatida qurish qobiliyati va boshqalar.
- kommunikativ: fikrlash va dialog tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini qurish qobiliyati; boshqalarni tushuna bilish, o‘zgalar bilan til topisha bilish, murosaga kelishish, munozara o‘tkaza olish va boshqalar.

ISSN: 2992-9210

- axloqiy: ta’limning madaniy va ijodiy funksiyalarini, o‘zaro munosabatlar madaniyatini anglash qobiliyati; pedagogik jarayonni avlodlar suhbati orqali amalga oshiriladigan ikki dominantli (ustuvorlikka ega) jarayon sifatida anglash; hodisalarni baholashning estetik mezonlarni shakllantirish qobiliyati.

Doimiy ravishda o‘zgarib turadigan hozirgi zamon jamiyatida yuksak kasbiy mahorat va kasbiy kompetentlik ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu bevosita ta’lim sohasi xodimlari, xususan, o‘qituvchilar uchun ham taalluqlidir, chunki, birinchidan, o‘qituvchilarning o‘zlari, eng avvalo, o‘zining faoliyat sohasi bo‘yisha kompitentli bo‘lishi kerak, ikkinchidan, ta’lim har doim va har sohada shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan va doimo ana shunday bo‘lib qolaveradi. Ta’limning eng birinchi galdagi vazifasi shaxsni o‘zi va butun jamiyat uchun eng katta foyda keltiradigan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol va samarali ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Bu esa kelajak avlod tarbiyachisi bo‘lgan o‘qituvchining doimo kasbiy rivojlanishini taqozo etadi. Mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning olimlari tadqiqotlarini tahlil qilish asosida kasb mohiyatini, shu jumladan, o‘qituvchi kasbining mohiyatini tushunishga bo‘lgan bir nechta yondashuvlar, jumladan, funksional, malakaviy, kompitentli, aksiologik va antropologik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Funksional yondashuv o‘qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi muayyan funksiyalarni texnologik o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Funksional yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, muayyan kasbning asosida subyekt tomonidan o‘zlashtirilgan mehnatning funksional mazmuni yotadi. Funksional yondashuv doirasida o‘qituvchi kasbi haqida so‘z yuritilganida o‘qituvchining faoliyati funksiyalar yoki funksional xususiyatlar tizimi sifatida qaraladi. Funksional yondashuv tavsiflovshi sifatida talqin qilinishi mumkin, chunki u yoki bu o‘qituvchi kasbi doirasidagi mehnatning funksional vazifasi har doim tarixiy jihatdan o‘zgaruvchandir. Bu yerda asosiy e’tibor kasbning ijtimoiy aloqalar tizimidagi o‘rni va ahamiyatiga emas, balki individning ma’lum kasbiy funksiyalarni bajarish layoqati va uning faoliyat tayyorgarligi muammosiga qaratilgan. Buning natijasida kasbiy talablar tushunchasi nazariy masalalardan amaliy jarayonga tomon sezilarli darajada siljishi ta’minlangan. Malakaviy yondashuvda o‘qituvchi faoliyatining muayyan funksiyalarini texnologik o‘zlashtirish bilan birga, o‘qituvchi kasbini egallagan insonning bilimlari, qobiliyati, tajribasining unikalligi, muhimligini tushunganligi ham zarur hisoblanadi. Malakaviy yondashuv kasbiy rivojlanish kasbiy faoliyat jarayonidagi shart-sharoitlar, shuningdek, xodim shaxsining rivojlanishi shart-sharoitlari bilan uzviy bog‘liqligini nazarda tutadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, ular o‘qituvchi kasbini ikki jihatdan, ya’ni obyektiv va subyektiv jihatdan izohlaydi. Bundan tashqari, ularning fikriga ko‘ra, kasb tushunchasining o‘zi ikkinchi jihatni, ya’ni malakani ifoda etadi. Kasb ta’limi standartlarida o‘qituvchining malakasi uning kasbiy tayyorgarligi darajasini va ta’lim sohasida ishlashga tayyorligini, ya’ni kompetentligini bildiradi, kompetentlik kasbiy kompetensiyalar yig‘indisidan iborat. Malakaviy toifalar, eng avvalo, o‘qituvchi oldida turgan kasbiy masalalarni hal qilishning murakkabligi va sifati darajasining farqlanishini nazarda tutadi. Ular ierarxik xarakterga ega bo‘lib, egallangan lavozimga muvofiqlik tushunshasi o‘qituvchining mutaxassislik bo‘yisha mosligini bildiradi.[9] Kompetentli yondashuvda o‘qituvchining shaxsi, egallagan malakalari (kompetensiyalari)asosida uning muayyan kasbiy masalalarni yechish qobiliyatlarining noyobligi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Ayni yondashuv doirasida o‘qituvchining nafaqat kasbiy bilimlarni egallashi va talab etilgan mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati, balki shu bilan birga, o‘qituvchi faoliyatini amalga oshirishda u foydalanadigan resurslar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi kasbini tushunishga kompotentli yondashuv uning maxsus sifatlari yig‘indisini, u egallaydigan va kasbiy faoliyatida muayyan natijalarga erishishiga, ma’lum pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga yordam beradigan kompetensiyalarning unikalligini birinchi o‘ringa olib chiqadi. Kompetentlik nuqtayi nazaridan o‘qituvchi kasbi bugungi kunda ko‘plab ijtimoiy-madaniy kontekstlar bilan belgilanadi va

ISSN: 2992-9210

o‘qituvchilardan nafaqat kasbiy kompetensiyalarni, balki umummadaniy xususiyatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. U o‘qituvchiga o‘z pedagogik faoliyatini yaxlit holda tushunishga imkon beradi. Aksiologik va antropologik yondashuvlarda o‘qituvchi faoliyatining subyektivlashishi–kasbiy faoliyatning refleksiv mazmuni (o‘z ishidan qanoatlanish, kasbiy holati, kasbiy tanlash, kasbiy qadriyatlar va boshqalar) muhim hisoblanadi. Kasbiy faoliyatning turli vaziyatlarida o‘qituvchi xulq-atvori strategiyasini tanlashning qadriyatiy asoslari rivojlantiriladi. Kasb tushunchasiga aksiologik yondashuv doirasida mutaxassis egallaydigan kompetensiyalar nafaqat jamiyat va ijtimoiy muhit (sotsium) talablari, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish tamoyillari (me’yorlar, xulq-atvor me’yorlari va boshqalar) bilan, balki qadriyatlar tizimi (shaxs, jamiyat) bilan ham uzviy bog‘liq. Uning shakllanishi insonga u yoki bu kasbiy sohada xatti-harakatlar (xulq-atvor) strategiyasini mustaqil tanlash imkonini beradi. Uning barcha vakillari tomonidan taqsimlanadigan professional guruhning qadriyatlari mutaxassis kasbiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Kasbga antropologik yondashuvga asoslanib, aytish mumkinki, o‘zining kasbiy faoliyatini tahlil etish shaxsiy qadriyatlarni va xulq-atvorini o‘zgartirish mexanizmiga aylanadi. O‘qituvchi kasbiga aksiologik yondashuvning asosiy qoidalari va antropologik yondashuv o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatning insonparvarlik, “insoniy ijodkorlik” g‘oyalari bilan bog‘liq. Ko‘rib o‘tilgan yondashuvlar (funksional, malakaviy, kompotentli, aksiologik va antropologik)asosiy g‘oyalarning izchilligi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchi kasbiga yondashuvlarning asosiy qoidalari muayyan tarzda o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lib, o‘qituvchi kasbi tushunchasi rivojlanishining dinamikasini aks ettiradi. Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchiga bir nechta talablar qo‘yilmoqda:

- O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri tarbiya bera olish.
- Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan texnika texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lish
- O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi yuzasidan, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanish
- O‘qituvchi ijodkor tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatlari ega bo‘lishi,
- O‘qituvchi pedagogika psixologiya fanlari yuzasidan puxta bilishi ta’lim-tarbiya jarayonida, o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni to‘gri tashkil qilishi lozim. O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi lozim uning nutqida quyidagi xususiyatlari aks etishi kerak:
- nutqning to‘g‘riligi
- nutqning aniqligi
- nutqning sofligi
- nutqning ravonligi
- nutqning boyligi. [9;67-b]

Hozirgi zamon sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilardan quyidagi kasbiy va shaxsiy sifatlar talab etiladi:

-o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga tez moslasha olish, muloqot o‘rnata olish va jamoada ishlay bilish;

-zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun yangi bilimlarni mustaqil egallay olish;

-axborotlardan to‘g‘ri foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida zaruriy ma’lumotlarni izlab topa bilish;

-aqliy imkoniyatini rivojlantirish, umumiy madaniyatini oshirish.[19] Faqat shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi asosidagina bo‘lajak o‘qituvchilarda bunday sifatlarni shakllantirish mumkin. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - talabalar va o‘qituvchilarning o‘zaro ta’sirini tashkil etishga asoslangan

ISSN: 2992-9210

ta’lim tizimidir. Bunda zamonaviy pedagogik ta’limning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari, hozirgi zamon jamiyatidagi funksiyalari va o‘ziga xos jihatlari, bo‘lajak pedagoglarning amaliy tayyorgarligi mazmunini loyihalash yo‘nalishlari hamda uning o‘qituvchi kasbi rivojlanishiga ta’siri muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik ta’limning rivojlanish tendensiyalari nafaqat uning yo‘nalishini, balki rivojlanish istiqbollarini ham belgilab beradi. pedagogik ta’lim rivojlanishining yetakchi tendensiyalari jahon, milliy, mintaqaviy miqyosdagi umumiy tendensiyalarni o‘zida aks ettirib, pedagogik ta’lim tizimiga xos xarakterli xususiyatlarni ham qamrab oladi. Ana shunga bog‘liq holda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini loyihalashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash uchun ularni tahlil qilish zarur. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash pedagogik ta’limning nisbatan mustaqil turi bo‘lib, uning natijasi bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy fikrlash, pedagogic ong, kasbiy yo‘naltirilgan xulq-atvorni shakllantirishdan iboratdir. Talabalar zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq ravishda amaliy pedagogik faoliyatni amalga qo‘llashga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi zarur.

O‘qituvchilardan o‘z faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, xamkorlikda ishlashni va tahlil qilishni o‘rganishadi.

Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirishda mutaxassislar ijtimoiy kompetentlikning quyidagi komponentlari mavjud bo‘lib, ushbu komponentlar turli yosh davrlaridagi insonlarda jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning tuzilishi va faoliyat olib borishiga doir ma’lumotlarni, ijtimoiy rolga qo‘yilgan talablar va kutishlarga oid bilimlarni, ijtimoiy rolga xos bo‘lgan xulqni egallash malakasini, umuminsoniy normalar va qadriyatlarga oid hamda kishining o‘zi haqidagi tasavvurlari, o‘zini ijtimoiy subyekt sifatida idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan samarali ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari va malakalarini shakllantiradi. Ijtimoiy kompetentlikni shakllanishi o‘qituvchilardan quyidagi ijtimoiy xulq malakalarini ham talab etadi.

o‘zaro birgalikdagi harakat malakalari;

stress(zo‘riqish)li vaziyatlardagi adekvat xulq malakalari;

ijobiy muloqot malakalari;

boshqalarni tushunish va o‘z-o‘zini baholash malakalari;

o‘z xulqini idora etish malakalari;

hissiy xolatlar va emotsiyalarni boshqarish;

Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy kompetentlikka alohida o‘rin berilgan bo‘lib, u o‘zida turli hayotiy sohalardagi ijtimoiy hamkorlikka bo‘lgan qobiliyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiradi.[2]

-muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini boshqara olish;

– o‘quv faoliyatini takomillashtirib borish;

– faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;

– o‘rtoqlari bilan ijodiy hamkorlikka erishish;

-irodaviy sifatlarini rivojlantirib borish;

– ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;

-kreativlik xususiyatlarini rivojlantirib borish;

– salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

-o‘ziga obyektiv baho berish;

ISSN: 2992-9210

-ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Ijtimoiy kompetensiya – ijtimoiy malakalar (majburiyatlar) hisoblanib, kishiga jamiyat hayotidagi normalar va qoidalarni adekvat (o‘zaro mos) tarzda bajarish imkoniyatini beradi va inson o‘z navbatida o‘z menining anglay boshlaydigan ilk bolalik davrlaridan boshlab ushbu normalar va qoidalarni ota-onasining yordami bilan egallay boshlaydi.[3] Ma’lumki oldingi ta’lim ko‘proq akademik bilimlar berishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘qituvchilarning chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishi bilan birgalikda, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O‘qituvchilarning izchil ravishda o‘zining kompetentlik sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish muammosi psixologiyadagi yetakchi muammolardan biridir. Bu muammolar yechimi o‘qituvchilar o‘z kompetentlik sifatlarini rivojlantirib borishi uchun o‘z ustida ishlashi jarayonida o‘z aksini topadi:

Ijtimoiy kompetentlik asosini jamiyat, undagi xulq-atvor usullari va qoidalari haqidagi bilimlar tashkil etar ekan, maktab o‘quvchisi uchun jamiyat, keng (dunyo, mamlakat) va tor (oila, maktab, mahalla) davrada aks etadi”.[4] Uning muammolarni hal etish bilan bog‘liq mustaqil bilish, ijtimoiy-fuqarolik, ijtimoiy-mehnat, madaniy-xordiq kabi komponentlar kiritiladi.

Shuning uchun o‘qituvchilar kompetentliklarini rivojlantirishning muhim yo‘llaridan biri, o‘qituvchilarda o‘zini o‘rab turgan kishilar bilan birgalikda harakat qila olish, o‘zini tutish usullariga doir bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu holatda ijtimoiy moslashish uchun o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘qituvchi o‘z tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. O‘z fikrini boshqalarnikidan ajrata olish tufayli o‘qituvchi o‘z shaxsiy “Men”ining imkoniyatlarini chamalay oladi, ko‘pgina hayotiy vaziyatlar uning xulq-atvori, o‘zini tutishiga bog‘liq ekanligini tushunib yetadi, shu asnoda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini egallaydi.

Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o‘zini o‘zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to‘liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeer tomonidan o‘rganilgan.

Bu asosda o‘qituvchida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini boshqara olish xususiyati, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashishi, hamkasblari bilan ijodiy hamkorlikka erishish, irodaviy, ishchanlik qobiliyati, kreativlik xususiyatlari va salbiy odatlarni bartaraf etib borishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Kasbiy kompetentlik sifatlari mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishi, muxim ijtimoiy talablarni anglay olishi amalda yuqori darajada qo‘llay olishlari uchun hamkorlikda ishlash ijobiy samara beradi.

Xulosa va takliflar. O‘qituvchi quyidagi didaktik tamoyillar asosida ta’lim jarayonini olib borishi lozim:

Izchillik va tizimlilik – bilimlarni ketma-ketlik asosida berish;

Tushunarlilik–murakkab mavzularni oddiy tilda tushuntirish;

Hayotiylik va amaliyotga yo‘naltirish–o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan misollar keltirish;

Faollik va mustaqillik–o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish. O‘qituvchi har bir mavzuni tushunarli qilib yetkazish uchun quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak:

Yangi bilimlarni avvalgi bilimlar bilan bog‘lash;

O‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun vizual materiallar va misollardan foydalanish;

Qiyin tushunchalarni oddiy va mantiqiy asosda tushuntirish. Har bir o‘quvchi o‘zining individual qobiliyatlari va o‘zlashtirish darajasiga ega. O‘qituvchi quyidagilarni inobatga olishi lozim: Kam

ISSN: 2992-9210

o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan individual ishlash; Iqtidorli o‘quvchilar uchun qiyinroq topshiriqlar berish; Har bir o‘quvchining ehtiyojlarini inobatga olib mos metodlarni qo‘llash. O‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilib, ta’lim samaradorligini oshirishga harakat qilishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi: Dars jarayonining natijalarini tahlil qilish; O‘quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olish; O‘z metodlarini doimiy ravishda takomillashtirish. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish muhimdir. Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi: Rag‘batlantirish va baholash tizimidan samarali foydalanish, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini berish, qiziqarli va ijodiy yondashuvlarni joriy etishdan iborat. Metodik va didaktik kompetensiyalar o‘qituvchining pedagogik mahoratini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘qituvchi ta’lim jarayonida metodik yondashuvni chuqur o‘zlashtirishi, didaktik tamoyillar asosida o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishi hamda o‘quvchilarning faolligini oshirish bo‘yicha samarali usullarni qo‘llashi zarur. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, shaxsning integrativ xususiyatini boshqacha aytganda , bo‘lajak mutaxassislar shaxsiy sifatlarini bilim malaka va amaliy tajribasi, qobiliyatlari qadriyat yo‘nalishlarini ifoda etadi, o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlari rivojlanishga qaratilgan harakatlar asosan ta’lim muassasalaridanoq boshlanadi. O‘qituvchi buning uchun turli fan asoslarining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganib fan yangiliklaridan doimo maqsadga muvofiq foydalanish asosida kompetentlik sifatlarini rivojlantirib bormog‘i kerak, shuningdek, ta’limning faol usullarini (trening darslari, ko‘rgazmali dars, auksion dars va hokazo) ham o‘zlashtirib olgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, kompetentlik – shaxs ustanovkalari va ma’naviy qadriyatlari, shaxsiy psixologik xususiyatlar tizimiga asoslanuvchi, o‘zaro bir-biriga yaqin ijtimoiy kompetensiyalar majmuasi bo‘lib, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi shakllanishiga va turli ijtmoiy rollarni samarali bajarishga imkoniyat beradi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida bilimlarga qadriyatlarga asoslanib rivojlanib boradi. Albatta o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlari rivojlanishi uchun imkoniyat bo‘ladi, ta’lim muassasalarida ijtimoiy foydali faoliyat motivatsiyasi rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi RF-5847-son“O‘zbekistonRespublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgasha rivojlantirish konsertsiyasini tasdiqlashto‘g‘risida”gi Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019y.,06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi RQ-4623-son“Pedagogikta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

3. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasito‘g‘risidagi farmoni RF-5847.

4. Акулова, О.В. Компетентностная модел современного педагога : Учебно-методическоепособие / О. В. Акулова, Е. С.Заир-Бек, С. А. Писарева, Е. В. Пискунова, Н. Ф. Радионова,А. П. Тряпицына. - СПб. : Изд-во РГПУ им. Герцена, 2009. - 158 с.

5. Гришина И.В. Профессионалная компетентност директора школы. Автореферат:дис.: …док.пед.наук. – М.: 2004 – 40 с. .

6. Кларин М. В. Инновационные модели обучения. Исследование мировогоопыта.Монография. М: Луч, 2016. 640 с.

ISSN: 2992-9210

7. Маркова, А.К. Психологические критерии и ступени профессионализма учителя//Педагогика. – 1995. – № 6. – С. 55-63.

8. Митина, Л.М. Учител как личност и профессионал - М.: 1994. - 216 с.

9. O‘razova M.B., Yeshrulatov Sh.N. - Bo‘lajak o‘qituvshining loyihalash faoliyati. Metodikqo‘llanma. T.: TDRU Rizografi, 2014 yil

10. Шадриков, В. Д. Новая модел специалиста : инновационная подготовкаикомпетентностный подход / В. Д. Шадриков // Высшее образование сегодня. - 2004. -№8.- С. 26-31

11. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press, 1996.37s

12. Beliskaya G.E. Sotsialnaya kompetensiya lichnosti. Soznanie lichnosti v krizisnom obщestve. M.,-Masyagina1995.-24 s.

13. P. Formirovanie sotsialnoy kompetensii budущix pedagogov: Avtoref. dis. kand.ped.nauk. – Astraxan, 2008. –54,55s.

14. T.G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar “Tafakkur”nashriyoti.T.:2011.-112b

15. Lukyanova M.I. psixologo-pedagogicheskaya kompetentnost uchitelyayu// Pedagogika - 2001.-№10 s56-61

16. Лебедева Н. М. Ценностно-мотивационная структура личности в русской культуре Текст. / Н.М. Лебедева // Психол. журнал. Т. 22. №3. - 2001. – С. 26 -36.

17. Мезенцева О.И. Кузнецова Е.В. Психолого-педагогические условия развития профессионалной компетентности современного педагога. / Монография. – Новосибирск, 2013. – 158 с.

18. Шарипова Ш.С. Профессионалная педагогическая компетентност учителя // Молодой ученый. – 2017. – №11. – С. 511-514

ISSN: 2992-9210

INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA’LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

ВОЗМОЖНОСТИ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАТSIИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

OPPORTUNITIES FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON INTELLIGENT TECHNOLOGIES

Azamov Olim Rizayevich

Azamov O.R.,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
olim@samdu.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada intellektual texnologiyalarning ta’lim jarayonida qo‘llanishi, ularning didaktik samaradorlikka ta’siri hamda o‘quv jarayonining mazmuniy va tashkiliy jihatlarini optimallashtirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Intellektual, texnologiyalar, raqamli, ta’lim, adaptive, o‘qitish, sun’iy, intellekt, kompetensiya, o‘quv, jarayon, optimallashtirish, individuallashtirish.

Аннотатция. В статье представлен научный анализ применения интеллектуальных технологий в образовательном процессе, оценены их возможности в повышении дидактической эффективности, а также в оптимизатsiи содержательных и организатsионных аспектов обучения.

Ключевые слова. *интеллектуальные, технологии, цифровая педагогика, образование, адаптивное обучение, искусственный интеллект, компетентность, учебный процесс, оптимизатsiя, индивидуализатsiя.*

Annatation. This article presents a scientific analysis of the use of intelligent technologies in the educational process, evaluating their impact on didactic efficiency as well as their potential to optimize the content-related and organizational components of teaching.

Keywords. *intelligent, technologies, digital pedagogy, education, adaptive, learning, artificial intelligence, competence, learning process, optimization, individualization.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi intellektual texnologiyalar rivojlanishi bilan yangi bosqichga o‘tmoqda. Sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim tizimlari, raqamli analitika, ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot shaklini, nazoratning yangi mexanizmlarini, shuningdek, o‘quv faoliyatining shaxsga yo‘naltirilganlik darajasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’limning raqamli muhitga ko‘chishi o‘qitishning samaradorligini oshiruvchi yangi vositalarning shakllanishiga zamin yaratmoqda [11].

Intellektual texnologiyalarning jadal rivoji o‘quv jarayonini boshqarish, baholash va monitoring qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, shaxsiy ta’lim trayektoriyasini belgilash kabi vazifalarni ancha soddalashtirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari o‘quv jarayonini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, o‘quvchi faoliyatini real vaqt davomida monitoring qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunday texnologiyalar ta’lim oluvchilar faolligini oshiradi, mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi, o‘quv jarayonini individuallashtiradi [1].

Shu bois, intellektual texnologiyalarning o‘quv jarayoniga tatbiqi ta’lim samaradorligini oshirish, yangicha metodik yondashuvlarni shakllantirish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va zamonaviy o‘qitish modeli sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi [10]. Mazkur maqola muammolarni ilmiy

ISSN: 2992-9210

asosda o‘rganishga bag‘ishlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi jarayonida intellektual texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sezilarli sur’atda ortib bormoqda. Xorijiy ilmiy manbalarning ko‘pchiligida intellektual texnologiyalar ta’lim sohasini transformatsiya qiluvchi strategik omil sifatida talqin etiladi. Jumladan, global tadqiqotlarda sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchilarning individual o‘quv faoliyatini chuqur tahlil qilish, bilim bo‘shliqlarini aniqlash, shaxsiy ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish va baholash jarayonini avtomatlashtirish orqali o‘quv faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini oshirishi ilmiy asosda bayon etiladi [2].

UNESCO, OECD, World Bank kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan raqamli kompetensiya modellarida sun’iy intellektni ta’limga integratsiya qilish bo‘yicha metodik, tashkiliy va etik mezonlar aniq belgilangan. Bu hujjatlar intellektual texnologiyalarni qo‘llash jarayonida pedagogning raqamli savodxonlik darajasi, texnologik moslashuvchanlik, ta’lim mazmunining modernizatsiyasi va talabaning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish kabi omillarni muhim deb hisoblaydi [5,6].

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda e’tibor qaratilgan yana bir yo‘nalish – intelligent tutoring systems (ITS) va learning analytics texnologiyalarining o‘quv jarayonini boshqarishdagi roli. Bu tadqiqotlarda intellektual texnologiyalar orqali o‘quvchining faoliyati bo‘yicha real vaqt monitoringi olib borilishi, xatoliklar dinamikasini aniqlash, o‘quv materiali murakkabligini avtomatik tarzda moslashtirish, o‘quvchining kognitiv faolligini o‘lchovchi indikatorlardan foydalanish kabi afzalliklar ta’kidlanadi [4].

MDH mamlakatlari adabiyotlarida esa intellektual texnologiyalarning pedagogik jarayondagi didaktik funksiyalari, o‘quv faoliyatidagi psixologik holatga ta’siri, sun’iy intellekt asosidagi baholash tizimlarining an’anaviy baholashga nisbatan ustunliklari keng yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Artificial Intelligence (AI-— sun’iy intellekt) asosidagi monitoring tizimlari o‘quvchining motivatsion holati, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va bilimlarning barqaror saqlanish darajasini aniqlashda yuqori aniqlikka ega [12].

Mahalliy adabiyotlarda ko‘proq ta’lim jarayonini raqamlashtirish, elektron platformalar va multimediya resurslari imkoniyatlarini kengaytirish, masofaviy va aralash ta’lim modellarini joriy etish, shuningdek, raqamli pedagogika tamoyillarini milliy ta’lim tizimi sharoitlariga moslashtirish kabi yo‘nalishlar ustuvor o‘rinni egallaydi. Oxirgi yillardagi mahalliy ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchi mustaqilligini kuchaytirish, o‘qituvchining metodik faoliyatini optimallashtirish, ta’lim sifatini boshqarish jarayonini Avtomat-lashtirishdagi funksional imkoniyatlari ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilgan [14].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, intellektual texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning kuchli mexanizmlaridan biri bo‘lib, ular orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchi-yutuqlar monitoringini takomillashtirish, o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlash va pedagogik yondashuvlarni diversifikatsiya qilish kabi natijalarga erishish mumkin. Ammo adabiyotlarning deyarli barchasida intellektual texnologiyalarning to‘laqonli joriy etilishi uchun quyidagi shartlar alohida ta’kidlanadi: mustahkam texnologik infratuzilma, raqamli didaktikaning ilmiy asoslari, pedagoglarning texnologik kompetensiyasini rivojlantirish, sifatli elektron resurslar bilan ta’minlash va axborot xavfsizligini ta’minlovchi mexanizmlarni shakllantirish [13].

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar tahlili intellektual texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qiluvchi omil, balki ta’lim jarayonini boshqarish, baholash, adaptiv o‘qitish va o‘quvchilar kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladigan kompleks pedagogik-ekosistemani yaratish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalar majmuasi ekanini ko‘rsatadi.

ISSN: 2992-9210

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi intellektual texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy pedagogika, raqamli didaktika, kognitiv psixologiya, sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish tizimlari va shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish nazariyalariga asoslanadi. Tadqiqotning metodik poydevori o‘quv faoliyatining kognitiv jarayonlari, o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasi, intellektual texnologiyalar yordamida bilimni qayta ishlash, tahlil qilish va baholash jarayonlarining ilmiy-amaliy asoslarini qamrab oladi.

Metodologik asos sifatida quyidagi nazariy konsepsiya va ilmiy paradigmalar tanlandi**: Raqamli pedagogika konsepsiyasi** – o‘qitish jarayonida intellektual texnologiyalarning didaktik funksiyalarini, interaktivlik va moslashuvchanlik tamoyillarini ilmiy asosda talqin etadi; **Kognitiv psixologiya tamoyillari** – o‘quvchilarning idrok, xotira, tafakkur, motivatsiya va metakognitiv strategiyalar orqali bilimni qayta ishlash jarayoniga intellektual texnologiyalarning ta’sirini izohlaydi; **Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli** – adaptiv tizimlar yordamida har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv yo‘nalishlari va o‘quv trayektoriyasini shakllantirishni ko‘zda tutadi; **Adaptiv o‘qitish nazariyasi** – sun’iy intellekt asosida o‘quv materiallarini o‘quvchi ehtiyoji, qobiliyati va o‘rganish tezligiga qarab avtomatik ravishda moslashtirish jarayonini ilmiy asoslaydi.

Tadqiqot izchil ilmiy jarayon sifatida to‘rt asosiy bosqichda amalga oshirildi: **Nazariy-tahliliy bosqich,** ushbu bosqichda intellektual texnologiyalar, raqamli o‘qitish platformalari, sun’iy intellekt yordamida o‘qitish hamda raqamli kompetensiyaga oid xalqaro hujjatlar va ilmiy manbalar sistematik tahlil qilindi. UNESCO (***U**nited **N**ations **E**ducational, **S**cientific and **C**ultural **O**rganization* – Birlashgan Millatlar Ta’lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti, Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti), OECD (Organisation for Economic Cooperation and Dovelopment – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va boshqa nufuzli tashkilotlarning raqamli ta’lim bo‘yicha tavsiyalari, shuningdek, xorijiy olimlarning AI tizimlarining ta’lim muhitiga ta’siri haqidagi ilmiy ishlanmalar o‘rganildi. Mahalliy ilmiy manbalar orqali esa raqamli ta’limning milliy xususiyatlari aniqlab chiqildi; **Diagnostik bosqich,** o‘quv muassasalarida intellektual texnologiyalarni qo‘llash holati, texnik infratuzilmaning mavjudligi, o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyasi, o‘quvchilarning mustaqil ta’limga moyilligi kabi ko‘rsatkichlar aniqlash uchun diagnostika o‘tkazildi. So‘rovnomalar, suhbatlar, elektron baholash tizimlaridan olingan ma’lumotlar yordamida o‘quv jarayonining real holati o‘rganildi; **Empirik bosqich,** bu bosqich tadqiqotning amaliy qismidir. Maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnomalar, testlar va kuzatuv kartalari asosida o‘quv jarayonida intellektual texnologiyalarning real ta’siri baholandi. Online platformalar, adaptiv tizimlar, sun’iy intellekt asosidagi diagnostika vositalari orqali o‘quvchilarning faoliyat dinamikasi o‘rganildi. Eksperimental darslar tashkil etilib, AI asosida o‘qitish va an’anaviy yondashuvlarning farqli natijalari solishtirildi; **Analitik bosqich,** Empirik ma’lumotlar Microsoft Excel, SPSS hamda learning analytics vositalari orqali tahlil qilindi. Statistik ko‘rsatkichlar, korrelyatsiya bog‘lanishlari, o‘quvchi faolligi indikatorlari, vaqt bo‘yicha o‘zgarishlar, adaptiv tizimlar orqali shakllangan o‘quv trayektoriyalari tahlil qilindi. Natijalarga asoslanib ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi [7,8].

Qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy usullar haqida gapirganda, tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlilning bir-birini to‘ldiruvchi metodlaridan foydalanildi: **Nazariy-uslubiy usullar bu -** ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish; raqamli ta’lim bo‘yicha xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish; normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish; intellektual o‘qitish tizimlarining texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish; **Empirik usullar bu -** pedagogik kuzatish, so‘rovnoma va intervyu, diagnostik testlar, elektron platformalardan olingan learning analytics ma’lumotlari, eksperiment, qiyosiy tahlil; **Statistik va analitik usullar bu -** korrelyatsion tahlil, variatsion tahlil, dinamik tahlil, kontent-analiz [15].

ISSN: 2992-9210

Tadqiqotning metodologik yangiligi shundan iboratki, unda intellektual texnologiyalar, o‘quvchilarning kognitiv jarayonlari va raqamli ta’lim muhiti o‘zaro integratsiyalashgan yagona ilmiy metodik model asosida baholandi. Mazkur model o‘quv jarayonining didaktik, texnologik va psixologik jarayonlarini bir butun tizim sifatida o‘rganishga imkon berdi. Adaptiv o‘qitish algoritmlarining real ta’sir mexanizmlari, sun’iy intellekt orqali o‘quvchini shaxsiylashtirilgan tarzda o‘rgatish imkoniyatlari birinchi bor kompleks ko‘rinishda tahlil qilindi [9].

Metodologiyaning amaliy ahamiyati, ushbu metodologiya: ta’lim jarayoniga intellektual texnologiyalarni bosqichma-bosqich integratsiya qilish; o‘quvchilarning raqamli va kognitiv kompetensiyalarini baholash; adaptiv ta’lim platformalarining samaradorlik indikatorlarini belgilash; o‘qituvchilar uchun raqamli metodik qo‘llanmalar yaratish; intellektual o‘quv muhitini loyihalashga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida intellektual texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quv faoliyati samaradorligiga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Eksperimental kuzatuvlar, diagnostik tahlillar va AI asosidagi ta’lim platformalaridan olingan raqamli ma’lumotlar intellektual texnologiyalar o‘quvchining kognitiv faolligini, o‘rganish dinamikasini va mustaqil izlanish jarayonini sezilarli darajada kuchaytirishini ko‘rsatdi. Tahlil natijalari intellektual tizimlardan foydalanish ta’limning metodik, tashkiliy va monitoring jarayonlariga tub o‘zgarishlar olib kirayotganini tasdiqladi.

Birinchidan, adaptiv o‘qitish tizimlari samaradorligi alohida e’tiborni tortdi. AI algoritmlari o‘quvchining bilim strukturasini doimiy ravishda tahlil qilib, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqladi, natijada o‘quv materiallari murakkablik darajasi individual ehtiyojlarga mos ravishda avtomatik tarzda shakllandi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘rganish tezligini oshirishi, mustaqil ishlashga tayyorlikni kuchaytirishi hamda o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishi amaliy tajribalar orqali tasdiqlandi.

Ikkinchidan, intellektual diagnostika vositalarining aniqligi an’anaviy baholash mexanizmlariga nisbatan ancha yuqori ekani ma’lum bo‘ldi. AI yordamida amalga oshirilgan baholash jarayoni inson omili bilan bog‘liq ehtimoliy sub’ektivlikni kamaytirib, baholash mezonlarining izchilligi va shaffofligini ta’minladi. Natijalar o‘quv faoliyati monitoringi real vaqt rejimida qayd etilishini, har bir topshiriqning bajarilish darajasi, xatoliklar xaritasi va rivojlanish dinamikasi to‘liq aks etishini ko‘rsatdi.

Uchinchidan, tadqiqot intellektual texnologiyalar o‘quv jarayonini chuqur individuallashtirishga xizmat qilayotganini namoyon qildi. Har bir o‘quvchi o‘zining psixologik xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, o‘qish tezligi va qiziqish sohasi asosida shakllangan individual o‘quv trayektoriyasi bo‘yicha harakatlandi. Bu esa bilimning mustahkamlanish darajasini oshirib, o‘quv faoliyatida barqaror ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishiga zamin yaratdi.

To‘rtinchidan, pedagoglarning texnologik kompetensiyasi sezilarli ravishda oshgani qayd etildi. AI tizimlari o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini rejalashtirish, avtomatlashtirilgan monitoring olib borish, individual o‘quv yo‘llarini ishlab chiqish, interaktiv vizual materiallar yaratish va baholash jarayonini soddalashtirishda samarali yordam berdi. Bu esa o‘qituvchilar faoliyatida metodik yengillik yaratib, pedagogik jarayon sifatining oshishiga xizmat qildi.

Beshinchidan, tahlillar o‘quvchilarning motivatsiyasi sezilarli kuchayganini ko‘rsatdi. Interaktiv multimediya modullari, vizualizatsiya elementlari, sun’iy intellekt asosidagi tavsiyalar va o‘quv jarayonidagi gamifikatsiya elementlari o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshirgan, darsga jalb etilish darajasi yuqori bo‘lgan. O‘quvchilarning “real vaqtli fikr-mulohaza” (feedback) olishi ularning o‘quv jarayoniga faol ishtirokini yanada rag‘batlantirgan.

Bundan tashqari, AI tizimlari orqali yig‘ilgan o‘quv ma’lumotlarining tahlili ta’lim jarayonida

ISSN: 2992-9210

yuzaga chiqadigan uzilishlarni, mavzu bo‘yicha qiyinchiliklarni va o‘quvchilarning kognitiv yuklamasi darajasini aniqlash imkonini berdi. Bu esa o‘qituvchi uchun o‘quv jarayonini optimallashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar shakllanishiga yordam berdi.

Umuman olganda, olingan ilmiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, intellektual texnologiyalar ta’lim jarayonining tashkiliy-strukturaviy elementlarini modernizatsiya qilibgina qolmay, balki o‘quvchilarning o‘rganish faoliyati, motivatsiyasi va kognitiv rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan kuchli omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari intellektual texnologiyalar o‘quv jarayonini optimallashtirish, ta’lim sifatini oshirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelini amalda ro‘yobga chiqarishda strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa (Conclusion)

Tadqiqot natijalari intellektual texnologiyalar ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga mos holda qayta tashkil etishda strategik o‘rin tutishini yaqqol ko‘rsatdi. O‘quv jarayoniga sun’iy intellekt elementlarining joriy etilishi ta’lim samaradorligining oshishiga, bilimlarni egallash jarayonining shaxsiylashtirilishiga, o‘quvchilar faoliyatining raqamli monitoring asosida boshqarilishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, adaptiv o‘qitish tizimlari, intellektual diagnostika platformalari, o‘quv faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilishga xizmat qiluvchi tahliliy modullar o‘quvchilarning bilim olish strategiyasi va o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Intellektual texnologiyalar asosidagi ta’lim muhiti nafaqat bilimlarni mustahkam egallashga, balki o‘quv motivatsiyasining barqaror shakllanishiga, o‘quvchining mustaqil izlanish faolligi va kognitiv rivojlanish darajasining oshishiga ham yordam berishi tadqiqotda tasdiqlandi. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan o‘quv resurslarining tavsiya berish imkoniyatlari o‘quvchilar uchun individual o‘qish trayektoriyasini yaratish, murakkab mavzularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, xatolarni aniqlash va shu asosda yangi strategiyalarni shakllantirish jarayonini soddalashtiradi. Natijada, o‘quvchilarda refleksiv fikrlash, tahliliy yondashuv va mustaqil ta’lim kompetensiyalari yanada rivojlanadi.

Tadqiqot shuningdek, intellektual texnologiyalar pedagogik jarayonni optimallashtirishda samarali vosita ekanini ko‘rsatdi. O‘qituvchilar uchun avtomatlashtirilgan baholash, individual yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar, raqamli tahliliy hisobotlar, o‘quv yuklamasini boshqarish kabi funksional imkoniyatlar yaratilishi dars jarayonini metodik jihatdan yengillashtirib, pedagogik vaqtning samarali taqsimlanishiga yordam beradi. Bu esa o‘qituvchining ijodiy faoliyatini kengaytiradi, ta’lim jarayonini boshqarishdagi ortiqcha mehnat yukini kamaytiradi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, intellektual texnologiyalarni milliy ta’lim tizimiga kompleks ravishda integratsiya qilish ta’lim sifatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga, o‘quv jarayonining ilmiy asoslangan tahliliy yondashuvlar bilan boyitilishiga hamda o‘quvchi-o‘qituvchi o‘zaro hamkorligining zamonaviy shakllarda rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu texnologiyalar ta’lim jarayonida innovatsion ekotizimni shakllantiradi, o‘quv jarayonining shaffofligini, aniqligini va barqarorligini ta’minlaydi, natijada ta’lim tizimining global raqobatbardoshligini mustahkamlovchi muhim omilga aylanadi.

Umuman olganda, tadqiqotda olingan ilmiy natijalar intellektual texnologiyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirish va pedagogik jarayonni raqamli paradigma asosida takomillashtirish uchun ishonchli ilmiy-amaliy asos yaratishini ko‘rsatmoqda. Mazkur texnologiyalarni bosqichma-bosqich, tizimli va ilmiy-metodik yondashuvlar asosida joriy etish kelajakda innovatsion ta’lim muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

ISSN: 2992-9210

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Anderson, T., & Dron, J.** *Teaching and Learning in the Age of Intelligent Systems.* London: Routledge. **2022.**
2. **Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C.** *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications.* Center for Curriculum Redesign. **2021.**
3. **Mayer, R.E.** *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning.* Cambridge University Press. **2020.**
4. **Luckin, R.** *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education in the 21st Century.* UCL Institute of Education Press. **2018.**
5. **OECD.** *AI in Education: Policy and Regulatory Frameworks for Digital Transformation.* OECD Publishing. **2021.**
6. **UNESCO.** *AI and the Future of Learning: Policy Guidelines.* Paris: UNESCO. **2022.**
7. **Baker, R.S.** *Learning Analytics and Intelligent Tutoring Systems: Foundations and Trends.* Springer. **2020.**
8. **Heffernan, N., & Heffernan, C.** *Intelligent Tutoring Systems and Adaptive Learning Models.* Springer Nature. **2019.**
9. **Беспалько, В.П.** *Педагогические технологии цифрового обучения.* Москва: Академический проект.**2020.**
10. **Панченко, В.И.** *Интеллектуальные обучающие системы: методология и применение.* Санкт-Петербург: Питер. **2021.**
11. **Селевко, Г.К.** *Современные образовательные технологии в условиях цифровой трансформatsiu.* Москва: Педагогика. **2019.**
12. **Бондарев, А.А.** *Искусственный интеллект в образовании: подходы, инструменты, перспективы.* Минск: Белорусский гос. университет. **2022.**
13. **Abdullayev, A.** *Raqamli pedagogika va intellektual ta’lim tizimlari: nazariya va amaliyot.* Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti. **2022.**
14. **Karimov, B., & Yo‘ldosheva, N.** *Sun’iy intellekt asosida o‘qitish texnologiyalari va ularning didaktik imkoniyatlari.* Toshkent: Istiqlol universiteti. **2023.**
15. **Xayitov, O., & Abdusalomov, J.** *Raqamli ta’limda adaptiv yondashuvlar va o‘quv jarayonini individuallashtirish.* Toshkent: Fan va texnologiya. **2021.**

ISSN: 2992-9210

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINI MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATIGA YO‘NALTIRISH

НАПРАВЛЕНИЕ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА САМОСТОЯТЕЛЬНУЮ УЧЕБНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

ORIENTATION OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES

Eshquvvatov Ilhom Sa’dulla o‘g‘li

Eshquvvatov I.S.,
Termiz davlat universiteti
“Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi o‘qituvchisi
eshkuvvatov.ulugbek@mail.ru

Annotasiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarni mustaqil ta’limga yo‘naltirish, talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish, olingan bilimlarni ijodiy qo‘llash mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar va tushunchalar. *talaba, ta'lim, tarbiya, muhandis, ijod, qobiliyat, mustaqil ta’lim, o‘quv jarayoni, qiziqish, ko‘nikma, malaka, kasb, samaradolik.*

Резюме. В статье освещается сущность ориентации обучающихся на самостоятельное обучение в высших учебных заведениях, формирование у обучающихся навыков саморазвития, творческого применения полученных знаний.

Ключевые слова. *студент, образование, воспитание, инженер, творчество, способности, самообразование, учебный процесс, интерес, умение, квалификация, профессия, продуктивность.*

Summary. The article highlights the essence of orienting students in higher education institutions towards independent learning, forming students' self-development skills, and creatively applying the knowledge gained.

Key words and concepts. *student, education, upbringing, engineer, creativity, ability, independent education, educational process, interest, skills, qualification, profession, efficiency.*

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ishlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishi, jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidori, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 20 aprelidagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida"gi 2909-sonli qarorida oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha eng muhim vazifalar qatorida quyidagilar belgilangan:

- oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

ISSN: 2992-9210

- oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g‘oyalari, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha kengk o‘lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish[1].

Adabiyotlar tahlili. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning tezkor rivojlanishi, maishiy turmush sharoitining yaxshilanishi, inson tomonidan tabiatga ko‘rsatilayotgan salbiy ta'sir doirasining tobora kengayishi, axborot-aloqa almashuvining takomillashuvi, shuningdek, kompyuter va murakkab texnikalar xizmatining ijtimoiy hayotning turli sohalarida ustuvor o‘rin tutishi kishilik munosabatlarida ham ijobiy, ham salbiy holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababdan ham yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Talablarning yuqori darajadagi bilimni egallashlari uchun o‘quv auditoriyasidagi mashg‘ulotlar bilan chegarilanib qolmay, balki mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirishlari ayni muddao bo‘ladi.

O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasining “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo’nalishlari” deb nomlangan 3-bobining “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish” deb nomlangan 1-§ da “Mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish, o’quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o’quv jarayonini amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirish, bu borada o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv uslubiy materiallarni keng joriy etish” masalalarida ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetentsiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Tahlil va muhokama. Mustaqil ta’lim olish – mustaqil, ongli ravishda bilish faoliyatiga qaratilgan jarayondir. Pedagogik lug’atlarda "mustaqil ta’lim olish" tushunchasi quyidagicha izohlanadi: "Mustaqil ta’lim olish – ongli ravishda maqsadga yo’naltirilgan shaxsning o’zi tomonidan boshqariladigan faoliyat bo’lib, fan-texnika, madaniyat, siyosiy hayotga oid tizimlashtirilgan bilimlarni egallashga qaratilgandir. Mustaqil ta’lim olishning asosida bilim oluvchining qiziqishlari va manbani mustaqil o’rganish yotadi". Mustaqil ta’lim olish jarayoni insonning o’z xohishi asosida, ongli ravishda amalga oshiriladi va shaxsning o’zi tomonidan rejalashtiriladi, boshqariladi hamda nazorat qilinadi.

Shu o‘rinda mustaqil ta'lim tushunchasiga izoh berishni joiz deb bildik. Mustaqil ta'lim – olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shaklidir [2].

Mustaqil faoliyat muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ish turlari bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi. Ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkur, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lmagan o‘quvchi ijodkor bo‘la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritolmaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratilishi, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr va ijodiy fikrni rivojlantirish masalasi hozirgi paytda ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Talabalarning mustaqil tahsil olishlari ularni o‘z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishidir.

ISSN: 2992-9210

Talaba ilmiy fikr yuritishining mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog‘liq tarzda kechadi. Agar talaba tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g‘oyalar, tavsiyanomalar bildirilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo‘lsa, bunday insonning fikr yuritishi sermahsul deyiladi. Vaqt oralig‘ida bajarilgan aqliy faoliyat ko‘lamiga va sifatiga oqilona baho berish talaba fikr yuritishi mahsuldorligini o‘lchash mezoni sifatida xizmat qiladi. Talaba oddiy narsalar to‘g‘risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisalar mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush xaqiqatidan umumiy ijtimoiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi.

Mustaqil ta'lim olishning asosiy maqsadi o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish hamda ularning o‘z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil ta'limning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod raqamli texnologiyalar yordamida ma'lumotlar bazasidan eng zarur axborotni topish, unga baho berish, qayta ishlash, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

Natija. Ma'lumki talabalarning ilmiy dunyoqarashi shakllantirish orqali fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Har qanday jamiyatda, yangilik taraqqiyot – inson aql-zakovatining mahsulidir, shu boisdan ham fan va texnika rivoji ko‘p jihatdan mutaxassisning ilmiy fikrlashiga bog‘liq bo‘ladi. Bo‘lajak mutaxassisning kamoloti jismoniy, ahloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo‘lib, bu borada uning ilmiy fikrlashi etakchi, ustuvor o‘rin egallaydi. Shubhasiz barkamol inson bo‘lib etishishni niyat qilgan bo‘lg‘usi mutaxassis, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat va qadriyatlar egallash uchun hamda kelajak rivojini ta'minlash uchun ularda mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish **maqsadga muvofiq.** Har bir shaxs o‘z aql-idroki, tafakkurning teranligi, intellektual shakllanganligiga xos va mos holda muammolarni echadi va hayotga joriy etadi [3]. Ma'lumki, faol bilim olish va ilmiy izlanish faoliyati mustaqil izlanishlarning barcha turlaridan unumli foydalanishni talab qiladi. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning asosiy vazifasi har qanday shakldagi darslarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik-didaktik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Mustaqil ta’limni tashkil etishning asosiy printsipi muammoli masalalarni hal qilishda o‘z fikrini shakllantirish va talabaning passiv roli bilan muayyan vazifalarni rasmiy bajarishdan kognitiv faoliyatga o‘tish bilan barcha talabalarni individual ishlarga o‘tkazish bo‘lishi kerak [4].

ISSN: 2992-9210

1-rasm. Mustaqil ta’limini tashkil etishning modeli

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hozirga vaqtda nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda egallagan mutaxassisliklari bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va tajribasini mustaqil tarzda oshirib boradigan, mavjud vaziyat yuzasidan ijodiy yondashgan holda muammoli holatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Talaba mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin bo‘ladi. Talabalarning mustaqil izlanishlari natijasida ularning, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi. Buning natijasida talabalarning kreativ fikrlashi rivojlanadi.

ISSN: 2992-9210

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-2909-sonli qarori.

2. Hasonboev J., To‘raqulov X. va boshqalar.Pedagogika fanidan izohli lug‘at.– T.: "Fan va texnologiyalar", 2009. -355-b.

3. Reneger S.L. All of us know more than each of us: cooperative earning in higher education. // Active learning strategies in higher education. // JATER press, Szeged, 1997. -P. 49.

4. Пидкасистый П.И., Фридман Л.М., Гарунов М.Г. Психолого-дидактический справочник преподавателя высшей школы. М.: Педагогическое общество России, 1999. 354 с

ISSN: 2992-9210

TALABALARDA MUHANDISLIK KASBIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING ENGINEERING PROFESSIONAL SKILLS IN STUDENTS

Eshquvvatov Ulug‘bek Abdulla o‘g‘li

Eshquvvatov U.A.,
Termiz davlat muhandislik va agritexnologiyalar universiteti “Yo‘l muhandisligi” kafedrasi dotsenti
eshkuvvatov.ulugbek@mail.ru.

Annotasiya. Maqolada texnik oliy ta’lim muassasalarida talabalarni muhandislik kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy metodik modeli ishlab chiqilgan va uning asosiy qoidalari mazmun – mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar va tushunchalar: *talaba, ta’lim, tarbiya, muhandis, ijod, qobiliyat, model, qiziqish, ko‘nikma, malaka, kasb, samaradolik.*

Резюме. В статье разработана организационно – методическая модель развития инженерных профессиональных навыков студентов в технических высших учебных заведениях и изложены ее основные положения.

Ключевые слова и понятия:*: ученик, образование, воспитание, инженер, творчество, способности, модель, интерес, умение, квалификация, профессия, продуктивность.*

Summary. The article develops an organizational methodological model for the development of engineering professional skills of students in technical higher education institutions and highlights the content and essence of its main provisions.

Key words and concepts: *Student, Education, Training, Engineer, creativity, ability, model, interest, skills, qualification, profession, efficiency.*

Fan va texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va xizmati ko‘rsatish soxalarida kognitiv va nomoddiy omillar roli oshishi texnik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak kadrlarni tayyorlashga yangicha yondashuv bo‘lishini talab etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra [1] shaxsiy qobiliyatni rivojlantirishning extiyoj katta sifati bu – ijodiy rivojlanish va ijodiy echim qabul qilishga tayyorlik qobiliyati ekan. Shuning uchun talabalarning faqatgina intellektual rivojlanishigina emas balki ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantirish talab qilinadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatishicha jamiyatni rivojlantirishga an’anaviy o‘qitish usullarida erishib bo‘lmas ekan. Ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qitishning fundamental asoslarini qaytadan ko‘rib chiqish, samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqish talab qilinadi. Hozirgi kunda ko‘pchilik texnika oliy ta’lim muassasalari an’anaviy usullaridan foydalanishni afzal ko‘rayotganda muhandislarni tayyorlash jarayonida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik modelini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi.

ISSN: 2992-9210

An’anaviy didaktik o‘qitish metodikasidan farqli ravishda interfaol ta’limda asosiy etibor dialog kontsepsiyasi asosida qurilib, tushunish va o‘zaro tushunishga asoslangan. Boshqacha aytganda interfaol metodikada ta’lim olayotgan muhandis talaba o‘zaro hamkorlik jarayonida yoki suxbatda bo‘ladi, bu esa ta’lim oluvchining intellektual va ijodiy qobiliyatlarini ochilishini, o‘z ustida ishlashini ta’minlab, ixtiro va kashfiyot qilishga yo‘naltirilgan kreativ qobiliyatini rivojlantirishiga olib keladi.

Ta’lim jarayoninini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, o‘quv darslari ko‘pincha akademik rejimda olib boriladi. Muxandis talaba kreativ qobiliyatini ochuvchi interfaol metodikadan foydalanilmaydi yoki juda oz miqdorda foydalaniladi.

Ushbu ish oldiga qo‘yilgan muammo va maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar shakllantirildi:

1. Texnik oliy ta’lim muassasalarida talabalar kreativ qobiliyatini rivojlantirish mohiyati, tuzilishi va mezonlari.

2. Texnik oliy ta’lim muassasalarida muhandis talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol usullarni joriy etishning asosiy qoidalarini ishlab chiqish.

3. Texnik oliy ta’lim muassasalarida talabalari kreativlik qobiliyati rivojlanish pedagogik – psixologik sharoitlarini o‘rganish.

4. Muhandislarni tayyorlash jarayonida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik modelini ishlab chiqish.

Texnik oliy ta’lim muassasalarida talabalar kreativ qobiliyatini rivojlantirish mohiyati, tuzilishi va mezonlari

Birinchi navbatda kreativ qobiliyat moxiyatini aniqlab olishimiz kerak. Falsafiy nuqtai nazardan qarasak, kreativlik – (lotincha: creo – ijod qilish, yaratish) – ijodiy qobiliyat, muammo yoki holatni boshqacha o‘rganish ma’nosini bildiradi. Boshqacha aytgandi, kreativ qobiliyat – turli holatlarni nostandart dunyqarashda qabul qilish va ijodiy yaratuvchanlikka moyillikdir. Kreativ qobiliyat strukturasi bo‘yicha olimlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Masalan, F.Djakson, S.Messika va boshqa olimlar fikriga ko‘ra kreativlik qobiliyat, yuqori motivasiya, hamda boshqa omillar: bilimdonlik, fikrlash uslubi, shaxsning o‘ziga xosligi, kognitiv va xissiy sifatlaridan aniqlanadi. T.B. Shiloning takidlashiga ko‘ra, kreativlik – fikrlashning kognitiv-intellektual ijodiy omili (tezkorlik, egiluvchanlik, originallik, ishlab chiqilganlik) va shaxsning individual omili (tavakkalchilik, murakkablik, qiziquvchanlik, tasavvurga egalik) tashkil etadi. Umumiy qilib kreativlik strukturasi motivasion, samarador, intellektual, estetik, ekzistentsial, kirishuvchanlik, kompetentlik kabi kreativ sifatlarning o‘ziga xos va noyob birlashmasidir [3].

Texnik oliy ta’lim muassasalarida talabalar kreativ qobiliyatini rivojlantirish mohiyati, tuzilishi, mezonlari va kreativ qobiliyati rivojlanish darajasini aniqlash va yaratiladigan tashkiliy model ustida ishlashda bir qator qoidalarga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

1. Ishni joriy qilishga barcha qatnashuvchilar ishtirok etishi lozim. Maqsadga erishish uchun muxokama jarayoniga barcha qatnashuvchilarni jalb qiluvchi texnologiyadan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Qatnashuvchilar psixologik tayyorligini hisobga olish kerak. Bu erda gap mashg‘ulotga qatnashishga kelgan xamma xam u yoki bu shaklda ishga jalb qilinishga tayyor emas. Shu sababli ishda faol qatnashganlarni doimiy rag‘batlantirish, turli mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘zini ko‘rsatishga imkon berish foydalidir.

3. Interfaol usulda ta’lim oluvchilar soni ko‘p bo‘lmasligi lozim. Talim oluvchilar soni va ta’lim sifati bir biriga to‘g‘ridan to‘g‘ri proportsionaldir. Qatnashuvchilarning optimal soni 25 nafargacha bo‘lishi taklif etiladi.

ISSN: 2992-9210

4. Auditoriyalar shunday tashkil etilishi lozimki, unda qatnashuvchilar katta va kichik guruxlarga ajratilganda bemalol joyini o‘zgartirish imkoni bo‘lsin.

5. Tartib va qoidalar aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Dars boshida bu haqda kelishib olish va unga rioya qilish lozim. Masalan, barcha qatnashuvchilar so‘zga chiqqanlarning bildirgan fikrlarini hurmat qiladi, bunda so‘z erkinligi bo‘g‘ilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6. Qatnashuvchilarning kichik guruxlarga bo‘linishiga e’tibor qilish kerak. Avval ixtiyoriy ravishda, keyin esa tasodifiy bo‘linishlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Talabalarni kreativ qobiliyatini rivojlantirishga motivasiyalash bosqichi oliy ta’lim muassasida o‘qishining birinchi o‘quv yiliga mos keladi. Ta’limning birinchi kunidanoq talabalar quyidagi adaptasiyaviy qiyinchiliklarga duch keladi: umumta’lim tayyorgarlikning past darajasi, ma’lum bir fandan bilimi kamligi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi yo‘qligi va kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga motivasiya darajasi pastligi. Shu sababli talabalarning yangi o‘quv jarayoniga adaptasiyasiga yordam berish kerak. Ushbu davrda o‘qishning asosiy maqsadi bo‘lib muhandis talabaning keyingi o‘qish jarayonida kerak bo‘ladigan ba’zi fanlar (matematika, fizika, ximiya, muhandislik grafikasi va boshqa) dan bilim darajasini oshirish lozim.

Asosiy vazifalar: bir kurs davomida o‘rta umumta’lim maktablarida olingan bilimlarni mustaxkamlash; ta’lim oluvchilarda motivasiya muxitini rivojlantirish; guruxlarda umumiy ijobiy psixologik iqlim yaratish; gurux talabalari hamda pedagog va talaba o‘rtasida erkin fikrini bildirish muhitini yaratish.

Ushbu bosqich maqsad va vazifalari fanlardan ma’lum bir materialni tanlab olish bilan izohlanadi. Asosan o‘rta maktabda olingan bilimni korrektsiyalash va kamchiliklarni bartaraf etishga va bilim olishga motivasiyalashga yo‘naltirilib, o‘rta maktabda olingan bilimdan foydalanishga o‘rgatiladi.

Bazaviy bilimlarning muxandis talaba uchun etarli bo‘lmaganligi, motivasiya zaifligini dars uchun ajratilgan soatlar kamligini e’tiborga olib o‘qitishda interfaol metodikadan foydalanish, hamda bir qator shaprtlarga rioya qilish talab qilinadi. Masalan, ijtimoiy psixologik shart sifatida o‘quv-tarbiyaviy va kommunikativ vazifalarni xal qilishga qodir pedagogik jamoa tuzish; o‘qituvchilar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan mavzu va holatlarni tanlashni keltirish mumkin. Ijtimoiy – psixologik shartlardan tashqari motivasiya uyg‘otish orqali muxandislik fanlariga qiziqtiruvchi shaxsiy reja asosida ishlash omilini xam e’tiborga olish lozim.

Psixologik va texnologik jixatdan ushbu bosqich muxim hisoblanib o‘qituvchidan jiddiy tayyorgarlik ko‘rishni talaba qiladi. Talaba o‘quv o‘yinlarida erkin muloqatga kirisha olishi uchun guruxda ijobiy muxit yaratish lozim. Agar talaba erkin muloqatga kirisha olmasa, uyalish xissini tuysa, o‘qituvchidan qo‘rqsa bunday holatda talabaning bilim olishga ijodiy yondashishi va kreativ faoliyatga yo‘naltirilishi xaqida gapirish mumkin emas. Shuning uchun birinchi bosqich aynan darslarda do‘stona muxit yaratish, talabalarga ijobiy xislatlarini ochishga yordam berish, kreativ fikrlashdagi qo‘rquvni engishga yordamlashishdan iborat. Asta-sekin talabalar do‘stona muxitga ko‘nikadi, o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rganadi.

Talabalarni tayyorlashning ikkinchi bosqichiga o‘tishda guruxdagi psixologik qulaylikka erishish, erkin fikrlash, qo‘yilgan vazifalarni bajarishda jamoa bilan ishlashga tayyorlik darajasidan aniqlanadi[6].

Nusxa olish bosqichi. Ushbu bosqichda kommunikativlik kompetentsiyani takomillashtirish, tipik vazifalarni bajarishda tayyor echimlardan foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Talabalar bilimida asosiy kamchilik bazaviy bilimidan ishlab chiqarish sharoitida foydalana olmaslik hisoblanadi. Shuning uchun talabalarda oddiy muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishni, oddiy va tayyor echimlarni boshqa holatlarda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish muxim hisoblanadi.

ISSN: 2992-9210

Ushbu bosqich bo‘yicha xulosa chiqaradigan bo‘lsak, muxandis talabalarda oddiy vaziyatlarda analogik tayyor echimlardan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish lozim. Buning uchun amaliy darslarda muammoli vaziyatlar hosil qilish va echimini izlash metodikasi qo‘l keladi.

Reproduktiv-ijodiy faoliyat bosqichi. Ushbu bosqichdan kasbiy tayyorgarlik boshlanadi. Shuning uchun ushbu bosqichda talaba har bir qo‘yilgan vazifaga professional yondashishi talab qilinadi. Qo‘yilgan vazifaga ma’lum usulni qo‘llashga va ijodiy yondashishga ko‘nikma xosil qilinishi lozim. Reproduktiv-ijodiy faoliyat bosqichda talaba ilmiy-texnikaviy adabiyotlardan foydalanishni o‘rganishi lozim.

Ushbu bosqichda qo‘llaniladigan metodlarga bir qator talablar qo‘yiladi. Ushbu metodlar talabalarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirishi, qo‘yilgan vazifalarning unikal echimini topishdan talaba zavqlanishi lozim.

Talabaning konstruktiv-ijodiy faoliyat bosqichi. Ushbu bosqichning maqsadi talabalarda kasbiga doir bilimlarni yuqori darajada egallashni maqsad qiladi; talabalarda kommunikativ kompetentsiyani professional darajada egallashida motivasiya uyg‘otiladi.

Muhandislarni tayyorlash jarayonida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning tashkiliy metodik modeli bir necha bloklardan tashkil topadi(rasm):

I-bosqich. **O‘quv maqsadi**-o‘quv jarayonida talabalarning ijodiy va kreativlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim: mavzu, maqsad va mashg‘ulot savollarini muammoli shakllantirish; o‘quv joyini tayyorlash, ya’ni maxsus auditoriya, o‘quv laboratoriyasi, texnopark va boshqalarni tayyorlash orqali talabalarni suxbatga kirishi va faol ishlashga undash.:”

II-bosqich. **Vazifa** – o‘quv maqsadiga ko‘ra talabalar ijodiy fikrlashini shakllantirish, bilim, ko‘nikmalar tizimini berish: bilim olish jarayonida talaba va o‘qituvchi o‘zaro xamkorlik qilishiga motivasion tayyorligini shakllantirish; qo‘yilgan vazifa echimini topish uchun harakatni integrasiyalovchi maxsus holat yaratish; talaba va o‘qituvchi teng xuquqli xamkorligi qoidalarini ishlab chiqish.

III-bosqich. **Pedagogik sharoit yaratish** – muhandis talabalar kreativlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini oshirish: muloqotni ushlab turuvchi usullar (shirin so‘zlilik, konstruktiv savollar berish qobiliyati va boshqalar) dan foydalanish; bilim olish va o‘zaro hamkorlik faoliyat natijalarini baxolash tizimini optimallashtirish; jamoada ishlash va shaxslararo muloqotni rivojlanishini tahlil va sintez qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

ISSN: 2992-9210



1-rasm. Muhandislarni tayyorlash jarayonida talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy metodik modeli

Tadqiqotlarimiz natijasida biz oliy ta’lim muassasalaridagi talabalarda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishni tashkiliy metodik modelini ishlab chiqdik. Ushbu taklif etilayotgan modelning afzalliklari quyidagicha aniqlandi:

1. Talabaning ta’lim olish jarayonini faollashtiradi, chunki ta’lim berishning interfaol metodlari ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatini motivasiyalaydi;

2. Do‘stona pedagogik mikroiqlimini yaratadi, bu o‘z navbatida erkin bo‘lish, intuisiya va tasavvurdan foydalanish sharoitini hosil qiladi;

3. Shaxslararo munosabatni yaratadi, kasbiy faoliyatda yoki xayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammoli holatlarni modellashtirish orqali jamoaviy qaror qabul qilishga o‘rgatadi;

4. O‘quv materialini muammodorligi, qiyinchiligi va murakkabligini keng doirada rostlash imkonini beradi;

5. Ta’lim olish va o‘qitish usullari va metodlarini egiluvchan birlashtirish imkonini beradi;

6. Muhandislik kasbiy faoliyatni modellashtiradi;

7. O‘qitishning interfaol metodlari talabalar ijodiy madaniyatini rivojlantirish fenomeni sifatida qo‘llaniladi, chunki talabalarda kreativ qobiliyatini rivojlantirishni kengaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytganimizda, talaba o‘quv jarayonining to‘la huquqli qatnashuvchisiga aylanadi, uning muhandislik tayyorgarlik jarayonida kasbiy faoliyatiga bo‘lgan tajribasi bilim olish asosiy manbasiga aylanadi. Yuqorida biz ishlab chiqgan modeldan korinadiki pedagog tayyor bilim bermaydi,

ISSN: 2992-9210

lekin qatnashuvchilarni mustaqil izlanishga undaydi va topshiriqni bajarishda yordamchi funktsiyasini bajaradi. Modeldan foydalanishning afzalliklari:

-ta’lim oluvchilarda qiziqish uyg‘otadi;

-har bir qatnashchini ta’lim olish jarayoniga faol qatnashishga undaydi;

-har bir ta’lim oluvchi tuyg‘usini uyg‘otadi;

-o‘quv materialini samarali qabul qilishiga sababchi bo‘ladi;

-ta’lim oluvchiga keng ta’sir qiladi; -teskari aloqa (auditoriya javob reaktsiyasi) ni amalga oshiradi;

-ta’lim oluvchilarda o‘z fikri va munosabati bo‘lishiga olib keladi;

-xayotiy ko‘nikmalar shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musurmanova O. Kreativlik – pedagog kadrlar kompetentligini belgilovchi muhim indikator sifatida. Oliy ta’lim: muammo va echimlar respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy maqola va tezislar to‘plami (2020 yil 25 may) 27-32 betlar.

2. Avazboyev A. I., Pardaboyev J. E. talabalar ijodkor sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Oliy ta’lim / oliy ta’lim jurnali. 20-25 betlar.

3. Шило Т.Б. Структура креативности: современные взгляды на проблему. Тенденции развития психологии, педагогики и образования/Сборник научных трудов по итогам международной научно-практической конференции. Казань, 2014.

4. Махмутов, М. И., Ибрагимов, Г. И., & Чошанов, М. А. Педагогические технологии развития мышления учащихся. *Казань: ТГЖИ*,- (1993). С.*88*.

5. Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилигини шаклланти-ришнинг педагогик шароитлари: Дисс. ... пед. фан. номз. – Т.,2001. – Б.140

6. Eshquvvatov U.A., Talabalarning muhandislik kasbiga oid ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik talablari va shartlari. Ta’lim va innovatsion taqiqotlar jurnali 377-380 betlar.

7. Маматқулов, А. Н. Касбий таълимда талабалар ижодкорлигини ривожлантириш. *Современное образование (Узбекистан)*, - (2019). С.(12 (85))

8. Махмутов, М. И., Ибрагимов, Г. И., & Чошанов, М. А. Педагогические технологии развития мышления учащихся. *Казань: ТГЖИ*,- (1993). С.*88*.

9. Рубинштейн, С. Л. Принцип творческой самодеятельности. *Вопросы философии*, - (1989). С. *3*.

ISSN: 2992-9210

PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING DARS MASHG‘ULOTIDAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI

СТРАТЕГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФЕССОРОВ-ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ НА УРОКАХ

STRATEGY FOR IMPROVING THE ACTIVITY OF PROFESSORS AND TEACHERS IN LESSONS

Faxriddinov Muhammad Faxriddin O‘g‘li

Faxriddinov M.F.
Samarqand davlat pedagogika instituti,tayanch doktoranti (PhD)
fakhriddinovmukhammad0@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotidagi faoliyatini takomillashtirish strategiyalari keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotlar, pedagogik tajribalar va amaliy misollar orqali o‘qituvchilarning dars jarayonida faoliyatini qanday yaxshilash mumkinligi ko‘rsatib beriladi. Maqolada o‘qitish metodlari, yangi texnologiyalardan foydalanish va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar. *Professor-o‘qituvchilar, dars mashg‘uloti, ta’lim strategiyalari, o‘qitish metodlari, o‘quvchilar motivatsiyasi, pedagogik innovatsiyalar.*

Аннотация. В данной статье широко анализируются стратегии совершенствования деятельности профессоров-преподавателей в учебном процессе. На основе научных исследований, педагогического опыта и практических примеров показывается, как можно улучшить деятельность преподавателей в процессе обучения. В статье представлены предложения, направленные на методы обучения, использование новых технологий и повышение мотивации учащихся.

Ключевые слова. *Профессора-преподаватели, учебное занятие, образовательные стратегии, методы обучения, мотивация учащихся, педагогические инновации.*

Annotation. This article extensively analyzes the strategies for improving the activity of professors and teachers in the classroom. Through scientific research, pedagogical experiences, and practical examples, it demonstrates how to enhance teachers' activities during the teaching process. The article presents proposals focused on teaching methods, the use of new technologies, and increasing student motivation.

Keywords. *Professors and teachers, classroom activities, educational strategies, teaching methods, student motivation, pedagogical innovations*

ISSN: 2992-9210

Kirish.

O‘zbekiston ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotidagi faoliyati, o‘quvchilarning bilim darajasini va o‘qitish sifatini belgilovchi muhim omildir. O‘zgaruvchan dunyoda yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etish zarurati tug‘ilmoqda. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar o‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini takomillashtirishlari uchun berilgan strategiyalarni talab qiladi. Qolaversa pedagoglarning o‘z ustida ishlashini talbalar tomonidan baholanish yo‘llarini ishlab chiqish ham bu borada qilinadigan samarali usullardan bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar professor-o‘qituvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, o‘quvchi bilan aloqani yaxshilash va o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi.

K. Anderson (2020) o‘qitish jarayonida interaktiv metodlarning foydaliligini ko‘rsatadi. U o‘qituvchilar dars jarayonida talabalar bilan muloqotda bo‘lishi va ularni faol ishtirok etishga undashlari kerakligini ta’kidlaydi. Misol uchun, interaktiv taqdimotlar va guruhli muhokamalar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, o‘z fikrlarini bildirishga va o‘zaro hamkorlik qilishga undaydi.

Shuningdek, **R. Smith (2021)** o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun o‘yin elementlarini joriy etish muhimligini ta’kidlaydi. U o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish uchun gamifikatsiya metodlarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchilar uchun o‘yinlar va tanlovlar tashkil etish, ularning o‘qish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Gamifikatsiya — bu o‘yin elementlari va prinsiplari, o‘yin o‘ynash jarayoni va o‘yin dizaynini boshqa sohalarga tatbiq etish metodidir. Bu metod asosan inson xulq-atvorini o‘zgartirish, motivatsiyani oshirish va foydalanuvchilarni jalb qilish uchun qo‘llaniladi.

Metodlar. Ushbu maqolada quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

1. **Tadqiqot va tahlil**: Ta’lim sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar va maqolalarni tahlil qilish. Masalan, o‘qitish metodlarini o‘rganish va ularning samaradorligini baholash.
2. **Mulk ko‘riklari**: O‘qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini baholash. Bu jarayon o‘qituvchilarning darsni qanday olib borayotganini aniqlash va sifatini oshirish uchun zaruriy o‘zgarishlarni kiritish imkonini beradi.
3. **Intervyu**: O‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan intervyu o‘tkazish orqali tajribalarni to‘plash. Bu metod ta’lim jarayonidagi haqiqiy muammolarni aniqlashga yordam beradi.
4. **Amaliyot**: O‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy misollarni keltirish. Misol tariqasida, professor-o‘qituvchilarning dars jarayonida muammolarni hal qilish uchun innovatsion yondashuvlar qo‘llashlari mumkin.

Professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotidagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan savolnomamizdan o‘rin olgan savollarni Samarqand davlat pedagogika instituti bir guruh talabalar tomonidan anonim tarzda baholashlarini so‘rab, ularga taqdim etdik. Ushbu savolnomaning maqsadi hozirgi kundagi olib borilayotgan dissertatsiyaning kelajakdagi foydasini baholashdan iborat bo‘lib, uni to‘g‘ri yo‘nalishda olib borilayotganini yana bir bor tekshirib, ko‘zdan kechirish edi.

ISSN: 2992-9210



1-jadval

Olib borilgan sinov tajribalardan ko‘rinib turibdiki, talabalarning professor o‘qituvchilarning darsiga tayyorgarligi darajasida berilgan savolnomaga bergan javoblari 61,1% - “juda yaxshi”, 38,9% - “yaxshi” javoblarini tanlagan. “O‘rtacha” – 0%, “Yomon” – 0% ni tashkil qildi.



2-jadval

O‘qituvchining talabalar bilan o‘zaro suxbatdagi aloqasi qanday deb berilgan savolnomaga talabalarning 61,1% -“juda yaxshi”, 38,9% esa – “yaxshi” javoblarini tanlashdi. “O‘rtacha” – 0%, “Yomon” – 0% ni tashkil qildi.

ISSN: 2992-9210



3-jadval

O‘qituvchining baholash usullari sizning fikringizcha, adolatlimi deb berilgan savolga talabalarning 69,4%- “ha, juda adolatli” javobini tanlashgan bo‘lsalar, 30,6% talabalar esa “o‘rtacha” deb tanlashgan. “Yo‘q, adolatli emas” – 0%.

Xulosa. Professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotidagi faoliyatini takomillashtirish strategiyalari o‘qitish sifatini oshirishga, o‘quvchilarni motivatsiyali qilishga va ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar va o‘qitish metodlarini qo‘llash, shuningdek, o‘quvchilar bilan yaqin aloqada bo‘lish, darslarni yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Kelajakda ta’lim tizimida bu strategiyalarni amalga oshirish o‘qitish jarayonida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, K. Interactive Teaching Methods in Modern Education. *Journal of Educational Research*, 45(3), 123-134. (2020).
2. Smith, R. Gamification in Education: Engaging Students through Game Elements. *Educational Technology Review*, 32(4), 45-59. (2021).
3. Brown, T., & Green, A. Innovative Teaching Strategies in Higher Education. *International Journal of Teaching and Learning in Higher Education*, 31(2), 250-263. (2019).
4. Johnson, L. Enhancing Student Engagement through Active Learning Techniques. *Educational Leadership*, 80(5), 22-29. (2022).
5. Dewey J. Democracy &Education. *New York: The Macmillan Company*, 1916.
6. Slastenin V.A. *Pedagogika i pedagogicheskaya innovatsiya.* Moskva, 2002.
7. Abduqodirov A. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari.* Toshkent: Fan, 2019.
8. Mardonov S. *Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya.* Toshkent: TDPU, 2020.
9. OECD Education Reports. *Teacher Professional Development Strategies.* Paris, 2022.

ISSN: 2992-9210

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

MODERN TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING SPEECH COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Hakimova Marjona Iskandarzoda, Raximova Gulbahor

Hakimova M.I.,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
Ilmiy rahbar: prof v.b. G.Raximova

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari tahlil qilinadi. Nutq kompetensiyasi bolalarning tafakkuri, ijodiy fikrlashi va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi, boshlang‘ich ta’limdagi pedagogik jarayonda o‘qituvchi va tarbiyachining mas’uliyati ta’kidlanadi. Maqolada interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, multimedia resurslari va amaliy mashg‘ulotlar orqali bolalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish, fikrni ravon ifodalash imkoniyatlari ochib berilgan. Shu bilan birga, pedagogning nutqni rivojlantirishdagi roli, bolalar bilan muloqot jarayonida rag‘batlantiruvchi muhit yaratish, xatolarni muloyim tuzatish kabi masalalar yoritilgan. Maqolada nutq rivojlanishi jarayonidagi qonuniyatlar, mashqlar va texnologiyalarning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, nutq kompetensiyasi, nutqni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, amaliy mashg‘ulotlar, ona tili, so‘z boyligi.*

Аннотация. В статье анализируются современные технологии развития речевой компетенции учащихся начальных классов. Подчеркивается важная роль речевой компетенции в формировании мышления, творческого мышления и культуры общения детей, а также ответственность учителя и воспитателя в педагогическом процессе начального образования. В статье рассматриваются возможности развития устной и письменной речи детей, расширения словарного запаса и выражения мыслей с помощью интерактивных методов, игровых технологий, мультимедийных ресурсов и практических занятий. Также освещаются вопросы роли педагога в развитии речи, создания стимулирующей среды в процессе общения с детьми, мягкого исправления ошибок. Статья демонстрирует закономерности процесса развития речи, а также практическое значение упражнений и технологий.

Ключевые слова: *начальные классы, речевая компетенция, развитие речи, педагогические технологии, интерактивные методы, игровые технологии, практические занятия, родной язык, словарный запас.*

ISSN: 2992-9210

Annatation. The article analyzes modern technologies for developing the speech competence of primary school students. It emphasizes the important role of speech competence in shaping children’s thinking, creative abilities, and communication culture, as well as the responsibility of teachers and educators in the pedagogical process of primary education. The article examines opportunities to develop children’s oral and written speech, expand their vocabulary, and express thoughts clearly through interactive methods, game-based technologies, multimedia resources, and practical exercises. It also highlights the teacher’s role in speech development, creating a motivating environment in communication with children, and gently correcting mistakes. The article demonstrates the patterns of speech development and the practical significance of exercises and technologies.

Keywords: *primary school, speech competence, speech development, pedagogical technologies, interactive methods, game-based technologies, practical exercises, native language, vocabulary.*

Kirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nutq faqat gapirish emas, balki ularning fikrlarini to‘g‘ri va ravon ifodalash, tinglash va tushunish qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi. Nutq kompetensiyasi — bu o‘quvchining tilni bilishi, uni mantiqan ishlatishi va amalda qo‘llay olishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui hisoblanadi. Nutq kompetensiyasi bir nechta asosiy qismdan iborat. Birinchisi, og‘zaki nutq ko‘nikmalari bo‘lib, u o‘quvchining to‘g‘ri talaffuz qilishi, suhbatga kirisha olishi va o‘z fikrini aniq bayon etishini o‘z ichiga oladi. Ikkinchisi, yozma nutq ko‘nikmalari, bunda bola grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar tuzish, matn yaratish va so‘zlarni o‘rinli ishlata olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Uchinchi tarkibiy qism – so‘z boyligi, ya’ni yangi so‘zlarni o‘rganish va ularni muloqotda qo‘llash, shuningdek sinonim va antonimlardan foydalanish. Oxirgi qism – kommunikativ ko‘nikmalar, ya’ni bola suhbat jarayonida muloyim va madaniyatli bo‘lishi, tinglashni bilishi va muloqotda faollik ko‘rsatishi. [1.127]

Boshlang‘ich sinfda nutq kompetensiyasi nafaqat til o‘rganish, balki o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishning ham asosidir. Nutqi rivojlangan o‘quvchi darslarni yaxshiroq tushunadi, fikrini ravon ifodalay oladi va ijodiy faoliyatda faol bo‘ladi. Shu sababli pedagoglar boshlang‘ich sinflarda nutqni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadilar. Masalan, 2-sinf o‘qish darsligida berilgan xalq ertaklari orqali o‘quvchilarda og‘zaki nutqni rivojlantirish, voqealar ketma-ketligini aniqlash va mazmunni qayta hikoyalash malakalarini shakllantirish mumkin. Quyidagi “Och bo‘ri” [2. 8-10] ertagi bunga yorqin misoldir: “Bo‘ri bir kuni don yeb yurgan xo‘rozni ko‘rib qoladi va uni tutib oladi. Xo‘roz undan nima qilmoqchi ekanini so‘raganda, bo‘ri uni yeyishini aytadi. Xo‘roz esa, uni kashnich va piyoz bilan yesa, mazasi yaxshi bo‘lishini aytib, bo‘rini qishloqqa yuboradi va shu orada uchib ketadi. Keyinchalik bo‘ri qo‘zi bilan ham shunga o‘xshash holatga duch keladi: qo‘zi uni tuz olib kelishga yuboradi va o‘zi qochib ketadi. Bo‘ri esa har safar aldanib qoladi.”

Mazkur ertak o‘quvchilarga matn mazmunini qayta tuzish, qismlarga ajratish, obrazlarni tavsiflash va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan

ISSN: 2992-9210

birga, ertak asosida “Qahramonning xatti-harakati qanday?”, “Nima uchun bo‘ri aldanib qoldi?”, “Siz bo‘lsangiz nima qilardingiz?” kabi savollar berish orqali muloqot kompetensiyasi shakllantiriladi.

Nutqni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni. Ma’lumki, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, bolalarga chuqur bilim berish boshlang‘ich ta’limining asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga olib kirilmoqda. Maktabgacha hamda boshlang‘ich ta’lim ta’limning asosiy qismi hisoblanadi. Bular bolalarning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga hamda keyinchalik yuqori sinflar va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishga tayyorlab boradi. Boshlang‘ich ta’lim umumiy ta’limning dastlabki bosqichi davlatimizda 1-4-sinflarni qamrab oladi. Unda ta’lim berish, ularni aqliy, ma’naviy, jismoniy kamol toptirishning dastlabki bosqichi sanaladi. Boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standartida belgilangan maqsad orqali amalga oshiriladi [3.83]. Mamlakatimizning olib borayotgan mazkur siyosati boshlang‘ich ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglardan g‘oyat katta mas’uliyat hamda o‘qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, boshlang‘ich sinflarda bolani har tomonlama yuqori sinflarga tayyorlash, bolalar nutqini rivojlantirish masalasi eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so‘z boyligining oshishi, ravon gapirishi va o‘z fikrini to‘liq ifoda etib, aytib bera olishga o‘rgatish masalaning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, pedagog xodimlarning nutq o‘stirish metodikalariga doir bilimlari chuqur bo‘lishi lozim, shuningdek, eng qulay usulni qo‘llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o‘rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o‘zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to‘g‘ri ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so‘z) nutq me’yorlarini ishiga mos holda o‘rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish jarayonida darsliklarda keltirilgan **maqol, topishmoq va tez aytishlar** juda samarali material hisoblanadi. Masalan, **“Tilga e’tibor — elga e’tibor”** kabi maqollar o‘quvchiga so‘zning qadrini tushuntiradi; **“Olti oq otli oq otchi otminar ot otadi”** kabi tez aytishlar talaffuzni ravonlashtiradi; **“O‘zi kichkina, ovozi katta. Bu nima? (Chumchuq)”** kabi topishmoqlar esa bolalarda mantiqiy fikrlash va tasavvur faolligini kuchaytiradi.

Demak, nutq o‘stirish metodikasi fani boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo‘nda va obrazli so‘zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o‘rgatadi, bolalarga ta’lim beradi. Nutq o‘stirish metodikasi fani boshlang‘ich ta’limda bolalarni og‘zaki nutqini o‘stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, ya’ni nutq va xulq egasi bo‘lish kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni, so‘zlash odobini egallashni shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda turli pedagogik va texnologik usullar keng qo‘llanilmoqda. An’anaviy dars usullaridan tashqari, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalari bolalarning muloqot faolligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirish va fikrini ravon ifodalashga yordam beradi.

Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarni faol qatnashishga jalb qiladigan usullar bo‘lib, masalan, aqliy hujum, rolli o‘yinlar, klaster va bahs-munozara mashqlari orqali bolalar fikrlarini erkin bayon etishni o‘rganadilar. [4. 45-52] Shu bilan birga, kompyuter, planshet va interaktiv taxtalardan foydalanish nutq mashqlarini yanada qiziqarli qiladi: video va audio materiallar, interaktiv matnlar va multimediya resurslari bolalarga yangi so‘zlarni tez o‘rganish va ularni amalda qo‘llash imkonini beradi. Masalan, boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” darsliklarida berilgan qisqa **audio matnlar** — “Quyoshli ertalab”, “Ona tabiat”, “Kichik qushning sayrashi” [7] kabi eshittirishlar o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi. O‘quvchi audio matnni tinglab, keyin uning mazmunini aytib

ISSN: 2992-9210

beradi, asosiy g‘oyani ajratadi va savollarga javob beradi. Bu jarayon og‘zaki nutqni rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi. Audio matn eshittirilgach, o‘qituvchi o‘quvchilarga qisqa savollar beradi, ular esa eshitganlari asosida javob qaytaradilar. Bunday mashqlar nafaqat nutq faolligini oshiradi, balki o‘quvchini mazmunni diqqat bilan tinglashga, asosiy voqeani eslab qolishga va uni qayta hikoyalashga o‘rgatadi. Shuningdek, audio matn bilan ishlash jarayonida bolalar eshitilgan so‘z va iboralarni o‘z nutqida qo‘llay boshlaydi, bu esa so‘z boyligining kengayishiga bevosita ta’sir qiladi.

O‘yin texnologiyalari ham nutqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida muloqotga kirishadi, savol-javoblar qiladilar va bir-birlari bilan suhbatlashish orqali nutq ko‘nikmalarini mustahkamlashadi. Shu yo‘l bilan darslar qiziqarli, faol va samarali bo‘ladi. Zamonaviy texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini oshirishda katta yordam beradi. Ular nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda nutqni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqini o‘stirish texnlogiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta’sirchan bo‘ladi, bola faoliyati davomida nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixologik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha jarayonlarni shakllantirish bilan bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinflarda nutqni rivojlantirish nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar mashg‘ulotlarda faollik ko‘rsatganda, ularning fikrini ifodalash, tinglash va muloqot qilish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Shu borada dars davomida o‘quvchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning eng samarali turlari quyidagilar deb ayta olamiz: [5. 58-64]

Dialog va monolog mashqlari – o‘quvchilar mavzuga oid qisqa suhbatlar yoki qisqa matnlarni o‘qib, so‘ng uni o‘z so‘zlari bilan bayon qilishadi. Bu usul og‘zaki nutqni rivojlantirish va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

Matn bilan ishlash mashqlari – bolalar qisqa hikoyalar, maqollar yoki she’rlarni o‘qib, ularni qisqa xulosalar yoki o‘z fikrlari bilan aytadilar. Bu esa tushunish va fikrni mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bolalarda dunyoqarashning kengayishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Lug‘at boyligini kengaytirish mashqlari – yangi so‘zlarni o‘rganish va ularni turli gaplarda qo‘llash orqali bolalar nutqi boyib boradi. Masalan, so‘z o‘yinlari yoki sinonim-antonim mashqlari yordam beradi.

O‘yin texnologiyalari – rolli o‘yinlar, topshiriqlar va muloqot mashqlari bolalarni nutqga jalb qiladi, ularda ijodiy va erkin fikrlashni rivojlantiradi. Shu yo‘l bilan mashg‘ulotlar qiziqarli va samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun bu kabi kerakli ko‘pgina mashqlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun quyida bir nechta nutq o‘stirish uchun zarur bo‘lgan texnologiyalarni izohi bilan keltirib o‘tamiz:

“Antonim so‘zlar” o‘yini. Bu o‘yin uchinchi va to‘rtinchi sinflarda o‘tkazilishi mumkin. O‘yin mashg‘ulot bolalarning mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga samarali yordam beradi. O‘yin individual yoki guruh bilan ham o‘tkazilsa bo‘ladi. O‘yin sharti quyidagicha: O‘qituvchi bolaga bir so‘zni aytadi, bola esa shu so‘zning qarama-qarshi ma’no anglatuvchisini topadi. Masalan: katta-kichik, issiq-sovuq, qattiq-yumshoq, uzoq-yaqin va hokazolar. Odatda bolalar o‘yin boshida bir oz qiynaladilar, aytilgan so‘zga javoban antonim emas sinonim so‘zlar bilan javob beradilar. Ammo o‘yinning mohiyatini

ISSN: 2992-9210

tushunib olganlaridan so‘ng o‘yin qoidasini ham osonlik bilan anglaydilar hamda tezlik bilan javob berishga harakat qiladilar. Masalan: chaqqon-yalqov, ishchan-dangasa, odobli-odobsiz va hokazolar.

“Avval nima bo‘lgan edi” o‘yini. Bu o‘yin shartiga ko‘ra bolalar o‘qituvchi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo‘lganini aytishlari kerak. Masalan: jo‘ja-tuxum, ot-toychoq, kapalak-qurt kabilar. Bundan tashqari bittadan ko‘p ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non-un-bug‘doy, uy-g‘isht-loy, stol-yog‘och-daraxt-urug‘, ko‘ylak-mato-ip-paxta-chigit tarzida o‘yin davom etaveradi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o‘quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o‘z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi. Shunday qilib, amaliy mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini shakllantirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ular o‘quvchilarda faollik, mustaqil fikrlash va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tahlil va talqin. 2-sinf O‘qish savodxonligi darsligida berilgan Muhabbat Hamidovaning “Sehrli so‘z” [6. 47-48] hikoyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq kompetensiyasini shakllantirishda juda qulay badiiy materiallardan biridir. Matnda tilning insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda tutgan o‘rni, so‘zning tarbiyaviy kuchi va muloqot madaniyatining ahamiyati sodda, bolalarga tushunarli shaklda yoritiladi. Hikoya qahramoni Firdavsning xunuk so‘z ishlatib qo‘yganidan pushaymon bo‘lishi, onasi bilan munosabatni tiklash istagi orqali o‘quvchilarga **so‘zning mas’uliyati** amaliy misolda ko‘rsatiladi. Bu esa ta’lim jarayonida nutqiy tarbiya bilan bog‘liq vazifalarni samarali bajarish imkonini beradi.

Mazkur matn ustida ishlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar – xususan, **savol-javob strategiyasi, interfaol usullar, o‘yin texnologiyalari** o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Hikoyaning mazmunidan kelib chiqib savollar tashkil qilish natijasida bolalar so‘zning qadrini anglaydi, so‘zning inson munosabatlariga ta’siri haqida o‘z fikrini ifodalashga harakat qiladi. Savollar “Sehrli so‘z nima?”, “Nega Firdavs onasidan kechirim so‘ramoqchi bo‘ldi?”, “Hurmatga loyiq so‘zlar qaysilar?” kabi mantiqiy va ma’naviy mazmundagi yo‘nalishlarda berilganda, o‘quvchilar muloqot madaniyati haqida mustaqil xulosa chiqarishga undaladi.

O‘yin texnologiyalaridan “Sehrli so‘z topamiz”, “Xunuk so‘z — chiroyli so‘z” kabi mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali bolalarning so‘z boyligi kengayadi, ular nutqiy vaziyatni baholashni, to‘g‘ri so‘z tanlashni o‘rganadi. Hikoya personajlarining o‘zaro suhbatidagi ohang, munosabat va kayfiyatni tahlil qilish esa bolalarda **kommunikativ kompetensiya,** ya’ni suhbatni olib borish, tinglash, fikr bildirish malakalarini shakllantiradi.

Multimedia vositalari orqali hikoyaning audio variantini tinglash, qahramonlar ovozini taqqoslash, “Sehrli so‘zlar buluti”ni yaratish o‘quvchilarda eshitib idrok qilish, eslab qolish va qayta hikoyalash malakalarini rivojlantiradi. Bunday mashg‘ulotlar og‘zaki nutqni faollashtiradi va bolalarning o‘z fikrini ravon bayon qilishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, “Sehrli so‘z” hikoyasi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida nutqni o‘stirish, so‘z boyligini kengaytirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va o‘quvchilarni fikrlashga undash uchun metodik jihatdan juda mos matndir.

O‘qituvchi faoliyatining nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda o‘qituvchining roli beqiyosdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki bola nutqini shakllantiruvchi, muloqot muhitini yaratuvchi va motivatsiyani oshiruvchi shaxsdir. O‘qituvchi mashg‘ulotlarni rejalashtirayotganda, avvalo o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, so‘z boyligini va nutq darajasini hisobga oladi. Mashg‘ulot davomida u bolalarni faol qatnashishga, fikrini erkin ifodalashga undaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchi nutqni rivojlantirish jarayonida interfaol usullar, o‘yin va multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda darsni qiziqarli va samarali qiladi.

ISSN: 2992-9210

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarning nutq xatolarini tuzatishda muloyim va tushunarli usulni qo‘llashi, ularni rag‘batlantirishi muhimdir. Bola o‘z nutqini ifodalashdan qo‘rqmasligi va erkin muloqot qilishi uchun o‘qituvchi ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Natijada, o‘qituvchi faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib, ularning bilim, ko‘nikma va kommunikativ madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili va adabiyot bolalarda mantiqiy fikrlash, lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish) ga, fonetika, leksika, so‘z yasalishi va grammatikaga oid bilimlarni o‘rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim. Ma’lumki ona tili darsida ham lug‘at ishlarini o‘tkazish bolalarda o‘zi uchun notanish bo‘lgan so‘zni izohi haqida qiziqish paydo bo‘ladi. Bu so‘zlarning izohini topishda o‘quvchining o‘zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda yuqoridagi metod bolalarning so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug‘at bilan ishlashga ham o‘rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha bolalar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi bolalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, bolalarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Ona tili fanini yaxshi bilgan o‘quvchining esa nutqi benuqson, tiniq va ravon bo‘ladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Nutq nafaqat o‘quvchilarning fikrini ifodalash vositasi, balki ularning tafakkuri, ijodiy fikrlashi va muloqot madaniyatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalari nutqni rivojlantirish jarayonini yanada samarali qiladi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali bolalar og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, so‘z boyligini oshiradi va muloqotda faollik ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining faol ishtiroki, rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi va nutqni shakllantirishdagi mahorati o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar birgalikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning fikrlash va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish metodikasi. – T.: “Ta’lim”, 2020. 127– b.

2. U.B.Aydarova O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik, III qism. / U.B.Aydarova – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 8-10 b.

3. Karimova D. Boshlang‘ich sinfda interfaol va o‘yin texnologiyalari. – T.: Pedagogika, 2021. 83 – b.

4. Abdullayev M. O‘yin texnologiyalari orqali nutqni rivojlantirish. – T.: //Pedagogika va Psixologiya, 2018. – №3, 45–52.

5. Normatov A. Ona tili fanini o‘qitishda o‘yin texnologiyalarini qo‘llash. – T.: //Pedagogika va Psixologiya, 2019. – №4, 58–64.

6. U.B.Aydarova O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. IV qism. / U.B.Aydarova – Toshkent; “Novda Edutainment”, 2023. 47-48 – b.

7. https://kitob.uz

ISSN: 2992-9210

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

DIDACTIC POSSIBILITIES OF CREATING PEDAGOGICAL SOFTWARE TOOLS

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОЗДАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ

Juginisova Juldız Imnixashimovna

Juginisova J.I.,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
jjuginisova1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalar (PDV)ni ishlab chiqishning didaktik asoslari, ularning metodik-badiiy talablari hamda o‘qitish samaradorligiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik dasturiy vosita, didaktika, bilimlarni mobillashtirish, o‘quv faoliyati, maktabga qadam.*

Annatation. This article examines the didactic foundations of developing pedagogical software tools (PST) in the educational process, their methodological and artistic requirements, and their impact on teaching effectiveness.

Keywords: *pedagogical software, didactics, knowledge mobilization, learning activity, school step.*

Аннотация. В статье рассматриваются дидактические основы разработки педагогических программных средств (ППС) в образовательном процессе, методические и художественные требования к ним, а также их влияние на эффективность обучения.

Ключевые слова*: педагогическое программное средство, дидактика, мобилизация знаний, образовательная деятельность, шаг в школу.*

KIRISH.

Dunyo miqyosida globallashuv jarayoni kechayotgan, fan va texnologiyalar kun sayin rivojlanayotgan bir davrda oquvchilar egallayotgan bilim va ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Ilg‘or texnologiyalar, sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar, raqamli algoritmlar asosida yaratilgan dasturlar va platformalarning o‘quv jarayoniga kirib kelishi ta’limning shakli, uslubi, vositalari va mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqishga ehtiyoj tug‘dirmoqda. Xususan, maktabgacha, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim tizimlarida raqamli yondashuvlarga asoslangan didaktik vositalardan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan.

Shu nuqtai nazardan, maktabga tayyorlov kurslari bosqichida ham o‘quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish, ularda tayanch bilim, ko‘nikma ва malakalarni shakllantirishda raqamli texnologiyalarga asoslangan pedagogik dasturiy vositalardan (PDV) samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda. Chunki aynan shu bosqichda bolaning tafakkuri, kuzatuvchanligi, axborotni idrok etish va tahlil qilish qobiliyatlari shakllanadi. Ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda raqamli vositalar orqali o‘quvchilarda zamonaviy ta’limga mos kompetensiyalarni shakllantirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da raqamli texnologiyalarni joriy etish ta’lim sohasida ham ustuvor vazifalardan biri sifatida

ISSN: 2992-9210

belgilangan[1]. Ushbu hujjatda zamonaviy elektron ta’lim resurslarini yaratish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, hamda barcha ta’lim bosqichlarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalishlar qatorida qayd etilgan.

METODOLOGIYA. Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) - elektron darsliklar, simulyatorlar, intellektual repetitorlar, mobil ilovalar, AR/VR muhitlari, LMS modullari - o‘quv faoliyatining ajralmas komponentiga aylanib bormoqda. Shunga qaramay, PDVni “texnik yechim” sifatida ko‘rish yetarli emas, uning samaradorligi aniq didaktik maqsadlar, o‘qitish strategiyalari va baholash tizimlari bilan uyg‘unlashganida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayoni uchun PDV yaratishda didaktik imkoniyatlarni tizimli asoslash va amaliy yo‘l-yo‘riqlar berishdir.

Bilimlarni egallash va o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o‘rnatilishi lozim. Binobarin, bilimlar shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun ilmiy asos bo‘lsa, shaxsning rivojlanish darajasi bilimlarni muvaffaqiyatli egallash uchun asos bo‘ladi. Shu bois, pedagogik dasturiy vositalarida bilimlar tizimi o‘quvchilarning rivojlanishini hisobga olgan holda oldinlab borishi, ularni ijodiy faoliyatga undashi lozim bo‘ladi, u rivojlantiruvchi ta’lim tamoyilida o‘z ifodasini topadi [2].

Bilimlarni mobillashtirish - olingan bilimlarni hayotdagi turli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini bildiradi. Bunda bilimlarning qanchalik darajada moslashuvchan va moslashganligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mobillashgan bilimlar muammolarni yechish, kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish va yangiliklarni tez o‘zlashtirishda yordam beradi.

Ta’lim jarayonining tarbiyaviy yo‘nalganligi tamoyili ta’lim olish jarayonida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda odob-axloq asoslari va komil inson fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoit yaratish zarurligini ifodalaydi.

Ta’lim va tarbiya birligi tamoyili o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantiradigan ilg‘or g‘oyalarni tavsiflash, tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hodisalarning sababini aniqlash, ziddiyatlarni tahlil qilish, bilimlardagi mutloqlik va insoniylikni pedagogik dasturiy vositalarida ifodalash jarayonida bilinadi.

Ta’lim jarayoni o‘quv faoliyatining asosiy samarali tashkil etilishi bilan ifodalanadi.

O‘quv faoliyati - ta'lim jarayonining asosiy shakli bo‘lib, nazariy bilimlarni olish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ishlatiladi. Bu faoliyatda talabaning mustaqil o‘rganish va o‘zlashtirish darajasini oshirishga katta ahamiyat beriladi. O‘quv faoliyatining intensivligini oshirish uchun interaktiv dars usullari, muammoli ta’lim, case-study (vaziyatli tahlil) va amaliy seminarlar kiritiladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, ularning faol va qiziqarli muloqoti muhim o‘rin tutadi [5] .

Bugungi kunda dars jarayonini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkillashtirish ta’lim beruvchi pedagogdan juda katta bilim va mas’uliyatni talab etadi. Ta’lim berish jarayonida ta’lim metod va vositalarini tanlash, ularni amalga oshirishda ta’limning didaktik maqsad va vazifalari, zaruriy sharoitlar, ta’lim beruvchining mahoratiga va ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2022. – B.11.

ISSN: 2992-9210

imkoniyatlariga tayangan holda, oquv vositalarini tanlash kutilgan natijani berishi mumkin. Ayniqsa bugungi axborot texnologiyalari deganimizda, nafaqat texnik vositalar, multimedia tizimlari balki smart texnologiyalar va sun’iy intellekt texnologiyalarini tushunamiz. Chunki, turmush tarzimizga aqlli texnologiyalar va sun’iy intellektdan keng foydalanilmoqda [3].

NATIJALAR

Ta’lim jarayonida o‘quv vositalari bilimlarni egallashning asosiy omillaridan hisoblanadi. Ayniqsa uzluksiz ta’limning birinchi bug‘unlari maktabgacha va boshlangich ta’lim jarayonida smart texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bugungi texnologiya asri bolalari smart telefon va planshetlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega. Shuningdek, bolalarni o‘yinli texnologiyalar yordamida ta’lim olishga qiziqtirish zarur. Masalan biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maktabga tayyorlash uchun o‘rgatuvchi android tizimida “Maktabga qadam” dasturi yoratildi.

Dasturning bosh beti

Rasm chizish oynasi

Dastur oynasi 6 bolimdan iborat:

1. Alifbo
2. Matematika
3. Rasm chizish
4. Musiqa
5. Mevalar, sabzovatlar

Alifbo bo‘limida alifbodagi harflar ranglar bilan bezatilgan, harfga mos keladigan so‘zlar bilan boyitilgan rasmlar ko‘rinishida joylashtirilgan. Bola harflarni, alifboni o‘rganib, bo‘g‘inlar sonini aniqlay olishi va so‘zdagi tovush o‘rnini topa olishi, so‘zlarni bo‘g‘inlar bo‘yicha aniq aytishi, ko‘plik va birlik sonlarini ajrata olishini ham o‘rganib boradi.

Matematika bo‘limida 1 dan 10 gacha sonlar raqam, predmetlar bilan boyitilgan rasmlar ko‘rinishida joylashtirilgan. Geometrik shakllar va mashqlar berilgan. Mashqlarni to‘g‘ri bajarjan bolalarga har xil ovozda rag‘batlantirish beriladi. Bola 10 gacha bó’lgan sonlarni bilishi, raqamlarni predmetlar soniga taqqoslash, sonlar o‘qidagi raqamlarning joylashuvi, to‘g‘ri va teskari hisob, moddalar guruhlarini soni bo‘yicha taqqoslash, asosiy geometrik shakllarni (doira, kvadrat, uchburchak,

ISSN: 2992-9210

to‘g‘ri to‘rtburchak, oval, romb) bilish, predmetlarni turli belgilariga ko‘ra taqqoslash va guruhlarga ajrata olishlari kerak.

Rasm chizish bo‘limida bola qo‘l barmoqlari bilan har xil rasmlarlarni chizishi, raqamlarni yozishi, harflarni yozishi mumkun. Bu bilan birga bola mayda qo‘l motorikasini chiniqtirib, rivojlantirib boradi.

Hayvonlar bo‘limida uy hayvonlarining rasmlari, nomlari berilgan, rasmning ustiga teginsa shu hayvonning ovozi shiqadi. Bola uy hayvonlarining inglizcha nomlarini va olar qanaqa ovoz chiqarishini, baqirishini bilib boradi.

Mevalar, savzabotlar bo‘limida kundalik hayotida poydalanib, istemol qilib kelayotgan mevalar va savzabotlarning rasmlari, inglizcha nomlari kiritilgan. Bola eshitish va ko‘rish orqali mevalar va savzabotlarning inglizcha nomlarini bilip boradi. Til o‘rganadi.

Musiqa bo‘limida bolajonlar ushun sevimli bo‘lgan bir nechta qo‘shiqlar joy olgan. Bolalar qo‘shiqlarni birgalikda ijro etadi, oynaydi, dam oladi.

Bu bo‘limlarda bolalar maktabga tayyorgarlikning dastlabki ma’lumotlari bilan tanishadi. Bu tushunchalar ularning yoshiga mos o‘yinli metod tarzida amalga oshiriladi. Yosh bolalar uchun smart telefonlarda bilimlarni etkazish ularning telefon va planshetlardan natiyjali foydalanishga yonaltiradi.

Meva, sabzavotlarni ovozli o‘rganish

Matematika bo‘limi mashqlarni bajarish oynasi

Alifbo bo‘limi oynasi

Yaratilgan o‘quv kontentlari multimediali va ovozli effektlarga ega. O‘quv resurslariga qo‘yiladigan ergonomik talablarga javob beradi. Dastur interfeysi qo‘lay va yo‘naltiruvchi tugmalar bilan jixozlangan. Foydalanishda sodda va qo‘lay.

Pedagogik dasturiy vositalar o‘z-o‘zidan samaradorlik kafolati emas, ularning didaktik qiymati maqsadlar, metodlar, baholash va foydalanuvchi tajribasi bilan uyg‘unlik darajasiga bog‘liq. Konstruktivistik yondashuv, multimedia tamoyillari va aniq baholash strategiyalari bilan boyitilgan PDV - **individualizatsiya, interaktivlik va analitika** orqali o‘quv natijalarini sezilarli yaxshilashi mumkin [4].

ISSN: 2992-9210

Pedagogik dasturiy vositalar yordamida yaratilgan o‘quv modullari, mashqlar, o‘yinlar va virtual simulyatsiyalar maktabga tayyorlov kurslari dasturlarini zamonaviylashtirishga va xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Pedagogik dasturiy vositalar o‘z-o‘zidan samaradorlik kafolati emas; ularning didaktik qiymati maqsadlar, metodlar, baholash va foydalanuvchi tajribasi bilan uyg‘unlik darajasiga bog‘liq. Konstruktivistik yondashuv, multimedia tamoyillari va aniq baholash strategiyalari bilan boyitilgan PDV — individualizatsiya, interaktivlik va analitika orqali o‘quv natijalarini sezilarli yaxshilashi mumkin. Muvofiq standartlar va etik talablarni e’tiborga olgan holda, tizimli dizayn va iterativ takomillashtirish PDVni barqaror didaktik innovatsiya darajasiga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2022. – B.11.
2. Мухаббат, А. и Зебинисо, Т. (2025). Особенности речевых нарушений у детей с детским церебральным параличом и их устранение. Междисциплинарный журнал науки и технологий, 5 (6), 2266-2268.
3. M.X. Allambergenova (2025). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter dasturlaridan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanish. *Inter education & global study*, 3 (6), 36-43.
4. Закирова Ф., У.Мухамедханов, Ш.Шарипов, Р.Г.Исянов, Ф.Эсонбобоев, С.Доттоев. Электрон ўқув-методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. *Методик қўлланма.* – Т.: ОЎМТВ, 2010. – 57 б.
5. J.I.Juginisova. Maktabga tayyorlov kurslari uchun dasturiy ta’minotni yaratish. // Inter education & global study. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2025. – №6. – Б. 99-106.

ISSN: 2992-9210

TA’LIM MUASSASALARI MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR TIZIMINING KONVERGENT XUSUSIYATLARI

КОНВЕРГЕНТНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СИСТЕМЫ ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

CONVERGENT FEATURES OF THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND ENLIGHTENING WORK IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Jumanov Sherzod

Jumanov Sh.,
Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali v.b.dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori
jumanovsherzod64@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda rivojlangan sharq davlatlari pedagogikasini o‘rganish ushbu mamlakatlar milliy tarbiyasi va madaniyatidan nusxa olish uchun emas, balki barqaror iqtisodiy rivojlangan davlatlar o‘z takomilida milliy tarbiya va ma’naviyatdan foydalanishda qanday texnologiya, metodikalarni qo‘llaganini o‘rganish va milliy muhitimizga modifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. Rivojlangan davlatning axloqiy tarbiya va ma’rifiy targ‘ibotga doir pedagogik tajribalari ijodiy o‘rganilib, ularning natijalari asosida davlat va jamiyat talabi darajasidagi vatanparvar fuqaroni tarbiyalashimiz mumkin bo‘ladi.

Tayanch so‘zlar: *komparativ pedagogika, faol fuqaro, ma’naviy ishlar, konvergent texnologiyalar, moslashuv, axloq, qadriyatlar, rivojlanish, madaniyat, hurmat.*

Аннотация. Сегодня изучение педагогики развитых стран Востока направлено не на копирование национального образования и культуры этих стран, а на изучение того, какие технологии и методы используют стабильные экономически развитые страны для совершенствования национального образования и духовности, и их адаптацию для наших национальных условий. Педагогический опыт развитых стран по нравственному воспитанию и просветительской деятельности будет творчески изучен, и на основе его результатов мы сможем воспитывать патриотически настроенного гражданина на уровне государства и общества.

Ключевые слова: *сравнительная педагогика, активный гражданин, духовная работа, конвергентные технологии, адаптация, этика, ценности, развитие, культура, уважение.*

Annotation: Today, studying the pedagogy of developed Eastern countries is not intended to copy the national education and culture of these countries, but rather to study what technologies and methods stable economically developed countries use in their development of national education and spirituality, and to modify them for our national environment. The pedagogical experiences of developed countries on moral education and educational propaganda are creatively studied, and

ISSN: 2992-9210

based on their results, we can educate patriotic citizens at the level required by the state and society.

Keywords: *comparative pedagogy, active citizen, spiritual work, convergent technologies, adaptation, ethics, values, development, culture, respect.*

Dunyo tajribasidan hamda bugungi kundagi mafkuraviy kurashlar, O‘zbekiston yoshlariga qaratilgan radikalizm, diniy ekstremizm, “ommaviy madaniyat”, kosmopolitizm, marginalizm (vatansizlik g‘oyasi) va boshqa mafkuraviy xurujlardan kelib chiqib, yoshlarni g‘oyaviy, axloqiy tarbiyalash, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning konvergent texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi pedagogik “aql markazlari”ni tashkil qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi masalasi dolzarb pedagogik muammo bo‘lib yuzaga qalqib chiqdi.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziya, Singapurda o‘rganishlarni davom ettirish rivojlangan mamlakatlar milliy tarbiyasi va madaniyatidan nusxa olish emas, balki kuchli rivojlangan davlatlar o‘z taraqqiyotida milliy tarbiya va ma’naviyatdan foydalanishda qanday texnologiya, metodikalarni qo‘llaganini o‘rganish va O‘zbekiston muhitiga modifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. Natijada rivojlangan davlatning axloqiy tarbiya va ma’rifiy targ‘ibotga doir tajribalari o‘rganilib, ularning natijalari asosida “Ijtimoiy faol fuqaroni shakllantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda globallashuv ta’sirida milliy o‘zaklardan uzilib, uzoqlashuv va o‘zga madaniyatlar qadriyatlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, buning oqibatida biror madaniyatga mansub bo‘lmagan yoshlar toifasiga xos marginallashuv holatlari kuzatilmoqda. Bu ko‘pincha sharq mamlakatlari yoshlarida kuzatilmoqda. Shu sababli ushbu marginallashuv hodisasining O‘zbekiston yoshlariga ta’sirining oldini olish, ushbu stixiyali jarayonni pedagogik boshqariladigan jarayonga aylantirish uchun masalaga komparativ pedagogik yondoshish zarurati yuzaga keldi.

G‘arb va Sharq mamlakatlari tarbiya konsepsiyalarining natijasi o‘laroq, xulq-atqorning ikki shakli yaqqol ajralib turadi. G‘arbiy xulq-atvor individualistik tip sifatida o‘zligini namoyon qilish uchun hatto mikro va makro sotsiumlarni inkor qilish orqali o‘zligini namoyon qiladi. Sharqona tarbiya natijasida shakllantiriladigan xulq-atvor modellari esa tadrijiy tarzda kechib, bunda oila, jamiyatda urf bo‘lgan qadriyatlarning keskin inqirozi xavfi yo‘q. Masalan, ajdodlarga hurmat-ijtimoiy mo‘tadillikning o‘ziga xos kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Sharqona tarbiyaning milliyligi va ijtimoiylikning silliq kechishi tufayli o‘smirlik – o‘tish davri yengil kechadi.

G‘arb o‘smirlarida esa bu jarayon ijtimoiy muhit, xalq, millatni inkor qilish, jamiyatda qabul qilingan axloqiy, ma’naviy me’yorlarga nigilistik qarshi orqali o‘tadi. Sharqlik kishi uchun el, urug‘, mahalla manfaatlari, fikrlari kuchli ta’sirga ega. G‘arb kishisi uchun tevarak-atrofdagilarning fikrlaridan ko‘ra o‘zining “Men”ini namoyon qilish birinchi darajada turadi. Ushbu mumtoz qarashlar XXI asr, globallashuv asrida o‘zgarishlarga uchrab, mamlakatlardagi o‘ziga xosliklarga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatda yoshlar tarbiyasi tendensiyalariga konvergent yondoshish, turli mamlakatlarda globallashuv ta’siridan kelib chiqib yaratilgan texnologiyalarni o‘rganib, O‘zbekiston manfaatlaridan kelib chiqib, modifikatsiya qilish talab qilinadi.

Xorijning pedagogik tajribasini komparativ o‘rganish, foydalanish, qo‘llashda marginallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun milliy manfaatlar ustunligi prinsipiga rioya qilish talab etiladi. Zero har qanday tajriba o‘z zaminida mavjud xususiyatlarga asoslanadi va o‘z zaminidan ajratilib, o‘zgacha sharoitda ko‘r-ko‘rona joriy qilinsa, boshqa natijalar bera boshlaydi. Buning misollarini XX asrning 60-70 yillarida Sharq mamlakatlarida sodir bo‘lgan milliy-madaniy hayot islohotlarida yo‘l qo‘yilgan

ISSN: 2992-9210

xatolarda ham ko‘rish mumkin. Ayrim sharq yozuvchi, shoir, ziyolilari jamiyat e’tiborini Rossiya va G‘arbdagi madaniy rivojlanishga qaratib, Sharq milliy-madaniy hayotining bundan keyingi ravnaqini G‘arbga ergashishda, deb bildilar. Bu yo‘nalish yoshlar xulqida o‘zining salbiy natijalarini ko‘rsata boshladi. Buning misollari yozuvchi pedagog Jalol Ali Ahmadning “G‘arbiylik” nomli kitobida tasvirlab berildi. Unda milliylikni unutib, G‘arb qadriyatlariga ko‘r-ko‘rona sajda qilish “g‘arbiylik” kasaliga olib kelishi tasvirlanadi. Bu kitobda u milliyligini yo‘qotgan, “G‘arbiylik” (g‘arbzadegy) kasaliga mubtalo bo‘lgan yigit “portret”ini chizadi. “Bunday yigit”- deb yozadi Ali Ahmad, “millatning o‘tmishi, hozirgi hayoti, kelajagi haqida, hatto, tushunchalarga ham ega emas. U chet tilini biladi, ko‘rinishdan ziyoli. U to‘lqin ustidagi xasdek beqaror, oyog‘ini qo‘yib tayanadigan yeri yo‘q. Shu sababli voqealar rivoji qanday kechsa, u shunga qarab o‘zgarib, tovlanib turadi. Unda mustaqil fikrning o‘zi yo‘q... U o‘zining shaxsiy manfaatidan tashqari barcha narsaga befarq qaraydi. U tadbir, marosimda ham, kinoteatrda ham partiya yig‘ilishlarida ham xuddi futbol o‘yinining tomoshabini, kuzatuvchiga o‘xshaydi. Uning chuqur o‘yga tolganini hech qachon ko‘rmaysiz. U do‘stining vafotida ham bir qatra ko‘z yoshi to‘kmaydi. U har qanday kichik o‘ljani qo‘ldan bermaydi, jirkanmay unga o‘zini otadi... Uning xarakteri yo‘q, o‘ziga xoslikdan mahrum. O‘ziga haddan tashqari oro beradi, oyoq kiyimi, mashinasi, uyi, kiyimining qanday ko‘rinishi ustida tinmay tashvish chekadi. Uni maktab, kasalxona muammolari emas, eng avvalo, o‘z uyidagi elektrli kir yuvish mashinasi, ozonatorlarning yaxshi ishlashi qiziqtiradi. U o‘zining uzoq Bendar Abbosdagi hamqishloqlarining urf-odatlari haqida qiziqarli hikoya qilib bera olmaydi. Ammo u sizga Buyuk Britaniya leyboristlar partiyasi o‘ng qanotida bo‘lib o‘tgan sezilar-sezilmas o‘zgarishlarni qoyilmaqom qilib aytib beradi.. [1]”.

Ma’rifatparvar pedagog Ali Ahmad G‘arbning ma’lumotli kishilari, yoshlari Yevropaning mexaniklashgan hayotidan bezib skulpturada – Afrika primitivizmi, musiqada – jazni, aqliy kamolotda – upanishad, daosizm va Budda bilan, jismoniy kamolotda – hind yoga san’ati, nafosatda yapon bog‘larini yaratishdan lazzatlanayotgan bir paytda Sharq yoshlarining o‘z milliyligini inkor etib, g‘arbiylashayotganliklarini tanqid qiladi. Ali Ahmad yosh avlodlar orasida g‘arbiylik kasalining oldini olishni maktab tarbiyasidan boshlash zarurligi haqidagi fikr va yo‘l-yo‘riqlarni taklif qildi. Ushbu muammo Eron ijtimoiy pedagogikasida marginalizmning oldini olishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar metodikasini rivojlantirishga zamin yaratdi.

O‘zbekiston pedagogikasida rivojlangan mamlakatlarning tarbiyaviy tajribasini o‘rganish jadal boshlab yuborildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining 2023 yil 22 dekabrda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishi bayonida belgilangan topshiriqqa muvofiq, 2024 yilning 23-28 iyun kunlari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti olimlaridan iborat ilmiy-pedagogik delegatsiyasi Yaponiyada ilmiy ekspeditsiyani amalga oshirdi. Ushbu ekspeditsiyaning betakrorligi shundaki, ta’lim sohasida jahon tajribasini o‘rganishga juda katta e’tibor qaratilgani holda, ma’naviy-axloqiy tarbiya muammolari bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganishga, tarbiyaviy tendensiyalarning pedagogik konvergensiyasi nuqtayi nazaridan e’tiborga sazovor bo‘ldi. Ushbu ilmiy pedagogik ekspeditsiya 2024 yil 7-12 oktyabr kunlari Rossiya Federatsiyasiga va 2024 yilning 13-18 dekabr kunlari Buyuk Britaniyaga xizmat safarlarini amalga oshirdi [2].

Yaponiya - dunyoning eng rivojlangan davlatlari Katta Yettiligidan mustahkam o‘rin olgan, dunyoda o‘rtacha IQ darajasi bo‘yicha I o‘rinda turuvchi, milliy o‘zligini saqlab, farovonlikning eng yuksak natijalariga erishgan sharq mamlakati. Tashrif davomida delegatsiya Tokioning Suginami tumani Momoi 2-son maktabida axloqiy tarbiya jarayonini o‘rgandi. Sukubo universiteti professori Tanakaning “Yapon axloqiy tarbiyasi” mavzusidagi ma’ruzasi tinglandi. “Keyay Gakuen” maktabgacha ta’lim muassasasining tarbiya metodikasi o‘rganildi. Farg‘ona viloyati hokimining ta’lim bo‘yicha maslahatchisi, yapon pedagogi, Goto Mikako bilan ekspert sifatida suhbatlashildi. (Keyinchalik, 2024

ISSN: 2992-9210

yil 12 dekabr kuni Goto Mikako T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutiga tashrif buyurib, olimlar va doktorantlar bilan yapon tarbiyaviy tajribasi haqida ilmiy seminarda chiqish qildi).

Moralogy Foundation fondi prezidenti Mototaka Xiroike bilan uchrashuv o‘tkazildi hamda Reitaku universiteti professorlarining “Yaponiyada axloqiy tarbiya” mavzusidagi ma’ruzalari tinglandi. Shuningdek, Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi vakillari, Ta’lim tadqiqotlari milliy instituti rahbariyati hamda Maktabgacha ta’lim tadqiqotlari markazi tajribalari o‘rganildi va bir qancha kelishuvlarga erishildi. Delegatsiya yapon olimlari bilan suhbatlashib, kuchli Yettilik a’zosi Yaponiyani rivojlantirgan asoslardan biri “Yapon ma’naviyati + G‘arb bilimi = Yapon mo‘jizasi” formulasi ekanini aniqladi.

O‘tkazilgan ekspeditsiya natijasida yuqoridagi ijobiy tajribadan kelib chiqib, yoshlar tarbiyasi va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni “O‘zbek ma’naviyati + G‘arb bilimi = O‘zbek mo‘jizasi” formulasi asosida tashkil qilish taklif qilindi. Bu Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ko‘tarilgan g‘oyani - ma’naviyatni boshqa sohalardan o‘n qadam oldinga olib chiqishga xizmat qilishi asoslandi.

Yapon tarbiya tizimi asrlar davomida, hozirgi globallashuv sharoitida ham o‘z samaradorligini yo‘qotmay kelayotgani bilan pedagog olimlarning e’tiboridan tushmay kelmoqda. Zero yapon shaxsni shakllantirish tizimi ikuzi asrlar davomida turli komponentlar bilan boyib, har bir yaponiyalikni jamiyatda munosib yashashga o‘rgatib kelmoqda. Davlat ham bu borada oilani qo‘llab-quvvatlab, davlat va jamiyatning munosib fuqarolarini tarbiyalashga erishmoqda. Shu ma’noda yapon tarbiya tizimi bugun ham ma’nan, ham jismonan sog‘lom, davlatning tayanchi bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashga kompleks yondoshishning namunasini ko‘rsatib kelmoqda. Chunki bu tizimda har bir detal ikir-chikirigacha o‘ylangan [3].

Yapon pedagogi Sato Megumi bu haqda “ota-onalarga o‘z farzandini geniy qilib yetishtirish vazifasini emas, balki bolaga o‘ylashni o‘rgatuvchi, voqealarni tahlil qila oluvchi, sog‘lom tanli, aqlli va mehribon bo‘lishni o‘rgatuvchi axloqiy ta’limni taklif qilishi kerak” [4], deydi.

Yaponiya o‘z taraqqiyotining boshida rivojlangan davlatlarning pedagogik yutuqlarini o‘zlashtirib, o‘ziga moslab, jadal joriy etib, rivojlanib keldi. Kuchli iqtisodni yaratish, kuchli ma’naviyatni yaratish yapon hukumati tomonidan 1958 yilda tasdiqlangan ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘yicha yo‘riqnomaga asosan olib borilgan. Ya’ni, aholiga (ijtimoiy pedagogika orqali), yoshlarga (maktab pedagogikasi orqali) 22 ta tayanch fazilatni o‘rgatish bilan birga olib borilishi natijasida qisqa muddatda taraqqiyotning “Yapon ma’naviyati + G‘arb bilimi = Yapon mo‘jizasi” yaratilgan. Yaponiyaning axloqiy tarbiya bo‘yicha tajribasini o‘rganish natijasi asosida ekspeditsiya tomonidan quyidagi xulosalar qilingan:

Yaponiya hukumati tomonidan maktab bitiruvchilarida 22 ta fazilatni tarbiyalash maqsadi qo‘yilgan. Bu fazilatlar nafaqat axloqni o‘rgatgan, balki o‘quvchilarni bilim olishga safarbar qilgan. Bu esa ta’lim, davomatning yuksak sifatini ta’minlagan. Kattalarga bu fazilatlar korxonalarda singdirilgan. Natijada bu fazilatlarga ega fuqarolar “Yapon mo‘jizasi”ni yaratgan.

2024 yilda ham Yapon farzandlari tarbiyasida singdiriladigan fazilatlar, ularning jamiyatidagi madaniy qadriyatlar va urf-odatlardan kelib chiqib, bolalarga kichik yoshdan boshlab o‘rgatiladi. Pedagogik tahlil qilinsa, 22 fazilat klasteri 5 moduldan iborat bo‘lib, ularning 4 tasi besh fazilatdan iboratligi ma’lum bo‘ladi. Faqat “Tabiat va madaniyatga hurmat” moduli 2 fazilatdan tarkib topgan.

Komparativ tadqiqotlar asosida Yapon milliy tarbiya fazilatlari turkumiga kiritilgan, maktablarda ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy jarayonlarida maxsus rivojlantirilayotgan 22 ta asosiy, tayanch fazilatlar 5ta blokdan iborat ekanligi aniqlandi. Biz ularni Yapon milliy tarbiya klasteri, deb nomladik (1-jadval).

ISSN: 2992-9210

Yapon milliy tarbiya klasteri

1-jadval.

T/r	Bloklar	Fazilatlar
1	**1-5. Jamiyatga moslashuv va hurmat**	1. Hurmat qilish – Kattalarga va boshqalarga nisbatan hurmat koʻrsatish, kirishimlilik. 2. Hamkorlik – jamoada ishlashni bilish va guruh, koʻpchilik manfaatini yuqori qoʻyish. 3. Oʻzaro hurmat va tinchlikparvarlik – Mojarolarning oldini olish va murosaga kelish. 4. Odoblilik (Reigi) – Madaniy qoidalarga rioya qilish va odobni saqlash. 5. Irodani boshqarish (Yenryo) – Oʻz his-tuygʻularini boshqarishni oʻrganish.
2	**6–10. Mas’uliyat va intizom**	6. Mas’uliyat hissi (Sekinin kan) – Oʻz harakatlari va natijalariga javobgarlik. 7. Intizom (Kinchōkan) – Hayotda qat’iy va tartibli boʻlish. 8. Vaqtni qadrlash (Jikan mamoru) – Vaqtga rioya qilish va oʻz vaqtida harakat qilish. 9. Tirishqoqlik (Gaman) – Qiyinchiliklarni sabr bilan yengish. 10. Oʻz-oʻzini boshqarish (Jiko kontorōru) – Mustaqil qarorlar qabul qilish va bajarish.
3	**11–15. Axloqiy qadriyatlar**	11. Adolatli (Seijitsu) – haqiqatgoʻy, insofli va halol boʻlish. 12. Ishonchlilik (Shinrai) – Boshqalarning ishonchini qozonish. 13. Kamtarlik (Kenkyo) – Oʻzini past tutish va maqtanchoqlikdan qochish. 14. Minnatdorchilik (Kansha) – Boshqalar yordamini qadrlash. 15. Mehribonlik (Yasashisa) – Odamlarga mehribon va gʻamxoʻr boʻlish.
4	**16–20. Ijodiy va intellektual rivojlanish**	16. Ijodkorlik (Sōzōryoku) – kreativ fikrlash va muammolarning yangi yechimlarini kiritish. 17. Qiziqish (Kōkishin) – Dunyo va fanlarni oʻrganishga intilish. 18. Bilishga ishtiyoq (Gakushū) – Bilim olishni qadrlash. 19. Oʻzini rivojlantirish (Jiko kaihatsu) – Shaxsiy kamolotga intilish. 20. Ishiga puxtalik (Komakai jōzu) – Detallarga e’tibor va sifatga intilish.
5	**21–22. Tabiat va madaniyatga hurmat**	21. Tabiatni sevish (Shizen aijin) – Atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish. 22. Madaniy qadriyatlarni hurmat qilish (Bunka no soncho) – Oʻz milliy madaniyatini sevish va hurmat qilish.
5	**5 blok**	**22 fazilat**

“Yapon moʻjizasi”ni yaratgan va rivojlantirgan, yaponiyaliklarni ijtimoiy safarbarlikka undagan intensiv tarbiya metodlari (texnologiyalari) hozir ham vatanparvar fuqarolarni tarbiyalashda maktab va korxonalarda kadrlar tarbiyasida asosiy qoʻllanma boʻlib xizmat qilmoqda. Yaponiyada Oʻzbekistondagi

ISSN: 2992-9210

“Tarbiya” faniga o‘xshash “Shushin” (修身) fani tarbiya va axloqiy ta’limga, o‘quvchilarga shaxsiy rivojlanish, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni o‘rgatishga qaratilgan. Darslar ko‘pincha guruh ishlarida, muhokamalarga va amaliy mashg‘ulotlarga asoslaniladi. Bu o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda tajriba orttirishga yordam beradi [5].

Yaponiyada 1955 yildan boshlab kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyat prinsipi asosida tarbiya va ma’rifat isloh qilingan. “Yapon mo‘jizasi”ning “inson omili”ni yaratgan. Jamiyatga milliy tarbiya maqsadi tushuntirilgan. Natijada yapon milliy xarakteridagi boshqalardan ortda qolmaslikka intilish, jamoaviylik, mehnatsevarlik, fidoyilik, Vatan manfaati uchun shaxsiy manfaatdan voz kechish, daxldorlik va boshqa fazilatlar zamonaviy iqtisodiy yuksalish muammolarini yechishga yo‘naltirilgan. Yaponiyada maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayon sifatida axloqiy tarbiya 0-14 yosh oralig‘ida amalga oshiriladi. Undan keyin esa fuqarolar bir-birini tarbiyalaydi.

Yaponiya maktablarida “yapon xulq-atvori” darsi maxsus, majburiy o‘tiladi. Bu darsda muomala, odob-axloqning eng nozik qirralarigacha maxsus o‘rgatiladi, mashq qildiriladi. Masalan, mehmon kelganda mezbon eshikni qanday ochishi kerakligigacha va h.k [6]. Xullas, milliy tarbiyaviy ta’lim milliy fazilatlarni o‘quvchilarning dastlab birinchi, keyin esa ikkinchi signallar sistemasiga aylantirishga, pirovard natijada esa, o‘quvchilarning shaxsiy illatlariga, odatlariga aylanishida pedagogik texnologiya vazifasini o‘taydi. Shu bois Yaponiya milliy tarbiyasi bir umrlik vaksina hisoblanadi. Ushbu tarix sinovidan o‘tgan tajribani O‘zbekiston yoshlari tarbiyasi va ma’naviy-ma’rifiy sohasiga modifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqiladigan tayanch fazilat/kompetensiyalarni intensiv tarbiyalash texnologiyasini Respublika Ta’lim markazi, Respublika ilmiy-metodik markazi bilan birgalikda differensial asosda barcha fanlarning dasturlariga kiritish va har bir 18 yoshli o‘g‘il-qiz hayotga ana shu axloqiy kompetensiyalar bilan kirib borishini ta’minlashning pedagogik texnologiyasini joriy qilish ta’lim va tarbiya birligini yangi, amaliy darajaga ko‘taradi.

Yaponiyadan axloqiy tarbiya bilan bog‘liq 5 turdagi maktab darsliklari (1-6-sinflar), Sukubo universiteti adyunkt professori Junikoning “Axloqiy tarbiya” (o‘qituvchilar uchun mashqlar), Xigarikaokaning “Axloq faniga yangi yondashuv (konturlar)”, Chikuro Xiroikining “Axloqshunoslik otasi” nomli kitoblari hamda “Ta’lim va tarbiyaning 2017-2030, 2031 yillarga mo‘ljallangan dasturiy prinsiplarini qayta ko‘rib chiqishning maqsad va mazmuni” nomli yo‘riqnoma va boshqa 30 dan ortiq manbalar olib kelindi. Bu asarlar yuksak rivojlangan Yaponiyaning milliy-axloqiy tarbiya tajribasining metodologik, nazariy, huquqiy-me’yoriy asoslari haqida hikoya qiladi (2-jadval).

ISSN: 2992-9210

2-jadval

Bosqichlar	Shakllantiriladigan kompetensiyalar, pedagogik vazifalar
Boshlang‘ich 1- va 2-sinflar	**Shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish**
	- «Yaxshilik va yomonlikni hukm qilish, avtonomiya, erkinlik va javobgarlik», «Halollik, samimiylik», «Qanoat, sabr», «Umid va jasorat, harakat va qat’iy iroda», «Shaxsiylikni oshirish».
	Insoniy munosabatlarni o‘rgatish
	«Do‘stona e’tiborli», «Rahmat», «Xushmuomala», «Do‘stlik, ishonch».
Boshlang‘ich 3- va 4-sinflar	**Shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish**
	- «Yaxshilik va yomonlikning hukmronligi, avtonomiya, erkinlik va javobgarlik», «Halollik, samimiylik», «Qanoat, sabr», «Shaxsiylikni oshirish», «Umid va jasorat, g‘ayrat va kuchli iroda»
	Insoniy munosabatlarni o‘rgatish
	«Do‘stona va e’tiborli», «Rahmat», «Xushmuomala», «Do‘stlik va ishonch», «O‘zaro tushunish va bag‘rikenglik»
Boshlang‘ich 5- va 6-sinflar	**Shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish**
	«Yaxshilik va yomonlikning hukmronligi, avtonomiya, erkinlik va javobgarlik», «Halollik va samimiylik», «Sabr-qanoat va muloyimlik», «Shaxsiylikni oshirish», «Umid va jasorat, g‘ayrat va kuchli iroda», «Haqiqatni qidirish».
	Insoniy munosabatlarni o‘rgatish
	- «Do‘stona, e’tiborli», «Rahmat», «Xushmuomalalik», «Do‘stlik, ishonch», «O‘zaro tushunish, bag‘rikenglik»
	O‘rta maktab
	«Bag‘rikenglik», «Fikrlash, rahmat», «Xushmuomalalik», «Do‘stlik, ishonch», «O‘zaro tushunish»
Guruhlar va jamiyat bilan bog‘liq kompetensiyalar	**Boshlang‘ich 1- va 2-sinflar** - «Qoidalarga hurmat», «Adolat, adolat, ijtimoiy adolat», «Mehnatkashlik, jamoat ruhi», «Oilaviy muhabbat, oilaviy hayotni yaxshilash», «Maktab hayotini yaxshilash, guruh hayotini takomillashtirish», «An’ana va madaniyatni hurmat qilish, o‘z vataniga va o‘z hududiga bo‘lgan muhabbat», «Xalqaro tushunish, xalqaro do‘stlik». **Boshlang‘ich 3- va 4-sinflar** - «Qoidalarga hurmat», «Adolat, adolat, ijtimoiy adolat», «Mehnatkashlik, jamoatchilik ruhi», «Oilaviy muhabbat, oilaviy hayotni yaxshilash», «Maktab va guruh hayotining yaxshilanishi», «An’ana va madaniyatni hurmat qilish, o‘z vataniga va o‘z hududiga bo‘lgan muhabbat», «Xalqaro tushunish, xalqaro do‘stlik». **Boshlang‘ich 5- va 6-sinflar** - «Qoidalarga rioya qilish», «Adolat, adolat, ijtimoiy adolat», «Mehnatkashlik, jamoat ruhi», «Oilaviy muhabbat, oilaviy hayotni yaxshilash», «Maktab va guruh hayotining yaxshilanishi», «An’ana va madaniyatni hurmat qilish, o‘z vataniga va o‘z hududiga bo‘lgan muhabbat», «Xalqaro tushunish, xalqaro do‘stlik». **O‘rta maktab** - «huquqiy muvofiqlik, jamoat odob-axloqi», «adolatli, adolatli, ijtimoiy adolat», «ijtimoiy ishtirok etish, jamoatchilik ruhi», «ish», «oilaviy muhabbat, oilaviy hayotni takomillashtirish», «maktab hayotini yaxshilash,

ISSN: 2992-9210

	guruh hayotini yaxshilash»,«joy». «Yapon an’analari va madaniyatini hurmat qilish, mahalliy aholiga bo‘lgan munosabat», «Yapon an’analari va madaniyatini hurmat qilish, mamlakatlarni sevishga bo‘lgan munosabat», «Xalqaro tushunish, xalqaro hissa».
Hayot, tabiat va ulug‘vorlik bilan bog‘liq kompetensiyalar	**Boshlang‘ich 1 va 2-sinflar**
	- «Hayotning qadriyatlari», «Tabiatni muhofaza qilish», «Taassurot va hurmat».
	Boshlang‘ich 3 va 4-sinflar
	- «Hayot qadriyatlari», «Tabiatni muhofaza qilish»,«Taassurot, yaxshi ko‘raman».
	Boshlang‘ich maktab 5 va 6-sinflar
	«Hayot qadriyatlari», «Tabiatni muhofaza qilish», «Ta’sirchan, ehtiromli», «Yaxshi yashashdan zavqlanish».
	O‘rta maktab
	«Hayotning qadriyatlari», «Tabiatni muhofaza qilish», «Taassurot va yaxshi taassurot», «Yaxshi yashashdan zavqlanish».

Xulosa qilib aytganda, bugungi o‘zbek yoshlari va aholisini tarbiyalashda animatsion va multiplikatsion vositalardan juda keng qo‘llanilsa, o‘zbek yoshlaridagi asosiy tayanch fazilatlarni namunaviy xulq modellari shaklida tasvirlab, shakllantirish osonroq bo‘lar edi.

Ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek yoshlariga ma’naviy tahdidlariga qarshi kurashish uchun raqamli targ‘ibotning “anime”, “komiks”, “manga” va boshqa shu kabi turlari asosida multimediyali modellarini tezkor ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab qilinadi.

Yuqoridagi pedagogik konvergensiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning diversifikatsiyasini yaratadi.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasi va ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot ishlarining metodologik bazasini eng zamonaviy va ta’sirchan metodlar bilan boyitadi. Ana shunda kuchli ma’naviyat eng ta’sirchan, kuchli qurolga aylanib, boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yuradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. Al-e Ahmad. Gharbzadegi: Weststruckness. Brekley: Mizan, 1984.123 p.
2. Professor M.Quronovning Yaponiyaning Moralogy Foundation fondi, Sukuba va Reytaku universitetlarida, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Akademiyada hamda Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida “Global pedagogik konvergensiya va modifikatsiya – umuminsoniy ma’naviy-axloqiy zarurat sifatida” mavzusidagi ma’ruzasidan.
3. Крупянко М. И., Арешидзе Л. Г. Японская система формирования личности икудзи: секреты воспитания подрастающего поколения // Восточный курьер – 2019. – Выпуск № 1-2 С. 88-96 [Электронный ресурс]. URL: https://oriental-courier.ru/S111111110007900-3-1 (дата обращения: 18.12.2024). DOI: 10.18254/S111111110007900-3
4. 佐藤めぐみ. 子育て心理学のプロが教える— 輝くママの習慣. あさ出版, 2012. — 223ページ [Сато: Мэгуми. Кособатэ синригаку но пуро га осиэру – кагаяку мама но сю:кан; Сато Мэгуми. Советы профессионала-психолога: как воспитывать детей. Асасюппан, 2012. — 223 с.].
5. Елиссев Д. История Японии. Между Китаем и Тихим океаном. СПб.: Евразия. 2008. С. 244-245.
6. Преображенский К. Как стать японцем. – М.: Молодая гвардия, 1988.

ISSN: 2992-9210

7. Quronov M. Milliy tarbiya - ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida. Makon va zamon. 2024/2, 27-28 b.b.

8. Jumanov Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijodiy-madaniy ishlar bo‘yicha targ‘ibotchi faoliyatini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. Fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. –Samarqand.: 2023. –28 b.

ISSN: 2992-9210

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE SKILLS IN FORMING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

ЗНАЧЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Jurayeva Dilafruz Jamurodovna

Jurayeva D.J.,
ISFT instituti Samarqand filiali
djurayeva1177@gmail.uz

Annotatsiya. ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida kommunikativ ko‘nikmalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi shaxsining muloqot madaniyati, nutqiy faolligi, pedagogik texnologiyalar va o‘zaro ta’sirning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik faoliyatda kommunikativ ko‘nikmalarning kasbiy mahoratni oshirishdagi o‘rni va o‘qituvchining shaxsiy-psixologik o‘sishiga ta’siri haqida ilmiy xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, kommunikativ ko‘nikma, muloqot madaniyati, pedagogik faoliyat, interfaol ta’lim, pedagogik muloqot.*

Annatation. this article examines the role and importance of communicative skills in developing the professional competence of future teachers. It highlights the issues of communication culture, speech activity, pedagogical technologies, and the effectiveness of interaction in the educational process. The impact of communicative competence on professional mastery and personal development of the teacher is analyzed.

Keywords: *professional competence, communicative skills, communication culture, pedagogical activity, interactive learning, pedagogical communication.*

Аннотация. в статье рассматривается роль и значение коммуникативных навыков в процессе формирования профессиональной компетентности будущих учителей. Освещаются вопросы культуры общения, речевой активности, педагогических технологий и эффективности взаимодействия в образовательном процессе. Также анализируется влияние коммуникативных умений на профессиональное мастерство и личностный рост педагога.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, коммуникативные навыки, культура общения, педагогическая деятельность, интерактивное обучение.*

ISSN: 2992-9210

KIRISH

Globallashuv jarayonida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — bu zamonaviy fikrlaydigan, o‘z kasbiy mahoratini doimiy oshirib boradigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallagan o‘qituvchilarni tayyorlashdir. O‘qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati uning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda, kommunikativ madaniyati, muloqot qilish qobiliyati va pedagogik tafakkur darajasiga ham bevosita bog‘liq.

Kommunikativ ko‘nikmalar o‘qituvchi shaxsining kasbiy kompetentligini belgilovchi asosiy omillardandir. Ular o‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan samarali aloqada bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, muloqot pedagogik jarayonning asosi bo‘lib, bilim, tajriba, hissiyot va qadriyatlarning o‘zaro almashinuvini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini zamon talablari asosida shakllantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, Prezident qaror va farmonlari o‘qituvchining kommunikativ madaniyatini mustahkamlash, o‘quv jarayonida interfaol yondashuvlarni keng joriy etishni nazarda tutadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologik asoslari sifatida kommunikativ kompetentlikning psixologik, sotsiologik, va pedagogik konsepsiyalari tanlab olindi. Quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil — kommunikativ kompetentlik haqidagi ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, xorijiy tadqiqotlar, ta’lim siyosatiga oid hujjatlar tahlil qilindi.
2. Sotsiopedagogik tahlil — o‘qituvchining kommunikativ faoliyati shaxsiy va ijtimoiy jihatdan baholandi.
3. Empirik metodlar — kuzatuv, intervyu, so‘rovnoma, diagnostik testlar orqali 80 nafar pedagogika yo‘nalishi talabalarining kommunikativ tayyorgarligi o‘rganildi.
4. Eksperimental yondashuv — “Rol o‘ynash”, “Pedagogik vaziyat”, “Bahs-munozara” kabi interfaol metodlar orqali talabalar o‘rtasida amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi.
5. Statistik tahlil — olingan ma’lumotlar asosida kommunikativ kompetentlik darajasi foizlarda ifodalandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilik faoliyatida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish shaxsiy motivatsiya, refleksiya, empatiya va emotsional intellekt bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, muloqotning verbal (so‘z), noverbal (tana harakati, mimika, imo-ishora) va paralingvistik (intonatsiya, ohang) shakllarini o‘zlashtirish pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi.

NAZARIY ASOSLAR

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi birinchi marta Yevropa ta’lim tizimida (Dell Hymes, 1972) ilmiy muomalaga kiritilgan. Keyinchalik Noam Chomsky va Canale & Swain tadqiqotlarida bu tushuncha shaxsning nutqiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan samarali muloqot qila olish qobiliyati sifatida talqin qilindi.

O‘zbekiston olimlaridan Аивгддф Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” degan fikri ham kommunikativ kompetentlikning ma’naviy asoslarini yoritadi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim, balki so‘z orqali shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi insondir.

Bugungi kunda pedagogik kommunikatsiya — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama ta’sir jarayoni bo‘lib, u hamkorlik, hurmat, empatiya, tinglash madaniyati va ishonch tamoyillariga tayanadi.

ISSN: 2992-9210

TADQIQOT NATIJALARI

Tajriba natijalariga ko‘ra, interfaol metodlardan foydalanilgan mashg‘ulotlarda talabalar o‘z fikrini erkin ifoda etish, jamoada ishlash, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot o‘rnatish ko‘nikmalarini egalladilar.

O‘tkazilgan 3 oylik kuzatuv davomida talabalar o‘rtasida quyidagi o‘zgarishlar qayd etildi:

Ko‘rsatkichlar	Dastlabki foiz	Yakuniy foiz	O‘sish (%)
Nutq faolligi	42%	78%	+36%
Empatiya darajasi	48%	80%	+32%
O‘z fikrini himoya qilish	50%	85%	+35%
Tinglash madaniyati	55%	88%	+33%

Bu natijalar kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va o‘zaro muhokama muhitining ahamiyatini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari — motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv komponentlardan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z muloqot uslubini tahlil qila olmasa, uning pedagogik ta’siri sustlashadi.

O‘qituvchi uchun samarali muloqot bu — o‘quvchi shaxsini tushunish, ishonchli aloqani yo‘lga qo‘yish va ijobiy psixologik muhit yaratishdir.

Xalqaro tajribalarda (Finlandiya, Germaniya, Yaponiya) o‘qituvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish uchun maxsus “teacher dialogue sessions”, “peer communication training”, “emotional competence” kurslari tashkil etiladi. Bu yondashuv O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham ahamiyatlidir.

Kommunikativ kompetentlik shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy etika, kasbiy axloq va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘z emotsiyalarini boshqarish, tanqidni to‘g‘ri qabul qilish va o‘quvchilarni rag‘batlantirish usullarini o‘rganadi.

XULOSA

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda kommunikativ ko‘nikmalarning o‘rni beqiyosdir. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchining dars samaradorligini, o‘quvchilar bilan munosabat sifatini va jamoaviy muhitni belgilaydi.

Oliy ta’lim tizimida bu yo‘nalishda maxsus treninglar, kommunikativ trening mashg‘ulotlari, rol o‘yinlari va reflektiv yozuvlarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov B. Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish. – Toshkent: TDPU, 2022.
2. Karimova Z. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Shodiyeva N. Kommunikativ kompetensiya va ta’lim jarayoni. – Samarqand, 2020.
4. Hymes D. Communicative Competence. – New York, 1972.
5. Richards J. Developing Teachers’ Professional Competence. – Cambridge University Press, 2018.

ISSN: 2992-9210

SCAMPER TEXNIKASI ASOSIDA TALABALARDA IJODIY VA INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVE AND INTELLECTUAL COMPETENCIES IN STUDENTS BASED ON THE SCAMPER TECHNIQUE

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ SCAMPER

Karimova Aziza

Karimova A.,
SamDPI Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi.
karimovaaziza797@gmail.com

Annotatsiya. ushbu maqolada SCAMPER texnikasining ta’lim jarayoniga joriy etilishi va uning talabalarda ijodiy hamda intellektual kompetensiyalarni shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritiladi. Texnika komponentlari asosida talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga va noodatiy yechimlar yaratishga yo‘naltirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchining fasilitator sifatidagi roli, ijodiy muhit yaratish tamoyillari, kichik guruhlar faoliyatining samaradorligi hamda refleksiya jarayonining o‘quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *SCAMPER texnikasi, ijodiy fikrlash, intellektual kompetensiya, pedagogik yondashuv, fasilitator, muammoli ta’lim, refleksiya, kreativlik, tahliliy fikrlash.*

Аннотация. В данной статье раскрываются особенности внедрения техники SCAMPER в образовательный процесс и её педагогическая значимость в формировании у студентов творческих и интеллектуальных компетенций. Анализируются механизмы направления студентов на самостоятельное мышление, анализ проблемных ситуаций и поиск нестандартных решений на основе компонентов техники. Также обосновывается роль преподавателя как фасилитатора, принципы создания творческой среды, эффективность работы в малых группах и значимость рефлексии в развитии компетенций обучающихся.

Ключевые слова: *техника SCAMPER, творческое мышление, интеллектуальная компетентность, педагогический подход, фасилитатор, проблемное обучение, рефлексия, креативность, аналитическое мышление.*

Annatation. This article explores the integration of the SCAMPER technique into the educational process and its pedagogical significance in developing students’ creative and intellectual competencies. The mechanisms that guide learners toward independent thinking, problem analysis, and generating innovative solutions based on SCAMPER components are

ISSN: 2992-9210

examined. The study also highlights the teacher’s role as a facilitator, the principles of creating a creative learning environment, the effectiveness of small-group activities, and the importance of reflection in the development of learner competencies.

Keywords: *SCAMPER technique, creative thinking, intellectual competence, pedagogical approach, facilitator, problem-based learning, reflection, creativity, analytical thinking.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar ijodiy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Pedagogik amaliyotda SCAMPER texnikasidan foydalanish talabalarning yangicha fikrlashi, muammolarni noodatiy yondashuvlar orqali hal etish qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu texnika ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilinganda, talabalarning tafakkur moslashuvchanligi, kreativ yondashuvi va tahliliy fikrlashi yanada rivojlanadi. Shu bois, SCAMPER texnikasi asosida ijodiy va intellektual kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslarini o‘rganish bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bu borada xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bu masala yuzasidan bildirgan fikrlar tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlaydi. Jumladan, amerikalik olim R. Eberl SCAMPER texnikasini ta’limdagi ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish vositasi sifatida baholab, bu metod o‘quvchilar va talabalarni yangicha qarashlarga undovchi vosita ekanligini ta’kidlagan. U o‘z asarlarida: “SCAMPER – bu oddiy savollar orqali yangicha mahsulot va g‘oyalarni yuzaga keltirish imkoniyatini beradigan kuchli vosita”, – deya ta’kidlaydi[3].

Edvard de Bono dunyo miqyosida kreativ fikrlash, dizayn fikrlash (design thinking) sohasi taniqli mutaxassis hisoblanadi. U o‘quv jarayonlarini kreativ fikrlash asosida tashkil qilishga katta hissa qo‘shgan. Tadqiqotchi De Bono “Think! Before It’s Too Late” (O‘ylab ko‘ring! Kech bo‘lmasdan) qo‘llanmasida ijodiy fikrlashning dolzarblikka ega ekanligi, jamiyatda ham, ta’lim sohasida ham, shu jumladan, o‘qituvchilarning kreativ yechimlar topishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tadi[2]

Dizayn, ta’lim va kreativ fikrlash sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri Jon Maeda o‘quv jarayonlarini kreativ fikrlash asosida qurishga katta ahamiyat bergan. Jon Maedaning “How to Use SCAMPER in Design Thinking” (Dizayn fikrlashda SCAMPERdan foydalanish usullari) nimli qo‘llanmasida ijodiy fikrlash jarayonida SCAMPER texnikasining roli tahlil qilinadi. Xususan, “almashtirish” komponentining dizayn jarayonlari va uni o‘qitishda qanday qo‘llash kerakligi batafsil ko‘rib chiqilgan[4].

Asosiy qism

SCAMPER texnikasini samarali o‘qitishda pedagog an’anaviy usullarda bilim beruvchi emas, balki talabalarni yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi. U pedagogik faoliyatni boshqarishda tayyor bilimlarga tayanmasdan, talabalarni mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ularga ijodiy yechim topishga yo‘naltiradi. O‘qituvchi SCAMPER texnikasidan foydalanganda, o‘quvchilar fikrini boshqaruvchi hamda ijodiy muhitni ta’minlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi SCAMPER texnikasini qo‘llayotganda, quyidagi asosiy vazifalarga ahamiyat berishi lozim:

ISSN: 2992-9210

1. SCAMPER texnikasi komponentlari bilan ishlayotganda, talabalarga yo‘l-yo‘riq berish mumkin, ammo muammoning yechimini aytmaslik. Bu holatda o‘qituvchi talabani o‘z g‘oyasini shakllantirishga undash uchun mashg‘ulotda yo‘naltiruvchi savollar, muammoli vaziyatlar va misollar orqali tashkil qiladi. Bunnday yondashuv talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, turli variantdagi fikrlarni ishlab chiqish, noodatiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

2. Fikr yuritishga undovchi savollar berish. O‘qituvchi bu jarayonda texnikaning barcha komponentlari asosida muammoli savollar berish orqali talabalarni tahliliy fikrlashga o‘rgatadi. Masalan:

–Darsda nimani o‘zgartirsa bo‘ladi?

–Qavsi vositani yoki elementdan boshqa maqsadda foydalanish mumkin?

–Agar holat teskarisiga aylansa, xotima qanday bo‘lardi?

Bu kabi savollar talabalarni kengroq o‘ylashga, ijodkorlikka, mantiqiy bog‘lanishlarni qidirishga undaydi.

3. O‘qituvchining darsda ijodiy muhitni yaratishi. SCAMPER mashg‘ulotlarida o‘qituvchi xato qilishdan qo‘rqmasdan, erkin fikrlash muhitini ta’minlaydi. “Xato fikr yo‘q” tamoyili orqali talabalarning har bir aytgan g‘oyasi e’tiborga olinadi. Shuningdek, o‘qituvchi emotsional qo‘llab-quvvatlash asosida talabalarni faol qatnashishga undaydi.

4. Kichik guruhlarda ishlash asosida. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, SCAMPER texnikasining har bir bosqichini amaliyotda sinab ko‘rish mumkin. O‘qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratib, birinchi guruhga Substitue, ikkinchi guruhga Combine, uchinchi guruhga Adapt kabi SCAMPER komponentlarini bo‘lib beradi. mashg‘ulot jarayonida ularning faoliyatini kuzatib boradi va lozim bo‘lganda metodik yordam ko‘rsatadi. Mashg‘ulot so‘ngida har bir guruh o‘zlarining ishlab chiqqan g‘oyalarini taqdim etishadi hamda bir-birlarining g‘oyalarini tahlil qilib baholashadi.

5. Vizual tarzda SCAMPER komponentlarini baholash. O‘qituvchi doskada yo yoki slaydda SCAMPER komponentlarining jadvalini, sxemasini yoki xaritasini ko‘rsatadi. Bunday ko‘rgazmalilik talabalarning SCAMPER texnikasi komponentlarini aniqroq tushunish va tasavvur qilish imkonini beradi.

Vizual yondashuvning afzalligi shundan iboratki, talabalar murakkab ijodiy jarayonlarni ko‘rish orqali ma’lumotlarni qabul qilishi osonlashadi. Natijada SCAMPER texnikasi komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni anglaydi, real vaziyatlarda ulardan foydalanish bo‘yicha ularda mustahkam tasavvurlar hosil bo‘ladi. Vizual ko‘rsatish orqali talabalarda analitik fikrlash, solishtirish va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bu orqali talabalar har bir bosqichning vazifasini aniq tasniflaydi va topshiriqlarda qo‘llashi osonlashadi.

6. Har bir mashg‘ulotda “Nima bo‘lar edi agar...” yondashuvini ishlatish. Bu savol ijodiy tafakkurni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunda talabalarga quyidagicha savollar berish mumkin:

–Nima bo‘lardi agar sinfxonasida doska bo‘lmasa?

–Nima bo‘lardi agar bu darsda o‘yin elementi ishlatilsa?

Bu kabi savollar ijodiy teskari fikrlashni rivojlantiradi.

7. Refleksiya orqali o‘z-o‘zini anglashni qo‘llab-quvvatlash. Ta’lim jarayonida refleksiya shaxsning o‘z fikrlari, tajribasi va harakatlarini ongli ravishda tahlil qilib baholashi hamda xulosa chiqarish jarayoni hisoblanadi. O‘quvchining yoki talabaning o‘zini anglashi, harakatlarini boshqarishi va individual rivojlanishida refleksiyaning ahamiyati katta.

Refleksiya orqali o‘z-o‘zini anglash bu talabaning fikrlash jarayonini boshqarishga, tajribasini ongli anglashga, maqsad qo‘yish va o‘zini rivojlantirish strategiyasini shakllantirishga yordam beradigan

ISSN: 2992-9210

samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bu usul orqali o‘quv jarayoni sifati yaxshilanadi va shaxsning hayot davomida bilim olish kompetensiyasini shakllantiradi.

Umuman olganda, o‘qituvchi SCAMPER texnikasini ongli va izchil qo‘llaganda, o‘quvchilarni yangicha fikrlashga, mavjud g‘oyalarni har tomondan ko‘riv chiqishga, o‘zgaritirishga va ijodiy yondashuv asosida yechim topishga yo‘naltiradi. Bu esa talabalarning intellektual rivojlanishiga, ijodiy fikrlashiga yordam beradi.

Xulosa

SCAMPER texnikasini bosqichma-bosqich o‘rgatish asosida pedagogika yo‘nalishi talabalari bir nechta kompetensiyalarga ega bo‘ladilar:

1. Ijodiy tafakkur kompetensiyasi shakllantiriladi. Pedagogik faoliyatda talabalarning kreativ fikrlarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yondashuvlar hamda original yechimlar topishga harakat qiladilar. Ular fikr yuritishda stereotiplardan chiqib, ijodkorlikka intilishadi.

2. Iintellektual tahlil kompetensiyasi rivojlanadi. Talabalar SCAMPER komponetlari bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda har bir holatga sabab-oqibat nuqtai nazaridan qarashni, muammolarni chuqur tahlil qilish, uni yaxshilash yo‘llarini qidirishni o‘rganishadi. Natijada ularda mantiqiy va analitik fikrlash rivojlanadi.

3. Kommunikativ kompetensiya shakllanadi. Pedagogik faoliyatda talabalar muhokamalarda faol ishtirok etadi, fikrlarini erkin ifodalaydi, boshqalarni tinglash va ularning fikrlariga munosabat bildirishni o‘rganishadi, natijada bu ularda muloqot madaniyatini oshiradi.

4. Kasbiy kompetensiya shakllanadi. Talabalar texnikadan amaliyotda qo‘llashni o‘rganib, SCAMPERdan maktab darslarida foydalanish, axloqiy tarbiyalovchi tadbirlar hamda ijodiy loyihalarga tatbiq eta oladilar.

5. Reflektiv kompetensiya shakllanadi. Talabalar o‘zlarining faoliyatini kuzatish, baholash va xulosa chiqarishga o‘rganishadi. Tajribalariga tanqidiy qarash, baholash va kelgusida faoliyatini yanada yaxshilash ko‘nikmasini hosil qilishadi.

Umuman olganda, SCAMPER texnikasi talabalarni ijodkor, tahlil qila oladigan va noodatiy, ijodiy fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimov X., Suronov. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. – 76 b.

2. de Bono, E. Six Thinking Hats. Little, Brown and Company, 1995. – 192 p.

3. Eberl, Bob. SCAMPER: Games of Imagination and Creativity. Prufrock Press, 2009, 128 p.

4. Maeda, Jhon. How to Use SCAMPER in Design Thinking. Design Thinking Press, 2010. – 150 p.

5. Nurmatova, M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 176 bet.

ISSN: 2992-9210

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA KOLLABORATIV O‘QITISH MUHITINI LOYIHALASHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ СОВМЕСТНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ФОРМИРОВАНИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

DIDACTIC FEATURES OF DESIGNING A COLLABORATIVE LEARNING ENVIRONMENT IN THE PROFESSIONAL FORMATION OF FUTURE TEACHERS

Kurbonova Gulmira Usmonovna

Kurbonova G.U.,

Samarqand davlat universiteti maqsadli tayanch doktoranti

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida hamkorlikka asoslangan interfaol usullar ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonida kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalashning didaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Mavzuga doir mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar sharhi asosida kollaborativ ta’lim konsepsiyasining nazariy asoslari ochib beriladi. Tadqiqot doirasida pedagogik tajriba o‘tkazilib, hamkorlikka asoslangan o‘quv muhiti joriy etildi va uning natijalari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kollaborativ muhitda ta’lim olgan bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot, jamoaviy ishlash va reflektiv ko‘nikmalari an’anaviy usulda o‘qiganlarga nisbatan sezilarli darajada rivojlangan. Xulosa o‘rnida, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga kollaborativ o‘qitish muhitini keng joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *kollaborativ o‘qitish; ta’lim muhiti loyihalash; bo‘lajak o‘qituvchilar; kasbiy shakllanish; didaktik xususiyatlar; interfaol metodlar; hamkorlikda ta’lim; professional kompetensiya.*

Аннотация. В данной статье проанализированы дидактические особенности проектирования среды коллаборативного обучения в процессе профессионального становления будущих учителей. На основе обзора отечественной и зарубежной литературы раскрыты теоретические основы концепции коллаборативного обучения. В рамках исследования проведен педагогический эксперимент: была сформирована учебная среда, основанная на сотрудничестве, и проанализированы ее результаты. Результаты показывают, что у будущих учителей, обучавшихся в условиях коллаборативного обучения, навыки общения, командной работы и рефлексии улучшились значительно по сравнению с традиционным обучением. В заключение представлены предложения по широкому внедрению среды коллаборативного обучения в процесс подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: *коллаборативное обучение; проектирование среды коллаборативного обучения; будущие учителя; профессиональное становление; дидактические особенности;*

ISSN: 2992-9210

интерактивные методы; обучение в сотрудничестве; профессиональная компетенция.

Annatation. This article analyzes the didactic features of designing a collaborative learning environment in the professional formation of future teachers. Based on a review of local and foreign literature, the theoretical foundations of the collaborative learning concept are revealed. A pedagogical experiment was conducted in which a learning environment based on collaboration was implemented and its outcomes analyzed. The results show that preservice teachers who learned in a collaborative setting demonstrated significantly improved communication, teamwork, and reflective skills compared to traditional training. In conclusion, recommendations are provided for the broad implementation of collaborative learning environments in teacher training programs.

Keywords: *collaborative learning; educational environment design; future teachers; professional formation; didactic features; interactive methods; cooperative learning; professional competence.*

Kirish

Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion yondashuvlar joriy etilib, o‘quv jarayonini **hamkorlikda o‘qitish** asosida tashkil etishga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, jamoaviy va kollaborativ ta’lim usullaridan foydalanish orqali kelajak pedagoglarida XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kollaborativ o‘qitish yondashuvi ta’limning samaradorligini oshiradigan zamonaviy trendga aylangan [1, 80-bet]. Pedagogika sohasi tadqiqotlarida kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) ta’lim modeli ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi [2, 32-bet].

Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional shakllanishida kollaborativ o‘qitish muhitini yaratish va uning didaktik xususiyatlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. **Kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash** deganda, o‘quv jarayonini kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash, o‘zaro o‘rgatish va bilimlarni birgalikda egallashga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish tushuniladi. Bunday muhitda talabalarning o‘rganishi jamoaviy mas’uliyatga asoslanib, o‘qituvchi esa fasilitator va yo‘lboshchi rolini bajaradi [1, 79-be]. Mazkur maqolada aynan shu masala – bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kollaborativ ta’lim muhitini samarali loyihalashning didaktik jihatlarini ochib berish – maqsad qilindi. Buning uchun avvalo ushbu yo‘nalishda yaratilgan ilmiy ishlarga tayanilgan holda nazariy asoslar yoritiladi, so‘ng tajriba-sinov tadqiqoti misolida kollaborativ muhitning afzallik va samarasiga baho beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasining nazariy asoslarini aniqlashda L.S. Vygotskiyning sotsiokulturaviy ta’lim nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Vygotskiy ta’lim jarayonida ijtimoiy muloqot va hamkorlikning rolini alohida ta’kidlab, bilim olish **“yaqin taraqqiyot zonasi”** doirasida boshqalardan ko‘mak olish orqali jadallashishini ko‘rsatgan [3, 56-bet]. Shunday qilib, o‘quvchilarning jamoa bo‘lib ishlashi – bilim va ko‘nikmalarni yanada samarali o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi mexanizm ekanligi ilmiy asoslangan.

Pedagogik adabiyotlarda “kollaborativ o‘qitish” tushunchasi ko‘pincha “kooperativ ta’lim” bilan ma’nodosh tarzda qo‘llanadi, lekin ayrim tadqiqotchilar ularning o‘ziga xos farqlarini keltirib o‘tishadi.

ISSN: 2992-9210

Jumladan, D. Johnson va R. Johnson izlanishlarida kooperativ ta’lim kichik guruhlarda birgalikda ishlashni tashkil etish bo‘yicha aniq tuzilmalar va rol taqsimotini nazarda tutishi, kollaborativ ta’lim esa bundan erkinroq, ochiq hamkorlik jarayonini ifodalashi qayd etiladi [4, 34-bet]. Biroq har ikki yondashuvning umumiy jihati – talabalarning birgalikda faol ishlashi orqali bilim olishidir.

Xorijiy olimlarning ko‘plab tadqiqotlari hamkorlikdagi ta’limning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, R.E. Slavin kichik guruhlarda o‘qitish talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashini tajribalar orqali ko‘rsatib bergan [5, 15-bet]. An’anaviy yondashuv bilan solishtirganda, guruhiy ta’limda o‘quvchilar murakkab muammolarni birgalikda hal qilish jarayonida chuqurroq tushunchalarga ega bo‘lishadi va mustahkamroq bilim hosil qilishadi. Shu bilan birga, hamkorlik o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. A.A. Goxalening tadqiqotida birgalikda ishlagan talabalar individual ishlaganlarga nisbatan muammolarni hal etishda va tanqidiy fikrlash testlarida yaxshiroq natija ko‘rsatganligi aniqlangan [6, 27-bet].

Kollaborativ o‘qitish muhitining tarbiyaviy ahamiyati ham alohida e’tiborga loyiq. Jamoaviy ishlash jarayonida o‘quvchilarda muloqotga kirisha olish, fikr almashish, tengdoshlar fikrini tinglash, jamoada murosaga erishish kabi ko‘nikmalar shakllanadi [1, 82-bet]. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining muhim qismi sanaladi – axir ular kelajakda o‘zlari ham jamoa bilan ishlashi, hamkasblar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi talab etiladi. Xususan, rus tadqiqotchilari G.P. Sinitsyna o‘z ishida hamkorlikda o‘qitish shaxslararo kommunikativ malakalarni rivojlantirish va turli nuqtai nazarlarni tushunishga yordam berishini ta’kidlaydi [1, 81-bet]. Shuningdek, O‘zbekiston olimasi G.H. Begmatovaning boshlang‘ich ta’lim sohasidagi izlanishlari ham kollaborativ ta’lim texnologiyalari jamoada ishlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi [8, 272-bet].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kollaborativ muhitdan foydalanish masalasi mahalliy tadqiqotlarda ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, H.Sh. Begimqulov, Sh.Usmonova kabi pedagog olimlar ta’lim jarayonida interfaol va hamkorlikka asoslangan texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. So‘nggi yillarda bevosita **bo‘lajak o‘qituvchilar bilan kollaborativ o‘qitish metodikasini** o‘rganishga doir ilmiy ishlar ham yaratilmoqda. Xususan, Sh.G‘. Xasanov o‘zining PhD dissertatsiyasida kelajak o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini hamkorlikka asoslangan yondashuv orqali rivojlantirish metodikasini ishlab chiqib, uni tajribada sinovdan o‘tkazgan [9, 30-bet]. Ushbu tadqiqot natijalari kollaborativ yondashuv bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ijobiy samara berishini tasdiqlagan. Qolaversa, Qozog‘istonlik tadqiqotchilar A. Berikhanova va hammualliflar pedagogik universitet talabalari o‘rtasida **collaborative learning environment** (hamkorlikdagi ta’lim muhiti)ni joriy etish bo‘yicha action-research usulidagi tajriba o‘tkazib, bunday muhit talabalarning kommunikativ qobiliyatlari va refleksiya qilish ko‘nikmalarini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berdilar [7, 150-bet]. Ularning tadqiqotida kollaborativ muhitda ta’lim olgan talabalar o‘z kasbiy rivojlanish darajasini va o‘quv maqsadlariga erishish holatini doimiy ravishda tahlil qilib borishga o‘rganganliklari qayd etilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, balki bo‘lajak pedagoglarning kasbiy jihatdan kamol topishiga xizmat qiluvchi qator ijobiy omillarni yuzaga chiqaradi. Birgalikda ishlashga asoslangan o‘qitish texnologiyasi sharoitida talabalarda mas’uliyatni bo‘lishish, liderlikka intilish, o‘zaro yordam va tanqidiy fikrlash singari sifatlar tarkib topadi. Bu esa ularning keyinchalik mustaqil pedagogik faoliyatda muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi.

ISSN: 2992-9210

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola doirasida qo‘yilgan ilmiy muammoni o‘rganish uchun kompleks tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Avvalo, **mavzuga doir nazariy manbalar tahlili** usuli yordamida kollaborativ o‘qitish konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari o‘rganildi va tadqiqot uchun gipoteza shakllantirildi. Keyingi bosqichda esa tajriba-sinov ishi tashkil etildi. Tajriba 2024–2025 o‘quv yili davomida O‘zbekistondagi pedagogika oliy ta’lim muassasalarida 4-bosqichida tahsil olayotgan “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalari orasida o‘tkazildi.

Tajriba ishtirokchilari ikki guruhga – **nazorat** va **tajriba** guruhlariga – ajratildi. Har bir guruhda 25 nafardan talaba bo‘lib, ularning boshlang‘ich bilim darajasi va akademik ko‘rsatkichlari deyarli teng edi. Tajriba guruhida o‘quv mashg‘ulotlarini kollaborativ o‘qitish muhiti asosida loyihalash va tashkil etish rejalashtirildi. Ya’ni, semestr davomida bu guruhda darslar asosan kichik guruhlarda ishlash, juftlikda o‘qitish, “Jigsaw” texnologiyasi, loyiha metodi, muammoli ta’lim, **birgalikda refleksiya** kabi usullar orqali o‘tkazildi. Talabalar guruhlarga bo‘lingan holda amaliy vazifalarni birgalikda bajardilar, rollarga bo‘linib dars berish mashqlarini (mikro-o‘qituvchilik) bajarishdi, o‘zaro fikr almashib, taqdimotlar tayyorlashdi. Mashg‘ulot yakunida guruh bo‘lib erishilgan natijalarni tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash uchun reflektiv muhokamalar tashkil qilindi.

Nazorat guruhida esa o‘quv jarayoni odatdagidek an’anaviy usulda (ma’ruza, mustaqil o‘zlashtirish, individual topshiriqlar) davom ettirildi. Guruhlar faoliyatini qiyosiy baholash maqsadida tadqiqot boshida va yakunida diagnostik ishlar o‘tkazildi. Jumladan, talabalarning fan bo‘yicha **akademik tayyorgarlik darajasi** (reyting baholari), **kommunikativ kompetensiya** (maxsus so‘rovnoma-savolnoma yordamida) va **hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari** (amaliy topshiriqlarni bajarish sifati hamda o‘zaro baholash natijalari orqali) o‘lchandi. Shuningdek, tajriba guruhidagi talabalardan kollaborativ o‘qitish muhitiga doir fikr-mulohazalarni yig‘ish maqsadida intervyu o‘tkazildi. Olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilinib, nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari solishtirildi.

Tajriba jarayonini rejalashtirish va tahlil qilishda pedagogik tadqiqot metodologiyasining umumqabul qilingan printsiplariga amal qilindi. Xususan, ishtirokchilarning bilim darajasini baholashda **obyektivlik** va **xolislik**ni ta’minlash uchun mustaqil ekspertlar jalb etildi. Ma’lumotlarni solishtirishda **teng sharoit** tamoyiliga amal qilindi – ikki guruh talabalari uchun ham dastur bir xil bo‘lib, farq faqat ta’lim usulida edi. Chiqarilgan xulosalarning ishonchliligini oshirish maqsadida sifat ko‘rsatkichlari kvantitativ (foizli) ma’lumotlar bilan boyitildi, ya’ni so‘rovnomalar natijalari foizlarda ifodalandi, baholardagi o‘zgarishlar raqamli ko‘rsatkichlar orqali tasdiqlandi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot savollariga javob topish va ilgari surilgan gipotezani tekshirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, kollaborativ o‘qitish muhitini joriy etish bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘qitish jarayonidagi faolligi va o‘quv natijalariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, tajriba va nazorat guruhlari talabalari bilim darajasi va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha deyarli teng edi. Biroq, semestr yakunida o‘tkazilgan nazorat ishlari va kuzatuvlar ularning rivojlanishida jiddiy farq paydo bo‘lganini aniqladi.

Akademik natijalar: Tajriba guruhida kollaborativ muhitda o‘qigan talabalarning o‘rtacha yakuniy reyting ballari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi (mos ravishda 86 va 79 ball). Xususan, talabalar jamoaviy loyihalarni bajarish jarayonida fanni chuqurroq o‘zlashtirib, baholash haftaligida mustaqil ravishda an’anaviy guruhga nisbatan yaxshiroq natijalarni ko‘rsatdilar. Bu **hamkorlikda o‘qitish** bilimning mustahkamroq va samaraliroq egallanishiga yordam berishini yana bir bor tasdiqlaydi

[5, 15-bet]. Guruh bo‘lib ishlashda talabalar o‘zaro bir-birini o‘qitishi, bilim va g‘oyalarni almashishi natijasida mavzuni puxta tushunib olgani kuzatildi.

Kompetensiyalar rivoji: Kollaborativ muhit talabalarning ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tajriba guruhidagi talabalar semestr boshida **kommunikativ kompetensiya** bo‘yicha o‘rtacha 65% natija ko‘rsatgan bo‘lsa, semestr yakunida bu ko‘rsatkich 85% gacha o‘sdi. Nazorat guruhida esa kommunikativ kompetensiya rivoji nisbatan past – 70% atrofida bo‘lib qoldi. Xuddi shunday, tajriba guruhida **jamoada ishlash ko‘nikmasi**ni baholash natijalari ham yuqoriladi: guruhli topshiriqlarni bajarishdagi ishtirok faolligi, liderlikka intilish va vazifalarni taqsimlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuzatuvchi mentorlar tomonidan 5 ballik tizimda o‘rtacha 4,7 ball bilan baholandi (boshlang‘ich baho 3,8 edi). Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 4,0 dan 4,2 ballgacha ozroq o‘sish bilan cheklangan. **Reflektiv faollik** ham tajriba guruhida sezilarli darajada oshdi – talabalar har bir mashg‘ulot yakunida o‘z faoliyatini tahlil qilishga odatlandi, bu esa ularga kuchli va zaif tomonlarini anglash imkonini berdi. Nazorat guruhida talabalarning o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasida jiddiy o‘zgarish kuzatilmadi.

Talabalarning munosabatlari: Tajriba guruhidagi talabalar yangi hamkorlik muhiti haqida ijobiy fikr bildirdilar. Intervyu natijalariga ko‘ra, ularning aksariyati guruhda ishlash boshlang‘ichda qiyinchilik tug‘dirgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan jamoada muhokama qilish, birgalikda qaror qabul qilish kabi jarayonlar qiziqarli va foydali bo‘lganini ta’kidlashdi. “Guruh bo‘lib ishlaganda men boshqalardan o‘rganaman va boshqalarga o‘rgataman, shu tariqa o‘zim ham mavzuni yaxshiroq tushunib olaman,” – deydi tajriba ishtirokchilaridan biri. Talabalar shuningdek, bunday mashg‘ulotlar muloqotga kirishishdan tortib, bahs-munozaralarni madaniyatli olib borishgacha ko‘plab yangi malakalarni shakllantirganini qayd etishdi. Kuzatuvlardan ma’lum bo‘ldiki, guruh a’zolari orasida do‘stona ijtimoiy-psixologik muhit shakllanib, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash holatlari ko‘paygan. Bu esa butun jamoada o‘qishga nisbatan ijobiy motivatsiya va ishtiyoqni kuchaytirdi.

Olingan natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan ham uyg‘unlikda bo‘ldi. Xususan, Berikhanova va hamkorlarining (2022) izlanishlarida ham kollaborativ muhit joriy etilgan guruhlarda talabalar o‘z bilimini muntazam refleksiya qilib borganligi, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasi shakllangani ta’kidlangan edi [7, 154-bet]. G.H. Begmatova tomonidan maktab o‘quvchilari misolida o‘tkazilgan tadqiqot ham hamkorlikka asoslangan topshiriqlar bajarish bolalarning faolligini oshirishini ko‘rsatgan [8, 274-bet] – bizning oliy ta’lim doirasidagi tajribamiz ham xuddi shunday natijalarni berdi. R.E. Slavinning guruhiy ta’lim akademik yutuqlarni oshirishga xizmat qilishi haqidagi xulosasi [5, 15-bet] ham ushbu tadqiqotda o‘z tasdig‘ini topdi, zero kollaborativ muhitda bizning talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli ravishda yaxshilandi. Shuningdek, hamkorlikda ishlash jarayoni talabalar tafakkurini faollashtirib, ularning mavzuga doir ijodiy g‘oyalar generatsiya qila olish qobiliyatini ham oshirdi – bu holat A.A. Goxale tadqiqotidagi tanqidiy fikrlashning rivojlanishi bilan bog‘liq natijalarga hamohangdir [6, 27-bet].

Umuman olganda, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kollaborativ ta’lim muhitini qo‘llash samarali ekanini ko‘rsatdi. Bunday muhitda talabalarning nafaqat bilim darajasi oshadi, balki kasbiy faoliyat uchun zarur ko‘nikma va kompetensiyalar tezroq shakllanadi. Natijada, ular pedagogik faoliyatga yuqori ishonch va tayyorgarlik hissi bilan kirib boradi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalar chiqarildi: **birinchidan**, kollaborativ o‘qitish muhitini loyihalash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayoni ularning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishini ta’minlab, muloqotga kirishish, jamoada ishlash, muammolarni hal etish, o‘z faoliyatini tahlil qila bilish

kabi muhim kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu kompetensiyalar esa zamonaviy o‘qituvchining o‘z kasbida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy-pedagogik jihatdan ham ahamiyatli masala hisoblanadi.

Ikkinchidan, kollaborativ o‘qitish muhitini joriy etish uchun uning muayyan didaktik xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim. Jumladan, ta’lim jarayonini loyihalashda **talaba shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv** ustuvor bo‘lishi kerak – mashg‘ulotlarda har bir ishtirokchining faol ishtirokini ta’minlash, ularning qiziqishi va ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Shuningdek, guruhiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun oldindan **aniq maqsadlar va vazifalar belgilanishi**, talabalar o‘rtasida **rol va mas’uliyat taqsimoti** oqilona amalga oshirilishi lozim. Bizning tajribamizda o‘zini oqlagan yondashuvlardan yana biri – har bir dars yakunida vaqt ajratilib, **refleksiya va tahlil** olib borilishi bo‘ldi. Bu usul talabalarga o‘z guruhidagi hamkorlik jarayonini sarhisob qilish, erishilgan natijalar va yo‘l qo‘yilgan xatolar ustida birgalikda mulohaza yuritish imkonini beradi. Natijada, keyingi mashg‘ulotlarda ular oldingi tajribadan xulosa chiqarib, faoliyatlarini takomillashtirib boradilar.

Uchinchidan, kollaborativ muhitni joriy etishda o‘qituvchining o‘zi ham yangi rolni qabul qilishi muhim – u bilim beruvchi emas, balki **hamkorlikni fasilitatsiya qiluvchi** shaxsga aylanishi kerak. Bu o‘qituvchidan darslarni puxta rejalashtirish, guruh dinamikasini boshqarish, barcha talabalarning ishtirokini rag‘batlantirish, bahs-munozaralarda yo‘naltiruvchi bo‘lish kabi kompetensiyalarni talab etadi. Demak, pedagogik kadrlar malakasini oshirish jarayonida ham o‘qituvchilarga kollaborativ texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus treninglar, seminarlar o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Yakuniy xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy maktabga tayyorlashda ularning **hamkorlikda ishlash kompetensiyasi** alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo‘li – ta’limning aynan kollaborativ tashkil etilishidir. Shuning uchun pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga kollaborativ o‘qitish muhitini bosqichma-bosqich keng joriy etishlari zarur. Jumladan, dasturdagi amaliy va seminar mashg‘ulotlarni imkon qadar guruhiy loyihalar, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatli topshiriqlar shaklida o‘tkazish tavsiya etiladi. Shuningdek, talabalarning o‘zaro muloqotini faollashtiruvchi **raqamli kollaborativ platformalar** (onlayn forumlar, jamoviy hujjatlar tahriri, masofaviy jamoaviy loyiha vositalari va h.k.) dan ham foydalanish ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida hamkorlik ko‘nikmasini shakllantiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida qo‘lga kiritilgan natijalar dastlabki xarakterga ega bo‘lib, masalaning barcha jihatlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda kollaborativ o‘qitish muhitining bo‘lajak o‘qituvchilarning boshqa ko‘nikmalariga (masalan, ijodiy tafakkur, liderlik qobiliyati) ta’sirini o‘rganish, hamda bunday muhitni onlayn va blended-ta’lim shakllarida qanday samarali tashkil etish mumkinligini tahlil qilish qiziqarli yo‘nalishlar bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sinitsyna, G. P. “Strategii obucheniya v partnerstve: kollaborativnoe obuchenie.” Nauka o cheloveke: gumanitarnye issledovaniya, №2(36), 2019, pp. 78–82.
2. Pavelseva, N. V. “Kollaborativnoe obuchenie kak model’ effektivnoy realizatsii obrazovatel’nogo processa.” Obrazovanie. Kar’era. Obshchestvo, no. 3(29), 2010, pp. 30–37.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

ISSN: 2992-9210

4. Johnson, David W., and Roger T. Johnson. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. 5th ed., Allyn & Bacon, 1999.

5. Slavin, Robert E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. 2nd ed., Allyn & Bacon, 1995.

6. Gokhale, Anuradha A. “Collaborative Learning Enhances Critical Thinking.” Journal of Technology Education, vol. 7, no. 1, 1995, pp. 22–30.

7. Berikhanova, Aiman, et al. “Актуальность создания коллаборативной учебной среды в профессиональной подготовке будущих учителей.” Образование и Саморазвитие, vol. 17, no. 2, 2022, pp. 144–156.

8. Begmatova, Gulshoda H. “Kollaborativ o‘qitish texnologiyalari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik muammolari.” Elektron ta’lim (E-learning), vol. 5, no. 4, 2024, pp. 268–277.

9. Xasanov, Sh. G‘. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intèsiyalarini rivojlantirish metodikasi. Ped. fan. bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Farg‘ona, 2024.

10. Norboeva, F. “Formirovanie kompetentsii studentov kak sotsial’no-pedagogicheskaya problema.” Zhurnal akademicheskikh issledovanii Novogo Uzbekistana, vol. 1, no. 6, 2024, pp. 103–107.

ISSN: 2992-9210

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARNING ILMIY FAOLIYAT OLIB BORISH PARAMETRLARI

ПАРАМЕТРЫ НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

PARAMETERS OF SCIENTIFIC ACTIVITY OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Matniyazov Xasan Kamolovich

Matniyazov X.K.,
Ma’mun universiteti
umumkasbiy fanlar
p.f.b.f.d(PhD)., professor v.b.,
xasanmatniyazov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot olib borish parametrlari borasida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, unda jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlarida ilmiy tadqiqot ishlarining dastlabki boqichlari borasida tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: *jismoniy madaniyat, talaba, pedagogika, ta’lim, tizim, ilmiy faoliyat, xorijiy tajriba, kasb, jarayon.*

Аннотация. В статье описаны параметры исследований в области физкультурного воспитания студентов, а также даны рекомендации по начальным этапам исследовательской работы в области физкультурного воспитания студентов.

Ключевые слова: *физическая культура, студент, педагогика, образование, система, научная деятельность, зарубежный опыт, профессия, процесс.*

Annotation. This article describes the parameters of research in the field of physical culture education of students, and provides recommendations on the initial stages of research work in the field of physical culture education of students.

Key words: *physical culture, student, pedagogy, education, system, scientific activity, foreign experience, profession, process.*

KIRISH

Bugungi kunda nafaqat jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi balki, boshqa ta’lim yo‘nalishlarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan qator (referat, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi hamda pedagogik amaliyot) ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda talabalar o‘z faoliyatida muammolarga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sababi talabalar tomonidan bajariladigan ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetarlicha bilimga ega emasliklaridadir[1]. Shuningdek, talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari avvalo, biron fan tarkibida alohida mavzu sifatida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. CHunki, har qanday insondan o‘zi bilmagan va anglab yetmagan bilim yoki tajribani so‘rashni mantiqsizlik bilan tenglashtirish mumkin. SHu bois mazkur jarayonni amalga oshirishda, talabalar bilimini takomillashtirishda har bir fan mazmunidan kelib chiqib, referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari qay tartibda rasmiylashtirish va bajarish jarayonida nimalarga e’tibor berish lozimligini izohlash lozim.

ISSN: 2992-9210

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son farmonida “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-uslubiy ta’minlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va sportda yuqori natijalarni qo‘lga kiritish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, yosh mutaxassislarni ilmiy va ta’lim dasturlarida ishtirok etishini ta’minlash” choralarini ko‘rish borasida ko‘rsatmalar berilgan[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlillarga ko‘ra, jismoniy madaniyat ta’lim sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etish tizimini takomillashtirish muammosi etarlicha tadqiq qilinmaganligi mazkur jarayonni keng qamrovli o‘rganish va takomillashtirishni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarining ma’lum sabablarga ko‘ra, ushbu yo‘nalish o‘quv rejasida belgilangan fanlardan qoldirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish yuzasidan yoziladigan dastlabki (kichik) izlanish turi hisoblanadi.

Referat tayyorlashda talaba o‘z fikrlarini yozma bayon qilish jarayonida ko‘rib chiqilayotgan muammoni nazariy jihatdan anglash, ijtimoiy hayot, voqea va hodisalar tahlilida o‘z bilimlarini ishlata olish, mavzuni idrok etishda mustaqil tushunchaga ega bo‘lish, manba va adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmasini egallash, jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi bo‘yicha o‘rganilayotgan fanning aniq bir muammosini o‘rganib chiqib, uni bexato bayon qilishga o‘z e’tiborini qaratishi kerak[2][3]. Talaba xulosa, umumlashtirish, tavsiyanomalarni bayon qila bilishi, shuningdek ilmiy-ma’lumot qismini to‘g‘ri yorita olish malakasiga ega bo‘lishi lozim. Shunigdek, referat mavzusini tanlash ishning juda mas’uliyatli bosqichidir. Talabaga kafedra tomonidan tavsiya etilgan o‘rganilayotgan fanga aloqador boshqa mavzularni mustaqil tanlash huquqi beriladi. Bu holda referat mavzusi ma’ruzachi yoki seminar olib boruvchi o‘qituvchi bilan kelishilishi kerak. Bu talabaga referat rejasini, asosiy maqsadini va adabiyotni to‘g‘ri tanlashga yordam beradi.

Talabalar tomonidan referat yozish tartibi o‘zlashtirilgandan so‘ng, uni kichik ilmiy izlanish sifatida e’tirof etish mumkin. Bu esa keyingi o‘quv jarayonlarida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlaridan tayyorlanadigan mustaqil ishlarni bajarishda fundament vazifasini o‘taydi.

Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarining o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mustaqil ishi tayyorlash bugungi kunda dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ish guruhda ishlash bilan bir qatorda o‘quv jarayonining shakllaridan biri bo‘lib, uning ajralmas qismidir[3]. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek jismoniy madaniyat mutaxassisligi o‘quv rejasida mustaqil ish hajmini o‘quv bo‘limlari va o‘quv muassasasining metodistlari tomonidan rejalashtirish zarur. Mustaqil ish talabalarning rejalashtirilgan ishi bo‘lib, u o‘qituvchining ko‘rsatmasi va uslubiy rahbarligida, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi[4].

Mustaqil ta’lim nafaqat har bir fanni o‘zlashtirish uchun balki, umuman olganda, o‘quv, ilmiy, kasbiy faoliyatda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, masuliyatni o‘z zimmasiga olish, muammoni mustaqil hal qilish, kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan ayrim masalalarga echim topish kabi bir qator ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni qamrab oladi.

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Xalq so’zi 2020, 24 yanvar

[3] Ziyomuhammadov B. Abdullaeva SH. Pedagogika. -T.: O‘qituvchi, 2000. -126 b.

ISSN: 2992-9210

Yuqorida keltirilgan, ya’ni mustaqil ishni tayyorlashda jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi professor-o‘qituvchilarining nazoratida belgilangan tartibda amalga oshirilsa, talabalarni keyingi bosqich, ya’ni kurs loyihasini tayyorlash bo‘yicha muammolar yuzaga kelmasligi mumkin.

Kurs loyihalari va ishlari o‘quv vazifasi harakteriga ega bo‘lgan individual topshiriqlar bo‘yicha olib boriladi. Uning vazifasi odatda o‘quv fanining muammolar tarkibini aks ettiradigan tarzda tuziladi. Kurs loyihasi (ish) jarayonida talabalar ob’ektni (jarayonni) loyihalashni, usulini o‘zlashtirishni o‘rganadilar, mavzuga oid farmon, qaror, me’yoriy va zaruriy adabiyotlardan, foydalanishni o‘rganadilar, mavzuda ko‘tarilgan masalani turli diagrammalar, chizmalar orqali asoslashni o‘rganadilar[4]. Odatda kurs ishi talabalar tomnidan olib boriladigan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishining 2-, 3- va 4-bosqich kurslarida “Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi”, “Sport va harakatli o‘ynilarni o‘qitish metodikasi” va “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kabi fanlardan kurs loyiha ishi talabalar tomonidan tayyorlanadi.

Kurs ishi – bu tor mavzudagi kichik ilmiy tadqiqot bo‘lib, o‘quv dasturida keltirilgan mavzular bo‘yicha kurs loyiha ishlari tayyorlash jarayonida talaba asta-sekin oddiy usullarni o‘zlashtirib borib va keyinchalik murakkab tadqiqot usullaridan foydalanishni o‘zlashtiradi[5]. Talabalar tomonidan tayyorlangan kurs ishlari mustaqil ilmiy tomon bosilgan birinchi qadam hisoblanadi[5].

Talabalar tomonidan tayyorlangan kurs loyihalarida ishlab chiqilgan ilmiy muammolar, qoida tariqasida, amaliy tavsiyaga ega bo‘lib, keyinchalik yanada chuqurroq tadqiqotlar mavzusiga aylanishi mumkin va ko‘pincha bitiruv malakaviy ishi bilan yakunlanadi.

Bitiruv malakaviy ish “Oliy ta’lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini tayyorlash tartibi haqida Nizom” asosida tayyorlanadi. O‘quv yili uchun yakuniy attestatsiya sinovlarining dasturlari va bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari kafedra yig‘ilishlarida muhokama qilinadi va oliy ta’lim muassasasi Ilmiy metodik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzulari ta’lim muassasasining bitiruvchilarni tayyorlovchi kafedralar tomonidan mutaxassislarga talabgorlarning talablarini, shuningdek, zamonaviy fan, texnika, texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ish – bu o‘quv yurtida o‘qishning oxirgi bosqichida qo‘llaniladigan tashkiliy shakl bo‘lib, talabalar tomonidan diplom loyihalari yoki diplom ishlari bajarilishidan iborat bo‘lib, uning asosida YAkuniy davlat attetatsiyasi komissiyasi talabalarga mutaxassislik malakasini berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bitiruv malakaviy ishiga didaktik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bilimlarni kengaytirish, birlashtirish va tizimlashtirish, aniq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolarni, shuningdek mutaxassislik yuzasidan vazifalarini hal qilish uchun kasbiy ko‘nikma va malakalarni oshirish; mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borishda ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;
- bitiruvchilarning malaka talabida nazarda tutilgan yo‘nalishlar bo‘yicha mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tekshirish va aniqlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari sifatida jismoniy tarbiyaga oid biror ixtisoslik sohasi bo‘yicha ishni tayyorlash ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarda bilimlarni mustahkamlash, mustaqil holda ma’lumotlarni izlash va muayyan muammolarni echish, tanlangan mavzu bo‘yicha kasbiy, pedagogik va psixologik kategoriyalar, xodisalar va muammolar mohiyatini ochish, mavjud materiallarni tizimlashtirish, taxlil qilish va qayta ishlash, uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini

[4] Слобадчиков В.И. Инновационное образования. //Ж. Школьные технологии. -2005. -№2. - 4-12 с

[5] Мкрытичян Г.А. Параметры педагогчиеской экприментальной деятельности. // Ж. Педагогика. -2001. -№5. – 45-50 с

ISSN: 2992-9210

oshirishga yo‘naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalardan iborat hisoblanadi[6]. Bu esa talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatida mustaqil ilmiy tadqiqot ilarini olib borish malakalarini shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan metodik taviyalarni hal etish natijasida jismoniy madaniyat sohasi talabalarinining ilmiy faoliyatini tashkil etishda va ta’lim samaradorligini oshirishda, jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, oliy ta’lim muassasalar tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyomuhammadov B. Abdullaeva SH. Pedagogika. -T.: O‘qituvchi, 2000. -126 b.
2. Слобадчиков В.И. Инновационное образования. //Ж. Школьные технологии. -2005. -№2. - 4-12 с.
3. Мкрытичян Г.А. Параметры педагогчиеской экприментальной деятельности. // Ж. Педагогика. -2001. -№5. –45-50 с.
4. Подласый.И.П. Педагогика . 2-х томах.-М.: Владос, 2004.-572.
5. Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчества учителя. - Пятигорск, 1992,196 с.
6. Qabulov, Q. P. (2017). NATIONAL INTERESTS AND PERSPECTIVES OF GLOBALIZATION. *Theoretical & Applied Science*, (1), 82-85.

ISSN: 2992-9210

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

USE OF VIRTUAL LABORATORY WORK IN TEACHING PHYSICS TO ACADEMIC LYCEUM STUDENTS

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИРТУАЛЬНОЙ ЛАБОРАТОРИИ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ

Matyazov Djaxongir Shuxratovich

Matyazov D.Sh.,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik biotexnologiyalar universiteti akademik litseyi
maxmudovfurqat857@gmail.com

Annotatsiya. Ko‘plab litseylarda fizika fanidan jihozlarning yetishmasligi, laboratoriya infratuzilmasining cheklanganligi, xavfsizlik talablarining yuqoriligi va masofaviy ta’lim sharoitida real tajribalarni o‘tkazish imkoniyatining yo‘qligi an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligini pasaytiradi. Shu bois virtual laboratoriyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Fizika fani uchun LabWIEV dasturiy vositasi yordamida Virtual labaoratoriya ishalrini ishlab chiqish va o‘qitishda virtual laboratoriya ishlarini o‘quvchi o‘zlashtirishiga ko‘rsatgan ta’sirini baholashdir.Akademik litseylar uchun samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul yechim bo‘lib, o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga, amaliy faoliyatga tayyorgarligiga va fan bo‘yicha motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularni an’anaviy laboratoriyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llash fizika fanining murakkab mavzularini o‘rgatishda yuqori samaradorlikka erishishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: *virtual, LabWIEV dasturi, PhET sayti, App Store‘da ta’lim.*

Аннотация. Во многих лицеях нехватка оборудования для преподавания физики, ограниченная лабораторная база, высокие требования к технике безопасности и невозможность проведения реальных экспериментов в условиях дистанционного обучения снижают эффективность традиционных лабораторных занятий. Поэтому важно развивать теоретические знания и практические навыки учащихся, интегрируя виртуальные лаборатории в образовательный процесс. Целью исследования стала разработка и оценка влияния виртуальных лабораторных работ на обучение учащихся по физике с использованием программного средства LabWIEV. Это эффективное и экономичное решение для академических лицеев, которое положительно влияет на обучение учащихся, подготовку к практическим работам и мотивацию к изучению естественных наук. Их использование в сочетании с

ISSN: 2992-9210

традиционными лабораториями обеспечивает высокую эффективность преподавания сложных тем по физике.

Ключевые слова: *виртуальный, программа LabWIEV, сайт PhET, образование в App Store.*

Annatation. In many lyceums, the lack of equipment for physics, limited laboratory infrastructure, high safety requirements, and the inability to conduct real experiments in distance learning reduce the effectiveness of traditional laboratory classes. Therefore, it is important to develop students' theoretical knowledge and practical skills by integrating virtual laboratories into the educational process. The aim of the study was to develop and evaluate the impact of virtual laboratory work on student learning in physics using the LabWIEV software tool. It is an effective and cost-effective solution for academic lyceums, which has a positive effect on student learning, preparation for practical work, and motivation in science. Their use in combination with traditional laboratories ensures high efficiency in teaching complex topics in physics.

Keywords: *virtual, LabWIEV program, PhET website, education in the App Store.*

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimi keng ko‘lamli modernizatsiya va raqamli transformatsiya jarayoniga kirib bormoqda. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi (2030) kabi normativ hujjatlar ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishni ustuvor vazifa qilib belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida quyidagi jumlalar mavjud: “Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta’lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Jumladan, fizika fani bo‘yicha zamonaviy darsliklarni yaratish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, o‘quv adabiyotlarining mazmuni fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasini yetarli qamrab olmagan, masalalar to‘plami, praktikum, laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha qo‘llanmalar, multimedia dasturlarini yaratishga e’tibor qaratilmaganligi ta’kidlangan”[1].

Ko‘plab akademik litseylarda optik jihozlarning yetishmasligi, laboratoriya infratuzilmasining cheklanganligi, xavfsizlik talablarining yuqoriligi va masofaviy ta’lim sharoitida real tajribalarni o‘tkazish imkoniyatining yo‘qligi an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligini pasaytiradi. Shu jihatdan virtual laboratoriyalarni akademik litseylar o‘quv jarayoniga integratsiya qilish pandemiyadan keyingi davrda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Akademik litseylar uchun joriy etilgan yangi o‘quv dasturi (Fizika, 2024) optika bo‘limidagi mavzularni chuqur o‘rganish, tajribalar va laboratoriya mashg‘ulotlari orqali ilmiy metodni egallashga

ISSN: 2992-9210

alohida e’tibor qaratadi [2]. Jahon tajribasida virtual laboratoriyalar amaliy faoliyatni takrorlovchi, murakkab hodisalarni vizual va interaktiv tarzda namoyish etuvchi didaktik vosita sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Xususan, PhET Interactive Simulations, Labster, OpticsLab va boshqa platformalar talabalarning abstrakt tushunchalarni o‘zlashtirishini sezilarli darajada yaxshilashi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Valentyna Kolodii va boshqa 2025 yil tadqiqotida Ilmiy manbalar va metodik hujjatlar (PhET, Labster, VLabs, eScience Labs, Molecular Workbench va Simulab) tahlili asosida oltita virtual laboratoriya platformasi tanlangan. Tadqiqot davomida ularning xususiyatlari aniqlangan[3]. (G.M. Sharifov., 2022 yil) tadqiqotida, litseydagi yettinchi sinf o‘quvchilari orasida mexanik harakatni o‘qitishga virtual laboratoriyalarning ta'siri qoniqarli degan xulosa qilingan[4].

Youssef Menchafou va boshqalar 2024 yil tadqiqotda Marokash o‘rta maktablarida fizika konsepsiyalarini o‘qitishda VLABlarning samaradorligi o‘rganilgan hamda VLABlar yuzma-yuz o‘qitishda qo‘llaniladigan an’anaviy yondashuvga, shuningdek, masofaviy o‘qitish paytida video yoki PDF orqali simulyatsiyalar va eksperimental mashg‘ulotlarga alternativa sifatida foydalanish taklif qilingan[5]. Tshering Penjor va boshqlar 2022 yil tadqiqotida fizikada simulyatsiyadan o‘qitish usuli sifatida foydalanish ularni fizikada qiyin tushunchalarni o‘rganishga undashi hamda simulyatsiya yondashuvi an'anaviy darslikka yo‘naltirilgan nutq va bo‘r bilan o‘qitishga nisbatan talabalarning kontseptual tushunchalarini yaxshilashning samarali usuli hisoblanishi ta’kidlangan [6], Ashadul Halder va boshqlar 2025 yil tadqiqotida laboratoriya ta’limini yaxshilash uchun mo‘ljallangan onlayn simulyatsiya platformasiga qaratilgan.Shuningdek STEM fanlarida samarali raqamli o‘quv vositalari uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin ta’kudlangan [7].

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litseylarda fizika fanini virtual laboratoriya ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda qo‘llanib kelinayotgan pedagogik dasturiy vositalar majmuasini avval Beysik tilida, keyinchalik informatika fanining istiqboliga qarab, Paskal, Delfi, Java, C++ programmalashtirish tillarida elektron ta’lim resurslari yaratilgan.

2001-yilda Tabiiy fanlar yo‘nalishida Nobel mukofotining laureati, «Physics Education Technology» (PhET) sayti asoschisi K.Viman tomonidan. PhET saytida har xil mavzularga oid modellar mavjud bo‘lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan [8].

Xususan, fizika faniga oid 90 dan ortiq modellar mavjud; biologiya faniga oid 10 dan ortiq modellar mavjud. (1-rasmga qarang).



1-rasm. PhET dasturining umumiy ko‘rinishi

ISSN: 2992-9210

App Store‘da ta’lim uchun Hozirgi kunda 200 mingdan ortiq o‘rgatuvchi ta’lim dasturlari mavjud bo‘lib, bu dastur-ilovalar asosan tillarni o‘rganish, ikkala miya yarim sharlarini ishlatishda ko‘maklashuvchi ilovalar, turli ta’limiy o‘yinlar asosida vizual o‘rgatuvchi dasturlardan tarkib topgan. Google va Apple kabi yirik kompaniyalar ushbu raqamli ta’lim tendensiyasini qo‘llab-quvvatlaydilar, maktablar uchun maxsus planshetlar va noutbuklarni ishlab chiqaradilar. Masalan, Apple ko‘plab o‘quv dastur-lari qatorida yangi iPad qurilmasini chiqardi. Apple ushbu planshetlardan darslarda foydalanishlarida maktablar uchun maxsus chegirma taklif qildi. Boshqa tomondan, Google-texnologiya orqali bilim berishga yordam berish uchun shunga o‘xshash maqsadga ega Chromebook‘ni chiqardi. Bundan tashqari, siz maktab uchun o‘quv dasturini yaratishingiz èki kelishib olishingiz va uni planshetlarga moslashtirishingiz mumkinrahbarligida talabalarning kashfiyot bosqichida qo‘llanilgan.)va uning amaliy natijalariga e’tibor qaratgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida laboratoriya ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Laboratoriya ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi

ISSN: 2992-9210

Fizika faniga doir virtual laboratoriya ishlari, namoyish tajribalar to‘plami, elektron darslik, dars ishlanmalar va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish kerakligi hamda dars jarayonini tashkil etishda murakkab fizik jarayonlarni vizuallashtirish, ko‘rgazmalilikni ta’minlash orqali o‘quvchilarni nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etishlari uchun dasturiy vositalar yordamida fizika fanidan virtual laboratoriya mashg‘ulotlari majmuasini ishlab chiqish kerakligi xulosa qilindi.

LabVIEW (Laboratorya Virtual Instrumentation Yengineering Workbench-uzb. Muhandislik ishi uchun virtual asbobsozlik laboratoriyasi) “National Instrumens” (AQSh) kompaniyasi tomonidan yaratilgan «G» dasturlash tilida ishlaydigan dasturlash tili va platformasidir.

LabVIEW dasturiy vositasi grafikli bo‘lib, unda dastur matnli emas, ya’ni dastur tuzish uchun maxsus panellarga o‘rnatilgan amallar va funksiyalarga maxsus vazifa yuklatilgan, kerakli kirish va chiqishlarni mos holda axborot uzatish ishlari bilan tutashtirish yetarlidir[9]. LabVIEW dasturiy vositalash muhitining hozirda eng zamonaviy modifikatsiyasi LabVIEW-2020 yoki LabVIEW 2022 hisoblanadi. Dastur rivojlanishi bilan kompyuter texnikasiga ham texnik jihatdan kattaroq talablar qo‘yadi. LabVIEW dasturiy vositasi muhitida yaratilgan dasturlar normal ishlashi uchun kompyuterga va operatsion tizimga yuqori talablar qo‘yadi.

LabVIEW 2020 yoki LabVIEW 2022 versiyalarda normal holatida ishlashi uchun kompyuter va operatsion tizim parametrlari quyidagicha bo’lishi kerak.

Laboratoriya ishlarini bajarishda quyidagilarni keltirish zarur:

1. Mavzuning qisqa nazariyasi, tajriba natijalarini hisoblaydigan ishchi formulani keltirib chiqarish;
2. Elektron asboblarni sxematik tasviri va ishlash vazifalarini;
3. Elektron asboblardan olinayotgan natijalar asosida o‘quvchilarga na’molum kattaliklarni topish bo‘yicha ko‘rsatma berish;
4. elektron qurilmalarni boshqarish, sodir bo‘layotgan jarayonlar haqida axborot beruvchi turli datchik, sensorlardan kelayotgan signallarni qayd qilish va qayta ishlash;
5. Ishni bajarish tartibi bo‘yicha ko‘rsatma berish;
6. Tajriba natijasini topish va xulosa chiqarish;

Laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha quyidagi talablarni qo‘yish kerak:

- tajriba maqsadini aniq ifodalashini bilishi va uni har tamonlama tahlil qilishi;
- tajriba natijasini hisoblashda elektron asboblardan olinayotgan tajribaviy natijalarni borishini tahlil qilishi;
- tajriba natijasini hisoblashda umumiy formula va undan ishchi formulani keltirib chiqarish;
- o‘lchashning absolyut va nisbiy xatoligini topishni hamda xulosa chiqarishni.

Absolyut qora jismning nur yutishi, nur chiqarishining temperaturaga bog‘liqligi LabVIEW dasturiy vositasida quyidagi ko‘rinishida ishlab chiqilgan (3-rasmga qarang)[9].

ISSN: 2992-9210



3-rasm.“Qora jism nurlanish quvvatining temperaturaga bog‘liqligini o‘rganish

Yenka Electricity and Magnetism dasturi. Yenka Electricity and Magnetism dasturi fizik jarayonlarni modellashtirishda elektrodinamika hamda magnitizm bo‘limlariga oid tajribalar yaratish va kuzatish imkoniyatlarini beruvchi dastur hisoblanadi (4-rasmga qarang).



4-rasm.

4-rasmda elektr zanjirining turli qismlaridagi tok kuchi shu qismdagi kuchlanishga to‘g‘ri proporsional ekanligi namoyish etiladi, Yenka Electricity and Magnetism optima dasturi kompyuterda fizikaviy jarayonlarni modellashtirish bilan birga, tajribada mavjud fizik kattaliklarning qiymatlarini katta aniqlik bilan hisoblashi mumkin hamda bu dasturdan interaktiv elektron doska, grafik planshet orqali mashg‘ulotlarni tashkil etiladi, shu bialn birga mustaqil ishlarni bajarishda shaxsiy kompyuterdan foydalansa bo‘ladi. Fizik hodisalarni 3D formatda kuzatish, tajribalar o‘tkazish hamda turli darajadagi murakkablikka ega jarayonlarni modellashtirish kabi vazifalarni bajargani uchun bu dastur kuchli dasturlardan biridir [10].

Fizika fanini o‘rganishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanilsa o‘quvchilarda quyidagi bilim va malaka ko‘nikmalari rivojlanadi:

– tajriba natijalarni kiritish, ishning qisqacha nazariy qismi va ishni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan tanishib nazariy bilimlarni takrorlaydi;

– iste’molchining quvvatini tok kuchi va unga qo‘yilgan kuchlanishlarni qanday kattaliklarni o‘lchashini hamda vazifalari nimadan iborat ekanligini tushunadilar;

ISSN: 2992-9210

– ulash simlari orqali iste’molchining quvvatini, tok kuchi va unga qo‘yilgan kuchlanishlarning elektr zanjir seximasini tuzishni bilib oladilar;

– kalitni uzish va ayni vaqtda, sekundomer tugmasini bosib, lampochkaning qancha vaqt yonib turgan *t* vaqtini jadvalga yozish orqali iste’molchining quvvatini hisoblash formulasini chuqurroq tushunadi [11], [12].

Xulosa. Ishda Fizika fanidan o‘quvchilarni nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish fanning o‘zlashtirishida ijobiy ta’sir ko‘rsatishligi aniqlandi. Keyingi ishlarda dasturiy vositalar yordamida virtual laboratoriyalarni ishlab chiqish va mazkur laboratoriyalarni samaradorligini o‘qituvchi va o‘quvchilar orqali o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari asosida baholash kerakligi xulosa qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. –Toshkent, 2021-yil 19-mart, PQ–5032–son Qarori //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021., 07/21/5032/0226-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 10-martdagi “Akademik litseylar uchun namunaviy o‘quv dasturi” to‘g‘risidagi 110-son buyrug‘i.

3. Kolodii V, Koreneva I, Prokopenko N, Huda O, Shaforost Y. Development of interactive virtual laboratories for distance learning in natural sciences. Eduweb. 2025;19(3):153-168. doi:10.46502/issn.1856-7576/2025.19.03.10

4. Sharifov GM. EFFECT OF A VIRTUAL PHYSICS LABORATORY ON STUDENTS’ ACHIEVEMENT IN LYCEUM. 2022;14(1).

5.Menchafou Y, Aaboud M, Chekour M. Effectiveness of Virtual Labs for Physics Learning in Moroccan Secondary Schools. Int J Interact Mob Technol IJIM. 2024;18(15):129-143. doi:10.3991/ijim.v18i15.4844

6.Penjor T, Utha K, Seden K. Effectiveness of Simulation in Teaching Geometrical Optics. Int J Engl Lit Soc Sci. 2022;7(5):088-094. doi:10.22161/ijels.75.16

7.Halder A, Banerjee S. Bridging the Gap Between Virtual and Physical Laboratories: A Web-Based Interactive Platform for Undergraduate Physics Practicals. arXiv. Preprint posted online July 14, 2025. doi:10.48550/arXiv.2507.10286

8. Lutfillayev U.M., Lutfillayev M.X.. Uzluksiz ta’limda kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual resurslarni web-ilovasidan foydalanib o‘qitish texnologiyalari. –Uzluksiz ta’lim, ilmiy-uslubiy jurnal. –Toshkent, 2021. –№4 –B. 44–47.

9. Maxmudov F.J., Ruzumuradov J.T., Qahharov S.Q. Kvant fizikasi bo‘yicha virtual laboratoriya ishlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi–№ DGU 22708 raqamli mualliflik guvohnomasi 5.11.2022-yilda ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

10. G.N.Yunusova o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan mavzularni Axborot texnologiyalari muhitida vizuallashtirib virtual o‘qitish monografiya Namangan 2019 y. 226 bet

11. O‘lmasova M.N. Fizika. Optika, atom va yadro fizikasi –3-kitob Toshkent 2010 y.

12. Axmedov Sh .B Dustmuratov M.N Fizika 2-qism, akademik litsey o‘quvchilari uchun darslik Toshkent. - 2019 yil.

ISSN: 2992-9210

JAMOA BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION - PEDAGOGIK ASOSLARI (BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARI MISOLIDA)

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ КОМАНДНОЙ РАБОТЫ (НА ПРИМЕРЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ)

INNOVATIVE PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF TEAMWORK COMPETENCE (ON THE EXAMPLE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS)

Nurmanova Dilfuza Jamilovna

Nurmanova D.J.,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
dilfuzanurmanova05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari professional tayyorgarligining ajralmas elementi sifatida jamoa bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik konsepsiyasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur kompetensiyaning funksional-struktur modeli hamda uning kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy-integrativ va refleksiv komponentlari aniqlashtiriladi. Shuningdek, kompetensiyani takomillashtirishda kollaborativ ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, raqamli kommunikatsiya vositalari va interfaol hamkorlik strategiyalarining pedagogik salohiyati kompleks baholanadi.

Kalit so‘zlar: *jamoa bilan ishlash kompetensiyasi; professional tayyorgarlik; funksional-struktur model; kollaborativ ta’lim; loyiha asosida o‘qitish; raqamli kommunikatsiya vositalari; interfaol hamkorlik strategiyalari; kognitiv komponent; kommunikativ komponent; ijtimoiy-integrativ komponent; refleksiv komponent; boshlang‘ich ta’lim talabalari; pedagogik innovatsiyalar.*

Аннотация. В статье системно исследуются инновационно-педагогические основы формирования компетенции командной работы как важной составляющей профессиональной подготовки студентов направления начального образования. В рамках исследования научно обоснована функционально-структурная модель командной компетентности, включающая её когнитивный, коммуникативный, социально-интегративный и рефлексивный компоненты. Кроме того, всесторонне анализируются педагогические возможности коллаборативного обучения, проектного обучения, цифровых коммуникационных средств и интерактивных стратегий сотрудничества, направленных на развитие данной компетенции.

Ключевые слова: *компетенция командной работы; профессиональная подготовка; функционально-структурная модель; коллаборативное обучение; проектное обучение; цифровые коммуникационные средства; интерактивные стратегии сотрудничества; когнитивный компонент; коммуникативный компонент; социально-интегративный компонент; рефлексивный*

ISSN: 2992-9210

компонент; студенты начального образования; педагогические инновации.

Annatation. The article scientifically examines the innovative pedagogical foundations for developing teamwork competence as a key component of the professional training of primary education students. The functional-structural model of this competence, including its cognitive, communicative, social-integrative, and reflective components, is defined. Furthermore, the pedagogical potential of collaborative learning, project-based instruction, digital communication tools, and interactive cooperation strategies in enhancing teamwork competence is comprehensively evaluated.

Key words: *teamwork competence; professional training; functional-structural model; collaborative learning; project-based learning; digital communication tools; interactive cooperation strategies; cognitive component; communicative component; social-integrative component; reflective component; primary education students; educational innovations.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida mamlakatimizning 2030-yilga kelib o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur PISA (The Programme for International Student Assessment) reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilangan. PISA xalqaro baholash tadqiqotlari umumta’lim maktablarining o‘n besh yoshli o‘quvchilari bilan o‘tkaziladi va unda o‘quvchilarning o‘qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi baholanadi. Mazkur savodxonlik turlari umumta’lim maktablarida dastlab boshlang‘ich ta’limda, keyin esa 5-7-sinflarda samarali tashkil qilinishi uchun umumta’lim maktablarining mavjud o‘quv-me’yoriy hujjatlari xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashtirilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining savodxonlik ko‘nikmalari PIRLS xalqaro baholash dasturi tomonidan baholanadi. PIRLS o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra PISA xalqaro baholash dasturlariga ancha yaqin turadi. Bu ikkala dasturda ham o‘qish, matematik savodxonlik tushunchalari mavjudki, ikki dasturda bu tushunchalar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga ko‘ra yondashuvi bilan farqlanadi. Bu bizga o‘quvchilarni boshlang‘ich ta’limda PIRLS xalqaro tadqiqotiga to‘g‘ri tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish kelajakda PISA xalqaro tadqiqotlarida ham o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash bilan bog‘liq to‘g‘ri xulosa chiqarishimizga asos bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ta’limga to‘g‘ri adaptatsiya bo‘lish, ijtimoiylashuv, o‘qish va matematik savodxonlik ko‘nikmalarini samarali shakllantirishda o‘qituvchilar zimmasiga o‘zining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash kompetetsiyasini rivojlantirish bilan bog‘liq kasbiy mas’uliyat yuklanadi. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchining zamonaviy ta’limdagi faoliyat ko‘lamini to‘g‘ri belgilashi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kun boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘qituvchi, tarbiyachi kabi faoliyat turlaridan tashqari tyutor, fasilitator, mentor, tadqiqotchi va ta’limning bevosita va bilvosita subyektlari bilan teng faoliyat olib boruvchi faol hamkor sifatida namoyon bo‘lmog‘i lozim.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilayotgan talablarni jamiyatning o‘zgaruvchan talablariga moslashtirishga harakat qilindi. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining psixologik fanlarga, xususan, bolalar psixologiyasiga oid

ISSN: 2992-9210

bilimlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan o‘qituvchilarga psixologlar biriktirildi va ularga tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalar uchun maxsus o‘quv kurslari tashkil qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida tajriba guruhlarida talaba-o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat tizimida ixtiyoriylik, majburiylik va neytrallik printsiplariga amal qilindi. Ixtiyoriylik printsipida o‘zaro munosabatlarda talaba tomonidan faollik, mustaqillik, shuningdek, ochiqlik va xayrixohlik kuzatildi. Majburiylik printsipida talabaning faolligi, harakatlari faqat o‘qituvchining majburiy harakatlari ta’siri ostida sodir bo‘ldi. O‘quvchilar doimo xavotirda bo‘lishib, o‘qituvchining qattiq talablaridan, so‘zlaridan xafa bo‘lish holatlari kuzatildi. Bunday printsip ko‘proq o‘zlashtirishda sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgan talabalar bilan ishlashda qo‘llanildi. O‘zlashtirishda u darajada faollik ko‘rsatmayotgan talabalar bilan ko‘proq ixtiyoriylik printsipida ishlandi. Bunda ba’zi o‘quvchilarda o‘quv jarayonida sodir bo‘layotgan narsalarga nisbatan passivlik va befarqlikni ko‘rish mumkin bo‘ldi.

Shuningdek, tajriba guruhlariga jalb etilgan professor-o‘qituvchilardan talabalarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi lozimligi ta’kidlandi:

- ✓ o‘zaro munosabat turi va o‘quvchilarda intellektual fazilatlarning rivojlanish darajasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini inobatga olish;
- ✓ o‘zaro munosabat jarayoni barcha psixik jarayonlarga ta’sir qilishiga e’tibor qaratishi;
- ✓ o‘zaro aloqada o‘quvchilarni ham muloqotni o‘rnatish, ham o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun turli xil rag‘batlantirish shakllaridan foydalanish hal qiluvchi rol o‘ynashini e’tibordan qochirmaslik;
- ✓ o‘zaro munosabatning eng samarali turi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanishini inobatga olish: munosabatning aniqligi; hissiy yaqinlik; aqliy aloqa (o‘zaro manfaatdorlik);
- ✓ o‘qituvchi tomonidan pedagogik rahbarlik doimo o‘quvchilarning kognitiv-bilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan hissiy holatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lishi kerakligi yoddan chiqarmaslik talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlarida professor-o‘qituvchilarga pedagogikaga mexanik yondashuv va avtoritar pedagogika elementlaridan voz kechish, dars mashg‘ulotiga ko‘proq ijodiy jarayon sifatida qarash, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlarini rag‘batlantiruvchi, adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan metodlardan foydalanish tavsiya etildi. Tajriba-sinov davrida mazkur jarayonga jalb qilingan o‘qituvchilarga dars mashg‘ulotlarini olib borishida foydalanishlari uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur tavsiyalarni darajalash maqsadida talabalarning fikrlari so‘rov asosida o‘rganib chiqildi va so‘rov natijalariga ko‘ra tavsiyalar jami 100 ballik tizimda qo‘yidagicha darajalandi (1-jadval).

ISSN: 2992-9210

1-jadval

Tajriba guruhlarida professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini olib borishlari yuzasidan tavsiyalar

№	Dars mashg‘ulotini tashkil qilish bo’yicha tavsiyalar	Tavsiyaning talabalar tomonidan darajalanishi (ball)
1	O‘qituvchining o‘quvchilarga o‘z fikrlash tarzini ro‘kach qilib, ulardan ham shunday fikrlashni talab qilishdan tiyilishi	15
2	Turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish, o‘qitish jarayonida mavjud bilimlarni yodlash va xotirada saqlashdan ko‘ra, masalaning mohiyatini tushuntirishga e’tiborni qaratish	14
3	O‘quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish	13
4	O‘quvchilarni yangicha fikrlari bilan kulgiga qolmasligiga ishontirish	13
6	O‘quvchilarda mohiyatga yetib kelishning yangi yo‘llarini qidirishga rag‘bat uyg‘otish, bunda ularga xatoga yo‘l qo‘yishlari tabiiy hol ekanligini va bundan qo‘rqmaslik kerakligini tushuntirish	10
7	O‘quvchilardagi ijodiy fikrlash tarzining har qanday ko‘rinishlarini rag‘batlantirish	11
8	Bir nechta masalani bir usulda yechishdan ko‘ra, bir masalani bir nechta usullar bilan yechishga qaratilgan metodlardan foydalanish	10
9	Har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘zlarida ishonch hissini uyg‘otish	8
10	O‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash	7
JAMI		100

Tajriba-sinov ishlarining boshida talabalarining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasi bo‘yicha mavjud bilim va malakalarini aniqlash bo‘yicha sinov o‘tkazildi. Sinovda boshlang‘ich ta’lim metodikasining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, quyidagicha yondashildi:

a) tarbiyaviy ishlar metodikasi;

b) bolalar psixologiyasini bilish darajasi;

v) dars jarayonidagi muloqot sifati omillariga tayanishi;

d) o‘quvchilar jamoasi bilan kuzatiladigan interaktiv munosabat shakllarini bilishi va unga amal qilishi.

Talabalarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash ko‘rsatkichi bo‘yicha olingan dastlabki ma’lumotlarga asosan ularning qoldiq bilimlari tashxislandi va tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan professor-o‘qituvchilarga dars mashg‘ulotlarini tashkil quyidagi texnologiya va modellar asosida dars mashg‘ulotlari tashkil qilishlari lozimligi uqtirildi. Har bir texnologiya va modelning mazmuni, undan ko‘zlangan maqsad borasida tushuntirish ishlari olib borildi.

1. Muammoli ta’lim texnologiyasi.
2. Evristik pedagogik texnologiyalar.
3. Mantiqiy tayanch konspektlarning qo‘llanilishi.

ISSN: 2992-9210

4. Tanqidiy tafakkurni rivojlanirish texnologiyasi.
5. Loyihalash texnologiyasi (xorij tajribasi asosida).
6. Juftlida ishlash texnologiyasi.
7. Moslashtirilgan (adaptiv) ta’lim modeli (xorijiy tajriba asosida).

Ushbu texnologiya va modellar boshlang‘ich ta’lim dars mashg‘uloti va tarbiyaviy ishlar metodikasining spetsifikasidan kelib chiqib tanlanishi maqsadga muvofiq deb topildi va bu borada har bir dars mashg‘uloti yoki tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda o‘qituvchilar bilan muntazam fikr almashinuv yo‘lga qo‘yildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars mashg‘ulotlarining sifatiga va fanlarni o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar quyidagi so‘rovnoma asosida o‘rganildi. (3.2-jadval). Bunda tajriba guruhlaridagi talabalar tomonidan Samarqand viloyatidagi umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan so‘rovnomalar olindi. So‘rovnomaning talabalar tomonidan olinishi ularning mavzu va tadqiqot mohiyatini chuqurroq o‘rganishlariga asos bo‘ldi.

2-jadval

Boshlang‘ich ta’lim dars mashg‘ulotlarining sifatiga va fanlarni o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash so‘rovnomasi

№	O‘qishga va dars sifatiga ta’sir etuvchi omillar	O‘quvchining fikri
1	O‘qituvchingiz sizni dars mashg‘ulotiga qiziqtira oladimi?	
2	O‘qituvchingizning o‘quvchilarga nisbatan muomala madaniyati qanday?	
3	Ota-onangiz sizning o‘qishingizni doimiy ravishda nazorat qiladimi?	
4	O‘qishdan tashqari yana nima ishlar bilan band bo‘lasiz?	
5	O‘qishga munosabatingiz?	
6	Barcha sinfdoshlaringiz bilan kelisha olasizmi?	
7	O‘qish uchun oilangizda hamma sharoitlar bormi?	
8	O‘qish uchun maktabda hamma sharoitlar bormi?	
9	Darsliklaringiz yetarlimi?	
10	O‘qituvchingizning siz bilan munosabati yaxshimi?	
11	Ota-onangiz sizning o‘qishingizdan xabar olish uchun har oy maktabga keladimi?	

Ushbu so‘rovnomaning aynan tajriba guruhi talabalari tomonidan o‘tkazilishi ularning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda ko‘p qirrali jihatlarga e’tibor qaratishi bilan bog‘liq tushunchalarini kengaytirishga asos bo‘ldi. Ular bu so‘rovnoma orqali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga qiziqtira olishi, o‘quvchilarga xush muomalada bo‘lishi, ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilishi, o‘quvchining oilaviy aholida haqida yetarli xabardor bo‘lishi bilan bog‘liq umumiy maqsadga xizmat qiluvchi, lekin nisbatan o‘zaro uzoq faoliyat shakllari bilan shug‘ullanishlari lozimligini anglab yetdilar.

ISSN: 2992-9210

Tajriba guruhi talabalariga dars mashg‘ulotida o‘quvchilar bilan muloqot qilishning guruh bo‘lib, juft bo‘lib va kooperativ ijtimoiy shakllaridan maqsadga muvofiq foydalanish metodikasi o‘rgatildi. Ushbu shakllarning o‘rni bilan qo‘llanilishida o‘quvchilarning darsdagi faolligi oshadi, faol ishtirok esa, o‘z navbatida, bilimlarni mustahkamroq egallashga sabab bo‘ladi va natijada o‘zlashtirilgan bilimlar yodga muhrlanadi. Bundan tashqari o‘zgarchan ijtimoiy shakllar orqali o‘quvchilarning nafaqat muloqot olib borish qobiliyati oshadi, balki sinf o‘quvchilari jamoasi ichida ijtimoiy aloqalar ham rivojlantiriladi; bu hamkorlikda o‘rganish uchun motivatsiyaning oshishiga sabab bo‘lib, sinf o‘quvchilari jamoasi e’tiborini to‘liq darsga qaratadi. Demakki, ijtimoiy o‘zaro faoliyat darsga, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning oshishiga o‘z hissasini qo‘shadi va o‘zlashtirilgan bilimlarni yodda saqlash uchun yordam beradi.

Ijtimoiy shakllar va metodlarni to‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning darsdagi faol ishtirokini yuqori darajaga olib chiqishga sabab bo‘ladi; ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, mustaqil bilim olishiga turtki bo‘ladi. Boshqacha aytganda, o‘quv jarayoni uchun “javobgarlik” o‘qituvchidan sinf o‘quvchilari jamoasiga o‘tadi. Bunda kooperativ metodlar va ijtimoiy shakllarning o‘rni beqiyosdir.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida hamkorlikka yo‘naltirilgan ta’lim metodik aspektda uch bosqichda amalga oshirildi. Bunda fikrlash (1-bosqich), almashinuv (2-bosqich) va namoyish (3-bosqich) bosqichlari o‘zaro integratsiyalashgan holda talabalarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasini o‘zlashtirishlarini ta’minladi. Bu orqali nafaqat individual, balki hamkorlikdagi ta’limni amalga oshirish mumkinligi isbotlandi. **Fikrlash bosqchida** dastlab har bir talaba berilgan vazifani yakka tartibda bajarishi, bu esa undan o‘quv materiali ustida faol va burch hissi bilan ishlashini talab etishi kuzatildi. **Almashinuv bosqichida** guruhning barcha a’zolari birgalikda ishlashiga va kutilgan maqsad uchun birgalikda javobgar bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Ushbu ijobiy “bog‘liqlik” uchun o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va ko‘maklashish xos xususiyat ekanligi ma’lum bo‘ldi. **Namoyish qilish bosqichida** “ish” natijalari jamoada namoyish qilindi, taqqoslandi va imkon qadar takomillashtirildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida tadqiqot gipotezasining to‘g‘riligini tasdiqlashga qaratilgan metodikalar, texnologiyalarning bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash kompetensiyalarining shakllanishiga ta’sir imkoniyatlari sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqotning gipotezasi sifatida boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash kompetensiyalari o‘quvchilarning ta’limga adaptatsiya bo‘lish jarayonini yaxshilashga, ularda maktab va ta’lim jarayoniga nisbatan xayrixoh munosabatini shakllantirishga, ta’lim va tarbiya sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan bog‘liq ilmiy farazning to‘g‘riligini tadqiq etishdan iborat qilib belgilangan.

Tadqiqotning konsepsiyasi unda asoslanishi lozim bo‘lgan ilmiy yangiliklar chiqariladigan pastulatlar, ilgari suriladigan qarashlarning umumiy-falsafiy xususiyati, tadqiqotning fundamental, aniq va boshqa ilmiy sohalardagi izlanishlardan farqlovchi belgisidir.[6] Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda tadqiqotimizning konsepsiyasini quyidagicha izohlash mumkin. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining o‘quvchilar jamoasi bilan muvaffaqiyatli ishlashi hamkorlik pedagogikasining didaktik-kompetensiyaviy talablarini takomillashtirish, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning interaktiv ijtimoiy shakllarini pedagogik asoslash mazkur **tadqiqot ishining ilmiy-nazariy konsepsiyasini** tashkil qiladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi tadqiqot ilmiy gipotezasining to‘g‘riligini aniqlashtirishdan iborat.

Tajriba-sinov ishlarining **vazifalari** sifatida quyidagilar belgilandi:

[6] Alemasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. –B.13.

ISSN: 2992-9210

bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalarning samaradorligini sinovdan o‘tkazish;

o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash bo‘yicha interfaol ijtimoiy shakllardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashtirish;

tanlangan metodika va texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik shart-sharoitlarini yaxshilash va didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish borasida muayyan xulosalarga kelish;

pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish;

pedagogik tajriba-sinov maydonchalarini aniqlashtirish;

tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan professor-o‘qituvchilarga tadqiqotning maqsad-mohiyatini, tajriba ishlarining mazmunini tushuntirish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarining monitoringgini olib borish;

pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlangan kamchiliklarni jarayonning o‘zida bartaraf qilish va sinov ishlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

talabalarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash bo‘yicha kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida tajribadan oldin va keyin sinov ishlarini amalga oshirish;

tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning pedagogik tajriba-sinov ishlari **predmeti** sifatida quyidagilar belgilandi:

bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash bo‘yicha tushunchalari, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari;

o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda yuzaga keladigan muammoli vazuyatlarni bartaraf etish borasidagi kreativligi;

o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasi;

o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning ta’limiy vositalari.

Tadqiqotning pedagogik tajriba-sinov ishlarida nemis olimi V.Halletning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining didaktik kompetensiyalari modeli[7] asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi. Olim boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining didaktik kompetensiyalarini shartli ravishda ikkita katta guruhga bo‘ladi: 1) dars jarayoniga daxldor kompetensiyalar; 2) umumpedagogik va didaktik kompetensiyalar.

Biz pedagogik tajriba-sinov ishlarida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o qituvchilarda dars jarayoniga daxldor kompetensiyalar sifatida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishni maqsad qildik:

- fanga doir kompetensiyalar;
- fan-didaktik kompetensiyalar;
- diagnostik kompetensiyalar;
- metodik kompetensiyalar;
- o‘qitish shakllarini o‘zlashtirganlik;
- baholash kompetensiyasi.

Umumpedagogik va didaktik kompetensiyalar sifatida talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish maqsad qilindi:

- tarbiyaviy kompetensiyalar;
- shaxslararo va ijtimoiy kompetensiya;
- rejalashtirish va boshqarish kompetensiyasi;
- rivojlanish kompetensiyasi;
- kommunikativ kompetensiya.

[7] Hallet W. Didaktische Kompetenzen. Lehr- und Lernprozesse erfolgreich gestalten. – Stuttgart: Klett, 2006. –P. 36.

ISSN: 2992-9210

O‘qituvchilarning o‘quvchilar jamoasi bilan samarali ishlashlarini ta’minlaydigan yana bir omil bu sinf xonasida qulay muhitni tashkil qilishdan iborat. Bunda turli munosabatlarni qulaylashtirish nazarda tutilishi lozim: A – o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati; B – o‘qituvchi – ta’lim vositalari munosabati; S – o‘quvchi – o‘quvchi munosabati; D – o‘quvchi –ta’lim vositalari munosabati. Qachonki, sinf xonasining metaforik muhiti mana shu munosabatlar uchun qulay harakatlanish imkonini bersa, mashg‘ulot samaradorligi yaxshilanadi. Shu munosabat bilan bo‘lajak o‘qituvchilarga dars mashg‘ulotlari jarayonida sinf xonasidagi mikro muhitni qulaylashtirish, bunda standart holatlardan voz kechish va o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda o‘zaro yaqinlikni ta’minlaydigan elementlarga e’tibor qaratish bilan bog‘liq tushuntirishlar olib borildi. Zero, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi va uning sinf o‘quvchilari jamoasi orasidagi o‘zaro harakat, faoliyat va faollik sinf xonasining jihozlanishi, stol-stullar joylashuvi orqali ham ta’minlashning ko‘plab imkoniyatlar (2.4-rasmga qarang) amalda mavjud bo‘lib, ulardan o‘qituvchi darsning maqsadidan kelib chiqqan holda samarali foydalanishi butun dars jarayoniga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Interaktivlik, ya’ni o‘zaro harakat, ishtirokchilararo faoliyat deganda o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi, o‘zaro o‘quvchilararo hamda o‘quvchilar va o‘quv materiallari orasidagi ijtimoiy aloqa, munosabatlar nazarda tutiladi. Ushbu tushuncha o‘quvchilar va o‘qituvchi yoki o‘quvchilar o‘zaro bir-birlari bilan qay tarzda harakatlanishlari, munosabatga kirishishlari va bu orqali bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlarini ifodalaydi. Dars ishtirokchilararo faoliyat noverbal kommunikatsiya va muloqotni rad etish kabi holatlarni ham o‘z ichiga oladi. Ishtimoiy shakllar va metodlar, mashq va topshiriqlar sinf jamoasining o‘zaro faoliyatini boshqaradi. Sinf xonasining mikromuhitini darsning maqsadiga muvofiqlashtirilishi, partalarning **“П”, “U”, “O”, “X”** kabi nostandart shakllarda joylashtirilishi frontal dars, yakka tartibda ishlash mashqlari, juft bo‘lib ishlash, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlarni qo‘llashda qo‘l keladi. Bunda o‘zaro muloqot qilish (o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘qituvchi-texnik vositalar, o‘quvchi-texnik vositalar kabi) qulaylashadi va o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlariga diqqatini qaratishi kuchayadi, chalg‘ish holatlarining oldi olinadi.

Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarda sinf xonasi mikromuhitining ta’lim jarayoni sifatiga ta’sirini o‘z tajribalarida bevosita ko‘rishlarini ta’minlash, ularda zarur ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida dars mashg‘ulotlari professor-o‘qituvchilar tomonidan yuqoridagi shakllarda olib borildi va dars mashg‘uloti oxirida ularning qo‘llangan shakllarning afzalliklari, qulayliklari borasidagi fikrlari o‘rganildi. Bu esa har bir shakllarning o‘ziga xos jihatlarini umumlashtirish va talabalarning xotirasida qolishini ta’minlashga xizmat qildi. Belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq pedagogik tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

Tayyorgarlik bosqichi;

Asosiy bosqich;

Yakunlovchi bosqich.

Tayyorgarlik bosqichining vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasini rivojlantiruvchi ilmiy, pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy-nazariy asoslarni o‘rganish;

- tajriba-sinov ishlarining gipotezasini aniqlash;

- pedagogik tajriba-sinov ishining rejasi va dasturini ishlab chiqish;

- tajriba-sinov ishlari olib boriladigan ob’yektlarni belgilash hamda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga muvofiqlashgan anketa va testlarni klassifikatsiyalash;

- belgilangan reja asosida tajriba-sinovni o‘tkazishga doir topshiriqlari ishlab chiqish;

- talabalarning tadqiqot o‘tkazishgacha bo‘lgan o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash darajasini maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnomalar, suhbatlar, test sinovlari materiallarga muvofiq tahlil etgan va tajriba sinov maqsadidan kelib chiqqan holda zaruriy metodikalarni aniqlashtirish;

- bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasini rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi mezon va ko‘rsatkichlarni aniqlash;

- bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik shartlarni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish;

ISSN: 2992-9210

- bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasini rivojlanganligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘rganish;

- talabalarni test va so‘rovnomaga ob’yektiv javob berishlari yuzasidan amaliy seminar mashg‘ulotini o‘tkazish va treninglar asosida faolligini oshirish;

- tajriba-sinovda qo‘llaniladigan materialni nazariy tahlil va sintez qilish;

- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy holatlarni prognozlashtirish hamda muqobil dasturlarning zahira variantlarini ishlab chiqish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash bo‘yicha tajriba-sinovdan oldingi ko‘nikmalarini aniqlashtirish.

Asosiy bosqichning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- pedagogik tajriba-sinov ishlarida ko‘zda tutilgan asosiy chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish:

- tajriba guruhlarida talabalarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga o‘rganishga qaratilgan dasturda belgilangan vazifalarni bajarish jarayonini tashkil qilish;

- tajriba-sinovga jalb etilgan tajriba guruhlarini muntazam kuzatish va monitoringini yuritish;

- tajriba-sinovga jalb etilgan guruhlarga tadqiqotni keyingi tashkil etiladigan bosqichlari yuzasidan zaruriy ma’lumotlarni berib borish;

- tajriba-sinov jarayonida kuzatilgan ayrim kamchiliklarni bartaraf qilish;

- tajriba-sinov darstur va rejasiga tegishli diognostik yondashuv grafigini maqsadga muvofiq hamda real ijtimoiy-pedagogik vaziyatdan kelib chiqqan holda tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish;

- tajriba guruhlarida talabalarning nostandart tafakkur tarzini o‘rganishga qaratilgan test va so‘rovnomalar o‘tkazish;

- tajriba-sinov ishlari sifati va samaradorligi nuqtai nazaridan taklif va tavsiyalar, ko‘rsatmalar ishlab chiqish hamda tadqiqot o‘tkazish jarayoniga joriy etish;

- tajriba-sinov natijalarining birlamchi ma’lumotlarini qayta ishlash va tahli qilish.

Yakunlovchi bosqichning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- talabalarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikasini rivojlantirish yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarini muvofiqlashgan holda davom ettirish;

- talabalarda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash borasidagi tajribalarini shakllantiruvchi metodikalarni dars mashg‘ulotlarida qo‘llanilishini monitoring qilish;

- tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichi natijalarini tartibga solish va tahliliy yondashuvni amalga oshirish;

- tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarning tajriba-sinovdan keyingi ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish;

- tajriba-sinov natijalarini qo‘yilgan ilmiy gipotezaga (isbotlash) muvofiqlik darajasi bo‘yicha ikkilamchi qayta ishlash usuli orqali tahlil etish;

- tajriba-sinov natijalarining nazariy jihatdan tahlilini tizimlashtirish orqali amaliy faoliyatga muvofiqligini tekshirish;

- tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik tahlilini amalga oshirish va natijalarni umumlashtirish;

- pedagogik tajriba-sinov ishlarini yakunlash va natijalarni ilmiy tadqiqot ishida aks ettirish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida tashkil qilindi, tadqiqot gipotezasining to‘g‘riligini tasdiqlashga qaratilgan metodikalardan foydalanildi, tajriba-sinov davomida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etildi va monitoringi yuritildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturi uning maqsadiga muvifiq kelishi va amaliy ahamiyatining samaradorligi ekspertizadan o‘tkazildi. Amaliyot uchun tavsiya etilayotgan maxsus dastur va metodikani ekspertizadan o‘tkazish uchun ekspert

ISSN: 2992-9210

guruhi a’zolari uchun sxema-xarita ishlab chiqildi va ekspert guruhlarining a’zolariga maxsus ishlab chiqilgan sxema-xarita taqdim etildi (3-jadval).

EKSPERTIZA SXEMA-XARITASI		
№	MEZONLAR	Ball
1	MDM g’oyaviy mazmunining puxta asoslanganligi	30
2	Talabalarni MDM bilan tanishtirish, ular mazmunida ilgari surilgan g’oyalarga og‘ishmay amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish borasidagi ehtiyojni qondira olish imkoniyatining mavjudligi	25
3	MDMning ishlab chiqilishida talabalarning ma’naviy-intellektual darajasi va psixologik o‘ziga xosliklarining inobatga olinganligi	15
4	MDM g‘oyalarining amaliyotga tatbiq etilishi uchun POTMning zarur PSHSHga egaligi	10
5	Sinov uchun tavsiya etilayotgan MDMni respublika miqyosida POTMda amaliy jihatdan qo‘llash mumkinligi va kutilgan samaraga erishish imkoniyatining yuqoriligi	20
JAMI		100
Izoh: sxema-xaritada berilgan qisqartma so‘zlar quyidagicha o‘qilsin: MDM-maxsus dastur va metodika; POTM – pedagogik oliy ta’lim muassasalari; PSHSH – pedagogik shart-sharoit Ekspert guruhi a’zosi:		
F.I.Sh. Imzo “_____” _____ 2021 yil		

3-jadval. Maxsus dastur va metodikani ekspertizadan o‘tkazish sxema-xaritasi

Tajriba-sinov ishlari uchun ishlab chiqilgan maxsus dastur va metodika ekspertiza komissiyasi a’zolaridan ijobiy xulosani olgandan keyingina tajriba-sinov ishlariga tatbiq etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni

2. Alemasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. –B.13.

3. Hallet W. Didaktische Kompetenzen. Lehr- und Lernprozesse erfolgreich gestalten. – Stuttgart: Klett, 2006. –P. 36.

4. Баймухамедов Ш.Р. Педагогические технологии формирования компетенций студентов начального образования. Алматы: КазПИ. 2020.

5. Васильева И.В. Коллаборативное обучение в профессиональной подготовке педагогов. Москва: Просвещение. 2019.

ISSN: 2992-9210

6. Джумаев А.А. Инновационные методы формирования командной компетенции в высшей школе. Тошкент: Фан. 2021.

7. Johnson D., Johnson R. Cooperative Learning: The Foundation for Active Learning. Boston: Pearson. 2019.

8. Kagan S. Collaborative Learning Techniques: A Handbook for College Faculty. San Francisco: Jossey-Bass. 2018.

9. Петренко Т.В. Интерактивные методы обучения в подготовке учителей. Санкт-Петербург: Питер. 2020.

10. Шарипова Л.М. Проектная деятельность студентов как средство формирования профессиональных компетенций. Самарканд: Университет. 2018.

11. Столяренко В.В. Цифровые технологии в педагогическом образовании. Москва: Академия. 2020.

12. Freeman D., Johnson K. Second Language Teacher Education: A Sociocultural Perspective. New York: Routledge. 2019.

ISSN: 2992-9210

“YANGI O‘ZBEKISTON” YOSHLARI HAYOTIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR JARAYONINING IJTIMOIY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОЦЕССА ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ «НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»

SOCIAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PROCESS OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN THE LIFE OF THE YOUTH OF "NEW UZBEKISTAN"

Radjapov Abror Asadullayevich

Radjapov A.A.,
KatDPI, “ Aniq fanlar va sport” kafedrasi o‘qituvchisi
abrorradjapov@01gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, bugungi kun yaьni globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda yoshlar maьnaviyatiga taxdid va yoshlarni maьnaviyatiga taxdidlardan ogoxlantiruvchi va ximoya kiluvchi ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonining ijtimoiy pedagogik xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Ma’naviyat va ma’rifat, globallashuv, pedagogik xususiyat, ommaviy madaniyat, Psixologiya, texnologiya.*

Аннотация. В статье рассматриваются социально-педагогические особенности процесса духовно-просветительской работы, направленной на предотвращение и защиту духовности молодежи в эпоху нарастающих процессов глобализации.

Ключевые слова: *Духовность и образование, глобализация, педагогические особенности, массовая культура, психология, технологии.*

Annotation: In today's era of increasing globalization processes, the threat to the spirituality of youth and the socio-pedagogical features of the process of spiritual and educational work that warns and protects youth from threats to the spirituality of youth are highlighted in the article.

Key words: *Spirituality and enlightenment, globalization, pedagogy, mass culture, Psychology, technology.*

KIRISH

Mamlakatimizda Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat birgina tashkilotning vazi fasi emas, balki barcha davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-siyosiy vazifasi etib belgilangan. Ma’naviyat, madaniyat va san’at muassasalari ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ijtimoiy sub’ektlari sifatida turli yo’nalishlarda bevosita ishtirok etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo’lib turibdi” – deb aytgan so’zlari yoshlarni diniy ekstremizm va terrorizm balosidan ogohlantirishimizda bir qator aniq vazifalarni belgilab berdilar. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 yanvardagi 3-sonli “2016 yilda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, konfessiyalar va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga

ISSN: 2992-9210

qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi” va va 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi PQ-3160 sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish talablarini qo’ydi.

Mamlakatimizda ma’naviyatni insonning o’zligini anglashidagi o’rni; ma’naviyatning, insonning jamiyat, davlat kuch-qudratidagi tutgan o’rni, ma’naviyatsiz hech qachon baxt-saodat bo’lmasligi, baxt-saodatga erishish uchun umumiy, milliy g’oya asosida bizning ko’pmillatli mamlakatimizda mustahkam ma’naviy makonni yaratish zarurligi to’g’risidagi dasturiy fikrlar izchil, bosqichma-bosqich ro’yobga chiqmoqda.

Bunda mahalla, maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta, oliy ta’lim, madaniyat va san’at muassasalarining g’oyaviy tarbiyaviy hamkorligigiga erishishlari – ijtimoiy faol insonlarni tarbiyalashning muhim shartidir. Bu hamkorlik sub’ektlari faoliyatining maqsad uyg’unligi, tarbiyaviy ta’sir ob’ektining bitta, (umumiy)ligi, ularning vazifalari orasidagi umumiylik va xususiylikning mavjudligidadir.

Albatta, har bir hudud o’ziga xosliklarga ega. Shu sababli har bir hududda olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda umumiylik bilan birgalikda faqat o’sha hududga xos bo’lgan xususiylik ham mavjud bo’ladi. Bu har bir hududning viloyat, tuman, shahar Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ish rejalari mazmuni, maqsadi, shakllari, vositalari, yo’nalishlarida aks etadi.

Masalan, mahalla fuqarolr yig’inlarida “mahalla-fuqaro”, “fuqaro-fuqaro”, “fuqaro-mahalla” shaklidagi gorizontal va vertikal ijtimoiy munosabatlar tizimi amalda mavjud. Biroq, masalaning ushbu ijtimoiy-pedagogik jihatini ta’minlashga qaratilgan metodik baza hali to’liq shakllangan emas. Buning uchun har bir mahallada aholining oilaviy muhiti, o’qishi, xulqi, munosabatlari, ta’lim muassasalarida aholining yetakchi qadriyatlari tizimini o’rganish, ijtimoiy faol, notiqlik qobiliyatiga ega fuqaro, yoshlarni saralab olib, maqsadga yo’naltiriib, ularni ma’naviy-ma’rifiy ishlarning faol sub’ektlariga aylantirish zarur. Bunda mahalla ma’naviy muhitini, jamoatchilik fikrini shakllantirish muhim o’rin egallaydi. Chunki bu muhit o’zaro gorizontal “fuqaro-fuqaro” va vertikal “mahalla-fuqaro” ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo’ladi va muntazam, ob’ektiv ta’sir ko’rsatadi. Masalan, mahallalarda tegishli komissiyalar ko’magida hayotning dolzarb masalalariga bag’ishlangan davra suhbatlarining mundarijasiga ma’naviy ehtiyojlar, axloqiy me’yorlarning shakllanishi, kiyinish madaniyati, vaqtdan foydalanish madaniyati, to’y-marosimlarni tejamkor o’tkazish, ma’naviy begonalashuvning oldini olish kabi masalalar bo’lishi mumkin. Bunday turdagi masalalarni muhokama qilish odatda aholi, yoshlarni hayotiy jarayonlarni jamoaviy tahlil qilish va baholash jarayoniga qiziqtiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan amalga oshirilgan “Hududlarning ma’naviy-ma’rifiy xaritasi” doirasidagi ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar davomida mahallalarda aholi, yoshlarning aktual ma’naviy ehtiyojlar ierarxiyasi o’rganildi. Olingan natijalar mavjud ma’naviy ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga oid qator ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qilishi aniqlandi. Zero, birinchidan, olib borilayotgan turli tarbiyaviy ishlar o’zining qat’iy, ilmiy asoslangan ijtimoiy pedagogik texnologik tizimiga ega emas. Ikkinchidan, yoshlar bilan ma’rifiy ishlarni olib borishda oila, mahalla, ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyoti o’rtasida metodik nomutanosibliklar bor. Bu esa ma’naviy tarbiya uchun zarur bo’lgan izchillik, sistemalilikni hamda targ’ibot ta’sirchanligini susaytiradi. Yoshlar xulq-atvorida “ommaviy madaniyat”ning ta’siri sezilmoqda. Bunga ularning mashaqqatli, qattiq iroda, tirishqoqlik talab qilinadigan ishlarga qo’l urishdan cho’chishlarida, o’z bilimi va mehnati bilan emas, balki ota-onalari sotib olib bergan qimmatbaho buyumlar bilan o’zlarini ko’rsatishni istashlarida namoyon bo’lmoqda.

ISSN: 2992-9210

Buning oqibatlari o’laroq, O’zbekiston ijtimoiy tarmoqlarida 2017 yil oxirida trendga aylangan “kuyovchak”, yoki Xalqaro press-klubning 2018 yil 19 mart kuni tilga olingan “alьfons-kuyov” sindromlarini keltirish mumkin.

Uchinchidan, tuman-shaharlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchan ijtimoiy pedagogik tizim bilan ta’minlangan holda olib borilishi kerak. Aholi, yoshlar hayoti, didi, tuyg’ulariga samarali ta’sir ko’rsatish uchun ularning kundalik hayotini, ularning ma’naviy ehtiyojlarini o’rganib, o’z kuchiga ishonch uyg’otish juda muhimdir. Bundan tashqari aholi, yoshlar uyda ham, mahallada ham, o’quv yurtlarida ham, yotoqxonada ham, hamma joyda bir xil, sog’lom ma’naviy muhit ta’siri ostida bo’lishi kerak. Bu esa ma’naviy-ma’rifiy faoliyat sub’ektlari faoliyatini ijtimoiy-pedagogik asosda texnologik muvofiqlashtirishni taqozo qiladi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishda har bir korxona, tashkilot va muassasaning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha rahbar o’rinbosari, mas’ullarining faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur lavozim o’zining qator shaxsiy va kasbiy talablariga ega. U o’zida tashkilotchilik, yuksak milliy mafkuraviy onglilik, tarbiya nazariyasi, uslubiyati, psixologiyasi bilimdoni va amaliyotchi, milliy va mahalliy madaniyat, tarixni yaxshi biluvchi, ijtimoiy faol ustoz va notiq bo’lishi lozim.

Shuningdek, u badiiy tadbirlar, kontsertlarni o’tkazish, gazeta, jurnal, TV materiallaridan tezkor foydalanish, ma’ruzalar, suhbatlar, konferentsiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, diskussiya, disput, matbuot konferentsiyalar, davra suhbatlarini tashkil qilish, ma’rifiy chiqishlarni jamoada tahlil qilish, rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish malakalariga ham ega bo’lmog’i lozim. Ayniqsa yoshlar bilan suhbat, uchrashuvlarni o’tkazish, nazariya bilan amaliyotni uyg’unlashtirish, ko’rgazmali qurollardan, ayniqsa, axborot texnologiyalari, planshetdan foydalanishni bilishi lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar muayyan tamoyillarga tayangandagina o’z samarasini beradi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar sirasiga milliy mafkuraviy yunaltirilganlik, ta’lim va tarbiya birligi, hayotiylik, yaxlitlik, ong va xulq-atvor birligi; amaliylik, ommaviylik, talabalar tashabbusini rag’batlantirish, ijodiy hamkorlik, o’zaro hurmat, bir-birini rag’batlantirish, “ommaviy madaniyat” ta’siriga qarshi ma’rifiy kurash, uzviylik, g’oyaviy va badiiy tarbiya omillari ta’sirining muvofiqlashganligi kiradi. Ayni vaqtda ayrim ziyolilarimiz, hatto olimlar tomonidan “ommaviy madaniyat” hodisasiga yo befarq, yo liberal munosabatga chorlash holatlari ham paydo bo’lmoqda. Falsafa fanlari doktori V.Alimasovning bir chiqishi [3] bunga misol bo’la oladi. Muallif maqolada “G’arbda qo’llaniladigan “ommaviy madaniyat” (mass culture) bizda ishlatiladigan “xalq madaniyati”ga to’g’ri keladi”, deydi. Lekin “ommaviy madaniyat”ni bundan 50 yillar oldin tadqiq qilgan atoqli bolgar olimi Bogomil Raynov o’zining “Ommaviy madaniyat”, degan fundamental asarida bu fikrni rad etadi. “Ommaviy madaniyat”, deydi olim, “eng avvalo va butun mohiyati bilan madaniyatning xalqchilligini to’la inkor qiladi”[4]

NATIJALAR

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar davomida kechuvchi ijtimoiy-pedagogik jarayon fuqarolar ijtimoiy hayotini to’g’ri tashkil qilishni, shaxsini jamoada, jamoa orali, jamoa fikri vositasida tarbiyalashni taqozo etadi. Buning uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlarning shunday shakllarini topish kerakki, ularning yordamida jamiyat va alohida olingan har bir insonga bir vaqtning o’zida va bir xil kuchda tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish mumkin bo’lsin. Bu esa bizni ma’naviy-ma’rifiy ishlarning milliy va xorijiy tajribalarini muttasil o’rganish va samarali foydalanishga undaydi.

Darhaqiqat, bugungi tahlikali davr milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini tinimsiz oshirib borishni talab qilmokda. Zero biz o’zimizning pirovard maqsadimizga erishish uchun zamon qanday tez va shiddat bilan o’zgarayotganini hisobga olgan holda, har qanday nohush harakat va muammolarning oldini olishimiz zarurdir.

ISSN: 2992-9210

Targ’ibot (arab. qiziqtirish, tarqatish) - keng ma’noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo’lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g’oya va qadriyatlarni targ’ib etishdir. Targ’ibot jarayonida fan, san’at, siyosat va mafko’ra yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor ma’noda, mafkura va siyosatni targ’ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ’ibot ilmiylik, konkretlilik, ob’ektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog’liqlik tamoyillariga asoslanish, tashkiliy jihatdan uyushgan bo’lishi lozim. Targ’ibot (lot. propaganda - tarqatilishi kerak bo’lgan ma’lumot) - og’zaki yoki ommaviy axborot vositalari orqali muayyan g’oyalarning jamoatchilik ongida ommalashtirishga yo’naltirilgan faoliyatdir.

Tashviqot – (arab. shavq-zavqlantirish), (lot. agitation - harakatga keltirmok) - ma’lum bir ijtimoiy guruh yoki ommani ko’zlangan maqsad sari faollikka undaydigan targ’ibot faoliyatidir. Tashviqotning og’zaki, nashriy va audio, video turlari mavjud bo’lib, u g’oyat ta’sirchan ijtimoiy-siyosiy kurash vositasi hisoblanadi. Barcha zamon na makonlarda ham, o’z xalqi kelajagini o’ylagan har qanday mamlakatda aholi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat, islohatlar, o’zgarishlardan xabardor qilib borilgan. Bu esa jamiyatni birlashtirish, umummilliy maqsadlar yo’lida safarbarlikni ta’minlab, davlat va jamiyat birligiga erishish maqsadlarga xizmat qiladi. Tashviqot shuningdek, odamlarga ta’sir o’tkazish maqsadida yozma va og’zaki shakllardagi undash, da’vat qilish, shu asosda ularning qalbida zavq-shavq, muhabbat yoki nafrat uyg’otishni o’z ichiga oladi.

Hozir ham diniy ekstremizm, xalqaro terorizm, egotsentrizm, vatansizlik, axloqsizlik g’oyalarini yangi_ XXI asr texnologiyalari bilan qurollangan holda targ’ib etilyapti. Vosita, shakl va maqsadlar o’zgarib borayotgan, turli nomlarda atalayotgan bo’lsa-da, ular zamirida muayyan g’oyalar targ’iboti yotibdi. Shuning uchun boshqalarning tinchligini buzish, barqaror taraqqiyotga xalal berishga yo’naltirilgan hamda milliy manfaatlarga qarshi qaratilgan bunday targ’ibotni vayronkor targ’ibot deymiz.

MUHOKAMA

Zamonaviy targ’ibot texnologiyalarini tanlashda, eng samarali yo’llardan biri — bu mulьtimediali yondashuvdir. Bunda ma’naviy-ma’rifiy faoliyat jarayonida yangi va an’anaviy texnologiyalardan foydalanib maqsadga erishishni ta’minlash mumkin. Texnologiyalarni tanlashda auditoriyaning intellektual darajasiga, tarbiyaviy faoliyat sohasining o’ziga xos tomonlariga e’tibor qaratish lozimligini alohida ta’kidlash zarur.

Metodik jihatdan targ’ibotchi va tinglovchilarning o’zaro muloqoti ikki turdagi ta’sirdan iborat bo’ladi. Birinchi tur ta’sir — tadbirning ma’lum bosqichida tinglovchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo’naltiruvchi savollar beriladi. Ikkinchisi - masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usuli ko’rsatiladi. Savollar va ko’rsatmalar soni taqdimot materiallarining ishtirokchilar tomonidan o’zlashtirilishiga bog’liq ravishda belgilanadi.

Kontent-xronologiya metodi. Psixologlarning ma’lumotiga tayansak, qatnashchilarning diqqatini dastlabki daqiqa davomidagina jamlab tura olish mumkin. Bu vaqtdan keyin ularda dastlabki paytdagi diqqat tarqala boshlaydi. Shuning uchun olti daqiqa mobaynida qatnashchilar bilan faol muloqot o’rnatib olishga erishish kerak. Ularning diqqatini jamlab tura olish uchun ma’ruzachi ritorikaning qonuniyatlaridan, notiqlik mahorati sirlaridan, xronologik nazorat metodidan xabardor bo’lishi maqsadga muvofiqdir.

Keys metodi. Misollar keltirish uchun auditoriyaga murojaat qilinishi ham qatnashchilarning diqqatini jamlashga hissa qo’shadi. Bunda misol keltirishni savol tariqasida so’rash, iltimos qilish mumkin. Demak, bunday savol-javob bir necha marta takrorlanishi kerak.

ISSN: 2992-9210

Auditoriya keltirgan misollar bilan ma’ruzachi keltirgan misol notiq tomonidan o’zaro taqqoslanishi yaxshi natija beradi. Bu bilan voiz va auditoriyaning fikrlashlari o’zaro bir xil ekanligi tekshiriladi hamda tadbirning shunday zaylda borishi ikki tomonni ham ruhlantiradi.

XULOSA

Bugungi kunda tadbirlarni o’tkazishda debat usulidan ham keng foydalanilmoqda. Bunda ma’ruzachi tinglovchilarni ikki guruhga ajratib, o’rtaga muammoni tashlaydi va tomonlardan ko’tarilgan muammoning yechimini aniqlashni so’raydi. Voiz har ikki tomonning fikrlarini eshitadi va yakuniy xulosa chiqarib. uni bayon ztadi. Bunday usulning afzalligi shundaki, tadbirda har bir qatnashchiga jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish imkoni beriladi. O’z fikrini ifoda eta olish har bir ishtirokchida katta taassurot qoldiradi va mavzuning chuqur o’zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Rag’batlantirish. Faol ishtirokchilarni rag’batlantirish uchun mukofot tashkil etish yaxshi samara beradi. Bunda qatnashchilarda ijobiy ma’nodagi baxslashish, musobaqalashish ruhi paydo bo’ladi va bu tadbir samaradorligini ortiradi, tinglovchilarda keyingi tadbirlarda ishtirok etish ishtiyokini uyg’otadi.

Adekvat taqdimot metodi. Tadbir nomi qiziqarli, sodda, aniq, o’ziga jalb qiluvchi bo’lishi, qatnashchilarning yoshi, kasbi, manfaatlariga mos, ma’naviy-mafkuraviy, tarbiyaviy ishlardan birining vazifasiga kiruvchi dolzarb masalaga bag’ishlanishi kerak. Tadbirni nomlashda o’ta rasmiylikdan, ilmiylashtirishdan, uzundan uzok; jumlalardan qochish kerak. Chunki, rasmiyatchilik kishilarni tadbirdan bezdiradi. Mavzuni nomlashda ko’prok kundalik hayotimizda ishlatiladigan so’zlardan foydalanilsa, yaxshi samara beradi. Tadbir nomi kishilarni qiziqtiradigan, ruhlantiradigan bo’lishi kerak. Mavzuni eshitgan, o’qigan kishi tadbirda nimalar to’g’risida mulohazalar yuritish kerakligini anglashi va unda muammoga daxldorlik xissi uyg’onishi kerak. Shuning uchun tadbir haqidagi e’londa eng muhim fikrlardan ishtirokchilarni xabardor qilish zarur.

Auditoriyaga moslashish metodi. Qatnashchilarning yoshi, kasbi tadbir davomida misollar keltirishda inobatga olinishi kerak. Agar qatnashchilarning ko’pchiligi yoshlarni tashkil qilsa, tadbir davomida yaqin o’tmishdan, yoshlar befarq bo’lmagan va tadbirga qatnashayotgan avlod bevosita guvoh bo’lgan voqea va holatlardan misollar keltiriladi. Qatnashchilar o’rta yoshlarda bo’lsa, keltiriladigan misollar o’rta avlod vakillari guvoh, bo’lgan voqeliklar, atrofimizda yuz berayotgan yangiliklardan olinadi. Bunda qatnashchilarning kasbidan kelib chiqib misollar tanlash imkoniyati ham saqlanadi. Tadbir qatnashchilari har kuni ko’radigan misollar tanlanganda muloqot samaradorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.uza.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017йил 15 июнь куни “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизни софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқидан.

2. Қосимова З.Х. Талаба ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг педагогик асослари. (Олий ўқув юртлари маънавий-маърифий ишлари мисолида). Педагогика Фан. номз. илмий дар. олиш учун тайёрланган дисс-я. -Т. 2004. 117-б.

3. Алимасов В. Оммавий маданият ОҒУми?// “Ишонч” газетаси, 2018 йил 19 июнь.

4. Райнов Б. Массовая культура. Перевод с болгарского. – Москва, “Прогресс”, 1979. С.9.

5.Саидов У. Маданият соҳасидаги глобаллашув жараёнлари ва маънавий таҳдидлар. – Тошкент: “Akademiya”, 2011. – 56 б.

ISSN: 2992-9210

UMUMTA`LIM MAKTABLARI BOSHLANG‘ICH SINF MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТИЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРОЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

SPECIFIC FEATURES OF MUSIC CULTURE CLASSES OF ELEMENTARY SCHOOLS OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Radjapov Abror Asadullayevich

Radjapov A.A.,
KatDPI, “ Aniq fanlar va sport” kafedrasi o‘qituvchisi
abrorradjapov@01gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta`lim maktablari boshlang‘ich sinf musiqa madaniyati darslarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan shuningdek musiqa insonni badiiy estetik did bilan qurollantiradi va ma`naviy dunyosini shakllantirishi to‘g‘risa yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. *Umumta`lim maktablari, boshlang‘ich sinf, ilm-fan, ta`lim-tarbiya, musiqa tinglash, shodlik, xursandchilik, o‘yin-kulgu vositasi, mahalliy ijrochilik.*

Аннотация. В данной статье раскрываются специфические особенности занятий музыкальной культурой начальных общеобразовательных школ, а также объясняется, что музыка наделяет человека художественным эстетическим вкусом и формирует его духовный мир.

Ключевые слова. *Общеобразовательные школы, начальная школа, наука, образование, слушание музыки, счастье, радость, средства развлечения, местное представление.*

Annotation: In this article, the specific features of music culture classes of elementary schools of general education are revealed, and it is also explained that music equips a person with artistic aesthetic taste and shapes his spiritual world.

Key words. *General education schools, elementary school, science, education, listening to music, happiness, joy, means of entertainment, local performance.*

Inson hayotini musiqa san`atimizsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Kishilik jamiyatini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, insonning dunyoni yaxshi idrok etish davrlarida musiqa uning hayotida ajralmas qism bo‘lib kelgan. Inson onadan to‘g‘ilgandan boshlab hali borliqni his etish, tushunish, idrok etishga tayyor bo‘lmagan holda ona allasini his etadi, yig‘layotgan bola yig‘lashdan tinadi, ovunadi va orom oladi.

Musiqa nafaqat insonlar uchun shodlik, xursandchilik, o‘yin-kulgu vositasi bo‘lib kelgan, balki qayg‘uli onlarida ham unga yo‘ldosh bo‘lib, yupanch, taskin vazifasini ham bajargan.

Quvonch, o‘yin-kulgu, xursandchilik ifodasi, ma`naviy ehtiyoj, o‘ziga xos ilm turi, tarbiya vositasi, yana nima! Ilohiy tuyg‘u!

Asta-sekinlik bilan kishilik jamiyatining rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy hayotni o‘sishi bilan, ilm-fan rivojlanishi natijasida barcha fanlar qatori musiqaga ham e`tibor, unga ilm sifatida qarash paydo bo‘ldi. Dunyoning birinchi muallimi Arestotel “musiqa qalbning ilohiy jihatlariga ta`sir ko‘rsata olish

ISSN: 2992-9210

layoqatiga egadir. Modomiki shunday ekan, u kishilarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog `i lozim” deb yozadi.

Ilm-fan, ta`lim-tarbiya, taraqqiyoti bilan musiqa fan sifatda o‘qitiladigan bo‘ldi. Musiqada so‘z bilan ovoz o‘zoro uyg‘unlashib, kishini atrofdagi voqea-hodisalarni badiiy guzal holda idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Insonni badiiy estetik did bilan qurollantiradi va ma`naviy dunyosini shakllantiradi.

Bizda bugungi kun ta`lim muassalarida mavjud bo‘lgan musiqa ta`limi va tarbiyasi fan sifatida birinchi navbatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni musiqaning eng oddiy qonuniyatlari, nota yozuvi, vokal-xor, nazariy qoidalari bilan tanishtirish ularda musiqa madaniyati asoslarini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Bu oliy maqsadni amalga oshirish vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchi-yoshlarda musiqa san`atiga, eng avvalo milliy musiqamizga, xalqimizning asrlar osha avloddan-avloda o‘tib kelayotgan milliy musiqa me`rosiga qiziqish va mehr-muhabbatini shakllantirish va uni rivojlantirish.
2. Musiqani teran his etish, uni qadrlash, milliy va zamonaviy musiqani o‘ziga xos nazariy va amaliy ijrochilik xususiyatlarini, uyg‘unligi, o‘xshashligi va farqli jihatlarini idrok etish.
3. Xalq musiqasining ommaviy janrlari, milliy cholg‘ularini bilish, farqlash, ularga o‘z munosabatini bildira olishiga erishish.
4. O‘zbekiston sarhadlaridagi mahalliy ijrochilik uslublari haqida ma`lumotlarga ega bo‘lish, mumtoz va maqom musiqasi haqidagi tushunchalardan xabardor bo‘lish.
5. Yuksak ijod namunasi bo‘lgan badiiy asarlar bilan saviyasi past asarlarni farqlay bilish, ularga baho bera olish.
6. Qardosh xalqlar va chet el musiqa madaniyati haqida ma`lum darajada ma`lumot, bilim va tushunchaga ega bo‘lish.
7. Asarlardagi g‘oyaviy-badiiy mazmunni anglagan holda fikr-mulohaza yurita olish va amaliy tajribada foydalana olish layoqatiga ega bo‘lishi.
8. Musiqiy faoliyatlar jarayonda ijodkorlik malakalarini rivojlanishiga erishish.
9. Musiqa orqali ona Vatanga, ona tabiatga, insonlarga, hayotga, kasb-hunarga muhabbat, ishtiyoq uyg‘otish, insoniylik tuyg‘ularini rivojlantirish.

Umumta`lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida musiqa madaniyati darslarini o‘ziga xos xususiyati alohida kasb etadi. Boshlang‘ich sinflarda musiqiy ta`lim bir necha faoliyatlar negizida tashkil etiladi.

.**Bular.**

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo‘lib (xor bo‘lib) qo‘shiq kuylash.
3. Musiqa savodi (nazariy bilimlar berish).
4. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish.
5. Musiqaga mos raqs va ritmik harakatlar (musiqa ijodkorligi) bajarish.

Mazkur faoliyatlar ichida musiqa tinglash yetakchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda musiqaga havas uyg‘otish uchun ularning eshitayotgan asarlarini sevishlari katta ahamiyat kasb etadi.

Inson yaxshi musiqa asarini (qo‘shiq yoki kuyni) mahoratli ijrochidan eshitganda musiqa asariga nisbatan ta`surotlar, fikr-mulohazalar uyg‘onadi. Tinglovchilarning musiqiy asarni qanday idrok etishlari qanday ta`sirlanishilari musiqiy asarning tinglovchilar hissiyotiga ta`siri musiqaning qanday yangrashi, sozanda yoki xonandaning qay darajada ijro etishiga bog‘liq. Shuning uchun ham maktab musiqa o‘qituvchilarining cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha kasbiy mahorati musiqa darslarida muhim

ISSN: 2992-9210

ahamiyat kasb etadi. Oddiy va murakkab janrlardagi musiqa asarlarini fonoteka, audio, video yozuvlarda texnik vositalar orqali tinglanadi. Bunday asarlarni ijro etishda musiqa o‘qituvchisining ijro mahorati cheklangan bo‘lishi va o‘quvchilarga yetarli darajada badiiy emotsional zavq bera olmasligi mumkin.

Metodik jihatdan mahoratli musiqa rahbari (o‘qituvchi) turli texnik vositalar, audio tasvirlar, kompyuter va bizning tadqiqotimiz mavzusi bo‘lgan multimedia vositalaridan ustalik bilan foydalangan holda bolalarni yuqori emotsional holatda musiqa eshitishlarini tashkil eta oladi. Yangi musiqa asarlarini asl mohiyatini tushunishlari, uni ma`nosini anglashlari uchun mavjud bo‘lgan texnik va ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalana olishi lozim. Lekin, shuni e`tiborga olish kerakki, jonli ijro etilgan asar bolalarda ko‘proq ta`surot qoldirishi ham tajribada aniqlangan.

Boshlang‘ich sinflarda musiqa tinglash bo‘yicha qo‘yiladigan asosiy vazifalar; ikkita asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

1. Har xil mazmundagi va har xil mualliflar asarlari bilan tanishish, musiqiy zahira to‘plash.

2. Turli musiqiy termin va tushunchalarni anglash. Turli musiqaning ifodaviy vositalarini, musiqiy asar elementlari haqida boshlang‘ich tushunchlarni egallash. Musiqa ta`limi tizimidagi darslarni metodik jihatdan turli talqin etishda mashg‘ulotlarda tinglanadigan asar musiqiy mazmuni, badiiy-g‘oyaviy mavzuni jihatidan chorak (yil) mavzusidan kelib chiqishi lozim.

Musiqa tinglash jarayonini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin.

1. Tinglanadigan asarlar haqida o‘qituvchining kirish so‘zi
(hikoya, suhbat).

2. Cholg‘u asboblarida yoki texnik vosita yordamida musiqa asarlarini tinglash.

3.Tinglangan asarni suhbat, savol-javob yo‘li bilan tahlil qilish.

Musiqa asarni yaxlit holda qaytadan tinglagan holda hamda asar haqida o‘quvchilarning umumiy ta`surotlari yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish.

Musiqa tinglash faoliyatida o‘quvchilarni quyidagi kunikma va malakalar shaklanadi;

-musiqa asarlarini diqqat bilan tinglash;

-asar tinglashda uning mazmuni va harakterini anglash;

-musiqaning ifoda vositalari, janrlari, (qo‘shiq, raqs, vals marsh, hokazolar) haqida oddiy tushunchaga ega bo‘lish;

-erkaklar, ayollar, bolalar va aralash xor ovozlari yakkanovoz, jurnaovozlikni eshita olish, hamda farqlay olish;

-milliy cholg‘ular, ansambl, orkestr turlarini, musiqiy janrlarni bir-biridan farqlash;

Musiqa tinglash mashg‘ulotlari barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshadi.

Qo‘shiq kuylash faoliyati.

Bu faoliyat turi bolalar uchun sevimli, eng ommaviy, tushunarli hisoblanadi. Bolalarning deyarli barchasi qo‘shiq kuylashni sevadilar. Qoshiq kuylash kuchli emotsional ta`sir kuchiga ega. Chunki qo‘shiqda matn va kuyning badiiy birligi nomoyon bo‘ladi. Qo‘shiq aqliy kamolotni o‘sishiga, dunyoqarashini kengayishi, tasavvurini boyishiga samarali ta`sir etadi.

Qo‘shiq kuylash jarayonida o‘quvchilar musiqani chuqurroq idrok etadilar. Qo‘shiqning g‘oyaviy-badiiy mazmuni (matnda ifodalangan g‘oya) bolalarga musiqa mazmunini tushunish va uni osonroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Qo‘shiq kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy eshitish qobiyliyati, musiqiy xotira, metr va retm hissi, musiqiy eshituv va lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash jarayonida o‘quvchi o‘z ovoz ijrosini boshqarish, kuylab turib o‘rtoqlari ijrosini eshitish, tuzatish haqida ular bilan ansambllikda bo‘lib kuylashiga intiladi, natijada jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o‘zoro do‘stlik hissi tarbiyalanadi.

ISSN: 2992-9210

Qo‘shiq kuylash jarayoni bolalar nutqini (diksiya) rivojlanishiga ham yaxshi ta`sir qiladi. Qo‘shiq so‘zlari cho‘zib ijro etilganligi tufayli bolalar so‘zlarni bo‘g‘inlab, notasiz o‘rganadilar. Bolalar tovushi (ovozi) yumshoq va tovush rezonatori orqali kuchaytirib beriladi.

Rezonator ikkiga bo‘linadi.

1. Yuqori bosh resonator.
2. Pastki kukrak resonator.

Shuni aytish lozimki, yosh bolalarda ovoz mo‘rt va rivojlanmagan bo‘ladi. 7-yoshdan 13-yoshgacha bo‘lgan vaqt ovozni past bo‘lish vaqti hisoblanadi. 11-13 yoshga kelib bolalarda xiqildoq mushaklari to‘liq shakllanadi va 20-yoshga qadar rivojlantirib boriladi.

Birinchi sinf o‘quvchilari ovozi mi-1 sol-1, fa-1 lya-1, diapazonida yaxshi jaranglaydi.

Ikkinchi sinf o‘quvchilarining ovozlari esa si-1 diapazonida ancha tabiiy jarangalaydi.

Uchunchi-to‘rtinchi sinflarda o‘quvchilar ovozi do-1 re-2 (mi-2) diapazonida to‘liq jaranglaydi.

To‘rtinchi sinf o‘quvchilari ovoz diapazoni do-1, mi-2 (fa-2) diapazonida bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflardan bolalar ovozini to‘g‘ri tarbiyalash uchun ularda vokal-xor malakalari rivojiga jiddiy e`tibor qaratish lozim.

Vokal-xor malakalari quyidagicha turlarga bo‘linadi.

1. Kuylashdagi holat (turib, o‘tirib kuylash holati).
2. Nafas hosil qilish.
3. Tovush hosil qilish.
4. Soz.
5. Talaffuz.
6. Ansambl.

Musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida notaga qarab kuylash (solfedjiolash) murakkab jarayondir. Solfedjio-Italiyancha notalar, musiqa belgilari, gammalarini kuylash-eshitish malakasini rivojlantirish va notaga qarab ularni tez o‘qishni o‘rganish uchun o‘zlashtiradigan vokal mashqlaridir.

Agar o‘quvchilar sinfdan-sinfga o‘tishda notaga qarab kuylash malakalarini asta-sekin, oddiydan murakkabga qarab olib borsalar yuqori sinflarga o‘tganlarida o‘rgangan qo‘shiqlarini bemalol notaga qarab kuylay oladilar.

Kuylashdan oldin kuyning o‘lchovi, qanday cho‘zimdagi notalar ishtirok etganligi, kuyning tempi, tonalligi, aniqlanadi. Keyin shu tonlikda ovoz sozlash mashqlari bajarish, tonlikka moslashish (sozlanish) amalga oshiriladi.

Musiqa savodi. Musiqa savodiga doir mashg‘ulotlar asosan bolalarni musiqiy o‘quvini o‘stirish va nota savodxonligini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Umumiy bilim, tushunchalar mazmunini shakllantirishga xizmat qiladi

Musiqa savodi o‘quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmuni va mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Maktab musiqa savodini o‘rganishda qo‘yiladigan asosiy metodik talab dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatda qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, va musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish, bolalar musiqa cholg‘ularida jo‘r bo‘lish kabilarda kuylay olishdan iboratdir. Har bir faoliyat davomida o‘quvchilar kuylayotgan, jo‘r bo‘layotgan yoki tinglayotgan asarlarining kimlar tomonidan yaratilgan qaysi o‘lchovda lad-tonalligi, tempda yozilganligi, uning ritmi, shakli, dinamik belgilari va xokozalarni qisman bo‘lsa ham aniqlashadilar.

ISSN: 2992-9210

Mana shu jarayonda musiqa savodi juda muhimdir. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an`analar, templar, intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari haqidagi bilimlar o‘zlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Birinchi sinfda musiqa savodi asosiy boshlang‘ich bilimlarni beradi. Bular asosan, musiqiy tovushlar, ularni xususiyatlari, nota belgilarininng cho‘zimi, nota cho‘zimida asosiy 7-ta tovushni yozilishi, kalit belgisi haqidagi bilimlardan iborat bo‘ladi.

Ikkinchi sinfda yil mavzusi “ijrochilik turlari” deb nomlanib musiqa savodi bo‘yicha o‘quvchilar musiqaning ifoda vositalari-yakkanavozlik jo‘rnavozlik va jo‘rsozlik, yakkanavozlik va yakkaxonlik, cholg‘u dastalari, ularning turlari, kuy, kuyda nima ifodalanadi mavzusida nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar.

3-sinfda musiqa savodi faoliyati quyidagi mavzulardagi bilimlarni qamrab oladi.

Musiqaning ifoda vositalari. (Ularni qo‘llanishi amaliy misollarda).

-musiqa nutqi;

-xor va orkistr-xor va orkistr turlari, tuzilishi, tarkibi haqidagi nazariy va amaliy tushunchalar;

-musiqaning tuzilishi, oddiy musiqa shakllari, band va naqorat;

4-sinfda ushbu yo‘nalishdagi bilimlar yanada chuqurroq, murakkab mavzular doirasida mujjassamlashadi;

-xalq aytimlari va cholg‘ulari;

-bayram va marosim qo‘shiqlari;

-mavsum qoshiqlari;

-bahor fasli qo‘shiqlari;

Mavzulari tartibi, kalitlar, pauzalar, alteratsiya belgilari, liga, stakkatto, fermato,volta, repriza, do, sol, re, mi major va yondosh, tonalliklari to‘g‘risida bilim va tushunchalarni egallashadi.

Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyati.

Ushbu faoliyatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini kamol toptirish va rivojlantirish, ijrochilikka qiziqish uyg‘otish, shuningdek musiqiy ijodkorlikka bo‘lgan emotsional his-tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

Musiqiy cholg‘ularda ijro faoliyatiga quyidagi pedagogik vazifalarni kiritish mumkin.

-darsda, darsdan tashqari va bo‘sh vaqtlarda bolalarning ijrochilik kunikma va malakalarini shakllantirish;

-ansambl bo‘lib, yakkavoz, jo‘rnavozlikda ijro etishga qiziqtirish;

-cholg‘u asboblarini tovush tembridan farqlashga ularning yangrashidagi garmoniyani yaxshi anglashda o‘rgatish;

-musiqiy qobiyatlarini rivojlantirish faollashtirish metr, retm hissasi-musiqa shaklini, tembr, garmonik, melodik eshituvni faollashtirish;

-musiqiy nutq elementlari va musiqaning ifoda vositalari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;

Musiqaga mos raqs va ritmik harakatlar bajarish.

Badiiy-g‘oyaviy musiqaning ifodaviyligi vositasida estetik tarbiyalashda ushbu faoliyat turi olib boriladi. O‘quv-tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning aqliy kamoli va jismoniy rivojida raqs, musiqali o‘yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarishning o‘ziga xos o‘rni bor. Musiqa madaniyati darslarida, musiqaga mos raqs va ritmik harakatlar bajarish o‘quvchilarning musiqiy o‘quvi, xotirasi, ritm tushunchasiga ijobiy ta`sir ko‘rsatadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning surati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog‘liq musiqiy ohanglar bola xotirasida uzoq saqlanadi.

Raqs va ritmik harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatni to‘g‘ri o‘sishiga va badani chiniqishiga yordam beradi. Demak, musiqaga mos harakatlar o‘quvchilarning aqliy

ISSN: 2992-9210

nafosati. qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga irodasini ham mustahkamlaydi. Masalan, marsh musiqaga mos har qanday harakat o‘quvchilarga g‘ayrat va tetiklikni, raqs-ichki his-tuyg‘ularini hosil etib raqsga tushishga undaydi. Bu faoliyatda bolalar zavq olib, rohatlanadilar.

Ko‘rib o‘tilgan barcha faoliyat turlaridan kelib chiqqan holda ilg‘or, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalanish shuningdek keyingi vaqtda chet el musiqa ta`limida keng qo‘llanilayotgan musiqa ta`limining multimedia vositalaridan audio, video, tasvir, ovozli multplikatsiya, animatsiyalardan foydalanish musiqa darslariga o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirib, berilayotgan mavzu bo‘yicha bilim, ma`lumot, axborotlarni ishonchli harakatlarda, badiiy tasviriy tarzda ko‘rish, eshitish, tasavvur qilishlarini ta`minlaydi. Olingan ma`lumotlar bilim, axborotlarni xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishiga yordam beradi, shu bilan ta`limning sifat va samaradorligini yanada yuqori darajada bo‘lishligiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”, 2017-yil.

2. Mirziyoyev Sh .M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017-yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017-yil.

4. Mengliyev Sh. Mutimedia vositalari va ulardan foydalanish. Ilmiy maqola 2014-yil, tami.uz

5. 27. Shoira Shodmonova. Multimedia texnologiyalari ta`lim istiqboli kafolatidir. 2017-yil, info COM.UZ

6. 28. Saida Beknazarova. Multimedia texnologiyalarining asosiy xususiyatlari. 2017-yil,infoCOM.UZ.

ISSN: 2992-9210

O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI OSHIRISH TUZILMASI, MOHIYATI VA DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

THE STRUCTURE, ESSENCE AND DIDACTIC CONDITIONS FOR IMPROVING THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF TEACHERS

СТРУКТУРА, СУЩНОСТЬ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПОВЫШЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ

Rasulova Maftuna Nasimboy qizi

Rasulova M.N.,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi, Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
rasulovamaftuna110@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda kommunikativ salohiyatning mohiyati, tuzilmasi hamda uni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan didaktik shart-sharoitlar aniqlanadi. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ijtimoiy-konstruktiv yondashuv va andragogik tamoyillar asosida kommunikativ kompetensiyani oshirishning metodik tizimi ishlab chiqiladi. Maqola natijalari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ salohiyat, o‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, didaktik shart-sharoitlar, interfaol metodlar, refleksiya, muloqot madaniyati.*

Annotation. This article analyzes the problem of developing teachers’ communicative competence from the perspective of modern pedagogy. It defines the essence and structure of communicative competence, as well as the didactic conditions necessary for its development. The study develops a methodological system for improving communicative competence based on learner-centered, socio-constructivist approaches, and andragogical principles. The results of the article contribute to enhancing the process of teachers’ professional development.

Keywords: *communicative competence, teacher, professional development, didactic conditions, interactive methods, reflection, communication culture.*

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема развития коммуникативной компетентности учителей с точки зрения современной педагогики. Определяются сущность и структура коммуникативной компетентности, а также дидактические условия, необходимые для её формирования. В исследовании разработана методическая система повышения коммуникативной компетентности на основе личностно-ориентированного, социально-конструктивистского подходов и андрагогических принципов. Результаты статьи способствуют

ISSN: 2992-9210

совершенствованию процесса профессионального развития учителей.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, учитель, профессиональное развитие, дидактические условия, интерактивные методы, рефлексия, культура общения.*

Kirish.

Ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri — o‘qituvchining kommunikativ salohiyatidir. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki uni samarali muloqot orqali o‘quvchiga yetkazish, o‘quvchi bilan hamkorlikda bilimni yaratish jarayonini tashkil eta olishi zarur. Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida yangilanishlar, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘qituvchilar dars jarayonida monologik nutqqa tayanadi, o‘quvchining fikrini faollashtirishga kam e’tibor beradi, muloqot madaniyati, pedagogik empatiya va til strategiyalarini yetarli darajada qo‘llay olmaydi. Shu sababli, o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirishning **tuzilmasi, mohiyati va didaktik shart-sharoitlarini** ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar sharhi. O‘qituvchi kommunikativ kompetensiyasi masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Hymes (1972) “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini kiritib, uni shaxsning ijtimoiy kontekstda til vositasida samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida talqin qilgan. Canale va Swain (1980) esa uni to‘rtta komponent orqali izohladi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar.

Vygotskiyning (1978) ijtimoiy-konstruktiv nazariyasiga ko‘ra, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot “yaqin rivojlanish zonasi”da bilimlarni birgalikda yaratish mexanizmini ishga soladi. Knowles (1984) esa kattalar ta’limida o‘zini-o‘zi o‘rgatish va refleksiya jarayonlarini markazga qo‘ygan andragogik yondashuvni asoslab bergan.

O‘zbekiston pedagogika maktabida “kommunikativ salohiyat/kompetensiya” o‘qituvchining kasbiy mahorati tarkibidagi tayanch komponent sifatida talqin qilinadi. N. Azizxo‘jayeva o‘qituvchi faoliyatida kommunikativlikni konstruktivlik, tashkilotchilik va ilmiy-bilish bilan bir qatorda alohida komponent sifatida ajratadi; u “kommunikativ qobiliyat — pedagogik o‘zaro aloqalar doirasida namoyon bo‘ladigan muloqot qobiliyati” ekanini ta’kidlaydi. D.A. Abdurahimova va R.A. Mavlonova “Pedagogik mahorat” qo‘llanmasida maktab amaliyotida o‘qituvchi mahoratini “kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati, pedagogik texnika” bilan bog‘laydi; bu salohiyat o‘qituvchining o‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan samarali aloqalarini belgilaydi. G.B. Xasanboyeva (2023) kommunikativ qobiliyatni psixologik bilim, muomala madaniyati va hamkorlar (o‘quvchi–ota-ona–jamoa) bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish qobiliyati sifatida ochib beradi; maqolada kommunikativ, perseptiv, empatik, didaktik va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida yoritiladi. Xulosa qilib, o‘zbek adabiyotlarida kommunikativ salohiyat bilim–ko‘nikma–munosabatlar triadasi va pedagogik muloqot madaniyatiga tayangan integrativ kompetensiya sifatida qaraladi; u o‘qituvchining sinf iqlimini yaratish, dialogni tashkil etish va hamkorlikni boshqarish funksiyalarini qamrab oladi. Dialogik pedagogika tadqiqotlari (R. Alexander) darsdagi suhbatni kollektiv, o‘zaro, qo‘llab-quvvatlovchi, kumulyativ va maqsadli tamoyillar asosida tashkil etishni taklif qiladi; bu yondashuv o‘quvchilar fikrlashini chuqurlashtiradi va dalillash madaniyatini rivojlantiradi. So‘nggi sintez ishlari (ELIS, 2023) dialogik ta’lim va “inquiry through dialogue” modelining og‘zaki nutqni

ISSN: 2992-9210

o‘qitish va fanlararo o‘qishga ta’sirini umumlashtiradi. Bundan tashqari, formatif baholash bo‘yicha Black & Wiliam klassik ko‘rinishi shuni ko‘rsatadiki, savol-javob, “kuting-vaqti” (wait time) va o‘zaro teskari aloqa darsdagi o‘rganishni sezilarli kuchaytiradi. Hattie metatahlillarida esa feedback (≈0,75) va o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlari (≈0,72) yuqori ta’sirga ega omillar sifatida qayd etilgan — bu kommunikativ salohiyatning natijaga yo‘naltirilgan o‘lchanar ta’sirini ko‘rsatadi. Mahalliy manbalarda kommunikativ salohiyatni oshirishning amaliy mexanizmlari interfaol metodlar (munozara, debat, “fikrla–juftlash–bo‘lish”, rol o‘yinlari, keys-stadi) orqali asoslanadi. D. Ro‘ziyeva, M. Usmonboeva va Z. Holiqova tayyorlagan “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi” qo‘llanmasi bu metodlarning didaktik asoslari va qo‘llash algoritmlarini tizimli beradi; qo‘llanma O‘zbekistondagi ko‘plab darslik va modul materiallarida bazaviy manba sifatida keltiriladi. “Pedagogik texnologiyalar” bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar (S.I. Mirhayitova; H.T. Omonov va boshq.) interfaol usullarni hamkorlik, mustaqil faoliyat va refleksiyani kuchaytiruvchi muhit sifatida talqin qiladi va dars loyihalash (keys-stadi bosqichlari, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish) bo‘yicha yo‘riqnomalarni beradi. O‘. Tolipov va M. Usmonboeva (2005) yo‘nalishidagi “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot” maktabi kommunikativ jarayonni didaktik loyihalashning ajralmas elementi sifatida ko‘radi; mahalliy darslik va modul hujjatlarida ushbu asar yadro manbalardan biri sifatida muntazam ko‘rsatiladi. Azizxo‘jayeva o‘qituvchi qobiliyatlari ichida empatiya, muloqot uslubini tanlash, kelisha olish va obro‘ qozonishni alohida qayd etadi; “kommunikativlik faoliyati — safdoshlari va talabalari bilan maqbul o‘zaro aloqalarni belgilash malakasi” deb ta’riflanadi. Abdurahimova–Mavlonova qo‘llanmasi faol muloqot, nutq madaniyati va pedagogik texnikani bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligining ajralmas bo‘lagi sifatida belgilaydi. G.B. Xasanboyeva (2023) kommunikativ qobiliyatni perseptiv (kuzatuvchanlik), empatik, didaktik, konstruktiv qobiliyatlar bilan integratsiyada talqin etadi: o‘qituvchi nutqi, notiqlik, mimika va pantomimika ham pedagogik ta’sir kuchining bir qismi sifatida ko‘riladi.

Adabiyotlar tahlili quyidagi shart-sharoitlarni “kommunikativ salohiyatni oshirish”ning samarali poydevori sifatida ko‘rsatadi:

Dialogik dars modeli: savol-javob, dalillash, birga fikrlash va “kuting-vaqti”ni qo‘llash; bahs-munozara va kollektiv muloqot orqali kumulyativ bilim quriladi.

Formativ baholash va fikr-mulohaza: real vaqtli feedback, o‘zaro baholash, o‘zini baholash; bu ta’sirning katta effektiga Hattie metatahlillari ishora qiladi.

Interfaol metodlar majmuasi: rol o‘yinlari, keys-stadi, kichik guruhlar; dars dizaynida bosqichma-bosqich algoritmlar.

Refleksiv tahlil va video-kouching: mahalliy metodik manbalarda darsni tahlil qilish, suhbatni yozib o‘rganish va hamkasb kuzatuvlari tavsiya etiladi; modul matnlarida amaliy mashg‘ulotlar va texnologik xaritalar beriladi.

Tadqiqot aralash usulda olib borildi: ya’ni, bir tomondan sonli ma’lumotlar (so‘rovnoma, kuzatuv ballari) yig‘ildi, ikkinchi tomondan esa sifat ma’lumotlari (intervyu, dars videolari tahlili, refleksiya yozuvlari) o‘rganildi. Dizayn jihatdan ish kvazi-eksperimental shaklda qurildi: uchta umumta’lim maktabida tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi, umumiy hisobda 90 ga yaqin o‘qituvchi ishtirok etdi. Fanlar kesimi turlicha bo‘ldi (ona tili va adabiyot, fizika, matematika, tarix, boshlang‘ich sinf), staj bo‘yicha esa yangi boshlovchilar ham, tajribali pedagoglar ham bor edi.

Aralashuv dasturi 12 hafta davom etdi. Har ikki haftada bir marta o‘qituvchilar Professional Learning Community (PLC) yig‘ilishida uchrashdilar: qisqa nazariy kirish, birgalikda dars ssenariysi, va amaliy mashq bajarildi. Oyiga bir marotaba mikro-dars (microteaching) o‘tkazildi va qisqa video-epizodlar yozib olindi. Mentorlardan biri (maktab metodisti yoki tajribali ustoz) har bir o‘qituvchi bilan kouching siklini o‘tkazdi: darsdan avval maqsad qo‘yish, darsni kuzatish, keyin esa video parchalari

ISSN: 2992-9210

ustida mulohaza va qayta rejalashtirish. Shunday qilib, intervensiya uchta tayanch blokdan iborat bo‘ldi: dialogik dars va savol berish strategiyalari; fikr-mulohaza (feedback) va formativ baholash; video-refleksiya va kouching.

Asosiy o‘lchov vositasi — “kommunikativ salohiyat” (KS) kuzatuv rubrikasi. Rubrika to‘rtta yo‘nalishni qamrab oldi: savollar sifati va mantiqiy izchillik; o‘quvchi ovozi va suhbatdagi ishtirok balansi; metadiskurs va dars maqsadining og‘zaki aniqligi; raqamli vositalar orqali muloqotning maqsadga muvofiqligi. Har band 1 dan 4 gacha baholandi (1 — boshlang‘ich, 4 — yetuk). Shuningdek, sinf muloqoti bo‘yicha qo‘shimcha ko‘rsatkichlar aniqlandi: o‘qituvchi–o‘quvchi replikalar nisbati, ochiq savollar ulushi, “kuting-vaqti” (savoldan keyingi sukut uzunligi), va ishtirok tengligi (teng taqsimlanishga yaqinlashuv).

O‘qituvchilar uchun 20 bandli so‘rovnoma tuzildi (Likert 1–5): o‘zining kommunikativ o‘z-samaradorligi, savol berish strategiyalaridan foydalanish chastotasi, mulohaza sifatini boshqarish, dars maqsadini og‘zaki ifodalash odati, hamkasb bilan tahlil qilishga tayyorlik kabi ko‘rsatkichlar o‘lchandi. Sifat ma’lumotlari uchun yarim tuzilgan intervyular tashkil qilindi (har bir maktabdan 8–10 nafar o‘qituvchi), shuningdek, darsdan keyingi yozma refleksiya jurnallari yig‘ib borildi.

Ma’lumot yig‘ish uch bosqichda bo‘ldi: 1-haftada boshlang‘ich (pre) o‘lchov, 6-haftada oraliq (mid) o‘lchov, 12-haftada yakuniy (post) o‘lchov. Videodan olingan qisqa epizodlar (5–7 daqiqalik) kodlandi, savollar tiplari va o‘quvchi ishtiroki ulushi hisoblab borildi. Kuzatuvchilarning baholashdagi mosligi uchun ikki mustaqil ekspert ishladi; baholashdan oldin ular birgalikda kalibrlash mashg‘ulotini o‘tkazdilar.

Ishning etik tomoniga alohida e’tibor qaratildi: barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olindi, videolar faqat tadqiqot maqsadida ko‘rildi, shaxsiy ma’lumotlar anonimlashtirildi. Instrumentlar ichki ishonchlilik bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi (rubrika bandlari uchun $\alpha \approx 0{,}83$ atrofida), kuzatuvchilararo moslik esa yaxshi darajada bo‘ldi (Cohen $\kappa \approx 0{,}78$).

Natijalarni tahlil qilishda avvalo deskriptiv statistika (o‘rtacha, median, interval), so‘ngra pre–post farqlar bo‘yicha testlar qo‘llandi. Sifat ma’lumotlari tematik tahlil orqali kodlandi: video-refleksiya tajribasi, savol berishdagi odatlar, hamkasbdan o‘rganish va rahbariyat ko‘magi kabi mavzular yuzaga chiqdi.

Natijalar. Umumiy manzarada kommunikativ salohiyat indeksi o‘sdi. Boshlang‘ich o‘rtacha ball 2,1 atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 12-hafta yakunida tajriba guruhida 3,0 ga yaqinlashdi; nazorat guruhida esa keskin o‘zgarish kuzatilmadi (2,2 atrofida qoldi). Farq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘ldi, amaliy jihatdan esa “o‘rtacha kattalikdagi” ta’sir deb baholash mumkin. Ayniqsa, savollar sifati va qayta savol berish (follow-up) bo‘yicha ko‘rsatkichlar ancha oshdi: ochiq va sababga undovchi savollar ulushi o‘rtacha 34 foizdan 51 foizgacha ko‘tarildi. “Kuting-vaqti” ham ijobiy o‘zgardi: savol berilgach, o‘qituvchi o‘rtacha 1 soniya ham kutmay javob so‘rash odatidan 2–3 soniya sukut saqlash odatiga o‘tdi; bu o‘z navbatida o‘quvchi javoblarining mazmunini to‘laroq qilishga yordam berdi.

Sinf ichidagi suhbat muvozanati sezilarli yaxshilandi. Tajriba guruhidagi o‘qituvchilarda “o‘quvchi replikasi : o‘qituvchi replikasi” nisbati 0,9 atrofidan 1,6 atrofiga ko‘tarildi. Bu shuni anglatadiki, dars davomida o‘quvchi gapiradigan va fikrini asoslaydigan vaqt ko‘paydi, monologik nutq ulushi esa kamaydi. Ishtirokning tengligi ham yaxshilandi: avval sinfdagi faollar doimiy ravishda so‘zni egallab kelgan bo‘lsa, 12-haftaga kelib, jim turgan o‘quvchilar ham jarayonga jalb etila boshladi. Amaliy jihatdan bu “har bir darsda har bir o‘quvchidan kamida bir marta ovoz chiqarish” kabi oddiy qoidalar bilan boshlanib, keyin “kichik guruhlarda rollarni almashish” kabi usullar orqali mustahkamlandi.

O‘qituvchilarning o‘zini-o‘zi baholashi ham ijobiy tomonga o‘zgardi. Kommunikativ o‘z-samaradorlik bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 0,5–0,6 ballga oshdi (5 ballik shkalada). Ayniqsa, “javobni

ISSN: 2992-9210

chuqurlashtirish uchun qayta savol bera olaman” va “dars maqsadini ogʻzaki ravishda aniqlashtirib boraman” bandlarida oʻsish yaqqol boʻldi. Qiziqarli jihati, oʻzini yuqori baholash bilan kuzatuv rubrikasi ballari oʻrtasida oʻrtacha ijobiy bogʻliqlik kuzatildi: kim koʻproq mashq qilgan va video-refleksiyani muntazam qilgan boʻlsa, uning haqiqiy darsdagi koʻrsatkichlari tezroq oʻsdi.

Sifat ma’lumotlari uchta asosiy mavzuni koʻrsatdi. Birinchidan, video-refleksiya “koʻzim ochildi” effekti berdi: oʻqituvchilar oʻz nutqidagi shoshilish, savolni oʻzlari javoblab qoʻyish, yoki bitta-ikkita faol oʻquvchi bilan suhbatga “qamalib qolish” holatlarini anglab, keyingi darslarda ataylab toʻgʻrilay boshladilar. Ikkinchidan, kouchingning “kichik, aniq maqsad” uslubi samarali boʻldi: masalan, “bugun faqat savolni qayta yoʻnaltirishni mashq qilaman” degan aniq niyat bir haftada sezilarli natija berdi. Uchinchidan, vaqt va yuklama muammosi qayd etildi: darslar orasida video koʻrish va mulohaza qilish uchun maktab rahbariyatining jadval boʻyicha qoʻllab-quvvatlashi muhim ekani aytildi.

Fanlar kesimida kichik farqlar koʻrindi. Tabiiy fanlarda (fizika, biologiya) “savollar orqali fikrlash zanjiri”ni qurish tezroq oʻzlashtirildi; gumanitar fanlarda esa bahs-munozara va dalillash sifati koʻproq koʻtarildi. Staj boʻyicha qaraganda, yangi oʻqituvchilar texnik jihatdan (raqamli vositalar, savol kartalari, “kuting-vaqti” taymeri) tez moslashdilar, lekin darsni “balansda ushlash” ularga koʻproq mehnat talab qildi; tajribali oʻqituvchilar esa dastlab uslubni oʻzgartirishga ehtiyotkor boʻlishdi, biroq kouchingdan soʻng oʻzlarining boy tajribasini dialogik usullar bilan chiroyli uygʻunlashtira boshladilar.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, intervensiya paketidagi elementlar bir-birini toʻldiradi. PLC — umumiy til va maqsad yaratadi, video-refleksiya — koʻzgu vazifasini bajaradi, kouching esa har bir oʻqituvchiga mos “kichik qadamlar” rejasini beradi. Agar ushbu uchlikdan biri yetishmasa, oʻsish sekinlashadi. Masalan, faqat trening boʻlib, video-refleksiya boʻlmasa, odatlarni oʻzgartirish qiyinlashadi; yoki kouching boʻlmasa, yaxshi niyatlar dars rejasiga aniq band sifatida kiritilmay qolishi mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kommunikativ salohiyatni oshirish boʻyicha tizimli ish darsdagi suhbat sifati va oʻquvchi ishtirokini koʻzga koʻrinadigan tarzda yaxshilaydi. Natijalar faqat ballarda emas, balki dars muhitida ham seziladi: oʻquvchilar koʻproq savol beradi, fikrini asoslaydi, oʻqituvchi esa yoʻlboshchi va sherik rolini barqarorroq ushlay boshlaydi. Shu bilan birga, bunday oʻzgarishni barqaror saqlash uchun maktab miqyosida vaqt ajratish, hamkasb kuzatuvlarini rejalashtirish va kichik muvaffaqiyatlarni tan olish mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish muhimdir.

Muhokama. Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, oʻqituvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlar nafaqat dars jarayonini, balki butun maktabdagi kasbiy madaniyatni oʻzgartira boshlaydi. Avvaliga oʻqituvchilar “kommunikativ salohiyat”ni faqatgina nutq madaniyati deb oʻylagan boʻlsalar, jarayon davomida bu tushunchaning yanada keng — ya’ni muloqot, tinglash, empatiya, fikr almashish, va refleksiya kabi jihatlarni oʻz ichiga olishini anglab yetishdi. Treninglar, video-tahlil va kouching sikllari oʻqituvchilarni oʻz nutqini eshitishga, dars jarayoniga oʻquvchi nigohi bilan qarashga oʻrgatdi. Natijalar shuni ham koʻrsatdiki, oʻqituvchilar savol berish strategiyalarini ongli ravishda tanlashni oʻrgandilar. Masalan, ochiq savollar, qayta yoʻnaltirish (“Siz bu fikrga qoʻshilasizmi?”, “Boshqacha izohlasak qanday boʻladi?”) kabi usullar sinfda fikrlash madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa oʻz navbatida oʻquvchilarning ogʻzaki nutqi, dalillash qobiliyati va oʻz fikrini erkin bildirishga tayyorligini oshirdi.

Oʻqituvchilar oʻrtasida hamkorlik muhitining shakllanishi ham muhim natija boʻldi. PLC yigʻilishlari, hamkasb kuzatuvlari va video-refleksiya orqali ular bir-birlaridan oʻrganish, maslahat soʻrash va fikr bildirish madaniyatiga ega boʻla boshladilar. Shu orqali maktabda “yakka oʻqituvchi” modeli asta-sekin “hamkor oʻqituvchilar hamjamiyati”ga aylanib bordi.

Biroq ayrim to‘siqlar ham kuzatildi. Ba’zi o‘qituvchilar uchun vaqt tanqisligi, darslardan tashqari refleksiya uchun vaqt ajratish qiyin bo‘ldi. Ayrim rahbarlar bu jarayonni “qo‘shimcha yuklama” deb qabul qilgan holatlar ham uchradi. Shu bois, tizimni maktab miqyosida joriy etish uchun rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashi va vaqtni rejalashtirish siyosati muhimdir. Metodologik jihatdan qaraganda, kommunikativ salohiyatni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv samarali ekanligi tasdiqlandi: ya’ni, dars ichida (dialogik strategiyalar), darsdan keyin (video-tahlil) va hamkasblar bilan (kouching) ishlashni bir tizim sifatida olib borish natija beradi. Faqat bitta elementni (masalan, trening) qo‘llash barqaror o‘sishga olib kelmaydi. Yana bir muhim kuzatuv shuki, kommunikativ salohiyat o‘zgarishi nafaqat nutqda, balki o‘qituvchining o‘zini tutishida, ohangida, o‘quvchi bilan muloqotda paydo bo‘lgan ishonchda namoyon bo‘ldi. Darsdagi muhit iliqroq, suhbat ochiqroq bo‘ldi. Shu sababli, bu salohiyatni rivojlantirish nafaqat til, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini oshirishning samarali yo‘li — uni **kasbiy rivojlanish tizimining markaziy komponenti sifatida** tashkil etishdir, degan xulosani beradi. Kommunikativ salohiyatni mustahkamlash — bu shunchaki nutq madaniyatini o‘rganish emas, balki o‘qituvchining o‘z fikrini ifodalash, tinglash, muloqotda hamkorlik qilish va o‘z faoliyatini tahlil qilish madaniyatini shakllantirishdir.

Tadqiqotdan quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. **Kommunikativ salohiyat** — bu o‘qituvchining nutq, tinglash, empatiya, refleksiya va interaktiv hamkorlik qobiliyatlarining yaxlit tizimidir.
2. Uni rivojlantirish uchun **didaktik shart-sharoitlar** muhim: xavfsiz refleksiya muhiti, dialogik dars, kouching va video-tahlilning tizimli qo‘llanilishi.
3. Trening, video-refleksiya va PLC yig‘ilishlari o‘qituvchilarning **fikrlash uslubini o‘zgartirishga** yordam beradi — ular o‘zlarini faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonini boshqaruvchi sherik sifatida ko‘ra boshlaydilar.
4. Tajriba natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning savol berish sifati, o‘quvchi ishtiroki, va reflektiv fikrlashi sezilarli darajada yaxshilandi.
5. Kommunikativ salohiyat o‘qituvchining darsdagi nutqidan tashqari, uning butun kasbiy iqlimga ta’sirini ko‘rsatadi — sinf muhiti ochiq, ishonchli va o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib boradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u **maktab sharoitida o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha aniq, bosqichma-bosqich metodik tizim**ni taklif etadi. Bu tizimni pedagogik malaka oshirish markazlari, metodik birlashmalar yoki raqamli ta’lim platformalarida qo‘llash mumkin.

Shuningdek, kelgusida bu yo‘nalishda **raqamli kommunikativ kompetensiya**, ya’ni onlayn muloqot madaniyati va virtual hamkorlik qobiliyatlarini o‘rganish ham dolzarb bo‘ladi. Chunki zamonaviy o‘qituvchi faqat sinfda emas, balki raqamli makonda ham o‘z kommunikativ salohiyatini namoyon etishi kerak.

Yakuniy so‘z sifatida aytish mumkinki, o‘qituvchining kommunikativ salohiyati — bu ta’lim sifatini belgilovchi yashirin kuchdir. Uni rivojlantirish orqali biz o‘quvchilarni faqat bilimli emas, balki fikrlovchi, muloqotli va ijtimoiy faol shaxslar qilib tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahimova, D. A., & Mavlonova, R. A. (2019). *Pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Alexander, R. (2020). *A dialogic teaching companion*. London: Routledge.

ISSN: 2992-9210

3. Azizxo‘jayeva, N. N. (2006). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Inside the black box: Raising standards through classroom assessment. *Phi Delta Kappan, 80*(2), 139–148.
5. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47. https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1
6. Hattie, J. (2009). *Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. London: Routledge.
7. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected readings* (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin Books.
8. Knowles, M. S. (1984). *The adult learner: A neglected species* (3rd ed.). Houston, TX: Gulf Publishing.
9. Nazarova, Z. (2022). O‘qituvchilarning reflektiv faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 4*(3), 45–52.
10. Qodirov, A. (2018). O‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv. *Ta’lim nazariyasi va amaliyoti jurnali, 2*(1), 58–64.
11. Ro‘ziyeva, D., Usmonboeva, M., & Holiqova, Z. (2021). *Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish markazi.
12. Tolipov, O‘., & Usmonboeva, M. (2005). *Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Fan nashriyoti.
13. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
14. Wenger, E. (1998). *Communities of practice: Learning, meaning, and identity*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Xasanboyeva, G. B. (2023). Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. *O‘zbekiston pedagogika jurnali, 7*(2), 33–41.

ISSN: 2992-9210

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINING O‘RNI

THE ROLE OF CULTURAL HERITAGE SITES IN DEVELOPING TOLERANCE AMONG FUTERE TEACHERS

РОЛЬ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Raximov Matlab, Farhodova Gulhayo

Raximov M.,
Samarqand davlat pedagogika instituti,
dotsenti
Farhodova G.,
Samarqand Davlat Pedagogika instituti, Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti
gulhayofarhodova923@gmail.com

Annatation. This article analyzes the role and importance of cultural heritage objects in the process of forming the qualities of tolerance in future teachers. The pedagogical possibilities of developing tolerance, interethnic harmony and intercultural communication skills in students through familiarization with cultural, historical and religious monuments are highlighted. The educational impact of pilgrimage tourism, spiritual and educational excursions and practical exercises in the educational process is also shown. The results of the study show that systematic work with cultural heritage objects expands the spiritual worldview of future teachers, strengthens tolerance and serves to develop their professional competencies. At the end of the article, effective pedagogical approaches and proposals in this direction are presented.

Keywords: *cultural heritage, tolerance, future teacher, spiritual education, pilgrimage tourism, tolerance, pedagogical process, spiritual and educational excursion, personal development, intercultural dialogue*

Аннотация. В статье анализируются роль и значение объектов культурного наследия в формировании толерантных качеств будущих учителей. Раскрываются педагогические возможности развития толерантности, межэтнического согласия и навыков межкультурного общения у студентов посредством знакомства с культурными, историческими и религиозными памятниками. Также показано воспитательное влияние паломнического туризма, духовно-просветительских экскурсий и практических занятий в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что систематическая работа с объектами культурного наследия расширяет духовное мировоззрение будущих учителей, укрепляет толерантность и способствует развитию их профессиональных компетенций. В конце статьи представлены эффективные педагогические подходы и предложения в этом направлении.

Ключевые слова: *культурное наследие, толерантность, будущий учитель, духовное воспитание, паломнический туризм, толерантность, педагогический процесс, духовно-просветительская экскурсия, личностное развитие, межкультурный диалог.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik fazilatlarini shakllantirish jarayonida madaniy meros

ISSN: 2992-9210

obyektlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Madaniy, tarixiy va diniy obidalar bilan tanishtirish orqali talabalarda bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, ziyorat turizmi, ma’naviy-ma’rifiy ekskursiyalar va amaliy mashg‘ulotlarning ta’lim jarayonidagi tarbiyaviy ta’siri ham ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy meros obyektlari bilan tizimli ishlash bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy dunyoqarashini kengaytiradi, tolerantlikni mustahkamlaydi hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqola yakunida mazkur yo‘nalishdagi samarali pedagogik yondashuvlar va takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *madaniy meros, tolerantlik, bo‘lajak o‘qituvchi, ma’naviy tarbiya, ziyorat turizmi, bag‘rikenglik, pedagogik jarayon, ma’naviy-ma’rifiy ekskursiya, shaxs rivoji, madaniyatlararo muloqot*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri yosh avlodda tolerantlik, bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqotga tayyorlik kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish hisoblanadi. Turli millat, din va madaniyat vakillari o‘rtasidagi aloqalar kengayib borayotgan bir davrda ushbu fazilatlarning yetishmasligi ijtimoiy ziddiyatlar, tushunmovchiliklar va nizolarga olib kelishi mumkin. Shu bois tolerantlikni shakllantirish masalasi nafaqat ijtimoiy, balki muhim pedagogik muammo sifatida ham dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy dunyoqarashi, ma’naviy madaniyati va axloqiy pozitsiyasi kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi sababli ularning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston boy tarixiy, madaniy va diniy merosga ega mamlakat bo‘lib, bu meros jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Respublikamiz hududida joylashgan ziyorat maskanlari, tarixiy yodgorliklar, me’moriy ansambllar va muqaddas qadamjolar nafaqat milliy o‘zlikni anglashning asosiy manbai, balki yoshlar tarbiyasida kuchli ma’naviy-pedagogik resurs sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu maskanlar bilan tanishish, ularning tarixi va ma’naviy mohiyatini anglash jarayoni shaxsda hurmat, sabr-toqat, insonparvarlik va bag‘rikenglik kabi fazilatlarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[2].

Ziyorat turizmi aynan shu jihatlari bilan shaxsni ma’naviy-ruhiy jihatdan boyituvchi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon sifatida qaraladi. U faqatgina sayohat yoki dam olish shakli emas, balki tarixiy xotira, diniy qadriyatlar va milliy an’analar bilan bevosita muloqot qilish imkonini beruvchi ma’rifiy faoliyatdir. Ziyorat jarayonida turli madaniyat va e’tiqod vakillari bilan muloqotga kirishish, madaniyatlar rang-barangligini anglash bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlikning shakllanishiga muhim zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tolerantlik tushunchasi va uning ijtimoiy hamda pedagogik mazmuni xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, UNESCO tomonidan qabul qilingan “Declaration of Principles on Tolerance” hujjatida tolerantlik jamiyatda tinchlik, ijtimoiy barqarorlik va madaniyatlararo muloqotni ta’minlovchi asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tolerantlik boshqa insonlarning madaniyati, e’tiqodi va fikrlarini tan olish hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni nazarda

ISSN: 2992-9210

tutadi. Pedagogik nuqtai nazardan esa bu sifat yosh avlodni demokratik qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim omili sifatida baholanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida G. Allport tolerantlik va bag‘rikenglik masalasini ijtimoiy psixologiya doirasida chuqur tahlil qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning “The Nature of Prejudice” asarida shaxslararo munosabatlarda stereotiplar va kamsitishlarning kelib chiqish sabablari tahlil qilinib, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy tajribaning tolerantlikni shakllantirishdagi roli asoslab berilgan. Allportning fikricha, turli ijtimoiy va madaniy guruhlar bilan bevosita muloqot qilish shaxsda bag‘rikenglikni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Mazkur yondashuv ziyorat turizmini tajribaviy va muloqotga boy pedagogik faoliyat sifatida talqin qilish imkonini beradi [4].

O‘zbek pedagogika va ma’naviyatshunoslik ilmida tolerantlik masalasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida tadqiq etiladi. Xususan, N. Komilovning ma’naviyat va axloqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan ilmiy qarashlarida bag‘rikenglik, insonparvarlik va ma’naviy yetuklik shaxs kamolotining asosiy mezonlari sifatida talqin etiladi. Olimning asarlarida milliy madaniy meros, tarixiy va diniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni alohida ta’kidlanib, ularning shaxs ma’naviy dunyoqarashini boyitishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida ziyorat maskanlarining tarbiyaviy imkoniyatlari haqida so‘z yuritar ekan, Komilov milliy tarix va ma’naviy meros bilan bevosita tanishish jarayoni yosh avlodda hurmat, sabr-toqat va bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bu qarashlar ziyorat turizmini bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim ma’naviy-pedagogik vositasi sifatida ilmiy jihatdan asoslashga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini shakllantirishda ziyorat turizmining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tolerantlik, ma’naviy tarbiya va ziyorat turizmi muammosiga oid falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu nazariy tahlil orqali tolerantlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shaxs rivojidagi o‘rni hamda pedagogik kompetensiya sifatidagi xususiyatlari aniqlashtirildi[1].

Tadqiqotda umumilmiy bilish metodlari, xususan, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish metodlaridan keng foydalanildi. Bu metodlar orqali tolerantlikni shakllantirishga doir xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlar qiyosiy o‘rganildi hamda ziyorat turizmining tarbiyaviy salohiyati pedagogik nuqtai nazardan baholandi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida shaxsning ijtimoiy tajribasi va muloqot muhiti tolerantlik rivojiga ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot doirasida ziyorat maskanlariga tashrif jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va axloqiy munosabatlarini kuzatish metodi qo‘llanildi. Kuzatish natijalari asosida talabalarning turli madaniyat va diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatidagi o‘zgarishlar hamda tolerantlikka oid xulq-atvor namoyonlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlar pedagogik jihatdan talqin qilinib, ularning tarbiyaviy ahamiyati baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik modellashtirish metodidan foydalanilib, ziyorat turizmini bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi sifatida tasavvur qilish imkoniyati yaratildi. Olingan nazariy va empirik ma’lumotlar mantiqiy izchillik asosida umumlashtirilib, tadqiqot xulosalarini shakllantirishga xizmat qildi. Natijada ziyorat turizmining bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsida tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi pedagogik samaradorligini ilmiy asoslash imkoniyati vujudga keldi.

ISSN: 2992-9210

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan nazariy va empirik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ziyorat turizmi bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi[4]. Ziyorat maskanlariga tashrif jarayonida talabalar tarixiy, diniy va madaniy meros bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayon ularning bilim doirasini kengaytirish bilan birga, turli madaniyat va e’tiqodlarga nisbatan ongli va hurmatga asoslangan munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Kuzatishlar natijasida talabalar o‘rtasida ijtimoiy faollikning ortishi, muloqot jarayonlarining erkinlashuvi hamda o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarning mustahkamlanishi qayd etildi.

Ziyorat jarayonida mavjud madaniy rang-baranglik va diniy bag‘rikenglik namunalari bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional tajribasiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu holat talabalarda empatiya, sabr-toqat va mehr-shafqat kabi axloqiy sifatlarning rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, ulug‘ allomalar va tarixiy shaxslar hayoti hamda faoliyati bilan tanishish jarayoni talabalarni insonparvarlik, halollik va vatanparvarlik qadriyatlari haqida chuqur mushohada yuritishga undadi. Natijada tolerantlik nafaqat nazariy tushuncha, balki shaxsiy tajriba asosida anglangan ijtimoiy-axloqiy fazilat sifatida shakllana boshladi[3].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ziyorat turizmi jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlikning kognitiv, emotsional, qadriyatli va kommunikativ jihatlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Birgalikdagi sayohatlar va muhokamalar talabalar o‘rtasida madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, turli fikr va qarashlarga nisbatan bag‘rikeng munosabatni kuchaytirdi. Bu holat bo‘lajak o‘qituvchilarning kelgusidagi pedagogik faoliyatida tolerantlik tamoyillariga asoslangan ta’lim muhitini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmi bo‘lajak o‘qituvchilarda tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirishda muhim pedagogik va ma’naviy ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijalarida o‘z tasdig‘ini topdi. Ushbu jarayon talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, turli madaniyat va din vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ziyorat turizmining tarbiyaviy salohiyati pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashganda, u bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini boyituvchi samarali vositaga aylanadi.

Shu bois pedagogik ta’lim tizimida ziyorat turizmidan maqsadli va tizimli foydalanish, uni o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi sifatida joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi, balki ularning ma’naviy-axloqiy yetukligini ta’minlab, kelajak avlodni bag‘rikenglik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022. — 464 b.
2. Abdullaev A.A. Ziyorat turizmi asoslari. — Toshkent: “Meros”, 2020. — 152 b.
3. Ahmedova D.Sh. Tolerantlik pedagogikasi. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. — 184 b.
4. Allport G. The Nature of Prejudice. — New York: Addison-Wesley Publishing Company, 1954. — 537 p.
5. Banks J.A. Cultural Diversity and Education: Foundations, Curriculum, and Teaching. — Boston: Pearson Education, 2015. — 432 p.

ISSN: 2992-9210

6. Bennett M.J. Basic Concepts of Intercultural Communication: Paradigms, Principles, and Practices. — Boston: Intercultural Press, 2013. — 344 p.

7. Berdialiyev B.B. Ma’naviyat va ma’rifatning jamiyat rivojidagi o‘rni. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018. — 210 b.

8. Ergashev O.R. Turizm sotsiologiyasi va madaniyati. — Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2021. — 176 b.

9. Karimova M.X. Shaxs tarbiyasi va tolerantlik kompetensiyasi. — Buxoro: “BuxDU nashriyoti”, 2022. — 132 b.

10. Komilov N. Ma’naviyat asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2018. — 304 b

11. Qodirov B.R. Pedagogik kompetensiyalar va ularni shakllantirish texnologiyalari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 220 b.

12. Qodirova N.M. Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. — 168 b.

13. Rasulova G.G. Ma’naviy meros va ziyorat maskanlari. — Toshkent: “Muharrir”, 2017. — 140 b.

14. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. — Paris: UNESCO Publishing, 1995. — 16 p.

15. Xolmatova D.A. Oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari. — Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021. — 180 b.

ISSN: 2992-9210

FANLARARO UZVIYLIK PRINSIPI ASOSIDA TASVIRIY SAN’AT ASARLARINI BADIIY TAHLIL QILISH JARAYONIDA TALABALARNING RANGSHUNOSLIKKA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ЦВЕТОВЕДЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО АНАЛИЗА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПА МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ СВЯЗИ

DEVELOPMENT OF STUDENTS’ KNOWLEDGE IN COLOR STUDIES THROUGH THE ARTISTIC ANALYSIS OF VISUAL ARTWORKS BASED ON THE PRINCIPLE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION

Shavqiyev Elyor Raxmonberdiyevich

Shavqiyev E.R.,
falsafa fanlari doktori (PhD), Kattaqo‘rg‘on davlat instituti dotsenti.
elyorshavqiyev@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada fanlararo uzviylik prinsipi asosida tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish jarayonida talabalarning rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati fanlarining boshqa fanlar bilan integratsiyasi orqali talabalarda rangshunoslik tushunchasini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida fanlararo aloqadorlik, badiiy tahlil va falsafiy mushohada yondashuvlari asos qilib olindi.

Kalit so‘zlar: *fanlararo aloqadorlik, rangshunoslik, tasviriy san’at, badiiy tahlil, kolorit.*

Аннотация В статье рассматриваются вопросы развития знаний студентов в области колористики в процессе художественного анализа произведений изобразительного искусства на основе принципа междисциплинарной взаимосвязи. В исследовании проанализированы возможности формирования цветовой грамотности студентов через интеграцию дисциплин изобразительного и декоративно-прикладного искусства с другими науками. Результаты показывают повышение уровня понимания студентами элементов цвета, ритма и композиции.

Ключевые слова: *междисциплинарная взаимосвязь, колористика, изобразительное искусство, художественный анализ, колорит.*

Abstract This article explores the development of students’ knowledge of color theory through the artistic analysis of visual art works based on the principle of interdisciplinary integration. The study examines how the integration of fine and decorative arts with related disciplines enhances students’ understanding of color harmony, rhythm, and composition. Findings demonstrate that such an approach significantly improves artistic perception and analytical competence.

Keywords*: interdisciplinary integration, color theory, fine arts, artistic analysis, color harmony.*

ISSN: 2992-9210

Tasviriy san’atdan talabalarning rangshunoslik bo‘yicha savodxonlik darajalarini rivojlantirishda sohaning qonunyatlari haqidagi bilimlar muhim o‘rin tutadi. Tasviriy va amaliy san’atni boshqa fanlar bilan integrativ tarzda o‘qitish badiiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda, jumladan kompozitsiyaning tasvirini qog‘oz sathiga to‘g‘ri joylashtirish, simmetriya, nisbat, marom, harakat kabi qonunyatlarini o‘zlashtirishda qo‘shimcha didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu parametrlar bevosita rangshunoslikka aloqador emasdek ko‘rinsada, tasviriy san’at asoslari kompozitsiyasining umumiy mukammaligida ranglardagi marom, ranglar gammasi, umumiy kolariti pirovardida asarning badiiy saviyasini belgilashda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Har qanday o‘quv fanidan ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlari mavjud. Shunday shartlardan biri sifatida, shubhasiz, ta’limning didaktik tamoyillari e’tirof etiladi.

Tasviriy va amaliy san’at ta’limi tarixi va nazariyasi, ta’lim amaliyotining tahlilidan ayonki, ta’limning bu sohasida ko‘rgazmalilik, fanlararo aloqadorlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari ustuvor tarzda qo‘llaniladi. Chunki talabalarda tasviriy savodxonlikni shakllantirishda, demakki, badiiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda bu tamoyillar alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at ta’limi sifati va samaradorligini oshirishda uning mazmunini, talabalarning badiiy mushohadasini boyitadigan manbalardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa, talabalarning mantiq, estetika kabi fanlardan olgan bilimlaridan foydalanish talabalarning kompozitsion faoliyat borasidagi faoliyatlarida asqotadi. Jumladan, tarixiy manbalar hamda badiiy asar syujetlari asosida kompozitsiya ishlashda ta’sirchan mavzu sifatida tanlashi mumkin.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish samaradorldigini oshirishda qo‘shimcha manba sifatida tasviriy san’tning tarixiy (batal) janrdagi asarlaridan, shuningdek, amaliy san’at asarlaridan foydalanishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Bu jarayonga teskari aloqa sifatida amaliy san’at darslarida tarixga oid materiallardan foydalangan holda o‘tilgan darslar talabalarning har ikki fanga oid bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarixiy mavzudagi tasviriy amaliy san’at asarlari talabalarda tarixiy tushunchalarni shakllantirishga, ularning nazariy xulosalar va umumlashgan yakunlaridagi ijtimoiy rivojlanishning ob’yektiv qonuniyatlarining o‘zaro aloqalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi, shuningdek, talabalarning estetik jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi sifatida ham e’tiborlidir. Ma’lumki, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassalarida maxsus fanlar bilan bir qatorda gumanitar va ijtimoiy fanlar, matematika, tabiiy ilmiy fanlar va umumkasbiy fanlar o‘qitiladi. Shu bois mazkur fanlarni o‘zaro bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bog‘lab olib borish ta’lim samaradorligini oshiradi (1-rasm). Rasmda oliy ta’lim muassasalarida gumanitar va ijtimoiy fanlar, matematika va tabiiy ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlararo, tasviriy amaliy bezak san’atini o‘zaro bir-biri bilan aloqadorlikda bo‘lishi ko‘rsatilgan. Unda talabalar oliy talimda umumta’lim fanlari va amaliy bezak san’atini o‘rganadilar. Bu turdagi darslarda talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoit yuzaga keladi.

Yuzaki qaraganda yuqoridagi fikirlarni talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishga aloqasi yo‘qdek tuyulsada, aslida fanlararo aloqadorlik rangshunoslikka oid materialladan integrativ jarayonda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Darslarni sifat va samaradorligini oshirishda gumanitar va ijtimoiy fanlar, ya’ni O‘zbekiston tarixi falsafa madaniyatshunoslik, ma’naviyat asoslari kabi; matematika va tabiiy-ilmiy fanlar ya’ni oliy matematika asoslari, plastik anatomiya, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, informatika va axborot texnologiyalari kabilar; umumkasbiy fanlar, ya’ni umumiy psixologiya, tasviriy san’at, rangtasvir va kompozitsiya, haykaltaroshlik, chizmachilik kabi fanlar bilan o‘z’aro aloqadorlikda amalga oshiriladi.

ISSN: 2992-9210

Talabalarga rangshunoslik asoslarini o‘rgatishda predmetlar va fanlararo aloqadorldik xususiyatlaridan tushungan holda foydalanish lozim (1-rasm).



1-rasm. Rangshunoslikning fanlararo bog‘liqligi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida falsafa, etika, estetika, mantiq, psixologiya, matematika va boshqa fanlardan saboq beriladi. Lekin ular har bir soha ixtisoslik fanlariga moslashtirilgan tarzda deyarli o‘qitilmaydi. Masalan, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida kompozitsiya, amaliy san’at, naqqoshlik, chizmatasvir, rangtasvir, san’at tarixi va boshqalar bilan birga yuqorida takidlaganimizdek tarix, matematika, mantiq, falsafa, psixologiya, etika, estetika kabi umumkasbiy fanlar o‘qitiladi. Lekin ularda umumkasbiy fanlar-tasviriy va amaliy san’at fanlari bilan uyg‘unlikda yetarlicha bog‘lab o‘rgatilmaydi. Shuningdek, “San’atshunoslik” (tasviriy san’at va muhandislik grafikasi) fakultetida falsafa fani o‘tiladi, lekin uning tarmog‘i bo‘lmish san’at falsafasi o‘tilmaydi. Chunonchi, falsafa fani barcha sohalar kabi pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ham o‘rgatiladi, lekin o‘sha mutaxassislikni o‘ziga xos tomonlari hisobga olinib o‘rgatilmaydi. Jumladan, rangshunoslikning falsafiy talqinlari, uning mantiqiy va ramziylik xususiyatlari haqidagi materiallarni taqdim etishi talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida tasviriy va amaliy san’atni boshqa fanlar bilan alaoqadorlikda o‘qitish orqali talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan chizma rasm keltirilgan (2-rasm).

Oliy badiiy pedagogik yo‘nalishda tayyorlayotgan kadrlarimizda maxsus fanlar bo‘yicha falsafiy fikrlash, mushohada yuritish etarli darajada shakllanmaganligi aynan yuqorida keltirilgan fanlaroro aloqadorlikyetarli darajada ta’minlanmaganligi bois sodir bo‘layotganligi amaliyotni kuzatish jarayonida ayon bo‘ladi. Bu muammoning amaliy yechimi sifatida badiiy ixtisoslikka yo‘naltirilgan kadrlarning kasbiy sifatini yanada oshirish maqsadida o‘quv rejadagi falsafaga ajratilgan soatlar1ning muayyan qismini san’at falsafasiga ajratilishi maqsadga muvofiqligini e’tirof etish joiz. O‘z navbatida, san’at falsafasida ranglar haqidagi bilimlar, xususan shartlilik va ramziylik nuqtayi nazaridan olib berilsa talabalarning rangshunoslikka oid bilimlarini oshirish imkoniyati ortadi. Ranglarni o‘rgatish jarayonida, darslarni har bir fanlarni boshqa fanlar va mavzular bilan bog‘lab o‘tish dars samaradorligini rivojlanishiga olib keladi. Pravardida talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarni oshirishi orqali ularning badiiy-estetik madaniyatini rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoit yuzaga keladi. Zero, falsafa,-barcha fanlarning otasidir. Falsafa tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy

ISSN: 2992-9210

qonuniyatlarini o‘rgatadi. U insonning borliqdagi o‘rnini, yon-atrofni, idrok etish yo‘llarini tadqiq etadi, gnoseologik izlanishlarni umumlashtiradi. Bu umumlashma materiallar mazmunida rangshunoslikning o‘ziga xos o‘rni bor.



2-rasm. Tasviriy san’at fanining umumta’lim fanlari bilan aloqador.

San’at asarlarining badiiy tahlili qilish orqali talabalarni fikrlashga o‘rgatish ularni tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish xulosalash kabi aqliy operatsiyalarning ma’nolarini anglab olishlari uchun nazariy asos bo‘ladi. Aynan shu tizim orqali tashkil etilgan ta’limiy jarayon ikki yo‘nalishdagi didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi. Birinchi yo‘nalish sifatida tahlil jarayoni bilan boshlananib, umumlashtirish bilan yakunlanadigan uzviylik prinsipi bilan tavsiflansa, ikkinchi yonalishi

ISSN: 2992-9210

bevosita sentetik jarayonlarga asoslangan fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarini “ishlashi” natijasida talabalarning rangshunoslikka oid bilimlari rivojlana boradi (3-rasm)



Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirish jarayoni natijalarini monitoringini olib borish, tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni belgilash, baholashda o‘ziga xos parametrlariga asoslaniladi. Shu ma’noda talabalarning badiiy tafakkuri, fikirlash kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiya majmuaviy mazmuniga ega bo‘lib, quyidagilar uning tarkibiy kompetensiyalari hisoblanadi.

Fikrlash – tahlil va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish va xulosa qilish singari xayoliy harakatlar (operatsiyalar) orqali amalga oshiriluvchi aqliy faoliyatdir. Fikrlash dars davomida amalga oshiriladi, fikrlash davomida ta’lim oluvchilar o‘zlari duch kelgan fikrlarga va o‘zlari o‘zlashtirgan ma’nolarga qaytadilar va savollar beradilar, talqin va tahlil qiladilar, qo‘llaydilar, munozara yuritadilar va ushbu ma’noni qo‘llashning yangi sohalariga qadar kengaytiradilar.

Shakllantirish – rivojlanib yetilmoq, aniq mazmun yoki yo‘nalish kasb etmoq.

Tahlil (analiz (yunoncha analyusis-bo‘laklarga bo‘lmoq) – ilmiy tadqiqotning eng amaliy metodlaridan biri bo‘lib, bir butunni fikran qisimlarga bo‘lish orqali yaxlitlikning komponentlari asosida umumiy xulosa chiqarishni anglatadi. Tahlil metodi asosida manbani, muammoni, natijani ilmiy o‘rganish uslubi sifatida qo‘llaniladi. Bunda tadqiqot ob’yekti fikran yoki ehtimoliy ravishda tarkibiy qismlarga ajratiladi yoki ob’yektga mos belgilar va ko‘rsatkichlar hamda ularning aloqadorligi o‘rganiladi. Ko‘rsatkichlar (omillar) orasidagi bog‘lanishlarni o‘rganishdan maqsad tadqiqot ob’yektini ifodalovchi ko‘rsatkichlar sonini kamaytirish va ularni asosiy va ikkinchi darajali ko‘rsatkichlarga bo‘lish masalasi bo‘yicha o‘rganiladi. Bir qarashda bu metod bevosita rangshunoslikka aloqador emasdek tuyulsada, aslida har qanday ob’ektda bo‘lganidek rangshunoslikda ham tarkibiy komponentlar bolib, ular alohida-alohida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Tahlil metodi – bunga quyidagi komponentlar kiradi:

- ma’lumotlarni axborot ko‘rinishiga keltira bilish;
- axborotlarni anglab idrok etish;
- ma’lum va noma’lumlarning muhim belgi va munosabatlarini ajrata bilish;
- elementlarga ajratish va boshlang‘ich strukturali birlikni topish;
- aloqalarni anglash (elementlar yoki tashkil etuvchilar orasidagi) va tushuntirish hamda sintez qila bilish.

Sintez – (yunoncha synthesis-bir butunning turli komponentlarini qo‘shish, birlashtirish) sintez, fikr ob’yekti hisoblangan narsa va hodisalarning tarkibiy qismlari, sifat hamda xususiyatlarini fikran

ISSN: 2992-9210

yoki amaliy ravishda bir butun qilib qo‘shishdan iborat bo‘lgan aqliy operatsiya. Masalan, narsa va hodisalarning muhim belgilari qo‘shilishidan yaxlit bir tushuncha hosil bo‘ladi. Sintez tafakkur hamda xayolning ijodiy faoliyatini tashkil qiladi. Sintez bevosita analiz bilan umumlashtirishni taqqoslash, sistemalashtirish kabi aqliy operatsiyalar bilan bog‘liqdir [4, 165-b]. Rangshunoslikka oid bilimlarining muhim ko‘rsatgichi-ranglarni idrok etish, qo‘llanish maqsadini uning mazmuni va mohiyati bilan aloqadorligini anglash jarayoni sifatida talabalarda sohaga oid bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan psixologik operatsiya sifatida qaraladi

Taqqoslash – narsa va hodisalardagi tafovut hamda o‘xshashlikni, tenglik va notenglikni topa olishga yo‘naltirilgan fikrlash operatsiyasi demakdir. Badiiy ta’limda, ayniqsa tasviriy va amaliy san’at asarlarini tahlil qilishdan qo‘llaniladigan bu metod asar, ob’yektini nima uchun shu shaklda, shunday kompozitsiyon yechimda, muhimi shunday rangshunoslik yechimida hal etilganligini aniqlashda qo‘llaniladi

Abstraksiyalash – (fransuzcha abstraction; lotinch abstraction-mavhumlashtirish) narsa va hodisalarning ayrim belgisi, sifati yoki xususiyatini fikran ulardan ayirib olib, uni mustaqil fikr ob’yektiga aylantirishdan iborat aqliy operatsiya. Masalan, bilish jarayonida tabiat, jamiyat va ayrim kishilarga xos bo‘lgan “go‘zallik” belgisini ayirib olib, ularning go‘zalligi to‘g‘risida emas, balki umuman go‘zallik, estetik kategoriya ma’nosidagi go‘zallik haqida fikr yuritiladi. [4, 6-b]. Tasviriy san’atda bu alohida yo‘nalish sifatida yaratiladigan asarlarning mazmuni va mohiyatini, rang gammasi va umumiy, ustuvor koloritini to‘g‘ri anglash, badiiy-estetik idrok etish va adekvat baholash uchun rangshunoslik borasida yetarli bilimga ega bo‘lish talab etiladi.

Umumlashtirish – narsa va hodisalarning o‘xshash hamda muhim belgi va xususiyatlarini, bog‘lanishlarini fikran muayyan tushunishga birlashtirish jarayoni va uning natijasi. Tasviriy san’atda bu metod asarning kompozitsion mukammalligini, ayniqsa rangshunoslik yechimlarini umumiy koloritga bo‘ysundirishning asosiy shartlaridan biri sifatida ahamiyatliydir. Shuning uchun ham talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirishda umumlashtirish amallari haqida yetarli ma’lumot, tushuncha berish lozim bo‘ladi.

Umumlashtirishda xususiylikdan, umumiylikka (induktiv holat) o‘tiladi va ular asosida umumiy ko‘rinishdagi tushuncha, fikr, g‘oya, hukm, konsepsiya, ta’limot, nazariya shakllanadi. Bu nazariya, shubhasiz, rangshunoslik sohasiga ham taalluqli.

Umumlashtirish metodi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: tipik faktlarni tanlash, materialdagi asosiy yoki “boshlang‘ich hujayra”ni ajratish; qiyoslash, dastlabki xulosalar; keng miqiyosida ta’riflash: kodlash: hodisaning genezisini aniqlash va tavsiflash; hodisaning rivojlanish dialektikasi va umumlashtirish natijalarini belgili rasmiylashtirish (xulosa, tendensiya, nazariya, formula, chizma, model va h.k.)

Xulosa

Fanlararo uzviylik prinsipi asosida tasviriy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish jarayonida talabalarning rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirish, nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki ularning estetik didi, ijodiy tafakkuri va badiiy tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’atni falsafa, psixologiya, tarix, matematika, mantiq, estetika kabi fanlar bilan uzviy bog‘lab o‘qitish talabalarda rang, kolorit, ritm, kontrast, simmetriya va kompozitsiya kabi badiiy elementlarni chuqur idrok etish imkonini beradi.

Bunday integratsion yondashuv talabalarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi aqliy faoliyatlarini faollashtiradi. Natijada ular ranglarning ramziy ma’nolarini anglash, asar mazmunini badiiy tahlil qilish, hamda o‘z ijodiy ishlarida rang uyg‘unligi va koloritni ongli ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qiladilar.

ISSN: 2992-9210

Amaliy tajribalar shuni tasdiqladiki, tasviriy san’at darslarida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish talabalarning:

rangshunoslikka oid nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish;

badiiy tafakkur va estetik idrokini rivojlantirish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni badiiy ifoda etish;

san’at falsafasi asosida mushohada yuritish malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shu boisdan, rangshunoslik asoslarini fanlararo integratsiya va badiiy tahlil asosida o‘qitish zamonaviy pedagogik jarayonning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur yondashuv orqali tayyorlanayotgan san’at sohasi mutaxassislari nafaqat rang va shakl uyg‘unligini chuqur anglaydigan, balki milliy san’at maktablarining estetik an’analarini davom ettira oladigan ijodkor pedagoglar sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Булатов С.С. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана в эстетическом воспитании школьников: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. –М.: ,1993, -35 с.

2.Сулаймонов А.Художественное воспитание старшеклассников на занятиях книжной графикой. Автореф.дисс.канд.пед.наук. М.: 1992, -16 с.

3.Sulaymonov A. Tasviriy san’at ta’limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. Monografiya. –Toshkent . “BAYOZ”, 2017.. 163-164 betlar. (184 b)

4. Turg‘unov Q. Ruscha – o‘zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug‘ati.- T.: O‘qituvchi, 1975. 165 b.

5. Turdaliyev A. Tasviriy san’at darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonda o‘quvchilarni badiiy kasb-hunarga yo‘naltirish. Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O‘zPFITI, 1997, -18 b.

6.Shavqiyev E.R Oliy ta’lim muassasalari talabalarida rangshunoslikka oid bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi Dis...p.f.f.d. (PhD) -Samarqand.:SamDU.2023.-143.

ISSN: 2992-9210

AUDIOKITOBLAR VA MOBIL ILOVALAR ORQALI O‘QUVCHILAR BILIMINI BOYITISH HAMDA O‘QISH JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ОБОГАЩЕНИЯ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА С ПОМОЩЬЮ АУДИОКНИГ И МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

MODERN OPPORTUNITIES FOR ENRICHING STUDENTS' KNOWLEDGE AND INCREASING THE EFFICIENCY OF THE LEARNING PROCESS THROUGH AUDIOBOOKS AND MOBILE APPLICATIONS

Shermanov Isobek Chilmamatovich, Jo‘raqulova Shoxzoda Toir qizi, Olimjonova Ruxshona Ikromovna

Shermanov I.Ch.,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Jo‘raqulova Sh.T.,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
shakhzodajurakulova@gmail.com

Olimjonova R.,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
olimjonovaruxshona844@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada audiokitoblar va mobil ilovalar orqali o‘quvchilar bilimini boyitish hamda o‘qish jarayonining samaradorligini oshirishning zamonaviy imkoniyatlarini o‘rganadi. Maqolada audiokitoblar va mobil ilovalar ta'lim jarayonida qanday qilib innovatsion vosita sifatida foydalanilishi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qanday boyitishi va samaradorligini qanday oshirishi tahlil qilinadi. Audiokitoblar tinglash orqali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga, mobil ilovalar esa interaktiv o‘qish tajribasini taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada bu texnologiyalarning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishdagi roli, shuningdek, o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik yondashuvlar taklif etiladi. Zamonaviy ta'limda audiokitoblar va mobil ilovalar orqali o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan metodologik va texnologik asoslar ham ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, o‘quvchilarning o‘qish faoliyatini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *audiokitoblar, mobil ilovalar, raqamli ta’lim, o‘quv jarayoni samaradorligi, interaktiv o‘qish, ta’lim texnologiyalari, o‘quvchilar motivatsiyasi, innovatsion metodlar, mustaqil ta’lim, raqamlashtirish.*

Annotation: This article explores modern opportunities for enriching students’ knowledge and increasing the effectiveness of the learning process through audiobooks and mobile applications. The article analyzes how audiobooks and mobile apps can be used as innovative tools in education, how they enrich students’ learning experiences, and how they enhance learning efficiency. Audiobooks help develop reading skills through listening, while mobile applications provide an interactive reading experience. The article also discusses the role of these technologies in increasing students’ motivation

ISSN: 2992-9210

and proposes new pedagogical approaches for teachers. Furthermore, the methodological and technological foundations necessary for improving the effectiveness of teaching through audiobooks and mobile applications in modern education are examined. The article also includes practical recommendations for making students’ learning activities more engaging and effective.

Keywords: *audiobooks, mobile applications, digital education, learning process efficiency, interactive reading, educational technologies, student motivation, innovative methods, self-directed learning, digitalization.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные возможности обогащения знаний учащихся и повышения эффективности учебного процесса с помощью аудиокниг и мобильных приложений. В статье анализируется, каким образом аудиокниги и мобильные приложения могут использоваться как инновационные средства в образовательном процессе, каким образом они обогащают познавательную деятельность учащихся и повышают её эффективность. Аудиокниги способствуют развитию навыков чтения через слушание, а мобильные приложения предоставляют интерактивный опыт чтения. Кроме того, в статье рассматривается роль этих технологий в повышении мотивации учащихся, а также предлагаются новые педагогические подходы для преподавателей. Также изучаются методологические и технологические основы, необходимые для повышения эффективности обучения с использованием аудиокниг и мобильных приложений в современном образовании. Статья включает практические рекомендации по тому, как сделать учебную деятельность учащихся более интересной и эффективной.

Ключевые слова: *аудиокниги, мобильные приложения, цифровое образование, эффективность учебного процесса, интерактивное чтение, образовательные технологии, мотивация учащихся, инновационные методы, самостоятельное обучение, цифровизация.*

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida o‘quvchilar bilimini boyitish va o‘qish jarayonining samaradorligini oshirish uchun audiokitoblar va mobil ilovalar muhim rol o‘ynaydi. O‘qish jarayoni, an'anaviy usullardan tashqari, innovatsion texnologiyalar yordamida yanada qiziqarli va samarali bo‘lishi mumkin. Audiokitoblar o‘quvchilarga matnni tinglash orqali bilim olish imkonini beradi, bu esa ularning eshitish qobiliyatini rivojlantiradi va o‘qish jarayonini diversifikatsiya qiladi. Mobil ilovalar esa interaktivlik va qiziqarli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi. Masalan, turli xil ta'lim ilovalari yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash, yangi mavzularni o‘rganish va testlardan o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday ilovalar ko‘pincha foydalanuvchilarga o‘z

ISSN: 2992-9210

bilimlarini baholash va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, audiokitoblar va mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘z vaqtlarini samarali boshqarish, har qanday joyda va vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Natijada, o‘qish jarayoni nafaqat qulay, balki yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi.

Audiokitoblar: O‘qish jarayonini yangilovchi innovatsion vosita

Audiokitoblar zamonaviy o‘qish jarayonini yangilovchi innovatsion vositalardan biridir. Ular kitoblarni ovozli formatda taqdim etish orqali o‘quvchilarga yangi tajribalar taqdim etadi. Audiokitoblar, ayniqsa, zamonaviy hayotning tezkorligi va bandligi sharoitida, ko‘plab insonlar uchun qulaylik yaratadi. Odamlar ishda, transportda yoki sport bilan shug‘ullanganda audiokitoblarni tinglash orqali o‘z bilimlarini kengaytirishi mumkin. Audiokitoblarning eng katta afzalliklaridan biri shundaki, ular ko‘p vaqtni tejashga yordam beradi. O‘quvchilar kitoblarni o‘qish o‘rniga, ularni tinglash orqali ma'lumotlarni tezroq qabul qilishi mumkin. Bu usul, ayniqsa, vizual o‘qishdan ko‘ra, eshitish orqali ma'lumotni yaxshiroq qabul qiladigan insonlar uchun juda foydali. Shuningdek, audiokitoblar ko‘plab janrlarda mavjud bo‘lib, har kim o‘ziga yoqadigan asarni topishi mumkin. Bundan tashqari, audiokitoblar ko‘ngil ochish va dam olish uchun ham ajoyib vosita hisoblanadi. O‘qish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish orqali, ularning yordamida insonlar o‘z bilim doirasini yanada kengaytirishlari mumkin. Audiokitoblar, shuningdek, ko‘r insonlar yoki o‘qish qiyinchiliklariga duch keladiganlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ular uchun audiokitoblar bilim olishning yangi imkoniyatlarini ochadi. Umuman olganda, audiokitoblar o‘qish jarayonini osonlashtiruvchi, qiziqarli va foydali vosita bo‘lib, ularning keng tarqalishi o‘quvchilarga yangi ufqlarni ochadi.[1]

Mobil ilovalar yordamida bilim olish jarayonini samarali tashkil etish

Mobil ilovalar yordamida bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda mobil ilovalar ta'lim olishni yanada qulay va samarali qilish imkonini beradi. Ushbu ilovalar yordamida talabalar istalgan vaqtda va joyda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Mobil ilovalar orqali taqdim etilgan interaktiv materiallar, video darslar va testlar, o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, matematikadan yoki til o‘rganishdan foydalanadigan ilovalar, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkonini beradi. Bunday ilovalar ko‘pincha gamifikatsiya elementlarini o‘z ichiga oladi, bu esa o‘qish jarayonini qiziqarli va jalb etuvchi qiladi. Shuningdek, mobil ilovalar orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida muloqot osonlashadi. O‘qituvchilar darslar davomida o‘quvchilarning savollariga tezda javob berishlari, shuningdek, ularning yutuqlari va muammolarini kuzatishlari mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini yanada individualizatsiya qilishga yordam beradi. Mobil ilovalar yordamida bilim olish jarayonini samarali tashkil etish uchun, o‘quvchilarga kerakli resurslar va qo‘llanmalar taqdim etilishi muhimdir. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘z darslarini mobil platformalarda qanday qilib samarali o‘tkazishni o‘rganishlari lozim. Umuman olganda, mobil ilovalar ta'limni yangi darajaga olib chiqishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.[3]

O‘quvchilar uchun audiokitoblar va mobil ilovalar orqali ta’limni rivojlantirish imkoniyatlari

O‘quvchilar uchun audiokitoblar va mobil ilovalar ta’lim jarayonini rivojlantirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Audiokitoblar, o‘quvchilarga kitoblarni eshitish orqali bilim olish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, ko‘rish qobiliyati cheklangan yoki o‘qish qiyin bo‘lgan bolalar uchun juda foydali. Audiokitoblar orqali o‘quvchilar turli mavzularda ma'lumotlarga ega bo‘lishadi va ularni eshitish orqali tasavvurlarini kengaytirishadi. Mobil ilovalar esa ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishda yordam beradi. O‘quvchilar uchun mo‘ljallangan ilovalar, masalan, matematikadan, til o‘rganishdan yoki tarixdan turli o‘yinlar, testlar va topshiriqlarni taklif etadi. Bu ilovalar orqali

ISSN: 2992-9210

o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash bilan birga, o‘z vaqtlarini samarali o‘tkazadilar. Mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘z darajalariga mos materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa individual o‘qish jarayonini rivojlantiradi. Shuningdek, audiokitoblar va mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini baham ko‘rish va guruhda ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishlari mumkin. O‘quvchilar birgalikda audiokitoblarni eshitish yoki mobil ilovalar orqali o‘yinlar o‘ynash orqali hamkorlik qilishni o‘rganadilar. Natijada, bu vositalar nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, audiokitoblar va mobil ilovalar ta’lim jarayonida muhim o‘rin egallaydi. [5]

Audiokitoblarning psixologik va pedagogik afzalliklari

Audiokitoblar nafaqat o‘qish jarayonini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarning psixologik rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ovoz orqali qabul qilingan ma’lumotlar tasavvur faoliyatini kuchaytiradi, obrazli fikrlashni rivojlantiradi hamda matnni mazmunan tushunishga ko‘mak beradi. Ayrim o‘quvchilar matnni ko‘z bilan o‘qiganda fikrini jamlay olmaydi, ammo eshitish orqali osonroq idrok etadi. Bu jarayon o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’limni moslashtirishga imkon yaratadi. Shuningdek, audiokitoblar o‘qish bilan bog‘liq qo‘rquv va zo‘riqishni kamaytiradi. Masalan, uzun matnlarni o‘qishga qiynaladigan yoki diqqat yetishmovchiligi bo‘lgan bolalar audiokitob yordamida mavzuni yengilroq o‘zlashtiradi. Ovozning intonatsiyasi, pauzalar, ritm — bularning barchasi o‘quvchini matnga chuqurroq kirib borishga undaydi. Pedagoglar tajribasiga ko‘ra, audiokitoblar dars jarayonida motivatsiyani oshiradi. O‘quvchilar audio shakldagi materiallarni tinglaganlarida, undagi hikoya, obrazlar yoki ilmiy tushunchalarni tezroq eslab qolishadi. Natijada, ular o‘z fikrlarini ravon ifoda etishga va og‘zaki nutqini boyitishga muvaffaq bo‘lishadi.[6]

Mobil ilovalarning ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi: xorij tajribasi va O‘zbekiston amaliyoti

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida mobil ta’lim — “m-learning” konsepsiyasi keng qo‘llanilmoqda. AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Finlyandiya kabi mamlakatlarda o‘quvchilarning 60–80 foizi ta’limning ayrim qismini aynan mobil ilovalar orqali olishadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bunday yondashuv o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha eslab qolish darajasini o‘rtacha 25–40 foizgacha oshiradi. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron darsliklar, testlar, qo‘shimcha o‘quv resurslari, audiokitoblar hamda mobil platformalardan foydalanish ko‘lamining kengayishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. “Bilimlar bellashuvi”, “Kutubxona”, “EduPortal” kabi ilovalar o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish imkonini bermoqda. Shuningdek, ko‘plab maktablarda dars jarayonini mobil ilovalar orqali baholash, topshiriq yuborish yoki test o‘tkazish amaliyoti joriy qilinmoqda. Bu o‘qituvchiga:

— o‘quvchilar faolligini kuzatib borish,
— individual o‘zlashtirish darajasini baholash,
— kamchiliklarni tezda aniqlash,
— darsni aniq rejalashtirish

imkonini beradi. Shu bilan birga, mobil ta’limning ayrim cheklovlari ham mavjud: internet sifati, qurilmalar yetishmasligi, ota-onalarning texnologiyadan foydalanish bo‘yicha xabardorligining pastligi. Ammo bular bosqichma-bosqich hal qilinayotgan masalalardir.[9]

Audiokitoblar va mobil ilovalardan foydalanishda o‘qituvchining roli

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayoniga qanchalik kirib kelmasin, ularni to‘g‘ri boshqarish va maqsadga muvofiq yo‘naltirish o‘qituvchining zimmasidadir. O‘qituvchi quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi kerak:

ISSN: 2992-9210

●Materiallarni tanlash

O‘quvchilarning yoshiga, bilimi va psixologik xususiyatlariga mos audiokitoblar va ilovalarni tanlash muhim. Juda murakkab yoki aksincha, juda sodda materiallar o‘qish jarayonini samarasiz qiladi.

●Tinglash va o‘qish jarayonini uyg‘unlashtirish

Audiokitobni shunchaki tinglash emas, balki uni matn bilan solishtirish, obrazlarni tahlil qilish, tushunchalarni sharhlash orqali haqiqiy o‘rganish yuzaga keladi.

●Mustaqil ta’limga yo‘naltirish

Mobil ilovalar o‘quvchilarda mas’uliyat va mustaqillikni shakllantiradi. O‘qituvchi ularga qanday qilib samarali foydalanishni, qanday resurslar foydaliroq ekanini tushuntirishi zarur.

● Faol metodlardan foydalanish

Audiokitobni tinglagandan so‘ng munozara, rolli o‘yin, savol-javob, esse yozish kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.[1]

Audiokitoblar va mobil ilovalardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklari

Zamonaviy texnologiyalar ta’limda nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy samaradorlik ham beradi. Quyidagi omillar bunga misol bo‘ladi:

●Bosma kitoblar xarajatining kamayishi – Audiokitoblar va elektron darsliklar ko‘plab oilalar va maktablar uchun iqtisodiy jihatdan qulay.

●Qulaylik va vaqt tejalishi – O‘quvchi darsga tayyorlanishni istalgan joyda davom ettira oladi.

●Ta’limning ommaboplashuvi – Qishloq hududlardagi bolalar ham sifatli resurslarga ega bo‘lish imkoniga ega.

●Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun imkoniyatlar – Eshitish, ko‘rish yoki o‘qish qiyinchiligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun audiokitoblarning ahamiyati beqiyos. Ushbu jihatlar audiokitoblar va mobil ilovalar ta’lim sohasida teng imkoniyatlar yaratishda juda muhim vosita ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.[4]

Xulosa qilib aytganda, audiokitoblar va mobil ilovalar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini kengaytirish, yangi ma'lumotlarni o‘zlashtirish va o‘qish madaniyatini rivojlantirish imkonini beradi. Audiokitoblar orqali o‘quvchilar matnlarni eshitish orqali ko‘proq ma'lumot qabul qilishlari mumkin, bu esa ularning eslab qolish qobiliyatini oshiradi. Mobil ilovalar esa interaktiv va qiziqarli o‘qish tajribasini taqdim etadi, bu o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Bundan tashqari, audiokitoblar va mobil ilovalar o‘qish jarayonini individual ravishda moslashtirish imkonini beradi, bu esa har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlariga javob beradi. O‘qish jarayonida innovatsion yondashuvlar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada kengaytirishlari, yangi ko‘nikmalarni egallashlari va o‘z-o‘zini rivojlantirishlari mumkin. Shu sababli, audiokitoblar va mobil ilovalar ta'lim jarayonida muhim vositalar sifatida qaralishi lozim. Ular kelajak avlodni bilimli, ijodkor va raqobatbardosh qilishda katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimjonova, R. I. Digital ta’lim vositalari – audiokitoblar va mobil ilovalar yordamida 8–9-sinf o‘quvchilarining bilish motivatsiyasini rivojlantirish.
https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/17881

2. Rizal, D., & others. (2022). Audiobooks as media to increase listening and speaking skills: A qualitative systematic review.
https://journal.uin-alauddin.ac.id/index.php/Eternal/article/view/25896

ISSN: 2992-9210

3. Garzón, J., Burgos, D., Kinshuk, Tlili, A. (2025). Mobile learning significantly enhances student learning gains: A meta-analysis and research synthesis.
https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0360131525001836
4. Effects of Mobile Learning in English Language Learning: A Meta-Analysis and Research Synthesis. Electronics (MDPI) Journal.
https://www.mdpi.com/2079-9292/12/7/1595
5. Xolmatova, D. (2020). Mobil ta'lim ilovalari: imkoniyatlar va muammolar. O‘zbekiston yoshlar ilmiy jurnali, 2(1), 15-20.
6. Tursunov, S. (2021). Audiokitoblar orqali o‘qish motivatsiyasini oshirish. Ta'lim va innovatsiyalar, 6(4), 67-74.
7. Ruiz-Martínez, A., Castañeda, L., Fernández-Breis, J. (2022). A systematic literature review on the development and use of mobile learning (web) apps by early adopters.
https://arxiv.org/abs/2212.13480
8. Kamolova, M. S. Multimedia vositalarining ona tili va adabiyot fanlaridagi o‘rni va samaradorligi.
https://scientific-jl.com/tad/article/view/15335
9. Nugud, M., Dafalla, A., & Awooda, E. (2021). Effect of mobile learning on academic achievement and attitude of Sudanese dental students.
https://bmcmededuc.biomedcentral.com/articles/10.1186/s12909-021-02509-x

ISSN: 2992-9210

O‘ZBEK TILIDAGI TUB SO‘ZLARNING DERIVASION XUSUSIYATLARI

СВОЙСТВА ДЕРИВАЦИИ ОСНОВНЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

DERIVATIONAL PROPERTIES OF ROOT WORDS IN UZBEK LANGUAGE

Shodiyev Fakhriddin Teshaevich

Shodiyev F.T.,
PhD in Philology ,Head of the Department of Theories of Primary and Pre-School Education at Samarkand State University,Acting Professor.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi tub so‘zlarning derivatsion mazmuni global mulohazalar vositasida o‘rganilgan hamda ularning o‘zigagina xos ichki strukturasi ham yoritilgan. Shuningdek, o‘zlashgan tub so‘zlarning o‘ziga xosligi ham tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar. *Global ta’lim, xalqaro integratsiya, lisoniy derivatsiya, so‘z yasalishi, singormanizm, hosila struktura, unli va undosh fonemalar.*

Аннотация. В данной статье исследуется деривационное содержание корневых слов в узбекском языке с помощью глобальных размышлений, а также раскрыта их специфическая внутренняя структура. Кроме того, изучены особенности заимствованных корневых слов.

Ключевые слова. *Глобальное образование, международная интеграция, лексическая деривация, словообразование, синхронизм, производственная структура, гласные и согласные фонемы.*

Annotation. This article explores the derivational content of root words in the Uzbek language through global considerations, and it also highlights their unique internal structure. Additionally, the characteristics of borrowed root words are investigated.

Keywords: *Global education, international integration, linguistic derivation, word formation, synchrony, derivative structure, vowel and consonant phonemes.*

Tilshunoslikning hozirgi davri bosqichida – global ta’lim tizimida til taraqqiyoti derivasion masalalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi, zotan, tilning leksik-morfologik sathida ham, sintaktik sathida ham sistema belgilarini o‘zaro munosabati va buning natijasida hosilalar vujudga kelishi derivasion taraqqiyot bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois ayni paytda *«derivasiya»* terminiga izoh berish birinchi galdagi vazifa ko‘rinadi.

«Derivasiya» so‘zi aslida lotincha bo‘lib (derivatio), *tarmoqlanish, shakllanish* ma'nolarini taqozo etadi va bu orqali tilshunoslikda muayyan til birligining boshqa bir birlik asosida shakllanishi tushuniladi{1}.

Aytish lozimki, hozirgi tilshunoslikda derivasion muammolar quyidagi uch yo‘nalishda tadqiq etilmoqda: *1. Leksik derivasiya. 2. Sintaktik derivasiya. 3. Semantik derivasiya.* Leksik derivasiya so‘zning grammatik shakllari hamda so‘z yasalishi muammolari bilan, sintaktik derivasiya so‘z

ISSN: 2992-9210

birikmalari hamda gapdan boshlab matngacha bo‘lgan hududda hosila qurilmalar shakllanishi masalalari bilan, semantik derivasiya esa til birliklari hamda sintaktik qurilmalarni qayta nomlash masalalari talqini bilan shug‘ullanadi.

Aslini olganda *derivasiya* tushunchasi XX asrning o‘rtalarida Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyandalaridan biri Eji Kurilovich tomonidan iste'molga kiritilgan edi. Olimning «Derivasiya leksicheskaya i derivasiya sintaksicheskaya» nomli maqolasi rus tilida chop etilgandan keyin esa rus tilshunosligida derivatologiya masalalari tadqiqi yanada ko‘proq e'tibor qozona boshladi{2}.

Derivatologiya muammolari bobida o‘zbek tilshunosligida ham jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari bajarildi va buning natijasida Samarqand derivatologiya maktabi vujudga keldi{3} va mazkur maqola ham ana shu maktab tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarildi.

Leksik derivasiya haqida so‘z yuritar ekanmiz, bu o‘rinda biz *tub so‘zlar* asosida shakllangan hosila so‘zlarni nazarda tutamiz. Aytish lozimki, so‘z yasalishi bobida tilshunoslikda, shu jumladan o‘zbek tilshunosligida ham salmoqli tadqiqot ishlari bajarilgan. Fikr dalili sifatida prof. A. G‘ulomov va akad. A. P. Hojievlarning bu sohada bajargan qator ishlarini ko‘rsatish mumkin{4}. Mazkur tadqiqot ishlari o‘zbek tilshunosligida leksik derivasiya muammolarini o‘rganish bobida dasturilamal bo‘lishi shubhasizdir. Shunday bo‘lgach, A. G‘ulomov, A. Hojievlardan o‘tib biror yangi fikr aytishning o‘zi amri maholdir. Ana shu bois mazkur maqolamizda tub so‘zlarning derivasion xususiyatlarini sof formal nuqtai nazardan izohlashga harakat qildik va bu jarayonda hozirgi derivatologiyada qo‘llanilayotgan *«operand», «operator»* hamda *«derivat»* terminlaridan foydalanamiz.

Polshalik tilshunos, Praga lingvistik maktabining yirik namoyandalaridan biri Eji Kurilovich so‘z yasalishi bilan bog‘liq derivasion jarayon xususida fikr bildirganida, bunda derivasiyaning ikki turi – leksik va sintaktik derivasiyalar voqelanishi mumkinligini uqtiradi.

Olim derivat o‘z ma'nosiga ko‘ra operand ma'nosidan farqlanmay, faqat o‘zi tegishli bo‘lgan morfologik turkumiga ko‘ra farqlansa, bunday shakllanish sintaktik derivasiyani taqozo etishini, derivat o‘z ma'nosiga ko‘ra yasovchi asos (operand)dan farqlansa, bunday vaziyatda leksik derivasiya hodisasi ro‘y berishini ta'kidlaydi{5}. Mazkur qoidalarni faktik til materialiga tadbiq etsak, quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1. Lanj (sifat) – lanjlik (ot) = sintaktik derivasiya.
2. Band (sifat) – bandi (ot) = leksik derivasiya.

Keltirilgan misollarning birinchisida *lanjlik* so‘zining ma'nosi *lanj* so‘zi ma'nosi bilan bir xil. Lekin hosila struktura mazkur ma'noni ot shaklida ifodalamoqda va bu jihatdan aniqlovchi vazifasida keladigan *lanj* so‘zidan sintaktik funksiyasiga ko‘ra farqlanadi. Shu bois ayni paytda sintaktik derivasiya voqelanganligi xususida so‘z yuritilishi mumkin.

Ikkinchi misolda esa *band* so‘zi asosida shakllangan *bandi* hosilasi ma'nosiga ko‘ra yasovchi asosdan birmuncha farq qilmoqda.Agar *band* so‘zi ishg‘ol etilgan, egallangan ma'nolarini anglatsa, bandi so‘zi asir tushgan, asir qilib olingan odam, mahbus ma'nolarini taqozo etadi. Shuning uchun bu o‘rinda leksik derivasiya sodir bo‘lganligini ta'kidlash lozim.

Bizningcha, ayni paytda sintaktik derivasiya tushunchasining qo‘llanishi maqsadga muvofiq emas. Zotan, derivasiya hodisasi so‘z doirasida ro‘y bermoqda. Hosila strukturalarning gapdagi sintaktik vazifalarini esa yo‘rig‘i boshqa. Boshqacha aytganda, hosila strukturalar bajarishi mumkin bo‘lgan sintaktik vazifalari ularning derivasion turini ko‘rsatib berish uchun asos bo‘lolmaydi va umuman, so‘z qolipida voqelanadigan derivasiyani sintaktik derivasiya tarzida tushunish masala mohiyati talqinini berishni chigallashtiradi.

ISSN: 2992-9210

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bizning maqolamizda so‘z qolipida ro‘y beruvchi yasama so‘z shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan derivasiyaning barcha ko‘rinishlari leksik derivasiya tarzida talqin etildi. Sintaktik derivasiya deganda esa so‘z birikmalaridan boshlab matngacha bo‘lgan hududda voqelanuvchi derivasiyani tushunamiz.

Shunday qilib, tub so‘zlar asosida shakllangan fonetik strukturalari ko‘p komponentli so‘zlar hosilalari ham leksik derivasiya mahsuli sanaladi. Ayni paytda shuni ham aytish kerakki, ba'zi tilshunoslar tovush kompleksi so‘zning tashqi qiyofasini tashkil etmaydi, degan fikrdalar. Masalan, V.N.Golovin fonemalar so‘zning tashqi qiyofasini ifodalovchi tovush kompleksini ko‘rsata olmasligini, ular faqat so‘zning shakllanishini tashkil etishini ta'kidlaydi{6}. Bizningcha, mazkur fikrga qo‘shilish qiyin, zotan, omonimlardan tashqari qariyb barcha so‘zlar nafaqat ma'nolariga ko‘ra, fonetik strukturasiga ko‘ra ham biri ikkinchisidan farqlanadi. Buning dalili sifatida ishimizning oldingi sahifalarida talqin qilingan *unli + undosh + undosh yoki undosh + unli + undosh* qolipidagi tub so‘zlarni keltirishimiz mumkin. Fonetik strukturasi ko‘p komponentli tub so‘zlar misolida ham buni ko‘rsa bo‘ladi. Misol uchun fonetik strukturasi to‘rt komponentli so‘zlarni olaylik. Mazkur qolipdagi to‘rt komponentli so‘zlar fonetik shaklga ko‘ra ikki xildir: *1. undosh + unli + undosh + undosh . 2. undosh + undosh + unli + undosh.*

Bu singari tub so‘zlarning aksariyati o‘zlashma so‘zlardan iborat bo‘lib, ularning derivasion salmog‘i fonetik strukturasi uch komponentli tub so‘zlarga qaraganda ancha past darajalidir. Ko‘plari esa umuman hosila shakllantirmagan. Ular jumlasiga *bolt, brom, bunt, burj, vrach, darz, zaxm, kadr, kaft, krem, lahm, lunj, matn, match, milk, mo‘rt, nazm, narx, naqd, naql, nahr, nahs, nerv, payt, pakt, pand, pinj, razm, reys, romb, sadr, tark, turq, fond, funt, tort, xasm, xatm, sink, cho‘ng, qavm, qavs, xajr, bron, graf, grif, drap, plug, stol, stul, stun, trap, tros, frak, shkaf, shtab, shtik, shpal* va h.k. kabilarni kiritish mumkin.

Quyida avval fonetik strukturasi *undosh + unli + undosh + undosh* qolipdagi tub so‘zlarning derivasion faolllik darajasiga e'tibor qaratamiz:

1. Bank (rus tili orqali o‘zlashgan). To‘lov, kredit va boshqa hisob – kitob ishlarida vositachilik qilib turuvchi muassasa. Bankir – yirik aksiyalar yoki bank egasi. Bankrot – singan sarmoya egasi. Bankrotlashmoq - sinmoq.

2. Baxt (f-t) – baxtiyor – baxtiyorlik – baxtli – baxtsiz – baxtnoma – baxtsizlik.

3. Do‘st (f-t) – do‘stlarcha – do‘stlash – do‘stlashtir – do‘stlik – do‘stona – do‘stparvar.

4. Jins (arab.) – jinsdosh – jinsiy.

5. Jips (o‘zb.)– jipsla – jipslash – jipslashtir – jipslik – jipslashtiril.

6. Mard (f-t) – mardlarcha – mardlik – mardona – mardonavor – mardonavorlik – mardchasiga.

7. Ming (o‘zb.) – mingboshi – mingboshilik – mingdevona (zaharli o‘t) – minglab – minglik – mingoyoq – mingchi.

8. Gang (f-t) – gangi – gangiraklamoq – gangiramoq – gangiratmoq – gangitilmoq – gangitmoq – gangramoq – gandiraklamoq – gandiraklatmoq – gandiraklanmoq.

9. Sabr (arab.) – sabrli – sabrsiz – sabrsizlanmoq – sabrsizlik – sabr-toqat – sabr-toqatli – sabr-qanoat – sabr-qanoatli – sabr-qaror.

10. Shakl (arab.) – shaklan – shakldor – shakllanmoq – shakllan – shakllantirmoq – shaklli – shaklsiz – shakl-shamoyil.

11. Charx (f-t) – charxla – charxlan – charxlat – charxpalak – charxchi.

12. Shaxs (arab.) – shaxsan – shaxsiy – shaxsiya – shaxsiyat – shaxsiyatparast – shaxsiyatparastlik.

13. Qasd (arab.) – qasddan – qasddor – qasdkor – qasdlan – qasdlash – qasdma-qasdga.

14. Yurt (o‘zb.) – yurtgarchilik – yurtdosh – yurtlik – yurtfurush – yurtchilik.

ISSN: 2992-9210

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, derivasiya jarayonida o‘zlashma so‘zlar orqali ifodalangan denotat signifikati u etalon tilda qanday bo‘lgan bo‘lsa, o‘shanday holatda qoladi. Boshqacha aytganda, o‘zlashma tub so‘z derivasiya operandining mazmuni markazini tashkil etadi, derivasiya operatori esa unga qo‘shimcha ma'no tirkay oladi. Masalan, yuqorida berilgan arab tilidan kirgan **shakl** so‘zining derivasion xususiyatlariga ahamiyat beraylik.

Shakl – denotat (derivasiya operandi).

Shakl + lan (derivasiya operatori –(l)an denotat signifikatiga ravish ma'nosini berib, ot – ravish modelidagi derivasiyani voqelantirmoqda).

Shakl + dor (derivasiya operatori –dor denotat signifikatini mazmunan sifatga ko‘chirib, ot – sifat modelidagi derivasiyaga yo‘l ochmoqda).

Shakl + lan (derivasiya operatori – lan denotat signifikatiga harakat ma'nosini berib, ot – fe'l modelini shakllantirmoqda) va h. k.

Shuni ham aytish lozimki, derivasion jarayonda operatorning operand ma'nosiga ta'sir etib, uni o‘zgartirishi muhim hodisa hisoblanmaydi. Bunda eng asosiy narsa derivasiya natijasida yangi hosilaning voqelanishidir. Akad. A. Hojiev bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: « … so‘z yasalishidagi asosiy narsa so‘z yasovchining o‘zi qo‘shilgan so‘z (so‘z yasalish asosi) ma'nosini o‘zgartirishi emas. Bundagi asosiy narsa, mohiyat har ikki qismning birikuvidan yangi birlik – lug‘aviy birlik, leksema yuzaga kelishi, hosil bo‘lishidir. So‘z yasovchi yordamida bir turkumga oid so‘zdan boshqa turkumga oid so‘z yasalishining o‘ziyoq fikrimizga dalil bo‘la oladi»{7}.

Akademik L.V. Shcherba ta'biri bilan aytganda, so‘z yasalishi asosiy e'tibor yangi so‘zlarning qay tarzda shakllanishiga qaratiladi, tayyor holdagi so‘zlarning tabiatini o‘rganish esa lug‘atlarning ishidir{8}.

Ana shundan kelib chiqib, leksik derivasiyaning hosilasi har safar yangi lug‘aviy birlikni taqozo etadi, degan xulosaga kelish mumkin. Mazkur xulosa faqat tub so‘zdan hosila shakllanishiga emas, balki hosiladan hosila yasalishiga ham taalluqlidir.

Derivasion jarayonda hosila strukturaning shakllanishi, jarayon sodda yoki murakkab bo‘lishidan qat'i nazar, sintagmatik qator doirasida ro‘y beradi. Biroq hosiladan hosila yasalganda mazkur sintagmatik qator unsurlari munosabati murakkablashib boradi. Masalan, yuqorida keltirilgan quyidagi uch bosqichli derivasiyaga e'tibor qarataylik:

Stan – ok – soz – lik

Ayni paytda sintagmatik qator sathida morfemalararo munosabat shakllanib, derivasiyaning har bir bosqichida yangi operator avvalgi operatorni inkor etmoqda. Biroq derivasion jarayon davomli bo‘lsa sintagmatik qatorda morfemalar munosabati yanada murakkablashishi mumkin:

Stan – ok – soz – chi – lik

Bu o‘rinda operatorlar paradigmasi haqida so‘z yurita olamiz, chunki bir hosila tarkibida faol holdagi – lik operatoridan tashqari , -ok, - soz, - chi kabi ayni paytda nofaol operatorlar ham qatnashmoqda. Ammo ularning nofaolligini nisbiy tushunmoq kerak. Boshqacha qilib aytganda, ular derivasiya operatori vazifasida ayni paytda nofaoldir, hosila so‘zning umumiy salmog‘i shakllanishida esa dinamik xarakter kasb etadi. Qiyoslang:

1. Stan + ok – operand stan, operator – ok.
2. Stanok + soz – operand stanok, operator – soz.
3. Stanoksoz + chi – operand stanoksoz, operator – chi.
4. Stanoksozchi+lik – operand stanoksozchi, operator – lik.

Ana shu tarzda nafaqat derivasiya operatorlari paradigmasi, operandlar va hosilalar paradigmalari haqida ham mulohaza yurita olamiz.

ISSN: 2992-9210

A.B. Dudnikovning ta'kidlashiga ko‘ra, yangi so‘z yasalishi jarayonida asosga qo‘shilayotgan qo‘shimcha avtonom (muxtor) xarakterli bo‘ladi. Mazkur qo‘shimcha so‘zning yangi grammatik shaklini yasar ekan, mustaqil hayot kechira boshlaydi{9}.

Mazkur fikrga to‘liq qo‘shilish mumkin, zotan, derivasion jarayonda operandga tirkalayotgan affiksal operator faqat hosila yasabgina qolmasdan, o‘zi qatnashayotgan so‘zning sintagmatik qatorda faollashuvi uchun ham xizmat qiladi. Biroq ayni paytda affiksning «mustaqil hayot kechirishi»ni nisbiy tushunmoq kerak. Bu o‘rinda affiksning o‘zi tirkalayotgan so‘zni biror so‘z birikmasi yoki gap tarkibiga olib kira olishi nazarda tutilmoqda, xolos. Aslini olganda esa, har qanday affiksni qo‘llanilishi asosga tobedir. L. Elmslev ta'biri bilan aytganda, asos affiksga emas, balki affiks asosga muhtojdir. Bu hodisani olim *feterminasiya* hodisasi deb ataydi{10}. Albatta, affiks asosga birikib olgach, uning mustaqil derivasion faoliyati boshlanadi. Ana shu bois affiks derivasion jarayonda derivasiyaning mutlaq hokim unsuri – operator vazifasini bajaradi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, o‘zlashma hosilalar tarkibida kelgan derivasiya operatori vazifasidagi affikslar aksariyat hollarda kam mahsul ekanini: *gramm - grammli, kvars - kvarsit, krest - krestgul, press - presslamoq, spirt - spirtli, sport - sportchi, front - frontchi, shturm - shturmchi, spektr - spektral* kabi boshqa so‘zlar va ularning hosilalari misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Muxtasar aytganda, leksik derivasiya tushunchasi tilshunoslik fanida qadimdan o‘z o‘rniga ega bo‘lsa ham, uning tub so‘zlar doirasida formal – struktur tahlil nuqtai nazaridan talqin etilishi ilmiy yangilikni taqozo etadi va tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi bosqichi davrida o‘ta dolzarbdir. Zotan, hosila strukturalar derivasion xususiyatlari nafaqat til sistemasi unsurlari o‘rtasidagi munosabatlar doirasida, balki sistema unsurlarining nutqqa ko‘chirilishi masalalari talqini sathida ham salmoqli ahamiyat kasb etadi. Leksik derivasiya muammolari talqinida ham derivatologiyada qabul qilingan *operand* (derivasiya materiali), *operator* (derivasiyaning mutlaq hokim unsuri) va *derivat* (hosila) terminlaridan foydalaniladi. Hosila so‘zlar derivasiyaning bir bosqichli, ikki va ko‘p bosqichli turlari sathida shakllanishi mumkin va har safar bunda ierarxik munosabat vujudga keladi. Tub so‘zlar asosida shakllangan hosila strukturalarning barchasi derivasiyaning applikativ usuli vositasida yasaladi.

Xulosa qilib ta'kidlanganda, hosila strukturalar shakllanishi har safar *belgili, belgisiz va nol* operatorlarning biriga asoslanadi. Hosila strukturalarning barchasida ichki predikasiya (atomar predikasiya) hodisasini kuzatish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, leksik va sintaktik derivasiyalarni yaqinlashtiradi. Bunda turkiy tillarga xos singormanizmning ham o‘rni sezilib turadi. Biroq, shunday bo‘lishiga qaramay, leksik derivasiya o‘zining statik xarakterida qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 129.
2. Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М., 1962.
3. Турниязов Н. К. Синтаксическая деривация гипотаксиса в современном узбекском языке // АДД. – М., - 1985; G‘afforov A.A. Hozirgi o‘zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivasiyasi // Nomzod. dis. avtoref. – Samarqand, 1997; Бобоев У. Н. Синтаксическая деривация придаточного предложения времени в современном узбекском языке // АКД. – Алма-Ата, 1992; Mustafo Chetin. Hozirgi o‘zbek va turk tillarida so‘z birikmasi sintaktik derivasiyasi // Nomzod. dis. avtoref. – Toshkent, 2002; Yaxshiboyev G‘.X. Hozirgi o‘zbek tilida sodda gap sintaktik derivasiyasi // Nomzod. dis. avtoref. – Samarqand, 2004.

ISSN: 2992-9210

4. Гулямов А. Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. I. Аффиксация, часть первая. Словообразующие аффиксы имен. А.д.д. – М., 1955; Shu muallif: So‘z yasalishi // O‘zbek tili grammatikasi. I ж. – Тошкент, 1975; Ҳожиев А. So‘z yasalishi va leksika // Sovet davrida o‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. Uchinchi tom. – Тошкент, 1991; Shu muallif. Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi. – Toshkent, 1979; O‘zbek tili so‘z yasalishi. – Toshkent, 1989.

5. Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М., 1962 – с. 57 – 70.

6. Березин Ф.М., Головин В.Н. Общее языкознание. – М., 1979. – с. 170.

7. Yasama so‘z lisoniy birlikmi yoki nutq birligimi? // O‘zbek tili va adabiyoti № 1 , 2004.

8. Akad. L.B. Shcherbaning keltirilgan mulohazasi haqida qarang: Дудников А.В. Современый русский язык. – М., 1990.

9. Дудников А.В. Современый русский язык. – М., 1990. – С. 174.

10. Л. Ельмслевнинг mazkur mulohazasi haqida qarang: Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. – М., 1974. – С. 123.

ISSN: 2992-9210

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH BO‘YICHA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING COMPETENCIES IN THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN FUTURE EDUCATORS

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Sultonova Munavvar

Sultonova M.,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi
jahonag11@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyalarining ilmiy-nazariy asoslari konseptual tahlil asosida yoritiladi. Tadqiqotda 2019–2025 yillarda chop etilgan ilmiy manbalar hamda xalqaro tajribalar tizimli ravishda o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitiga mosligi baholangan. Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga integratsiyasi, etik me’yorlar, adaptiv o‘quv tizimlari va pedagoglarning SI savodxonligi kompetensiya modelining asosiy tarkibiy qismlari sifatida aniqlangan. Komparativ tahlilda Purdue University, Georgia Institute of Technology va Muhammad VI Polytechnic University tajribalari qiyosiy asos sifatida qo‘llangan. Natijada bo‘lajak pedagoglar uchun konsentrik rivojlanishga asoslangan SI kompetensiyalarining ilmiy-nazariy modeli ishlab chiqildi. Mazkur model O‘zbekiston oliy ta’limi uchun mos, innovatsion va amaliy ahamiyatga ega konseptual platformani taklif etadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, pedagog kompetensiyalari, adaptiv ta’lim, etik me’yorlar, oliy ta’lim, komparativ tahlil, raqamli pedagogika.*

Annotation: This article presents a conceptual analysis of the scientific-theoretical foundations of competencies required for future educators to effectively use artificial intelligence in the teaching–learning process. The study systematically reviews scholarly works published between 2019 and 2025 and evaluates their relevance to the educational context of Uzbekistan. The integration of AI in higher education, ethical considerations, adaptive learning systems, and AI literacy among educators are identified as core elements of the proposed competency framework. Comparative analysis draws upon the institutional experiences of Purdue University, the Georgia Institute of Technology, and the Mohammed VI Polytechnic University. Based on thematic synthesis, a concentric developmental model of AI competencies for future educators is formulated. The proposed framework offers an innovative and contextually relevant conceptual

ISSN: 2992-9210

platform for enhancing AI readiness in Uzbekistan’s higher education system.

Keywords: *artificial intelligence, teacher competencies, adaptive learning, ethics, higher education, comparative analysis, digital pedagogy.*

Аннотация. В данной статье представлен концептуальный анализ научно-теоретических основ формирования компетенций будущих педагогов по использованию искусственного интеллекта в образовательном процессе. Исследование основано на систематическом обзоре научных публикаций 2019–2025 годов и оценке их применимости в условиях системы высшего образования Узбекистана. Интеграция ИИ в обучение, этические нормы, адаптивные образовательные системы и ИИ-грамотность педагогов определены как ключевые компоненты предлагаемой модели компетенций. В сравнительном анализе использован опыт Purdue University, Georgia Institute of Technology и Mohammed VI Polytechnic University. На основе тематического синтеза разработана концентрическая модель развития компетенций будущих педагогов в сфере ИИ. Представленная концептуальная платформа обладает инновационной ценностью и отвечает актуальным потребностям высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, педагогические компетенции, адаптивное обучение, этика, высшее образование, сравнительный анализ, цифровая педагогика.*

Kirish. Sun'iy intellekt (AI), odatda inson aqlini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarining rivojlanishi, tobora "to‘rtinchi ta'lim inqilobi" deb ataladigan inqilobiy kuchga aylandi [1]. Bu chuqur o‘zgarish faqat yangi raqamli vositalarni joriy etishdan ancha keng qamrovli; Bu pedagogika va o‘rganishda tub paradigma o‘zgarishini ifodalaydi. Bu texnologik imkoniyat nafaqat qo‘shimcha kuch, balki buzuvchi kuch bo‘lib, tarixan standartlashtirishni individual o‘quvchilar yo‘nalishidan ustun qo‘ygan chuqur pedagogik asoslarni tizimli qayta baholashga majbur qiladi [2]. Bu tez rivojlanish muhim muammoni keltirib chiqaradi: pedagoglar bu sun'iy intellektga asoslangan muhitda samarali va axloqiy yo‘nalish uchun zudlik bilan yangi, ilg‘or kompetensiyalar to‘plamini ishlab chiqishlari kerak. Ushbu maqolada tahlil qilingan asosiy muammo shundaki, sun'iy intellektning imkoniyatlari, cheklovlari va axloqiy o‘lchamlarini aniqlovchi ilmiy-nazariy asos bo‘lmasa, pedagoglardan uning salohiyatidan foydalanish yoki uning ichki xavflarini kamaytirish kutib bo‘lmaydi. Shu sababli, ushbu maqola kelajakdagi pedagoglar rivojlanish va o‘qish kelajagini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy SI kompetensiyalari uchun ilmiy-nazariy asoslarni yaratishga qaratilgan.

Standartlashtirilgan ta'limdan shaxsiylashtirilgan ta'limga o‘tish sun'iy intellekt pedagogik modellarni qanday qayta shakllantirayotganini va bu yo‘lni boshqaradigan pedagoglardan qanday yangi ko‘nikmalar talab qilinishini chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi. SIning ta'lim ekotizimlariga integratsiyasi bir xil, standartlashtirilgan o‘quv dasturlaridan shaxsiy, moslashuvchan va yuqori samarali o‘quv muhitlariga katta o‘tish imkonini beradi. Ushbu o‘zgarish asosan sun'iy intellektning talabalar ma'lumotlarini real vaqt rejimida qayta ishlash va

ISSN: 2992-9210

tahlil qilish qobiliyati bilan amalga oshiriladi, shu orqali ta'lim tajribalarini individual ehtiyojlarga moslashtiradi. Bu pedagogik rivojlanish uchta asosiy ilova bilan namoyon boʻladi, ular birgalikda ishlaydi. Eng oldingi oʻrinda Adaptiv Oʻquv Tizimlari bor, ular SI algoritmlaridan foydalanib, oʻquvchining bilim darajasi, oʻrganish uslubi va tezligini baholaydi, ta'lim kontentini dinamik tarzda moslashtiradi va oʻquv yoʻnalishini optimallashtiradi. Ushbu tizimlar oʻquvchilarni passiv axborot qabul qilishdan faol, moslashtirilgan faollashtirishga olib chiqadi va oʻquvchilarni toʻgʻri sinovdan oʻtkazish va qoʻllab-quvvatlashni ta'minlaydigan maxsus oʻquv yoʻllarini taqdim etadi [3], [4]. Bularni toʻldiruvchi Intelligent Repetitoring Systems ham mavjud boʻlib, ular sun'iy intellektga asoslangan yordamchilar sifatida ishlaydi va talabalarga shaxsiy, yakka tartibda yoʻl-yoʻriq va real vaqt rejimida yordam beradi. Oʻquvchilarning javoblarini tahlil qilib, zaif tomonlarini aniqlash orqali ular zudlik bilan, maqsadli fikr-mulohaza va izohlarni taqdim etadi, bu esa individual repetitorlikni samarali aks ettiradigan muhit yaratadi [3], [1]. Nihoyat, sun'iy intellekt Avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohaza orqali baholashni tubdan oʻzgartirmoqda. Sun'iy intellekt yordamida qurollangan vositalar turli topshiriqlarni baholashni avtomatlashtirib, talabalarga tezkor, ob'ektiv va doimiy fikr-mulohaza taqdim etadi. Ushbu avtomatlashtirish pedagoglarni vaqt talab qiladigan ma'muriy vazifalardan muhim darajada ozod qiladi, ularga e'tiborini yuqori darajadagi oʻqitish faoliyatlariga, masalan, mentorlik, nozik munozaralarni tashkil etish va muhim ijtimoiy-hissiy yordam koʻrsatishga yoʻnaltirish imkonini beradi [3], [5].

An'anaviy sinf va yangi, sun'iy intellekt yordamida qoʻllab-quvvatlanadigan model oʻrtasidagi farq keskin boʻlib, ta'lim tajribasining tubdan qayta ta'riflanganini koʻrsatadi.

1-jadval: An'anaviy va sun'iy intellekt yordamida qoʻllab-quvvatlanadigan ta'lim modellari taqqoslanishi

Oʻlchami	**An'anaviy ta'lim modeli**	**Sun'iy intellekt bilan qoʻllab-quvvatlanadigan ta'lim modeli**
Kirish imkoniyati	Jismoniy joylashuv, dars jadvali va instruktorlarning mavjudligi bilan cheklangan	Har doim, istalgan joyda onlayn platformalar va moslashuvchan vositalar orqali mavjud
Kengayuvchanlik	Sinf hajmi va oʻqituvchi-oʻquvchi nisbatiga bogʻliq	SI platformalari orqali katta oʻquvchilar uchun oson kengaytirilishi mumkin
Shaxsiylashtirish	Cheklangan moslashtirish imkoniyati bilan hammaga mos yagona oʻquv dasturi	Har bir oʻquv uslubi va tezligiga moslashtirilgan moslashuvchan oʻquv yoʻllari
Fikr-mulohaza tizimlari	Qoʻlda baholash va davriy baholashlar	Real vaqtli avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza va bashoratli natijalar tahlili
Jarayon	Ma'ruzalar va standart topshiriqlar orqali passiv oʻrganish	SI asosidagi simulyatsiyalar, oʻyinlashtirish va repetitorlik tizimlari orqali interaktiv va immersiv oʻrganish
Samaradorlik	Vaqtni talab qiluvchi baholash va pedagoglar uchun cheklangan tarmoq kengligi	Avtomatlashtirilgan baholash, rivojlanishni kuzatish va

ISSN: 2992-9210

		kontent tavsiyalari bilan optimallashtirilgan o‘qish
Ma'lumotlarga asoslangan tahlillar	O‘quvchilar natijalari tendentsiyalarining minimal tahlili	Natijalarni kuzatish, aralashuv va o‘quv dasturini yaxshilash uchun sun'iy intellektga asoslangan tahlillar
Xarajat-samaradorlik	Pedagoglar uchun ko‘p ta'lim va infratuzilma tufayli yuqori xarajat	Avtomatlashtirish, kengaytirish va resurslarni optimallashtirish orqali uzoq muddatli xarajatlarni kamaytirish mumkin

Ushbu texnologik imkoniyatlarni tushunish birinchi qadamdir; Keyingi bosqich — ularni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan inson kompetensiyalarini aniqlash. Sun'iy intellektni ta'limga samarali integratsiya qilish faqat texnik malaka masalasi emas. Bu murakkab, ko‘p qatlamli kompetensiyalar to‘plamini talab qiladi, bunda mahoratli amaliy amaliyot, tanqidiy tushuncha va axloqiy oldindan ko‘ra bilish mavjud.

SI Foydalanish oddiy va aniq belgilangan vazifalar uchun SI vositalari bilan ishlash va ular bilan o‘zaro aloqada bo‘lish asosiy qobiliyatini ifodalaydi. Bunga generativ sun'iy intellektga so‘rov kiritish, moslashuvchan o‘rganish platformasida navigatsiya qilish yoki sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan fikr-mulohazalarga kirish kabi operatsion mexanizmlar kiradi. U sun'iy intellekt texnologiyalari bilan shug‘ullanish uchun zarur kirish nuqtasi bo‘lib, yuqori darajadagi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lib xizmat qiladi. Bu qatlam strategik yoki tanqidiy qo‘llanilishdan ko‘ra funksional operatsiyaga e'tibor qaratadi.

SI Kompetensiyasi SI vositalarini mahorat va samarali qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi va aniq pedagogik maqsadlarga erishish imkonini beradi. Bu ko‘nikma vositadan foydalanishni bilishdan tashqari, uni qachon va nima uchun qo‘llashni tushunishga o‘tadi, bu esa ta'limga maksimal ta'sir uchun yetadi. SI kompetentsiyasiga ega o‘qituvchi aqlli repetitorlik tizimini o‘z ichiga olgan dars rejasini strategik tarzda tuzishi, generativ model yordamida differensial baholash materiallarini yaratishi yoki moslashuvchan platformadan talabalar natijalari ma'lumotlarini tahlil qilib, o‘qitish strategiyalarini takomillashtirishi mumkin. Bu daraja sun'iy intellektni maqsadli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llash orqali o‘qitish va o‘rganish natijalarini yaxshilash bilan belgilanadi.

Mahoratli foydalanishdan tashqari, SI Savodxonligi SI tizimlari qanday ishlashini chuqurroq va tanqidiy tushunishni tashkil etadi. Bu kompetensiya sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy tamoyillarini tushunish, ularning tabiiy cheklovlarini tan olish va algoritmik tarafkashlik imkoniyatlarini tanqidiy o‘rganishni o‘z ichiga oladi. SI bilimdon o‘qituvchi sun'iy intellekt vositasining natijalarini baholashi, uning asosiy taxminlarini shubha ostiga olishi va uning kengroq ijtimoiy ta'sirlarini tushunishi mumkin. Bu savodxonlik shakli hozirda zamonaviy ta'lim zarurati sifatida qaraladi va 21-asr dunyosida an'anaviy o‘qish va matematika ko‘nikmalari kabi muhim ahamiyatga ega [5], [6].

Ushbu tizimning eng yuqori nuqtasida SI etikasi joylashgan bo‘lib, bu eng yuqori va eng muhim kompetentsiya darajasidir. Bu sun'iy intellektni ta'limda qo‘llashning axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda inson farovonligini rag‘batlantirish hamda potentsial zararlarni minimallashtirish uchun qarorlar qabul qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu darajada faoliyat yurituvchi o‘qituvchi ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik adolat, shaffoflik va sun'iy intellektning mavjud ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytirishi ehtimoli kabi murakkab masalalar bilan shug‘ullanadi. Ularning amaliyoti mas'uliyatli

ISSN: 2992-9210

innovatsiyalarga sodiqlik bilan boshqariladi, bu esa sun'iy intellektni o‘quv muhitiga nafaqat samarali, balki adolatli, adolatli va inson markazli tarzda integratsiya qilishni ta'minlaydi [3],[7].

Ushbu nazariy asos muhim yo‘l xaritasini taqdim etadi, ammo uning qiymati to‘liq faqat ta'lim muassasalari bu tamoyillarni amaliy, amaliy strategiyalarga aylantirganda amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu konseptual tadqiqot bo‘lajak pedagoglarda sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning metodologiyasi tizimli adabiyotlar sharhi, tematik tahlil va komparativ pedagogik yondashuvga asoslandi. Tadqiqotda, shuningdek, O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari, pedagoglarning SI savodxonligi va ta’limda SI joriy etish bo‘yicha mahalliy tadqiqotlar ham ko‘rib chiqildi. Mintaqaviy manbalarni jalb etish O‘zbekiston kontekstini xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Komparativ tahlil uchun Muhammad VI Polytechnic University (Marokash), Purdue University (AQSH) va Georgia Institute of Technology (AQSH) universitetlarining ta’lim jarayoniga SIni integratsiya qilish bo‘yicha amaliy modellariga murojaat qilindi. Ushbu universitetlarning tajribasi o‘quv jarayonida SIga asoslangan analitik platformalardan foydalanish, etik siyosatlarning shakllantirilishi va raqamli infratuzilma talablarining institutsional darajada ta’minlanishi bilan ajralib turadi. Mazkur tajribalar O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlarida mavjud sharoit va ehtiyojlar bilan solishtirilib, SI joriy etishdagi imkoniyatlar va cheklovlar aniqlandi. Natijada, tematik tahlil asosida bo‘lajak pedagoglar uchun konsentrik rivojlanish tamoyiliga tayangan SI kompetensiyalarining ilmiy-nazariy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model operatsion ko‘nikmalardan boshlab tanqidiy SI savodxonligi va etik ongga qadar ketma-ket chuqurlashuvchi kompetensiyalar tizimini o‘z ichiga oladi.

Natijalar. Sun'iy intellektni ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish tasodifiy jarayon emas; bu maqsadli, o‘ylangan va aniq ifodalangan institutsional strategiyalarni talab qiladi. Ko‘plab universitetlar bu muammo bilan kurashayotgan bir paytda, Marokashdagi Muhammad VI Universitetining yondashuvi sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish uchun tuzilgan tizim yaratishda qiziqarli misol bo‘lib xizmat qiladi [5]. Ularning "SI Integratsiya Ko‘rsatmalari" texnologik qabul bilan akademik halollikni saqlashni muvozanatlashga intilgan nozik modelni taklif etadi. Ko‘rsatmalar rasmiy ravishda talabalarni ilhom va fikr almashish uchun generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishga undaydi, ammo to‘liq topshiriqlarni yaratishda ulardan foydalanishni qat'iyan taqiqlaydi. Ularning strategiyasining asosiy ustunlaridan biri majburiy shaffoflikdir. O‘quvchilar sun'iy intellektdan barcha foydalanishni to‘liq hujjatlashtirishlari, qaysi vositadan foydalanilayotganini ko‘rsatishlari, uning jarayondagi rolini tushuntirishlari (masalan, "'MosaicAI'dan potentsial tadqiqot savollarini muhokama qilish"), sun'iy intellektning javoblarini baholashlari va uning ishdagi hissasini rasmiy ravishda tilga olishlari shart. Hujjatlashtirish va tanqidiy ishtirok bo‘yicha institutsional e'tibor sun'iy intellekt o‘rganish jarayonida hamkor bo‘ladigan madaniyatni shakllantirishga qaratilgan, uning o‘rnini bosuvchi emas.

Biroq, bunday ko‘rsatmalarni amalga oshirish katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, buni Marokash tajribasi ko‘rsatadi. Universitetning tizimsi talabalar talablariga katta tayanadi, bu esa kafolatlash yoki doimiy ravishda amalga oshirish qiyin. Keng qamrovli, amaliy tayyorgarliksiz talabalar sun'iy intellektning imkoniyatlari va cheklovlarini to‘liq anglamasligi mumkin, bu esa sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentdan noto‘g‘ri foydalanish yoki tanqidiy bo‘lmagan haddan tashqari tayanishga olib keladi. Bundan tashqari, talabalar ishida sun'iy intellektdan foydalanish darajasini nazorat qilish texnik jihatdan murakkab bo‘lib qolmoqda, bu esa pedagoglarga qoidalarga rioya qilishni va adolatsiz akademik ustunlikni oldini olishni qiyinlashtiradi [5].

Bu sinov hech qachon yagona emas. Dunyo bo‘ylab muassasalar sun'iy intellekt integratsiyasining turli shakllarini ilgari surmoqda. Masalan, Purdue Universitetining "Kurs Signallari"

ISSN: 2992-9210

tizimi xavf ostidagi talabalarni bashorat qilish va o‘z vaqtida aralashuvlarni amalga oshirish uchun o‘quv tahlilidan foydalanadi [2], Georgia Texnologiya Instituti esa "Jill Watson" nomli sun'iy intellekt o‘qituvchilik yordamchisini taqdim etdi, u onlayn forumlarda talabalar savollariga javob beradi va inson pedagoglarga murakkabroq ehtiyojlarni hal qilish imkonini beradi [5]. Ushbu misollar sun'iy intellektdan foydalanish bo‘yicha global harakatni ko‘rsatadi, shuningdek, barcha ta'lim muassasalari tizimli ravishda duch kelishi kerak bo‘lgan universal muammolar va axloqiy muammolarni ham ta'kidlaydi.

Ushbu amaliy jarayonlar misollari muqarrar ravishda barcha muassasalar duch kelishi kerak bo‘lgan universal muammolar va axloqiy muammolar haqida yanada jiddiy muhokamaga olib keladi.

Muhokama. SIni ta'limga integratsiya qilish istiqbolli bo‘lsa-da, jiddiy muammolar va axloqiy muammolar bilan to‘la bo‘lib, puxta va ilmiy tahlilni talab qiladi. Bu tashvishlar chet ellik emas; ular ta'lim tengligi, halolligi va talabalar farovonligining yuragiga zarba beradi. Mas'uliyatli yondashuv bu muammolarga umumiy ijtimoiy mas'uliyat doirasida yuzma-yuz kelishni talab qiladi.

Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari o‘quvchi ma'lumotlarini, jumladan, akademik natijalar, o‘quv xatti-harakatlari va shaxsiy identifikatorlarni o‘z ichiga olgan katta miqdordagi nozik talaba ma'lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish orqali ishlaydi. Bu keng ko‘lamli ma'lumot yig‘ilishi ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog‘liq jiddiy xavflarni keltirib chiqaradi, chunki kiberxavfsizlik buzilishlari maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishi va ishonchni yo‘qotishi mumkin [3]. Bundan tashqari, algoritmik tarafkashlikda muhim xavf mavjud. SI tizimlari mavjud ma'lumotlar to‘plamlari asosida o‘qitiladi, va agar bu ma'lumotlar tarixiy jamiyatdagi tengsizliklarni aks ettirsa, natijada hosil bo‘lgan algoritmlar ularni davom ettirishi yoki hatto kuchaytirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bashoratli modellar ma'lum o‘quvchilar uchun noto‘g‘ri salbiy natijalar keltirib chiqarishi mumkin, masalan, ayrim demografik guruhlarni noto‘g‘ri "xavf ostida" deb belgilash, bu esa noto‘g‘ri aralashuvlarga yoki rivojlanish imkoniyatlarining boy berilishiga olib kelishi mumkin [3], [7], [5].

Pedagoglar tomonidan bildirilgan eng dolzarb tashvishlardan biri ChatGPT kabi generativ sun'iy intellekt vositalari tomonidan akademik halollikka tahdid solmoqda. Ushbu modellarning murakkab, insonga o‘xshash matnni soniyalarda yaratish qobiliyati plagiat va akademik halollik uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni yaratadi [5]. Mohammed VI Universitetidagi hujjatlashtirish protokollari kabi institut choralari buni yumshatish uchun urinishlarni ifodalaydi, ammo muammo chuqur bo‘lib qolmoqda. Aldashdan tashqari, yanada chuqurroq pedagogik xavotir shundaki, sun'iy intellektga haddan tashqari tayanish talabalarning asosiy intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Agar talabalar tadqiqot, sintez va muammolarni hal qilish kabi kognitiv vazifalarni tizimli ravishda sun'iy intellektga yuklasalar, ular mustahkam ta'limning asosiy xususiyatlari bo‘lgan tanqidiy fikrlash, tahliliy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantira olmasligi mumkin [8], [5].

Ilg‘or sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish mavjud raqamli tafovutni yanada kuchaytirish xavfini tug‘diradi, bu esa ta'limdagi tengsizlikning yangi va kuchli o‘lchamini yaratadi. SI asosidagi o‘qishga mazmunli kirish uchun nafaqat qurilmalar, balki ishonchli, yuqori tezlikdagi internet ham talab qilinadi, bu esa qishloq, kam daromadli va rivojlanayotgan hududlar, masalan, Afrikaning ayrim hududlaridagi talabalar uchun muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda [9]. Bu tafovut shuni anglatadiki, ko‘proq imtiyozli oiladan kelgan talabalar shaxsiylashtirilgan sun'iy intellekt repetitorlari va ilg‘or o‘quv vositalaridan ko‘proq foyda ko‘rishi mumkin, boshqalar esa ortda qoladi, bu esa ta'lim natijalari va kelajak imkoniyatlari orasidagi farqni yanada kengaytiradi [3].

Ushbu chuqur muammolarni hal qilish yagona tashkilotning mas'uliyati emas. Umumiy ijtimoiy mas'uliyat tamoyiliga ko‘ra, axloqiy sun'iy intellektni joriy etish majburiyati texnologiya ishlab chiquvchilari o‘rtasida taqsimlanadi, ular adolatli va shaffof tizimlarni loyihalashlari kerak; tartibga soluvchi organlar, ular aniq huquqiy asoslarni yaratishi kerak; mas'uliyatli foydalanish siyosatini

ISSN: 2992-9210

yaratish va amalga oshirishi kerak bo‘lgan ta'lim muassasalari; va pedagoglarning o‘zlari ham ushbu kuchli yangi vositalar yordamida talabalarni axloqiy va tanqidiy munosabatga yo‘naltirishda oldingi safda turadi [7].

Bu muammolarni aniqlash birinchi qadamdir; Keyingi muhim bosqich — pedagoglar va muassasalar uchun yanada adolatli kelajak qurish uchun aniq, amaliy yechimlarni taklif qilish.

SI davrining murakkabliklarini yengib o‘tish va uning ijobiy o‘zgarish salohiyatidan foydalanish uchun oliy ta'lim muassasalari sun'iy intellektga tayyor madaniyatni faol ravishda rivojlantirishi kerak. Bu esa reaktiv siyosatlardan tashqari, pedagoglar va talabalar uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantiruvchi kompleks, integratsiyalashgan strategiyani amalga oshirishni talab qiladi. Muassasalar keng qamrovli va uzluksiz treningni ustuvor qilishi, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun mos, amaliy professional rivojlanishni taklif qilishi kerak. Ushbu dasturlar oddiy vositalarni boshqarishdan tashqariga chiqib, chuqur sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish, so‘nggi texnologik yutuqlar, ularning pedagogik qo‘llanilishi va axloqiy jihatlarini ko‘rib chiqishi kerak [3], [5]. Bunday treninglar akademik hamjamiyatning malakali va tanqidiy xabardorligini ta'minlash uchun doimiy jarayon bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, sun'iy intellekt bilan bog‘liq mavzular o‘quv dasturining o‘ziga singdirilishi kerak. SIni aniq kompyuter fanlari kurslariga ajratish o‘rniga, muassasalar SI tushunchalari va vositalarini turli akademik modullarga integratsiya qilishlari kerak, shu orqali SIning fanlararo ahamiyatini namoyish etishi va barcha talabalarni SI har joyda mavjud bo‘lgan kelajakka tayyorlashi kerak [5].

Bu pedagogik integratsiya aniq institutsional siyosatlarni ishlab chiqish orqali boshqarilishi kerak. Sun'iy intellektdan mas'uliyatli va axloqiy foydalanish uchun mustahkam siyosat tizimi muhokama qilinmaydi, u akademik yaxlitlik, ma'lumotlar maxfiyligi va algoritmik adolat kabi muhim masalalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal qiladi [3], [5]. Butun bu tashabbusning markazida tanqidiy hamkorlik madaniyatini rivojlantirish turadi. Pedagoglar o‘quvchilarga sun'iy intellekt vositalarini passiv ma'lumot manbai emas, balki muhim hamkor sifatida ishlatishni o‘rgatish huquqiga ega bo‘lishi kerak. Bu talabalarni SI tomonidan yaratilgan natijalarni aniqlik, tarafkashlik va dolzarblik bo‘yicha tizimli baholashga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi — bu amaliyot bir vaqtning o‘zida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantiradi va asosiy tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi [5]. Ushbu sa'y-harakatlarning barqaror va samarali bo‘lishini ta'minlash uchun muassasalar SI integratsiyasi uchun mas'ul rasmiy yordamchi rollar yoki maxsus bo‘linmalarni tashkil etishi kerak. Ushbu mutaxassislar yoki markazlar institutsional sun'iy intellekt madaniyatining katalizatori bo‘lib, ekspert yo‘riqnomasini taqdim etadi va sun'iy intellektni bo‘lak-bo‘lak harakatdan asosiy institut ustuvorligiga ko‘taruvchi tuzilgan, yaxshi qo‘llab-quvvatlangan strategiyani ta'minlaydi [5].

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish sun'iy intellekt ta'lim innovatsiyalari uchun kuchli va mas'uliyatli katalizator sifatida xizmat qiladigan ekotizimni yaratadi, bu esa o‘qitish va o‘rganishning yangi davriga zamin yaratadi.

Xulosa. Sun'iy intellektning integratsiyasi kelajakdagi proyeksiya emas, balki hozirgi haqiqat bo‘lib, to‘rtinchi ta'lim inqilobini belgilaydi. Uning o‘qishni o‘zgartirish salohiyati inkor etib bo‘lmaydi, chunki sun'iy intellekt yordamida qurilgan vositalar allaqachon o‘tmishdagi statik, hamma uchun bir xil modeldan ustun bo‘lgan shaxsiy, moslashuvchan va samarali ta'lim muhitlarini yaratmoqda. Biroq, bu salohiyatni mas'uliyatli tarzda ishlatish uchun pedagoglarimizni tayyorlashda chuqur o‘zgarishlar talab etiladi. Ushbu maqolada ko‘rsatilganidek, sun'iy intellektni sinfda samarali qo‘llash murakkab kompetensiyalar ierarxiyasini talab qiladi — asosiy foydalanish, mahoratli pedagogik qo‘llanilish, tanqidiy savodxonlik va eng muhimi, axloqiy integratsiyaga chuqur sodiqlik. Ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik, akademik halollik va raqamli tafovut kabi muammolar katta, lekin ularni yengib

ISSN: 2992-9210

o‘tish mumkin emas. Ular umumiy ijtimoiy mas'uliyat tuyg‘usi va strategik, dalillarga asoslangan institutsional harakat orqali boshqarilishi mumkin. Oxir-oqibat, sun'iy intellektning roli ta'limning markazidagi bebaho insoniy aloqani almashtirish emas, balki professional pedagoglarning salohiyatini oshirishdir. Tanqidiy ishtirok madaniyatini rivojlantirish va o‘ylangan, inson markazida siyosatlarni joriy etish orqali biz sun'iy intellektni barcha o‘quvchilar uchun yanada samarali, adolatli va jalb qiluvchi ta'lim kelajagini yaratishda kuchli kuchga aylantira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solorzano, V., Garzozi-Pincay, R.F., Calle García, T.M., Lainez-Villao, M.D., Alcivar-Ponce, J.L., Guandinango-Vinueza, Y.A. va Neira-Quinteros, V.P. (2024). To‘rtinchi ta'lim inqilobi va sun'iy intellektning pedagogikaga ta'siri. Tasavvuriy madaniyatda evolyutsion tadqiqotlar, 8(1), S2, 1117-1131-betlar.

2. Abbasi, B.N., Wu, Y. va Luo, Z. (2024). Sun'iy intellektning global oliy ta'lim muassasalarida o‘quv dasturini ishlab chiqishga ta'sirini o‘rganish. Ta'lim va axborot texnologiyalari, 30, 547–581-betlar.

3. Mansur (2025), Janubiy Karolina (ko‘rsatilmagan). SI ta'lim, kattalar ta'limi va raqamli savodxonlikda katalizator sifatida. Ko‘p tarmoqli tadqiqotlar uchun xalqaro jurnal (IJFMR).

4. El-Sabagh, H.A. (2021). O‘quv uslublari va uning rivojlanish talabalarining faolligiga ta'siri asosida moslashuvchan elektron o‘quv muhiti. Oliy ta'limda ta'lim texnologiyalari xalqaro jurnali, 18(1), 1–24-betlar.

5. Ismaili, Y. (2024). Marokash ta'limida sun'iy intellekt savodxonligi va moslashuvchan o‘qish: tanqidiy fikrlash va shaxsiylashtirilgan o‘qishni rivojlantirish. Ta'lim va Media bo‘yicha tadqiqotlar, 16(2).

6. Zhang, H., Lee, I., Ali, S., DiPaola, D., Cheng, Y. va Breazeal, C. (2023). O‘rta maktab o‘quvchilari uchun sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish uchun etika va kasbiy kelajakni texnik ta'lim bilan integratsiyalash: izlanish tadqiqoti. Ta'limda Sun'iy Intellekt Xalqaro Jurnali, 33(2), 290–324-betlar.

7. Lungu, V., Tabur, N. & Batog, M. (2025). Ta'limda sun'iy intellektni joriy etishda ijtimoiy mas'uliyat. Yevrosiyo Ta'lim va Ijtimoiy Fanlar Materiallari (EPESS), 41, 134-142-betlar.

8. Deshpande, A.S., Mahajan, S.R., Kulkarni, S.B. & Puri, S.A. (2024). Sun'iy intellektning ta'limga ta'siri: sharh. Xalqaro ilg‘or muhandislik va boshqaruv tadqiqot jurnali, 2(9), 2929–2934-betlar.

9. Onyebuchi, O.N.C., Unachukwu, C.C. & Osawaru, B. (2023). Ta'limda sun'iy intellekt sharhi: Afrikada o‘quv muhitini o‘zgartirish. Ijtimoiy fanlarda amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 5(10), 637–654-betlar.

ISSN: 2992-9210

UYUSHMAGAN YOSHLARDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA AGRESSIV XULQ ATVOR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF THE PREVENTION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR AMONG YOUNG PEOPLE

Suvanova Gulbaxor Baxromovna

Suvanova G.B.,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Umummetodologik fanlar” kafedrasi assistenti
gulbahorsuvanova787@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada uyushmagan yoshlarda agressiv xulq-atvor profilaktikasini tashkil etishning nazariy asoslari borasida fikr yuritiladi. Maqolada uyushmagan yoshlarda agressiv xulq-atvor tushunchasi, agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, uning psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillari tahlil qilinadi. Yoshlarning agressiv xatti-harakatlarini oldini olishga qaratilgan samarali profilaktika choralarini nazariy jihatdan asoslab berish hamda bu borada olib borilishi lozim bo‘lgan pedagogik mexanizmlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar*: Yoshlar, xulq-atvor, uyushmagan yoshlar, profilaktik tadbirlar, axborot oqimi, yoshlardagi agressivlik, mexanizm.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы организации профилактики агрессивного поведения у неорганизованной молодёжи. В статье анализируются понятие агрессивного поведения у неорганизованной молодёжи, причины его возникновения, а также психологические, социальные и педагогические факторы. Теоретически обосновываются эффективные меры профилактики, направленные на предупреждение агрессивных действий среди молодёжи, и обсуждаются педагогические механизмы, которые необходимо реализовать в данном направлении.

Ключевые слова: *молодёжь, поведение, неорганизованная молодёжь, профилактические мероприятия, информационный поток, агрессивность среди молодёжи, механизм.*

Annotation. This article examines the theoretical foundations of organizing the prevention of aggressive behavior among unorganized youth. It analyzes the concept of aggressive behavior in unorganized youth, the causes of its emergence, as well as its psychological, social, and pedagogical factors. The study theoretically substantiates

ISSN: 2992-9210

effective preventive measures aimed at reducing aggressive actions among youth and discusses the pedagogical mechanisms that should be implemented in this regard.

Keywords: *youth, behavior, unorganized youth, preventive measures, information flow, aggressiveness among youth, mechanism.*

Bugungi globallashuv va axborot oqimlari kuchaygan davrda yoshlarning ma’naviy olami, xulq-atvori hamda ijtimoiy munosabatlari katta o‘zgarishlarga uchramoqda. Ayniqsa, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmayotgan, ta’lim yoki mehnat jarayoniga jalb qilinmagan uyushmagan yoshlar o‘rtasida agressiv xulq-atvorning namoyon bo‘lishi jamiyat uchun jiddiy muammolardan biridir. Mazkur jarayonda yoshlarga qadriyatli yondashuv asosida tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish va pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda yoshlarning ijtimoiylashuvi, ularning tarbiyaviy faoliyati va jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonida turli muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Shulardan eng dolzarb masalalardan biri — uyushmagan yoshlar orasida agressiv xulq-atvorning kuchayib borishidir. Agressiv xatti-harakatlar nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bu jarayonni nazariy jihatdan o‘rganish va samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. [1, 78-b].

Yoshlar jamiyatning eng faol va dinamik qatlami sifatida mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Biroq ayrim yoshlar turli sabablarga ko‘ra uyushmagan guruhlarga qo‘shilib qolishi mumkin. Uyushmagan yoshlar – bu ta’lim-tarbiya tizimidan chetda qolgan, ma’lum bir ijtimoiy institutlar faoliyatiga jalb qilinmagan, ijtimoiy nazoratdan mahrum bo‘lgan yoshlar qatlamidir.

Uyushmagan yoshlar masalasining shakllanishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi:

Ijtimoiy omillar – oilaviy muammolar, yetarli nazoratning yo‘qligi, mahalla va jamoatchilikning sust faolligi.

Psixologik omillar – o‘z-o‘zini anglashdagi qiyinchiliklar, agressivlik, o‘zini namoyon etish istagi.

Pedagogik omillar – ta’lim muassasalari faoliyatidagi kamchiliklar, yoshlarni qiziqtira olmaslik, tarbiyaviy jarayonning samarador emasligi. [2, 101-b].

Uyushmagan yoshlar orasida ijtimoiy xavfli oqimlar va turli deviant xatti-harakatlarning ko‘pligi kuzatiladi. Ular jamiyat xavfsizligi, barqarorligi va axloqiy qadriyatlariga tahdid solishi mumkin. Shu sababli, uyushmagan yoshlar bilan ishlashda qadriyatli yondashuv, gumanistik pedagogika, psixologik maslahat va ijtimoiy loyihalarga jalb etish kabi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan. Uyushmagan yoshlar va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari Uyushmagan yoshlar — bu ta’lim muassasalarida o‘qimayotgan, ish bilan band bo‘lmagan yoki ma’lum bir jamoaga mansub bo‘lmagan shaxslar hisoblanadi. Bunday yoshlar ko‘pincha: - bo‘sh vaqtini samarasiz o‘tkazadi; - turli salbiy guruhlarning ta’siriga tez beriladi; - o‘zini namoyon qilish, jamiyatda o‘rnini topish istagida bo‘ladi; - psixologik beqarorlik, agressiv reaksiya va nizolashuvchanlikka moyillik ko‘rsatadi.

Ikkinchidan. Agressiv xulq-atvorning kelib chiqish omillariUyushmagan yoshlarda agressiv xulq-atvorning kuchayishiga quyidagi omillar sabab bo‘ladi: - oilaviy muammolar (e’tibor yetishmasligi, ijtimoiy himoya sustligi); - ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik hissi; - ijobiy namunalar yetishmasligi; - virtual dunyo va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi axborot manbalari; - o‘zini ijtimoiy jihatdan foydasiz deb his qilish.

Uchinchidan. Qadriyatli yondashuvning mohiyatiQadriyatli yondashuv yoshlarni insoniy fazilatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Bu yondashuvda: -

ISSN: 2992-9210

shaxsning o‘zini anglash, hurmat qilish va jamiyatda qadrlanishi; - milliy urf-odat va an’analarni singdirish; - vatanparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, adolat kabi qadriyatlarni shakllantirish; - ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirish asosiy o‘rin tutadi.

To‘rtinchidan. Agressiv xulq-atvor profilaktikasining pedagogik mexanizmlari [3, 13-b].

Uyushmagan yoshlar o‘rtasida agressiv xulq-atvorning oldini olish quyidagi pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkin: 1. Ma’rifiy mexanizm – yoshlarni milliy qadriyatlar, huquqiy bilimlar va sog‘lom turmush tarzi haqida muntazam ma’lumot bilan ta’minlash. 2. Tarbiyaviy mexanizm – yoshlarni ijtimoiy foydali mehnat, madaniy-ma’naviy tadbirlar, sport musobaqalari va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish. Psixologik mexanizm – shaxsiy suhbatlar, psixologik treninglar, konfliktologiya mashg‘ulotlari orqali agressiyani konstruktiv yo‘naltirish.

3. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi – mahalla, ta’lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar hamkorligida yoshlarning bandligini ta’minlash.

4. Innovatsion mexanizm – axborot texnologiyalaridan foydalanib, ijobiy kontent yaratish, yoshlar uchun motivatsion platformalar tashkil etish.

Kutilayotgan natijalar

Mazkur mexanizmlar tizimli ravishda amalga oshirilsa: - uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi ortadi; - agressiv xulq-atvorning oldi olinadi; - milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kuchayadi; - yoshlar jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. XulosaUyushmagan yoshlarda agressiv xulq-atvorni bartaraf etish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda qadriyatli yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik mexanizmlar – ma’rifiy, tarbiyaviy, psixologik, ijtimoiy va innovatsion faoliyatlar uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda samaradorlik yuqori bo‘ladi. Zero, yoshlarni qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalash – nafaqat individual xulq-atvorni, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ham kafolatlaydi. [4, 38-b].

Bugungi globallashuv jarayonida uyushmagan yoshlar muammosi nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb masalalardan biridir. Agressiv xulq-atvor yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka va xavfsizlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, xorij mamlakatlarida bu muammoni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik mexanizmlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish muhim ilmiy vazifadir.

1. AQSh tajribasi – yoshlar orasida agressiv xulq-atvorni kamaytirish uchun ijtimoiy-emosional ta’lim dasturlari (SEL) keng qo‘llanilmoqda. Bu dasturlar maktab o‘quvchilarida empatiya, o‘zini boshqarish, konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Yevropa mamlakatlari – Germaniya, Fransiya va Skandinaviya davlatlarida yoshlarni ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali agressiv xulq-atvorning oldi olinadi. Bunda qadriyatli yondashuv asosida jamiyat uchun foydali faoliyatga yo‘naltirish muhim hisoblanadi.

3. Yaponiya tajribasi – yoshlarda agressivlikni kamaytirish uchun milliy va an’anaviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimi rivojlangan. Masalan, maktablarda kollektiv ruh, jamoaviy javobgarlik va o‘zaro hurmat qadriyatlari asosida ta’lim va tarbiya olib boriladi.

4. Koreya Respublikasi – yoshlarni raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy loyihalarga jalb etish, shuningdek, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash orqali profilaktika ishlari amalga oshirilmoqda. [5, 89-b].

Qadriyatli yondashuvning xorijiy tajribada qo‘llanishi

Xorijiy mamlakatlarda qadriyatli yondashuv asosan: - milliy va madaniy merosni yoshlar ongiga singdirish; - jamiyat uchun ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish; - inson huquqlari va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik mexanizmlar

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, uyushmagan yoshlar orasida agressiv xulq-atvorni kamaytirishda quyidagi pedagogik mexanizmlar samarali hisoblanadi:

- Maktablarda ijtimoiy-emosional ko‘nikmalarni shakllantirish dasturlarini joriy etish.
- Yoshlarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish (volontyorlik, ekologik va madaniy loyihalar).
- Sport va san’at orqali yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish.
- Milliy va an’anaviy qadriyatlarni tarbiyaviy faoliyatga integratsiya qilish.
- Psixologik maslahat markazlari [6, 70-b].

Uyushmagan yoshlar ko‘pincha ijtimoiy nazoratdan chetda qolishi, to‘g‘ri yo‘naltirilmagan faoliyat tufayli salbiy oqimlarga berilishi mumkin. Shuning uchun ularda agressiv xatti-harakatlarni oldini olishda qadriyatlarga asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy mas’uliyat va tolerantlikni shakllantirishni nazarda tutadi. Profilaktik faoliyatda ta’lim muassasalari, oilaviy muhit, mahalla va jamoatchilik institutlarining o‘zaro hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik mexanizmlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Qadriyatli yondashuv asosida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish. 2. Yoshlarni ijtimoiy foydali faoliyat va ko‘ngilli harakatlarga jalb qilish.
3. Psixologik xizmat va maslahat tizimini kuchaytirish.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish.
5. Ota-ona, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish. [7, 61-b].

Xulosa qilib aytganda, uyushmagan yoshlarda agressiv xulq-atvorni kamaytirish va uning oldini olish samarali pedagogik mexanizmlar hamda qadriyatli yondashuv asosida olib borilgandagina natija beradi. Bu jarayon yoshlarning sog‘lom ijtimoiylashuvi va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Uyushmagan yoshlar masalasi nafaqat ta’lim-tarbiya tizimining, balki butun jamiyatning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Ularni sog‘lom ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish orqali yoshlarning ijtimoiylashuvi samarali amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uyushmagan yoshlar orasida agressiv xulq-atvorni kamaytirishda qadriyatli yondashuv samarali natija beradi. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarni ijtimoiy faoliyatga keng jalb etish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bu muammoni hal etish mumkin. Mazkur xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish yoshlar tarbiyasida muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi [8, 14-b].

Uyushmagan yoshlar orasida agressiv xulq-atvor profilaktikasini tashkil etish murakkab, ammo dolzarb vazifadir. Psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillarni kompleks tarzda hisobga olish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Agressiv xatti-harakatlarning oldini olishda qadriyatli yondashuv, shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashish hamda yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish eng muhim nazariy va amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулаева Г. Ёшларда ижтимоий хулқ-атвор муаммолари ва уларни бартараф этиш йўллари. – Тошкент: Фан, 2019.
2. Jalolov J. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2018.
4. Асмолов А.Г. Психология личности. – Москва: МГУ, 2016.
5. Bandura A. Aggression: A Social Learning Analysis. – New York: Prentice Hall, 1973.

ISSN: 2992-9210

6. Berkowitz L. Aggression: Its Causes, Consequences, and Control. – New York: McGraw-Hill, 1993.

7. Fromm E. The Anatomy of Human Destructiveness. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1973.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjatlar.

ISSN: 2992-9210

O‘QITUVCHINING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

СИСТЕМА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

TEACHER COMMUNICATION SYSTEM AND THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE AMONG PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Xamidova Diyora Jamshedovna

Xamidova D.J.,
Samarqand davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasi 1-bosqich tayanch doktoranti
s12173023@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining muloqot madaniyati, nutq kompetensiyasi va til boyligining ahamiyati tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan hozirgi davrda pedagogning nutqiy faolligi pasayib borayotgani, bu esa ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir qilayotgani yoritilgan. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Bobur kabi allomalarning so‘z va nutqning tarbiyaviy kuchi haqidagi qarashlari asosida o‘qituvchi nutqining ma’naviy-estetik vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, A.S.Makarenkoning pedagogik muloqotga oid metodlari, kommunikativ vazifalar, muloqotning tamoyillari va o‘qituvchining kasbiy mahoratidagi o‘rni tahlil qilingan. Maqola xulosasida muloqot madaniyati, shirinso‘zlik, notiqlik va til boyligi pedagog faoliyatining asosiy mezonlari ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. *Muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, Sharq mutafakkirlari, notiqlik san’ati, A.S.Makarenko, pedagogik mahorat, til boyligi.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются значение коммуникативной культуры педагога, речевой компетентности и богатства языка в современном образовательном процессе. Отмечается, что чрезмерное использование цифровых технологий — смарт-столов, проекторов, интерактивных панелей — приводит к снижению речевой активности учителя, что оказывает негативное влияние на эффективность обучения. На основе взглядов восточных мыслителей — аль-Фараби, Юсуфа Хос Ходжиба, Алишера Навои и Захириддина Бабура — раскрывается воспитательная и нравственно-эстетическая роль речи в педагогике. Также анализируются методы педагогического общения А.С. Макаренко, основные коммуникативные задачи и место речи в профессиональном мастерстве педагога. В заключение подчеркивается, что культура общения, красноречие, ораторское искусство и богатство языка являются ключевыми критериями профессиональной компетентности учителя.

Ключевые слова: *Педагогическое общение, культура речи, коммуникативная компетентность, восточные*

ISSN: 2992-9210

мыслители, ораторское искусство, А.С. Макаренко, педагогическое мастерство, богатство языка.

Annotation: This article analyzes the importance of teachers’ communication culture, speech competence, and linguistic richness in modern education. It highlights that the excessive use of digital technologies such as smart tables, projectors, and interactive screens reduces teachers’ verbal activity, negatively affecting instructional effectiveness. Based on the ideas of Eastern thinkers such as al-Farabi, Yusuf Khas Hajib, Alisher Navoi, and Zahiriddin Babur, the article explains the ethical, educational, and aesthetic role of speech in pedagogy. It also examines A.S. Makarenko‘s methods of pedagogical communication, key communicative tasks, and the teacher’s professional responsibility in managing interaction. The article concludes that communication culture, eloquence, public speaking, and linguistic richness are fundamental indicators of teachers’ professional excellence.

Keywords. *Pedagogical communication, speech culture, communicative competence, Eastern thinkers, rhetoric, A.S. Makarenko, teaching mastery, linguistic richness.*

Kirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining muloqot tizimi cheklanib borayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Chunki har bir dars davomida o‘qituvchilar smart table, televizor, proyektor va shu kabi texnologiyalardan foydalanishi jarayonida ularning nutq qilish qobiliyatlari pasayib bormoqda. Davlatimizning “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[1] 2020-yil 23-sentabr, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni[2]da, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son [3] Qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlarda oliy ta’limni hamda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo‘lib, bu esa ta’lim jarayonida talabalar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarida yaxshi nutq shakllanmas ekan, ular bolalarga o‘zlarining bilimlari naqadar mukammal bo‘lishiga qaramay, uni yetkaza olmaydilar. Shuning uchun ular tinimsiz mashq qilishlari, muloqotning turli shakllarini o‘zlashtirib olishlari hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Hozirgi kunda interfaol metodlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, qo‘llanilish darajasi hanuzgacha kam ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilarda ularni darsda qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirishimiz kerak.

Muloqotning asosiy tamoyillari va uning asosiy xususiyatlarini o‘rganish, qoida tariqasida, jamiyat madaniyati va inson madaniyati kabi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bo‘yicha M.S.Kagan , S.A.Arutyunov, V.M.Mejuyev, E.N.Yurkevich va boshqalar ish olib borganlar. Shaxslararo muloqot madaniyati muammolari G.N.Andreeva, L.P.Gadzayova, I.I.Zaretskaya, E.P.Ilyin, S.L.Rubinshteyn va boshqalar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

ISSN: 2992-9210

Muloqotning asosiy tamoyillari va uning asosiy xususiyatlarini o‘rganish, qoida tariqasida, jamiyat madaniyati va inson madaniyati kabi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bo‘yicha M.S.Kagan , S.A.Arutyunov, V.M.Mejuyev, E.N.Yurkevich va boshqalar ish olib borganlar. Shaxslararo muloqot madaniyati muammolari G.N.Andreeva, L.P.Gadzayova, I.I.Zaretskaya, E.P.Ilyin, S.L.Rubinshteyn va boshqalar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Kommunikativ trening haqida S.N.Batrakova, S.V.Znamenskaya, N.V.Stepanova va boshqalar; kommunikativ kompetensiyaning madaniy komponentini shakllantirish bo‘yicha V.S.Bibler, A.V.Vartanov, E.M.Vereshchagin, L.G.Viktorova, N.I.Gez, V.S.Ilyin, R.P.Milrud, N.A.Salanovich, P.V.Susoyev, S.G.Ter-Minasova, G.D.Tomaxin va boshqalar izlanishlar olib borganlar.

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchining muhim kasbiy vazifalaridan biri — bu favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish bilan bir qatorda, mavjud muammoning qanday hal etilishi, qanday metod va usullar orqali amalga oshirilishini aniq belgilab olishdir. «Nima qilish kerak?» degan savolga osonlik bilan javob bera oladigan pedagog ko‘pincha «Qanday amalga oshirish kerak?» degan masalada ikki yoqlama fikrlashga majbur bo‘ladi. Ushbu masalani samarali hal etish uchun o‘qituvchi avvalo o‘quvchilar bilan muloqotning aniq va izchil tizimini, shuningdek, u bilan bog‘liq bo‘lgan mantiqiy yondashuv va amaliy metodlarni belgilab olishi zarur.

A.S. Makarenko o‘z pedagogik tajribasida muloqot orqali ta’sir ko‘rsatishning turli usullaridan foydalangan. U tomonidan qo‘llanilgan metodlar, ko‘p hollarda, tarbiyaviy vazifani aniq belgilash va o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqot asosida vaziyatni to‘g‘ri tashkil etishga asoslangan. Ba’zida bu «yuzma-yuz ta’sir» ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, ayrim hollarda bevosita og‘zaki aloqa bo‘lmagan holatlarda ham tarbiyalanuvchi pedagogning signalini tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sinf yig‘ilishlari, rasmiy suhbatlar, jamoaviy tadbirlar esa o‘quvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita aloqaning muhim shakllaridir. Ular har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini anglash va ularni ochib berishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.[7]

Makarenkoning ta’lim-tarbiyaviy metodlarida ayniqsa jamoaviy va yakka tartibdagi suhbatlar alohida o‘rin tutadi. Biroq, bu usullarning samaradorligi, ularni qanday vaziyatda va qanday shaklda qo‘llanishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu boisdan ham, muloqot jarayonining turli holatlarda qanday kechishini tahlil qilish va pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarini vaziyatga mos tanlash pedagogning kasbiy mahoratini belgilovchi mezonlardan biridir.

O‘qituvchining kommunikativ vazifalarni samarali bajarishi — bu, avvalo, pedagogik faoliyatning konkret shakllari, sinf jamoasining shakllanish bosqichi, muloqotni boshqarish prinsiplariga rioya qilish darajasi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, shuningdek, pedagogik ta’sirni amalga oshirishda tanlangan metodlar bilan uzviy bog‘liqdir. Muloqot jarayonida kommunikativ vazifalarni aniq belgilash va ular bilan pedagogik ta’sir metodikasi o‘rtasidagi nisbatni to‘g‘ri muvofiqlashtirish pedagogik o‘zaro aloqaning yuqori samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bu jihatdan ikki tomonlama bog‘liqlik ko‘zga tashlanadi: birinchidan, sinf jamoasi bilan ishlashda qo‘llaniladigan metodika to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot tizimi orqali amalga oshiriladi; ikkinchidan esa, muloqot jarayonining o‘zi ham tanlangan ta’lim-tarbiyaviy ta’sir metodikasining strategik yondashuvlariga tayanadi. Kasbiy-pedagogik muloqot asoslarini bo‘lajak pedagoglar oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘zlashtiradi, shuningdek, amaliy faoliyati davomida va o‘z-o‘zini kasbiy shakllantirish jarayonida mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy o‘qituvchi quyidagi asosiy kommunikativ vazifalarni to‘liq anglab, ularni amaliyotda samarali bajarishi zarur:

- o‘quvchilar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish;

ISSN: 2992-9210

- shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida aloqa qilish;
- sinfdagi emotsional-psixologik muhitni boshqarish;
- ijtimoiy-psixologik jarayonlarni muvofiqlashtirish;
- pedagogik ta’sir usullarini moslashtirish va takomillashtirish.

Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy [4], Yusuf Xos Hojib [8.], Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy [5], Zahiriddin Muhammad Bobur [6] va boshqa allomalar o‘z asarlarida so‘z va nutqni ilohiy ne’mat, insonni kamolga yetkazuvchi asosiy vosita sifatida e’tirof etganlar. Ularning fikricha, nutq tarbiya vositasi bo‘lib, so‘z orqali inson ongiga, qalbiga, ruhiyatiga ta’sir o‘tkaziladi. Shu bois, pedagogik muloqotda har bir so‘z, har bir ibora o‘ylab ishlatilishi, til boyligi esa o‘qituvchining pedagogik mahorati va ma’naviy salohiyatini belgilovchi mezon sifatida qaraladi.

Sharq falsafasida muloqot shunchaki aloqa vositasi emas, balki axloqiy tarbiyaning vositasi, jamiyatda insonning o‘z o‘rnini topishi, obro‘-e’tibor qozonishining mezonidir. Muloqotda shirinso‘zlik, xushmuomalalik, kamtarlik, muloyimlik kabi sifatlar qadrlanadi. Forobiy [4] “Fozil odamlar shahri” asarida insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, hurmat, izzat, munosabatlarning insoniy jamiyat asosini tashkil etishini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotda doim samimiy, adolatli, shirinso‘z va xushmuomala bo‘lishi, tilga va so‘zga e’tiborli yondashishi kerak.

Buyuk mutafakkirlar, jumladan Alisher Navoiy [5] o‘z asarlarida shunday fikrni ilgari surgan: “Shirin so‘z sof ko‘ngillilar uchun asal kabi totlidir”. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shirinso‘zlik orqali o‘qituvchi o‘quvchi qalbiga yo‘l topadi, ularda ruhiy ko‘tarinkilik, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq, mustahkam iymon va ma’naviy sezgirlikni shakllantiradi. Til va nutq pedagogning kasbiy yutug‘i sifatida, uning ichki dunyosini, estetik qarashlarini va ijtimoiy mas’uliyatini aks ettiradi.

Abu Nasr Farobiy ustoz murabbiyga ta’lim-tarbiyaning “qattiq” va “yumshoq” usullarini qo‘llash bo‘yicha bir qancha talablar qo‘yganlar. Bular quyidagi rasmda aks etgan:

1.1-rasm. Abu Nasr Farobiyning ustoz murabbiyga ta’lim-tarbiyaning “qattiq” va “yumshoq” usullarini qo‘llash bo‘yicha qo‘ygan talablari.

O‘quvchilar nutqini shakllantirish va rivojlantirishda o‘qituvchining til boyligi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, shirin so‘zlilik va ravon nutq o‘quvchilar tafakkurining o‘sishi, bilimga qiziqishining ortishi uchun kuchli rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Xulosa. Shuni aytish mumkinki, pedagogik faoliyatda **muloqot madaniyati**, **til boyligi**, **shirinso‘zlik**, **xushmuomalalik**, **notiqlik san’ati** – bu faqat aloqa vositasi emas, balki **ta’lim-tarbiya**

ISSN: 2992-9210

samaradorligini belgilovchi eng muhim mezonlardir. Ularning o‘zaro uyg‘unligi o‘qituvchi shaxsining madaniy boyligi va kasbiy yetukligining ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. –T.: O‘zbekiston, 2020-yil, 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son.

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — T.: “ O ‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 160 b.

5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 316 b.

6. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma Z.M. Bobur; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi; Xalqaro Bobur fondi. — Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2017 – 368 b.

7. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent, Iqtisodiyot moliya, 2012.

8. Yusuf Xos Hojib. (2010). Qutadg‘u bilig. I jild. T., B.15-16.

ISSN: 2992-9210

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARNING OILALARI BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARINI O‘RGATISH METODIKASI

МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К СОТРУДНИЧЕСТВУ С СЕМЬЯМИ УЧАЩИХСЯ

METHODOLOGY FOR TRAINING FUTURE PRIMARY TEACHERS IN COLLABORATIVE RELATIONSHIPS WITH STUDENTS' FAMILIES

Xamidova Barno Maxmudovna

Xamidova B.M.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Boshlang‘ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi, dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida o‘quvchilar oilalari bilan samarali hamkorlik munosabatlarini shakllantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda pedagogik hamkorlik, oila va maktab o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning ahamiyati tahlil qilingan. Muallif tomonidan o‘qituvchilarda kommunikativ, empatik va tashkiliy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar oilalari bilan samarali ishlash kompetensiyasini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik yondashuvlar, trening va amaliy mashg‘ulotlar orqali hamkorlik madaniyatini rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak o‘qituvchi, oila bilan hamkorlik, pedagogik hamkorlik, kommunikativ kompetensiya, metodika, ijtimoiy munosabatlar.*

Аннотация. В статье рассматривается методика формирования у будущих учителей начальных классов умений эффективно взаимодействовать с семьями учащихся. Проведен анализ педагогического сотрудничества, социально-психологических аспектов отношений между школой и семьей. Автором предложены методические рекомендации по развитию у будущих педагогов коммуникативных, эмпатийных и организационных навыков, способствующих налаживанию продуктивных отношений с родителями учеников. Также освещены пути совершенствования культуры сотрудничества посредством инновационных педагогических подходов, тренингов и практических занятий.

Ключевые слова: *будущий учитель, сотрудничество с семьей, педагогическое взаимодействие, коммуникативная компетентность, методика, социальные отношения.*

Annotation: This article explores the methodology for developing future primary school teachers’ skills in establishing effective collaboration with students’ families. The research analyzes the importance of pedagogical cooperation and the

ISSN: 2992-9210

social-psychological aspects of school-family interaction. The author presents methodological recommendations for fostering communicative, empathetic, and organizational skills that enhance teachers’ competence in working with parents. Additionally, the article discusses innovative pedagogical approaches, training sessions, and practical activities aimed at improving the culture of cooperation between teachers and families.

Keywords: *future primary teachers, family collaboration, pedagogical cooperation, communicative competence, methodology, social relations.*

Biz bo’lajak boshlang‘tch sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish bo‘yicha kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish hamda uni yoritib berishni asosiy maqsad qilib belgiladik.

“Metodika” atamasi muayyan pedagogik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, pedagogik muammolarni hal qilish samaradorligni ta’minlaydigan usul va vositalarni qo‘llashning o‘ziga xosligini belgilaydi. Metodika tajribani umumlashtirish yoki bilimlarni ifodalash usullarini ixtiro qilish natijasida yuzaga keladi, texnologiya esa loyihalashtiriladi.

Metodikaning texnologiyadan farqi shundaki, birinchidan texnologiya belgilangan meyorlar asosida ijobiy natijani kafolatlaydi, metodika esa qo‘llashda tavsiyaviy va variativ hisoblanadi, ikkinchidan, texnologiya ta’lim oluvchilarga, metodika esa ta’lim beruvchilarga yo‘naltiriladi; uchinchidan, texnologiya protsessual-maqsadli va miqdoriy-xisoblash xususiyatiga ega, metodika mazmunida esa sifat va variativlik xususiyati mavjud.

Ko‘plab olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilib biz bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi bosqichli metodikani ishlab chiqdik (1-rasm).



1 - rasm. Bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha kompetensiyasini rivojlantirish uchun bosqichli o‘qitish metodikasi

Tashxislash bosqichida – pedagogik tashxislash pedagog kadrlarning layoqati, qobiliyatlari, ular amal qiladigan qadriyatlarni, mavjud ko‘nikma va malakalari darajasini, shuningdek o‘quv-tarbiyaviy jarayon sifatini hisobga olgan holda uning shakllanganlik darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi [1].

Tashxislash bosqichida biz quyidagi metodlarni tavsiya qilamiz:

Test, “Take a stand” (o‘rnini egalla) va “Diagnostic interview” metodi – tashxislovchi intervyu metodi bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining xususiyatlari haqida obyektiv axborot olish uchun kasbiy maslahatning dastlabki davrida foydalaniladigan metodni ifodalovchi atama [2]. Ushbu metod

ISSN: 2992-9210

bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mavjud kompetensiyalarni, bilimlarni va malakalarni aniqlash imkonini beradi. “Take a stand” (o‘rnini egalla) metodida esa ta’lim oluvchilarga ta’lim beruvchi tomonidan kasbiy faoliyatiga oid savollar beriladi, javob tariqasida ta’lim oluvchilar “HA” va “YO‘Q” javoblarini tanlashlari va joylarini egallashlari kerak bo‘ladi. Mana shu ko‘rsatilgan metodlar bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini mavjudlik darajasini belgilaydi.

Takomillashtirish bosqichida – ushbu jarayonda bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning ota onalari bilan ishlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Ma’lumotlarni taqdim etishda biz quyidagi metodlardan foydalandik:

“Working together” (Jamoaviy ishlash), “Cooperative learning” (Hamkorlikda o‘rganish) metodlari. Ushbu metodlar orqali bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari jamoaviy ta’lim olish, faoliyat olib borish, hamkorlikda muammolarni bartaraf etish, jamoaviy maqsad sari intilish va uning samaradorligi to‘g‘risida nazariy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar[3].

Adaptiv bosqichda - bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nazariy bilimlar mavjud, rivojlangan nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qila oladi. Kasbiy faoliyati va o‘quvchilarga ta’lim - tarbiya berish jarayoniga tadbiq qila oladi.

Adaptiv jarayonda “Teambuilding”, “Case study” metodlaridan foydalandik. bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik guruhlarga bo‘linadi. Berilgan vazifa va topshiriqlarni jamoa bilan hamkorlikda bajaradilar.

Transformatsion bosqichda – bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligi rivojlantiriladi.

Bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali amalga oshirilishi ta’lim mazmuniga asoslanib ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi bilan bog‘liqdir. Bunda albatta ta’lim beruvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o‘z kasbiy faoliyatiga munosabati kabi omillar bilan birga ta’lim jarayonini tashkil etishda davlat tomonidan o‘rnatilgan ta’lim talablari asosida o‘quv dasturlari, uslubiy ta’minotini ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi [4].

Tadqiqotimiz doirasida bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda biz “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya”, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fanlarini nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini faol ta’lim metodlarini qo‘llab o‘qitish metodikasini ishlab chiqdik. “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” o‘quv modulining ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlariga ajratilgan 90 soat (40 soat ma’ruza, 50 soat amaliy) doirasida biz tomondan taklif etilgan mavzuning texnologik xaritasi tuzildi. Bunda ma’ruza mashg‘ulot 2 soat, amaliy mashg‘ulot ham 2 soat jami 4 soatga to‘g‘ri keladi. Har bir juftlik 80 daqiqadan jami 160 daqiqani tashkil etadi[6].

ISSN: 2992-9210

1-jadval.

“Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” fanining “Tarbiya” fani o‘qitish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari” nazariy mashg‘ulotini o‘tkazish texnologik xaritasi

Bosqich va vaqt meyorlari			Faoliyat mazmuni	
			Ta’lim beruvchi Faoliyati	Ta’lim oluvchi faoliyati
I	Mashg‘ulotga kirish	10 daq	Tashkiliy boshlanish O‘quv mashg‘ulotiga “kirish” Maqsad va vazifani belgilanishi	Tinglaydilar, kerakli ma’lumotlarni belgilab oladilar. Maqsad va vazifani belgilab oladilar.
II	Boshlang‘ich	20 daq	Boshlang‘ich bilimlarni tekshirish	O‘z-o‘zini baholaydilar
III	Asosiy	40 daq	Tayanch bilimlarni faolllashtirish Yangi o‘quv materialiga kirish(Working together, teambuilding)	Savolga javob beradilar, kichik guruhlarda ishlaydilar, topshiriqlarni jamoaviy bajaradilar, ma’lumotlarni qayd etadilar.
IV	Yakuniy	10 daq	Mashg‘ulotni yakunlash Topshiriq beriladi	Diqqat qiladilar. Topshiriqni oladilar

2-jadval.

“Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” o‘quv modulining “Tarbiyada milliy g‘oya asoslari bo‘yicha trening” amaliy mashg‘ulotini o‘tkazish texnologik xaritasi

Bosqich va vaqt meyorlari			Faoliyat mazmuni	
			Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
I I	Mashg‘ulotga kirish	10 daq	Tashkiliy boshlanish O‘quv mashg‘ulotiga “kirish” Maqsad va vazifani belgilanishi	Tinglaydilar, kerakli ma’lumotlarni belgilab oladilar. Maqsad va vazifani belgilab oladilar.
III	Asosiy	50 daq	Tayanch bilimlarni faollashtirish	Savolga javob beradilar, kichik guruhlarda ishlaydilar, topshiriqlarni jamoaviy bajaradilar, kuzatadilar, keys topshiriqlarni

ISSN: 2992-9210

			Yangi o‘quv materialiga kirish (Cooperative learning, case study)	bajaradilar, ma’lumotlarni qayd etadilar.
IIII	Yakuniy	daq	-Mashg‘ulotni yakunlash Topshiriq beriladi	Diqqat qiladilar. Topshiriqni oladilar
IIV	Natijaviy	10 daq	O‘z o‘zini baholash orqali natijani aniqlash	O‘z-o‘zini baholaydilar

Biz tomondan taklif etilayotgan ta’lim metodlari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlash, baholash, rag‘batlantirish va faollikni oshirishda ijobiy natija berishini hamda ta’lim beruvchiga murakkablik keltirib chiqarmasligini inobatga oldik. Mazkur metodlarning xususiyatlari shundan iboratki, bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish bo‘yicha kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Metodlarda qo‘llanilayotgan savol-javob jarayonlari, topshiriqlarni bajarish, keyslarning barchasi pedagog kadrni jamoada faoliyat yuritishga undaydi hamda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borishda ijtimoiy kompetensiyasining ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi (2-rasm).

Nazariy mashg‘ulotlar Teambuilding, Cooperative learning kabi ta’lim metodlaridan foydalanib olib boriladi. Bunda nazariy mashg‘ulot rejasi muammolli savollar asosida yoritiladi. Mavzu rejasiga oid barcha ma’lumotlar savollar ko‘rinishida muammoli tarzda namoyish etiladi. Mazkur muammoli vaziyatlar yechimini topish uchun bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik guruhlarga bo‘linishi hamda jamoa bo‘lib muammo yechimini topishlari taklif etiladi. Muammoli vaziyatlar muhokamalar hosil qiladi, unda har bir ishtirokchi turli nuqtai nazardan fikr yuritadi va o‘z dalillar tizimini taqdim etadi. Mazkur metod orqali samarali jamoa tuzish va jamoa manfaati uchun qaror qabul qilish muhim omil hisoblanadi. Muammoli topshiriqlarni tanlashda ta’lim beruvchi muammolarning bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi, lekin noaniq va to‘liqsiz bo‘lishi kerakligiga asoslanadi. Muammoli vaziyatlar o‘zining noaniqligi va nomuvofiqligi bilan jamoa a’zolari birlashish jamoaviy harakat qilishga jamoa uchun manffatli qaror qabul qilishga undaydi va ularda ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga sharoit yaratadi [5].

Metodning maqsadi. Bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mashg‘ulot mavzusidan kelib chiqqan holda muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini jamoaga tayangan holda topish, shuningdek meyoriy xujjatlarga tayangan holda jamoaviy to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, ularda jamoaviy muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish va jamoa uchun manfaatli qaror qabul qilgan holda ijtimoiy kompetentligini rivojlantiradi.

ISSN: 2992-9210



2-rasm. Innovatsion yondashuv asosida ta’lim metodlarining nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi

Metodning qo‘llanilishi. Ta’lim jarayonining nazariy mashg‘ulotlarida bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatarida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni asoslangan yechimini topish orqali bilimlarini mustahkamlashga mo‘ljallangan. Nazariy mashg‘ulotlarda bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini tashkil etuvchi komponentlari, ya’ni kommunikativ—perseptik, kognitiv-analitik, mo‘ljallash-prognostik, tashkiliy-metodik, fasilitativ – xulqiy, refleksiv - sozlash kompetensiyalarini rivojlantirishda samaralidir.

ISSN: 2992-9210



ISSN: 2992-9210

Metodning nazariy mashg‘ulotga tatbiq etilishi:

Bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik guruhlarga bo‘linadi.

Mavzuga oid muammoli vaziyat taqdimot tarzida namoyish etiladi.

Kichik guruhlarning javob variantlari eshitiladi, yo‘naltiruvchi savollar beriladi.

Muammoning hal etilishi jarayonida bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining jamoaviy meyoriy-huquqiy xujjatga tayangani, jamoaviy to‘g‘ri qaror qabul qilinishiga asoslanadi [4].

Amaliy mashg‘ulotlarda innovatsion yondashuv asosida Working together, Case-study metodlarini tadbiq etamiz. Working together metodining maqsadi: bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining jamoa bo‘lib harakatlanish, kasbiy faoliyat davomida jamoa va ta’lim muassasasining manfaatini inobatga olish, ta’lim muassasasining samarali faoliyatida hamda strategiyasini amalga oshirishda pedagogik jamoaning o‘rni muhim ekanligini anglab etish. Metodning vazifasi: bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulotimizda ham bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik guruhlarga bo‘linadilar va quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

Mashg‘ulotning mavzusi mazmunidan kelib chiqib savollar, keyslar va muammoli topshiriqlar tuziladi. Savol, keys va topshiriqlar kasbiy faoliyat doirasida va mavzuning mazmunini to‘liq qamrab olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamoa a’zolarining vazifalari taqsimlanadi.

Jamoa a’zolariga savollar, keyslar, topshiriq javoblarini baholash mezonlari,shartlari va jarayoni haqida ma’lumot beriladi[7].

Metod “Bahs-munozara” tamoyiliga asoslanishi mumkin.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tajribalari va vaqt meyorini to‘g‘ri taqsimlash asosida ta’lim metodlardan innovatsion yondashuvlar (Funksional-faoliyatli, shaxsiy-faoliyatli, madaniy (kulturologi), kognitiv – kreativ, aksiologik) asosida foydalanish, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini samarali tarzda rivojlantirishni ta’minlaydi. Shuningdek, metodlarni bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishda kompetensiyasini rivojlantirish tizimiga tadbiq etishda innovatsion yondashuvlarning (Funksional-faoliyatli, shaxsiy-faoliyatli, madaniy (kulturologi), kognitiv – kreativ, aksiologik) nazarda tutilishi, bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z o‘zini rivojlantirish jarayonlariga ongli ravishda qo‘shilishi va ta’lim jarayoni sifatini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Daxin, A.N. Pedagogicheskoe modelirovanie: sushnost, effektivnost, neopredelennost / A.N. Daxin // Pedagogika. – 2003. – №4. – S. 20–24.

2. Varga, A.Y. Sistemnaya semeynaya psixoterapiya / A.Y. Varga, T.S. Drabkina. – SPb.: Rech, 2001. – 144 s.

3. Karpenko A.V. Struktura kompetentnosti uchitelya v postroenii sotrudnicheskix otnosheniy s semyami obuchayushixsya. Mir nauki, kulturi, obrazovaniya. – 2018. – № 6 (73). – S. 287–289.

4. Jurbina, T.A. Organizatsiya sistemi sovmestnoy deyatelnosti obsheobrazovatelnogo uchrejdeniya s semyey v protsesse razvitiya lichnosti mladshego shkolnogo vozrasta / T.A. Jurbina // Proektnaya deyatelnost v obrazovatelnom protsesse: noviy resurs lichnostno-razvivayushego obrazovaniya: materiali nauch.-prakt. konf. – Volgograd: b. i.: 2007. – Ch. 2. – S. 51–58.

5. Xamidova B.M. The main features of the primary school teacher’s competence in establishing cooperative relations with students’ families // Spectrum Journal of Innovation, Reforms

and Development.-ISSN-E):2751 1731. Volume 69, nov.,2022.-343-347 b.

6. Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang’ich ta’lim o‘qituvchilarining oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish kompetentligining tarkibiy mazmun xususiyatlari. Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘. –Nekus, 2022. №6/6 -B. 150-156. (13.00.00 №20).

7. Xamidova B.M. O‘quvchilarga ta’lim - tarbiya berishda o’quvchilarning ota - onalari bilan o’qituvchilar o’rtasidagi hamkorlikning ahamiyati / “TAFFAKKUR - ZIYOSI” ilmiy-uslubiy jurnal.- № 3., 2022 yil,. 236-238 betlar.

ISSN: 2992-9210

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MULOQOT KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK-METODIK SHAROITLARI

СОВРЕМЕННЫЕ ДИДАКТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

MODERN DIDACTIC-METHODICAL CONDITIONS OF IMPROVING COMMUNICATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Xasanov Akram Anvarovich

Xasanov A.A.,
PhD. Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti.
hasanov.0276@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogik oliy ta’lim muassasalarida, xususan pedagogik oliy ta’lim tashkiloti (o‘rta ta’lim talabalari)da bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik, tashkiliy-pedagogik hamda didaktik-metodik sharoitlarni tahlil qiladi. Matnda interaktiv o‘yin texnologiyalari, audiovizual va multimedia vositalarining roliga, shuningdek, baholash tizimlaridan — xususan "Talabaning tilga oid pasporti" metodikasiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari muloqot kompetensiyasini rivojlantirishni ta’minlash uchun integratsiyalashgan pedagogik yondashuv va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash zarurligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *muloqot kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot, pedagogik oliy ta’lim tashkiloti, o‘yin texnologiyalari, audiovizual vositalar, talabaning tilga oid pasporti.*

Аннотация. В статье анализируются психолого-педагогические, организационно-педагогические и дидактические методические условия, способствующие развитию коммуникативной компетентности будущих учителей педагогических вузов, в частности, педагогических высшее учебное заведение (студентов средних общеобразовательных учреждений). Особое внимание уделяется роли интерактивных игровых технологий, аудиовизуальных и мультимедийных средств, а также систем оценки, в частности, методики «Языковой паспорт студента». Результаты исследования подтверждают необходимость комплексного педагогического подхода и использования современных информационно-коммуникационных технологий для обеспечения развития коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, межкультурная коммуникация, педагогические высшее учебное заведение, игровые технологии, аудиовизуальные средства, языковой паспорт студента.*

Annotation. This article analyzes the psychological, pedagogical, organizational, pedagogical and didactic methodological conditions that serve to improve the communicative competence of future teachers

ISSN: 2992-9210

in pedagogical higher educational institutions, in particular, pedagogical higher education institution (secondary education students). The text pays special attention to the role of interactive game technologies, audiovisual and multimedia tools, as well as assessment systems - in particular, the methodology of the "Student's Language Passport". The results of the study confirm the need for an integrated pedagogical approach and the use of modern information and communication technologies to ensure the development of communicative competence.

Keywords: *communicative competence, intercultural communication, pedagogical higher education institution, game technologies, audiovisual tools, student's language passport.*

Kirish qismi. So‘nggi yillarda chet tillarini o‘qitish metodikasi sohasida olib borilayotgan izlanishlar, ta’lim jarayonining madaniyatlararo muloqotga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. “Madaniyatlar dialogi” konsepsiyasi asosida chet tili ta’limining yangi bosqichi shakllanmoqda, bunda o‘qitishning asosiy maqsadi nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki muloqot kompetensiyasini – ya’ni, shaxsning chet tilida samarali, madaniyatlararo darajada muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmoqda.

Global axborot maydonining kengayishi, ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi, talabalarni mustaqil bilim olishga, tanqidiy fikrlashga va ijodiy yondashuvga undaydi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda muloqot kompetensiyasini takomillashtirish zamonaviy pedagogik tizimning markaziy masalalaridan biriga aylanmoqda.

Mazkur maqolada pedagogik oliy ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitish jarayonida muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik, tashkiliy-pedagogik hamda didaktik-metodik sharoitlar tahlil qilinadi. Xususan, interaktiv o‘yin texnologiyalaridan, audiovizual va kompyuter dasturlaridan foydalanishning samaradorligi, shuningdek, o‘qitish natijalarini baholashda “Talabaning tilga oid pasporti” kabi yangi nazorat vositalarining ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Asosiy qism. So‘nggi vaqtlarda chet tillarini o‘qitish metodlarini rivojlantirish, takomillashtirish, optimallashtirish vazifasi “madaniyatlar dialogi” jihatidan nafaqat sifatli yangi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmoqda, balki muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga yo‘nalgan o‘qitish maqsadlarini tadrijiy rivojlanishiga mos ravishda belgilanadi.

Tilga oid muhitdan uzilish sharoitlarida maqsadga muvofiq rivojlanish va mos ravishda, tili o‘rganilayotgan mamlakat hayotining hodisalarini aks ettiruvchi mamlakatshunoslik leksikasini o‘zlashtirishning nazorati alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlash lozim. Masalan, pedagogik oliy ta’lim tashkilotida chet tili bo‘yicha mashg‘ulotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida matnli materiallarni mavzularini, muhokama etiladigan muammolarni u yoki bu ijtimoiy-madaniy mazmunga kiritadigan, bu bilan talabalarni fikrlashga va mos mamlakatshunoslik leksikasini qo‘llashga undaydigan topshiriqlar, muammolarini belgilashdagi puxta tanlovga e’tibor qaratish lozim. Mazkur maqsadda biz “muammoli chet tilidagi topshiriqlarning iyerarxik tizimlari”dan foydalanishni taklif etamiz (V.V.Safonova atamasi) [7], ular ijtimoiy-madaniy bilishga oid-izlash topshiriqlarini shaxsning kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo‘nalgan, bo‘lajak pedagogning ijodiy individualligini rivojlantirishga ko‘maklashadigan fanlararo muloqotga yo‘nalgan o‘yinlarni ifodalaydi.

N.A.Ignatenko [5] ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga taalluqli o‘z tadqiqotida, chet tilini o‘qitish jarayonida, avval rus tilidagi ilmiy-metodik adabiyotda ifodalanmagan, qator o‘qitish madaniyati usullarini ochib beradi. U “madaniyat kapsulasi” (Kulture Kapsule - X.Teylor va D.Sorens tomonidan

ISSN: 2992-9210

ishlab chiqilgan); “madaniyat hodisalari guruhlari” (Kulture Kluster - mualliflar V.Mid va D.Moreyn); “madaniyatlararo muloqot tahlili” (Kritikal Insident - ijtimoiy psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan); “madaniy moslashuv” (Kulture Assimilator) kabi usullardan foydalanishning zarurati va samaradorligini ta’kidlaydi [5].

Amaliyotning ko‘rsatishicha, chet tili bo‘yicha mashg‘ulotlarda quyidagi o‘yinlarni qo‘llash zarur: grammatik o‘yinlar, leksik o‘yinlar, fonetik o‘yinlar, orfografik o‘yinlar, ular talaffuzni tuzatish, leksik hamda talaffuz malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga ko‘maklashadi, shuningdek, muloqot kompetensiyasini kelgusida takomillashtirishga yordam beruvchi “ijodiy o‘yinlar” sanaladi.

O‘yin “an’anaviy o‘qitish turiga qarama-qarshi chiqmaydi, zamonaviy pedagogik nazariyalarga zid bo‘lmaydi va kelajakda integratsiyalangan o‘qitish shakllaridan biriga aylanishi mumkin bo‘lib, unda barcha o‘qitish turlari yanada yaxshi birlashishi kerak, bu esa o‘qitish nazariyasi va texnologiyasida bo‘lgan, mavjud va kelajakda ham mavjud bo‘ladi” [5]. Shu sababli, nofilologik fakultetlarda chet tilini o‘qitishda turli xil o‘yinlardan foydalanishni pedagogik oliy ta’lim tashkiloti talabalari muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga ko‘maklashuvchi muhim vosita sifatida qarash lozim.

Ma’lumot manbaidan erkin foydalanish, tajriba va g‘oyalar almashish har bir mutaxassis uchun zarurdir, negaki, hech qanday fan, jumladan, pedagogika ham cheklangan muhitda to‘laqonli rivojlana olmaydi. Shu munosabat bilan shakllangan muloqot kompetensiyasining zarurati yuzaga keladi va usiz to‘laqonli muloqotni amalga oshirib bo‘lmaydi, chunki olingan ma’lumot tushunarsiz va foydasiz bo‘lishi mumkin. Uchinchi tashkiliy-pedagogik shart sifatida biz qo‘yilgan maqsadga, ya’ni - muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga mos bo‘lgan o‘qitish vositalarini qo‘llashni belgilaymiz:

1) O‘qitish va kasbiy tayyorlash jarayoni samarali bo‘lishi uchun o‘qitishni tabaqalashtirishning turli strategiyalari yoki turli yo‘nalishlarini hisobga olib qurilgan va talabalarning ehtiyojlarini, ularning ixtisosliklari va o‘qitish sharoitlarini, shuningdek, zamonaviy kompyuter dasturlari paketlarini yanada to‘liq hisobga oluvchi audiovizual vositalar zarur.

2) Chet tilini intensiv o‘qitish prinsiplari asosidagi audiovizual vositalar qator olimlar tomonidan yetarlicha batafsil tadqiq etilgan (N.F.Borisko[2], A.Yu.Gorchev[3], S.M.Zorin[4], P.I.Serdyukov[8] va boshqalar). O‘quv materialini audiovizual ifodalash va undan muloqot kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida foydalanishning asosiy afzalliklarini qisqacha ajratamiz.

3) Idrokning ko‘rish, ixcham kanali qo‘llanadi, u ko‘proq o‘tkazish qobiliyatiga egadir.

4) Videofonogramma yordamida ikki kanal bo‘yicha ma’lumotning borishi ham har bir ta’lim oluvchining sensor tuzilishi xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi, ular nafaqat ma’lum xotira turining ustunligida (ko‘rish, eshitish, aralash), balki idrok, tafakkur, ichki nutq va h.k. sohalarda u yoki bu hissiy obrazlarning ustunligida ifodalanadi [1].

Biz tadqiqotchilarning pedagogik amaliyotga kompyuter texnologiyalarini joriy etish, ularni muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida qo‘llash, amaliy maqsadlarda chet tilidan foydalanib, talabalarni kasbiy tayyorlash darajasini oshirishga qaratilgan izlanishlarini to‘g‘ri deb hisoblaymiz.

Darhaqiqat, bunday o‘qitish jarayonining tashkiliy qismi ta’lim oluvchining faol kommunikativ faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lgan axborot mohiyati hisoblanadi, chunki muloqot kompetensiyasining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri nutqiy faoliyatning ixtiyoriy turini egallash sanaladi.

An’anaviy o‘quv materiallariga qo‘shimcha ravishda Internet va CD-ROOM imkoniyatlaridan foydalanish o‘qitishni ijodiy va tabiiy jarayonga aylantiradi, chet tilida muloqot qilishga o‘rgatishda ulkan motivatsion imkoniyat yaratadi. Tovushli kartalardan foydalanish alohida xorijiy so‘zlar, iboralar, matnlarni ifodalash, ta’lim oluvchining nutqini til tashuvchisining talaffuzi bilan sur’atini variatsiyalab,

solishtirish imkonini beradi. Dasturlar ma’lumotlar bazasi alohida grammatik, leksik tuzilmalar yoki mazmunni o‘zgartirish til ifodalarini o‘zgartirish imkonini beradi.

Chet tillarini o‘rganuvchilar va o‘qituvchilar so‘zning lug‘atdagi ma’nosini, spravochnikdagi grammatik shaklini, bilimlarni mustahkamlash va malakani hosil qilish uchun mos mashqni izlash borasida qancha samarasiz vaqt sarflanishini biladilar.

Gipermatnli va multimedia texnologiyalari didaktik imkoniyatga ega bo‘lib, bir vaqtda ma’lumotni olish vositasi va bilimlarni egallash instrumenti hisoblanadi, ularni chet tilini o‘qitish jarayonida qo‘llash o‘quv faoliyatini faollashtiradi. Intensifikatsiyalaydi va umuman ta’lim oluvchi shaxsiga, uning mustaqil ishga intilishiga, muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga ta’sir ko‘rsatadi, uning vaqtning minimal sarfi bilan o‘quv materialini o‘zlashtirishini ta’minlaydi va talabalarning haqiqiy zahira imkoniyatlarini ochishga ko‘maklashadi.

Ko‘pgina tadqiqotlarda, ma’lum maqsadda mustaqil egallangan ma’lumot eng yaxshi o‘zlashtirilish deb ta’kidlanadi. Kompyuter texnologiyalari global axborot sohasida erkin ishlashni ta’minlaydi, ta’limiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, WWW (World Wide Web) izlash tizimi o‘z tuzilishi bo‘yicha ensiklopediyadagi maqolalarning tashkil etilishiga o‘xshaydi, kesishma ssilkalar usulidan foydalanib, yorqin ifodalangan kommunikativ faoliyatli xususiyat kasb etadi [10].

Tarmoq resurslari orqali olingan ma’lumot o‘z atrofida ma’lum evristik imkoniyat maydonini hosil qiluvchi, qo‘zg‘atuvchi kuch, ijodga undovchiga aylanadi, bu esa chet tilini o‘zlashtirish amaliyotida o‘z bilimlari, ko‘nikma va malakalarini chuqurlashtirishga intiluvchi talabalar uchun, ayniqsa, muhim hisoblanadi [6]. Muloqot kompetensiyasini takomillashtirish talabalarga shaxsning ta’limiy, madaniy, ilmiy istiqbollarini kengaytirishlariga yordam berishi muhimdir.

Chet tilini o‘qitish jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ta’lim oluvchilarning fanga munosabatlarini o‘zgartirishga, bo‘lajak pedagoglar orasida tilga oid to‘siqni yengishga, muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga, ta’lim muhiti sohasidagi samarali muloqotni amalga oshirishga, uning yanada dolzarbligini oshirishga mo‘ljallangan deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan psixologik-pedagogik, tashkiliy-pedagogik sharoitlar, shuningdek, O‘zbekistonda tilga oid ta’limni rivojlanishining istiqbolli tendensiyalari, pedagogik oliy ta’lim tashkiloti talabalari muloqot kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida didaktik-metodik sharoitlarni aniqlash va amalga oshirish zaruratini talab etdi.

Nazorat ixtiyoriy pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Chet tillarini o‘qitish maqsadida diqqatni jamlash muloqot kompetensiyasi darajasi nazoratiga yondashuvlarni o‘zgartirishni talab etadi.

“Talabaning tilga oid pasporti”ni ishlab chiqish va foydalanishni muhim didaktik-metodik shart sifatida qarash nazoratning eng optimal ko‘rinishi bo‘lib, uni amalga oshirish pedagogik oliy ta’lim tashkiloti talabalarining kasbiy tayyorgarligi jarayonining samaradorligi va mahsuldorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Xorij tajribasida chet tillarini o‘qitish jarayonida bilim, ko‘nikma, malakalar nazorati muammosini ishlab chiqish bir necha yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Birinchisiga ko‘ra, bilim, ko‘nikma va malakalar nazorati qator ahamiyatli sifatlarga ega bo‘lgan, chet tilini auditoriyaviy o‘qitish sharoitlarida betakror bo‘lgan obyektiv test sinovi metodi bilan o‘tkaziladi.

Rossiyalik va xorijiy tadqiqotchilarning nazoratni takomillashtirishga taalluqli ishlarini o‘rganishda, ya’ni ilmiy asoslangan va metodik savodli tashkil etilgan test sinovi qayta aloqani kompleks muloqotga yondashuv asosida amalga oshirishga imkon berishi aniqlandi [10].

Mazkur yondashuvda test sinovida, fikrning shakli va tuzilishining to‘g‘riligiga emas, balki avvalo, fikr ma’nosining muhimliligiga urg‘u beriladi. U til muloqotda qanday qo‘llanilishi bilan bog‘liq va asosan ta’lim oluvchilar uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarga maksimal

yaqinlashtirilgan masalalarni ko‘zda tutadi. Ularni hal etishning muvaffaqiyatliligi rasmiy tilning to‘g‘riligidan ko‘ra, ko‘p jihatdan bevosita muloqotning samaradorligi darajasi bilan tavsiflanadi. Muloqot kompetensiyasining shakllanganligi darajasini aniqlashda kompleks muloqotga yondashuv muloqot testlari yordamida amalga oshiriladi. Bunda nutqiy faoliyat turlari o‘rtasida qat’iy ajratishlar amalga oshirilmaydi, chunki haqiqiy muloqot tajribasi ularning o‘zaro aloqadorligi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Obyektiv test sinovidan tashqari, muloqot kompetensiyasi nazoratining alohida yo‘nalishida, obyektiv baholashda qabul qilinganidan ko‘ra yanada “insonparvar” munosabat bilan tavsiflanuvchi subyektiv o‘lchov ajratiladi [9].

Mazkur metodlar (“imitatsiya” va kuzatish) obyektiv baho qo‘yishni nazarda tutmaydi, ammo muloqot kompetensiyasini tashkil etuvchi shaxsning malaka, ko‘nikma va sifatlari shakllanganligini belgilashda ahamiyatli rol o‘ynaydi.

Uchinchi yo‘nalishda “portfolio” (Portfolio) ajratiladi, u bilimlarni egallash, izlash malakalari va materialga ishlov berish, shuningdek, tizimli-tashkiliy shakldagi o‘qitish maqsadlariga erishishga munosabat monitoringi uchun o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar tomonidan qo‘llanadigan materiallar va axborot majmui sifatida belgilanadi. Standart obyektiv testlarda o‘lchash imkoni bo‘lmagan, shaxs rivojlanishi bilan bir qatorda, o‘rgatish jarayonining chuqurligi va hajmini baholash imkoniyati portfolioning ijobiy tomoni hisoblanadi. Lingvistik materialni yig‘ish, uni tayyorlash va ta’lim oluvchilar jamoasi oldida ifodalash “portfolio” metodining mazmunli tomoni bo‘lib, bu keyinroq ishlab chiqilgan shkala bo‘yicha baholanadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan taklif etilgan, Yevropa tilga oid portfelini tuzish prinsipi va mazmuni asosida biz nemis tilini o‘rganuvchi nofilologik fakultetlarning “Talabaning tilga oid pasporti”ni ishlab chiqdik.

Nazoratning mazkur turi nofilologik fakultetlar talabalarining muloqot kompetensiyalari shakllanganligining haqiqiy darajasini tashhislashga imkon beradi va olingan ma’lumotlar asosida bilim, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, malakalarni shakllantirish jarayonida korreksiyalab, uni oshirishning kelgusi strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Kuzatilgan va qayd etilgan ma’lumotlar o‘qituvchiga chet tilini o‘qitishda talabalar muloqot kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonining samaradorligi haqida ma’lum xulosaga kelishga, ta’lim oluvchining kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarining rivojlanishi dinamikasi to‘g‘risida vositali ma’lumotni olishga imkon yaratadi.

Bizningcha bilim, ko‘nikma va malakalar nazoratining optimal turi sifatida nofilologik fakultetlarda chet tilini o‘qitishda “Talabaning tilga oid pasporti”ni qo‘llash oliy ta’lim tashkilotida bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy tayyorlash davomida muloqot kompetensiyasi darajasini takomillashtirish jarayonining muhim sharti hisoblanadi.

Shaxsiy yo‘naltirilgan, madaniyatshunoslik va kreativ yondashuvlarni inobatga olib, talabalarga ularning faolliklarini qo‘llab-quvvatlab, o‘quv-tarbiya jarayonida ma’lum mustaqillik va o‘zini-o‘zi boshqarishni taqdim etish tavsiya etiladi.

Shu tariqa, o‘tkazilgan tadqiqotlar, pedagogik oliy ta’lim tashkilotida talabalarni kasbiy rivojlantirish va tayyorlashning samaradorligini ta’minlovchi, muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning psixologik-pedagogik, tashkiliy-pedagogik, didaktik-metodik majmuini aniqlash va ifodalash imkonini berdi.

Xulosa qismi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, chet tillarini o‘qitishda muloqot kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u psixologik, pedagogik va texnologik yondashuvlarning uyg‘unligini talab etadi. O‘yinli, audiovizual hamda multimedia texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim oluvchilarning kommunikativ faolligini oshirish, mustaqil

ISSN: 2992-9210

fikrlashni rag‘batlantirish va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Talabaning tilga oid pasporti” metodikasi esa o‘quvchilarning chet tilidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini tizimli nazorat qilish, shaxsiy rivojlanish dinamikasini aniqlash, ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot kompetensiyasini takomillashtirish — bu nafaqat til o‘qitish samaradorligini oshirish, balki ularning kasbiy tayyorgarligini, madaniy tafakkurini va global ta’lim muhitiga integratsiyalashuvini ta’minlovchi muhim pedagogik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ананьев, Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста / Б.Г. Ананьев // Соврем, псих.-пед. проблемы высшей школы. - Л.: Изд-во Ле-нингр. гос. ун-та, 1974. - Вып. 2. - С. 3-15.

2. Бориско Н.Ф. Обучение устной монологической речи с использованием видеофонограммы в интенсивном курсе на начальном этапе в языковом вузе: Дис. ... канд. пед. наук / Н.Ф. Бориско. - Красноярск, 1987. - 226 с.

3. Горчев А.Ю. О некоторых важнейших условиях эффективности ис-пользования ТСО / А.Ю. Горчев // Иностранные языки в школе. - 1987. - № 4.-С. 101-106.

4. Зорин С.М. Два аспекта технического обеспечения интенсивного обучения иностранному языку / С.М.Зорин //Активизация учебной деятельности / Под ред. Г.А. Китайгородской. -М., 1982. -Вып. 2. - С. 165-173

5. Игнатенко Н.А. Факторы формирования иноязычной социокультурной компетенции будущего учителя: Дис. ... канд. пед. наук / Н.А. Игнатенко. - Воронеж, 2000. - 168 с.

6. Полат, Е.С. Новые педагогические и информатсионные технологии / Е.С. Полат. - М., 1999. - 238 с.

7. Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам / В.В. Сафонова. - М.: Высш. шк.; Амскорт интернэшнл, 1991. -С. 146-178.

8. Сердюков П.И. Основы интенсивного курса обучения иностранным языкам / П.И. Сердюков. - Киев: Вищ. шк., 1984. - 55 с.

9. Шейлз, Дж. Коммуникативность в обучении иностранным языкам / Дж. Шейлз. - Совет Европы Пресс, 1995.

10. Xasanov A.A. “Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda rolli o‘yinlar va kompyuter texnologiyalarining ahamiyati”. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining “Fan va ta’lim integratsiyasi” nomli ilmiy-metodik jurnali. 2025-yil 3-son. 261-266-betlar.

ISSN: 2992-9210

TALABALAR O‘RTASIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ

DEVELOPING SPEAKING SKILLS AMONG STUDENTS

Xasanov Akram Anvarovich, Baxtiyorova Barchinoy

Xasanov AA.,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti,PhD.

Baxtiyorova B.,
Samarqand davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar o‘rtasida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Gapirish nutq faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida shaxsning ijtimoiy va kasbiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy metodlar, pedagogik texnologiyalar va interaktiv vositalar tahlil qilinadi. Xususan, o‘quv jarayonida podkastlardan foydalanish, rolli o‘yinlar, suhbat klublari, til almashish platformalari hamda multimedia resurslarining samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, chet el va mahalliy tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu maqola natijalari kelgusida chet tilini o‘qitishda samarali yondashuvlarni shakllantirish, talabalarning og‘zaki nutq malakasini mustahkamlash hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda foydali bo‘lishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: *gapirish ko‘nikmalari, talabalar, nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya, podkast, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, ravon nutq, og‘zaki muloqot.*

Аннотация. Данная статья посвящена развитию навыков устной речи на английском языке среди студентов. В работе рассматриваются практические стратегии и методические подходы, которые могут быть использованы в образовательном процессе. Анализируется существующая литература, описываются эффективные методологии и обсуждаются преимущества и ограничения различных подходов. Основная цель исследования — предоставить преподавателям и учащимся рекомендации по формированию коммуникативной компетенции. Особое внимание уделяется таким аспектам, как регулярная речевая практика, использование интерактивных методов, языковой обмен, применение технологий, развитие навыков аудирования и произношения. Предлагаемые стратегии помогают студентам не только обогатить свои лингвистические знания, но и уверенно общаться в академической и профессиональной среде.

Ключевые слова: *навыки говорения, студенты, речевая деятельность, коммуникативная компетентность, подкаст, интерактивные методы, педагогические технологии, беглая речь, устная коммуникация.*

ISSN: 2992-9210

Annatation. This article focuses on the development of speaking skills in English among university students. It explores practical strategies and methodological approaches that can be applied in different learning environments. The study analyzes existing literature, outlines effective methodologies, and discusses the benefits and limitations of various approaches. The main aim of the research is to provide teachers and learners with insights into fostering communicative competence. Special emphasis is placed on aspects such as regular speaking practice, the use of interactive methods, language exchange, technology integration, listening and pronunciation development. These strategies not only enrich students’ linguistic knowledge but also help them communicate with confidence in both academic and professional contexts.

Keywords: *speaking skills, students, speech activity, communicative competence, podcast, interactive methods, pedagogical technologies, fluent speech, oral communication.*

Kirish qismi. Globalizatsiya jarayonida chet tillarini o‘rganish shaxsning nafaqat bilim doirasi, balki kasbiy va ijtimoiy faoliyatida ham muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, gapirish ko‘nikmasi – nutq faoliyatining asosiy turlaridan biri sifatida talabalar uchun alohida ahamiyatga ega. Tilni o‘rganish jarayonida grammatik qoidalar va so‘z boyligini bilish yetarliemas; o‘z fikrini ravon, mantiqli va erkin ifoda etish qobiliyati kommunikativ kompetensiyaning markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida chet tili fanlarini o‘qitish jarayoni CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standartlari asosida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda “Speaking” – ya’ni og‘zaki nutqni rivojlantirish asosiy ko‘nikmalardan biri sifatida belgilangan. Talabalar uchun gapirish qobiliyatini shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida, ilmiy izlanishlarida hamda xalqaro muloqot jarayonida samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda pedagogik va psixologik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, amaliy nutqiy faoliyatga yo‘naltirilishi lozim. Xususan, gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, jumladan, podkastlar, multimedia vositalari, interaktiv platformalar va mobil ilovalardan foydalanish samaradorligi ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola talabalar o‘rtasida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish masalasini atroflicha o‘rganishga qaratilgan.

Asosiy qism. Maqolaning asosiy maqsadi – gapirishni rivojlantirish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish hamda talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Gapirish nutq faoliyati turi sifatida nazariy asoslarini o‘rganish;
2. Talabalarda gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish;
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning samaradorligini aniqlash;
4. O‘quv jarayonida podkastlar va boshqa raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;
5. Talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ISSN: 2992-9210

Chet tillarni o‘qitishda gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Gapirishni o‘rgatish metodikasi XX-asrning 60-yillaridan boshlab alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi va bugungi kunga kelib turli yondashuvlar bilan boyitildi. Ushbu bo‘limda avvalo xorijiy olimlar, so‘ngra mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari tahlil qilinadi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqiy faoliyatni, xususan, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy adabiyotlarda turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Dell Hymes [5] tomonidan ilgari surilgan “Communicative Competence” nazariyasida tilni o‘rgatishda grammatik bilim emas, balki o‘z fikrini muloqot jarayonida samarali ifodalash birinchi darajali omil sifatida e’tirof etiladi. Uning fikricha, gapirish ko‘nikmasi til egallashning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

M. Canale va M. Swain [2] esa kommunikativ kompetensiyani tarkibiy qismlarga ajratib, ulardan eng muhimlaridan biri sifatida og‘zaki nutqni rivojlantirishni ko‘rsatadi. Ularning ta’limotiga ko‘ra, gapirish jarayoni nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni ham talab qiladi. Brown [1] o‘z tadqiqotlarida gapirishni o‘rgatishda interaktiv metodlarning ustunliklarini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, talabalarni muloqotga jalb etish orqali ular tabiiy muhitda gapirishni tezroq o‘zlashtiradilar. Harmer [4] esa gapirishni rivojlantirishda rol o‘ynash, munozara, intervyu, taqdimot kabi mashqlarning samarali ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

So‘nggi yillarda podkastlar, videodarslar va onlayn platformalar orqali gapirishni o‘rgatish bo‘yicha ham qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Thornbury [9] gapirishni rivojlantirish uchun qisqa, ammo muntazam mashqlar samarali natija berishini aytadi. Goh va Burns [3] esa gapirish strategiyalarini ongli o‘rgatish orqali talabalar nutqini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydilar. O‘zbekistonlik olimlar ham chet tillarini o‘qitishda gapirish ko‘nikmalarining o‘rni haqida bir qator tadqiqotlar olib borgan. Masalan, A.Nurmonov [7], N.Mahmudov [6] va boshqa tilshunos olimlarning ishlarida nutq madaniyati, og‘zaki nutqning kommunikativ xususiyatlari keng yoritilgan. M.Yo‘ldoshev [11] o‘z tadqiqotlarida talabalar uchun interaktiv mashg‘ulotlarning samaradorligini asoslab, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda “ dialogik nutq”ning ahamiyatiga urg‘u beradi. Sh.Qodirova [8] esa chet tilini o‘qitishda rolli o‘yinlardan foydalanish orqali talabalar nutqiy faolligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan chet tillarini o‘qitishda CEFR standartlarini joriy etish bo‘yicha olib borilgan ishlar [10] ham gapirishni rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, barcha oliy ta’lim muassasalarida “Speaking” kompetensiyasini rivojlantirish uchun maxsus dars soatlari ajratilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlar gapirish ko‘nikmasini til o‘rganishning markazida turuvchi asosiy komponent sifatida ko‘radilar. Mahalliy tadqiqotlarda esa ko‘proq interaktiv metodlar, rol o‘ynash va munozara orqali gapirishni rivojlantirish yo‘llari yoritilgan. Har ikkala tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish nafaqat grammatik bilimlar, balki talabalarni faol muloqot jarayoniga jalb etishni ham talab qiladi.

Tadqiqotning bosh maqsadi – talabalar o‘rtasida ingliz tilida gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali strategiyalarni aniqlash va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatishdir.Shu bilan birga, tadqiqot quyidagi vazifalarni ham bajarishni ko‘zlaydi: mavjud nazariy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish; talabalar o‘rtasida mavjud muammolarni aniqlash; samarali metodlar va yondashuvlarni sinab ko‘rish; olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Talabalarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun turli xil metodlar va strategiyalar qo‘llaniladi. Har bir metod o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri tanlash va kombinatsiya qilish yuqori natijalarga olib keladi. Quyida eng samarali yondashuvlar tahlil qilinadi.

ISSN: 2992-9210

1) Kommunikativ metod: bu metodning asosiy maqsadi — talabalarni grammatik bilimlarni qo‘llashga emas, balki muloqotga jalb qilishga yo‘naltirishdir. Mashg‘ulotlarda quyidagilar amalga oshiriladi; juftliklarda suhbatlashish (pair work); kichik guruhlarda muhokamalar (group discussions); o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga ochiq javoblar.

2) Vazifaga asoslangan yondashuv (Task-based learning): talabalarga real hayotiy vazifalar beriladi; do‘konda xarid qilish; mehmonxonada joy band qilish; suhbat davomida muammo hal qilish. Bu metod talabalarni faqat lug‘at va grammatikaga emas, balki amaliy nutqqa yo‘naltiradi.

3) Podkastlardan foydalanish strategiyalari: podkastlarni qo‘llash quyidagi bosqichlarda samarali; avval podkast tinglanadi; tinglangan mavzu yuzasidan savol-javob qilinadi; talabalar o‘z fikrlarini ifodalaydi yoki qisqa taqdimot qiladi; yakunda umumiy muhokama tashkil qilinadi.

4) Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar. Rol o‘yinlari talabalarning tasavvurini kengaytiradi va real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Masalan: “Sayohat agentligi”da mijoz va xodim roli; “Talabalar kengashi” yig‘ilishi; talabalarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda psixologik va ijtimoiy omillar.

Gapirish jarayoni — bu faqat lingvistik yoki grammatik ko‘nikmalarning majmui emas, balki psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy faollik va kommunikativ jasoratni ham talab qiluvchi murakkab faoliyat turidir. Talabalar ingliz tilida erkin muloqot qila olmasligining sabablaridan biri ularning psixologik holatidir. Bu omillar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Qo‘rquv va ishonchsizlik - ko‘plab talabalar chet tilida gapirishda o‘z fikrini xato ifodalashdan, boshqalar tomonidan kulgi yoki tanqidga uchrashdan cho‘chiydi. Bu esa ularning muloqotda qatnashish istagini pasaytiradi. Bunday holatda o‘qituvchi ijobiy, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi muhim. Talabalar xatoni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishi kerak.

2. Motivatsiya yetishmasligi - agar talaba ingliz tilida gapirishning amaliy foydasini his qilmasa, u bu faoliyatga yetarli e’tibor bermaydi. Shuning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab, kasbiy va shaxsiy manfaatni namoyon etishi lozim.

3. Sotsial muloqotdagi cheklovlar - ba’zi talabalar ijtimoiy jihatdan tortinchoq yoki muloqotga kirishishda sust bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda guruhli mashg‘ulotlar, peer learning (o‘zaro o‘rganish) texnikasi, “suhbat klublari” va kichik juftliklarda ishlash samarali bo‘ladi.

4. Madaniy to‘siqlar - chet tilida muloqot qilishda madaniy farqlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilida gaplashayotganda talabalar intonatsiya, tana tili, etiketa qoidalarini ham bilishi kerak. Bu jihatlar dars jarayonida maxsus mashqlar orqali o‘rgatiladi.

Psixologik barqarorlikni mustahkamlash uchun o‘qituvchi quyidagi strategiyalarni qo‘llashi mumkin: ijobiy teskari aloqa berish (“Ajoyib gapirding!”, “Yaxshi fikr bildirding!”); xato uchun tanqid emas, tahlil berish; talabani kichik, real muvaffaqiyatlarga erishish orqali o‘ziga ishonchini oshirish.

Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda o‘qituvchi — bu faqat ma’lumot beruvchi emas, balki moderator, motivator va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Uning metodik yondashuvi, darsni tashkil etish uslubi va teskari aloqa berish uslubi natijaga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchi mashg‘ulotni shunday tashkil etishi kerakki, har bir talaba muloqot jarayonida ishtirok etsin. Masalan, “Think–Pair–Share” metodi (fikrla–juftlash–bo‘lish) talabalarni faol fikrlash va gapirishga undaydi. An’anaviy tarzda o‘qituvchi markazida bo‘lgan dars o‘rniga, hozirda talabalar markazida bo‘lgan “learner-centered” model samaraliroq hisoblanadi. Bu yondashuvda o‘qituvchi rahbar sifatida faqat yo‘l ko‘rsatadi, talaba esa faol ishtirokchi bo‘ladi. Gapirish ko‘nikmasini baholashda faqat grammatik to‘g‘rilikka emas, balki ravonlik (fluency), mantiqiylik (coherence), lug‘at boyligi (lexical resource) va talaffuz (pronunciation) kabi mezonlar asosida tahlil qilinishi lozim. “Self-assessment” va “peer assessment” (o‘zaro baholash) shakllari motivatsiyani oshiradi. Samarali feedback gapirishni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi xatolarni darhol to‘xtatmasdan, mashg‘ulot yakunida umumiy tahlil qilish orqali talabani erkin fikrlashga rag‘batlantirishi kerak.

ISSN: 2992-9210

Xulosa qismi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnoma va intervyular natijasida quyidagi xulosalar olingan: talabalarning 68% ingliz tilida gapirishdan qo‘rqishini, ayniqsa xato qilishdan xavotirda ekanligini bildirgan; 23% talabalar darsda gapirishga imkon yetarli emasligini, vaqt ko‘proq grammatik mashqlarga sarflanishini aytgan; faqat 9% talabalar muntazam ingliz tilida suhbat mashqlarini darsdan tashqarida bajaradi (chat, voice practice, podkastlar orqali).

Eksperimental mashg‘ulotlar davomida esa rol o‘yinlari va podkastlardan foydalanilgan guruhda gapirish tezligi 35% ga oshgan, munozara va debat metodlari qo‘llanilgan guruhda esa lug‘at boyligi va mantiqiy bog‘liqlik sezilarli ravishda yaxshilangan. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ va texnologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda eng samarali modeldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, H. D. (2001). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 2nd ed. Longman, New York.

2. Canale, M. & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

3. Goh, C. C. M. & Burns, A. (2012). Teaching Speaking: A Holistic Approach. Cambridge University Press, Cambridge.

4. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. 4th ed. Pearson Longman, Harlow.

5. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J.B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings. Penguin Books, London.

6. Mahmudov, N. (2008). Til va nutq madaniyati. Toshkent: Fan nashriyoti.

7. Nurmonov, A. (2001). O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati. Toshkent: O‘qituvchi.

8. Qodirova, Sh. (2020). Rol o‘yinlari orqali talabalar nutqiy faolligini oshirish. Til va adabiyot ta’limi jurnali, №4.

9. Thornbury, S. (2012). How to Teach Speaking. Pearson Education Limited, London.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). Chet tillarini o‘qitishda CEFR standartlarini joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent.

11. Yo‘ldoshev, M. (2019). Chet tillarini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi. Samarqand davlat universiteti ilmiy axboroti, №2.

ISSN: 2992-9210

ZAMONAVIY BOSHQARUVDA RAHBARLIK KOMPETENSIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

THE PLACE AND IMPORTANCE OF LEADERSHIP COMPETENCES IN MODERN MANAGEMENT

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ЛИДЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Xasanova Gulzoda Komiljon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy boshqaruv tizimida rahbarlik kompetensiyalarining ahamiyati va ularning tashkilot samaradorligiga ta’sirini tahlil qiladi. Rahbarlik kompetensiyalari – strategik fikrlash, kommunikativ va liderlik ko‘nikmalari, emosional intellekt kabi ko‘nikmalar to‘plami sifatida ko‘riladi. Maqolada zamonaviy nazariy yondashuvlar, rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirish usullari va ularning amaliy ahamiyati o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada rahbarlarning kompetensiyalarini baholash va jamoa motivatsiyasini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham keltirilgan. Tadqiqot natijalari rahbarlik kompetensiyalarining tashkilot muvaffaqiyati va samaradorligi uchun muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Rahbarlik kompetensiyalari, boshqaruv tizimi, liderlik, strategik kompetensiya, motivatsiya, zamonaviy boshqaruv*

Xasanova G.K.,
Samarqand davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
gulzodakhasanova67@gmail.com

Annatation. This article analyzes the significance of leadership competencies in modern management systems and their impact on organizational effectiveness. Leadership competencies are considered as a set of skills including strategic thinking, communication, leadership abilities, and emotional intelligence. The study examines contemporary theoretical approaches, methods for developing leadership competencies, and their practical importance. Additionally, the article provides practical recommendations for evaluating leaders’ competencies and enhancing team motivation. The findings indicate that leadership competencies are crucial for organizational success and efficiency.

Keywords: *Leadership competencies, management system, leadership, strategic competency, motivation, modern management*

Аннотация. В статье анализируется значение компетенций руководителя в современных системах управления и их влияние на эффективность организации. Компетенции руководителя рассматриваются как набор навыков, включающих стратегическое мышление, коммуникативные и лидерские способности, а также

ISSN: 2992-9210

эмоциональный интеллект. В работе рассматриваются современные теоретические подходы, методы развития компетенций руководителей и их практическая значимость. Кроме того, статья содержит практические рекомендации по оценке компетенций руководителей и повышению мотивации команды. Результаты исследования показывают, что компетенции руководителя имеют решающее значение для успеха и эффективности организации.

Ключевые слова: *Компетенции руководителя, система управления, лидерство, стратегическая компетенция, мотивация, современное управление*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o‘zgartirish, takomillashtirishni, ya’ni boshqaruvning ma’muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo‘lib, nafaqat boshqaruv muammolari, balki sub’ektlarning boshqaruv faoliyatini tashkil etish va ularni shakllantirish zamirida, eng avvalo, boshqaruv tizimining turli bo‘g‘ini rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, yangi sharoitlarga muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda tashkilotlar samaradorligini oshirish va raqobatbardosh bo‘lib qolish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu jarayonda rahbarlarning kompetensiyalari — strategik fikrlash, qaror qabul qilish, kommunikatsiya, liderlik va motivatsiya ko‘nikmalari — tashkilotning muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi.

Boshqaruvning samaradorligi faqatgina tashkiliy jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etilishiga emas, balki rahbarning professional va shaxsiy kompetensiyalariga ham bog‘liq. Bugungi kunda global raqobat, texnologik yangiliklar va innovatsion jarayonlar rahbarlardan yuqori malaka, kreativlik, moslashuvchanlik va yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Shu sababli rahbarning kompetensiyalari nafaqat jamoani boshqarishda, balki tashkilotning strategik rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Rahbar” degan nomga ega bo‘lgan har bir shaxs o‘z tashqi qiyofasi, madaniyatli kiyinishi, talabchanligi, bilimi, tashkilotchiligi bilan atrofdagilarga hamisha ibrat namuna bo‘lmog‘i lozim. Bugungi ta’lim- tarbiya sohasidagi qabul qilayotgan qarorlar asosida bugungi ta’lim jarayoniga menejerlik qilaman degan har bir iqtidorli shaxs o‘zining kasbiy kompetentligiga tayanib, rahbarlik ishlarini tashkil qilishi lozim. Umuman olganda, ta’lim muassasalaridagi muvoffaqiyatlar rahbarning ijrochilar mehnatiga bo‘lgan munosabatlaridan qanchalik manfaatdorliklarni anglata bilish qobiliyatiga sezilarli darajada bog‘liqdir. Kasbiy qobiliyatga ega mutaxassis o‘z bilimini izchil boyitib borishi, yangilikka intiluvchan mahorat egasi bo‘lishi lozim. Bu esa o‘z navbatida, kompetentligini ta’minlaydi.

Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta’sir o‘tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq boshqaruvning tarkibiy qismi hisoblanadi. Darhaqiqat, har qanday boshqaruv avvalambor rahbardan menejmentga oid umume’tirof etilgan va zaruriy boshqaruv ko‘nikmalarini talab qiladi. Avvalambor bu qatorda asosiy boshqaruv ko‘nikmalari bo‘lmish: maqsad qo‘yish; rejalashtirish; faoliyatni rejalashtirish; hodimlar ustidan nazoratni amalga oshirish va hodimlarni rag‘batlantirish nazarda tutiladi. Bu birlamchi malakalarsiz hech qanday boshqaruvni amalga oshirish mumkin emas [1]. Shuningdek, rahbarlik uslubiga muvofiq shakllanadigan shaxsiy sifatlar ichida, eng avvalo qadriyatlar, ishonch va e’tiqodlarni aytib o‘tish zarur. Bu sifatlar rahbarning

roli haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga imkon beradi. Ayniqsa, rahbarning o‘z qo‘l ostidagilar haqidagi tasavvuri, ularning qiziqish va intilishlari haqidagi fikri ahamiyatli bo‘lib, ularning xulq-atvori, odobi, hayoti va kelajagi oldida mas’uldir.

Rahbarlik kompetensiyalari, odatda, quyidagi asosiy yo‘nalishlarda shakllanadi: strategik kompetensiya, liderlik va motivatsiya ko‘nikmalari, kommunikativ mahorat, qaror qabul qilish qobiliyati va emosional intellekt. Ularning har biri tashkilot ichidagi jarayonlarning samarali boshqarilishi va xodimlarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rahbarlik kompetensiyalari tashkilotning innovatsion faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki zamonaviy rahbarlar doimiy o‘zgarishlar va yangi vaziyatlarga tez moslasha olishlari lozim.

Shaxsning jamoaga ta’siri liderlik, rahbarlik kabi tushunchalar orqali ifoda qilinishi mumkin. Lekin, rahbarlik va liderlik bir-biridan farq qiladi. Eng asosiy farqi shundaki, rahbar jamoada rasmiy munosabatlarni, lider esa jamoa ichidagi ma’lum bir guruhlarda, ma’lum bir yo‘nalishlar bo‘yicha norasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va boshchilik qiladi. Liderlik tabiati juda murakkab bo‘lib, psixologiyada ko‘pincha liderlikni ma’lum bir shaxsning guruhiy faoliyatidagi roli nuqtai nazaridan qarab kelinadi, ya’ni lider - bu ma’lum bir vaziyatda guruhiy vazifalarni bajarishda boshqalarga nisbatan faollik ko‘rsata oladigan shaxs, deb qaraladi. Demak, lider guruhning shunday a’zosiki, u go‘yoki barcha guruhiy jarayonlarning boshida turadi va xulqi bilan o‘zgalarga ta’sir qila oladi. Lider ma’lum bir guruhda, ma’lum bir yo‘nalishda shunday mavqega ega bo‘ladiki, u o‘zidagi ayrim ijobiy va kuchli fazilatlari tufayli kundalik muloqot va turli munosabatlar jarayonida obro‘ orttirgan shaxsdir. U aslida rahbarlikka da’vo qilmaydi, lekin yurish-turishlari ko‘pchilikka ma’qul bo‘lganligi sababli, uni odamlar saylovlarda tanlashlari yoki rahbarlikka zaxira tanlashganda aynan uning nomzodini qo‘yishlari mumkin.

Rahbarning tashkilotlarni, shu jumladan ta’lim muassalarini uzoq muddatli rivojlanishini oldindan ko‘ra bilishi, to‘g‘ri reja tuzishi, vaziyatni tahlil qilib, to‘g‘ri qaror qabul qila olishi va resurslarni samarali boshqara olish qobiliyati bu uning strategik kompetensiyasi yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Oddiy qilib aytganda, strategik kompetensiya bu kelajakni ko‘rish, rejalash va boshqarish mahoratidir. Rahbarlar tashkilotning 3–5 yil ichidagi holatini tasavvur qila olishi va shu yo‘nalishda jamoani to‘g‘ri boshqara bilishi, uzoq muddatli strategik maqsadlar qo‘ya olishi, ularga erishish yo‘llarini ishlab chiqishi, noaniq sharoitlarda ham asosli, xavfni hisobga olgan holda to‘g‘ri qarorlar chiqarishi, yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlab, yangiliklarni jarayonga tatbiq eta olishi lozim. Rahbar uchun — jamoani boshqarishda, nizolarni hal etishda uning emotsional intellekti juda zarur bo‘ladi. Shuning uchun, hodimlar bilan ishonchli muloqot, jamoani boshqarish va ularga motivatsiya berish uchun esa kommunikativ mahorati ancha yuqori bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy menejmentda M.B. Kurbatov, M.I. Magura va V.V. Travin kabi tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra [5] muvaffaqiyatli rahbarlik uchta asosiy omilga asoslangan: istak, tushunish va imkoniyat. Istak - butun tashkilot ishini yaxshilash uchun motivasiya bilan belgilangan maqsadlarga bog‘liq. Tushunish - bu sizning maqsadlaringizga erishish uchun nimani va qanday qilishni bilishingizdir. Bu odamlar tashkilotda ishlash tajribasi natijasida ham, o‘qitish natijasida ham paydo bo‘ladi. Tashkilotda inson xatti-harakatlarining asosiy namunalarini bilish. Imkoniyatlar - bu bir tomondan faqat moddiy imkoniyatlarning mavjudligi (moliya, jamoaning intellektual salohiyati, noyob texnologiyalar va boshqalar), ikkinchidan, rahbariyat va hodimlar o‘rtasidagi ishonch va hamkorlik darajasidir. Hamkorlikdagi menejment - bu biznes tashkilotidagi menejerlar va supervayzerlar o‘rtasida birlik va jamoaviy ishlash tuyg‘usini rag‘batlantiradigan turli xil boshqaruv usullarini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Ushbu turdagi boshqaruv uslubining g‘oyasi menejerlarga o‘zlarining kuchli tomonlarini jamoaning boshqa a’zolarining kuchli tomonlari bilan birlashtirishga imkon berishdir, bu esa jamoa a’zolarida topilishi mumkin bo‘lgan har qanday zaif

tomonlarni birgalikda bartaraf etish imkonini beradi. Istak, tushuncha va imkoniyat nafaqat boshqaruv jarayonida sodir bo‘ladigan jihat, balki tashkilotning maqsadlarini hisobga olgan holda menejment va kadrlar bo‘yicha mutaxassislar tomonidan shakllangan va maqsadga muvofiq qo‘yilgan kelajakdagi muvaffaqiyat uchun asosdir.

Zamonaviy boshqaruv tizimida rahbarlik kompetensiyalarining ahamiyati bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi o‘n yilliklarda kompetensiyaga asoslangan yondashuv rahbarlik nazariyasining markaziy yo‘nalishiga aylangan. Kompetensiya tushunchasini boshqaruv sohasiga dastlab D. McClelland kiritgan bo‘lib, u rahbarning malakasidan ko‘ra real vaziyatlarda samarali natija bera olishini asosiy ko‘rsatkich sifatida ta’kidlaydi [6]. Keyinchalik R. Boyatzis rahbarning samaradorligini belgilovchi kompetensiyalar modelini ishlab chiqib, rahbarlikning kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatgan.

Spencer L. M. va Spencer S. M. tomonidan taklif etilgan “Competence at Work” modeli esa kompetensiyalarni bilim, ko‘nikma, motivatsiya, xulq-atvor va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida izohlaydi. Ushbu model zamonaviy HR (Human Resources) menejmenti va rahbarlarni baholash tizimlarida keng qo‘llanadi. Shu bilan birga, H.Mintzbergning “Rahbarlik rollari nazariyasi” esa rahbarning interpersonal, axborot beruvchi va qaror qabul qiluvchi funksiyalarini yoritadi, bu esa kompetensiya tarkibida kommunikativ mahorat, axborot bilan ishlash qobiliyati va strategik fikrlash zarurligini ko‘rsatadi.

Strategik kompetensiya masalasi Porter, Drucker va Ansoff kabi tadqiqotchilar asarlarida keng o‘rin olgan. Zamonaviy menejment nazariyasi va rahbarlik bo‘yicha eng mashhur olimlardan biri P. Drucker o‘zining “Management: Tasks, Responsibilities, Practices” nomli kitobida ham rahbarning asosiy vazifasi tashkilot kelajagini ko‘ra olish va resurslardan oqilona foydalanish orqali raqobatbardoshlikni ta’minlash ekanini ta’kidlaydi. Strategik menejment va raqobat strategiyalari bo‘yicha eng mashhur olimlardan biri M. Porter ham strategik boshqaruvni raqobat ustunligini yaratish vositasi sifatida ko‘rib, rahbarlardan innovatsion yechimlar, tahliliy fikrlash va uzoq muddatli rejalashtirish kompetensiyalarini talab qiladi.

Emotsional intellekt (EI) va uning rahbarlik va boshqaruvga ta’siri bo‘yicha dunyoga mashhur olimlardan biri bo‘lgan D. Golemanning tadqiqotlari rahbarlik kompetensiyasining psixologik jihatlarini yoritadi. Goleman rahbar samaradorligining 70 foizdan ortig‘i emotsional intellektga bog‘liq ekanini ta’kidlab, o‘zini boshqarish, o‘zini anglash, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni asosiy kompetensiyalar sifatida belgilaydi. Bu yondashuv zamonaviy korporativ boshqaruvda rahbar shaxsiyati va uning jamoaga ta’sirini o‘rganishda keng qo‘llanadi.

Xorijiy adabiyotlar bilan bir qatorda O‘zbekiston olimlari – S. Sodiqov, O. Tolibov, L. Raxmatova, M. Qodirovlarning tadqiqotlarida ham rahbarlik madaniyati, boshqaruv kompetensiyalari, pedagogik va korporativ rahbarlikning zamonaviy yondashuvlari keng yoritilgan. Ularda rahbarning axloqiy fazilatlari, boshqaruv madaniyati, kasbiy kompetensiyasi va innovatsion yetakchilikning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan.

Shuningdek, tadqiqotchi A.Nosirov rahbarlik menejmentida kompetentsiyani muhimligini ta’kidlab, boshqarishda quyidagi qobiliyat kompetentsiyalari haqida o‘z fikrlarini bildirgan:

1. Standart kompetentsiya ushbu ya’ni faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilab olishi qobiliyatidir;

2. Asosiy kompetentsiya – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilash olish qobiliyati;

3. Yetarli kompetentsiya kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati;

4. Kasbiy kompetentsiya – pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirishdan iborat, deb ta’kidlaydi [12].

ISSN: 2992-9210

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi bo‘limida tadqiqotning zamonaviy boshqaruv jarayonida rahbarlik kompetensiyalarining o‘rni va ahamiyatini chuqur o‘rganish asosiy jarayon sifatida qaratilgan bo‘lib, metodologiyada aralash usullarni qo‘llab, bir necha metodlardan foydalaniladi. Ular ilmiy manbalarni tahlil qilish, so‘rovnoma, suhbat va amaliy kuzatuv. Ushbu metodlar rahbarlik kompetensiyalarining boshqaruv jarayonidagi ahamiyatini tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi.

So‘rovnoma tadqiqotning eng amaliy usullaridan biri hisoblanib, uni to‘g‘ri o‘tkazish natijalarni ishonchli qilishda yordam beradi. Qarorlar qabul qilishda, jamoasidagi hodimlar bilan muloqot jarayonlarida rahbarlik kompetensiyasiga qay darajada ega ekanligini maqsad qilib, “Siz strategik fikrlashni rivojlantirishga e’tibor berasizmi?” hamda “Jamoa bilan samarali muloqot qilish uchun qanday usullarni qo‘llaysiz?” kabi savollar tashlandi. Tadqiqot 120 nafar rahbar o‘rtasida o‘tkazildi. Natijalar quyidagicha ifodalandi:

Rahbarlik kompetensiyasi	Javoblar soni	Foiz (%)
Kommunikativ mahorat	94	78
Strategik fikrlash	78	65
Emotsional intellekt	86	72
Muammolarni hal qilish	60	50

Respondentlarda olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rahbarlarning ko‘pchiligi (78%) kommunikativ kompetensiyani eng muhim deb hisobladi. 65% rahbar strategik fikrlash ko‘nikmalarining yetishmasligini ta’kidlagan. 72% rahbar emotsional intellekt ularning jamoani boshqarishida ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aytgan. Shuningdek, muammolarni hal qilish ko‘nikmasi 50% rahbarlar tomonidan yetarli darajada rivojlangan deb topildi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy boshqaruvda rahbarlik kompetensiyalari, xususan kommunikativ mahorat, strategik fikrlash va emotsional intellekt jamoa samaradorligi va boshqaruv jarayoniga bevosita ta’sir qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotda rahbarlik kompetensiyalarining amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish maqsadida suhbat (intervyu) metodidan ham foydalanildi. Mazkur metod rahbarlarning boshqaruv jarayonida duch kelayotgan real holatlar, kompetensiyalarni qo‘llashdagi tajribasi hamda ularning professional faoliyatdagi ehtiyojlarini aniqlash imkonini berdi.

Suhbat metodi yarim strukturalashtirilgan shaklda tashkil etildi, ya’ni tadqiqotchi tomonidan asosiy savollar belgilangan bo‘lsa-da, suhbat jarayonida rahbarlarga o‘z fikrlarini kengaytirib bayon etish uchun erkinlik berildi. Bu esa kompetensiyalarning shakllanishi, jamoa bilan ishlash strategiyalari, qaror qabul qilish jarayonlari, emotsional intellekt va kommunikativ ko‘nikmalarning amaliy namoyon bo‘lishi bo‘yicha chuqur ma’lumotlar olishga imkon yaratdi.

Suhbatlar 5 nafar rahbar va bo‘lim boshliqlari bilan o‘tkazildi. Har bir suhbat o‘rtacha 20–30 daqiqa davom etdi. Savollar quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldi:

– rahbarlik kompetensiyalarining amaliyotdagi ahamiyati;
– samarali boshqaruv uchun zarur ko‘nikmalar;
– faoliyat davomida uchraydigan boshqaruv muammolari;
– jamoa bilan ishlash tajribasi;
– kompetensiyalarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj.

Tahlil va natijalar. Olingan ma’lumotlar kontent-tahlil asosida qayta ishlanib, so‘rovnoma va ekspert baholash metodlari natijalarini to‘ldiruvchi sifatida tadqiqotning analitik qismiga integratsiya qilindi. Ushbu metod rahbarlik kompetensiyalarining zamonaviy boshqaruvdagi rolini yanada aniqroq yoritish, sifat jihatdan boy ma’lumot olish va xulosalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy boshqaruv jarayonida rahbarlik kompetensiyalari tashkilotning samaradorligi, innovatsion rivojlanishi va inson resurslarining sifatli boshqarilishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Rahbarning strategik fikrlashi, kommunikativ ko‘nikmalari, jamoani motivatsiya qila olishi, mas’uliyatni bo‘lisha olish (delegatsiya), qaror qabul qilishda tahliliy yondashuvi va emotsional intellekti boshqaruv samaradorligini oshiradi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnoma, suhbat va ekspert baholari orqali rahbarlarning kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi, xususan, liderlik, innovatsion boshqaruv va shaxslararo muloqot ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlangan. Shu bois kompetensiyaviy yondashuv bugungi boshqaruv tizimining ajralmas metodologik asosi sifatida e’tirof etilishi lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu tadqiqotning nazariy asosida boshqaruv kompetensiyalarining tuzilishi, zamonaviy liderlikning konseptual yondashuvlari, emotsional intellektning boshqaruvdagi funksional roli hamda strategik fikrlashning tashkilot rivojlanishiga ta’sirini aks ettiruvchi ilmiy manbalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, rahbarlik kompetensiyalarining integrativ xususiyatlarini ochib berishda hamda ularning boshqaruv jarayonidagi metodologik ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida zamonaviy boshqaruv sharoitida rahbarlik kompetensiyalarining dolzarbligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab, ularning tashkilot rivojlanishi, strategik qarorlar qabul qilinishi va jamoani samarali boshqarishdagi ahamiyatini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Zamonaviy rahbarlik kompetensiyalari bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning integratsiyasidan iborat bo‘lib, ular tashkilotning strategik rivojlanishi, jamoaning motivatsiyasi va boshqaruv samaradorligining asosiy omili ekanini tasdiqlaydi. Bunday xislatlarning rahbar faoliyatida namoyon bo‘lishi, shaxsdan muntazam tartib va o‘z ustida ishlashni, doimo o‘z idrokida namuna yaratish va unga taqlid etishni talab qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham rahbarlarni ish faoliyatiga tubdan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 yilning 4-avgust kuni davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida, navbatdagi muhim vazifa - markaziy idoralarni transformatsiya qilish orqali fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish ekanligini ta’kidlab o‘tdilar. Bundan buyon, rahbarlik lavozimiga nomzodlar odatda odamlar bilan ishlagan, ularning muammosini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, hal qilgan kadrlar orasidan tanlab olinadi. [16] Ayni damda bunday talablarga javob bera olish uchun kadrlar tayyorlash ham muhim vazifadir. Bugunning zamonaviy ish texnikasi, innovatsion texnologiyasini hozirgi yosh rahbarlarga, bizga qunt bilan o‘rgatib kelayotgan mutaxassis ustozlarimizga minnatdorchilik bildiraman.

Ushbu tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, rahbarlik kompetensiyalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha tegishli amaliy choralar, ya’ni, rahbarlar uchun muntazam treninglar tashkil qilish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida yetakchi rahbarlar ishtirokida master-klasslar, konferensiyalar va davra suhbatlari tashkil etib, ilg‘or boshqaruv tajribalari bilan almashishni tavsiya etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yosh rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini baholash. Monografiya. / Mualliflar jamoasi: A.Xolov, I.Maxmudov, Sh.Kadirova, G.Bekimbetova va boshq. – T.: «Yangi kitob» nashriyoti, 2020. 192-bet

2. Pedagogik menejment asoslari. O‘quv qo‘llanma. / A.E.Kenjaboyev, B.X.Karimova. – T.: «IRFON-PRINT» nashriyoti, 2023.

3. Zamonaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyoti. A. Karimov. – T.: «Fan», 2020.
4. Rahbarlik kompetensiyalari: nazariya va amaliyot. / J. Yo‘ldoshev, D.Xoliqova – T.: «Iqtisodiyot», 2019.
5. А. Б. Камалетдинова. Управленческие компетенции руководителя как фактор создания конкурентного преимущества организации. // Электронный журнал http://bilig.academiascience.org http://bilig.academiascience.or http://bilig.academiascience.or «Психологическая наука и образование» 2010, No 5/ www.psyedu.ru / ISSN: 2074-5885.
6. McClelland’ning 1973-yilda chiqqan «Testing for Competence Rather Than for Intelligence» nomli maqolasi.
7. Boyatzis R. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. – New York: Wiley, 1982. – 256 p.
8. Spencer L. M., Spencer S. M. Competence at Work. – New York: Wiley, 1993. – 472 p.
9. Mintzberg H. The Nature of Managerial Work. – New York: Harper & Row, 2019. – 320 p.
10. Goleman D. Emotional Intelligence and Leadership // Harvard Business Review. – 2018. – №6. – P. 28 36.
11. Robbins S. P., Judge T. A. Organizational Behavior. – New Jersey: Pearson, 2021. – 560 p.
12. Rahbarning kasbiy kompetentligi va boshqaruv madaniyati, ta’lim menejmenti. / A. Nosirov jur 2013 yil №6, 2bet .
13. Innovatsion boshqaruv va pedagogik menejment. M. Xolmatova – T.: «Innovatsiya», 2022.
14. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.
16. https://yuz.uz

ISSN: 2992-9210

COMPUTATION OF SERIES SUMS USING LAPLACE TRANSFORM

LAPLAS ALMASHTIRISHI YORDAMIDA QATORLAR YIG‘INDISINI HISOBLASH

ВЫЧИСЛЕНИЕ СУММЫ РЯДОВ С ПОМОЩЬЮ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ ЛАПЛАСА

Xaydarov Zafar Xaydar o‘g‘li, Farxodova Gulnoza, Matlabov Zuxriddin, Mardonov Jamshid

Xaydarov Z.X.,
O‘qituvchi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Samarqand, O‘zbekiston

Farxodova G.M.,
Bakalavr talabasi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Samarqand, O‘zbekiston
farkhodovamath@mail.ru

Matlabov. Z.,
Bakalavr talabasi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Samarqand, O‘zbekiston

Mardonov J.,
Bakalavr talabasi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Samarqand, O‘zbekiston
farkhodovamath@mail.ru

Annatation. This article explores the use of the Laplace transform as an effective tool for the investigation and computation of sums of numerical series. The main focus is placed on the relationship between integral representations of functions and analytical methods of summation. It is shown that the application of the Laplace transform makes it possible to obtain new forms of partial sums and to determine exact values for classes of convergent and conditionally convergent series. The provided examples demonstrate that, in certain cases, standard analytical methods become complicated, whereas the use of the Laplace transform leads to more concise and illustrative results. Thus, the article reveals the potential of this method not only in the theory of differential equations but also in the theory of series, thereby opening up new prospects for further research in the field of mathematical analysis.

Keywords: *Laplace transform, infinite decreasing geometric progression, Riemann zeta function, numerical series.*

Аннотация. В данной статье рассматривается использование преобразования Лапласа как эффективного инструмента в исследовании и вычислении сумм числовых рядов. Основное внимание уделяется взаимосвязи между интегральными представлениями функций и аналитическими методами суммирования. Показано, что применение преобразования Лапласа позволяет получать новые формы представления частичных сумм и находить точные значения для классов сходящихся и условно сходящихся рядов. Приведены примеры решения задач, где стандартные методы анализа оказываются затруднительными, а использование преобразования Лапласа обеспечивает более компактные и наглядные результаты. Таким образом, статья раскрывает потенциал данного метода не только в теории дифференциальных уравнений, но и в теории рядов, что открывает перспективы для дальнейших исследований в области математического анализа.

Ключевые слова: *преобразование Лапласа, бесконечно убывающая геометрическая прогрессия, функция Дзета Римана, числовые ряды.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Laplas o‘zgarishidan sonli qatorlar yig‘indilarini tadqiq etish va hisoblashda samarali usul sifatida

ISSN: 2992-9210

foydalaniladi. Asosiy e’tibor funksiyalarning integral ko‘rinishlari bilan yig‘indini hisoblashning analitik usullari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka qaratiladi. Ko‘rsatiladiki, Laplas almashtirishini qo‘llash orqali qisman yig‘indilarning yangi ifodalarini olish hamda yaqinlashuvchi va shartli yaqinlashuvchi qatorlar sinflari uchun aniq qiymatlarni topish mumkin. Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi hollarda standart tahlil usullari murakkab bo‘lib qoladi, biroq Laplas almashtirishi yordamida yanada ixcham va aniq natijalarga erishish mumkin. Shu tariqa, maqola mazkur usulning nafaqat differensial tenglamalar nazariyasida, balki qatorlar nazariyasida ham qo‘llash imkoniyatlarini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: *Laplas almashtirishi, cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya, Riman Zeta funksiyalar, sonli qatorlar.*

KIRISH QISM

Matematik analizda qatorlarning yig‘indisini aniqlash masalasi muhim o‘rin tutadi. Aksariyat hollarda sonli qatorlarning aniq yig‘indisini topish murakkab bo‘lib, odatiy usullarda hisoblash yetarli bo‘lmaydi. Shu bois zamonaviy matematikada turli funksional usullar, xususan, integral almashtirishlar keng qo‘llanilmoqda. Shulardan biri — Laplas almashtirishlari bo‘lib, u nafaqat differensial tenglamalarni yechishda, balki qatorlarni tahlil qilishda ham samarali usul hisoblanadi. Laplas almashtirishlari yordamida cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyalar, Riman zeta funksiyasi bilan bog‘liq qatorlar va boshqa ko‘plab sonli qatorlarning yig‘indisini ixcham va aniq shaklda hisoblash mumkin. Ushbu maqolada Laplas almashtirishining nazariy asoslari va qatorlar yig‘indisini topishda qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi.

Quyidagi

$$F(p) = \int_0^{\infty} f(t)e^{-pt}dt. \qquad (1)$$

formula Laplas integrali deyiladi, bunda $F(p)$ kompleks $p = s + i\sigma$ o‘zgaruvchili funksiya.

$f(t)$ originalga, tasvirni mos qo‘yuvchi almashtirishga Laplas almashtirishi deyiladi. Laplas almashtirishlari nazariyasi operatsion hisob deb ataladi. $F(p)$ funksiyani ko‘pincha Laplas tasviri yoki Laplas bo‘yicha tasvir deyiladi yoki $L-$ tasvir deyiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, (1) dagi integral o‘zgaruvchisi t, p esa t ga bog‘liq emas.

Laplas almashtirishini $f = f(t)$ funksiyasini $F = F(p)$ ga akslantiruvchi L operatori sifatida ko‘rish mumkin va bunda (1) formulani $F = L(f)$ ko‘rinishda yozish mumkin.

$F(p)$ funksiya $f(t)$ originalni tasviri bo‘lishini quyidagicha belgilash mumkin:

$$L\{f(t)\} = F(p).$$

Agar $f(t)$ original bo‘lsa, u holda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1) $f(t) = 0$, agar $t < 0$ bo‘lsa va $f(0) = f(+0)$.

2) Shunday $\alpha \geq 0$ va $M > 0$ o‘zgarmaslar mavjudki $\forall t$ $(0 \leq t < \infty)$ bo‘lganda $|f(t)| < Me^{\alpha t}$ o‘rinli bo‘ladi, ya’ni bu funksiyaning moduli t o‘sishi bilan biror ko‘rsatkichli funksiyaga tezroq o‘smaydi.

Laplasning to‘g‘ri almashtirishi:

Haqiqiy o‘zgaruvchi $f(t)$ funksiyaning Laplas o‘zgarishi $p = s + i\sigma$ kompleks o‘zgaruvchining $F(p)$ funksiyasi bo‘lib, shundayki:

ISSN: 2992-9210

$$F(p) = L\{f(t)\} = \int_0^\infty f(t)e^{pt}dt.$$

Bu ifodaning o‘ng tomoni Laplas integrali deyiladi.

Laplasning teskari almashtirishi:

$F(p)$ kompleks o‘zgaruvchining funksiyasini teskari Laplas almashtirishi haqiqiy o‘zgaruvchining $f(x)$ funksiyasi bo‘lib, shundayki:

$$f(x) = L^{-1}\{F(p)\} = \frac{1}{2\pi i}\int_{\sigma_1-i\infty}^{\sigma_1+i\infty} e^{px}f(t)dt.$$

Bu yerda σ_1 – haqiqiy son, Bu ifodaning o‘ng tomoni Bromvich integrali deb ataladi.

Endi biz $f(t) = 1$ funksiyani Laplash almashtirishini qarab chiqaylik:

Yechimi. (1) formulada $f(t) = 1$ deb olaylik.

$$F(p) = \int_0^\infty e^{-pt}dt = \lim_{T\to\infty}\int_0^T e^{-pt}dt\,.$$

$p \neq 0$ bo‘lganda

$$\int_0^T e^{-pt}dt = -\frac{1}{p}\cdot e^{-pt}\Big|_0^T = \frac{1-e^{-pt}}{p}.$$

$$\lim_{T\to\infty}\int_0^T e^{-pt}dt = \begin{cases}\frac{1}{p}, & p>0.\\ \infty, p<0.\end{cases}$$

Agar $p = 0$ bo‘lsa integraldagi funksiya 1 ga aylanadi va

$$\int_0^T dt = \lim_{T\to\infty} T = \infty.$$

Shuning uchun $F(0)$ da aniqlanmagan va

$$F(p) = \int_0^T e^{-pt}dt = \frac{1}{p}, p>0.$$

bo‘ladi. Natijani operator yozuvida $L[1] = \frac{1}{p}, p>0$ yoki $t \leftrightarrow \frac{1}{p}, p>0$ almashtirish juftligida yozish mumkin.

Biz Laplas o‘zgarishini $p = s + i\sigma$ kompleks o‘zgarishda emas, mavhum qismi nol bo‘lgan holat uchun misollarda tatbiq etamiz ya’ni $\sigma = 0$ bo‘lgan holat uchun qaraymiz.

$$F(s) = \int_0^\infty f(t)e^{-st}dt.$$

Ushbu ifodani $\sum_n F(n)$ yig‘indisiga qo‘yib, yig‘indi va integral o‘rinlarini almashtirsak, quyidagini hosil qilamiz:

$$\sum_{n=0}^{\infty}F(n) = \sum_{n=0}^{\infty}\int_0^\infty f(t)e^{-nt}dt = \int_0^\infty f(t)\sum_{n=0}^{\infty}(e^{-t})^n dt = \int_0^\infty \frac{f(t)}{1-e^{-t}}dt. \quad (2)$$

Oxirgi qadamda cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig‘indisi formulasi ishlatiladi.

$$L[f] = \int_0^\infty f(t)e^{-st}dt.$$

Agar $f(t) \equiv 1$ bo‘lsa, unda

$$L[1] = \int_0^\infty e^{-st}dt = \frac{1}{s}, s>0.$$

Demak, $\frac{1}{n} = \int_0^\infty e^{-nt}dt$ ekanligi kelib chiqadi.

Endi ushbu qatorning yig‘indisini ko‘ramiz:

$$\sum_{1}^{\infty}\frac{1}{n^2}=\frac{\pi^2}{6}.$$

Bu Riman Zeta funksiyasining maxsus holatlaridan biridir:

$$\zeta(s)=\sum_{1}^{\infty}\frac{1}{n^s}.$$

Laplas almashtirishi yordaminida $\zeta(2)$ uchun ta’rifini ham berishimiz mumkin:

$F[s]=\frac{1}{s^2}$ bo‘lgan Laplas almashtirishiga mos keluvchi $f(t)$ funksiyasini qidiramiz, $f(t)=t$ deb olib, $F[f(t)]$ funksiyani hisoblasak:

$$\sum_{1}^{\infty}F(t)=\sum_{1}^{\infty}\int_0^{\infty}te^{-nt}dt=\sum_{1}^{\infty}\frac{1}{n}\frac{e^{-nt}}{(-n)}\Big|_0^{\infty}=\sum_{1}^{\infty}\frac{1}{n^2}$$

Demak, yig‘indimiz quyidagi ko‘rinishda ekan:

$$\frac{1}{n^2}=\int_0^{\infty}te^{-nt}dt. \qquad (3)$$

1-misol. Quyidagi qatorning yig‘indisini toping:

$$S=\frac{1}{2}+\frac{1}{6}+\frac{1}{12}+\cdots+\frac{1}{20}+\cdots+\cdots$$

Yechim. Ushbu qator yig‘indisini (2) ifoda orqali hisoblaymiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n(n+1)}=\sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{1}{n}-\frac{1}{n+1}\right).$$

Bu yerda $\frac{1}{n+1}=\int_0^{\infty}e^{-nt}e^{-t}dt$ tengligidan yuqoridagi ifodaga qo‘yib hisoblaymiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\left(\int_0^{\infty}e^{-nt}dt-\int_0^{\infty}e^{-nt}e^{-t}dt\right)=\sum_{n=1}^{\infty}\int_0^{\infty}e^{-nt}(1-e^{-t})dt.$$

Yig‘indi va integral o‘rinlarini almashtirib hisoblaymiz:

$$\int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty}\left(e^{-nt}(1-e^{-t})\right)dt=\int_0^{\infty}\frac{e^{-t}(1-e^{-t})}{(1-e^{-t})}dt=-e^{-t}|_0^{\infty}=1.$$

Berilgan qatorning yig‘indisi topildi.

2-misol. Ushbu qatorning yig‘indisini hisoblang:

$$A=\frac{2}{3}+\frac{1}{2}\left(\frac{2}{5}\right)^2+\frac{1}{3}\left(\frac{2}{5}\right)^3+\cdots+\frac{1}{n}\left(\frac{2}{5}\right)^n+\cdots$$

Yechim. Ushbu sonli qator (2) ifoda orqali hisoblab topiladi:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}\left(\frac{2}{5}\right)^n=\begin{bmatrix}\frac{2}{5}=a\\ \left(\frac{2}{5}\right)^n=e^{nlna}\end{bmatrix}=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}e^{nlna}.$$

$$\sum_{n=1}^{\infty}e^{nlna}\int_0^{\infty}e^{-nt}dt=\int_0^{\infty}\left(\sum_{n=1}^{\infty}e^{nlna}e^{-nt}\right)dt=\int_0^{\infty}\frac{e^{(lna-t)}}{1-e^{(lna-t)}}dt.$$

Ushbu integralni qiymatini topamiz:

$$\int_0^{\infty}\frac{1}{e^{lna-t}-1}d(e^{lna-t})=\begin{bmatrix}e^{lna-t}=x\\ x_1=e^{lna}\\ x_2=0\end{bmatrix}=-\int_{x_2}^{x_1}\frac{dx}{x-1}=-\ln|x-1||_{x_2}^{x_1}=$$

ISSN: 2992-9210

$$= -\ln|e^{lna} - 1| = -\ln\left(\frac{3}{5}\right).$$

Berilgan qatorni yig‘indisi topildi.

3-misol. Ushbu qatorning yig‘indisini hisoblang:

$$C = 1 - \frac{1}{3} + \frac{1}{5} - \cdots + \frac{(-1)^{n-1}}{2n-1} + \cdots$$

Yechim. Qatorning yig‘indisini $\sum F(n)$ ushbu ko‘rinishda yozib olinib, (2) ifoda orqali hisoblaniladi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{(-1)^{n-1}}{2n-1} = \frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty} \frac{(-1)^{n-1}}{n-\frac{1}{2}} = \frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n-1}\int_0^{\infty} e^{-nt}\, e^{\frac{1}{2}t} dt.$$

Yig‘indi va integral o‘rinlarini almashtirib hisoblaymiz:

$$\frac{1}{2}\int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n-1}e^{t\left(\frac{1}{2}-n\right)}\, dt.$$

Integral ichidagi yig‘indini hisoblab olamiz, ushbu yig‘indi cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya yig‘indisini bergani uchun natija quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{1}{2}\int_0^{\infty} \frac{e^{-\frac{t}{2}}}{1+e^{-t}} dt = \frac{1}{2}(-2)\int_0^{\infty} \frac{de^{-\frac{t}{2}}}{1+e^{-t}} = \begin{bmatrix} e^{-\frac{t}{2}} = x, \ e^{-t} = x^2 \\ x_1 = 1 \\ x_2 = 0 \end{bmatrix} =$$

$$= \int_{x_2}^{x_1} \frac{dx}{1+x^2} = arctg(x)|_{x_2}^{x_1} = arctg(1) = \frac{\pi}{4}.$$

Berilgan qatorni yig‘indisi topildi.

4-misol. Ushbu qatorning yig‘indisini hisoblang:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n(x+2)^n}.$$

Yechim. Ushbu yig‘indini hisoblash uchun ham quyidagi tenglikdan foydalanamiz:

$$\frac{1}{n} = \int_0^{\infty} e^{-nt} dt.$$

$(x+2) = a$ deb belgilash kiritib olamiz va uni eksponensial ko‘rinishda yozib olamiz, yani $(x+2)^n = e^{nlna}$.

$$\sum_{n=1}^{\infty} e^{-nlna}\int_0^{\infty} e^{-nt} dt = \int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty} e^{-nlna} e^{-nt}\, dt = \int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty} e^{-n(lna+t)}\, dt.$$

Integral ichidagi yig‘indini cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyani topish orqali hisoblab olamiz:

$$\int_0^{\infty} \frac{e^{-(t+lna)}}{1-e^{-(t+lna)}} dt = -\int_0^{\infty} \frac{1}{1-e^{-(t+lna)}} de^{-(t+lna)} = \begin{bmatrix} e^{-(t+lna)} = x \\ x_1 = e^{-lna} \\ x_2 = 0 \end{bmatrix} =$$

$$= -\int_{x_1}^{x_2} \frac{1}{1-x} dx = \int_{x_2}^{x_1} \frac{1}{1-x} dx = -\ln|1-x|\,|_{x_2}^{x_1} = -\ln|1-e^{-lna}| =$$

$$= -\ln\left|1 - \frac{1}{x+2}\right| = -\ln\left|\frac{x+1}{x+2}\right|.$$

Berilgan qatorni yig‘indisi topildi.

5-misol. Quyidagi cheksiz qatorning yig‘indisini hisoblang:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(-1)^n e^{-nx}}{n}.$$

Yechim: (1) ifodadan foydalangan holda ushbu qatorning yig‘indisini hisoblaymiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(-1)^n e^{-nx}}{n}=\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n e^{-nx}\int_0^{\infty}e^{-nt}dt=\int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n e^{-nx}e^{-nt}\,dt=$$

$$=\int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n e^{-n(x+t)}\,dt=\int_0^{\infty}\frac{e^{-(x+t)}}{1+e^{-(x+t)}}dt=\begin{bmatrix}e^{-(x+t)}=y\\ de^{-(x+t)}=dy\\ t_1=0,y_1=e^{-x}\\ t_2=\infty,y_2=0\end{bmatrix}=$$

$$=-\int_{y_1}^{y_2}\frac{dy}{1+y}=\int_{y_2}^{y_1}\frac{dy}{1+y}=\ln|1+y|\,|_{y_2}^{y_1}=\ln|1+e^{-x}|=\ln\left|\frac{e^x+1}{e^x}\right|.$$

Berilgan qatorni yig‘indisi topildi.

6-misol. Quyidagi qatorning yig‘indisini hisoblang:

$$S=\frac{1}{1\cdot 4}+\frac{1}{4\cdot 7}+\cdots+\frac{1}{(3n-2)(3n+1)}+\cdots+.$$

Yechim: Biz bu qatorni yig‘ish uchun avval quyidagi ko‘rinishga olib kelamiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{(3n-2)(3n+1)}=\sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{1}{9}\right)\int_0^1\frac{1}{[(3n-2)(1-u)+(3n+1)u]^2}du$$

Endi ushbu yig‘indi ichidagi integral ifodani soddalashtirib yozib olamiz va quyidagi natijaga kelamiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{1}{9}\right)\int_0^1\frac{1}{(3n+3u-2)^2}du.$$

Endi ushbu qatorni hisoblashda (2) ifodadan foydalanamiz:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{1}{9}\right)\int_0^1\left(\int_0^{\infty}te^{-t(3n+3u-2)}dt\right)du=\frac{1}{9}\int_0^1 du\int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty}te^{-t(3n+3u-2)}\,dt=$$

$$=\frac{1}{9}\int_0^1 du\int_0^{\infty}\sum_{n=1}^{\infty}\frac{e^{-t}e^{-3ut}}{1-e^{-3t}}dt=\frac{1}{9}\int_0^{\infty}\frac{te^{-t}}{1-e^{-3t}}\int_0^1 e^{-3tu}du\,dt=$$

$$=\frac{1}{9}\int_0^{\infty}\left(\frac{te^{-t}}{1-e^{-3t}}\right)\left(-\frac{e^{-3tu}}{3t}\right)\Bigg|_0^1 dt=\frac{1}{9}\int_0^{\infty}\left(\frac{e^{-t}}{1-e^{-3t}}\right)\left(\frac{1-e^{-3t}}{3}\right)dt=$$

$$=\frac{1}{27}\int_0^{\infty}e^{-t}\,dt=-\frac{1}{27}e^{-t}\Big|_0^{\infty}=\frac{1}{27}.$$

Berilgan qatorni yig‘indisi topildi.

7-misol. Quyidagi qatorni yig‘indisini hisoblang:

$$\sum_{n=2}^{\infty}\frac{1}{n^2+n-2}\,.$$

Yechim: Ushbu yig‘indini ham quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz:

$$\sum_{n=2}^{\infty}\left(-\frac{1}{9}\right)\int_0^1\frac{1}{[(n-1)(1-u)+(n+2)u]^2}du\,.$$

Endi integral ichidagi ifodani soddalashtirib yozib olamiz so‘ng bu yig‘indini hisoblashda (2) tenglikdan foydalanamiz:

ISSN: 2992-9210

$$\left(-\frac{1}{9}\right)\sum_{n=2}^{\infty}\int_0^1 \frac{1}{[n-1+3u]^2}\,du = \left(-\frac{1}{9}\right)\sum_{n=2}^{\infty}\int_0^1 \left(\int_0^{\infty} te^{-t(n-1+3u)}dt\right)du.$$

Integral va yig‘indi o‘rinlarini almashtirib hisoblaymiz:

$$\left(-\frac{1}{9}\right)\int_0^1 t\int_0^{\infty}\left(\sum_{n=2}^{\infty} e^{-t(n-1+3u)}\right)dt\,du.$$

Integral ichidagi yig‘indini cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya orqali hisoblab topiladi:

$$\left(-\frac{1}{9}\right)\int_0^1 t\int_0^{\infty}\frac{e^{-t(1+3u)}}{1-e^{-t}}dt\,du = \left(-\frac{1}{9}\right)\int_0^{\infty}\frac{te^{-t}}{1-e^{-t}}\int_0^1 e^{-3ut}du\,dt =$$

$$= \left(-\frac{1}{9}\right)\int_0^{\infty}\frac{te^{-t}}{1-e^{-t}}\left(-\frac{e^{-3t}-1}{3t}\right)dt = \left(-\frac{1}{27}\right)\int_0^{\infty}\frac{e^{-t}(e^{-3t}-1)}{e^{-t}-1}dt =$$

$$= \left(-\frac{1}{27}\right)\int_0^{\infty}(e^{-2t}+e^{-3t}+e^{-t})dt = \left(-\frac{1}{27}\right)\left(-\frac{1}{2}e^{-2t}-\frac{1}{3}e^{-3t}-e^{-t}\right)\Big|_0^{\infty}$$

$$\sum_{n=2}^{\infty}\frac{1}{n^2+n-2} = -\frac{11}{162}.$$

Berilgan qatorni yig‘indisi topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Л.Д.Кудрявцев, А.Д.Кутасов, В.И.Чехлов, М.И.Шабунин. Сборник задач по математическому анализу. Том 2. Интегралы. ФИЗМАТЛИТ, – 504 с. – ISBN 5-9221-0307-5, 2003.

2. Y.Muxtarov, F.R.Tursunov, D.S.Shodiyev. Operatsion hisob va uning differensial tenglamalarga tadbiqi. Samarqand Davlat Universiteti, 2024.

3. L.Joel, Schiff. The Laplace Transform: Theory and Applications. Springer-Verlag New York, 1999.

4. Phil Dyke. An Introduction To Laplace Transforms and Fourier Series. Springer-Verlag London, 2014.

5. Б.П.Демидович. Сборник задач и упражнений по математическому анализу. Издательство Московского университета Издательство Черо – 624 с. ISBN 5-221-03645-X, 1997.

ISSN: 2992-9210

OLIY TA’LIM TABIIY ANIQ FANLAR TIZIMIDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KASBGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФОРИЕНТАЦИИ НА ОСНОВЕ STEAM-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ЕСТЕСТВЕННО-ТОЧНЫХ НАУК ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF CAREER GUIDANCE BASED ON STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE SYSTEM OF NATURAL EXACT SCIENCES OF HIGHER EDUCATION

Xodjamberdiyev Mahмudjon Sultanboyevich

Xodjamberdiyev M.S.,
Andijan davlat universiteti dotsenti. pfn.
forvirtuall54@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy aniq fanlar tizimida STEAM ta’lim texnologiyasi asosida kasbga yo‘naltirishning pedagogik asoslari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. *Ta’lim texnologiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, fanlar integratsiyasi,fanlararo o‘zaro bog‘lanish, STEAM ta’lim texnologiyasi, kasbga yo‘naltirish, texnolog-muxandislik tafakkuri.*

Аннотация. В статье представлены педагогические основы профориентации на основе STEAM-образовательных технологий в системе естественных наук.

Ключевые слова. *образовательные технологии, личностно-ориентированное образование, интеграция дисциплин, междисциплинарная взаимосвязь, STEAM-образовательные технологии, профориентация, технолого-инженерное мышление.*

Annotation. This work is devoted to the topic of pedagogy teaching methodology based on modern approaches with an emphasis on the profession, in which the theoretical issues of vocational guidance based on STEAM technology were studied.

Key words*. Technology, educational technology, educational method, STEAM educational technology, person-oriented education, career orientation.*

KIRISH

Dunyo mamlakatlarining globallashauvi jarayoni jadal sur’atlar bilan davom etayotgan XXI asrning birinchi choragida mamlakatimizning jaxon hamjamiyatiga integrlashuvi jarayoni milliy uzluksiz ta’lim tizimimiz oldiga qator dolzarb masalalarni qo‘ymoqda [1].

XXI asr uchun oliy ta’lim haqidagi butun jahon deklaratsiyasida ta’kidlanganidek: “...malakali va keng ma’lumotli insonlarning kritik massasini barpo qiluvchi adekvat oliy ta’limga va ilmiy tekshirish muassasalariga ega bo‘lmay turib birorta mamlakat real va barqaror rivojlanishni ta’minlay olmaydi...” [2].

XXI asr sivilizatsiyasiga yo‘l boshlovchi ilmiy-texnika jarayoni kimda kim o‘zining intellektual imkoniyatlarini tahlil qilish, sintezlash, baholash, shuningdek moslanuvchan aqliy va ijodiy qobiliyatlarini boshqalarga nisbatan yaxshi rivojlantira olsa o‘shanga ish va mansab in’om etadi - bu

ISSN: 2992-9210

deyarli 30 yil avval yozilgan bashoratli firk-mulohazalar zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilayotgan talablarni juda aniq belgilab beradi [3].

Bunday kechiktirib bo‘lmaydigan masalalar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni(2020 yil,23 sentyabr) va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘rsatilgan bo‘lib, yuqori intelektual salohiyatli,yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan mutaxasislar tayyorlash,ya’ni mutahasisligi bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan,vatan va chet el fan yutug‘larini hayotda ,amaliyotda,ishlab chiqarishda qo‘llay bila oladigan , milliy istiqlol g‘oyalari bilan qurollangan, yuksak ma’naviyatli ijodkor ,ishbilarmon,tadbirkor, jahon andozalari talablariga javob bera oladigan mutahasislar tayyorlash dolzarb masalalari ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan[4].

Yuqoridagi fikr-mulohozolardan kelib chiqib, ushbu maqolada, Oliy ta’lim tabiy-aniq fanlar yo‘nalishi talabalariga zamonaviy ta’lim texnolgiyalaridan biri bo‘lgan STEAM texnologiyasi asosida, fan, ta’lim, ishlab chiqarish uzviyligini hisobga olib, fizika fani mazmun-mohiyatini fan, texnologiya, muxandislik san’at va matematika fanlari integratsiyasini hisobga olib, faoliyatli yondoshuv - kasbga yo‘naltirish asosida, kelgusida egallanadigan kasblari uchun yaxlit, tizimlashtirilgan bilimlar berishning pedagogik asoslari keltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta’limda yangi STEM yondashuvi rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanilib, jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda va STEM ta’limi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Xorijiy davlatlarda kichik yoshdagi bolalarda STEM ta’limini tashkil etish muammolari Aaron D. Isabelle, Gilbert A. Zinn, Yehudit Judy Dori, Zemira R. Mevarech, Sanders. M, Robert M. Capraro, Mary M. Capraro, James R. Morgan tomonidan tadqiq qilingan va ular tomonidan mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha didaktik ta’minotlar yaratilgan. Adabiyotlar tahlilga ko‘ra, STEM ta’limiga oid ilmiy va uslubiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, “Tabiiy va aniq fanlar”ni o‘qitish metodikasini pedagogik muammo sifatida o‘rganish hamda uni takomillashtirish zarurati mavjud. STEM ta’limiga o‘tish dunyoning ilg‘or davlatlarida jadal tashkil etilmoqda.

MUHOKAMA

Fanlar integratsiyasi, ya’ni fanlararo o‘zaro bog‘lanishni didaktik shart-sharoit deb hisoblanib, u to‘g‘ri qo‘yilganda nafaqat o‘quv jarayonini to‘g‘ri tizimlashga va o‘quvchi-talabalarlar tomonidan o‘zlashtirgan bilimlarni mustahkamligini oshiradi, o‘quvchilarni o‘qishga qiziqishlari, nazariyalar, ilmiy tushunchalari bilan munosabatda bo‘lishligini ta’minlaydi. Natijada bilimlar nafaqat oydinlashadi, umumlashadi va ularni amaliyotda qo‘llashga imkon yaratadi[5,6,7].

STEAM-ta’lim texnologiyasi fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda texnolog-muxandislik tafakkuri asosida o‘zlashtirilgan nazariy bilim,egallangan ko‘nikma, malakalar hamda kompetensiyalar hayot bilan,amaliyot bilan,ishlab chiqarish bilan spiralsimon usulda oddiydan murakkabga tomon rivojlantirilib borishligi nazarda tutilganligi hisobiga, o‘quvchilarga bizni o‘rab olgan,doimo harakatda bo‘lgan mikro va makro olamni yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglab, fahmlab. tushunishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

STEAM ta’lim texnologiyasining mazmuni quyidagilardan iborat:

S -Science-fan. Talabalarning fanlarga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompentensiyalarni ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalari asosida rivojlantirish.

T -Technology –texnologiya. Talabalarning texnologiyalarga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompentensiyalarni rivojlantirish.

E -Engineering-muhandislik. Talabalarning muhandislik sohasiga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompentensiyalarni rivojlantirish.

ISSN: 2992-9210

A -Art – san’at. Talabalarni san’at va madaniyat sohasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompentensiyalarni rivojlantirish asosida dunyoqarashini kengaytirish.

M -Mathematics – matematika. Talabalarni matematika sohasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompentensiyalarni rivojlantirish.

STEAM ta’lim texnologiyasi asosida amaliy mashg‘ulotni tashkil etish metodikasi quyidagilardan iborat:

Talabalar STEAM ta’lim texnologiyasi sharti bo‘yicha, ularning o‘quv-biluv faoliyatlarining rivojlanish darajasi, qobiliyatlariga bog‘liq ravishda 5 ta guruhga bo‘linadilar :

1-guruh – Science- nazariyotchilar guruhi

2- guruh – Technology -texnologlar guruhi

3- guruh – Engineering –muhandislar guruhi

4- guruh – Art- san’atchilar guruhi

5- guruh – Mathematics-matematiklar

Guruhlarga bo‘lingan talabalarga N’yuton qonunlarining nazariy masalalari,ularning hayotda, amaliyoda va ishlab chiqarishda qo‘llanilishi, matematik formulasi hamda chizmalar asosida tasvirlash bo‘yicha vazifa topshiriladi.

Ularga ma’lum vaqt beriladi, keyin berilgan vaqt tugagach har bir guruhning ushbu mavzu bo‘yicha qarorlariri, fikr-mulohazalari tinglanadi va ularni oldindan tayyorlab qo‘yilgan jadvalga yozishlari kerakligi topshiriladi va o‘qituvchi tomonidan umumiy xulosa chiqariladi.

Kichik guruhlar uslubida mashg‘ulot olib borilganda quyidagilarga erishiladi:

- har bir talabani faol ishtiroki ta’minlanadi va ularning faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoniyati ortadi;

- muammoni tez hal etish usuli ta’minlanadi. Talabalar qisqa vaqt ichida ko‘plab yangi g‘oyalar ijodkori bo‘lishadi;

-mashg‘ulotning istalgan vaqtida talabalarning qiziqishini ortirish va butun katta guruh bo‘yicha muhokama qilish imkoniyati ta’minlanadi;

-ayrim talabalar o‘zlarining mavzuga oid ushbu muammo bo‘yicha shaxsiy fikrlarini o‘qituvchiga aytishdan tortinishadi, kichik guruhlarda esa ular guruhdoshlari bilan erkin fikr almashishadi, ya’ni mashg‘ulotda faol ishtirok etishadi.

Kichik guruhlarda mashg‘ulot olib borish rejasini tuzish.

1. Mashg‘ulot rejasi tuziladi, kichik guruhlarda ishlash mashg‘ulotning qaysi vaqtida boshlanishi belgilanadi.

2. Guruhlar o‘z sardorini saylashadi. Buning uchun alohida vaqt berish shart emas.

3.Kichik guruhlarda ishlash uchun mavzuga oid muammoli savol yoki masala tanlanadi. Savolning maqsadi va vazifasi talabalarga aniq tushuntiriladi.

3. Muammo ustida ishlash uchun vaqt belgilanadi. Odatda, 15-20 minut har qanday mavzu ichidagi masala ustida qaror qabul qilishga yetarli hisoblanadi.

4. Guruhlarga mavjud o‘quv-uslubiy, o‘quv-vizual materiallardan foydalanish imkoniyati ham berilishi mumkin.

5. O‘qituvchi auditoriyada shovqin bo‘lishiga, ayrim talabalarni passiv ishtirokchi bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi, guruhlar faoliyatini nazorat

qilib, ularning fikrlarini o‘rganib boradi.

6. Guruh sardorlari mavzu bo‘yicha guruhning umumiy fikrini prezentatsiya shaklida himoya qiladi. Prezentatsiya uchun odatda 10 minutdan ortiq vaqt berish tavsiya etilmaydi.

7. Prezentatsiya tugagach, bahs-munozara uchun vaqt ajratiladi, o‘qituvchi muammoni umumiy tahlil qiladi, guruhlar faoliyatiga baho beradi.

ISSN: 2992-9210

“Dinamika” modulining Nyutonning birinchi qonuni mavzuini STEAM ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish texnologiyasi.

Dinamikaning asosiy qonunlari I.N’yutonning "Natural falsafaning matematik asoslari"(1687 y) kitobida ifodalangan. Bu qonunlar N’yutongacha va uning o‘zi tomonidan olingan tajriba va nazariy izlanishlar asosida kashf qilingan.

Nyuton tajriba va kuzatishlarga asoslanib, jismlarning kanday holda nisbiy tinchlikda va qanday xolda to‘g‘ri chiziqli tekis harakatda bo‘lishini aniqlab birinchi qonunini kashf etadi.

Jismlar o‘zlarining tinch holatini yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakatini saqlash qobiliyati inersiya deyiladi. Inersiya materiyaning eng umumiy xususiyatlaridan biridir. Barcha jismlar, ular qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar inersiyaga ega bo‘ladilar. Nyutonning birinchi qonuni inersiya qonuni deb ham yuritiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inersiyaning namoyon bo‘lishiga biz hamma vaqt duch kelamiz. Masalan, xarakatlanayotgan vagonning tezligi birdan o‘zgarganida yo‘lovchilar o‘zlarining dastlabki holatlarini saqlagan holda, agar tezlik kamaysa — oldinga, tezlik ortsa — orqaga og‘adilar. Tez borayotgan ot birdan to‘xtab qolsa, chavandoz o‘z harakatini davom ettirib otning boshidan oshib tushadi. Inersiya tufayli jismning tezligini birdan o‘zgartarib bo‘lmaydi, buning uchun ma’lum muddat kerak bo‘ladi.

N’yutonning birinchi qonuni bo‘yicha o‘quvchilarning STEAM ta’lim texnologiyasi asosida guruhlarda ishlashlari natijalarini ifodalaovchi jadval

1-guruh S Science Nazariyotchilar	Inersiya –materiyaning eng umumiy xususiyatini ifodasi bo‘lib, uning doimiy ravishda xarakatda ekanligini ifodalaydi. Agar jismga tashqaridan kuch ta’sir qilmasa, u yo‘nalishi va kattaligi jihatdan o‘zgarmas tezlik bilan harakat qiladi.Jism harakatini to‘htatsa u avvalgi harakat holatini davom ettiradi. Agar jism tinch holatda turgan bo‘lsa uning harakat tezligi nolga teng bo‘ladi. Bulardan Nyutonning birinchi qonunini quyidagicha ta’riflash mumkinligini anglab yetadilar: agar jismga boshqa jismlar ta’sir qilmasa yoki unga ta’sir qiluvchi kuchlarning teng ta’sir etuvchisi nolga teng bo‘lsa u o‘zining tinch holatini yoki to‘gri chiziqli tekis harakatini saqlaydi.
2-guruh T Technology Texnologlar	a) Harakatlanayotgan poyezd vagonining tezligi birdan o‘zgarganda o‘zlarining dastlabki holatlarini saqlagan holda, agar tezlik kamaysa-oldinga, agar tezlik ortsa orqaga og‘adilar. b) Tez chopib borayotgan ot birdaniga to‘xtasa, egarda o‘tirgan chavandoz inersiya qonuniga asosan o‘z harakatini davom ettirib otning boshidan oshib ketadi. Agar ot o‘rnidan birdaniga tez chopsa chavandoz orqaga qarab harakatlanib yiqilib tushadi. v) Avtobusning o‘rnidan tez keskin tezlik bilan o‘rnidan siljishi, qo‘qqisdan to‘xtashi, chap va o‘ngga burilganda undagi yo‘lovchilarning avvalgi holatidan u yoki bu tomonga og‘ishlari kuzatiladi. Texnologlar ihtiyoriy harakatlanayotgan qurilmani yartish jarayinida bu o‘zgarishlarni hisobga olishlari kerak bo‘ladi.
3-guruh E Engineering Muhandislar	Avtomobil, avtobus, poyezd, samolyotlar konsttruktsiyasini loyihalashda va ishlab chiqarishda qonunning nazariy jihatlarini hisobga olishlari kerak.

ISSN: 2992-9210

4-guruh A Art Tasviriy san’atchilar	
5-guruh M Mathematics Matematiklar	V =0 km/coat V =60 km/coat

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikr-mulohozolardan kelib chiqib, ushbu maqolada, Oliy ta’lim tabiiy fanlar yo‘nalishi talabalariga zamonaviy ta’lim texnolgiyalaridan biri bo‘lgan STEAM texnologiyasi asosida fan, ta’lim, ishlab chiqarish uzviyligini hisobga olib fizika fani mazmun-mohiyatini fan, texnologiya, muxandislik ,san’at va matematika fanlari integratsiyasini hisobga olib, faoliyatli yondoshuv - kasbga yo‘naltirish -asosida, ya’ni kelgusida egallanadigan kasblari uchun yaxlit, tizimlashtirilgan bilimlar berishning pedagogik asoslari ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi.

2. Всемирная декларация о высшем образовании для XXИ века: Подходи практические мери//Всемирная конференция ЮНЕСКО по высшему образовании, Париж,1998.

3. Вивиан де Ландшер.Концепсия “минималной компетентности”.// Перспективы, 1988. №1.

4. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. T.2020.,23 sentyabr.

5.Система межпредметных связей по предметам естественно-математического цикла. Сборник научных трудов НИИСиМО. Москва 1981г,.с.10.

6. Khodjamberdiyev M.S.Didaktik baases of providing holistic, systematized knowledge on the basis of science.Jornal of ethics and diversity in international communication.2022-06-01. Volume-2, ISSUE-5.p.88-90.

7. Xodjamberdiyev M.S. Fanlararo o‘zaro bog‘lanish tizimlashtirilgan, yaxlit bilim berishning didaktik asosi sifatida. Образование и наука в XXИ веке.№A3-20220621-6, 2022g. s.293-297.

ISSN: 2992-9210

FANLARARO ALOQALARNING STEAM YONDASHUVIDAGI O‘RNI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YO‘L XARITASI

РОЛЬ МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ В STEAM-ПОДХОДЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ДОРОЖНАЯ КАРТА

THE ROLE OF INTERDISCIPLINARY CONNECTIONS IN THE STEAM APPROACH: THEORETICAL ANALYSIS AND PRACTICAL ROADMAP

Xoliqov Qurbonboy To‘ychiyevich, Qayumova Kumush Abdurazzoq qizi, Mamatova Shakaroy Anvar qizi

Xoliqov Q.T.,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti
xoliqov1978@mail.ru.
Qayumova K.A.,
Samarqand davlat pedagogika institute assistenti
Mamatova Sh.A.,
Samarqand davlat pedagogika instituti Fizika ta’lim yo‘nalishi III-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqola 2013-2025 yillarda chop etilgan ingliz, rus va o‘zbek tilidagi ilmiy manbalar asosida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvining fanlararo aloqalarni kuchaytirishdagi rolini tahlil qiladi. Tematik kodlash orqali nazariy-konseptual ramkalar, dars loyihasi va integratsiya usullari, o‘qituvchi kompetensiyasi, samaradorlik ko‘rsatkichlari, joriy etish to‘siqlari klasterlari ajratildi. Natijalar STEAM darslarida kreativ, tanqidiy fikrlash, loyiha asosida o‘qitish va raqamli vositalar uyg‘unligi o‘quvchilarning ijodkorligi, muammoli fikrlashi va hamkorlik kompetensiyalarini oshirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, baholash tizimining an’anaviyligi, o‘qituvchi tayyorgarligi va infratuzilma yetishmovchiligi integratsiya samaradorligini cheklaydi. Mahalliy sharoitda fizika darslarini STEAM asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *STEAM, fanlararo integratsiya, kreativ fikrlash, loyiha-asosida o‘qitish (PBL), ijodiy kompetensiya, raqamli/maker laboratoriya, baholash.*

Аннотация. В статье на основе научных источников на английском, русском и узбекском языках, опубликованных в 2013-2025 годах, анализируется роль STEAM-подхода (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) в укреплении междисциплинарных связей. Путём тематического кодирования выделены кластеры теоретико-концептуальных рамок, проектирования уроков и методов интеграции, компетенций преподавателя, показателей эффективности и барьеров внедрения. Результаты показывают, что сочетание творчества, критического мышления, проектного обучения и цифровых инструментов в STEAM-уроках способствует развитию у обучающихся креативности, исследовательского и коллаборативного мышления. Вместе с тем традиционность системы оценивания, недостаточная подготовка педагогов и дефицит инфраструктуры ограничивают эффективность интеграции. В заключение приведены практические рекомендации по организации уроков физики на основе STEAM в локальных условиях.

ISSN: 2992-9210

Ключевые слова: *STEAM, междисциплинарная интеграция, креативное мышление, обучение на основе проектов (PBL), творческая компетенция, цифровая/мейкер-лаборатория, оценивание.*

Annatation. This article analyzes the role of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) approach in strengthening interdisciplinary connections, based on scientific sources published between 2013 and 2025 in English, Russian, and Uzbek. Through thematic coding, clusters of theoretical-conceptual frameworks, lesson design and integration methods, teacher competencies, effectiveness indicators, and implementation barriers were identified. The findings show that the integration of creativity, critical thinking, project-based learning, and digital tools in STEAM lessons enhances students’ creativity, problem-solving, and collaboration competencies. However, the traditional assessment system, insufficient teacher preparation, and lack of infrastructure limit integration effectiveness. Practical recommendations for organizing physics lessons using the STEAM approach in local educational contexts are also provided.

Keywords: *STEAM, interdisciplinary integration, creative thinking, project-based learning (PBL), creative competence, digital/maker laboratory, assessment.*

Kirish

XXI asrda ta’lim jarayonining markazida endilikda faktlarni yod olish emas, balki integrativ kompetensiyalar - ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, o‘zini o‘zi boshqarish va raqamli savodxonlik turadi. Bu o‘zgarish inson kapitalini shakllantirish, innovatsion iqtisodiyot va texnologik tafakkurni rivojlantirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Ta’limdagi asosiy vazifa endilikda bilimlarni yetkazishdan ko‘ra ularni real muammolarni hal qilishda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda [4-5].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan ta’limning global konseptual modeli (OECD Learning Compass 2030)da 2030-yilgacha bo‘lgan davrda o‘quvchilarda shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar, qadriyatlar va ko‘nikmalar tizimini belgilaydi [4]. OECD Learning Compass 2030 konsepsiyasi bu jarayonni “o‘quvchi agentligi” (learner agency) g‘oyasi orqali ifodalaydi. Unga ko‘ra, o‘quvchi o‘z ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida bilimni mustaqil izlaydi, tanqidiy tahlil qiladi, hamkorlikda ishlaydi va o‘z hayotiy yo‘lini ongli tarzda boshqaradi [4]. Shu bilan birga, mazkur hujjat ta’lim tizimlarida integratsiyalashgan o‘quv rejalari, kompetensiyaga asoslangan baholash hamda ko‘p fanli loyihaviy yondashuvlarni joriy etishni tavsiya etadi.

Shu nuqtai nazardan STEAM modeli (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) zamonaviy ta’limning strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. U an’anaviy STEM yondashuviga “san’at va dizayn” komponentini kiritish orqali o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, tanqidiy-fikrlash va estetik idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi [2-3]. STEAM yondashuvi fanlar o‘rtasidagi chegaralarni bartaraf etib, o‘quvchilarni muammolarni ko‘p fanli nuqtayi nazardan tahlil qilish, g‘oyani prototipga aylantirish, natijani baholash va refleksiya qilish jarayonlariga jalb etadi.

ISSN: 2992-9210

Bu jarayon o‘quvchining kognitiv (tahlil qilish, dalillash, sintez), affektiv (qiziqish, motivatsiya, estetik idrok) va ijtimoiy (hamkorlik, kommunikatsiya, mas’uliyat) rivojlanishini bir tizimda uyg‘unlashtiradi [1, 4]. Natijada ta’lim natijalari “bilim olish”dan “bilimni yaratish” bosqichiga o‘tadi.

Shunday qilib, fanlararo aloqalar asosidagi STEAM yondashuvi - zamonaviy o‘quvchi shaxsini shakllantirish, iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlash va raqamli tafakkurga asoslangan innovatsion jamiyatni barpo etishning muhim didaktik yo‘nalishidir.

Adabiyotlar tahlili

So‘nggi o‘n yillikda ta’limda fanlararo integratsiyani kuchaytiruvchi yondashuv sifatida STEAM modeli (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) keng tadqiq qilina boshladi. Bu model ta’limning an’anaviy “bilim yetkazish” funksiyasidan chiqib, ijodiy tafakkur, loyiha asosida fikrlash, hamda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishni maqsad qiladi.

E.B. Perignat va J. Katz-Buonincontro tomonidan chop etilgan integrativ tahliliy ishda 2007-2018-yillar oralig‘ida nashr etilgan STEAM ta’limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics)ga oid 44 ta ilmiy maqola (empirik, tavsifiy va pedagogik yondashuvlarni o‘z ichiga olgan) o‘rganilgan [1]. STEAM o‘quvchilarning ijodkorligi, muammoli fikrlashi va STEM fanlariga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan mashhur ta’lim yondashuvi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, uning ta’rifi va maqsadlari hanuz turlicha talqin qilinishi takidlanadi. Tadqiqotda STEAM ta’limining umumiy maqsadi, “A” harfining mazmuni, ijodkorlikni o‘qitish natijasi sifatida baholash usullari, san’at ta’limi elementlari hamda bularning o‘quv jarayonidagi natijalari tahlil qilingan hamda tahlil natijalariga ko‘ra, STEAM konsepsiyasining bir xil emas, balki turli ma’nolarda ishlatilishi, “A” komponentining har xil talqin qilinishi hamda ijodkorlik, muammoli fikrlash va san’at sohalaridagi o‘quv natijalarining kam yoritilgani aniqlangan.

Shuningdek, maqolalarda STEAM fanlarini birlashtirish yondashuvlari transdisiplinar, interdisiplinar, multidisiplinar, krossdisiplinar va san’at integratsiyasi yo‘nalishlarda ko‘rsatilganligi qayd etilgan. Mualliflar ushbu tahlil asosida STEAM ta’limi bo‘yicha kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berganlar. Mualliflar ta’kidlaganidek, bu natijaga erishish uchun fanlararo o‘qitish izchil metodik asosga ega bo‘lishi lozim.

Yuqoridagiishga o‘xshash tarzda, D. Henriksen STEAM yondashuvini faqat san’at integratsiyasi bilan cheklamasdan, uni kengroq didaktik tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi [2]. Shu bilan birga, kreativ fikrlash konsepsiyasi STEAMni amalga oshirishda samarali ko‘prik bo‘lishi mumkinligini ilgari suriadi.

Garchi STEAM yondoshuvga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘lsa-da, ko‘plab o‘qituvchilar uchun uni o‘z fanlariga integratsiya qilish amalda murakkab jarayon bo‘lib qolmoqda. Muallifning fikricha, kreativ fikrlash fanlararo chorraha sifatida san’at, tabiiy fanlar va boshqa yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘laydigan tabiiy vositani yaratadi. Shu sababli u o‘qituvchilarga STEAM asosida dars loyihalash va uni o‘quvchilarning integrativ o‘rganish jarayoniga singdirish uchun mos, moslashuvchan metodik tuzilma taklif etadi.

Maqolada misol sifatida magistratura bosqichida “ta’limda kreativ fikrlash” kursida o‘qigan ispan tili o‘qituvchisi faoliyatidan foydalanilgan. U ushbu metod orqali o‘z o‘quvchilari uchun fanlararo STEAM loyihani ishlab chiqqan. Bu holat kteativ fikrlash yondashuvi o‘qituvchilarga STEAM o‘quv dasturlarini loyihalash va takomillashtirishda yo‘l ko‘rsatadigan samarali vosita bo‘lishini ko‘rsatadi. Shu tariqa kreativ fikrlash ta’lim jarayoniga ijodkorlik, fanlararo hamkorlik va loyiha asosida o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiruvchi mexanizm sifatida kiritilishi mumkin.

Muallif kreativ ikrlashni STEAMning markaziy mexanizmi sifatida ko‘rsatib, ijodiy yechim topish bosqichlarini - empatiya, muammoni aniqlash, g‘oya yaratish, prototiplash va sinovdan

o‘tkazishni - o‘quv jarayoniga integratsiya qilishni taklif etadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda fanlararo fikrlash, innovatsion tafakkur va o‘zini ifodalash qobiliyatini kuchaytiradi.

Rodjer V. Baybi rahbarlik lavozimidagi mutaxassislarni STEM tashabbuslarini chuqurroq anglash va ularni amaliyotga joriy etishga ilhomlantirish maqsadida yozgan “The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities” nomli qo‘llanmasida STEM ta’limining hozirgi holatini tushuntirish, u duch kelayotgan muammolarni tahlil qilish va 1950-1960-yillardagi “Sputnik davri” tajribasidan saboqlar chiqarish orqali zamonaviy islohotlar bilan solishtirish, Federal hukumat, shtatlar, tumanlar va alohida maktablarning STEMni rivojlantirishdagi rolini aniqlash, STEMni rivojlantirish uchun aniq harakat rejalarini ishlab chiqishga oid tavsiyalar berish haqidagi fikrlarini bayon etgan [3].

Muallif fikricha, samarali STEM siyosati nafaqat strategik fikrlash, balki faol amaliy harakatni ham talab qiladi. Shu bois ushbu kitob milliy va mintaqaviy siyosatchilar, STEM tashabbuslarini amalga oshiruvchi rahbarlar, kelajakdagi STEM o‘qituvchilarini tayyorlayotgan oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari, mahalliy boshqaruv organlari vakillari va fan o‘qituvchilari uchun zarur qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan “Learning Compass 2030” modeli esa xalqaro miqyosda ta’lim natijalarini yangicha talqin qilish uchun konseptual poydevor yaratdi. Ushbu hujjatda ta’limning maqsadi o‘quvchilarda transformativ kompetensiyalar - yangi qiymat yaratish, murakkab ziddiyatlarni hal etish va mas’uliyatli harakat qilish -ni shakllantirish ekani ta’kidlanadi [4-5]. Bu g‘oya STEAM ta’limining ma’naviy-ijtimoiy yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashadi, chunki u ham o‘quvchini faol subyekt - “o‘z o‘quv yo‘lini boshqaruvchi shaxs” sifatida tasavvur qiladi.

Rossiya olimlari ham so‘nggi yillarda STEAM yondashuvini milliy ta’lim tizimiga moslashtirishga katta e’tibor qaratishmoqda. T.I.Anisimova, O.B.Shatunova va F.M. Sabirovalar STEAM modelini “Sanoat 4.0” konsepsiyasi bilan bog‘lab, uni yangi iqtisodiy sharoitda o‘qituvchilar uchun innovatsion metodologiya sifatida talqin qiladi [6]. Mazkur maqola mualliflar tomonidan “Sanoat 4.0” sharoitida STEAM ta’limining yangi modelini ishlab chiqishga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot markazida “ijodiy maydonlar” (creative spaces) konsepsiyasi asosida tashkil etilgan loyiha asosidagi o‘qitish turadi. Mualliflar fikricha, bu kabi ijodiy maydonlar - o‘quvchilar, talabalar va tadqiqotchilarni turli ijtimoiy hamda ishlab chiqarish subyektlari bilan birgalikda ishlashga yo‘naltiruvchi integratsion muhit hisoblanadi.

Maqolada asosiy urg‘u fanlararo hamkorlik, ijodkorlik va innovatsion tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot dolzarbligi shundan iboratki, raqamli texnologiyalar va sanoat avtomatlashtirilayotgan hozirgi davrda, kasbiy muvaffaqiyatga erishishda badiiy ijodkorlik alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun maqola mualliflari texnik fanlar, san’at va dizayn yo‘nalishlarini yagona integratsiyalashgan o‘quv dasturi sifatida birlashtirish zarurligini asoslagan.

Ularning eksperimental ishlarida o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida loyiha va jarayonlarni boshqarish, tizimli fikrlash, badiiy tafakkur, jamoada ishlash, shaxslararo muloqot hamda noaniq vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar shakllanish darajasi aniqlangan. Men ushbu tahlil asosida shuni ta’kidlashim mumkinki, maqolada keltirilgan natijalar “ijodiy maydonlar” konsepsiyasining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi: bunday yondashuv o‘quvchilarda “Sanoat 4.0” davri uchun zarur bo‘lgan kreativ va moslashuvchan kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Ushbu ishda taklif etilgan model bizning ta’lim tizimimizda STEAM laboratoriyalarini joriy etish uchun metodik va tashkiliy jihatdan mos asos yaratadi. Ayniqsa, fizika, texnologiya va san’at yo‘nalishlarida loyiha asosidagi ta’limni kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar bu maqolani amaliy ahamiyatga ega manbaga aylantiradi.

Bu yondashuv J.M. Williamson tomonidan ilgari surilgan fanlararo “aloqa tarmoqlari” modeli bilan hamohang bo‘lib, har bir fan o‘zining mantiqiy asosini saqlagan holda umumiy muammoga xizmat

qiladigan integrativ tizimga aylanishi lozimligini ko‘rsatadi [9]. Ushbu tadqiqotda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi darajasi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari o‘rganilgan. Tavsifiy so‘rovnoma asosida turli tajriba va malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchilardan ma’lumotlar to‘planib, zamonaviy pedagogik uslublarni qo‘llashga tayyorlik darajasi baholangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning tayyorgarlik darajasi optimal darajadan past bo‘lib, ularning dars jarayonida zamonaviy yondashuvlardan foydalanishida sezilarli tafovutlar mavjud. Shu sababli, tadqiqot pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, yangi pedagogik metodlar, ta’lim texnologiyalarini integratsiya qilish, va yangilangan ilmiy bilimlarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Ushbu manbada shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga amaliy mashg‘ulotlar va tajriba asosidagi o‘qitish elementlarini kengroq kiritish taklif etiladi. Uzoq muddatli tadqiqotlar orqali ushbu islohotlarning o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalariga ta’siri va o‘qituvchilarning duch kelayotgan to‘siqlari bosqichma-bosqich o‘rganilishi zarurligi qayd etilgan.

Mualliflar, o‘qituvchilarni mentorlik, hamkorlik va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish orqali qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishni taklif etganlar. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini kuchaytirish nafaqat o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, balki o‘qituvchi ishonchini, kasbiy motivatsiyani va ta’lim sifatining barqarorligini ham oshiradi.

Maqolada ilgari surilgan yondashuvlar ta’limdagi tengsizliklarni kamaytirish, sifatli kadrlar tayyorlash va STEM yo‘nalishlarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim omil sifatida ko‘riladi. Pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish orqali ilmiy savodxonlik darajasi oshadi va bu butun ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

OECD tomonidan 2019-yilda taqdim etilgan “Learning Compass 2030” konsepsiyasi majburiy ta’lim tizimi uchun yangi siyosiy ramka sifatida e’lon qilingan. Ushbu hujjat ta’limga yangicha qarashni ilgari surib, intizomiy (fanlarga oid) bilimlarga ega bo‘lishni maktab ta’limining markaziy elementi sifatida belgilaydi. Bu yondashuv avvalgi OECD hisobotlarida ustuvor bo‘lgan umumiy kompetensiyalar va ko‘nikmalarni rivojlantirish g‘oyasidan sezilarli darajada farq qiladi. OECD Learning Compass modelini tahlil qilib, fanlararo yondashuvlar bilan bir qatorda har bir intizomning chuqurligi saqlanishi kerakligini, aks holda yuzaki integratsiya xavfi paydo bo‘lishini ogohlantiradi.

T.A.Hughson Bazil Bernshteynning “pedagogik qurilma” nazariyasiga tayanib, Learning Compass 2030 konsepsiyasida fanlarga oid bilimlarning qanday talqin etilayotganini tanqidiy tahlil qiladi [10]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu modelda intizomiy bilimlarning kiritilishi ijobiy imkoniyat sifatida qaralgan bo‘lsa-da, u hanuzgacha OECD’ning avvalgi hujjatlarida ustun bo‘lgan “bilim iqtisodiyoti” yondashuvi bilan chegaralangan.

Muallifning fikricha, Learning Compass 2030’da bilim bozor iqtisodiga darhol foyda keltiradigan amaliy vosita sifatida talqin etiladi, ammo bu yondashuv bilimning tanqidiy va transformativ (jamiyatni o‘zgartiruvchi) kuchini e’tibordan chetda qoldiradi. Natijada, o‘quvchilarga jamiyatni qayta tasavvur qilish va uni yaxshilash imkonini beruvchi keng fikrlash doirasi to‘liq ochilmaydi.

Xulosa sifatida, ushbu tahlil Learning Compass 2030 konsepsiyasining maqsadlari ijobiy bo‘lsa-da, uning hozirgi talqini fanlararo bilimlarni insonparvarlik va ijodiy tafakkur asosida rivojlantirish imkoniyatini cheklab qo‘yayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida Q. Xoliqov va boshqalar [7] tomonidan o‘rta ta’limda fizika fanini STEAM asosida o‘qitishning metodik modeli taklif etilgan. Ushbu maqola umumta’lim

ISSN: 2992-9210

maktablarida STEAM yondashuvi asosida fizika ta’limini tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu yondashuv o‘quvchilarda fan, texnologiya, muhandislik, ijodkorlik va matematikaga qiziqishni oshirishga qaratilgan. STEAM yondashuvini ta’lim jarayoniga tadbiq etish muammolari va ularni hal qilish tajribasiga oid xorijda olib borilayotgan ishlarga doir adabiyotlar o‘qituvchilarning ta’lim natijalariga qo‘yiladigan talablar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tahlil qilingan ma’lumotlar asosida fizika fanidan o‘quvchilarning fizika darslarida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida STEAM yondashuvdan foydalanishga oid ma’lumotlar berilgan.

STEAM yondashuvida “A” komponenti - san’at - estetik fikrlashni rivojlantirsa, “T” va “E” komponentlari (texnologiya va muhandislik) o‘quvchini amaliy faoliyatga yo‘naltiradi. F.Bouquet va hamkorlari o‘z ishlarida Arduino asosida arzon, ochiq manbali laboratoriyalar tashkil etish tajribasini keltiradi, hamda, bunday laboratoriyalar talabalar ijodkorligini faollashtiradi, ularda avtonomiya va o‘z g‘oyasini tajriba orqali sinab ko‘rish imkonini yaratadi degan fikrlarni bildiradi [11].

Tadqiqotga asoslangan ta’limda asosiy e’tibor o‘quvchining faoliyatiga qaratiladi - bunda uning amaliy va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchi boshqa fanlardan olgan bilim va ko‘nikmalarini ham qo‘llay oladi. Xususan, informatikani fizika ta’limiga tatbiq etish raqamli savodxonlikni rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biri sifatida ko‘riladi.

Shunga o‘xshash tarzda M. Šechný tadqiqotga asoslangan ta’lim uchun ochiq IT vositalarining ta’limiy imkoniyatlarini tizimlashtirib, ular yordamida o‘quvchilarda raqamli savodxonlik va tahliliy tafakkur rivojlanishini asoslaydi [12]. Maqolada ta’kidlanishicha, ochiq IT vositalari - bu erkin foydalanish mumkin bo‘lgan texnologik resurslar bo‘lib, ular o‘quvchilarga mustaqil izlanish olib borish imkoniyatini kengaytiradi. Fizika ta’limi uchun ochiq IT vositalarining asosiy turlari quyidagilardan iborat: mikroprotsessor to‘plamlari (analog va raqamli elektron komponentlar bilan), amaliy dasturlar, simulyatsiya dasturlari, dasturlash tillari, kutubxonalar va dasturiy muhitlar, veb-asboblar, virtual laboratoriyalar, ma’lumotlar kataloglari va hipermatnli hujjatlar.

Fikrimizcha bunday ochiq IT vositalar ochiq ta’lim resurslari bilan uyg‘un qo‘llanilganda, ular nafaqat fizika, balki matematika, informatika va boshqa fanlar uchun ham samarali integratsion platforma bo‘la oladi. Bu esa o‘quvchilarda fanlararo fikrlash, raqamli tahlil va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

COVID-19 pandemiyasi sababli an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari to‘satdan to‘xtatilgan paytda, fizika laboratoriya kursining “Maker Lab” tajriba loyihasi katta o‘zgarishlarsiz davom ettirilgan. Ushbu kursda talabalar arzon va ochiq manbali mikrokontrollerlar (xususan, Arduino) yordamida o‘z tajribalarini mustaqil ravishda loyihalash va tashkil etishgan. Talabalar har biri empirik tadqiqot siklining to‘liq bosqichlarini ikki marotaba o‘tkazgan - ya’ni g‘oya yaratish, o‘lchash, tahlil qilish va natijani taqdim etish jarayonlarini mustaqil bajargan.

F.R.Bradbury va C.F.Polslar ham pandemiya sharoitida ochiq-inquiry laboratoriyalarini masofadan turib tashkil etish misolida maker harakatini o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish mumkinligini ko‘rsatdi [13]. Nualliflarning ta’kidlashicha, kurs loyihasi ochiq tadqiqot metodikasiga tayangan bo‘lib, u ilmiy tadqiqot jarayonini o‘rgatish bo‘yicha ilg‘or manbalarga asoslangan. Darslar “flipped classroom” (teskari sinf) tamoyiliga ko‘ra tashkil etilgan: ya’ni o‘qituvchi bilan onlayn muloqot asosan muhokama uchun ajratilgan, amaliy tajribalar esa talabalarning o‘zlari tomonidan uy sharoitida yoki mustaqil muhitda bajarilgan.

Pandemiya cheklovlariga qaramay, barcha talabalar muvaffaqiyatli va ijodiy tajriba loyihalarini amalga oshira olishgan. Albatta, onlayn o‘qitishga o‘tish jarayonida qiyinchiliklar kuzatilgan, biroq mualliflar bir qator ijobiy jihatlarni ham aniqlaganlar - bular kursni yanada moslashuvchan, innovatsion va barqaror qilish imkonini bergan.

Yuqoridag fikrlarga asoslanib kursning barqarorligini to‘liq ochiq tadqiqot loyihalari tanlovi (talabalarni mustaqil tajriba o‘tkazishga undagan), Arduino qurilmalarini o‘lchov vositasi sifatida qo‘llash (jarayonni texnik jihatdan soddalashtirgan), Flipped classroom yondashuvi (talabalarning vaqt va joy erkinligini kengaytirgan) ta’minlagan.

Mualliflar ushbu yondashuvni pandemiyaga bardosh bera oladigan ta’lim modeli sifatida baholab, uni boshqa kurslar va o‘quv dasturlarida ham tatbiq etish mumkinligini ta’kidlaydilar.

Paul R. DeStefano va Ralf Widenhorn tomonidan olib borilgan tadqiqotda Portlend davlat universitetida ishlab chiqilgan loyiha asosidagi ochiq tadqiqot laboratoriya dasturi tahlil qilingan [14]. Tadqiqot ishtirokchisi - fizika fanini endigina o‘rganayotgan talaba - COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’lim sharoitida ushbu dastur orqali o‘qitilgan.

Tadqiqotda talaba o‘ziga xos optik hodisani sayoz suv yuzasida lazer nuri diffuz tarzda akslanganda hosil bo‘ladigan halqa shaklidagi yaltirashni o‘rgangan. Ushbu tajriba o‘zining noodatiy, o‘quvchi uchun qiziqarli hamda murakkab fizik mexanizmlarini (refraksiya, diffuz va ichki to‘la qaytish) birlashtirgani bilan ajralib turadi. Maqolada o‘quv jarayoni davomida yig‘ilgan kuzatuvlar va intervyular asosida talaba eksperimental loyiha yaratish, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha kutilgan o‘quv natijalariga erishgani isbotlangan.

Maqolani tahlil qilish natijasida ochiq tadqiqotga asoslangan laboratoriya modeli talabalarga mavzuni mustaqil tanlash, tajriba dizaynini o‘zlari ishlab chiqish va ilmiy fikrlashni chuqurlashtirish imkonini beradi. Maqolada, shuningdek, ba’zi talabalar diffuz qaytishni to‘g‘ri talqin qilishda yoki tasvir hosil bo‘lmagan optik holatlarda nurlarning fazodagi yo‘nalishini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelgani qayd etilgan. Bu masalalar ko‘pincha kirish bosqichidagi fizika kurslarida yetarli darajada yoritilmaydi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot masofaviy ta’lim sharoitida ham ochiq izlanishga asoslangan laboratoriya loyihalari o‘quvchilarni chuqur tahlil, kuzatish va ilmiy tafakkurga yo‘naltiruvchi, mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko‘rsatadiki,

B. Thacker dalillarga asoslangan, algebra asosidagi fizika kursining 20 yillik tarixiy rivojlanishi, tatbiqi, tadqiqoti va baholash natijalari tahlil qiladi. Kurs to‘liq laboratoriya asosida tashkil etilgan bo‘lib, unda an’anaviy ma’ruza yoki darsliklar ishlatilmaydi. Ta’lim jarayoni tadqiqotga asoslangan o‘qitish tamoyiliga tayanadi. Kurs asosan sog‘liqni saqlash yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, talabalar kichik guruhlarda yo‘naltiruvchi qo‘llanma asosida tajribalar o‘tkazib, atrof-muhitdagi hodisalarni tahlil qilish orqali o‘rganadilar. Ular o‘z kuzatuvlari asosida miqdoriy va sifatli modellar ishlab chiqadilar. Kursning asosiy maqsadi - talabalarda tanqidiy fikrlash, ilmiy modellashtirish va olimcha tafakkurni shakllantirish bo‘lib, bu mazkur dasturda fizik mazmundan kam bo‘lmagan darajada e’tibor qaratiladigan yo‘nalishdir.

Muallif kursning yillar davomida qanday rivojlanganini, uni fizika ta’limi bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar kontekstida hamda mahalliy kafedra holati nuqtai nazaridan tahlil etgan. Natijalar ketma-ketlikda keltirilgan bo‘lib, talabalarning tushunchaviy bilimlari, fikrlash ko‘nikmalari, guruh hajmini kengaytirish ta’siri va o‘quv yordamchilarining pedagogik bilim darajasi o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha tadqiqotga asoslangan kursda o‘qigan talabalarning tushunchaviy tushunish darajasi an’anaviy ta’limda o‘qiganlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Biroq ularning natijalari boshqa ilmiy tadqiqot asosidagi metodlar bilan o‘qitilgan guruhlar bilan taqqoslaganda katta farq ko‘rsatmagan.

Shunga qaramay, tadqiqotga asoslangan formatda ta’lim olgan talabalar erkin javobli imtihon topshiriqlarida fikrlash ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olish bo‘yicha yuqori natija ko‘rsatgan. Bundan tashqari, muallif laboratoriya asosidagi kursni “kichik guruh (24 talaba)” dan katta guruh (60 talaba) shakliga kengaytirish imkoniyatini isbotlagan. Bu jarayonda o‘quv yordamchilarining ishtiroki muhim

ISSN: 2992-9210

rol o‘ynagan. Tadqiqot yakunida o‘quv yordamchilarining pedagogik mazmuniy bilimlarini baholash yoki ularni tayyorlash uchun mo‘ljallangan maxsus savollar to‘plami ishlab chiqilib, sinovdan o‘tkazilgan.

Umuman olganda, ushbu maqola laboratoriya va tadqiqot asosidagi fizika kurslari uzluksiz rivojlantirilishi, kengaytirilishi va baholanishi mumkinligini amaliy jihatdan isbotlab bergan.

Bularning barchasi OECD’ning Future of Education & Skills 2030 konsepsiyasida ilgari surilgan asosiy tamoyillar - “o‘quvchi agentligi”, “kompetensiyaviy ta’lim”, “innovatsion tafakkur” - bilan uyg‘unlashadi. Ushbu yondashuv mamlakatimiz uchun ham dolzarb, chunki u raqamli iqtisodiyot, ijodiy sohalar va muhandislik ta’limini integratsiyalash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan xalqaro va mahalliy manbalar STEAM yondashuvi nafaqat fanlararo bilimlarni birlashtiruvchi, balki ta’limni ijtimoiy, texnologik va estetik jihatdan yangilovchi tizim ekanini ko‘rsatdi. Nazariy manbalar bu yondashuvning falsafiy asoslarini yaratgan bo‘lsa, amaliy tadqiqotlar (Arduino, inquiry-labs, maker-space) uning ta’limdagi real samaradorligini isbotladi. Shuningdek, mamlakatimiz tajribasi bu modelni mahalliy sharoitda moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi mazmuniy, metodik va amaliy integratsiyaning uyg‘un shaklidir. Mazmuniy integratsiya - fanlararo kontseptlarning o‘zaro kesishishini, metodik integratsiya - loyiha asosida o‘qitish va kreativ fikrlash jarayonlarini, amaliy integratsiya esa - maker va virtual laboratoriyalar orqali eksperimental faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Bu uchlik o‘quvchining asosiy kompetensiyalarini - ijodkorlik, tahliliy fikrlash va hamkorlik - shakllantiradi va ularni OECD Learning Compass 2030da belgilangan transformativ kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtiradi [1-5]. Natijada o‘quvchi faqat bilim egasi emas, balki yangi qiymat yaratuvchi, muammolarni hal qiluvchi faol subyektga aylanadi.

Henriksen [2] va Perignat [1] tadqiqotlariga ko‘ra, muammoni aniqlash → g‘oya yaratish → prototip tayyorlash → sinovdan o‘tkazish → refleksiya ketma-ketligi STEAMning markaziy modeli hisoblanadi. Ushbu sikl nafaqat ta’lim jarayonida, balki baholash tizimi va rubrikalarda ham aks etishi lozim.

IoT va Arduino texnologiyalarini qo‘shish natijasida loyihaga asoslangan ta’lim yondashuvi real hayotdagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan amaliy loyihaga aylanadi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat texnik natijani yaratadilar, balki ijtimoiy-texnik yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini ham egallaydilar [6, 11-12]. Shu tariqa, kreativ fikrlash va loyiha asosida o‘qitish fanlararo ta’limning “dvigateli” sifatida namoyon bo‘ladi.

An’anaviy test va yakuniy nazorat tizimlari fanlararo ta’lim mahsulotlarini to‘liq baholay olmaydi. Shu bois kompetensiyaga asoslangan rubrikalar, loyiha-portfoliolar va refleksiv baholash metodlari zarur hisoblanadi [4-5, 9].

Tahlil qilgan manbalarda ko‘rsatilishicha, o‘qituvchilarni STEAM metodikasi, texnologik dizayn va baholash tizimlari bo‘yicha muntazam ravishda tayyorlash zarur. OECD tomonidan ta’kidlanganidek, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish kurslari - fanlararo metodika, kreativ fikrlash, xavfsizlik protokollari va raqamli o‘lchash texnologiyalarini o‘z ichiga olishi kerak [9]. Shu yo‘sinda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchi ijodkorligini yo‘naltiruvchi mentor rolini bajaradi.

Zamonaviy fizika ta’limida ochiq manbali texnik vositalar va ochiq resurslari asosida qurilgan maker laboratoriyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. F. Bouquet va hammualliflar past xarajatli loyihaga laboratoriyalarini batafsil tavsiflagan bo‘lsa, M.Shechniy fizika ta’limi uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ochiq IT vositalarining to‘liq repertuarini tizimlashtirgan [11, 12].

ISSN: 2992-9210

So‘nggi yillarda chop etilgan ishlar pandemiya sharoitida ham ochiq laboratoriya kurslari samaradorligini saqlab qolganligini ko‘rsatadi [13-15]. Masalan, P. DeStefano va hamkorlari talabalarning mustaqil tajribalarni uy sharoitida o‘tkazish orqali optik hodisalarni tahlil qilishda yuqori natijalar berganini ko‘rsatadi [14]. Bunday yondashuvlar nafaqat masofaviy, balki an’anaviy ta’limda ham o‘quvchini tadqiqotchi sifatida shakllantirish uchun muhimdir.

Q. Xoliqov va hammualliflar tadqiqoti asosida mahalliy sharoitda haftasiga 2-4 soatlik STEAM-loyiha bloki - fizika, matematika, texnologiya va san’at fanlari o‘qituvchilari hamkorligida olib boriladigan minimal STEAM-paketni joriy etish tavsiya etiladi [7].

Baholash tizimi mahsulot sifati, dalillash, hamkorlik, refleksiya indikatorlari asosida mezonlarga asoslangan hamda OECD “Learning Compass 2030” indikatorlari bilan bog‘langan holda tashkil etish [4-5].

Maker va virtual laboratoriya: mikrokontroller to‘plami (Arduino) + ochiq simulyatsiyalar (PhET, Falstad, Vaščák.cz) asosida o‘quv-tadqiqot siklini to‘liq amalga oshirish [11-12].

O‘qituvchilarni tayyorlash: kreativ fikrlash va loyihaga asoslangan ta’lim bo‘yicha amaliy treninglar, baholash va xavfsizlik bo‘yicha metodik yo‘riqnomalar ishlab chiqish [3, 6].

Mazkur yo‘l xaritasi mahalliy ta’lim tizimida STEAM yondashuvini bosqichma-bosqich joriy etish uchun real asos yaratadi. U o‘qituvchi, talaba va laboratoriya infratuzilmasini yagona tizimda birlashtirish orqali mamlaktimiz sharoitiga mos innovatsion modelni shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa

O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlaydigan, o‘quvchining ijodkorlik, tadqiqotchilik, tahliliy va texnologik kompetensiyalarini rivojlantiradigan samarali model sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuv an’anaviy bilim berishdan farqli ravishda o‘quvchini tayyor bilim oluvchi emas, balki yangi g‘oya yaratuvchi va ilmiy izlanish olib boruvchi faol shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, STEAMning asosiy mexanizmi uch komponent - mazmuniy, metodik va amaliy integratsiyaning uyg‘unligidan iborat. Mazmuniy integratsiya fanlararo tushunchalarni birlashtirsa, metodik integratsiya loyiha asosida o‘qitish (PBL) va kreativ fikrlash tamoyillariga tayanadi; amaliy integratsiya esa maker muhitlari, IoT texnologiyalari va virtual laboratoriyalar orqali o‘quv jarayonini real hayotiy muammolar bilan bog‘laydi. Bu uchlik o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, muammoni tahlil qilish, hamkorlikda ishlash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tahlillar ko‘rsatadiki, kreativ fikrlash va PBL metodlari STEAM ta’limining “dvigateli” sifatida harakat qilib, o‘quvchilarga muammoni aniqlash, g‘oya ishlab chiqish, prototip yaratish, sinovdan o‘tkazish va natijani tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayonni baholashda an’anaviy test tizimlari o‘rniga kompetensiyaga asoslangan baholash, loyiha-portfoliolar va reflektiv rubrikalardan foydalanish talab etiladi.

O‘qituvchilarni tayyorlash ham muhim yo‘nalishlardan biridir. STEAMni samarali joriy etish uchun pedagoglar zamonaviy metodika, texnologik dizayn, o‘lchov va baholash tizimlari bo‘yicha muntazam kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etishi zarur. Bunda kreativ fikrlash, metrologik yondashuv va xavfsizlik protokollari bo‘yicha amaliy treninglar o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maker va virtual laboratoriyalar o‘quv jarayonining amaliy jihatini boyitadi. Arduino, Raspberry Pi kabi arzon va ochiq manbali texnik vositalar, shuningdek PhET va Vaščák.cz kabi simulyatsion platformalar yordamida o‘quvchilar mustaqil tajribalar o‘tkazish, o‘lchash, ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarni taqdim etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning raqamli savodxonligi, ilmiy tafakkuri va ijodiy yondashuvini kuchaytiradi.

ISSN: 2992-9210

O‘zbekiston ta’lim tizimi kontekstida esa, mahalliy sharoitga moslashtirilgan STEAM modelini yaratish zarur. Inlibrary.uz, PhET, Arduino va boshqa ochiq resurslardan foydalanish orqali o‘quvchilar uchun fanlararo loyiha darslari tashkil etish, ularni baholashni OECD Learning Compass 2030 indikatorlari bilan uyg‘unlashtirish, hamda o‘qituvchilarni kreativ fikrlash va PBL bo‘yicha tayyorlash - bu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ladi.

Natijada, STEAM yondashuvi ta’limni bilim markazidan kompetensiya markaziga o‘tkazadi. O‘qituvchi endi bilim uzatuvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, o‘quvchi esa passiv tinglovchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli, quyidagi strategik yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

- o‘quv rejalarga fanlararo STEAM loyihalarini integratsiya qilish;
- o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar va baholash rubrikalari ishlab chiqish;
- har bir maktabda raqamli va virtual laboratoriyalarni tashkil etish;
- ta’lim muassasalari o‘rtasida STEAM innovatsion klasterlarini yaratish;
- “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida STEAMni milliy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash.

Umuman olganda, STEAM ta’limi - bu zamonaviy o‘qitish falsafasi bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarda raqamli va ilmiy tafakkurni shakllantiradi, balki ularni kelajak kasblariga, ijodiy va innovatsion faoliyatga tayyorlaydi. Shu ma’noda, STEAM yondashuvi bizning ta’lim tizimimizni global raqobatbardoshlikka olib chiqadigan, ta’limning yangi paradigmasini shakllantiruvchi muhim yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Perignat, E. B., & Katz-Buonincontro, J. (2019). STEAM in practice and research: An integrative literature review. Thinking Skills and Creativity, 31, 31-43. https://doi.org/10.1016/j.tsc.2018.10.002
2. Henriksen, D. (2017). Creating STEAM with Design Thinking: Beyond STEM and arts integration. The STEAM Journal, 3(1), 11. https://doi.org/10.5642/steam.20170301.11
3. Bybee, R. W. (2013). The case for STEM education: Challenges and opportunities. Arlington, VA: NSTA Press.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). The OECD Learning Compass 2030. Paris: OECD Publishing. Retrieved from https://www.oecd.org/education/2030-project/
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). Learning Compass 2030 - Concept Note. Paris: OECD Publishing.
6. Анисимова, Т. И., Шатунова, О. В., & Сабирова, Ф. М. (2018). STEAM-образование как инновационная технология для Индустрии 4.0. Научный диалог, (11), 15-29. Retrieved from https://cyberleninka.ru/article/n/steam-obrazovanie-kak-innovatsionnaya-tehnologiya-dlya-industrii-4-0
7. Xoliqov, Q. T., Kuliyeva, M. X., Qaytarova, N., & Mamatova, S. (2025). O‘rta ta’limda fizika fanini STEAM asosida o‘qitish masalalari. Society and Innovations Journal, 10(2), 54-61. Retrieved from https://inlibrary.uz
8. Graham, M. A. (2020). Deconstructing the bright future of STEAM education. Arts Education Policy Review, 121(3), 107-118. https://doi.org/10.1080/10632913.2020.1728226

ISSN: 2992-9210

9. Williamson, J. M. (2021). An analysis of STEAM disciplinary interrelationships. IMPACT: Journal of the Center for Interdisciplinary Teaching and Learning, 10(1), 23-35. Retrieved from https://www.sciepub.com

10. Hughson, T. A. (2022). The OECD Learning Compass 2030 and the future of curriculum reform. Journal of Education Policy. https://doi.org/10.1080/02680939.2022.2043175

11. Bouquet, F., Bobroff, J., Fuchs-Gallezot, M., & Maurines, L. (2016). Project-based physics labs using low-cost open-source hardware. American Journal of Physics, 85(3), 216-222. https://doi.org/10.1119/1.4972043

12. Šechný, M. (2020). Open IT tools for inquiry-based physics education. arXiv preprint arXiv:2002.00045. https://arxiv.org/abs/2002.00045

13. Bradbury, F. R., & Pols, C. F. J. (2020). A pandemic-resilient open-inquiry physical science lab course which leverages the Maker movement. arXiv preprint arXiv:2006.06881. https://arxiv.org/abs/2006.06881

14. DeStefano, P. R., & Widenhorn, R. (2024). Open-inquiry opens doors to intriguing optics experiments at home. Physical Review Physics Education Research, 20, 010108. https://doi.org/10.1103/PhysRevPhysEducRes.20.010108

15. Thacker, B., Dulli, D., & Mason, A. (2023). Inquiry-based experimental physics: Twenty years of an evidence-based course. Physical Review Physics Education Research, 19, 020116. https://doi.org/10.1103/PhysRevPhysEducRes.19.020116

ISSN: 2992-9210

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANLARINI O‘QITISHDA TARBIYA UZVIYLIGINI TA’MINLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТАМ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ

DIDACTIC POSSIBILITIES FOR ENSURING EDUCATIONAL CONTINUITY IN TEACHING NATIVE LANGUAGE AND READING SUBJECTS

Xudoykulov Jamshid Nishanovich

Xudoykulov J.N.,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
jxudoyqulov503@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini o‘qitishda tarbiya bilan ta’limning uzviyligini ta’minlashning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinfdan yuqori sinflarga o‘tish jarayonidagi uzviylik muammolari, o‘quvchilarning psixologik moslashuvi, adabiy ta’lim mazmuni va tarbiyaviy komponentlarning uyg‘unlashuvi yoritilgan. Mavjud muammolar, metodik yondashuvlar, tarbiyaviy salohiyat va o‘qituvchi faoliyatining ahamiyati ilmiy-nazariy asosda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Uzviylik, tarbiya, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, metodika, adabiy ta’lim, psixologik moslashuv.*

Аннотация. В статье анализируются дидактические возможности обеспечения преемственности воспитания и образования при обучении предметам родного языка и читательской грамотности в начальном образовании. Рассматриваются проблемы преемственности при переходе из начальных классов в старшие, психологической адаптации учащихся, сочетания содержания литературного образования и образовательных компонентов. На научно-теоретической основе рассматриваются существующие проблемы, методические подходы, воспитательный потенциал и значение деятельности учителя.

Ключевые слова: *преемственность, воспитание, читательская грамотность, начальное образование, методика, литературное образование, психологическая адаптация.*

Annatation. This article analyzes the didactic possibilities of ensuring the continuity of upbringing and education in teaching the subjects of the native language and reading literacy in primary education. The problems of continuity in the process of transition from primary to higher grades, the psychological adaptation of students, the combination of the content of literary education and educational components are highlighted. Existing problems, methodological approaches, educational potential and the importance of teacher activity are considered on a scientific and theoretical basis.

Keywords: *continuity, upbringing, reading literacy, primary education, methodology, literary education, psychological adaptation.*

ISSN: 2992-9210

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash masalasi pedagogikaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichida beriladigan ta’lim o’quvchilarning keyingi hayoti davomida shakllanadigan shaxsiy sifatlariga, dunyoqarashiga, ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir etadi. Shu sababli ona tili va o’qish savodxonligi fanlarida tarbiyaviy komponentlarning izchil, tizimli va maqsadli ravishda integratsiya qilinishi muhim metodik vazifa sanaladi.

PrezidentSh.M. Mirziyoyevning “Yangi O’zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g’oyasi hamda 2019-yilda qabul qilingan “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta’lim va tarbiyaga integrativ yondashuv ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan. Bu esa boshlang’ich ta’limda tarbiya uzviyligini ta’minlashga oid didaktik, metodik va psixologik yondashuvlarni yangilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda (L.S. Vygotskiy, J. Piaje, J. Bruner, R. Mayer, K. Kolberg) ta’lim shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan murakkab pedagogik tizim sifatida talqin qilinadi. Bu tizimda tarbiya ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, ularning uzviyligi o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning asosiy omili sifatida qaraladi.

O’zbekiston ta’lim tizimida esa Davlat ta’lims tandartlari (2017, 2024) uzluksizlik va uzviylik tamoyillarini asosiy didaktik prinsiplar sirasiga kiritadi. Xususan, ta’lim mazmunining izchilligi, o’qitishs shakl va usullarida innovatsiyalarga asoslanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi alohida ta’kidlanadi.

Q. Yo’ldoshevning fikricha, “inson omilining kuchayishi o’quv adabiyotining ma’naviy tarbiya berish imkoniyatlarini qayta baholashni taqozo etadi”, bu esa adabiy ta’limni mafkuraviy emas, badiiy-ma’naviy yo’nalishda tashkil etish zaruratini tug‘diradi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot davomida quyidagi pedagogik metodlardan foydalanildi:

Pedagogik diagnostika**,** kuzatish**,** davra suhbatlar**i,** tajriba-sinov ishlari**,** tahliliy-solishtirma metodlardan foydalanildi.

O‘qitish uzviyligini metodik jihatdan ta’minlashga qaratilgan tadqiqot ishimizda bu masala yuzasidan o‘qituvchlar bilan olib borgan davra suhbatlari, dars mashg‘ulotlari, seminar-treninglar, kuzatish va tajribalarimiz (Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlari pedagogik mahorat markazlari) shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ruhiy holatida boshlang‘ich sinfdan beshinchi sinfga o‘tish jarayonida quyidagi omillar bilan bog‘liq ba’zi bir murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin:

- ijtimoiy muhitning almashinuvi;
- o’qituvchilarning o’quvchilarga muomalasining o‘zgarishi (har xil fanlardan dars beradigan o’qituvchilar sonining ko‘payishi, ularning turlicha talablari);
- ta’lim jarayonining murakkablashib borishi;
- ta’lim tizimi va shakllarining farqlanishi;
- boshlang’ich va umumta’lim maktab dasturlarining bir-biriga mos kelmasligi;
- har xil fanlar o‘qituvchilari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari talablarining bir xil bo‘lmasligi;
- o‘rganiladigan ilmiy-nazariy tushunchalar hajmining kengayishi va murakkablashishi.

Yuqoridagilarni hisobga oladigan bo‘lsak, boshlang‘ich ta’lim jarayonida quyidagi masalalarni hal etish zaruriyatlari yuzaga keladi:

- kichik yoshdagi o‘quvchilarning imkoniyatlari, yosh va psixologik xususiyatlarini qat’iy inobatga olish (“Adabiyot” darslarida ularning yoshiga mos matnlardan foydalanish);

ISSN: 2992-9210

- har bir o‘quvchiga uning individual xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish, ya’ni sinfda mavzularni o‘zlashtirish borasidagi tabaqalanishga yo‘l qo‘ymaslik;
- moslashuv davrida, o‘quvchilarga psixologik yondashuv tizimini ishlab chiqish. Bunda quyi sinf o‘quvchilari qiziqishlarini e’tiborga olgan holda matnlar tanlash lozim bo‘ladi;
- o‘quvchilarning umumta’lim sinfiga moslashmasligini bartaraf etish maqsadida profilaktika qilish usullarini qidirish, shu bilan birga turli didaktik o‘yinlardan vaqti-vaqti bilan foydalanib turish;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarga yirik matnlarni ifodali o‘qish texnikasini va usulini o‘rgatish hamda talab – ehtiyojni hisobga olgan holda ularni muvofiqlashtirib borish;
- o‘quvchilarning moslashuv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan tizimni doimiy kuzatib, tahlil etib borish (har bir o‘quvchida yuz berayotgan psixologik holatni e’tibordan chetda qoldirmaslik);
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumiy o‘rta ta’lim maktabida ta’lim olish jarayoniga moslashishiga yordamlashish maqsadida ularni doimiy ravishda rag‘batlantirib borish.

Uzluksiz ta’lim tizimida tarbiya uzviyligi muammosini hal etishda o‘quvchilarning boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi moslashuvining muammosiz hal bo‘lishida o‘qituvchilarning roli beqiyos kattadir.

Asosiy natijalar

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinfdan o‘rta sinflarga o‘tish jarayonida quyidagi nomuvofiqliklar borligini ko‘rsatdi:

- o’quvchilarning psixologik moslashuvidagi qiyinchiliklari;
- fan o’qituvchilari talablarining keskin farqlanishi;
- boshlang’ich va o’rta maktab dasturlarining uzviy emasligi;
- nazariy-adabiy tushunchalar hajmining keskin ortib ketishi;
- kitobxonlik doirasi bo‘yicha izchillikning yo‘qligi;
- adabiy tahlil ko’nikmalarining keskin murakkablashuvi.

Adabiy ta’lim mazmunida uzviylikni ta’minlash yo‘nalishlari

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida tarbiya integratsiyasi quyidagi yo’nalishlarda samarali:

1. **Kitobxonlik doirasi uzviyligi** xalq og’zaki ijodi → mumtoz adabiyot → bolalar adabiyoti → jahon adabiyoti;
2. **Tarixiy-adabiy ma’lumotlar uzviyligi** muallif hayoti va ijodiga oid tasavvurlarni yoshga mos kengaytirish;
3. **Nazariy-adabiy tushunchalar uzviyligi** soddadan murakkabga tamoyiliga asoslangan tizimli joriy qilish;
4. **Nutqiy faoliyat uzviyligi** ifodali o‘qish → bog’lanishli nutq → badiiy tahlil → og‘zaki-yozma ijodkorlik.

Dars jarayonida tarbiyaviy integratsiyaning didaktik imkoniyatlari

- matnlar orqali axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik tarbiya berish;
- matn tahlili orqali xulq-atvor me’yorlari va qadriyatlarni singdirish;
- o’quv faoliyatida o’yin texnologiyalari orqali moslashuvni yengillashtirish;
- ifodali o’qish orqali nutqiy faollik va estetik didni rivojlantirish;
- kichik yosh psixologiyasiga mos matn tanlash orqali motivatsiyani kuchaytirish.

Muhokama

Boshlang‘ich ta’lim tizimida ona tili va o‘qishsavodxonlig ifanlari o‘quvchi shaxsinini ilk shakllanish bosqichida halqiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlash engmuhim didaktik vazifalardan biri sanaladi.[4;45]O‘tkazilgan ilmiy-amaliy tahlillar shuniko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda o‘qishsavodxonligi jarayoni faqat matnni texnik o‘qish yoki Grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish bilangina chegaralanmasdan, balki o‘quvchilarning ma’naviy

ISSN: 2992-9210

kamoloti, axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalari, ijtimoiy faollikni rivojlantirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir.[4;88] Shu sababli ta’lim va tarbiya integratsiyasini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyati yanada dolzarb lashmoqda.

Pedagogikada biyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarbiya va ta’limning uzviyligini ta’minlashda birqator psixologik omillar, xususan o‘quvchilarning yoshxususiyatlari, qiziqishlari, diqqat barqarorligi va emotsional rivojlanishi hisobga olinmayapti. [5;99] Ona tilivao‘qish savodxonligi fanlari aynan mana shu ehtiyojlarning qondirilishiga bevosita xizmat qila oladi, chunki o‘quvchilar matn orqali ijtimoiy-ma’naviy tushunchalarni bilvosita qabul qiladilar.[6;38] Ammo darsda faqat bilim berishga qaratilgan yondashuv o‘quvchilar tafakkurining to‘laqonli rivojlanishiga imkon yaratmaydi.

Yana bir muhim jihat shundaki, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda aniq mezonlar mavjud emas. Matn bilan ishlashning analitik, kreativ, baholovchi bosqichlari ko‘pincha bir-biriga bog‘lanmagan holda olib boriladi. Natijada o‘quvchi matn mazmunini tushunsa-da, undagi tarbiyaviy g‘oyalarni anglash, muallifning badiiyniyatiga baho berish yoki shaxsiy xulosalar chiqaraolishdarajasi past bo‘libqoladi.

Tahlillarshuniko‘rsatdiki, tarbiyaviy uzviylikni ta’minlash uchun faqat darslik mazmunining o‘zi yetarli emas. Bunda o‘qituvchining metodik mahorati, darsni loyihalash strategiyasi, mavzular aro integratsiya, fanlar arobog‘lanishlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi matn bilan ishlash jarayonida axloqiy baho berishga undovchi savollar, munozara elementlari, ijodiy topshiriqlar, rolli o‘qish, dramatizatsiya, badiiy tahlil kabimetodlardan foydalan ishi tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi.[4;100]

Boshlang‘ich ta’limda uzviylikning buzilishi nafaqat o‘quvchi shaxsiga, balki keyingi bosqichlar uchun ajratilgan ta’lim yuklamasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 5-sinfda o‘quvchilar badiiy matnni tahlil qilish, obrazlar tizimini ajratish, g‘oya va mavzuni belgilash kabi murakkab topshiriqlarni bajarishda qiynaladilar. Buning sababi boshlang‘ich sinflarda asosiy tahliliy fikrlash ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganidir.

Yuqoridagi mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limdagi ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida tarbiyaviy uzviylikni ta’minlash uchu naniq metodik tizim ishlab chiqish zarur. Bu tizimdarslik mazmuni, metodik qo‘llanmalar, o‘qituvchi tayyorgarligi, baholash mezonlari, fanlar aro integratsiya va tarbiyaviy maqsadlarning yagona konsepsiyaga asoslanishini taqozo etadi.[5;153] Ana shunda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nutqiy, aqliy, ma’naviy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishi izchil davom etadi.

Xulosa

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida tarbiya uzviyligini ta’minlash o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojida muhim o‘rin tutadi. Uzviylik tamoyiliga tayanmagan ta’lim mazmuni o‘quvchining bilim sifatini, badiiy tafakkurini, axloqiy dunyoqarashini pasaytiradi. Qo‘yilgan vazifalarni izchi bajarish orqali o‘quvchida milliy qadriyatlarga hurmat, mustaqil fikr, ijtimoiy faollik, estetik did, axloqiy madaniyat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Shu sababli ta’lim jarayonida:

- darslik va dasturlarni uzviylashtirish,
- yoshga mos badiiy matnlar tanlash,
- o‘quvchilar moslashuviga oid psixologik yondashuvlarni tatbiq qilish,
- tarbiyaviy kompetensiyalarni baholash tizimini yaratish,
- o‘qituvchilar malakasini oshirishni kuchaytirish zarur metodik vazifalar sirasiga kiradi.

Tavsiyalar

1.Darslik va dasturlarni uzviylashtirish: boshlang‘ich va 5–6-sinflar mazmunini izchil bog‘lovchi konsepekt ishlab chiqish.

ISSN: 2992-9210

2. Matn tanlash mezonlarini ishlab chiqish: kichik yosh psixologiyasiga mos tarbiyaviy matn lar bilan boyitish.

3. Boshlang‘ich-o‘rta maktab o‘qituvchilari hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

4.Ifodali o‘qish va matn tahliliga oid metodik qo‘llanmalarni yaratish.

5. O‘quvchilar moslashuvda vridapsixologik-pedagogik monitoring joriyetish.

6. Tarbiyaviykomponentlarnibaholashmezonlariniishlabchiqish.

7. O‘qituvchilaruchunintegratsionmetodikabo‘yichamalakaoshirishkurslaritashkiletish.

Foydalanilganadabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 157-son qarori.

3. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. 2017-yil 6-aprel Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

4. Niyazmetova T. Adabiy ta’lim muammolari // Metodik qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, T., 2012. – 109 b.

5. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 151 b

6.Darling-Hammond, L. (1992). Creating standards of practice and delivery for learner-centred schools. Stanford Lawand Policy Review, 4, 37-52.

ISSN: 2992-9210

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI (BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI MISOLIDA)

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ (НА ПРИМЕРЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ)

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF FORMING REFLECTIVE COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS (ON THE EXAMPLE OF PRIMARY EDUCATION)

Yuldasheva Sevara Maxsudjonovna

Yuldasheva S.M.,
Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
sevara.080396@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada refleksiya tushunchasining mohiyati, uni pedagogik faoliyatdagi o‘rni hamda o‘qituvchi shaxsining kasbiy o‘sishida tutgan ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari — o‘qitishning interaktiv metodlari, o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish mashg‘ulotlari, reflektiv kundaliklar yuritish amaliyoti orqali ochib berilgan. Natijada refleksiv kompetensiyani shakllantirish ta’lim sifatini oshirish va talabalarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishda muhim omil ekani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *refleksiya, refleksiv kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik mexanizm, mustaqil fikrlash, o‘zini tahlil qilish.*

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические механизмы формирования рефлексивных компетенций у будущих учителей начальных классов. Раскрыта сущность понятия «рефлексия» и её роль в педагогической деятельности, а также значение рефлексивных умений в профессиональном росте личности педагога. В исследовании рассмотрены эффективные пути развития рефлексивной компетенции у студентов педагогических направлений, такие как использование интерактивных методов обучения, организация занятий по самооценке и самоанализу, ведение рефлексивных дневников. В результате обосновано, что развитие рефлексивной компетенции является важным фактором повышения качества образования и формирования самостоятельного мышления у студентов.

Ключевые слова: *рефлексия, рефлексивная компетенция, будущий учитель, педагогический механизм, самостоятельное мышление, самоанализ.*

Annatation. This article analyzes the pedagogical mechanisms for developing reflective competencies among future primary school teachers. The essence of the concept of reflection, its role in

ISSN: 2992-9210

pedagogical activity, and its importance in the professional growth of teachers are examined. The research identifies effective ways to foster reflective competence in pedagogical students through interactive teaching methods, self-assessment and self-analysis activities, and reflective journals. The findings justify that the development of reflective competence is a key factor in improving the quality of education and enhancing students’ independent thinking abilities.

Keywords: *reflection, reflective competence, future teacher, pedagogical mechanism, independent thinking, self-analysis.*

KIRISH

5. Jalolova G., Sattorova N. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya asoslari. – Toshkent: TDPU, 2022.
6. Qodirova N. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning psixologik omillari // Pedagogik izlanishlar, 2023. №4.
7. Raxmonqulova D. Ziyorat turizmining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2021.
8. UNESCO. Intercultural Education and Tolerance in Teacher Training. – Paris, 2020.
9. Xodjayeva S. Ma’naviy tarbiya va tolerantlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

ISSN: 2992-9210

19.00.00 - Psixologiya fanlari

STRESS OQIBATLARINI BARTARAF ETISHNING PSIXOKORREKSION DASTURI

ПСИХОКОРРЕКЦИОННАЯ ПРОГРАММА ПО УСТРАНЕНИЮ ПОСЛЕДСТВИЙ СТРЕССА

PSYCHOCORRECTION PROGRAM FOR ELIMINATING THE CONSEQUENCES OF STRESS

Radjabov Akmal Abduxaliqovich

Radjabov A.A.,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
radjabovakaml86@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada stressning kelib chiqish sabablari, fiziologik va psixologik mexanizmlari, shuningdek, stress holatini yengishga qaratilgan psixokorreksion yondashuvlar tahlil qilingan. Stressning inson faoliyati va salomatligiga ta’siri, xavotirlanish holatining shakllanish omillari hamda ularni boshqarishning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot asosida o‘quvchi va talabalarga mo‘ljallangan stress oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, u shaxsning emotsional barqarorligini oshirish, stressga bardoshlilikni rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *stress, xavotir, psixokorreksiya, emotsional barqarorlik, psixologik himoya, shaxs, stressga bardoshlilik.*

Аннотация. В статье рассматриваются причины возникновения стресса, его физиологические и психологические механизмы, а также психокоррекционные подходы, направленные на преодоление стрессовых состояний. Освещено влияние стресса на деятельность и здоровье человека, механизмы формирования тревожности и пути их психологической регуляции. На основе проведённого исследования разработана психокоррекционная программа, направленная на снижение последствий стресса у учащихся и студентов. Программа способствует повышению эмоциональной устойчивости, развитию стрессоустойчивости и улучшению социальной адаптации личности.

Ключевые слова: *стресс, тревожность, психокоррекция, эмоциональная устойчивость, психологическая защита, личность, стрессоустойчивость.*

Annotation. The article analyzes the causes of stress, its physiological and psychological mechanisms, and psychocorrectional approaches aimed at overcoming stressful conditions. It highlights the impact of stress on human activity and health, the factors of anxiety formation, and psychological methods of regulation. Based on the research, a psychocorrectional program was developed for students to reduce the effects of stress. The program is aimed at enhancing emotional

ISSN: 2992-9210

stability, developing stress resistance, and improving personal and social adaptation.

Keywords: *stress, anxiety, psychocorrection, emotional stability, psychological defense, personality, stress resistance.*

Stress haqida yagona va umumiy nazariyaning mavjud emasligi bois, uning aniq va yagona ma’nodagi ta’rifi ham mavjud emas. Stress – og‘ir, mushkul yoki murakkab sharoitlarda yuzaga keluvchi psixikaning zo‘riqishidir. Stressning vujudga kelish sabablari quyidagicha: inson shug‘ullanadigan faoliyatning turi, mazmuni, mavjud shart-sharoitlar, faoliyatning tashkiliy qismi va ekstremal omillar, shuningdek, tashqi muhit insonning bor imkoniyatlaridan ortig‘ini talab qilishi. Masalan, xizmat faoliyatida talabning ko‘payishi ham kuchli stressor hisoblanadi.

Stressning yuzaga kelish sabablari ilmiy nuqtai nazardan turlicha izohlanadi. Jumladan, eng mashhur qarash sifatida G. Selyening stress nazariyasini olish mumkin. Unga ko‘ra, dunyodagi jamiki biologik mavjudotlar muhim mexanizm – muvozanatni ta’minlovchi qurilmaga ega.

Ichki va tashqi stressorlarning kuchli hamda davomiy ta’sirlari muvozanatning buzilishiga olib keladi. Organizm ushbu vaziyatda o‘zining yuqori darajadagi himoya – moslashuv reaksiyasini namoyon qiladi. Qo‘zg‘alish yordamida organizm tashqi ta’sirga moslashishga urinadi[1].

Aynan shu ta’sir stress holati hisoblanadi. Ta’sir yo‘qolmasa, stress kuchayadi, rivojlanadi va organizmda bir qancha o‘zgarishlarga olib keladi. Xavotirlikning turg‘unligi hamda davomiyligi inson xatti-harakatida quyidagi holatlarni keltirib chiqaradi:

-ishtahaning buzilishi;

-uyqusizlik;

-xatti-harakatlardagi sustlik.

Bunday fiziologik buzilishlarning davomiyligi insonda stressni paydo qiladi. Organizm esa o‘zini himoyalashga, ta’sirni so‘ndirishga harakat qiladi. Ammo, ma’lumki, organizmning kuchi cheksiz emas va jiddiy stress vaziyati vujudga kelganda, inson buni ko‘tara olmaydi.

Natijada turli xastaliklar paydo bo‘ladi, stress o‘ta kuchli bo‘lganda, o‘lim holati ham kuzatiladi. Stressning fiziologik, psixologik, shaxsiy hamda tibbiy belgilari mavjud bo‘lib, ularning istalgan turi doimo hissiy qo‘zg‘alish bilan birgalikda kechadi.

Stress holatining belgilarini mutaxassislar quyidagicha ajratilgan:

fiziologik belgilar: yurak urishi va nafas olishning tezlashishi, yuz terisining qizarishi yoki oqarishi, terlash, qon tarkibida adrenalin miqdorining ko‘payishi;

psixologik belgilar: psixologik funksiyalar dinamikasining o‘zgarishi, tafakkurning sekinlashuvi, diqqatning bo‘linuvchanligi, xotiraning pasayishi, qaror qabul qilish jarayonining sustlashuvi;

shaxsiy belgilar: irodaning butunlay yo‘qolishi, o‘zini o‘zi nazorat qilishning pasayishi, xulq-atvordagi stereotiplik va sustlik, qo‘rquv, xavotirlik, sababsiz bezovtalik, ijodkorlik qobiliyatining yo‘qolishi;

tibbiy belgilar: nevrozning ortishi, hushdan ketish, affektlar, bosh og‘rig‘i, uyqusizlik[2].

Stress xolatini yengish kunikmalarini maksadga yo‘naltrilgan tarzda shakllantrish, faoliyat vazifalarini muvaffakiyatli xal kilish manbaidir Insonda stressning namoyon bo‘lishi, uning sog‘lig‘i va faoliyatiga salbiy ta’siridan saklanish uchun maxsus psixologik bilimlarni egallashni talab etiladi.

Ta’lim tizimining turli bosqichlarida o‘quvchi va talabalar hamda pedagog xodimlar nazorat oldidan stress holatidagi nimadandir xavotirlanishini ko‘rishimiz mumkin. Xavotirlanish bir–biriga bog‘liq bo‘lgan, lekin boshqa-boshqa ma’noni anglatuvchi ikki tushuncha sifatida qo‘llanadi:

1. Xavotir shaxsning zo‘riqish, bezovtalanish, qayg‘uli hissiyotlarga berilishi, fiziologik tomondan esa avtonom nerv sistemasi aktivasiyasi bilan xarakterlanuvchi noxush emosional vaziyat

ISSN: 2992-9210

yoki ichki holatni ifodalaydi. Xavotir holati qachonki individ belgilangan vaziyatda o‘ziga xavf, tahdid, ziyon keltiruvchi elementlar borligini his qilganda paydo bo‘ladi.

2. Xavotir – individning ushbu holatni his qilishga moyilligini ifodalaydi. Bu yerda xavotir shaxsning xususiyatini anglatadi. Shaxs xususiyati sifatidagi xavotir hatti–harakatda to‘g‘ridan–to‘g‘ri namoyon bo‘lmaydi. Lekin uning darajasini individda xavotir holati qanchalik tez va kuchli paydo bo‘lishidan kelib chiqqan holatda aniqlash mumkin. Xavotir holati ifodalangan shaxs, masalan nevrotik shaxs, xavotir holati past darajada ifodalangan shaxsga nisbatan bizni o‘rab turgan olamni kuchli darajada xavf, tahdid keltiradi deb qabul qiladi. Xavotirlik darajasi kuchli individlar xavotirlik darajasi past individlarga nisbatan stress ta’siriga ko‘proq duchor bo‘ladi va xavotirni holatini kuchliroq va ko‘proq his qilishadi.

Xavotir holatida qayt qilish, terlash, tremor va kutilmaganda ajratib chiqaruvchi funksiya nazoratining yo‘qolishi kabi ob’yektiv jismoniy o‘zgarishlar va nafas olish qiyinlashishi, tomoq va ko‘krakning qisilish hissi, yurakning tez urishi, bosh aylanishi va og‘iz qurishi kabi sub’yektiv simptomlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlarning asosida belgilangan fiziologik mexanizmlar yotadi: mushaklarda qon yurishining (krovotok) oshishi, teri qon yurishining kamayishi, yurak qisqarishi tezligi va mushaklarda qon bosimining oshishi, mushaklar aktivligining oshishi va sulak ajralishining kamayishi.

Psixosomatik simptomlar rivojida stressga ta’sirchanlikning individualligi muhim faktor hisoblanadi. Stress faktorlarga xavotir bilan javob qaytarishga moyil shaxslarda uzoq davom etadigan psixofiziologik reaksiyalar shubhasiz psixosomatik kasalliklar rivojiga olib keladi.

Yuqori darajali xavotir bilan yaxshi natija ko‘rsatuvchi hamda ehtiyojlarga va boshqalarning hissiyotiga ta’sirchan bo‘lmagan shaxs yuqori darajada birdamlikni talab etadigan jamoaviy imtixonga yoki liderlik roliga munosib nomzod emas.

Xavotir – bu shaxsning vaziyatning fizik va ijtimoiy xavfliligini oshirishga moyilligi va bu orqali salbiy emosional holatlarni his qilish (qo‘rquv, xavotir, notinchlik va b.). Bu shaxs xususiyati jang mobaynida shaxslarda xavotirlanish reaksiyasi jadalligini ma’lum darajada chegaralaydi. Xavotir holati har doim ham shaxs uchun keraksiz, degani emas. Xavotir reaksiyasini organizmning zo‘riqishga moslashishining tabiiy jarayoni, deb qarash kerak. Bu reaksiyaning belgilangan darajadagi jadalligi ijobiy, faqat haddan ziyod xavotir keraksiz bo‘lib, faoliyat yomonlashishiga olib keladi. Shuning uchun shaxslarning psixik holati dinamikasi bilan xavotirga moyillikning kuchli ifodalanishi ustidan doimiy nazorat qilish kerak.

Xavotirning aniq tashqi vaziyat bilan bog‘liq va shaxsning tug‘ma xususiyati bo‘lgan turlari ajratiladi. Xavotir oldindagi qiyinchiliklarning natijasini bashorat qilish kabi, ekstremal vaziyatdan bir kun avval yoki ancha vaqt oldin paydo bo‘ladi: «Attestasiyadan yiqilishimni ko‘nglim sezayapti!». Xavotir holati effektiv faoliyatga intilishning jadalligiga bog‘liq. Motiv kuchi qancha kuchli bo‘lsa, shaxs shuncha xavotirli bo‘ladi. Balki, shuning uchun ko‘pchilik taniqli shaxslar yetarlicha xavotirlidir[3].

Xavotir emosional jarayon sifatida: Xavotirning konseptual vaqtinchalik holat va shaxs xususiyati sifatidagi farqini anglash uchun xavotir tushunchasini jarayonga bog‘lagan holatda ko‘rish lozim. Bu konsepsiyada xavotir insonga turli formadagi stresslar ta’siri oqibatida aktuallashuvchi kognitiv, affektiv, xulqiy reaksiyalar sifatida qaraladi. Bu jarayon shaxs tomonidan xavfli deb qabul qilingan tashqi stressli ta’sirlar yoki ichki manbalar orqali yuzaga chiqadi. Xavfning kognitiv bahosi xavotir holatini yoki ushbu holatning mavjud bo‘lgan intensivligining oshishini olib keladi. Shu tarzda xavotir holati xavotirning umumiy jarayoni tuzilishiga kiritilgan, xavotir konsepsiyasi jarayon sifatida quyidagi komponentni o‘z ichiga oladi:

Stress – xavfni idrok qilish – xavotir holati[4].

ISSN: 2992-9210

Xavotir holatining oshishi individ tomonidan ko‘ngilsizlik sifatida kechirilsada, bu holatga qo‘shilgan kognitiv va hulqiy reaksiyalar paydo bo‘lgan ko‘ngilsizlikni minimallashtirish funksiyasini bajaradi. Paydo bo‘lgan xavotir jarayoni stress holatini qayta baholovchi jarayon bilan kuzatiladi, bu qayta baholash stress kechinmasini yengillatish uchun mos keladigan to‘sish mexanizmini tanlashga, individni xavotirni yuzaga keltiruvchi vaziyatdan chiqarish uchun o‘zini olib qochish misolidagi ba’zi mexanizmlarning aktivlashishiga yordam beradi. Agar stressni yengish yoki undan qochish imkoniyati yo‘q bo‘lsa, xavotir holatini pasaytirish funksiyasidan iborat psixologik himoya mexanizmi ishga tushadi. Bu mexanizmlar: siqish, rad qilish, proyeksiya va boshqalar-xavotirni yuzaga keltiruvchi stimulni idrok qilishni o‘zgartiradi. Xavotirlanish holati quyidagi reaksiyalar ketma- ketma-ketligida namoyon bo‘ladi:

Xavotir holati – kognitiv qayta baholash – to‘sish, qochish va psixologik himoya mexanizmlari. Shaxs ixtiyoriy ravishda bajaradigan harkatini tanlashida o‘zining ishonchi va ishonchsizligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu xarakteristika qabul qilingan qarorning to‘g‘riligiga shaxsning ishonishi yoki ikkilanishi bilan ifodalanadi. Ishonch shaxsni dasturni amalga oshirishga undasa, ikkilanish qabul qilingan qarorni har tomonlama tekshirishga majbur etadi. Oqibatda dasturni amalga oshirish kechikadi. Ishonchlilik darajasi ichki va tashqi faktorlar bilan aniqlanadi. Birinchi navbatda ma’lumotlar: inson qanchalik kam ma’lumotga ega bo‘lsa va dasturni amalga oshirishda variantlar tengdek tuyulsa, u shunchalik kuchli ikkilanishni his qiladi. Ishonchsizlikni kutilmagan vaziyat, yangi sharoit, mahoratning yo‘qligi kabi faktorlar kuchaytiradi. Ishonchsizlikni keltiruvchi ichki (psixologik) faktorlar – xavotir, bir xulosaga kelolmaslik kabi kabi shaxsiy xarakteristikalardir.

Ba’zi o‘ziga yuqori baho beruvchi impulsiv, ehtirosli shaxslarda ishonch o‘ziga yuqori darajada ishonish darajasida o‘zgaradi va bu to‘liq sharoitni va shaxsiy imkoniyatlarni yetarlicha hisobga olmasdan rejalashtirishga olib keladi. Rubenshteynning kuzatishicha: bunday shaxslar o‘zlarini sharoitning boshqaruviga topshiradi va bu ularga mos keladigan natijani keltirishiga ishonishadi. Shuning uchun xavotir va ikkilanishning belgilangan darajasi kerakli hisoblanadi va bu ma’lum darajada xavfsizlikni yaratadi.

Ishonchli hatti-harakatga erishish uchun belgilangan dinamikada harakatlar ketma-ketligini maksimal darajada zo‘r berish bilan bajarish lozim. Bu belgilangan darajada xohish talab etadi va buni yuzaga keltiradi.

Imtixonga yaxshi tayyorlangan shaxs vazifani bajarish oldidan «energiyaning portlash oldi»dagi kabi holatda bo‘ladi. Shaxs imtixon boshlangungacha «yonadi». Imtixon sabrsizlik bilan kutiladi va bunday holatni ko‘pchilik shaxslar hohlashadi.

Boshqa nuqtai nazardan zo‘riqish va stress «psixologik funksiyalanish qulayligi» hissi bilan bog‘liq. Bu «qulaylik»ning sharti lokus kontrolni anglash mexanizmi yaratadi.

Tashqi boshqaruvga bo‘ysinish «psixologik funksiyalanish qulayligi» ko‘rinishini yaratadi, shu bilan birga zo‘riqishni keltiruvchi vaziyatning ta’sir kuchini kamaytirishi, idrok etilgan xavf ta’sirini yo‘q qilishi lozim. Idrok qilinayotgan xavf va faoliyatdagi qiyinchilik stress holatini belgilovchi faktor hisoblanadi[5].

Biz tadqiqot ishimizda psixodiagnostika bo‘yicha olib borgan ishlarimiz stress xolatida psixofizologik reaksiyalar namoyon bo‘lishi turlicha bo‘lishini hisobga olib, o‘ stress xolatida psixofizologik reaksiyalarni muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi, o‘quvchi va talabalarga mo‘ljallangan psixokorreksion dastur ishlab chiqishni rejalashtirganmiz.

ISSN: 2992-9210

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Миронов Е. Стресс. -Москва.: Санкт-Петербург. 2003. 10-бет

2. Roziqova N.A. "Talim jarayonida pedagoglardagi stressga barqarorlikni rivojlantirish". O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2021-yil. 56-bet

3. Radjabov A.A. Stress holatining mamlakatimiz psixologlari tomonidan yoritilishi. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal.–Buxoro, 2023-yil. 309-310-bet.

4. To‘raqulova I. X. Stress holatida shaxs o‘z-o‘zini boshqarishning motivatsion omillarini o‘rganishning psixologik asoslari. «Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an’analar va istiqbollar» mavzuidagi I-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Jizzax, 2023-yil. 15-16-bet.

5. Radjabov A.A. Ijodkorlik pedagogikasi asosida sportchilar faoliyatida stresli kechinmalar va ularni keltirib chiqaruvchi stressorlarning ta’sirini nazariy o’rganilishi. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. -Toshkent. 2024-yil 113-bet.

ISSN: 2992-9210

TALABALARDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ

PSYCHOLOGICAL METHODS OF DEVELOPING INTELLECTUAL ABILITIES AND STUDENTS

Jumaniyazova Zarina Keymirovna

Jumaniyazova Z.K.,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya mutaxasisligi magistranti
1693jumaniyazova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining psixologik usullari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Intellekt tushunchasining psixologik mazmuni, uning tarkibiy qismlari, talabalik davrida intellektual rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar hamda ta’lim jarayonida intellektni rivojlantirishning samarali psixologik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish va talabalarning bilish faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *intellekt, intellektual qobiliyat, tafakkur, bilish jarayonlari, talaba, psixologik rivojlanish, ta’lim muhiti.*

Аннотация. В статье рассматриваются психологические особенности развития интеллектуальных способностей у студентов. Проанализированы сущность интеллекта, его структурные компоненты, факторы, влияющие на интеллектуальное развитие в студенческом возрасте, а также психологические механизмы формирования интеллектуальных способностей в образовательном процессе.

Ключевые слова: *интеллект, интеллектуальные способности, мышление, познавательные процессы, студент.*

Annotation. This article analyzes the psychological characteristics of developing intellectual abilities in students. The essence of intelligence, its structural components, influencing factors, and effective psychological mechanisms for intellectual development in higher education are discussed.

Keywords: *intelligence, intellectual abilities, thinking, cognitive processes, student.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari va raqobatga asoslangan bilim iqtisodiyoti sharoitida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida talqin etilmoqda. Intellektual salohiyatning yuqoriligi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat omili, balki mamlakatning innovatsion rivoji, ilmiy taraqqiyoti va raqobatbardosh kadrlar tizimining barqarorligi uchun ham zaruriy shart hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, intellektni rivojlantirish jarayoni tasodifiy emas, balki psixik funksiyalar tizimi — idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur va metakognitiv nazorat asosida boshqariladigan murakkab psixodinamik mexanizm hisoblanadi. Talabalik davri o‘zining neyropsixologik plastiklik darajasi yuqoriligi, motivatsion yangilanishi va o‘quv faoliyatining intensivligi bilan intellektual rivojlantirish uchun eng samarali davrdir. Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — raqobatbardosh,

mustaqil fikrlovchi, yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat ularning akademik muvaffaqiyatini, balki kelajak kasbiy faoliyatining samaradorligini ham belgilab beradi.

Psixologiya fanida intellekt shaxsning muhim sifatlaridan biri sifatida e’tirof etilib, u bilish jarayonlari, tafakkur operatsiyalari, muammoni hal qilish qobiliyati va moslashuvchanlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Talabalik davri esa shaxs intellektual imkoniyatlarining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli mazkur davrda intellektual qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Mazkur maqola talabalarda intellektual qobiliyatlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning namoyon bo‘lish mexanizmlarini ochib berish hamda oliy ta’lim jarayonida intellektual salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali psixologik shart-sharoitlarni asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy psixologik nazariyalar, shaxs faoliyati yondashuvi, kognitiv rivojlanish konsepsiyalari hamda ta’lim psixologiyasi tamoyillariga asoslanadi. Maqolaning metodologik asosi sifatida shaxs va faoliyat birligi g‘oyasi, rivojlanishning tizimli yondashuvi, kognitiv va metakognitiv jarayonlar haqidagi nazariy qarashlar tanlandi. Ushbu yondashuvlar intellektual qobiliyatlarni faqat tug‘ma imkoniyat sifatida emas, balki ta’lim jarayonida shakllanib boruvchi, psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida rivojlanadigan murakkab psixik tuzilma sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida quyidagi umumilmiy va maxsus psixologik metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil metodi – intellekt, intellektual qobiliyat, kognitiv faoliyat, tafakkur, muammoli fikrlash kabi tushunchalarning ilmiy talqinlarini o‘rganish va umumlashtirishda qo‘llanildi; Taqqoslash va tizimlashtirish metodlari – mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlarini qiyosiy tahlil qilish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qildi;

Psixodiagnostik metodlar – talabalarning intellektual rivojlanish darajasi, mantiqiy fikrlashi, tahliliy va ijodiy tafakkur ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida qo‘llanildi.

So‘rovnoma va test metodlari – intellektual faollik, o‘quv motivatsiyasi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini o‘rganishga yo‘naltirildi;

Statistik tahlil metodlari – olingan natijalarni qayta ishlash, ishonchlilik darajasini aniqlash va xulosalar chiqarishda foydalanildi.

Maqola metodologiyasida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalar intellektual rivojlanishining yosh va individual-psixologik xususiyatlari alohida hisobga olindi. Shuningdek, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning psixologik samaradorligi ham metodologik jihatdan asoslab berildi. Talabalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi psixologiya fanida uzoq tarixga ega bo‘lib, mazkur masala turli ilmiy maktablar va nazariy yondashuvlar doirasida tadqiq etilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, intellekt tushunchasi dastlab aqliy rivojlanish darajasini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkich sifatida talqin qilingan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda u murakkab, ko‘p komponentli psixik tizim sifatida qaralmoqda. L.S. Vygotskiy intellektual rivojlanishni ijtimoiy muhit va ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilib, bilimlarning shaxs tomonidan faol o‘zlashtirilishi aqliy rivojlanishning asosiy manbai ekanligini ta’kidlaydi[1]. Uning fikricha, ta’lim intellektual rivojlanishni ortidan ergashtirmasdan, balki uni oldinga yetaklashi lozim[8].

Klassik psixologiya namoyandalari intellektni shaxsning muammolarni hal etish, moslashuvchan fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati bilan bog‘lab tushuntirganlar. Keyingi tadqiqotlarda esa intellektual qobiliyatlarning tarkibiga tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish, abstraksiyalash kabi

[8] Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982.

ISSN: 2992-9210

tafakkur operatsiyalari kiritilgan. Kognitiv psixologiya vakillari intellektual rivojlanishni bilish jarayonlari – idrok, diqqat, xotira va tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladilar. Ularning fikricha, intellektual qobiliyatlar bilimlarni egallash jarayonida faollashib, muammoli vaziyatlar orqali yanada rivojlanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim bosqichida talabalarning mustaqil fikrlashi, refleksiv yondashuvi va metakognitiv ko‘nikmalarining shakllanishi intellektual rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. S.L. Rubinshteyn esa intellektual qobiliyatlarni shaxs faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, tafakkur va amaliy faoliyat birligiga alohida e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, talabaning intellektual rivojlanishi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi[9].

Mahalliy psixolog olimlar tadqiqotlarida intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi shaxsning motivatsion sohasi, ijtimoiy muhit va ta’lim jarayonining psixologik shart-sharoitlari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Talabaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati, bilim olishga ichki ehtiyoji va intellektual faolligi uning aqliy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta’lim metodlari, muammoli o‘qitish, loyiha faoliyati va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarining psixologik samaradorligi alohida ta’kidlanmoqda. Ushbu yondashuvlar talabalarning nafaqat bilim hajmini oshirishga, balki intellektual mustaqillik, moslashuvchan tafakkur va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. J. Guilford intellektni ko‘p o‘lchamli tuzilma sifatida asoslab, intellektual qobiliyatlar tarkibiga divergent va konvergent tafakkurni kiritadi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, oliy ta’lim jarayonida talabalarda ijodiy va moslashuvchan fikrlashni rivojlantirish intellektual salohiyatni oshirishning muhim omillaridan biridir[3][10].

Xorijiy tadqiqotlarda esa intellektual qobiliyatlarning ko‘p qirrali modeli ilgari surilib, akademik intellekt bilan bir qatorda emotsional va ijtimoiy intellekt tushunchalariga ham e’tibor qaratilgan. Bu yondashuv talabaning intellektual salohiyatini kompleks tarzda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, talabalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ta’lim muhiti va pedagogik-psixologik ta’sirlar uyg‘unligida amalga oshadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu jihatlarni chuqur tahlil qilishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda intellektual qobiliyatlar rivojlanishining asosiy psixologik omillari quyidagilardan iborat: shaxsning o‘quv motivatsiyasi, muammoli vaziyatlarda fikrlash ko‘nikmalari, metakognitiv faoliyati va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati. So‘rovnoma va psixodiagnostik metodlar natijalariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning 68%i yuqori darajadagi muammoli fikrlash ko‘rsatkichlariga ega, shuningdek 72%i metakognitiv strategiyalarni faol qo‘llaydi. Talabalarning intellektual rivojlanish darajasi ularning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokiga bevosita bog‘liqligi aniqlangan. Ayniqsa, interaktiv darslar, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlarda ishlash jarayonlari intellektual ko‘nikmalarni sezilarli darajada oshiradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik metodlar talabalar intellektual salohiyatini 15–20% ga oshirishga xizmat qiladi. Shaxsiy xususiyatlar ham intellektual rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, talabalar orasida o‘z-o‘zini boshqarish va o‘quv motivatsiyasi yuqori bo‘lgan guruhda mantiqiy tafakkur va abstrakt fikrlash darajasi boshqalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu natija, shaxsning ichki intellektual motivatsiyasi va tashqi ta’lim sharoitlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Olingan natijalar xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan uyg‘un keladi. Masalan, Vygotskiyning ijtimoiy muhit va intellektual rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi nazariyasi[1], shuningdek,

[9] Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1976.
[3] Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.

Guilfordning ko‘p qirrali intellekt modeliga[2] mos keladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, talabalar intellektual ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish uchun nafaqat bilim olish, balki o‘rganilgan bilimlarni turli muammoli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari zarur. Shuningdek, tadqiqotda mahalliy olim Olimaxon ta’kidlaganidek[3], intellektual qobiliyatlarni shakllantirishda o‘quv jarayonidagi psixologik faollik va refleksiv yondashuv muhim ahamiyatga ega ekani tasdiqlandi. Talabalar o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan muhitda o‘z-o‘zini boshqarish, mantiqiy va ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi. Bundan tashqari, natijalar ta’lim jarayonida interaktiv va muammoli o‘qitish metodlarini qo‘llash samaradorligini ko‘rsatdi. Talabalar loyiha ishlari, guruh muhokamalari va kritikal fikrlash mashqlari orqali o‘z intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu, shuningdek, Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi[4] bilan ham uyg‘unlashadi: har bir talabada individual intellektual imkoniyatlarni inobatga olgan pedagogik yondashuv samaradorlikni oshiradi.Shuni ta’kidlash joizki, tadqiqot natijalari intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari faqat shaxsiy omillarga bog‘liq emasligini ko‘rsatdi. Ular ta’lim muhiti, pedagogik yondashuvlar va talabaning motivatsiyasi bilan birgalikda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida intellektual rivojlanishni rag‘batlantiruvchi psixologik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Natijalar shuningdek, oliy ta’limda individual yondashuv va differensial pedagogik metodlarning muhimligini tasdiqlaydi. Talabalarning intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida ularning qiziqishlari, o‘quv motivatsiyasi va psixologik holatini hisobga olish samaradorlikni oshiradi. Bu yondashuv, shuningdek, talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish ko‘p omilli tizim bo‘lib, unda kognitiv, metakognitiv, emotsional, motivatsion va ijtimoiy-psixologik komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Intellektning rivojlanishi samarali bo‘lishi uchun ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, kreativ tafakkurni qo‘llab-quvvatlovchi metodlar, metakognitiv monitoring tizimi hamda raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish zarur. Intellektual o‘sishning psixologik mexanizmlari chuqur o‘rganilganda, talabalarning bilish salohiyati oshadi, ular mustaqil fikrlovchi, tahliliy yondasha oladigan, ijodkor shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 352 b.
2. Davletshin M.G‘. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 280 b.
3. Karimova V.M. Ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015. – 304 b.
4. Rahimov R.I. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014. – 296 b.
5. Рубинштейн С.Л. Основы обшчей психҳологии. – М.: Педагогика, 2009. – 720 с.
6. Вигоцкий Л.С. Мышление и реч. – М.: Лабиринт, 2011. – 352 с.
7. Теплов Б.М. Способности и одаренност. – М.: Педагогика, 2010. – 240 с.
8. Ананев Б.Г. Человек как предмет познания. – СПб.: Питер, 2001. – 288 с.
9. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011. – 528 p.
10. Sternberg R.J. The Nature of Human Intelligence. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 512 p.
11. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.
12. Bloom B.S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longman, 1956. – 207 p.

ISSN: 2992-9210

RASMLI HIKOYALARNING BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF PICTURE STORIES IN DEVELOPING CHILDREN’S SPEECH

ЗНАЧЕНИЕ ИЛЛЮСТРИРОВАННЫХ РАССКАЗОВ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ

Qo‘ziyeva Marjona Faxriddin qizi

Qo‘ziyeva M.F.,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya mutaxasisligi magistranti, mquziyeva7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta’lim muassasi tarbiyalanuvchilarining nutq rivojlanishida rasmli hikoya kitoblarini o‘qishining ahamiyati mavjud ekanligini tahlil qiladi. Rasmli hikoya kitoblar bolada vizual tasvir orqali ifodali nutq shakillanishiga yordam beradi.Bevosita ota-onalar hamda tarbiyachilar tomonidan rasmli hikoyalarni ovoz chiqarib o‘qishi bolaning lug‘at boyligini sezirarli darajada kengaytiradi. Bola nutqining rivojlanishi ijtimoiy muloqatga bevosita aloqadorligi, nutqni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi faktorlar hamda nutq buzilishlari kabi muommolar dolzarb mavzulardan biri ekanligi to’g’risida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq, ota-ona, tarbiyachi,abstract tafakkur, rasmli hikoya, Grammatik tuzilma, faktorlar.*

Annotation. This article analyzes the significance of reading illustrated storybooks in the speech development of preschool children. Illustrated storybooks help children develop expressive speech through visual imagery. Reading illustrated stories aloud by parents and educators considerably expands the child’s vocabulary. The article highlights that the development of a child’s speech is directly related to social communication, and discusses factors influencing speech development as well as issues such as speech disorders, which remain among the current and important topics.

Keywords: *speech, parent, educator, abstract thinking, illustrated story, grammatical structure, factors.*

Аннотация. Данная статья анализирует значимость чтения иллюстрированных рассказов для развития речи воспитанников дошкольных образовательных учреждений. Иллюстрированные книги помогают ребёнку формировать выразительную речь посредством визуальных образов. Чтение рассказов с картинками вслух родителями и воспитателями существенно расширяет словарный запас ребёнка. В статье освещается, что развитие речи ребёнка напрямую связано с социальным общением, рассматриваются факторы, влияющие на речевое развитие, а также такие актуальные проблемы, как речевые нарушения.

Ключевые слова: *речь, родители, воспитатель, абстрактное мышление, иллюстрированный рассказ, грамматическая структура, факторы.*

Kirish. Erta bolalik yillarini o‘z ichiga olgan maktabgacha ta’lim davri, bolaning tug‘ilgan kundan boshlab maktabga qadar davom etadigan hamda shaxs hayotida muhim rol o‘ynaydigan ko‘nikmalar shakllanadigan davr hisoblanadi. Bu davr, ayniqsa, til ko‘nikmalarining rivojlanishi nuqtai nazaridan eng muhim yillar sifatida baholanadi. So‘z boyligi past bo‘lgan bolalar maktabga

ISSN: 2992-9210

boshlanganda o‘qish jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin[11] (Ergin, 2020). Shu sababli maktabgacha yoshdagi, ayniqsa past ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi bolalarning til rivojlanishiga oid ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlash muhim masaladir. Keng va boy tilning qo‘llanilishi hamda so‘z boyligini rivojlantiruvchi kognitiv jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi suhbatlar eng ko‘p kitob o‘qish jarayonida yuz beradi[12]. bolalarga kitob o‘qib berish til rivojlanishi uchun foydalidir; ota-onalar bolalariga kitob o‘qish vaqtida ishlatadigan boy til bilan bolalarning til rivojlanishi o‘rtasida mazmunli bog‘liqlik mavjud. O‘qituvchilar ham ota-onalar kabi bolalarning til rivojlanishi uchun muhim model hisoblanadi va maktabgacha ta’limda bolalarning til ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlovchi eng muhim faoliyatlar – bu kitob o‘qish faoliyatlaridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda boy til qo‘llanilgan kitob o‘qish mashg‘ulotlari bolalarning til rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro muloqotning ko‘paytirilishi va ta’lim muhitining so‘z bilan boyitilishi bolalarning so‘z boyligi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘proq so‘z eshitgan bolalar ko‘proq so‘z o‘rganadi va ularning so‘z boyligi kengaygani sari yangi so‘zlarni o‘zlashtirishlari osonlashadi[13].

Bolalar bilan birgalikda o‘tkaziladigan kitob o‘qish mashg‘ulotlari bolalarning til ko‘nikmalari va savodxonlik malakalarining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu mashg‘ulotning sifati kattalarning aralashuvi bilan belgilanadi. Mashg‘ulot davomida bolalarga savollar berish, hikoyani yarimta qoldirib bolaga davom ettirishni taklif qilish, so‘zlarning ma’nosini tushuntirish — bularning barchasi bolalarning qabul qiluvchi va ifodalay oluvchi til rivoji uchun juda muhimdir. Natijada bolalar yangi so‘zlarni o‘rganadilar va bilmagan so‘zlarining ma’nosini ham tushunib boradilar. Kitob o‘qish mashg‘ulotlari tufayli bolalarning so‘z boyliklarida ham katta o‘sish kuzatiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Rasmli hikoya kitoblari bolalar adabiyotining muhim qismidir. Whitehurst tomonidan o‘tqazgan tajribasida olti hafta davomida har kuni 10 daqiqa davomida o‘qish mashg‘ulotlari uzliksiz davom ettirilgan. Boshqa guruh esa, nazorat guruhi deb atalib, 10 daqiqa davomida o‘yin faoliyati o‘tqazilgan. Tadqiqotning yakunida, ya’ni olti oydan so‘ng, o‘qish amalga oshirilgan guruhdagi bolalarning so‘z boyligi har kuni o‘yin mashg‘uloti bilan shug‘ullangan bolalarga nisbatan sezirarali darajada o‘sgan ekanligini aniqlangan[14]. Olimlarning aniqlashiga ko‘ra, rasmli hikoyalar o‘qib berish vaqtida bolalarga savollar berishi, ularni ko‘proq gapirtirib, nimani tushunayotganligini aniqlab olish nihoyatda muhim ekanligi ham aniqlangan. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga hikoyalar o‘qib berish jarayonida, “qachon”, “qayerda”, “nima uchun” kabi savollarning berilishi bolalarning so‘z ma’nolarini yanada yaxshi o‘rganishiga zamin yaratadi.

Ota-onalar, tarbiyachilar va bolaning yaqin atrofidagi kattalar rasmli hikoya kitoblarini tanlayotganda juda ehtiyotkor bo‘lishlari kerak; chunki rasmli hikoya kitoblari bolalarning ijtimoiy-emotsional, til, xarakter va ijodkorlik kabi ko‘plab rivojlanish sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan juda ko‘plab rasmli hikoya kitoblari mavjud bo‘lib, ularning yosh va rivojlanish darajasiga qanchalik mosligi, zarur jismoniy, mazmuniy va tasviriy xususiyatlarga ega-emasligi bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar bor. Sheker va Jam (2021) o‘z tadqiqotlarida 2000–2020 yillar orasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan rasmli hikoya kitoblarini ichki va tashqi tuzilishi jihatidan tahlil qilganlar. Ular tadqiqotda tasviriy usuldan foydalangan va adabiyot sharhi ko‘rinishida olib borgan. Tadqiqot yakunida ular hikoya kitobini tahlil qilishdan foydalanib, 50 ta hikoya kitobini ko‘rib chiqqanlar. Ular qo‘llagan tahlil formasida kitobning bibliografik ma’lumotlari, ichki tuzilishiga va tashqi ko‘rinishiga doir bandlar mavjud. Kitoblar bo‘yicha xususiyatlar “ha, yo‘q, qisman” tarzida belgilangan. Tadqiqot yakunida 50 ta kitobning 2 tasida muallif

[11] E.Ergin “Erken çocuklukta dil gelişimi” Ankara 2020
[12] D.K.Dickinson, M.W.Smith “Book reading and language development” 1994y
[13] B.Hart, T.Risley “Meaningful differences in the everday experience of young children” 1995y
[14] G.J.Whitehurst “Accelerating language development through picture book reading” 1994y

ISSN: 2992-9210

ismi ko‘rsatilmagani, 44 tasida esa yosh guruhi belgilanmagani aniqlangan. Kitoblarning barchasida harf va shrift qoidalariga rioya qilingani, 44 kitobda ishlatilgan til bolalarning rivojlanish darajasiga mos ekani qayd etilgan. Shuningdek, kitoblarning 9 tasida do‘stlik, 10 tasida sevgi, 6 tasida esa o‘z-o‘ziga ishonch (o‘z yetarlilik) mavzulariga o‘rin berilgani aniqlangan. Shunga o‘xshash boshqa bir tadqiqotda esa Go‘nen, Aydos, Shenturk, Karacan, Kahraman va Tuna (2013), 3–6 yoshdagi maktabgacha bolalar uchun yozilgan 228 ta rasmli hikoya kitobini mazmuni va jismoniy xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilib, kitoblardagi kamchiliklarni aniqlashni maqsad qilganlar.

Natija va muhokama. Bolalarning nutqini rivojlanishida interaktiv o‘qitish bilan birga, bolaning oilaviy muhiti, ota-onasining bolaga e’tibori, ota-onalarning bolaga munosabati nihoyatda muhimligi aniqlangan. Aynan shuning uchun, A.Y.Varga va V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan ota-onalarning bolaga munosabati so‘rovnomasi yordamida bolaning nutq rivojlanishiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz. Mazkur so‘rovnoma orqali tarbiyaviy yondashuv, emotsional bog’liqlik, himoya va qattiq qo‘llik darajalari aniqlanadi. Bu so‘rovnomani 30 nafar tayyorlov guruhidagi bolalarning ota-onalarida o‘tqazdim.



Hamda ushbu bolalarning nutq rivojlanishini metodika orqali tekshirib ko‘rdim. Bu metodika orqali bolaning 1-so’z boyligini baholanadi.2-Grammatik tuzilmani baholanadi. 3-Nutqning mantiqiyligini baholanadi. 4-Nutq faolligi baholanadi. Bu metodikaning 4 ta shkalasi mavjud bo’lib, ushbu shkalalarni aniqlash uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

ISSN: 2992-9210



Bunda bu ikkala metodika o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning mavjudligini Pearson Korrelyatsiyasiya tahliliga qo‘yildi.

A) Ota-onaning qabul qilishi bilan bog‘liqligi:			
Bog‘liqlik	R	p	Izoh
Qabul qilish-so‘z boyligi	0.47	0.02	O‘rtacha ijobiy bog‘liqlik
Qabul qilish-Grammatik tuzilma	0.41	0.04	Ijobiy
Qabul qilish-umumiy ball	0.52	0.000.9	Kuchli ijobiy

Xulosa: Qabul qiluvchi ota-ona → bolada yaxshi lug‘at, grammatik tuzilma va umumiy nutq balli.

B) G‘AMXO‘RLIK bilan bog‘liqligi:			
Bog‘liqlik	R	p	Izoh
G‘amxo‘rlik ↔ So‘z boyligi	0.35	0.06	(yaqin)
G‘amxo‘rlik ↔ Mantiqiy nutq	0.44	0.03	
G‘amxo‘rlik ↔ Umumiy ball	0.46	0.02	

Xulosa: G‘amxo‘rlik → bolada mantiqiy nutq va umumiy ball oshadi.

C) Erkalatish bilan bog‘liqligi:			
Bog‘liqlik	R	p	Izoh
Erkalatish ↔ So‘z boyligi	0.11	0.58	
Erkalatish ↔ Faollik	0.33	0.08	(yaqin)

ISSN: 2992-9210

Erkalatish ↔ Umumiy ball	0.20	0.34	

Xulosa: Erkalatish bolaga kuchli ta’sir qilmaydi, ammo biroz faollikni oshiradi.

D) Ishonch bilan bog‘liqligi:		
Bog‘liqlik	R	P
Ishonch ↔ So‘z boyligi	0.49	0.01
Ishonch ↔ Grammatik tuzilma	0.44	0.03
Ishonch ↔ Umumiy ball	0.51	0.01

Xulosa: Ishonch bildirilgan bolalarda nutqning barcha ko‘rsatkichlari yuqoriroq.

E) Agressiya bilan bog‘liqligi;		
Bog‘liqlik	R	p
Agressiya ↔ So‘z boyligi	–0.43 0.03	0.03
Agressiya ↔ Grammatik tuzilma	–0.29 0.12	0.12
Agressiya ↔ Mantiqiy nutq	–0.45	0.02
Agressiya ↔ Umumiy ball	-0.48	0.48 0.01

Xulosa: Agressiya → nutq rivojlanishini pasaytiradi (ayniqsa lug‘at va mantiqiy nutq).

SIFAT (KONTENT) TAHLILI: Ijobiy oilaviy munosabatlar guruhi (Qabul qilish, G‘amxo‘rlik, Ishonch ballari yuqori bo‘lgan oilalar)

Bu bolalarda:

So‘z boyligi yuqori, Grammatik tuzilma ancha to‘g‘ri, mantiqiy nutq izchil.

Masalan: Baxtibek, Shaydo, Safiya, Ibroxim → nutq rivojlanishi yuqori.

Ular oilalarida “Ishonch”, “G‘amxo‘rlik”, “Qabul qilish” ballari yuqori.

Salbiy munosabatlar guruhi (Agressiya va past qabul qilish ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lgan oilalar). Bu bolalarda: Nutq faolligi past, so‘z boyligi cheklangan, mantiqiy nutq sust.

Umumiy ball past, Misollar: Marjona, Otabek, Fayozbek ularning nutq ko‘rsatkichlari past bo‘lib, ota-ona munosabatida tajovuz, qo‘pollik, past ishonch kuzatildi.

Oraliq natijalar (Qabul qilish va G‘amxo‘rlik o‘rtacha, lekin Erkalatish yuqori bo‘lgan oilalar). Umumiy ball o‘rtacha-yuqori ko‘rsatkichlari bo‘lgan bolalar: Shaxzoda, Munisa, Farangiz

ISSN: 2992-9210



Ushbu korrelyatsiya matrisasida ranglarning tahlili: Yashil / sariqga yaqin → yuqori musbat korrelyatsiya (qo‘shimcha ta’sir kuchli)

Ko‘k / moviy → past yoki yo‘q bog‘liqlik

To‘q binafsha / qora → manfiy korrelyatsiya (bitta ko‘rsatkich ko‘tarilganda ikkinchisi pasayadi)

Musbat bog‘liqlik aniqlangan (≈0.30–0.55):

Bu shuni anglatadiki: Ota-onaning mehribonligi, ishonchi va qo‘llab-quvvatlashi bolaning nutq rivojiga ijobiy ta’sir qiladi.

Manfiy bog‘liqlik kuzatilgan (≈ –0.20 – –0.45):

Bu shuni anglatadi:

Agressiv munosabat bolada nutq faolligi va umumiy rivojlanishni pasaytiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolaning nutq rivojlanishida rasmli hikoyalarning o‘rni nihoyatda kattadir. Ota-onalar kitoblarni tanlashda kitobning mazmuniga, tarbiyaviy-ta’limiy jihatiga, kitob hajmiga, muqovasiga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Bolalar kitobdagi hikoyalarni ham eshitib ham o‘qishi natijasida, bolalarda fikrlarini batafsil ifodalash, lug‘at boyligini orttishi kuzatiladi. Rasmli hikoyalar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi. Hamda obrazli tafakkur, xotira va tasavvur jarayonlarining rivojlanishiga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar davomida, rasmli hikoyalar bolalarning monoilogik va diologik nutq rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi.

ISSN: 2992-9210

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Ergin “Erken çocuklukta dil gelişimi” Ankara 2020
2. D.K.Dickinson, M.W.Smith “Book reading and language development” 1994 y.
3. B.Hart, T.Risley “Meaningful differences in the everday experience of young children” 1995y
4. G.J.Whitehurst “Accelerating language development through picture book reading” 1994y
5. L.S.Vygotskiy “Nutq va tafakkur” Moskva-1982-yil.
6. A.A.Leontev “Psixolingvistika asoslari” Moskva-1999-yil.
7. D.N.Bay “ Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq rivojlanishi” turkiya-2011-yil.
8. S.Jalilova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining psixologik xususiyatlari” Toshkent-2018-yil.
9. F.R.Qodirova “Maktabgacha pedagogika” Toshkent-2016-yil
10. C.E.Snow, M.S.Burns, P.Griffin “Preventing Reading Difficulties in Young Children” Washington-1998-yil.
11. D.B.Elkonin “Bolalar nutqining rivojlanish psixologiyasi” Moskva-1989-yil
12. F.Gunesh “Bola adabiyoti va o‘qish madaniyati” Ankara-2014-yil.

ISSN: 2992-9210

Samarqand davlat pedagogika institutining “Fan va ta’lim integratsiyasi” jurnali tahririyati tomonidan tahrirdan o‘tkazildi va chop etishga tavsiya etildi (20.12.2025).

https://journals.samdpi.uz/

2025-yil 20-dekabrda chop etishga ruxsat berildi:
Qog‘oz bichimi 60×84$_{1/16}$. “Times New Roman” garniturasi.
Elektron usulda chop etildi. Shartli b.t. 20,9. Adadi 100 nusxa.

Samarqand davlat pedagogika institutida onlayn chop etildi.
Manzil: 140100, Samarqand sh., Spitamen shoh ko‘chasi, 166-uy.